“Qasamyod” hikoyasida Abdurauf Fitratning Buxoro xalq respublikasi tuzilib, yangi hukumat raisi o‘rinbosari va maorif xalq komisari etib tasdiqlangan kunlarida hukumat raisi Fayzulla Xo‘jaevga iste’dodli yoshlarni Germaniyaga o‘qishga jo‘natish taklifini berishi tasvirlanadi. O‘sha davrda Yevropaning ilm-texnikasi bilan eng ilg‘or davlati hisoblangan Germaniyaga Turkistondan jo‘natiladigan talabalar ro‘yxati ikki oy deganda tuziladi. Musulmon odatiga ko‘ra har bir farzand olis yoki yaqin yo‘lga chiqishdan avval marhum ota-onasining qabrlarini ziyorat qiladi. Fitrat ham yoshlarni Samarqandga Go‘ri Amirni ziyorat qilish uchun olib boradi. Uning nazarida ushbu yoshlarning bobokaloni Amir Temur edi. Talabalarga Fitrat Istambulga 1909-1913 yillarda o‘qishga borgan paytida “shayton arava” – velosipedda dunyo bo‘ylab safarga chiqqan yapon yigiti No Kamo bilan suhbatini so‘zlab beradi. Yapon yigitidagi milliy g‘urur, kelajakka ishonch tuyg‘usining baland ekanini so‘zlarkan, undan ibrat olishga chaqiradi. O‘zbek millatining shon-shavkatini dunyo bo‘ylab shunday ko‘tarinki, kelajakda dunyoga keladigan farzandlaringiz shu millatga mansub bo‘lganidagn faxrlansin, deydi. Lekin Fitratning bu ulug‘ orzusi ushalmadi. Mustabid davlat 1922 yilda Germaniyaga o‘qishga yuborilgan talabalarning 1924 yildayoq sobiq Ittifoqqa qaytishini qat’iy talab qildi. Kimki shu yili yoki keyin, o‘qishni bitirib qaytgan bo‘lsa, 1937 yilda Germaniyaning josusi sifatida otib tashlandi. Yoki sovuq yurtlarga surgunga jo‘natildi. Ularning bir qismi esa Turkiyada, qolgan qismi Yevropa mamlakatlaridan boshpana topishni afzal bildi.

Xullas N.Karimovning yuqoridagi voqeiy hikoyalari mazmun-mohiyatida qatag‘onga asoslangan sho‘ro siyosatining ijodkor ustida hukmronligini o‘rnatish borasidagi jinoyatlari haqida fikr mujassam. Ushbu hikoyalarni o‘qigan kitobxon ko‘z o‘ngida umrni xalq baxti, erki, ozodligi yo‘lida fido etgan ziyoli

bobolarimizning yorqin siymosi namoyon bo‘ladi. Mustaqillikning bebaho ne’mat ekani, uni avaylab asrash muqaddas burch ekanini yanada teran anglaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov N. Bu ajib dunyo. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.

2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008.

3. Sabirdinov A. “Analysis of the poem “Autumn dreams” by Abdulla Oripov”. The American journal of social science and education innovations. Volume 03. Issue 01. 01/31/2021. Issn 2689-100X. Impact factor 5.857. Crossref doi 10 37547/tajssei. P. 556-559.

4. Sabirdinov A. Inerpretation of characters in Utkir Hoshimov’s story “Yanga”. International journal of multicultural and multireligious understanding. Volume 8. Issue 5. May 21, 2021. P. 196-200.

5. Hamidov M. Artistic features of Shukrat’s novel “Mashrab”. “Actual problems and solutions of modern philology”. Collection of materials of the international online conference. ISSN 2364-5369. 7 december, 2020 ear. № 13601. P. 125-129.

ABDULLA QODIRIYNING MILLIY RUH TARBIYASIGA DOIR KONSEPSIYASI

Nurboy Jabborov,
filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani muallifning millliy ruh tarbiyasiga doir konsepsiyasi nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan. Muallifning fikricha, “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruh quyidagi uch tamoyil asosida namoyon bo‘lgan: 1) millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an’analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; 2) millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) asarda milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suvratlanishi. O‘z navbatida, bu tamoyillardan birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e’tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qilishi haqida tahliliy fikrlar bildirilgan. Romanda milliy ruh ifodasi va badiiy mahorat yuksak darajada uyg‘unlashgani aniqlangan.

Kalit so‘zlar: roman, milliy ruh, millat axloqi, e’tiqod, iroda, milliy ozodlik, badiiy tasvir, so‘z qo‘llash mahorati, ifoda, ijod konsepsiyasi, adabiy-estetik mezon, badiiy talqin.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роман Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» с точки зрения авторской концепции воспитания национального духа. По мнению автора, национальный дух в романе «Минувшие дни» выражается на основе следующих трех принципов: 1) интерпретация уникальных обычаев, традиций, ценностей, мечтаний и стремлений народа, воплощающих дух народа; 2) выражение потенциала нации видеть себя в самокритичном духе; 3) поэтическое изображение в произведении устоявшихся верований, свойственных национальным личностям. В свою очередь, были высказаны аналитические взгляды на то, что первый из этих принципов воплощает мораль нации, второй – ее волю, а третий – ее веру, и что эти три вместе составляют национальный дух. Роман представляет собой глубокое выражение национального духа и художественного мастерства.

Ключевые слова: роман, национальный дух, национальная мораль, вера, воля, национальная свобода, художественное изображение, мастерство употребления слова, выражение, творческая концепция, литературно-эстетический критерий, художественная интерпретация.

ANNOTATION

The article analyzes Abdullah Kadiri's novel "Days Gone By" from the point of view of the author's concept of fostering the national spirit. According to the author, the national spirit in the novel "Days Gone By" is expressed on the basis of the following three principles: 1) interpretation of the unique customs, traditions, values, dreams and aspirations of the people, embodying the spirit of the people; 2) expression of the potential of the nation to see itself in a self-critical spirit; 3) poetic representation in the work of established beliefs peculiar to national personalities. In turn, analytical views were expressed that the first of these principles embodies the morality of the nation, the second – its will, and the third – its faith, and that these three together constitute the national spirit. The novel is a deep expression of the national spirit and artistic skill.

Keywords: novel, national spirit, national morality, faith, will, national freedom, artistic representation, mastery of the use of words, expression, creative concept, literary and aesthetic criterion, artistic interpretation.

Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg‘uning ta’sir kuchi bo‘lmaganidek, milliy ruhdan mosivo tafakkur ham qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko‘ra, milliylik – adabiyotning asosiy mezoni. Ta’bir joiz bo‘lsa, jahon badiiy-estetik tafakkuri ko‘rigida o‘zbek adabiyotini ajratib ko‘rsatuvchi bosh xususiyat, o‘zgalardan farqini namoyon etadigan asosiy belgi bu – milliy ruhdir. Ta’kidlash kerakki, milliy ruh ifoda etilgani asarning umumbashariy ahamiyatini zinhor pasaytirmaydi, aksincha jahon adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lish imkonini yanada oshiradi. Shunga ko‘ra, jahondagi har bir xalq adabiyotining eng sara namunalari milliy ruh ifodasi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etilishi zarur. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar muayyan millat adabiy-estetik tafakkurining boshqa hech bir xalq adabiyotida uchramaydigan o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, adabiy jarayonga tatbiq etish va rivojlantirish imkonini berishi jihatidan ham qimmatlidir. XX asr o‘zbek adabiyotida ana shu mezonga javob bera oladigan asarlardan biri, ta’kidlash mumkinki, hatto birinchisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidir.

Ushbu roman bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Bahodir Karimov, Uzoq Jo‘raqulov kabi adabiyotshunoslar ilmiy ishlarida ushbu roman misolida milliy ruh talqini masalasiga u yoki bu darajada e’tibor qaratilgan. Biroq bu ilmiy muammo alohida tahlilga tortilmagan. Ushbu maqola shu yo‘nalishdagi kamtarin bir urinishdir. Tabiiyki, ushbu mo‘jaz tadqiqot alohida ahamiyatga ega bu ilmiy muammoni to‘liq hal etishga da’vo qilmaydi. Bu boradagi ilmiy izlanishlarni muttasil davom ettirish hamda takomilga etkazish – kelajakning ishi.

“O‘tkan kunlar”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Mark Riz e’tiroficha: “...asarning darajasini baholash mezoni madaniyati, tili yoki u yaratilgan davrdan qat’i nazar, buyuk yozuvchi o‘z fikrlarini butun bashariyatga, har birimizga etkazib bera olishidir. Shuning uchun ham bu jahon adabiyoti deyiladi... Qodiriy ana shu marrani bosib o‘ta oldi. Aytishim mumkinki, “O‘tkan kunlar” juda boy va tugal roman bo‘lib, unda G‘arb o‘quvchisi uchun yangilik bo‘lgan turfa xil an’analar tasviri, terminlar va tarixiy davrga xos hikoyalar juda ko‘p. Bu esa ayni paytda yuz berayotgan jarayon – O‘zbekistonni dunyoga yaqindan tanitish borasida ham katta ahamiyatga ega” [2, 4].

Asarning amerikalik tarjimon e’tiborini tortgan asosiy fazilati milliy ruhning betakror talqini ekani ayon. Chunki “O‘tkan kunlar” aynan millatning o‘ziga xos hayot tarzini, betakror urf-udumlarini, axloqini, orzulariyu armonlarini ifoda etgani jihatidan dunyo adabiyoti namoyandalari e’tirofini qozonayotir. Tarjimonning *““O‘tkan kunlar” juda boy va tugal roman bo‘lib, unda G‘arb o‘quvchisi uchun*

yangilik bo‘lgan turfa xil an’analar tasviri” berilganini ta’kidlashi zamirida ham ana shu haqiqat mujassam.

Milliy ruh betakror ifodalangan ushbu romanning ingliz tiliga tarjimasi kitob holida nashr etilgach, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovga maktub yo‘llagan Mark Riz mana bunday yozadi: “...men ayni paytda ingliz tiliga tarjima qilib tugatgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ***Markaziy Osiyo va jahon adabiyotida o‘xshashi yo‘q asar***dir... O‘n besh yil mobaynidagi ish jarayonida nafaqat adib tiliga xos nozik jihatlarni, balki 1938 yilda uning qatag‘onga uchrashi va o‘limiga sabab bo‘lgan, asarlariga jo etilgan ***chinakam milliy ruhni*** (*Barcha ta’kidlar bizniki – N.J.*) ilg‘ashga muvaffaq bo‘ldim” [7].

Savol tug‘iladi: muayyan ijodkor asarlarida milliy ruh qanday tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi? Bizningcha, ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an’analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; 2) millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suvratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e’tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi. Milliy ruhning asosi sanalgan bu uch xususiyat bir asar doirasida poetik sintezlashuvi, istisnosiz, fenomenal poetik hodisa deb baholanishga loyiqdir. Aksar asarlarda bu xususiyatlardan biri yoki ikkitasi tajassum topgani kuzatiladi. Shunga ko‘ra, milliy adabiyotimiz tarixidagi kamdan-kam asar ana shu adabiy-estetik mezonga to‘liq javob berishi mumkin. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani shunday noyob asarlardan biridir.

Millat axloqining badiiy talqini. Ruhsiz vujud tirik deb hisoblanmagani singari milliy ruhdan ayri holda millat ham, milliy adabiyot ham mavjud bo‘la olmaydi. Milliy ruhning asosini millat axloqi tashkil etadi. O‘rta asrlar adibi Al-Johiz “Fazoyili atrok” (“Turkiylarning fazilatlari”) asarida ajdodlarimizning ***nomusli, yuragi toza, yovuz o‘y va botil fikrdan xoli*** insonlar bo‘lganini; na jangda, na tinch payti ***hiyla bilmaganini, fursatdan foydalanmaganini; o‘zi ham, so‘zi ham to‘g‘ri ekanini; birovning moliga xiyonat qilish, ikkiyuzlamachilik, kibru havo, kattalarga hurmatsizlik ko‘rsatish ularning tasavvuriga ham sig‘magan***ini ta’kidlaydi [1, 25]. Bu hol Yaratganning o‘zi millatimizni komil axloq bilan siylaganiga dalil emasmi?! “O‘tkan kunlar”da millatga xos shu singari fazilatlar ularning ziddi bo‘lgan xususiyatlar bilan o‘zaro qarama-qarshilikda mukammal badiiy talqin etilgani kuzatiladi.

“O‘tkan kunlar”ning bosh qahramoni Otabek – oriyatli, rostgo‘y, halol, jasoratli va millatparvar shaxs. Buning ustiga, u zamona ahvolidan xabardor, ochiq fikrli yigit. Ushbu fazilatlar unga qondan, aslida, o‘zi mansub millatning tiynatidan

o‘tgan va oilaviy muhit ta’sirida kamolga etgan. Romandagi *“Xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa bo‘lsin uzoq so‘zlashib o‘lturmaydigan”* [8, 147] Yusufbek hoji o‘zbek oilasidagi otaning mukammal timsoli. Oila a’zolarining unga munosabati shundan kelib chiqadi. Qodiriyning yozishicha: *“Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birortasining so‘zlari va yo kengashlari bo‘lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so‘zlay beradirlar; maqsad aytib bitkandan so‘ng sekingina ko‘tarilib uning yuziga qaraydirlar”* [8, 148]. Oilaboshining yuziga tik qaramaslik – bugungi kunda kamyob hodisaga aylangan bo‘lsa ham, avvalda millat axloqining asosi bo‘lgan. Oiladagi muhitni sog‘lom saqlashda favqulodda ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro hurmatning bu darajaga ko‘tarilishida bosh omil, shubhasiz, Yusufbek hojining Xudo bergan tabiatidir: *“Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uchini o‘z og‘ziga tikiltirib o‘lturg‘andan so‘ng, agar ma’qul tushsa “xo‘b” deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa “xo‘sh” deydir, noma’qul bo‘lsa “durust emas” deydir va juda ham o‘ziga noma’qul gap bo‘lsa bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe’liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko‘pincha bir og‘iz javob olish bilan kifoyalanadirlar”* [8, 148].

Har qanday masalada etti o‘lchab bir kesadigan, shu bois oilada ham, jamiyatda ham munosib mavqega ega Yusufbek hoji va uning yolg‘iz o‘g‘li Otabekning o‘zaro munosabatlari romanda milliy axloqning obrazdagi yorqin suvratlanishiga misol bo‘la oladi. Har ikkalasi ham vatanparvar, millatparast, el g‘amini o‘z g‘ami deb his etadiganlardan. Shu sababli nogahon qipchoq qirg‘iniga guvoh bo‘lgan Otabek qattiq iztirob chekadi. Yurt so‘rab turgan amaldor otasini bu qabohatning ishtirokchilaridan deb gumon qilib, bir alami ming bo‘ladi. Ota-o‘g‘il o‘rtasidagi ochiq muloqotgina bu masalaga oydinlik kiritadi. *“O‘zing o‘ylab ko‘r, o‘g‘lim, – deydi ozor chekkan ota, – o‘z qo‘limiz bilan o‘zimiznikini kesishdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirok qilg‘an bo‘lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo‘shilishqan bo‘laman? Agarda manim yurt so‘ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo‘lsa, boshqalardan ham ko‘ra o‘z o‘g‘limga – senga ma’lum bo‘lmasmidi? Nega har bir narsaga etgan aqling shunga qolg‘anda oqsaydir? Nega yong‘an yuragimga sen ham zahar sochasan?”* [8, 300]

Bunday samimiy ko‘ngil izhori, tabiiyki, Otabekka ta’sir etmay qolmaydi. U *“o‘z hujumining haqsiz”* ekaniga amin bo‘ladi. O‘zaro oshkora suhbat ota-o‘g‘il o‘rtasidagi tushunmovchilikka barham beradi. Romanda har bir masala talqinida qahramonlar ruhiyatining milliy axloqning turli qirralarini namoyon etadigan ana shunday teran tahlilini kuzatish mumkin. Umuman, odamlarning o‘zaro

muloqotida ham, oilaviy masalalar yoki jamiyat miqyosidagi hodisalarda ham fikrni ochiq izhor etish, “Fazoili atrok” muallifining ta’biri bilan aytganda, *o‘zi ham, so‘zi ham to‘g‘ri* bo‘lgan millatimizning muhim fazilatlaridandir. Bunday samimiyat har qanday muammo muolajasining kafolatidir. Aslida, o‘zbek tabiatan shunday bo‘lgan. Hazrat Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da *“...turk sortdin tezfahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq”* [6, 515] deya ta’riflagani ham buning isbotidir. Tasavvur qiling, Yusufbek hoji sinchkovlik bilan o‘g‘lining ruhiyatidagi o‘zgarish va uning sababini anglamaganida yoki Otabek ozgina jizzakilik bilan bo‘lsa-da, otasiga yuragini yozmaganida, bu chigillik kattaroq gina-kuduratga, bora-bora esa ota-bola munosabatlarining izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Adibning mahorati shundaki, u asar qahramoni ruhiyatiga har doim to‘g‘ri tashxis qo‘yadi. So‘zni zargarona qo‘llaydi. Oz so‘zga ko‘p ma’no yuklay biladi. O‘quvchi tuyg‘ulari va shuuriga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadigan quyma so‘z va iboralardan foydalanadi. Masalan, Yusufbek hoji tilidan aytilgan mana bu so‘zlar bugun ham xalq orasida ko‘p takrorlanadi: *“Nega har bir narsaga etgan aqling shunga qolg‘anda oqsaydir?”* Qanday holat munosabati bilan aytilmasin, bu ibora tinglovchi ruhiyatiga, kayfiyatiga ta’sir qilmay qolmaydi.

Romanda yana bir qaltis vaziyatda – Otabekni Zaynabga uylantirish masalasi ko‘tarilganda, milliy axloq talqini o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi:

“O‘zbek oyim kelib kirgandan so‘ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi... Anchagina so‘zsiz o‘lturg‘andan so‘ng ***hoji muloyimona so‘z ochdi****:*

- O‘g‘lim, hali san eshitdingmi-yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek, ma’lumki, ularning “qilib qo‘yg‘an yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini” albatta bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

- Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma’qul bo‘lmas, - dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan erga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi*”* [8, 151].

Ushbu vaziyatni qaltis deb ataganimiz sababi, agar oilaviy munosabatlar qat’iy axloqiy mezonga tayanmagan bo‘lsa, o‘zaro hurmat-izzat joyiga qo‘yilmasa, ana shu o‘rinda oila poydevoriga darz ketishi ehtimoldan xoli emas edi. Bir-birini tushunish o‘rniga dahanaki jang yuz berishi ham mumkin edi. Otabekning so‘zlari bunday vaziyatda aqlli o‘g‘ildan kutiladigan eng oqilona javob. Unda nafaqat ota-ona xohishiga rizolik, shuning barobarida e’tiroz ham mujassam. Biroq bu e’tiroz benihoya madaniy tarzda, donishmand otani ham o‘ylantiradigan, kerak bo‘lsa, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan shaklda izhor etilmoqda. Yusufbek hojining

“erga qarashi va nima deb javob qilishni bilmay qolishi” sababi shunda. Romandagi bu tasvirda hazrat Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, roman syujetining ana shu o‘rnida *“turkning muloyamati tab’i... ortug‘lig‘i”* aniq badiiy tasvirlangan.

Suyukli Kumushi bilan turmush qurgan baxtiyor Otabekni yana uylantirdilar – nima uchun? Kimga kerak edi shuncha mojaro? Zarurmidi saodatmand oshiq-ma’shuq turmushiga zahar solmoq? Lozimmidi baxtli sevgi qissasining iztirobli yakun topmog‘iga sabab bo‘lmoq? Buning uchun kim aybdor? Orzu-havas ko‘yidagi ota-onami? Yolg‘iz qizidan uzoqda bo‘lishni, Toshkentga uzatishni istamay, Marg‘ilonda yashashini xohlagan Mirzakarim qutidor bilan Oftob oyimmi? Muhabbatidan o‘zga aybi bo‘lmagan Kumushmi yoki uylangan, oilali Otabekka turmushga chiqqan Zaynabmi? Shu va shu kabi savollar kimlarni o‘ylantirmagan deysiz? Bu boradagi munozaralar hali hanuz davom etayotir. Toki fikrlaydigan odamlar bor ekan, toki “O‘tkan kunlar” mutolaasidan halovat topadigan kitobxon mavjud ekan, bu singari bahslar intihosiga etmasligi ayon.

Bizningcha, bu savollarga javobni muammoning ildizidan – milliy axloq talqinidan qidirish zarur. Otabekning Marg‘ilondan uylangani, adib ta’biri bilan aytganda, *“...otasi uchun uncha rizosizlikka mujib bo‘lmasa ham, ammo uning o‘g‘il to‘yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-ust qilib, u “buning qizi yaxshi bo‘lsa ham, uy-joylari yaramas ekan; buning uy-joylari tuzik bo‘lsa ham, qizi ko‘rksiz ekan; buning qizi-da, uy-joylari-da tuzik, biroq zoti past ekan” deb qiz, quda, uy-joy, nasl va nasab tekshirib yurg‘uchi O‘zbek oyimning Otabekni uylandirib, buning orqasidan ko‘radurgan orzu-havas, to‘yu tomoshalarini shartta kesib qo‘yg‘an bu uylanishga nima deyishi va qanday qarashi albatta ma’lum edi”* [8, 147].

Ayon bo‘lganidek, Otabekning uylanishi Yusufbek hojida jiddiy e’tiroz uyg‘otmagan bo‘lsa ham, O‘zbek oyim uchun kutilmagan hol edi. Zero, “uncha-muncha to‘yu azalarga “kavshim ko‘chada qolgan emas” deb bormaydigan”, o‘rda xonimlari uchun ham “onaxon” maqomida bo‘lgan, “o‘z uyida o‘lturg‘anida ham ustidagi atlas ko‘ynak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan qahrabo tasbihni qo‘ymaydigan” O‘zbek oyim o‘g‘lining o‘zboshimchaligini – “qoshliq, ko‘zlik bir andi” bilan turmush qurganini kechirishi mahol edi. Qolaversa, Otabekning Kumushga uylanishida o‘zbek milliy axloqining negizlaridan sanalgan, har bir farzand qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan bir udumga rioya etilmagan – bu ish ota-ona ruxsatisiz, ularning oq fotihasini olmay bajarilgan edi. Holbuki, “og‘ma” O‘zbek oyim ham Kumushni ko‘rgach, yoqtirib qoladi. Otabek ota-ona rizosi bilan uylanganda, ehtimol, bu muhabbat qissasining xotimasi o‘zgacha bo‘lmog‘i ham mumkin edi. Romandagi O‘zbek oyim obrazi haqida fikr

yuritar ekan, akademik Matyoqub Qo‘shjonov mana bunday yozgan edi: “Qoida-qonunlarni, urf-odatlarni to‘la va mahkam tutadigan o‘zbek onasining mantiq portreti aniq va ravshan chizilgan! Bundan ham aniq chizish mumkinmikin?” [10, 43].

O‘zbek milliy axloqi ***aybni o‘zgadan emas, o‘zidan qidirmoq***ni taqozo etadi. Xalqimizning bunga dalolat qiluvchi mashhur maqoli ham bor. “O‘tkan kunlar” muallifi Zaynab obrazini tasvirlar ekan, unda ana shu fazilat etishmasligiga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, muallif milliy axloqning ziddini tasvirlash orqali ham bu fazilatning mavjud bo‘lmasligi nainki muayyan shaxsni, hatto oila va jamiyatni ham inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini obrazli suvratlantiradi. Jumladan, hoji Zaynabga Kumush bilan egachi-singildek ahil bo‘lishi zarurligini uqtirgan lavhaga e’tibor bering:

Egachi-singil bo‘lib ketarsiz-a? – deb takror so‘radi qayin ota.

Bilmadim...

Nega tag‘in bilmay qolding?

Zaynab bir muncha vaqt o‘ylanib qoldi.

Qars ikki qo‘ldan chiqadir, - dedi Zaynab, - men yaxshi bo‘lg‘anim bilan opam yomon bo‘lsa, hozirgi bergan va’damdan nima foyda bo‘lsin....

Boshqa gaplarni ko‘nglinga keltirma, qizim. Marg‘ilonlik kelin bilan sening bizga hech farqlaring yo‘q, ikkavlaring ham bolamizning qo‘shog‘i – bolamizsiz! [8, 315]

Bu murakkab vaziyatda Yusufbek hoji eng to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Aslida ham, o‘zbek otasi, farzandlarining saodatini, oilasining xotirjamligini o‘ylagan odam o‘zgacha yo‘l tutishi mumkin emas edi. Biroq shu o‘rinda Zaynabning badgumonligiga, kelajakda undan yomonlik chiqishiga ishora borligini payqash qiyin emas. Uning *“men yaxshi bo‘lg‘anim bilan opam yomon bo‘lsa...”* degan so‘zlari bu fikrni tasdiqlaydi. Zaynab xarakteriga xos, milliy axloqqa zid bu xususiyat oxir-oqibatda qancha taqdirlarning fojiasiga sabab bo‘ladi.

Endi romandan milliy axloqning qaynota-kelin munosabatlari timsolidagi betakror ifodasiga birgina misol: *“Kumush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqinig‘a kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning elkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig‘a tegizib olg‘an o‘z qo‘lini o‘pdi:*

- Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da, – deb tevaragiga qarab kulindi va qo‘lini duog‘a ochdi” [8, 321].

Bu o‘rinda ikki nuktaga e’tibor qaratmoq zarurati bor. Birinchisi – adib “Marg‘ilonda ham” deganda birgina “ham” yuklamasini qo‘llash orqali Yusufbek hojining millatimizning asl tiynatiga xos yuksak adolatiga ishora qiladi. Iqtibos

matndagi “ham” yuklamasi zamirida “Toshkentda ham” degan ma’no yashiringanini payqash qiyin emas. Bu bilan hoji Kumushga izzat ko‘rsatish barobarida Zaynabning ham hurmatini joyiga qo‘yadi. Ushbu misol romanda hatto yordamchi so‘z turkumiga tegishli birgina yuklama ham ortiqcha qo‘llanmagani, aksincha, katta ma’no tashishi haqidagi muhim xulosaga olib keladiki, bu Qodiriyning so‘zga e’tibori, so‘zga nisbatan mas’uliyati, san’atkorlik, so‘zni his etish darajasi nechog‘liq baland bo‘lganiga yana bir dalildir.

Ikkinchi nuqta: Yusufbek hoji Kumushning peshonasiga tekkan o‘z qo‘lini o‘pishidir – bu chinakam milliy urf, tobora unutilib borayotgan udum. Qadim-qadimdan otalar o‘z qizlariga, kelinlariga bo‘lgan mehrlarini shu tarzda namoyon etganlar: ularning peshonasidan bevosita bo‘sa olmay, ana shu peshonani silagan o‘z qo‘llarini o‘pganlar.

Abdulla Qodiriy chin ma’noda san’atkor yozuvchi. Adibning boshqa asarlari singari “O‘tkan kunlar”da ham birorta ortiqcha detal, noo‘rin qo‘llangan so‘z yoki tasvirni uchratish mahol. So‘z qo‘llash mahorati haqida fikr yuritilar ekan, ijodkor adabiy-estetik qarashining asosini tashkil etuvchi mana bu e’tirofi, ayniqsa, diqqatga sazovor: “Yozuvchiliqda bir qonun bor: hammadan ilgari ma’no, undan so‘ng shu ma’noni ifoda qilish uchun so‘z qurish, so‘zgina emas, san’atkorona, ya’ni shundog‘ so‘zki, aytmoqchi bo‘lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo‘lib, ***yasama bo‘lmasin***. Mana shu shartni bajarib, bu jihatdan ta’min etilgach, boshqa masalalarga o‘tishga haq olgan bo‘lasan...”.

Umuman, romandagi yirik yoki epizodik obrazlar qatorida kichik poetik detal yoki lavha, har bir so‘z yoki birikma tahlili buyuk adibning asarda asosiy e’tiborni milliy axloqning badiiy talqini masalasiga qaratganini isbotlaydi. Bu masalani yanada tafsilotli va chuqur o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan galdagi vazifalardandir.

Millat irodasi tasviri. Millatning irodasini belgilovchi tayanch omillar nimalardan iborat? Qanday holatda millat chin ma’noda yuksak irodani namoyon etmog‘i mumkin? Abdulla Qodiriy asarlarida, jumladan, “O‘tkan kunlar” romanida millat irodasi masalasi qanday talqin etilgan? Bu kabi savollar ko‘pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Romandagi epik tasvirdan kelib chiqib, millat irodasining asosiy omillari sifatida adib quyidagilarga e’tibor qaratgan, deb hisoblash mumkin: 1) millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘la olishi; 2) dunyo ahvolidan ogohlik va millatning o‘z ozodligini himoya qila olishi zarurligi.

Millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘la olishi. “O‘tkan kunlar”ning dastlabki satrlaridanoq Turkistondagi tarixiy vaziyat, millatning o‘sha kezdagi zabun holati obrazli tasvir orqali ramzlar vositasida haqqoniy suvratlanadi: *“1264 hijriya, dalv oyining o‘n ettinchisi, qishqi kunlarning biri, quyosh botqan,*

tevarakdan shom azoni eshitiladir....” [8, 31]. Savol tug‘iladi: Qodiriy nega asarni bahor emas, qish tasviri bilan boshlayapti? Ne sabab *quyosh botqan?* – Nimaga u chiqib kelmayapti? Nima uchun *shom azoni*, bomdod azoni emas? Tabiiyki, Abdulla Qodiriydek har bir so‘z, har bir ramz, har bir tasvir zamiriga teran ma’nolarni joylay biladigan so‘z san’atkori bu o‘rinda ham har bir poetik detal, badiiy ifodani ma’lum bir maqsad, muayyan ijodiy konsepsiya asosida qo‘llagan. Bu boshlanma tasvir tagmatnida Turkistonning gullagan bahori o‘tib, ayozli qishi boshlangani, millatning taraqqiyot quyoshi so‘nib, tanazzul shomi qora zulmatini yoyayotgani, yuksalish tongi o‘z o‘rnini inqiroz tuniga bo‘shatib berayotgani ifodalangan [3, 8]. Romandagi epik tasvir jarayonida ushbu konseptual boshlanma mantiqiy izchillikda davom ettiriladi hamda yuksak poetik umumlashma darajasida xotimalanadi.

Romanning avvalidayoq adib Otabek tilidan Toshkent hokimi Azizbekning xalqqa zulm qilishda haddan oshgani, Shamayga borgan bosh qahramonning Turkistondagi eskirgan boshqaruv uslubini isloh etish zarurati masalalaridan so‘z ochadi. Jumladan, asarda mana bunday so‘zlarni o‘qiymiz: *“Men o‘risning idora ishlarini ko‘rib, o‘z idoramizning xuddi bir o‘yinchoq bo‘lg‘anlig‘ini iqror etishka majbur bo‘ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa, holimizning nima bo‘lishig‘a aqlim etmay qoldi... Shamayda ekanman, qanotim bo‘lsa, vatanimga uchsam, to‘ppa-to‘g‘ri xon o‘rdasiga tushsam-da, o‘risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig‘ yozib, o‘risning idora tartibini dasturulamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o‘z elimni o‘risniki bilan bir qatorda ko‘rsam... Ammo o‘z elimga qaytib ko‘rdimki, Shamayda o‘ylag‘anlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish. Bu erda so‘zimni eshitkuchi birav ham bo‘lmadi, bo‘lsalar ham: “Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?” deb meni ma’yus qildilar. Ilgarirak men ularning gapiga bovar qilmay yursam ham, so‘ngg‘idan to‘g‘ri so‘z aytkanlarini bildim. Darqaqiqat, mozoristonda “Hayya alal-falah” xitobini kim eshitar edi”* [8, 42].

Ana, Qodiriy Otabekning so‘zlari timsolida millatning o‘sha kezdagi ahvolini qay darajada tahqiq etgan, tanqid qilgan. Davlat boshqaruv uslubini mutlaq o‘zgartirish zamon talabi ekaniga doir bu fikrlar zamirida nechog‘liq keng dunyoqarash, qanchalik teran siyosiy ong turishi isbot talab qilmaydi. O‘sha murakkab va ziddiyatli zamonda ushbu haqiqatni bosh qahramon tilidan bu tarzda keskin va dadil ayta olish uchun qanday katta jasorat kerak edi.

Romanda adib Qo‘qon xonligida, u orqali butun Turkistonda davlat idora uslubi haqiqatan chiriganini, boshqaruv aslida qipchoq Musulmonqul qo‘lida bo‘lib, Xudoyorxon o‘yinchoq maqomida ekanini, insofu adolat o‘rnini hiyla-

nayrang, ofiyat o‘rnini adovat, vijdon va haqqoniyat o‘rnini fitna-fasod egallaganini aniq shaxslar taqdiri misolida yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Bundan zohiran Otabek va Kumushning sevgi qissasi etakchi o‘rin tutadiganday tuyuladigan romanda tasvir va talqin ko‘lami nechog‘liq keng va polifonik xususiyatning nechog‘liq mukammal ekani anglashiladi.

Dunyo ahvolidan ogohlik va millatning o‘z ozodligini himoya qila olishi zarurligi. Millat chindan millat bo‘lmoqni istasa, ana shu fazilatga ega bo‘lmog‘i shart va zarurdir. Aks holda u erkini boy beradi, bosqinchilar oyog‘i ostida toptaladi, ertangi kuniga mavhumlik zulmati tahdid soladi. Yuqorida Otabekning Shamay safari misolida dunyoda kechayotgan hodisalar mohiyatidan xabardorlik, kim bo‘lmasin, taraqqiy etgan millatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash zaruratiga doir yozuvchi qarashlari tahlil etilgan edi. Endi millatning o‘z ozodligini himoya qila olish qudratiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq adib orzulari asarda qanday aks etgani xususida fikr yuritamiz.

Asarning “Qipchoqqa qirg‘in” bobida qorachopon-qipchoq mojarosi bois minglab kishilarning begunoh qatl etilishi, o‘z fuqarosini qirg‘in qilishga amr bergan Xudoyorxon, biri mansab uchun, ikkinchisi boylik maqsadida, uchinchisi bir shaharni qaram qilmoq qasdida odamkushlikdan ham qaytmaydigan kimsalar timsolida Turkiston tanazzulining ildizlari teran badiiy talqin etiladi. Yusufbek hoji va Otabek timsolida yozuvchi millatning o‘z ozodligini himoya qila olishini jonu dil ila orzu qilgan vatanparvarlar obrazini yaratadi. Tor manfaati yo‘lida necha-necha vatandoshlarining qonini to‘kishdan toymaydiganlar qilmishidan qattiq iztirob chekkan Yusufbek hoji tilidan adib mana bunday so‘zlarni aytadi: *“Men ko‘b umrimni shu yurtning tinchlig‘i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o‘zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne ekanini bilmagan, yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyasi yo‘lida bir-birini eb-ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizg‘a aqlim etmay qoldi. Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq, yaqindurki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘lig‘a tutqin qilib topshirg‘uchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarg‘a Xudoning la’nati albatta tushar...”* [8, 304].

Ozodligini, erkini munosib himoya qila olishi uchun millat jips bo‘lmog‘i, o‘zaro nizolardan tiyilib, tashqi yovga qarshi munosib kurashish darajasiga ko‘tarilmog‘i zarur edi. Ming afsuski, bunday bo‘lmadi. Qodiriyning millatparvar yozuvchi sifatidagi xizmati shundan iboratki, ana shu fojianing ildizlarini bor haqiqatlari bilan ochib beradi. Yusufbek hoji tilidan aytilgan: “*Biz shu holda*

ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq, yaqindurki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz”, degan bashorat haq bo‘lib chiqdi.

Professor Begali Qosimov ta’biricha: “...romanni «o‘tkan kunlar»dan «kir» emas, «nur» topgan, benihoya og‘ir zamonlarda, hayotlarining eng baxtsiz onlarida yuksak ichki madaniyat, nozik didlilik, komil axloq va odob namunalarini namoyish etgan otalarimiz turmushi, go‘zal oilaviy munosabatlar, betakror milliy kolorit tasviri orqali o‘zlikni tanitmoqqa qaratilgan asar ham demak kerak bo‘ladi. Bu esa, jadidchilikning, boshqacha aytganda, milliy uyg‘onishning bosh xususiyati, millatni millat qiluvchi an’analar edi” (9, 209).

Shuning barobarida, adib yurtda hukm surgan noahillik va manfaatparastlik, nifoq va adovat oqibatida ona zamin mustamlaka iskanjasiga tushmog‘iga sabab bo‘lganini obrazlar, ramzlar, timsollar orqali suvratlantiradi. Romanda Rusiyaning Turkistonni bosib olishi bilan bog‘liq jarayonlar tasvirlanmagan. Asar syujeti 1861 yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olib, unda yurtning istibdod iskanjasiga tushishi arafasidagi tarixiy vaziyat qalamga olingan. Lekin roman xotimasidagi mana bu so‘zlar adib asarda yo‘lini topib, mustamlakaga qarshi kurash orzusini ifodalay olganidan darak beradi: *“1277-nchi (milodiy 1861) yilning kuz kezlarida bo‘lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyootadan yozar edi: “O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qunishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo‘ldi. Men o‘z qo‘lim bilan ikkisini dafn etdim”.*

Yusufbek hoji xatmi Qur’on qilib yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib ta’ziya ochdi” [8, 384].

Otabekning o‘rus bilan urushda shahid bo‘lishi haqidagi xabarning o‘ziyoq Abdulla Qodiriy roman tagmatniga Rusiya istibdodidan ozodlik g‘oyasini mahorat bilan singdirib yuborgani, millat uchun ozodlik hayot-mamot masalasi ekaniga alohida urg‘u bergani isbotidir.

Shu o‘rinda yana bir savol tug‘iladi: Abdulla Qodiriy romanning asosiy qahramonlaridan biriga O‘zbek oyim deb ot qo‘yishi tasodifmi? Uni xayoliga shunchaki kelgan ism bilan ataganmi? Romanning *qish, quyosh botishi, shom azoni* singari millatning taraqqiyot quyoshi so‘nib, tanazzul tuni boshlanganiga oid ramzlar bilan boshlanib, *O‘zbek oyim qora kiyib ta’ziya ochishi* bilan yakunlanishi yozuvchining asar syujeti va kompozitsiyasini puxta o‘ylangan ijod konsepsiyasi asosiga qurgani isbotidir. Bu orqali millatning zabun holiga, siyosiy inqiroziga, ma’naviy tanazzuliga ishora qilingan, deyish mumkin.

Asar so‘ngidagi “Yozg‘uchidan” sarlavhali izohda Otabekning o‘g‘li Yodgorbek o‘n to‘qqizunchi va yigirmanchi yillardagi (*ayni sho‘rolar zamonidagi*) ocharchilikda vafot qilgani, undan qolgan ikki o‘g‘ildan biri Marg‘ilonda mas’ul ishchilardan, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekani xabari beriladi. Otabekning o‘zi chor Rossiyasi mustamlakasiga, keyingi ikki avlodi – o‘g‘li va nevarasining sho‘ro istibdodiga qarshi kurashda qurbon bo‘lgani ham yozuvchining asl muddaosi milliy ozodlik orzusini tasvirlash bo‘lganini anglatadi.

Romanda millat e’tiqodining yoritilishi. “O‘tkan kunlar”da asos e’tibori bilan islom ma’rifati ruhi bilan sug‘orilganini ta’kidlashga burchlimiz. Bu xususiyat quyidagilarda ko‘rinadi: ***adib asarda vaqtni islomiy o‘lchovda beradi.*** Sanalar hijriy-qamariy yil hisobida keltiriladi. Jumladan, asar “1264-hijriya” (milodiy 1845-46) sanasi bilan boshlanadi. Romanga muallif yozgan izohda Normuhammad qushbegining Toshkentdagi beklik sanasi 1270-73 – hijriy yillar orasi ekani aytiladi. Kumushning qabriga toshdan o‘yib yozilgan lavhada tavalludi 1248, vafoti 1269-hijriy ekani qayd etiladi va h.k.

Romanda kunning qaysi pallasi ekani namoz vaqtiga ko‘ra belgilanadi: “quyosh botqan, tevarakdan *shom azoni* eshitiladir”, “*subh namozi*ni o‘qib arava qo‘shildi”, “*asr*dan biroz ertaroq hukumat askari bilan xalq orasida urush boshlandi”, “*Xufton namozi*dan so‘ng yangilangan tashvishlarni biroz unutdirar umidi ila poycharog‘ yoniga o‘lturub, Fuzuliy devonini varaqlar edi” singari. Vaqt ifodasi uchun har bir musulmon ado etadigan besh vaqt namozning o‘lchov asosi o‘laroq tanlanishi, avvalo, romanda muallif tomonidan belgilangan ijodiy konsepsiya taqozosi bo‘lsa, ikkinchidan, romanda adabiy zamonning musulmon e’tiqodiga muvofiq poetik tizim darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, boshqa har qanday badiiy asarda bo‘lgani kabi “O‘tkan kunlar”da ham “zamon – vaqt fizikaviy mazmundan adabiy-falsafiy mohiyatga ko‘chadi” [5, 24].

Adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov roman manbaini “ilk syujet” – Qur’oni karimdagi Odam alayhissalom to‘g‘risidagi ilohiy xabarga bog‘laydi. Bu fikr “ilk uchrashuv motivi” va “visol motivi” bilan bog‘lab asoslanadi. Qur’oniy axborotga ko‘ra, “Odam (a.s.) va Havvo onamizning jannatda birga bo‘lishi ilk uchrashuv bo‘lib, undan keyin keladigan – bashariyat hayoti uchun muhim uchrashuvning debochasi edi. Bu o‘ta noyob hodisa bo‘lib, insoniyat o‘z tarixi davomida ilk uchrashuvning bu maqomiga qaytib erisha olgan emas (erishishi mumkin ham emas)... romanidagi “ariq bo‘yi” uchrashuvining esa tasodifga mutlaqo aloqasi yo‘q. Aksincha, yozuvchi bu uchrashuvni romanning bir necha o‘rnida (dastlab Mirzakarim qutidor mehmonxonasida Ziyo shohichi tilidan, so‘ngra Qutidor va Oftoboyim o‘rtasidagi muloqotda, uchinchi marta Xudoyorxon saroyida,

Musulmonqul va Otabek o‘rtasida kechgan mantiq mubohasasida) **“taqdir shamoli”** deya tilga oladi va buni chuqur badiiy mantiq bilan asoslaydi” [4, 157]. Bunday talqinga asos beradigan asar nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham kamdan-kam topiladi. Bu hol Abdulla Qodiriyning badiiy asarni yozishga ham sobit e’tiqod bilan yondashganidan dalolat beradi.

Asar syujetida ***romanning asosiy qahramonlari o‘qiyotgan kitoblar ham ularning dunyoqarashi, e’tiqodi islomiy ekanini*** ko‘rsatib turadi. Romanning oxirgi uchinchi qismi so‘ngida Yusufbek hoji ko‘p vaqtini mehmonxonada “Qur’on” va “Daloyil” o‘qib o‘tkazgani haqida so‘z boradi. XV asrda yashagan musulmon aqida olimi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy (1404–1465) arab tilida yozgan “Daloyil ul-xayrot” – payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga atab o‘qiladigan salavot va madhiyalardan iborat asar. Kitob etti qismdan tarkib topgan bo‘lib, har bir qism haftaning ma’lum kunida o‘qishga mo‘ljallangan. Asarning sharhlari va turkiy tilga tarjimalari ham mavjud. Kitobda kundalik tavsiya etiladigan salavot aytish usullari ko‘rsatib berilgani uchun musulmonlar undan muntazam foydalangan. Hatto mazkur kitob o‘qiladigan maxsus daloilxona deb nomlangan maktablar ham faoliyat ko‘rsatgan. Yusufbek hojining Qur’oni karim va “Daloyil” o‘qiyotgan tarzda tasvirlanishi zamirida komil musulmon bo‘lgan adibning asl ijodiy maqsadi ifodalangan. Zero, “Abdulla Qodiriy asarlarida mashhur kitoblar vositasida qahramonlarni etiltirish, o‘sha ramz va ishoralar yordamida ularni tavsiflash uculi mavjud muhim adabiy-estetik hodisadir” [5, 33].

Islomiy ruh, musulmon ma’naviyati roman qahramonlarining nainki tashqi – zohiriy harakatlarida, balki ruhiy dunyosida, har bir so‘zida ham yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Asarda betakror badiiy talqin etilgan bu xususiyat Abdulla Qodiriyning inson ruhiyati tasviri borasida ham mohir ijodkor ekanidan darak beradi. Romanda mavzu “tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an “xon zamonlaridan belgilangan”i ta’kidlansa ham, aslida yozuvchi o‘zi yashab turgan davr voqeligini, mustamlaka iskanjasida qolgan millatning dardini, iztirobini, har qanday vaziyatda ham e’tiqodda sobit tura olgan shaxsiyatlar ma’naviy-ruhiy olamini asar matniga mahorat bilan singdirib yuboradi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari chop etilishi bilanoq millatning qalbidan o‘rin olgani, qo‘lma-qo‘l o‘qilgani, hatto yod olingani asarda milliy ruh ifodasi o‘q chiziq bo‘lib o‘tgani natijasidir. Bu hol, shundan darak beradiki, milliy ruh milliy adabiyotning asosidir. Jahon badiiy-estetik an’analarini o‘zlashtirish zarurligi isbot talab qilmaydi. Dunyo adabiyotining eng ilg‘or tajribalaridan foydalanmoq kerakligi ayon. Lekin asl haqiqat shundaki, agar milliy ruh bilan sug‘orilmagan bo‘lsa, har bir satrida millatning yuksak tafakkuri, sof tabiati, o‘y-

fikrlari, orzulari, armonlari bo‘y ko‘rsatib turmasa, bunday asar hech qachon millatning ma’naviy mulkiga aylana olmaydi. “O‘tkan kunlar”ning umrboqiyligini ta’minlab kelayotgan asosiy omil ham romanda milliy ruhning beqiyos mahorat ila ifoda etilganidir.

ADABIYOTLAR

1. Ал-Джахиз Абу Усмон Амр. Фазойили атрок. /Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. – Баку, 1993.
2. Боймуродова Ш. “Ўткан кунлар”ни инглиз тилига таржима қилган Марк Риз билан суҳбат. //Маърифат, 2018 йил 20 сентябрь.
3. Жабборов Нурбой. Миллатнинг янги куни. //Fidokor, 1999 йил 18 март.
4. Жўрақулов Узоқ. Биринчи ўзбек романи – “Ўткан кунлар”. /Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
5. Каримов Баҳодир. Қодирий насри – нафосат қасри. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014.
6. Навоий Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. - Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, 10-жилд. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
7. Риз Марк Эдвард. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевга мактуб. /www.uza.uz, 2020 йил 7 январь.
8. Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. – Тошкент: Info Capital Group, 2017.
9. Қосимов Бегали. Қуёш борлигидай ойдин ҳақиқат. / Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
10. Қўшжонов Матёқуб. Ўзбекнинг ўзлиги. /Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2018.

O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLARDA ASSOTSIATIV MUNOSABAT

Iskandarova Sharifa Madaliyevna,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori
Xoldarova Irodaxon Valijonovna,
FarDU professori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

XX asrning ikkinchi choragida tilni shaxs tasavvuri, idroki bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish masalasi tilshunoslikda kun tartibiga qo‘yildi. Buning natijasida tilshunoslar e’tiborini til va til egasi munosabatlari o‘ziga tortdi. Mazkur maqolada yuqoridagi muammolarning nutq va uning yaratilishi, idrok qilinishi kabi muammolarga bo‘lgan qiziqishning ortishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi, o‘zbek

tilshunosligida ham belgi bilan undan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishning yangi tahlil usullari maydonga kelganligi bilan bog‘liq masalalar haqida fikr yuritiladi.

O‘zbek tilidagi generonimlar ham boshqa leksik birliklar kabi umumiy mazmuniy belgi asosida assotsiatsiyalashadi va bunday assotsiativ bog‘lanish bir paradigmatik qatorni tashkil etadi. Generonimlar paradigmasiga mansub bo‘lgan “yaralish” semali harakat, shaxs, predmet, belgi ma’nosini anglatuvchi leksemalar asosida assotsiativ tajriba o‘tkazilganda, bu birliklar bilan “zanjirli” aloqaga kirgan turlicha leksemalar namoyon bo‘ldi.

Maqolada generonimlar paradigmasiga mansub bir qator leksemalarning assotsiativ munosabatlari, jumladan, bu leksik birliklarning bog‘lanishida eng ko‘p aloqaga kirishayotgan (*yashash, oila, imkoniyat, baxt, sinov* singarilar) hamda kam hollarda bog‘langan (*tug‘ilmoq, tabiat, borliq, maydon, qaynash, savob*, *gunoh* tarzida) so‘zlar bilan tasodifiy aloqasi haqidagi masalalar yoritib beriladi.

Maqolada, shuningdek, she’riy matnda shoir ifoda etilayotgan vaziyatni yorqinroq, ta’sirliroq ko‘rsatish maqsadida bir necha o‘zaro bog‘liq tushunchani bildiruvchi so‘zlarni birgalikda qo‘llash, ularning assotsiativ aloqasi haqida bahs yuritiladi, “yaralish” semali generonimlar bilan o‘zaro munosabatga kiruvchi boshqa lisoniy birliklar ham uzviy bog‘liqlikda ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: generonim, paradigma, leksema, sema, assotsiativ munosabat, assotsiativ aloqa, psixologizm, til egasi.

Аннотация

Во второй четверти XX века проблема изучения языка в его неразрывной связи с воображением и восприятием человека стала приоритетной в языкознании. В результате этого взаимоотношения между языком и его носителем привлекли внимание лингвистов. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с тем, что вышеуказанные проблемы тесно связаны с возросшим интересом к речи, ее созданию и восприятию, а также с появлением в узбекской лингвистике новых аналитических методов изучения взаимоотношений между знаками и их пользователями.

Генеронимы в узбекском языке, как и другие лексические единицы, связаны на основе общего семантического признака, и такие ассоциативные связи образуют парадигматический ряд. При проведении ассоциативного эксперимента на основе лексем с семантикой «творение», относящихся к парадигме генеронимов и обозначающих значение действия, лица, предмета, знака, были выявлены различные лексемы, «сцепленные» с данными единицами.

В статье рассматриваются ассоциативные связи ряда лексем, входящих в парадигму генеронимов, в том числе вопросы их случайной связи со словами, которые чаще всего связаны в связи с данными лексическими единицами (такими как *яшаш (жизнь), семья (оила), имконият (возможность), бахт (счастье), синов* (*испытание*), и словами, которые связаны редко (такими как *туғилмоқ* (*рождение), табиат (природа), борлиқ (существование), майдон (поле), қайнаш (кипение), савоб (награда) и гуноҳ* (*грех*).

В статье также рассматривается использование слов, выражающих одновременно несколько взаимосвязанных понятий, и их ассоциативная связь с целью более яркого и эффективного изображения ситуации, выраженной поэтом в поэтическом тексте. В органической связи показаны и другие языковые единицы, взаимодействующие с семантическим генеронимом «творение».

Ключевые слова: генероним, парадигма, лексема, сема, ассоциативное отношение, ассоциативная связь, психологизм, носитель языка.

Abstract

In the second quarter of the 20th century, the issue of studying language in close connection with individual perception and cognition was brought to the agenda in linguistics. As a result, the relationship between language and its user attracted the attention of linguists. This article explores how the growing interest in issues such as speech, its creation, and perception is closely related to these problems, and discusses how new analytical methods have emerged in Uzbek linguistics to study the relationship between signs and their users.

Generonyms in the Uzbek language, like other lexical units, associate based on a shared semantic feature, and such associative links form a paradigmatic series. When an associative experiment was conducted with lexemes expressing the meanings of action, person, object, and attribute that belong to the generonym paradigm with the semantic root “creation,” various lexemes that entered into "chain" connections with these units were revealed.

The article highlights the associative relationships of several lexemes belonging to the generonym paradigm, including those that are most frequently associated (e.g., life, family, opportunity, happiness, trial) and those less commonly connected (e.g., to be born, nature, existence, field, boiling, virtue and sin).

The article also discusses the use of multiple interrelated concepts in poetic texts to express situations more vividly and effectively. It examines their

associative connections and reveals the intrinsic relationships between generonyms with the semantic root “creation” and other related linguistic units.

Keywords: generonym, paradigm, lexeme, seme, associative relation, associative connection, psychologism, language user.

Yaqin yillarga qadar o‘zbek tilshunosligida sistemaviy yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilishi natijasida belgi bilan belgi o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘proq urg‘u berildi. Belgi bilan til egasi o‘rtasidagi munosabat muammosi esa keyingi yillarda ko‘plab izlanishlarning markaziga aylandi [1; 2; 3]. Bu tadqiqotlarda so‘zlovchi shaxs masalasi alohida e’tiborga olinadi. Ana shunday antropotsentrik tadqiqotlar negizida ayrim assotsiativ yondashuvga aloqador izlanishlar ham maydonga kelmoqda. Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida assotsiativ nazariya, assotsiativ munosabatlar borasida bir qancha tadqiqotlar yaratildi [4; 5].

Bu boradagi talqinni professor A.Nurmonovning “Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasi(OLM)ga munosabati” nomli maqolasida uchratamiz: “Bunday (assotsiativ) munosabatning sintagmatik munosabatdan tamomila boshqacha xususiyatga egaligini ko‘rish qiyin emas. Keyingi munosabat cho‘ziqlikka ega emas, u miyada lokallashadi va har bir shaxsning xotirasida saqlanuvchi xazinaga mansub bo‘ladi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat hisoblanadi” [6.98].

Bu o‘rinda A.Nurmonov F.Sossyurning lingvistik munosabatlar haqidagi qarashlariga izoh berar ekan, F.Sossyur tomonidan qo‘llanilgan assotsiativ munosabat tushunchasining psixologizm ta’sirida maydonga kelganligini, lisoniy birliklarning nutq jarayonidan tashqari o‘zaro qandaydir umumiylik orqali inson xotirasida ma’lum guruhlarga birlashishini ta’kidlaydi.

Bizga ma’lumki, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da signifikat shunday ta’riflanadi: “Til birligi ifodalaydigan tushuncha signifikat deyiladi” [7,87]. Ana shunga asoslangan holda, A.Sobirov assotsiativ talqinlar xususida so‘z yuritar ekan, uni bevosita signifikat tushunchasiga bog‘laydi. Uning ko‘rsatishicha: “Leksema bilan tushuncha o‘rtasidagi aloqaga signifikativ aloqa deb ataladi. Shu aloqa natijasida yuzaga chiqadigan ma’no концептual ma’no yoki designat deb yuritiladi. Inson ongi moddiy olamni idrok qilar ekan, miyada birdaniga narsa va hodisalarning tugal obrazi paydo bo‘lmaydi. Sezgi a’zolari yordamida tashqaridan olingan signallar tasavvurni uyg‘otadi, u tushunchaga, tushuncha esa fikrga turtki berib, insonning ongida bilim, malaka tarzida yashirinib yotgan so‘zlarni turtib chiqaradi. Masalan, *dala, poliz, bog‘* so‘zlarini olaylik. *Dala* deyilishi bilan tasavvurimizda *paxta, bug‘doy, makkajo‘xori, beda* kabi ekinlar ekiladigan katta keng maydon – yer gavdalanadi. U *dehqon, chopmoq, egat, pushta, ekmoq, g‘o‘za,*

tup, paxta, sug‘ormoq, hosil, termoq, traktor kabi yuzlab leksemalarni o‘zida jamlovchi, umumlashtiruvchi leksema (giperonim) sifatida ongimizda gavdalanadi” [8.15].

Xulosa qilib aytganda, “Imomi Motrudiy” romanida ma'naviy qadriyatlarning teran va keng qamrovli talqini orqali milliy o‘zlik va ma'naviy merosning muhimligi ta'kidlanadi. Bu esa asarni nafaqat badiiy, balki ma'rifiy ahamiyatga ega asar sifatida ham qadrlashga asos bo‘ladi. Asar ilmga bo‘lgan hurmat, e’tiqodda sobitlik, bag‘rikenglik, ezgulik va insoniylik kabi tushunchalarni chuqur tahlil etadi. Ayollar obrazlari orqali jamiyatdagi ayollarning roli va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Tarixiy va badiiy yondashuv orqali o‘quvchiga jonli va ta’sirchan tasvirlar taqdim etiladi. Ushbu roman nafaqat tarixiy voqealarni, balki ma’naviy qadriyatlarni ham o‘rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lugati 16-bet. Ziyouz.com kutubxonasi.

2. P. Shermuhammedov. “Chingizxonni ulug’lashdan maqsad nima?” // “O‘zbek adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2004-yil, 28-soni. – 4-bet.
3. Abdurahmonov H.,Mahmudov N. So‘z estetikasi.T.:“Fan”, 1985.
4. Bo‘rixon L. Imom Moturidiy. – Toshkent: “Adabiyot”, 2022.
5. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – B.
6. Mirzayeva S. O‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari. Folklorshunoslikdan o‘quv- uslubiy qo‘llanma,-T.: “Istiqlol”,2005.
7. O‘zbek tiling izohli lug‘ati. www.ziyouz.com
8. Shermuhammedov P. “Chingizxonni ulug‘lashdan maqsad nima?” // “O‘zbek adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2004-yil, 28-soni.

SAIF ZAFARI BUXORIYNING “DURRUL MAJOLISI TURKIY” ASARIDA PAYG‘AMBARLAR TALQINI

Amonova Zilola Qodirovna,
Buxoro davlat universiteti,
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida an’ana darajasiga ko‘tarilgan qissayi anbiyo xarakteridagi asarlardan biri bo‘lgan “Durrul majolisi turkiy” asari tahlilga tortilgan. Mazkur asar toshbosma bo‘lib, bosma nashri amalga oshirilmagan. Ushbu kitob Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat qo‘lyozmalar fondida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1910-yil Toshkentdagi G‘ulomiy matbasida chop etilgan, 240 sahifadan iborat. Asarda payg‘ambarlar qissasiga alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, Qur’oni Karimda zikri kelgan 13 payg‘ambar hamda ko‘plab sahobalar haqidagi hikoyatlardan tashkil topgan. Qolaversa, kitobdagi didaktik xarakterdagi hikoyatlar yosh avlod tarbiyasi uchun ahamiyatli bo‘lib, toshbosmaning bosma nashrini amalga oshirish uchun asos bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: toshbosma, Saif Zafari Buxoriy, “Durrul majolisi turkiy”, qissayi anbiyo, an’ana, payg‘ambar, Qur’oni Karim, badiiy mahorat, tarjima

Аннотация

В статье анализируется произведение «Дуррул Маджолиси тюркий» - одно из произведений пророческого характера, возвысившееся до уровня традиции в узбекской классической литературе. Это произведение является литографией, и его печатное издание не было издано. Данная книга хранится в Бухарском областном рукописном фонде имени Абу Али ибн Сино под

инвентарным номером 726. Этот уникальный источник был издан в 1910 году в типографии «Гулам» в Ташкенте и состоит из 240 страниц. В произведении особое значение придается историям пророков, и состоит из рассказов о 13 пророках, упомянутых в Священном Коране, и многих сподвижниках. Кроме того, дидактические рассказы в книге имеют важное значение для воспитания подрастающего поколения и могут служить основой для осуществления печатного издания литографии.

Ключевые слова: литография, Саиф Зафари Бухари, «Дуррул маджолиси тюрки», история пророков, традиция, пророк, Священный Коран, художественное мастерство, перевод.

Abstract

The article analyzes the work "Durrul Majolisi Turkiy", one of the works of the prophetic nature that has risen to the level of tradition in Uzbek classical literature. This work is a lithograph, and its printed edition has not been published. This book is stored in the Bukhara Regional Manuscript Fund named after Abu Ali Ibn Sino under inventory number 726. This unique source was published in 1910 at the Ghulam printing house in Tashkent and consists of 240 pages. The work gives special importance to the stories of the prophets, and consists of stories about 13 prophets mentioned in the Holy Quran and many companions. In addition, the didactic stories in the book are important for the education of the younger generation and can serve as the basis for the implementation of a printed edition of the lithograph.

Keywords: lithography, Saif Zafari Bukhari, "Durrul Majolisi Turki", story of the prophets, tradition, prophet, Holy Quran, artistic skill, translation.

O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi natijasida, islom dini ancha keng yoyila boshladi va bu bevosita o‘sha davr xalqlarining e’tiqodi, yozuvi, madaniyati va yashash tarzini o‘zgartirdi. Islomning asosi bo‘lgan Qur’oni Karim va payg‘ambarimiz (s.a.v) ning hadislari insonlar uchun dasturul amal vazifasini o‘tadi. Ayni holatlarni og‘zaki va yozma adabiyotda ham ko‘rish mumkin. Masalan, xalq dostonlarida, qo‘shiqlarida e’tiqodiy qarashlar o‘z aksini topgan bo‘lsa, yozma adabiyotda Qur’on va Hadis asosidagi maxsus asarlar yaratila boshlandi. “Qissasi anbiyo”, “Me’rojnoma” yoki hadislar asosidagi “Arba’innavislik” shular jumlasidandir. Sharq musulmon adabiyotida ushbu yo‘nalishda ko‘plab asarlar yaratildi. Bunday asarlarning dastlabki namunalarini arab, keyin fors adabiyotida ko‘rish mumkin. Shuningdek, turkiy adabiyotda ham “Qissayi anbiyoyi turkiy”, “Me’rojnomayi turkiy” kabi asarlar yaratildi. XIII asrning nodir nasr namunasi hisoblangan “Qissayi Rabg‘uziy” qissayi anbiyo xarakteridagi asarlardan sanaladi. Ushbu asarda nomlari Qur’oni Karimda zikr

etilgan payg‘ambarlar bilan bog‘liq go‘zal qissalar mavjud. Rabg‘uziydan so‘ng ham payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan maxsus asarlar yaratildi. Bu mumtoz adabiyotimizda an’ana darajasiga ko‘tarildi, deyish mimkin. Saif Zafari Buxoriyning “Durrul majolis” asari ham shu an’ana doirasida yaratilgan, qissayi anbiyo xarakterida yaratilgan asarlardan hisoblanadi.

Saif Zafari Buxoriy o‘z davrining mashhur ijodkorlaridan bo‘lgan, ammo uning tarjimayi holi bilan bog‘liq ma’lumotlar hozircha ma’lum emas. U o‘zining “Durrul majolis” asarida Qur’oni Karim hamda Hadisi Shariflarda qayd etilgan qissalar va oyatlarning ma’nolarini keng sharhlab davr talabiga binoan kitobni forsiy tilda yozgan. Chunki arabiy kitoblar sharhi odatda forsiy tilda bitilgani bizga ma’lum.

“Durrul majolisi turkiy” toshbosmasi Buxoro viloyat qo‘lyozmalar fondida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu nodir manba 1910-yil Toshkentdagi G‘ulomiy matbasida chop etilgan bo‘lib, 240 sahifadan iborat. Ushbu kitob Toshkentda bosilgan bo‘lsa-da, Buxoro qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda “Buxoro toshbosmasi” nomi bilan qayd etiladi. Toshbosma mumtoz adabiyot an’anasiga muvofiq Basmala bilan boshlangan. So‘ng hamd, na‘t keltirilgan. Shu o‘rinda ushbu asarning asl musannifi Saif Zafar al-Buxoriy ekanligi, kitobning nomi esa "Durrul majolis"ligi hamda bu kitob forsiy tilda yozilganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur asarni forsiy tildan turkiy tilga tarjima qiluvchi Eshon Janobi Sulton Sayyid xo‘ja Ibn Mahmudxo‘ja eshon Toshkandiy mashhur Maxdum Qodiriylardan ekanligi ham aytib o‘tiladi. Asar 33 bobdan iborat bo‘lib, Qur’oni Karimda zikri kelgan 13 payg‘ambar haqida qissa beriladi. Bular:

1. Muhammad alayhissalom, 2. Odam alayhissalom, 3. Ibrohim alayhissalom, 4. Muso alayhissalom, 5. Ismoil alayhissalom, 6. Ayyub alayhissalom, 7. Sulaymon alayhissalom, 8. Shuayb alayhissalom, 9. Yusuf alayhissalom, 10. Yunus alayhissalom, 11. Iso alayhissalom, 12. Lut alayhissalom, 13.Yaqub alayhissalom

Mazkur asar o‘zining yozilish uslubi bilan qissayi anbiyo xarakteridagi asarlardan ajralib turadi. Chunki kitobda 15 ta sahoba va ularning ibratli hayoti yo‘li haqida ham hikoyatlar berilgan. Qolaversa, muallif avliyolar zikriga ham o‘rin ajratadi. Albatta, ular haqidagi mulohazalarni sahobayi kiromlardan keyin keltiradi. Asarda 7 ta avliyo haqidagi hikoyatlar berilgan. Shu o‘rinda alohida qayd etish lozim bo‘lgan jihatlardan yana biri shuki, asarda saxiylik, tavoze’, diyonat, iymon bilan bog‘liq kichik ibratli hikoyatlar ham berilgan.

Asarda asosiy e’tibor payg‘ambarlar tarixiga qaratilgan. Jumladan, toshbosmaning birinchi bobi “Hazrati Odam alayhissalomning jasadi

muboraklarini yaratmog‘ini bayonidadur”, deb nomlanadi. Mazkur qissa hajm jihatdan ancha salmoqli bo‘lib, 11 sahifani tashkil etadi. Qissa Odam (a.s)ga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, Sulaymon, Yusuf, Yunus(a.s) lar bilan bog‘liq kichik hikoyatlar ham berilgan.

Qissa dastlab, Alloh taolloning insonni yaratmoqchi bo‘lganligi va bunda arsh, kursi, samo insonni o‘zlaridan yaratishlarini so‘rab iltijo qilishlari bilan boshlanadi: “Hazrat Haq subhanahu va taolo xohladiki, er yuzig'a banda yaratib xalifa qilurman deb va andin ko‘p bandazodalar paydo bo‘lurki, alar meni do‘stumdurlar deb oyati karima mazmuni birlaki “yuhibbuhum va yuhibbunahu”, “va iz qola robbuka lilmalaikati inni jailun fil arzi xoliyfah” o‘shal on Arsh bosh ko‘tarib aydi: “Ey bor Xudoyo bandayi baxtiyor yaraturman dersan, xohlarmanki, mendin paydo qilingki, Kalomingda meni azim deb xabar berding va ayding “Arshul azim” deb orzum shulki xalifa azizu mukarramingni mandin ofariyda qiling”, deb...” [1,3].

Ushbu parchaga e’tibor qaratsak, muallif o‘z fikrlarini dalillash va ta’sirchanlikni ta’minlash maqsadida iqtibos san’atidan o‘rinli foydalangan. Ya’ni Haq taoloning er yuziga banda yaratib xalifa qilishi bilan bog‘liq “Moida” surasining 54-oyatidan“yuhibbuhum va yuhibbunahu” (Alloh taollo ularni yaxshi ko‘radi, ular ham o‘z Robbilarini yaxshi ko‘radilar) [2, 73] qismini, hamda “Baqara” surasi 30- oyatining dastlabki qismidan “Va iz qola robbuka lilmalaikati inni jailun fil arzi xoliyfah” (Eslang: Vaqtiki, Pobbing farishtalarga: “Men er yuzida xalifa qilmoqchiman”), [2, 6] -keltirgan.

Shuningdek, muallif insonni yaratilishida da’vogar bo‘lgan har bir ashyoni alohida keltirib, ularning odamni yaratilishidagi fikrlarini asarda qayd etish bilan qanoatlanmaydi. Balki, ayni masala bilan bog‘liq oyati karimalarni iqtibos qilib, mulohazalarini asoslashga harakat qiladi. Masalan, arsh odamni o‘zidan yaratishini istab, Allohning o‘zi haqida Qur’onda “Arshul azim” [2, 253](Buyuk arsh) deya e’tirof etmganligini “Naml”-surasining 26 – oyatining oxirgi qismini keltirsa, kursining da’vogarligi haqida fikr yuritib, “Baqara” surasining 255-oyatini keltiradi: “Vasia kursiyyuhus samavati val ard” (Uning kursisi osmonlar-u, erni qamragan) [2, 42]. Ayni zamonda osmon ham insonni o‘zidan yaratilishini istab Allohga iltijo qiladi. Bunda esa iqtibos sifatida “Mulk”surasi 5-oyatining dastlabki qismi keltiriladi: “Va laqod zayyannas samaad dunya va bimasobiha” (Va darhaqiqat, Biz dunyo osmonini chiroqlar (yulduzlar) bilan ziynatlab qo‘ydik) [2, 400]. Shunda muallif Allohning tuproq (zamin) ning shikasta holda turganini, o‘zining hech bir sifatini aytib maqtanmayotganligini qayd etadi. Va ayni holatning Haq taologa xush kelgani va yaratmoqchi bo‘lgan xalifasi – odamni undan yaratishiga qaror qilganligiga urg‘u beradi. Ma’lumki, ayni masalalar talqini

Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” sida ham keltiriladi. Ammo Zafar Buxoriy qur’oniy qissalar targ‘ibiga bag‘ishlangan asarlardan farqli o‘laroq, Odam (a.s) bilan bog‘liq qissa tarkibida qissa mavzusiga mos holda Sulaymon (a.s) bilan bog‘liq parchani ham keltiradi. Ya’ni tuproqning kamtarligi Alloh dargohida qanchalik ulug‘ martaba kasb etdi, shuning uchun kamtarlik eng ulug‘ fazilat ekanligiga urg‘u beradi. Bunda muallif, asosan, kamtarlikda yuksak kamol borligini e’tirof etishni maqsad qilib qo‘yadi: “Endi bul ham bir misoldurki va anga o‘xshash so‘zdurki, vaqtiki, Hazrat Sulaymon alayhissalomning qo‘llarig'a xosiyatlik uzuk solmoqg'a ixtiyor qildi. Sulaymon alayhissalom qo‘llarini panjalari bir- birlarig'a so‘zlar qilib aytishdilarki, ibhomki bosh barmoqdur aydi: “Man hammadin kattamen, albatta, uzukni manga taqar”, derdi va yoni sabbobaki ani shahodat derlar bosh barmoqni yonidag'i aydi: “Man sizlardin sharofatlikroqdurman uzukni manga solarlar”, dedi. Vustoki o‘rta panjadur ul aydi: “Men sizlarni o‘rtalaringizda kattaroqdurman uzukni manga solurlar”, dedi. Kichkina panja hech so‘z demadi. Bas farmon bo‘ldiki: “Yo Sulaymon, uzukni kichik panjangg'a solg'il, negaki o‘zini zaifroq va kichikroq bildi”. Andin so‘ng, Sulaymon alayhissalom kichik panjalarig'a aydilarki: “Ey kichik panja, nechun sandin katta panjalar uzukni solmoqni orzu qildilar sen na uchun dam urmading?” Kichik panja aydi: “Ey payg'ambari xudo, alar o‘zlarini kattalig'ig'a havo qildilar man bechora alarni oldilarida zaif va notavonman manga na uchun solursizki?!” dedi. Va bu shikastalig'i Alloh taologa xush kelib uzukni kichik panjalarig'a soldurdi” [1,].

Parchada qayd etilganidek, kibrga berilmaslik, o‘zni kamtar tutish Alloh nazdida ham yuksak maqom egasi bo‘lmoq uchun asos hisoblanadi. Shuning uchun payg‘ambar (a.s) bilan bog‘liq hikoyatni keltirish lozim deb topilgan. Muallif ayni masalaga ancha keng yondashadi, ya’ni yuqoridagi payg‘ambar bilan bog‘liq hikoyatdan so‘ng, vali zotlarga tegishli kamtarlik bilan bog‘liq hikoyatni ham keltirishni maqbul deb biladi: “Va yana bir so‘zdurki, Sulton Boyazid Bistomiy quddasallohu sirrohu Haq subhanahu va taolog'a munojot qilib aydilarki: “Ey bor Xudoyo Xudovando, sani dargohingga qaysi nimarsa loyiqdurki, amr qilsang men ani qilsam bajo va dil deb”. Bas Alloh taolodin farmon bo‘ldiki: “Uch nimarsa meni haridimda yo‘qdur, agar sanda bo‘lsa kelturgin toki man xaridor bo‘lay”. Sulton Boyazid Bistomiy so‘radilarki: “Xudoyo Xudovando, u uch narsa nimarsa nimadur?”. Bas, Alloh taolodin nido keldiki: “Ul uch nimarsani biri dil shikastalikdur, ikkinchisi shuldurki tilidin har taqsirot o‘tsa tavba qilmoqlikdur, uchinchisi shuldurki o‘zini zaif va bechorahol bilmoqdur” [1].

Demak, qissada odam yaratishi lozim bo‘lgan unsur tuproq ekanligi ta’kidlangan. Ammo ijodkor Haq taolo o‘ziga xalifa qilmoqchi bo‘lgan odamni

yaratish uchun tuproqni shunchaki tanlanmaganligiga urg‘u beradi. Ya’ni xoksorlik, kamtarlik fazilatlari zaminni shunday ulug‘ maqomga ko‘targanligini asoslash maqsadida asosiy qissa orasiga Sulaymon (a.s) va Boyazid Bistomiy hikoyatlarini kiritgan. Muallifning bundan maqsadi asarda didaktik ruhni kuchaytirish, ya’ni insonlarga o‘z asli kabi kamtar, kamsuqum bo‘lishiga undash ekanligi anglashiladi.

Qissadan oydinlashadiki, Alloh taolo er yuzini, jami insonlarni, qolaversa, o‘z xudolik qudratini namoyon etish uchun Muhammad (s.a.v)ni yaratgan ekan.

Demak, mazkur asarda ham “Qissasi Rabg‘uziy” dagi singari Qur’onda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar haqida turli hajmdagi qissa keltirilgan bo‘lsa-da, bularning barchasini Muhammad (s.a.v) obrazi birlashtirib turadi. Toshbosma asosida quyidagi xulosalarni qayd etish lozim:

1) “Durrul majolis” Qur’oni karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar hayoti hikoya qilingan qur’oniy qissa xarakteridagi asar bo‘lib, dastlab fors tilida yaratilgan. So‘ng, turkiy tilga tarjima qilinib, “Durrul majolisi turkiy” nomi bilan yuritilgan;

2) muallifning kitobda iqtibos yoki talmeh vositasida o‘z mulohazalarini asoslashi, albatta, asarning qur’oniy qissalardagi ifoda uslubini saqlashga harakat qilganligini ko‘rsatadi;

3) asarda Qur’onda nomlari keltirilgan hamma payg‘ambarlarga alohida sarlavha ostida qissa berilmagan bo‘lsa-da, ma’lum sarlavhadagi qissalarda boshqa payg‘ambarlar bilan bog‘liq kichik hikoyatlar ham kiritilgan. Masalan, Odam (a.s) qissasida Sulaymon, Ibrohim, Yusuf, Yunus (a.s) lar bilan bog‘liq hikoyatlar kiritilgan;

4) an’anaviy qur’oniy qissalardan farqli o‘laroq, qissalar tarkibida valilar bilan bog‘liq kichik hikoyatlar ham kiritilgan. Masalan, Odam(a.s) qissasida Boyazid Bistomiy haqidagi kichik hikoyat mavjud. Ayni holat asarda didaktik ruhni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

در المجالس سيف ظفر البخاري طشقند1329هجري

2. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001

3. Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. 1990. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. Тошкент.

4. Рабғузий Носируддин Бурхониддин. 1991. Қисаси Рабғузий. 2 - китоб. Тошкент.

5. Amonova Z. Hurufiylik va badiiy ijod.-T.: “Paradigma” .2017;

6. Amonova Z., Boqiyev A. “Durrul majolis” da Odam (a.s) talqini //Oltin bitiglar–Golden Scripts. — T. 2024. – №. 2.

7. Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning «Durrul majolis» asarida shayxlar talqin. Tamaddun nuri.

BADIIY RETSEPSIYA VA A.KAMYU IJODI

Kasimov Abdugapir Abdikarimovich,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori
Yarmuhammad Xudayberganovich Madaliyev,
Janubiy Qozog‘iston universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Turli ko‘rinishdagi adabiy aloqalar barcha davrlarda adabiyotning yashashi va taraqqiyoti uchun muhim omil sanalgan. Adabiy aloqalar adabiyot taraqqiyotini ta’minlashda, adabiy jarayonni yangi badiiy asarlar, adabiy an’analar, adabiy oqim va yo‘nalishlar, adabiy janrlar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Adabiy munosabat” jarayonida ikkita asosiy omil – qabul qilayotgan va qabul qilinayotgan tomonlar faol bo‘ladi. Bu omillarning o‘zaro munosabati retsepsiya tabiatini oldindan belgilaydi, uning oqibati esa ham qabul qilayotgan, ham qabul qilinayotgan tomonlar bu hodisaga moyilligi va qiziqishiga bog‘liq bo‘ladi.

Maqolada retseptiv estetika va badiiy asar retsepsiyasining tarkibiy paradigmalari tahlilga tortilgan. A.Kamyu ijodi misolida o‘zbek adabiyotshunosligida ta’sir va talqin masalasi bo‘yicha fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘z va iboralar: retsepsiya, Reynard Dol, D.A.Chugunov, dekodlash, ta’sir, A.Kamyu, talqin.

Аннотация

Литературные связи в различных формах считались важным фактором выживания и развития литературы во все эпохи. Литературные контакты играют важную роль в обеспечении развития литературы, обогащении литературного процесса новыми произведениями искусства, литературными традициями, литературными течениями и направлениями, литературными жанрами. В процессе «литературной коммуникации» действуют два основных фактора — реципиент и принимающая сторона. Взаимодействие этих факторов предопределяет характер рецепции, а ее результат зависит от

склонности и заинтересованности как воспринимающей, так и воспринимающей сторон в этом явлении.

В статье анализированы структурные парадигмы, рецептивной эстетики и рецепции художественного произведения. На примера творчества А.Камю изучена проблемы влияния и интерпретации в узбекском литературоведении.

Ключевые слова и выражения: рецепция, Рейнард Дол, Д.А.Чугунов, декодизация, влияние, А.Камю, интерпретация.

Abstract

Literary relations in various forms have been considered an important factor for the survival and development of literature in all eras. Literary relations play an important role in ensuring the development of literature, enriching the literary process with new works of art, literary traditions, literary movements and trends, and literary genres. In the process of “literary relations”, two main factors are active - the receiving and the received parties. The interaction of these factors predetermines the nature of reception, and its outcome depends on the inclination and interest of both the receiving and the received parties to this phenomenon.

The article analyzes the structural paradigms, receptive aesthetics and reception of a work of art. Based on the example of the work of A.Camus, the problems of influence and interpretation in Uzbek literary studies are studied.

Key words and expressions: reception, Reynard Dole, D.A.Chugunov, decodization, influence, A.Camus, interpretation.

Dunyoda madaniyatlararo muloqot masalalari har doimgidan ham ko‘proq dolzarb sanalayotgan bir vaqtda, adabiyotdagi retsepsiya masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

“Retsepsiya” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “receptio” – “qabul qilish” degan ma’noni anglatadi. “Retsepsiya” atamasidan ilm-fanning turli sohalarida, jumladan, tibbiyot, fiziologiya, informatika, madaniyatshunoslik va huquqshunoslikda foydalaniladi.

Zamonaviy retsepsiya nazariyasi adabiy tanqidning yangi yo‘nalishi bo‘lib, XX asrning 60-70-yillarda Germaniya va AQShda adabiyot inqiroziga munosabat sifatida paydo bo‘lgan. Uning shakllanishi va rivojlanishiga, asosan, germenevtika (falsafiy germenevtika) va fenomenologiya o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Retsepsiya nazariyasi ustida tadqiqotlar olib borgan madaniyatshunos Stuart Xoll retsepsiyaning“ kodlashva dekodlash” konsepsiyasini, H.R.Yauss “kutish ufqi” (горизонт ожиданий) atamasini kiritadi. M.M.Baxtin esa retsepsiya atamasiga “kommunikatsiya”, “dialog” deb ta’rif bergan.

Polyak faylasufi va adabiyotshunosi Roman Ingarden (1893-1970) retseptiv estetikaning asoschisi hisoblanadi. Retseptiv estetikada barqaror ma’no yadrosi mavjud emas, u faqatgina matn va o‘quvchining cheksiz, ko‘p qirrali o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan asar ma’nosining turfa xilligi va o‘zgaruvchanligini nazarda tutadi. Retseptiv estetika adabiyot va san’at haqidagi qarashlarni kengaytiribgina qolmay, an’anaviy nazariyalardan voz kechishga yo‘l ochishi mumkin. Ingarden o‘z tadqiqotlarida matn-o‘quvchi-asar munosabatlarini o‘rganib, “aktuallashtirish”, “konkretlashtirish”, “kommunikativ noaniqlik” va “estetik tajriba” kabi asosiy tushunchalarni izohlashga harakat qilgan. Olim metaforaga asoslangan holda o‘quvchini vaziyat, matnni esa mazmun deya ataydi. Ingardenmajoziy ma’noda o‘quvchini “g‘ilof”, matnni esa “shu g‘ilofda joylanishi nazarda tutilgan va unda mavjud bo‘lgan narsa” deya ta’riflaydi. Chunki har bir kitobxon asar mutolaasidan o‘ziga kerakli, g‘oya, tushunchava zavqni oladi. Shu bilan birga, u matnni turlicha talqin qilish imkoniyatini “o‘quvchining retseptiv va konstruktiv” faoliyati bilan bog‘laydi. Ingarden fikricha idrok, asarning turli qatlamlariga kirib borib, uning tagma’nosini yuzaga chiqaradi. Demak, badiiy retsepsiya asar ma’nosining o‘zagiga yanada chuqurroq kirib borgandagina retsepiyent asarni to‘g‘ri talqin qila oladi.

Nemis tadqiqotchisi Reynard Dol tasnifiga ko‘ra retsepsiyaning samarali-ijodiy (produktiv), reproduktiv, ilmiy, siyosiy va mafkuraviy turlari farqlanadi. Ularning har biri asar retsepsiyasi tadqiqi izchil bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Chunki olim ta’rif bergan barcha retsepsiya turlaridan bugungi kunda ham keng foydalanib kelinmoqda.

Shu o‘rinda Reynard Dol ishlab chiqqan tasnifga “milliy retsepsiya”ni ham qo‘shish mumkin deb hisoblaymiz.

Xalqlarning mavjud tarixi, milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, afsonasi, qahramonlari va o‘z mentaliteti xalq olamini tashkil etadi. Badiiy asarlar orqali turli xalqlarning madaniyati, tarixi, turmush tarzi, an’analari va milliy qadriyatlari, bir so‘z bilan aytganda shu xalqning mentaliteti bilan yaqindan tanishish barobarida madaniyatlardagi universal va differensial holatlarni o‘rganish, tahlil qilish hamda qiyoslash mumkin bo‘ladi. Badiiy asarlarda ham ma’lum bir xalq mentalitetining milliy manzarasi aks etadi. Har bir millat dunyoni o‘zgacha ko‘radi va uning dunyoqarashi ham bir-biridan batamom farq qiladi. Chunki boshqa mamlakatda yoki boshqa bir davrda paydo bo‘lgan turli xil madaniy matnlar yoki badiiy asarlar ma’lum bir jamiyat tomonidan mutolaa qilinadi, o‘rganiladi, idrok qilinadi, tahlil qilinadi va bu jarayonda aynan milliy retsepsiya shakllanadi. Kitobxon chet el adabiyotidagi ma’no-mazmun to‘g‘ri dekodlanishi uchun o‘sha davr va o‘sha hududning sharoiti, muhiti, insonlarning yashash tarzi va

dunyoqarashlarini qisman bo‘lsada bilishi yoki to‘g‘ri tasavvur qila olishi kerak bo‘ladi. Bejizga Gyote “…Shoirni anglash uchun uning mamlakatiga borish kerak,” deya ta’kidlamagan. Mashhur rus va amerikalik yozuvchi, adabiyotshunos V.V.Nabokov “Lolita” romanini ham rus ham amerikalik kitobxon uchun ikki tilda yozgan. Lekin asarning matni bir xil emas, chunki muallif o‘z o‘quvchilarining madaniy va ma’naviy munosabatlardagi farqlarni, shuningdek, mentalitetni hisobga oladi.

XX asrda ta’sir va talqin masalalarini qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida tadqiq etgan M.Jirmunskiy, M.P.Alekseyev, I.F.Belzu, R.Yu.Danilevskiy, G.A.Time, G.A.Fridlander (Rossiya), P.Van Tigem, F.Baldansperger (Fransiya), X.Rudiger (Germaniya), C.Laage (Germaniya), A.Dima (Ruminiya), R.Vellek (AQSh), P.Vaddington (Yangi Zelandiya) singari chet el olimlari bilan bir qatorda F.Sulaymonova, Y.Solijonov, A.Rasulov, D.Quronov, I.Sulton, A.Qosimov, G.Sattorova, Sh.To‘ychiyeva, M.Qo‘chqorova singari o‘zbek adabiyotshunoslarini ham sanab o‘tish lozim bo‘ladi.

Badiiy ijod jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, turli milliy adabiyotlarning aloqaga kirishuvi natijasida yuzaga keladigan ta’sir va o‘zaro ta’sir adabiyotshunoslikning g‘oyat murakkab, g‘oyat sertarmoq masalalaridandir. U o‘z ichiga, avvalo, ichki va tashqi ta’sir mavhumini oladi. Ichki ta’sir bir xalqning o‘z adabiyoti doirasida davom etadigan hodisa bo‘lib, o‘tgan asrning yirik san’atkori keyingi asr yozuvchilariga o‘lmas g‘oyalarni ifoda qilishdagi ravon uslubi, xalqchil tili va janrlar xilma-xilligi bilan ta’sir etishi mumkin. Bu ta’sir alohida yozuvchilar o‘rtasida bo‘lganidek, bir davr adabiy harakatining ikkinchi davr adabiy harakatiga butunicha yaxlit ta’sir shaklida ham ko‘rinadi. Chunonchi D.A.Chugunov adabiy aloqalar, o‘zaro ta’sirlar va asar interpretatsiyalari (talqin) doirasiga: 1) turli mamlakatlar va turli davrlarning yozuvchilari o‘rtasidagi o‘xshash motivlar; 2) o‘xshash syujetlar; 3) turli yozuvchilar asarlaridagi badiiy obrazlarning o‘xshashligi; 4) turli adabiyotlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan chuqur aloqalar kiradi, degan fikrni olg‘a surgan.

Mustaqillik yillarida adabiyotshunoslikda A.Kamyu ijodining O‘zbekistonda o‘rganilishi, uning o‘zbek adabiy jarayoniga ta’siri muammosi paydo bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiy jarayonida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Kamyu ijodi, uning uslubi, badiiyati, tafakkur tarzi ta’siri so‘nggi yillar o‘zbek nasrida ham sezila boshladi. Ushbu masala fransuz-o‘zbek adabiy aloqalarining tarkibiy qismi bo‘lib, muammoni ilmiy, nazariy jihatdan o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi. Mazkur holatdan kelib chiqib, A.Kamyu ijodining O‘zbekistonga kirib kelishi, ya’ni

Kamyu asarlari retsepsiyasi va bu asarlarning o‘zbek adabiyotiga ta’siri bilan bog‘liq masalalar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XX asrning 90-yillaridan e’tiboran o‘zbek nasri va she’riyatida inson “men”ini tadqiq etishga e’tibor kuchayib, bunda insonni o‘ziga xos olam sifatida o‘rganish, qayta kashf etish mezonga aylanib qoldi. Murod Muhammad Do‘st, Xurshid Do‘stmuhammad, Tog‘ay Murod, Nazar Eshonqul va Shodiqul Hamro asarlarida noan’anaviylik realistik tasvir bilan sintezlashtirilgan tarzda olib borilganligi fikrimizning isbotidir. Bugungi kun milliy nasrda modernistik yo‘nalish asoschilari Jeyms Joys, Alber Kamyu va Frans Kafka qalamiga xos falsafiy mushohadakorlik hamda poetik joziba ta’siri yaqqol bo‘rtib ko‘rinadi. Milliy nasrimiz jahon nasri bilan bo‘ylasha boshlaganini alohida e’tirof etish lozim.

XX asr oxiri va XXI asr davomida jahon adabiyotida yaratilgan badiiy asarlarni mutolaa qilish, tushunish, talqin, tahlil va baholashga urinish o‘zbek adabiy tanqidchiligining dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Natijada, nafaqat jahon adabiyotini tushunishga, balki milliy adabiyotimizda yangilanish va o‘zgarishlarga intilishga ham e’tibor ortdi. O‘zbek nasri va she’riyatida inson “men”ini tadqiq etishga e’tibor ancha jonlandi. A.Ulug‘ov bunday usulni “G‘arbona shartlilik uslubi” deb atab, u insonni tadqiq etishda o‘zbek adabiyotida yangilanish yuz berishiga asos bo‘lganligini ta’kidlaydi. [1.33] Murod Muhammad Do‘st, Xurshid Do‘stmuhammad, Tog‘ay Murod, Nazar Eshonqul va Shodiqul Hamroning roman, qissa hamda hikoyalarida realistik tasvir noan’naviylik bilan uyg‘un holda olib borilganligi kuzatiladi. Bu borada o‘zbek yozuvchilariga M.Prust, F.Kafka, J.P.Sart, A.Kamyu singari G‘arb ijodkorlari asarlarining bevosita ta’sirini sezish mumkin.

Jahon adabiyotshunosligidagida A.Kamyuning “Begona”, “Vabo”, “Sizif haqida asotir (mif)”, “Isyonkor odam”, “Baxtli o‘lim” singari qissa, roman, falsafiy esselari yaratilishi bilan “absurd adabiyot” va “absurd qahramon” tushunchalari yuzaga kelgan.

O‘zbek nasrida bunday asarlarning paydo bo‘lishiga Alber Kamyu ta’sirini alohida ta’kidlash kerak bo‘ladi. Natijada, o‘zbek adabiyotshunos olimlar va tanqidchilar G‘arb modern adabiyoti ruhida yaratilgan epik tur namunalarini tadqiq etib, ularni ilmiy jihatdan baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Kuzatish va tahlillarimizga ko‘ra, Alber Kamyu asarlaridan birortasi ham ma’lum sabablarga ko‘ra, XX asrning 90-yillariga qadar o‘zbek tiliga o‘girilmagan. Butun dunyoda shuhrat topgan buyuk adib va faylasufning falsafiy esselaridan parchalar mamlakatimizda birinchi bor 1989-yili “Yoshlik” jurnalida “O‘zlikni anglash- isyon” sarlavhasi ostida e’lon qilindi[2.57-60]. Bundan tashqari,

keyingi yillarda “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Jahon adabiyoti” jurnallari, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi hamda boshqa nashrlarda e’lon qilinayotgan maqola, bahs va munozaralarda G‘arb ijodkorlari qatori Alber Kamyu ham tilga olinib, uning zamonaviy adabiyotga ta’siri e’tirof etib kelindi. Bu bilan fransuz yozuvchisining tafakkur olami, o‘ziga xos tasvir uslubi, asarlarida ilgari surilgan g‘oyaviy-estetik niyat bilan yaqindan tanishish imkoniyatlari yanada kengaydi. Asosan, 1998-2007-yillar oralig‘ida adabiy tanqidchilikda va turli jurnallarda Alber Kamyu falsafiy qarashlari, ekzistensializm masalalari tahliliga bag‘ishlangan maqolalar hamda yozuvchi asarlari bilan qiyosiy planda olib borilgan izlanishlar paydo bo‘ldi. Maqolalarning aksariyatida yozuvchi asarlariga obyektiv baho berish, uning o‘ziga xos ijodiy qirralarini yoritishga intilishni kuzatish mumkin. Bugungi kungacha Alber Kamyuning tafakkur olami va o‘ziga xos uslubi borasida o‘zbek adabiyotshunosligida 50 ga yaqin maqolalar chop etilgan.

Absurd ma’nisizlik degan ta’rifga qarshi chiqqan adabiyotshunos olim Y.Solijonov, ushbu ta’limotni Alber Kamyu ijodining retsepsiyasi yordamida chuqur tahlil qilib, bu boradagi o‘z fikr va mulohazalarini asosli isbotlab bergan. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqulning “Ijodi “absurd” deb atalsa-da, absurd mavzusini ijodining bosh mavzusi sifatida tanlangan bo‘lsa-da, Kamyu asarlari va falsafiy kredosi bilan oxir-oqibat absurdni engib o‘tishni, uni ijod va san’at zavqiga aylantirishni, insonni o‘z taqdirining sohibi bo‘lishga rag‘batlantirishni bosh mavzu sifatida tanladi,” [3.353-354] degan fikrlari ham aynan Kamyu maqsad qilgan g‘oyalarning to‘g‘ri retsepsiyasidir.

Demak,qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi, milliy adabiyotlarning o‘ziga xosligini, ularning tarixiy rivojlanishini va o‘zaro ta’sirni u yoki bu milliy adabiyotni boshqalar bilan taqqoslash asosida o‘rganish hamda interpretatsiya qilishni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Улуғов А. Адабиётни авлодлар янгилайди // Ёшлик. – 1998, №4.
2. Ўзликни англаш – исён. Фалсафий эсселар // Ёшлик. – 1989. –№1.
3. Эшонқул.Н. Мендан “мен”гача. –Т.: Академ нашр. 2014.

JADID SHE’RIYATIDA AN’ANAVIY BADIIY SAN’ATLAR TALQINI

Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna
Andijon davlat pedagogika instituti
tojibayevamuqaddas71@gmail.com

Annonatsiya

Ma’lumki, mumtoz shoirlarning abadiy tirikligiga sabab ularning asarlarida nafaqat ishqiy, balki ijtimoiy mazmunni ham oliy badiiy shaklda bera olganligidadir. Mumtoz she’riyatda ma’no va surat yakdil hodisa bo‘lib, ular o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlaydi. Bunday uyg‘unlik hosil qilinishida badiiy san’atlarning ham muayyan roli bor. XX asr boshlari ijodkorlari ham she’riy san’atlarga murojaat qilganlar. Maqolada jadid shoirlari badiiy san’atlarni aruz tizimidagi she’rlardagina emas, balki barmoq tizimidagi she’rlarda ham faol qo‘llaganligini misollar bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Mumtoz she’riyat, jadid shoirlari, badiiy san’atlar, an’anaviylik, aruz va barmoq tizimlari.

Annotation

It is known that the eternal survival of classical poets is due to the fact that they were able to convey not only romantic, but also social content in their works in a highly artistic form. In classical poetry, meaning and image are a single phenomenon, ensuring mutual harmony. The arts also play a certain role in creating such harmony. The creators of the early 20th century also turned to poetic arts. The article explains with examples that modern poets actively used artistic arts not only in poems in the aruz system, but also in poems in the finger system.

Key words: Classical poetry, modern poets, fine arts, traditionalism, aruz and finger systems.

Jadid she’riyatida mumtoz adabiyotdagi yuzlab an’anaviy timsollar va badiiy tasviriy vositalardan faqat ayrimlarigina ishtirok etgan bo‘lsa ham ular mumtoz she’riyatda qo‘llangan timsol va she’riy san’atlarning aynan takrori bo‘lib qolmay, balki zamon talablari asosida yangilanganligi tabiiy. Jadid shoirlari an’anaviy timsollar orqali mumtoz xususiyatlarni saqlab qolish bilan birga, ularni ichdan yangilashga, yangicha ma’no qatlamlarini ochishga harakat qilgan bo‘lsalar, mumtoz she’riy san’atlarga murojaat qilish bilan ularni barmoq tizimidagi she’rlarda faol qo‘llash orqali mumtoz badiiy tasviriy vositalarning umrini uzaytirishga uringanlar.

Hazrat Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Muhammadrizo Ogahiy kabi mumtoz shoirlarning abadiy tirikligiga sabab ularning asarlarida nafaqat ishqiy, balki ijtimoiy mazmunni ham oliy badiiy shaklda bera olganligidadir. Mumtoz she’riyatda ma’no va surat yakdil hodisa bo‘lib, ular o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlaydi. Bunday uyg‘unlik hosil qilinishida badiiy san’atlarning ham muayyan roli bor.

Asarning badiiyligini ta’minlagan poetik vositalardan biri she’riy san’atlardir, u, ko‘pincha, nazariy adabiyotlarda badiiy timsollar bilan o‘zaro aloqadorlikda

sharhlanadi. Timsoliylik bilan mumtoz she’riyatdagi ifoda vositalarining qo‘shilishi natijasida go‘zal va tugal badiiy talqinlar vujudga kelishi mumkinligini ta’kidlagan holda jadid she’riyatida faol qo‘llanilgan timsolli vositalar, ya’ni *badiiy san’atlarning ayrimlari xususida fikr yuritish* joiz.

Abdurauf Fitrat yangi davr adabiyotshunosi sifatida XX asr boshlari adabiy me’yorlariga mos kelgan “Adabiyot qoidalari. Adabiyot havaslilari ham muallimlari uchun qo‘llanma” (1926) yaratar ekan, qo‘llanmaning “So‘z o‘yinlari” bobida [3.63-68] mumtoz she’riyatda faol ishlatilgan badiiy san’atlar haqida tushuntirishlar beradi va ularga zamondosh shoirlar ijodidan misollar keltiradi. Bu bilan avval mumtoz she’riyatdagi faol san’atlar ta’rifini keltiriladi, so‘ngra mumtoz va jadid shoirlari she’rlariga murojaat qiladi. Shu holning o‘ziyoq badiiy san’atlarning yangi she’riyat uchun ham asosli poetik vosita bo‘lganini tasdiqlaydi.

Badiiy san’atlar haqidagi ilk risola bo‘lgan Ibn Mu’tazz asarida ham dastlab *istiora* haqida so‘z yuritilgan [2.179-257]. Atoulloh Xusayniy uni shunday ta’riflaydi: “Istiora lug‘atta oriyatqa (omonatga – M.T.) olmoqtur. Lafzni o‘z yasog‘idin o‘zgada ishlatmoq bir nimani oriyatqa olg‘an yanglig‘ bo‘lg‘ani uchun ani istiora deb atapturlar”[9.220]. Fitrat “bir so‘zning o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’no uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u so‘zning o‘z ma’nosi bilan yangi ma’nosi orasida bir turli o‘xshashlik bo‘lsin”[3.52] deb belgilagan. Botuning mana bu she’rida

Ko‘nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh,
Yosh yo‘llar, yosh gullar izlayman,
Orqaga tortganga hadyam tosh,
Har choq men ilgari undayman [1.51]

yangi hayotga, istiqbolga intilgan qalblarni tasvirlar ekan, *ko‘nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh* misrasidagi “yosh” sifatlash bo‘lib keladi, ikkinchi misradagi *yosh yo‘llar, yosh gullar* misrasida istiora vazifasini bajargan.

Cho‘lpon ijodida ijtimoiy voqeliklar tasvirida istiora san’atiga murojaat etilgan:

Zo‘r dengizning to‘lqinlari bag‘rida
Yuz yillarning qonli, qo‘rqinch izi bor.
Yumshoq suvdan birikdirgan og‘zida
Shafqat bilmas isyonlarning so‘zi bor [7.105]!

She’rdagi *dengiz to‘lqinlari* istiorasi orqali uyg‘onayotgan, ko‘tarilayotgan xalqqa ishora qilinadi.

Fitrat she’rida esa istioraning yanada aniq ifodasini kuzatamiz:

Qip-qizil gulim, yop-yorug‘ oyim,
Ketmay tur, bir oz men ko‘ray seni.
Dardi jonimning sen davosimi?

Mungli ko‘nglumning podishosimi?[3.35]

Bu o‘rinda *gulim, oyim* so‘zlari kelgan gul – o‘simlik, oy – tungi yorug‘lik ma’nosida emas, balki shaxsga nisbatan qo‘llanilib, mumtoz an’analarga mos badiiy timsol yaratilmoqda.

Mumtoz she’riyatdagi faol badiiy san’atlardan biri *talmeh* san’atiga murojaat Cho‘lponning quyidagi she’rida kuzatiladi:

Endi har nafasda yana kuyamen,
Faqat Majnun bo‘lib elni sevamen,
Unga hurmat bilan bo‘yin egamen,
Boshimni u uchun dorga qo‘yamen!..[7.165]

Bu misralarda “Layli va Majnun” dostoni qahramoniga murojaat qilish orqali shoir “men”i endi yolg‘iz ishqiy kechinmalarda o‘zini buyuk dos-ton qahramonlariga mengzash yo‘lidan bormaydi, u birgina yorga munosabatda emas, balki el-xalq-vatanga bo‘lgan muhabbatda ham Majnun sevgisi kabi o‘zida jununlik his qiladi.

Shoirning “Kleopatra uyqusi” she’rida talmeh o‘zgacha bir ko‘rinishda keladi:

Tuban qarab yur, Nilning suvin ko‘r:
Qanday chiroyli, limillab oqar,
Fir’avn qiziday, ilon iziday
Buralab oqar, qimirlab oqar... [7.80]

Shoir talmeh san’ati vositasida Nil daryosiga murojaat qiladi, uning sokin va tinch oqishiday chiroyli manzarani jannat qizlarining go‘zalligiga, daryo suvining “buralib” oqishini esa ilon izlariga mengzab, tashbeh san’atini qo‘llaydi. She’rdagi talmeh bilan tashbeh (o‘xshatish)ning o‘zaro aloqadorlikda qo‘llanilishi asarning mukammalligini ta’minlagan.

Cho‘lpon she’riyatidan olingan quyidagi parchadagi *yo‘q – bor, o‘lim – hayot, mozor – yashash, yo‘qolish – urinish* so‘zlari orasidagi *tazod [3.60]* san’atini vujudga keltirgan:

Sen uchun yo‘q o‘lim, mozor yo‘qolish,
Sen uchun bor hayot, yashash, urinish [7.160].

Fitrat bunday tazod qo‘llanilishini *so‘zdagi qarshilik* deb belgilaydi. “Holbuki, qarshilikning eng yaxshisi *fikrlararo qarshilik”* deb hisoblagan olim Bobur ruboiyi (bu haqda vazn munosabati bilan yana to‘htalinadi – M.T.) va Cho‘lponning “Men va boshqalar” she’ridagi fikriy qarshilikni namuna sifatida ko‘rsatadi:

“Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,
O‘ynag‘an boshqalar, ingrag‘an menman.
Erk ertaklarin eshitgan boshqa
Qullik qo‘shig‘ini tinglag‘an menman...” [3.61]

Bu o‘rinda “men” va “boshqa” timsollarining o‘zidayoq qarshilantirish ko‘rinadi, unga bog‘liq holda *kulgan-yig‘lagan, o‘ynagan-ingragan, erk ertagi-qullik qo‘shig‘i* kabi zid tushunchalar ham keltirilib, poetik timsolning aniqroq ko‘rinish kasb etishiga erishadi. Shu kabi Botuning quyidagi she’rida “men” va “sen” timsollarini tazod sifatida keltirib, ma’noni kuchaytirish maqsadida (men) *o‘ylaganni* (sen) *o‘ylamaysan,* (men) *kuylaganni* (sen) *kuylamaysan*, (men) *so‘zlaganni* (sen) *so‘zlamaysan*, (men) *ko‘zlaganni* (sen) *ko‘zlamaysan* so‘zlari asosiga she’r quradi:

Men o‘ylaganni sen o‘ylamaysan.
Sen kuylaganni men kuylamayman.
Men so‘zlaganni sen so‘zlamaysan,
Sen ko‘zlaganni men ko‘zlamayman [1.82].

Bir xil tovushlarning takroriga asoslangan *tavzi’* san’ati zamonaviy adabiyotshunoslikda alliteratsiya (undoshlar uyg‘unligi) tarzida tushuntiriladi. Elbek davriy voqealarning ramziy ifodasini berishda bu san’atdan o‘rinli foydalangan:

***K**o‘klamda **k**o‘karsa **k**o‘k **k**o‘katlar,*
***K**o‘klarga **k**o‘milsa **k**atta-**k**attalar,*
***K**o‘m-**k**o‘k **k**o‘karib **k**o‘rinsa **k**o‘llar,*
***K**o‘ngilni **k**o‘tarsa **k**o‘rkli **k**(g)ullar*...[6.30]

Cho‘lponning “Sirlardan” she’rida tavzi’ quyidagicha ko‘rinishda o‘z ifodasini topgan:

*...**S**ir deb **s**aqlaganing mening qo‘ynimda;*
***S**ir deb **s**aqlayinmi yo elga **s**ochay?*
***S**ochilgan **s**ochingday **s**ochilsa **s**iring,*
Anor yuzlaringni kimga tutasan?..[7.219]

Mumtoz she’riyatdagi *nido* she’riy san’atini Fitrat u*ndash* deb nomlaydi. Cho‘lpon erklik qo‘shig‘i kabi yangragan “Ko‘ngil” she’rida lirik qahramonning o‘z ko‘ngliga qaratilgan nutqi orqali nido san’ati vujudga kelgan:

***Ko‘ngil**, sen munchalar nega*
Kishanlar birla do‘stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?[7.211]

Bu o‘rinda birgina *ko‘ngil* so‘ziga murojaat orqali nido san’ati qo‘llanilayotgani yo‘q, balki butun she’r *ko‘ngil*ga shunday murojaat-undash asosiga qurilgani uchun ham u shoirning ta’sirli nidosiga aylangan. Mumtoz badiiy san’atlar imkoniyatlaridan bunday keng foydalanish Cho‘lponning qator she’rlariga xos.

Irsoli masal, yani maqol keltirish orqali fikr va tuyg‘uni quvvatlash mumtoz she’riyatdagi kabi Elbek ijodida ham o‘rinli qo‘llanilgan:

Bir maqol bor o‘zbekda, unda o‘zbek bunday der:
“Chigirtkalar ekin er, ekmay-tikmay tekin er!”
Hoy uyatsiz jonivorlar, ikki yuzi qarolar,
Sizdan emasmi bizga bunday yomon balolar?! [6.61]

Elbek badiiy san’atning imkoniyatidan foydalanib, o‘z fikrini yashirin va kinoyali tarzda ifodalagan. Ayni she’rda xalq qo‘shiqlariga yaqin ohangdorlik kuzatilgani kabi shoirning ayrim she’rlarida xalq qo‘shiqlari ruhini ijtimoiy mavzudagi she’rlariga singdirib yuborish kuzatiladi. Xalq og‘zaki ijodidagi:

Ko‘rmayin bosdim tikanni, tortadirman dardini,
Ko‘rsam erdi, bosmas erdim, tortmas erdim dardini

baytiga ohangdosh ravishda bitilgan baytda *tikon* timsoli shoir nazdida *ko‘rgulik*lar bo‘lib gavdalanadi:

Ko‘rgilik, ey ko‘rgilik, bizdan yo‘qol sen mangulik,
Biz bu dunyo ichra sendan ko‘rmadik bir yangilik [6.62].

Ko‘ringanidek, jadid shoirlari she’riy san’atlardan o‘z o‘rni bilan unumli foydalana olganlar. A. Fitrat mumtoz she’riyatdagi o‘lmas an’analardan bo‘lgan timsollar tizimi, poetik vositalar, ifoda va bayon uslubi orqali zamonaviy adabiyot o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan jihatlarni targ‘ib etib, har bir ijodkor bu benazir hikmat va san’at maktabidan oziqlanishi lozimligini o‘zlarining nazariy qo‘llanma va maqolalarida eslatdi. Ya’ni yuqorida keltirganimizdek, Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari”da *jonlantirish* san’atini “insondagi darajada tirikligi bo‘lmag‘an narsalarga, jonivorlarga insondagi tirik-likning hollarini, sufatlarini taqmoqdir” [3.56] deb belgilaydi:

Elbekning quyidagi misralarida ham jonlantirish san’atining chiroyli tasvirini ko‘rish mumkin:

Subhning siymin yoqasi yirtilib, sir bo‘ldi fosh,
Himralib, ming to‘lg‘onib, ko‘zlar suzib chiqdi quyosh.
Soqchi oyning, nurli oyning yuzlari so‘ldi yuvvosh,
Charchag‘an cho‘pon kabi mudrab ufqqa qo‘ydi bosh[6.92].

Bu o‘rinda shoir charaqlagan yoz kunlarida tong otar-otmas quyoshning *ming to‘lg‘onib, himralib, ko‘zlarini suzib* chiqishidan tunlarga soqchilik qilgan *oyning nurli yuzlari yuvosh* tortishi va noiloj *charchagan cho‘pon kabi mudrab ufq*qa bosh qo‘yishi jonlantirishning jozib namunasidir. Shoir she’rida jonlantirish san’ati orqali *quyosh* timsoli vositasida turli-tuman badiiy lavhalar yaratadi. Elbekning “Quyosh” deb sarlavhalangan boshqa 36 misrali she’ri ham to‘laligicha jonlantirish san’atiga qurilgan bo‘lib, quyoshni turli holatda tasvirlagan shoir voqelikni jonli

ta’sirli ifodalashda badiiy san’atning boshqa turlari bilan uyg‘unlashtirishga erishgan. Elbek she’larida *ruju’* (qaytish) san’atining go‘zal namunasi bor:

Quyosh-da ularning o‘tli so‘zlarin
Tinglag‘ach, kim bilar, balki shoshgandir,
Shuning-chun o‘ynoqi, chaqnoq ko‘zlarin
Suzib-suzib, yumib-yumib ochg‘ondir.

Yo‘q! U quyosh, ko‘zin yumib ochmaydir,
U sevadir, sevganidan qochmaydir!
Ul sevikli oshiqlarin ko‘rmakchi,
Kulib-kulib hollarini so‘rmakchi.. [6.95]

Birinchi banddagi *quyosh chaqnoq ko‘zlarini suzib-suzib, yumib-yumib ochishi* detali tasviriga qaytib, *yo‘q, u ko‘zini yumib ochmaydir,* balki sevikli oshig‘ini ko‘rmakchi bo‘lib, uning holini so‘rmoq istaganini jonlantirib tasvirlaydi.

Fitrat o‘z qo‘llanmasida “arabcha ta’riz, o‘zbekcha nis’ham-piching-uchuriq atalg‘an bir yo‘sin gaplashish (tosh otib gapirmak kabi) borkim, adabiyotda kinoyaning bir bo‘lagi sanaladir” deb yozish bilan *kinoya* san’ati mumtoz poetikada *ta’riz* atalishini yodga soladi. Botu she’rida:

Haybatli maydonda biz javlon qilganda,
Qilichlar o‘ynatib har yon ot surganda,
Qarshidan maydonga qahramon so‘rganda,
“Sichqondan joy so‘rgan” eski kuch, unutma![1.50]

She’rdagi *sichqondan joy so‘ragan* jumlasi kinoya asosiga qurilgan. Yangi hayot sari javlon urib kurashayotgan, katta yo‘lga otlanayotgan bir paytda o‘z iniga o‘zi sig‘magan sichqon kovakdan panoh so‘rash orqali eski yo‘lda qolib ketgan shaxslarga nisbatan kinoya qiladi.

Mumtoz she’riyatdagi kabi jadid she’riyatida ham bir misra yoki bir bandning o‘zida bir necha she’riy san’atlar uchraydi. Cho‘lponning “Yong‘in” sarlavhali (26 misrali) she’rining har bandi bir necha san’atlarga asosiga qurilgan:

Nega menim qulog‘imda tun va kun
Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?
Nega menim borlig‘imga har o‘yun
Va har kulgi og‘u separ, o‘t qo‘yar?[7.91]

misralarida tazod: *tun va kun*; so‘rash: *Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?;* sifatlash: *shumli tovush;* takrir: *har o‘yun, har kulgi;* tanosub: *o‘yin, kulgi; og‘u, o‘t; separ, qo‘yar;* istiora: *boyqush;* bu san’atlar o‘z me’yorini saqlagan holda o‘rinli ishlatilgan. Ammo she’rda tajohulu-l-orif va istiora etakchi san’at bo‘lib, bular vositasida asarning mohiyati to‘la ochib berilgan.

Mumtoz she’riyatda ko‘p qo‘llangan san’atlardan yana biri *tajohul ul- orif* bo‘lib, u haqda Atoulloh Husayniy: “so‘zlaguvchi bir nimani bilur, ammo bir nukta bila o‘zni bilmagandek ko‘rsatur” – deb yozadi. Fitrat domla bunday ko‘rinishni sodda va jo‘n qilib *so‘rash* deb belgilaydi: “shoir-adib umidsizlik, shoshqinlik, qizg‘inlik, kuchli bir qayg‘u kabi hollarga tushg‘anda o‘zining tuyg‘ularini uzil-kesil qilib onglata olmaydur-da, “umidir?”, “bumidir?”, “nechun bunday?” kabi so‘roqlarni qatorlab o‘tadir, kuchli tuyg‘ularni onglatish uchun chiroylik bir yo‘ldir” [8.132].

Botuning olti baytli g‘azali tajohul ul-orif san’atiga qurilgan bo‘lib, hayrat va madh izhori namoyon bo‘ladi:

Kuchli borliq, sirli dunyo, ko‘ngildan ber bir darak,
Ko‘pmi g‘avg‘o, ko‘pmi savdo menga baxsh aylar falak?
Qaysi tog‘da, qaysi bog‘da, qaysi chog‘da sayr etar,
Erki ko‘ngil erkini tun-kun qo‘riqlovchi malak?

G‘azaldagi *borliq, dunyo; g‘avg‘o, savdo; tog‘da, bog‘da* kabi bir-biriga yaqin so‘zlar tizmasidan *tanosub* san’ati vujudga kelgan. Borliq va dunyoning kuchli va sirli sifatlarini ifodalashda sifatlash san’ati qo‘l kelgan: *kuchli borliq, sirli dunyo*. *Malak* (yor) so‘zini qo‘llash bilan istiora san’ati vujudga kelgan.

Shu kabi Cho‘lpon she’rlarida bir band yoki misrada bir necha san’at turlarini qo‘llash holati keng uchraydi. Shoirning “Aldanish” sarlavhali she’rida tajohul ul-orif, takrir san’ati ham quyidagi ko‘rinishda o‘z ifodasini topgan:

Chindan-da men u kun yolg‘izmi qoldim?
Chindan-da u o‘tli sevgi bitdimi?
Chindan-da turmushdan og‘izmi oldim?
Chindan-da umidim butkul ketdimi?

Elbekning “Sevgilimga” sarlavhali she’rida bir necha san’atlarning uyg‘unlashuvi yuksak badiiylikni vujudga keltirgan:

*Ey, sevgili chechak tusli go‘zalim***,**
Shod o‘l, yasha sen bir uchmox gulisen:
Porloq yuzing, mungli ko‘zing, boq, nechuk
O‘xshatamen seni: hurlar hurisen

She’r undash: *ey, sevgili;* sifatlash: *chechak tusli malagim; porloq yuz, mungli ko‘z;* istiora: *uchmox gulisen*; tanosub: *yuz, ko‘z;* so‘rash: *nechuk o‘xshataman seni;* kabi san’atlarning mujassami sifatida namoyon bo‘lgan.

XX asr boshlari adabiy me’yorlari mumtoz she’riyatdagi ma’no va surat yakdilligini tasdiqlab, ularda o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlaydi. Bunday uyg‘unlik hosil qilinishida badiiy san’atlarning ham muayyan roli bor. Mumtoz she’riyatda faol bo‘lgan badiiy san’atlarning adabiyotimizda qo‘llanilishi ularni kelajakda ham

iste’molda ekanligini ta’minlagan edi. Mumtoz she’riy vositalarga murojaat qilish orqali jadid she’riyati, o‘z navbatida, mumtoz an’analarni davom ettirish bilan birga ularning yangi ma’no qatlamlarini ochishga intilganini kuzatish mumkin.

Jadid shoirlari she’riy san’atlarga murojaat qilganlarida, badiiy san’atlarni aruz tizimidagi she’rlargagina emas, balki barmoq tizimidagi she’rlarda ham faol qo‘llash orqali mumtoz badiiy tasviriy vositalarning umrini uzaytirishga urinish bo‘lganligi ko‘rinadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Botu. Yoz kuni / She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashr., 1980. – B.82.
2. Krachkovskiy I.Yu. Izbranыe sochineniya. T.VI. – S.179-257.
3. Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – B. 61.
4. Tojiboyeva Muqaddas. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an’analari va mahorat masalalari - Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2017.
5. Tadjibaeva Mukaddas Abduraximovna. "Traditsionnыe obrazы v uzbekskoy djadidskoy poezii." Problemы vostokovedeniya 2 (56) (2012): 53-58.
6. Elbek. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-manbaa konserni bosh tahririyati, 1999. – B. 30.
7. Cho‘lpon A. Asarlar. IV jildlik. II jild / Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 352 b.
8. Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.220.

IBRATDAN INGAN MA’RIFAT

Nazmiya Muxitdinova,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori, f.f.d.
muxitdinovanazmiya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Is’hoqxon To‘ra Ibrat adabiy-estetik qarashlarining til va adabiyot, milliy g‘urur, madaniy meros, milliy qadriyatlar poydevorini mustahkamlashdagi ahamiyati asarlari asosida dalillab berilgan. Ibrat she’rlari, «Lug‘ati sittati alsina», «Jome’ ul-xutut», «Tarixi Farg‘ona», «Mezon uz-zamon» kabi asarlaridagi ilmiy va ma’rifiy manbalar talqini g‘oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: til va adabiyot, ta’lim, ma’rifat, jamiyat, qadriyat

Tarjimasi: Bu tilda “industrial inqilob” yo‘q, “pasterizatsiyalangan sut” yo‘q, “kislorod” va “telefon” yo‘q, faqat qo‘ylar, baliqlar, sut va sharsharalar mavjud” tarzidagi ta’kididan islandlarning qadimdan tilini “yangilik”lardan asrab kelganligini bilish mumkin. “Va albatta, bu island tilida o‘zlashmalar mutlaqo yo‘qligini bildirmaydi, chunki rivojlangan va farovon Islandiyaning tilida iqtisodiyot, siyosat, savdo, texnologiyaga oid yangi o‘zlashmalar uchrab turadi. Shunga qaramay, island tili sof skandinav tilining namunasi bo‘lib qolmoqda, zamonaviy Islandiyadagi til vaziyati jahon miqyosida noyobligicha turibdi” [8, 145].

Til siyosatining amalga oshish joyi, yuzaga chiqish sohalari uning falsafiy mohiyatini tashkil etadi. Ijtimoiy tilshunoslik ta’lim-tarbiya, OAV, qonunchilik tizimini davlatning til siyosati birlamchi amalga oshiriladigan maydon hisoblaydi. Mazkur sohalar faoliyatida u yoki bu tilning qo‘llanishi, soha egalarining u yoki bu tildan foydalanishini huquqiy tartibga solish, ma’muriy boshqarib turish imkoni borligi sababli davlat o‘z siyosatini ayni sohalarda tatbiq etadi, sinovdan o‘tkazadi. Til siyosati choralari ham avvalo ayni sohalarda tilning qo‘llanishini nazarda tutib belgilanadi. Qolaversa, davlat fuqarolari, fuqarolar davlat bilan shu sohalar

vositasida munosabatga kirishadi. “Yuqoridan quyiga”, “quyidan yuqoriga” tarzidagi bunday aloqa-ta’sirlashuv jarayonlari muntazam muvofiq kechishi uchun ham munosabat tilini tayin qilib olish lozim. Munosabat tilini tayin qilish bir qarashda “yuqoridan quyiga” shaklida bo‘lishi shartdek, shunday bo‘lishi tabiiydek ko‘rinadi, ammo til siyosati choralari “quyidan yuqoriga” tarzida xulosa olish bilan belgilansa, amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish lisoniy mo‘ljallash (prognozlash) ishlarini olib borish, ommaviy so‘rovlar o‘tkazish bilan bo‘ladi. O‘zbekiston hukumatining alifboni takomillashtirish, xorijiy atamalarni o‘zbekcha muqobillariga almashtirishdek til siyosati pragmatik yo‘nalganligi bilan ajralib turadi.

Til – milliy o‘zlikni shakllantirish, namoyon etish va himoya qilish vositasi. Shuning uchun bir mamlakatda millati har xil fuqarolarning yashashi til siyosatida ziyraklikni, milliy o‘zlik va unga munosabatda “yetti o‘lchab kesish”ni talab qiladi. Xususan, muayyan tilni rasmiy til deb belgilash, uni rivojlantirish asnosida shu tilga qo‘llanishda ustuvorlik berilishi tabiiy, zotan, istifodada ustuvorliksiz tilni umumdavlat tili darajasiga ko‘tarish imkonsiz. Mutaxassislar bu jarayonda vakolatli tashkilotlarning biryoqlama harakatlari sababli kichik xalqlarning ijtimoiy begonalashish, ayirmachilik kayfiyati kuchayishi mumkinligini ta’kidlab, kichik tillarni qo‘llab-quvvatlash, ularni saqlab qolishga qaratilgan harakatlar etnik ziddiyatlarni yumshatishini bildiradilar [7, 95]. Boshqa mutaxassislar, masalan, F. Grin bunda real siyosatning kichik millatlarni do‘st yoki xavf deb qarashi masalani hal qilishini yoki etnik ozchilik tiliga ishonchning pastligi, uning yo‘qolish xavfi mavjudligi tufayli real vaziyat, shubhasiz, aks natija berishi mumkinligini aytadi. Agar etnik ozchilik ichki xavf deb qaralsa, real siyosat bunday tillarning qo‘llab-quvvatlanishiga qarshi bo‘ladi. Hatto ba’zan etnik ozchilik tillarini saqlab qolish ularda alohidalanish istagini rag‘batlantirishi, ayirmachilikni kuchaytirishi mumkin [2, 8], deydi.

D. Reomning fikricha, til madaniy va shaxsiy o‘zlikning ajralmas qismi bo‘lgani sababli faqat davlat yoki iqtisodiyot ehtiyojlari sababli emas, inson qadri va madaniy o‘zlikni tan olish uchun ham himoya qilinishi kerak. Turli madaniyatlar va guruhlar uchun til – o‘zlikni saqlash asosi. Agar til siyosati faqat bitta tilni rivojlantirishga yo‘naltirilsa, etnik guruhlar o‘zlarini chetlatilgan va kamsitilgan deb his qilishlari mumkin; til huquqlari faqat madaniy emas, siyosiy tenglikning kafolati deb ham tushunilishi kerak. Ijtimoiy barqarorlik va birdamlik uchun ham tilni himoya qilish lozim. Aslida lisoniy harxillikni himoya qilish ijtimoiy muvozanatni saqlash va ichki etnik ziddiyatlarni yumshatishga yordam beradi. Agar davlat ozchilik tillarini qonuniy ravishda tan olsa va ularni himoya qilsa, bu o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi [5, 245-272]. Bunga

qo‘shilgan holda O‘zbekistonning til siyosatida davlat tili ustuvorligi bilan birga boshqa mahalliy tillarning qo‘llanishi va “ishlashi”ga ham imkon beriladi va ularni himoyalash orqali milliy o‘zliklarni saqlab qolish maqsad qilinadi. “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun yoki “2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning tegishli qismlarida davlat tilidan boshqa tillarni rivojlantirish uchun imkoniyat berilgan.

Yuqoridagi kabi qarashlar til siyosati falsafasida uning inson huquqlari bilan munosabatini ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Ma’lumki, umume’tirof etilgan xalqaro hujjatlar tilni inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblaydi. Masalan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha pakti kichik etnik guruhlarga o‘z tilidan erkin foydalanish imkonini beradi. Fuqarolarning dini, irqi, tilidan qat’i nazar tengligi, ona tilida so‘zlashdek huquqining konstitutsiya darajasida kafolatlanganligi, davlatlarning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda boshqa shartnomalar shartlarini qabul qilganligi kabilar til siyosatida kamsitish va u bilan bog‘liq masalalarga imkon qoldirmaslikka undaydi. Masalan, O‘zbekiston ratifikatsiya qilgan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 2-moddasida: “Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo‘lishi zarur”ligi aytilgan. Ratikatsiya qilish bilan ushbu modda talablari, shuningdek, boshqa shartlarini ham bajarish majburiyatini olgan. Bu masalaga kattaroq rakursdan qaraladigan bo‘lsa, til siyosatida fuqarolarning til huquqlari hisobga olishdek tutum, aslida, lisoniy harxillikni saqlash, bu harxillik ortida turgan milliy-madaniy tajribalarni asrash, nechta til bo‘lsa, shuncha miqdorda dunyoni ko‘rish tarzidan judo bo‘lmaslikdir.

Hozirgi kunda G‘arb mamlakatlarida migratsiya va til siyosati faol muhokamadagi mavzulardan. Hatto “asli madaniy, lisoniy o‘ziga xosliklar himoya qilinishi kerakmi-yo‘qmi?” tarzida masala qo‘yilmoqda. Shunday muhokamalar zanjirida Yevropa Ittifoqiga migratsiyaning kuchayishi va ingliz tili vositachiligida milliy-madaniy harxillikning emirilayotgani tez-tez tilga olinadi. Ijtimoiy tilshunoslikni qo‘ya turing, boshqa sohalarda ham ayni mavzu chetlab o‘tilgani yo‘q. Masalan, R.Millerning “Bolalar, axloq va zamonaviy tibbiyot” asarida dunyo bo‘ylab muhojirlikning kengayishi, ko‘pmadaniyatlilikning rivojlanishi til siyosatida murakkabliklarni keltirib chiqarayotgani, madaniy va lisoniy to‘siqlar muhojir bolalarni davolashga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani yoritiladi [4, 181-195]. O.Garsiya migratsiyani til siyosati va monolingvistik ta’limga ta’siri sezilayotgan global muammo sifatida tushuntiradi va Yevropadagi bir tilli ta’limni ko‘ptilli ta’limga moslashtirish muammolaridan bahs etadi [1, 3-47]. V.Kimlika,

E.Gutmann, S.Benhabibning tadqiqotlarida migratsiya sababli shakllanayotgan koʻpmadaniyatlilik masalasi va uning davlatlar til siyosatida tutgan oʻrni, millati, tili har xil jamoalarni boshqarishning Kanada, AQSh va Avstraliya tajribasi tahlil qilingan [7, 110]. Mazkur holatlar aksar davlatlar til siyosati oʻtkazishda duch keladigan XXI asr realliklaridir. Muhojir oilalarni yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirish masalaning bir tomoni hisoblanadi. Uning ikkinchi tomonida muhojir oilalarning yangi til, yangi madaniyat muhitida milliy tili hamda madaniyatini ham saqlab qolishidek muammo turadi. Ilgʻor davlatlarning ilgʻor til siyosatida ayni jihatlar ham koʻzda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Garsia O. Weaving Spaces and (De)constructing Ways for Multilingual Schools: The Actual and the Imagined / Imaging Multilingual Schools: Languages in Education and Globalization. – Clevedon: Multilingual Matters, 2006. – P. 3-47.

2. Grin F. Language Policy Evaluation and the European Charter for Regional or Minority Languages. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2003. – P. 15.

3. Kymlicka W. Liberalism, Community, and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 1989; Gutmann E. Multiculturalism: Examining the Politics of Recognation. – Princeton: Princeton University Press, 1994; shu muallif. Identity in Democracy. – Princeton: Princeton University Press, 2003; Benhabib S. The Claims of Culture: Equality and Diversity in the Global Era. – Princeton: Princeton University Press, 2002.

4. Miller R.B. Erika’s Sepsis, Lia’s Convulsions, and Cultural Differences / Children, Ethics, and Modern Medicine. – Indiana: Indiana University Press, 2003. – P. 181-195.

5. Re´aume D. Official-Language Rights: Intrinsic Value and the Protection of Difference / Citizenship in Diverse Societies, 2000. – P. 245-272.

6. Re´aume D., Pinto M. Philosophy of language policy / Language Policy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – P. 37-58.

7. Young I.M. Justice and the Politics of Difference. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – P. 179.

8. Нагорная А.В. Современная Исландия: языковой пуризм в эпоху глобализации (Научно-аналитический обзор) / Языковая ситуация в Европе начала XXI века. – М., 2015. – С. 146.

9. https://www.goodreads.com/quotes/5698308-icelandic-language-in-this-language-no-industrial-revolution-no-pasteurized

QADIMIY QOʻLYOZMALAR TAQVIMLARINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Botir Jafarov,
Namangan davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimiy yozma yodgorliklardagi vaqt o‘lchovlari, ularning xronologiyasi va qo‘lyozmalar yaratilgan davrlardagi taqvimlar bo‘yicha kuzatishlar o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari qadimgi qo‘lyozmalarda sharq xalqlarining foydalangan aniq taqvimlar haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Avesto”, “Devonu lug‘ot it-turk”, taqvim, “Qutadg‘u bilig”, quyosh, oy, “Kodeks kumanikus”.

Аннотация

В данной статье рассматривается измерение времени в древних письменных памятниках, их хронология и календарные наблюдения во времена создания древних рукописей. Кроме этого в статье описаны древние рукописи народов Востока, которые отражают конкретные данные об использовании календарей

Ключавие слова: “Авесто”, “Диван лугат ит-турк”, календарь, “Кутадгу билиг”, солнце, луна, “Кодекс куманикус”.

Annotation: This article is about measurements of ancient time monuments, their timing and some observations on the calendars in times when manuscript was created. Besides that there was given information about ancient manuscripts of the people of the East, which reflect specific data on the use of calendars.

Key words: “Avesto”, “Devanu lugatit turk”, calendar, “Kutadgu bilig”, sun, moon, “Codex Cumanicus”.

Dunyo yaralganidan beri har bir shaxs, narsa (olam, zamin, insoniyat, jonzot, giyoh...)ning paydo bo‘lishi, yaralishi va nihoyasi vaqt izmiga bo‘ysunadi. Ibtido va intiho orasidagi masofa qancha ekanligi o‘z o‘lchovi bilan sarhisob qilinadi.

Insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab o‘zining yashagan davri, o‘z umri, qilgan va qiladigan ishlarini doim sarhisob qilib kelgan. Odamzot o‘zi yashayotgan olam, tabiat hodisalarini anglash uchun atrof muhitni kuzatish orqali, kun va tunni, oy va quyosh, hattoki, yulduzlarni hamda sayyoralarni payqay boshlagan. Odamzot, bunday vaqt o‘lchovlarini kun va tun, issiq va sovuqning almashinuvini nazorat qilish orqali idrok etgan.

Mazkur maqolada ajdodlarimiz dahosi bilan yaratilgan qadimiy qo‘lyozmalardagi tavimlar, jumladan, “Avesto” kitobidagi dunyoning yaratilishi,

“Qutadg‘u bilig” qo‘lyozmasining yaratilishi va unda berilgan taqvim hamda undagi hafta kunlarining nomlarini sayyoralar nomlari bilan atalishi, “Devonu lug‘ot it-turk” asaridagi o‘rta asrlarda yashagan turkiy halqlarning taqvimlari bo‘yicha bir qancha qimmatli ma’lumotlar va qolaversa, “Kodeks kumanikus” qo‘lyozmasining Italyancha qismida, 36/2 sahifasida lotin tilida hafta kunlari va oy nomlari taqvimlari to‘g‘rida fikr yuritilgna va ular muqoyasa qilingan.

Maqolada qiyosiy-tarixiy, retrospektiv (o‘tmish nuqtayi nazaridan qarash), ekstrapolyatsiya (narsa va hodisalarning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) kabi tadqiqot va tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tarixchi Shodmon Vohidovning “Xronologiya va mertologiya (qisqacha ma’lumotlar)” risolasida ta’kidlashicha: “Oylardagi kunlarni butunlash uchun oylar 29 va 30 kunlarga bo‘linadi. Qamariy oy kechalari haftalarga bo‘linadi. Osmondagi o‘sha vaqtlarda ma’lum bo‘lgan yulduz va sayyoralarga qarab Shanba – Zuhal (Saturn) kuni; Yakshanba – Quyosh kuni; Dushanba – Qamar kuni; Seshanba – Mirrix (Mars) kuni; Chorshanba – Utorid, Tir (Merkuriy) kuni; Payshanba – Mushtariy (Yupiter kuni); Juma – Zuhra (Venera) kuni deb nomlandi”[2.3].

“Avesto” taqvimi

Hafta kunlari bo‘yicha eng qadimiy va noyob ma’lumotlar bundan qariyb uch ming yil avval ko‘hna Xorazmda dunyoga kelgan, bugungacha nafaqat qadimiy Sharq, balki butun Yer shari ahlini ezgulikka da’vat etib kelayotgan eng qadimiy va buyuk obidamiz bo‘lmish “Avesto”da o‘z ifodasini topgan. Bu taqvim “Avesto”ning birinchi “Ahunavad goh”i bilan bog‘liq.

Avestoda yil taqvimi moddiy olam yaralishi bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra yaratilish jarayoni olti xilqat asosida ifoda etilgan. Ular ya’ni olamning yaralishi bir yil davomida yuz bergan va yaralish jarayoni *“Gahinbar”* yohud *“Gahanbor”* (asos) Pahlaviy tilida *“Gosonbor”* deb atalgan. Har bir gahonborning o‘z nomi bo‘lgan va gahanborlar yilning ma’lum bir tavqimida sodir bo‘lgan[3.309].

Birinchisi – *“Maydyuzarim”* osmonning yaralishi. U *“baxorning o‘rtasi”* ma’nosini bildiradi. Maydyuzarim yilning 41-kunidan 45-kunigacha besh kun davom etgan. Bu bosqichda oliy ilox Axura Mazda osmonu falakni yaratgan.

Zardushtiylik an’anasida yil boshi 21 mart hisoblangan, ya’ni Navro‘z kuni. Fervardan oyining ikkinchi kunida 27 martda Zardusht tug‘ilgan. Eronda Fervardan oyining oltinchi kuni *“Xudolar kuni”* (Tug‘ilish kuni) deb nishonlanadi.

Ikkinchisi – *“Miydyusham”* suvning yaralishi. Miydyusham *“yozning o‘rtasi”* degan ma’noni ifodalaydi. U yilning 101-kunidan 105-kunigacha besh kun davom etgan. Bu bosqichda Axura Mazda suvni yaratgan.

Uchinchisi – *“Patya Shxim”* zaminning yaralishi. Moddiy olam yaratilishining uchinchi bosqichining ma’nosi “*g‘alla yig‘ish”* demakdir. U yilning 176-kunidan 180-kunigacha besh kun davom etgan. Patya Shximda Axura Mazda erni yaratgan.

To‘rtinchisi – *“Ayosirim”* giyohlarining yaralishi. Uning ma’nosi *“uyga qaytish”* demakdir. Yaralishning bu bosqichida Axura Mazda o‘simliklarni yaratgan. O‘simliklarni yaratishdan maqsad to‘rt muqaddas unsurni tuproq, suv, havo, olov va oqibatda hayotni ulug‘lash edi.

Beshinchisi – “*Miydyorim”* jonvorlarning yaralishi. Uning ma’nosi *“yilning o‘rtasi”* demakdir. Bu yilning 290-kunidan 294-kunigacha besh kun davom etgan. Bu jarayonda Axura Mazda hayvonot dunyosini yaratgan. Qadimda qolgan besh oy *“Katta qush”* deb atalgan.

Oltinchisi – *“Hamaspatmadam”* insonlarning yaralishi. Bu aslida, moddiy olam vujudga kelishining eng oxirgi va yuksak bosqichini anglatadi. Mazkur so‘zning ma’nosi “Barcha mavjudot” demakdir. U yilning 360-kunidan 365-kunigacha besh kun davom etgan. Axura Mazda bu bosqichda er yuzida Kayumars va uning avlodi bo‘lmish odamni yaratgan. Demak, “Avesto” tasavvuricha olam olti bosqichda vujudga kelgan, har bir bosqich besh kun davom etgan. Dunyoning yaratilish jarayoni bir yil davomida o‘ttiz kunda sodir bo‘lgan.

“Qutadg‘u bilig” taqvimi

“Qutadg‘u bilig” da taqvim bo‘yicha juda ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Asar muallifi taqvim bo‘yicha o‘z yoshi va asarning yozgan yili va muddati haqida quyidagicha ma’lumot bergan.

“Qutadg‘u bilig”da muallif asar yozayotgan paytda yoshi ellik yoshdan o‘tib oltmish yoshni qoralayotganligini xaqida shunday yozadi.

Tegurdi manga elgi ellik yashim,
O‘qir altmish emdi manga kel teyu.

Ma’nosi:

Ellik yoshim menga qo‘lini tegizdi,
Endi oltmish menga, kel, deya chorlayotir.

Asarining yozilishi bilan bog‘liq taqvim:

Yil altmish eki erdi to‘rt yuz bila,
Bu so‘z so‘zladim man tutub jan sura.

Tugal o‘n sakkiz ayda aydim bu so‘z,
O‘ldurdum, adirdim so‘z evdim tera.

Yusuf Xos Hojibning yuqorida keltirilgan bayti taniqli turkiyshunos olim Qayum Karimov o‘zining “Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” (Saodatga yo‘llovchi bilim), transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tasnif” asarida shunday ta’rif beradi: – Muallif o‘z asarini hijriyning 462 yilida (1069 – 1070 milodiy) yozib tugallagan. Muallifning shahodat berishicha, agar u o‘z asarini 18 oyda yozib tugatgan bo‘lsa, uni hijriy 461 yilning birinchi yarmida boshlab, 462 yilning oxirida tugatgan bo‘lishi mumkin. Binobarin asarini tugatgan davrda muallifning 50 yoshlar chamasida bo‘lganligi va demak, uning hijriy 410 (1019 milodiy) yillar atrofida tug‘ilganligi ma’lum bo‘ladi[4.8].

Asarning beshinchi bobi kitobning boshlanishi, etti planeta, o‘n ikki burj deb nomlangan bo‘lib, unda olamning yaratilishi, osmon jismlari, yil, oy, fasllar, kun va tun taqvimlari hamda ularning nomlari haqida qimmatli ma’lumotlar o‘rin egallagan.

Butun olamni (o‘z) istagicha yaratdi,
Olamda kun ham oyni yaratdi.

Ushbu baytda olamning yaratilishi, undagi kun bilan tunni almashinib turishi izohlanmoqda. Bu o‘rinda kun – quyosh chiqishi va er kurrasida yorug‘lik chulg‘anishi aks ettirgan bo‘lsa, oy siymosida borliqni zulmat qoplab olishi, ya’ni qorong‘ulikning aks etishi yoritilgan. Shuningdek, quyidagi bayt misolida ham kun va tun aks etganligini ko‘rishimiz mumkin:

Yashil osmonni ustida yulduzi bilan yaratdi,
Qora tunni, yoruq kunduzni yaratdi.

“Qutadg‘u bilig” da hafta kunlarining nomlarini sayyoralar nomlari bilan atalishi bo‘yicha ham qimmatli ma’lumotlar mujassamlangan bo‘lib, Yusuf Xos Hojib ularning joylashuvi bo‘yicha har biriga alohida ta’rif berib o‘tgan.

Bu ko‘kdagi yulduzlarning bir qanchasi bezakdir,
Bir qanchasi rahnamo va bir qanchasi yo‘lchidir.
Bularning eng ustida “Sekantir” yuradi,
Bir burchda ikki yil va sakkiz oy qoladi.
Undan so‘ng ikkinchisi “O‘ngay” bo‘ladi,
Bir burjda o‘n (va) ikki oy qoladi.
Uchinchi bo‘lib “Ko‘rud” keladi, u g‘urur bilan yuradi,
U qaysi tomonga boqsa, yashnab turgan narsa quriydi.
To‘rtinchisi “Yashiq” bo‘ldi, olamni yoritadi,
U uzoqdan qarshi kelib kulib boqsa yoritadi.
Beshinchisi “Savit” sevikli yuzini ko‘rsatdi,

U sevib boqsa, sen o‘zingni ovutgin.
So‘ng “Orzu”, ya’ni tilak (va) orzular keladi,
(U) nimaga yaqinlashsa, unga o‘zini payvand etadi.
Bulardan eng oldinda [ya’ni pastda] “Yalchiq” yuradi,
Quyosh bilan qarshi kelgach to‘lishadi [4.81-83].

Yuqoridagi baytlarda keltirilgan nomlar: *Sekantir* – Zuhal – Saturn, *O‘ngay* – Mushtariy – Yupiter, *Ko‘rud* – Mirrix – Mars, *Yashiq* – Shams – Quyosh, *Savit* – Nohid yoki Zuhra – Venera, *Orzu* – Utorud – Merkuriy, *Yalchiq* – Oy kabilar samoviy jismlarning nomlari bo‘lib “Qutadg‘u bilig”da ular hafta kunlari nomlarini ifodalagan. Ularning soni ettitani tashkil etgan.

Yusuf Xos Hojib oy taqvimiga alohidan tarif berib, ularni kuyidagicha izohlaydi:

O‘n ikki O‘kak bulardan boshqadir,
Ayrimlari ikki xonali [ya’ni juft], ayrimlari bir xonali (toq)dir.
Qo‘zi – bahorgi yulduz, so‘ng Ud keladi,
Erangiz Quchiq bilan yaqin yuradi.
Qo‘rqmas Arslon bilan Bug‘doyboshi qo‘shnidir,
So‘ng Ulgu, Chazan va Yoy eshi bo‘ldi.
Yana O‘g‘laq, Ko‘nak va Baliq keldi,
Bular tuqqach, osmon yorishdi.

Yuqoridagi to‘rtlikda keltirilgan O‘kak – burj – Quyoshning yillik ko‘rinma harakati doirasidagi o‘n ikki yulduz turkumining nomlari: *Qo‘zi* –Hamal, *Ud* – Sarv, *Erandiz* – Javzo, *Quchiq* – Saraton, *Arslon* – Asad, *Bug‘doyboshi* – Sumbula, *Ulgu* – Mezon, *Chazan* – Aqrab, *Yoy* – Qavs, *O‘g‘laq* – Jadiy, *Qo‘nak* – Dalv va Baliq kabi burj nomlarining har biriga alohida ta’rif berish bilan birga Yusuf Xos Hojib ularinng yilda necha marta ko‘rinishiga qarab o‘n ikki burjning ba’zilari toq va ba’zilari juft bo‘lishini ham izohlab bergan.

Bundan tashqari Yusuf Xos Hojib yil fasllari bo‘yicha ham quyidagi baytlar misolida aniq ma’lumot berib o‘tgan.

Uchtasi bahorgi, uchtasi yozgi yulduzdir, bilgin,
Uchtasi kuzgi (va) uchtasi qishki yulduzdir, bilgin.
Uchtasi o‘t, uchtasi suv, uchtasi havo bo‘ldi,
Uchtasi tuproq bo‘ldi, olam (va) el (shulardan) paydo bo‘ldi [4.83].

Xulosa qilib aytish mumkinki, bizgacha etib kelgan eng qadimiy turkiy yozma obidalarimizdan biri bo‘lmish “Qutadg‘u bilig”da olamning yaratilishi, yil, fasl, oy nomlari, hafta kunlari bo‘yicha eng muhim ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

“Devonu lug‘ot it-turk” taqvimi

“Devonu lug‘ot it-turk” asarida o‘rta asrlarda yashagan turkiy halqlarning taqvimlari bo‘yicha bir qancha qimmatli ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan. Jumladan, lug‘atning Solih Mutalibov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimasining 79-sahifasida *öd* so‘zi o‘zbek tilida zamon, zamona, davr ma’nosini ifodalaydi. Bu quyidagi maqolda ham o‘z ifodasini topgan.

öd kecher kishi tojmas, jaleңuq og‘li moңi qalmas.

Tarjimasi:

Zamon o‘tar, qishi to‘ymas, inson bolasi mangu qolmas.

Ushbu asarning 80-sahifasidagi *ud* – sigir (chigilcha). Turklarning qabul qilgan o‘y ikki yilidan biri ham *ud jili* – sigir yili deb nomlanganligi, 87-sahifadagi *og‘ur* – vaqt. *ne og‘urda keidiң?* – qay vaqtda kelding, 115-sahifasidagi *uza* – o‘tgan asrlar, 116-sahifadagi *izi* – kelgusi yildan sunggi yil, kelajak yili, 120-sahifadagi *iңir* – yorug‘lik bilan qorong‘ilikning bir-biriga aralashishi, qo‘shilishi, 128-sahifadagi *özluk* – zamon, vaqt, 131-sahifadagi *axsham* – kech; oqshom; kunbotar vaqti, 145-sahifadagi *erte* – erta, tong, sahar vaqti, 158-sahifadagi *ikindi* – namozi asr (kun botishidan oldingi namoz) vaqti kabi so‘z va maqollarda o‘sha davrda muomalada bo‘lgan taqvim bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar berilgan.

“Kodeks Kumanikus” taqvimi

Yana bir qadimgi turkiy yodgorliklarimizdan biri “Kodeks Kumanikus” bo‘lib, U Dashti Qipchoqda XIII asr oxiri XIV asr boshlarida lotin alifbosida yaratilgan yagona yodgorlikdir. “Kodeks Kumanikus”da taqvim va sanalarni ifodalash uning birinchi sahifasidagi qo‘lyozmaning yozilish sanasi bilan boshlanadi. Qo‘lyozmaning birinchi sahifasida rim raqami bilan uning yozilgan sanasi MCCC III die XI July ifodalangan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda “Kodeks Kumanikus” 1303 yil 11 iyul sanasida yozilgan degan fikrni asosli ekanligini va bu sana “Kodeks Kumanikus”da ifodalangan taqvimlar debochasi degan fikrimizni isbotlaydi.

“Kodeks kumanikus” qo‘lyozmasining Italyancha qismida, 36/2 sahifasida lotin tilida hafta kunlari va oy nomlari lug‘ati berilgan bo‘lib, uning forscha va qumancha tarjimalari berilgan va ular quyidagi hafta kunlari va oy nomlaridan iborat:

Italyancha	Forscha	Qumancha
Lune	*Du sanbe*	*Tu sanbe*
Martis	*Se sambe*	*Se sanbe*
Mercuris	*Çaar sanbe*	*Çaar sanbe*
Jouis	*Pan Sanbe*	*Pansanbe*
Veneis	*Adina*	*Ayna*

Sabato	*Sambe*	*Sabat cun*
Dnicha	*Jec sanbe*	*Jeʃanbe*

Oy nomlari:

Italyancha	Forscha	Qumancha
Menʃis	*May*	*Ay*
Kalenbas	*Tari mox*	*Aybaʃi*
Janr	*Safar*	*Safar ay*
Februar	*Fabiaual*	*Sounç ay*
Marcuis	*Fabio lagher*	*Ylias ay*
Aprlis	*Gimediaual*	*Tob ay*
Madius	*Xegep Gimediela*	*Songu ʃax ay*
Junius	*Saabam*	*Cuz ay*
Julius	*Xamaba*	*Örta Cuz ay*
Aug	*Saugal*	*Sonchitz ay*
Setembr	*Çıl chaabe*	*Ches ay*
Öctubr	*Dilghia*	*Örta ches ay*
Noucber	*Mugara*	*Curba bara ay*
Decenbr	*Desombr*	*Aʃuc ay [5.47].*

“Kodeks Kumanikus”da berilgan taqvimlarni tekshirish jarayonida shu narsa aniq bo‘ldiki, o‘sha davrda Dashti Qipchoqda amal qilingan quman tilida haftaning juma kunini nomlanishi turkiy tillarning hech birida uchramaydigan “Ayna” shakli mavjudligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Juma kunini “Ayna” tarzidagi shakli faqatgina “Kodeks Kumanikus”da ishlatilgan. Boshqa turkiy qo‘lyozmalarda bu so‘zning “Ayna” shakli uchramaydi. Bu so‘z qadimgi turkiy xalqlar lug‘atida Ajdïŋ [6.28]. – oy yog‘dusi ma’nosida ifodalangan.

Xulosalar

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qadimiy yodgorliklarimiz bo‘lmish “Avesto”, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘ot it-turk”, “Kodeks Kumanikus” kabi nodir adabiy yodgorliklarimizda qadim zamonlardan buyon shakillangan astrologiya, xronologiya, meterologiya fanlari uchun asos vazifasini o‘tab kelayotgan yil, oy, hafta, kun va hattoki, har bir soat taqvimlari an’anaviy hamda til xususiyatlariga ko‘ra bir biridan qaysidir ma’noda farq qilishiga qaramasdan, o‘zida qimmatbaho fikr va ma’lumotlarini mujassam etgan.

ADABIYOTLAR

1. Ваҳобов Ш, Қодиров А. Хронология ва метеалогия. “Янги аср авлоди” – Тошкент. 2010.

2. Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент. 2001.

3. Каримов Қ. “Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг” (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тасниф”. “Фан”. Тошкент – 1971.

5. Drimba V. Codex Comanicus: Édition diplomatique avec facsimilés. – Bucarest: Editura Enciclopedica, 2000.

6. Древнетюркский словарь. Издательство «Наука» Ленинград. 1969.

MA’NAVIY TARBIYADA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING AHAMIYATI

Olimjon Davlatov,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori,
filologiya fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo‘lidagi tizimli muammolar hamda ularni baratarf etish mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan. Ma’naviy tarbiya yo‘lida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning ahamiyati aniq misollar, xorij tajribalarining tahlili asosida berilgan.

Tayanch iboralar: ma’naviy tarbiya, kitobxonlik madaniyati, badiiy ijod, ma’naviy targ‘ibot, shaxs tarbiyasi.

Аннотатсия

В стате показаны системные проблемы в развитии культуры чтения и механизмы их устранения. На основе конкретных примеров и анализа зарубежного опыта приводится важност совершенствования культуры чтения на пути духовного воспитания.

Ключевые слова: духовное воспитание, культура чтения, художественное творчество, духовное продвижение, воспитание личности.

Annotation

The article shows systemic problems in the development of reading culture and mechanisms for their elimination. Based on specific examples and analysis of foreign experience, the importance of improving the reading culture on the path of spiritual education is given.

Key words: spiritual education, reading culture, artistic creativity, spiritual advancement, personality education.

Dunyoda bir qo‘lida qilich, bir qo‘lida qalam tutib, qilich bilan o‘zining hurriyati va erkini asragan, qalam bilan o‘zining betakror ma’naviy olamini yaratgan xalqlar juda kam. O‘zbek xalqi ana shunday toleli xalqlardan. Uning peshonasiga Alp Er To‘nga, Istemixon, Amir Temur va Mirzo Boburdek buyuk fotih va sarkardalar bilan bir qatorda Yusuf Xos Hojib, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy kabi so‘z mulkining sohibqironlari ham bitilganki, jahon tamadduni tarixini ularning merosisiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fanga, madaniyat va san’atga e’tiborli bo‘lish xalqimizning qon-qoniga singgan desak, o‘ylaymanki, mubolag‘aga yo‘l qo‘ymagan bo‘lamiz.

Shu bilan birga, shonli o‘tmishga mahliyo bo‘lmasdan, hayotning kundalik muammolariga ham o‘z vaqtida echim topish, tarbiya va ta’lim jarayonidan bir lahza ham g‘ofil bo‘lmaslik – barcha davru zamon uchun muhim masalalardan biri bo‘lib qolajak. Ayniqsa, yoshlarning ma’naviy olami, ularning qiziqishi, tafakkur tarzi hamisha e’tibor markazida bo‘lmog‘i lozim.

Bugungi kunda yoshlarimiz yoppasiga “Urush va tinchlik”, “Xamsa” kabi asarlarni o‘qiyapti, desak, o‘zimizni aldagan bo‘lamiz. Lekin tanamizga bir o‘ylab ko‘raylik: davlatimiz Rahbari o‘z chiqishlarida nimaga aynan ana shunday asarlarni misol keltirayaptilar? Demak, bu kitoblarni yosh avlod albatta o‘qishi kerak... Demak, faqat oldi-qochdi asarlar emas, balki olamning jumboqlari haqida o‘ylantirdigan, ma’naviyatni yuksaltiradigan, insonga insoniylik maqomini eslatib turadigan, eng asosiysi, vaqt o‘tkazish uchun emas, nimadir o‘rganish uchun o‘qisa bo‘ladigan asarlarni yoshlarimizga etkazish haqida o‘ylashimiz lozim.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ilk Farmoyishi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” bo‘lganligi, o‘z faoliyati davomida yagona ma’naviy makonni yaratish borasida izchil va tizimli siyosat yuritayotgani ilm va ijod ahli, umuman, jamiyat kelajagiga befarq bo‘lmagan har bir ma’naviyatli fuqaroni ruhlantirib, ayni shu muammo haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi.

Oxirgi paytlarda davlat nashriyotlari o‘zining “shaxsiy tomorqasi” chegarasini belgilash, xususiy nashriyotlar esa, “adabiy brokanerlik” bilan shug‘ullanayotgandek tuyuladi menga. Bir-birini takrorlaydigan nashrlar haqiqatda ko‘payib ketdi. Eng asosiy sabab – ijodkorlarning yozishdan hafsalasi pir bo‘lgani, ijod jarayoni susayib qolgani, deb bilaman.

Savol tug‘iladi: kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak? Qaysi yo‘l, qaysi usul, qaysi yo‘nalish biz uchun maqbul hisoblanadi?...

Rossiya Federatsiyasi misolida xorij tajribasi muhokamasiga qaytaylik. Rossiyada eng ko‘p o‘qiladigan mualliflar – Darya Donsova, Lyubov Ustinova, Aleksandra Marinina. Bu xonimlarning kitoblarining yillik tiraji ba’zida 10 million(!)dan oshadi. Tolstoy, Dostoevskiy, Nekrasov, Yesenin, Pushkin...larning tiraji 50 ming adad atrofida. Nashriyotlar “ozgina muhabbat, ozgina jinoyat, ozgina vijdon, ozgina erotika” yig‘indisi (eng muhimi, siyosiy xatosi yo‘q!) bo‘lgan “bestseller”larning foydasi hisobidan klassik asarlarni muntazam chiqarmoqdalar. Nashriyotlarga to‘liq huquq berilgan. Rossiyada noshirlik – biznes, biznesda esa, ma’naviyat masalalari uchinchi darajaga tushib qoladi... Shu sabab bo‘lsa kerak, rus she’riyatida bugun Yevtushenko, Rojdestvenskiy, Voznesenskiy kabi iste’dodlar yo‘q hisobi... Bunday holat bizda XX asrning boshida bo‘lib o‘tgan. Toshbosma asarlarning nashri yo‘lga tushgach, asosan “Abu Muslimnoma”, “Qissai Amir Hamza”, “Chor darvesh” kabi sarguzasht asarlar, “Lazzat un-niso” (“Ayollardan lazzatlanish”)dek pornografik kitoblarni katta tirajda chiqarishgan. Bu – bir tomondan xalqni asl manbadan uzoqlashtirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan cho‘ntakni qappaytirish maqsad qilingan.

Ikkinchi tajriba – Fransiya va Amerikadagi holat. Adabiyotga ham, ma’naviyatga ham biznesning bir bo‘g‘ini sifatida qarash. Bugungi kunda fransuz shoirlari o‘z mablag‘i hisobidan yuz, ikki yuz dona kitobni chiqarib, adabsevar odamlarga tarqatishayapti. Hatto Nobel mukofoti olgan adiblarning tiraji ham 1000dan oshmaydi. Yaponiyada esa, yozuvchilik kasb emas, balki ermakning bir turi... Ammo bugungi kunda Yevropadagi ma’naviy inqiroz, bir jinsli nikohga ruju qo‘yishlik, Markiz de Sadning asarlari “Oltin Pleyada” rukni ostida fransuz adabiyotining mumtoz namunasi sifatida taqdim etilayotgani bu yo‘l o‘zbek xalqi uchun maqbul emasligini bildiradi. Yaponiyada yoshlar ichida xudkushlik tobora urfga kirayotgani moddiy farovonlik hali barqarorlik belgisi emasligining isbotidir...

Yana asosiy savolga qaytaylik: Yaxshi asarlar paydo bo‘lishi uchun nimalar qilish kerak? Nega bugungi kunda yoshlar ichida 20-30 yoshli Qodiriy, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov yo‘q? Aslida mustaqillik berilgan imkoniyat adabiyotni ham miqdor, ham sifat jihatidan bir necha pog‘ona yuqori ko‘tarishi kerak edi-ku?!...

Sulton Husayn Boyqaro “Risola”sida iftixor bilan qayd qiladiki, Hirot va uning atrofida har ming kishidan bir kishi shoirlik bilan jiddiy shug‘ullangan. Ularning eng ulug‘i esa, Navoiy bo‘lgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda 30 mln aholi yashaydi. Demak, 30 000 ta shoir bugungi kunda adabiy faoliyat bilan jiddiy shug‘ullanishi kerak. Buyuklar – ko‘pchilik ichidan yorilib chiqadilar. O‘shanda

biz istiqlol davrining Navoiysi, Qodiriysi, Oybek va G‘afur G‘ulomiga ega bo‘lishimiz mumkin.

Shoir xalqining tug‘ma kasalligi bor – o‘zidan boshqa shoir yo‘q, deb hisoblaydi. Bularni rag‘batlantirish, safini kengaytirish, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish, yaxshilarini targ‘ib etish esa, bevosita nashriyotlar zimmasiga tushadi. Buning uchun esa, Prezidentimiz aytib o‘tganlaridek ,“noshirlar ijodkorlarning xizmatkori bo‘lishi kerak.”

Ijodkor ro‘zg‘orini qalam uchi bilan tebratadi. Qalam haqi esa, o‘tmishdan ertaklar bo‘lib qoldi. Nashriyotlar xohlasa-xohlamasa, qalam haqi to‘lashga qurbi etmaydi. Birinchidan, so‘nggi besh-o‘n yilda 20-30 ming adadda chiqqan kitobni ko‘rmadim (Eng kamida har ming kishiga bir nusxani mo‘ljallab kitob chiqarish yaxshi an’ana edi). Bugungi kunda o‘rtacha tiraj – 1000 nusxa. O‘n bosma taboq hajmidagi bitta kitobning o‘rtacha narxi – 5 ming so‘m. Asar muallifi bitta kitobning boshlang‘ich narxidan foiz stavkalari tarzida to‘lanadigan eng kam stavka – 5 foiz. Demak, 160 betlik original asar muallifiga nashriyot himmat qilsa, 250 ming so‘m gonorar to‘laydi. Xususiy bosmaxonalarga faqat chop etish xizmatiga (“progon”) uchun 400 ming so‘m to‘lash kerak. “Pechatnik”ning xizmat haqi muallifdan ham, muharrirdan ham, musahhihdan ham ko‘p... Nazarimda, biz, noshirlar, bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatini tushunmaganimiz oqibatida shunday kunga tushdik: bozor sharoitida narxni sun’iy ravishda pasaytirish bozorning kasod bo‘lishiga olib keladi. “Odamlar kitob o‘qimay qo‘ydi, sharoit og‘ir”, degan bahona bilan 90-yillardan boshlab, na ijodkorni o‘yladik, na nashriyot ahvolini. Go‘shtning narxi tabiiy ravishda oshadi, unning narxi ko‘tariladi, shakar, gaz, chiroq, benzin, gugurt... faqat kitobning narxi ko‘tarilishi mumkin emas. Hozirgi kunda kitob mahsulotlari eng arzon narxda O‘zbekistonda chiqadi. Rossiyada bugungi kunda 100-200 mingga sotilayotgan kitobni O‘zbekistonda bemalol 30-40 ming so‘mda chiqarsa bo‘ladi (holbuki, Rossiya qog‘ozni import qiluvchi emas, eksport qiluvchi mamlakatlardan hisoblanadi). Natija esa, aksincha... Aytmoqchimanki, ijodkor to ro‘zg‘or tashvishidan, turmushning “musht”laridan qutulib, ichki xotirjamlik bilan ijod qilmas ekan, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzaev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi adabiyotni o‘ziga qismat deb bilgan iste’dodlar etishib chiqishi gumon... Ijodkorga ham non kerak, ham non... Ham nom, ham nonga ega bo‘lishi uchun nashriyotlarning ahamiyati beqiyos...

***

Shunday bashoratlar ham bo‘layaptiki, “o‘qish sivilizatsiyasi” davri o‘tdi, “endi “ko‘rish sivilizatsiyasi” davri boshlandi. Yoshi oltmishlarga borib qolgan bir shoirimiz ko‘rgan kinolarini ham bir badiiy asar o‘qishga teng, deb hisoblayapti.

Sho‘rlik shoir “O‘tkan kunlar”ni ham kino orqali “o‘qigan”mi, deyman... Aslida, radio ham, televidenie ham, Internet ham kitobning o‘rnini bosolmasligini butun jahon e’tirof etmoqda. Farmoyishda juda to‘g‘ri ko‘rsatilganidek, biz yuqorida nomlari olingan vositalardan ham kitob targ‘ibida unumli foydalana olmayapmiz. Har kuni “Yoshlar” telekanalida shrot, sheluxa, shifer, ko‘mir...ning narxi birjada qancha ekanligi titr orqali berib boriladi. Nashriyotlar yilida ikki ming kitob chiqarishadi. Bu – kuniga o‘rtacha 6 ta kitob degani. Oltita xabar, oltita yangilik. Mingdan ortiq gazeta va jurnallarimiz, ijtimoiy tarmoqda saytlarimiz bor. Bu – mingta minbar, mingta ijtimoiy reklamaning joyi. Kitobga munosabat bildirish, taqriz yozish – taqrizchilarning ishi, lekin shunday kitob chiqqani va qaerda qanchadan sotilayotgani haqida xabar yozish har bir jurnalist va blogerning qo‘lidan keladigan ish.

***

Xususiy nashriyotlar, umuman xususiy nashrlar (agar aqli shunga etsa), “tig‘ ustida yurgan dorboz”dek faoliyat yuritishadi. Xudo ko‘rsatmasin, yollanma muharririning aybi bilanmi, oliy ma’lumotli savodsiz musahhihning aybi bilanmi, bitta jiddiyroq “ishkal” chiqib qolsa, nashriyot litsenziya bilan vidolashadi. Bu nashriyotni oyoqqa qo‘yish uchun bechora muassisning qancha puli ketdi, qancha qarzdorligi bor, oqibati nima bo‘ladi – bu bilan birovning ishi yo‘q... Muharrir mehnat daftarchasini ko‘tarib borib, yana boshqa bir xususiy nashrga ishga joylashib oladi. Muassis-chi?! Yillar davomida paxta rejasini bajarmay, ichkilikbozlik qilib yuradigan fermer bitta qurib ketgur harf orqasidan bor-budidan mosuvo bo‘lish xavfi bilan yashaydigan noshirdan erkinroq. Xato qilishdan qo‘rqmaslik kerak. Albatta, bu bilan men noshirlarning jilovini qo‘yib yuborish kerak demoqchimasman. Lekin bunday radikal choradan ko‘ra iqtisodiy jazo qo‘llash maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Masalan, jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ygan nashriyot o‘z hisobidan birorta ijtimoiy ahamiyatga molik asarni o‘z mablag‘i hisobidan nashr etib,bepul tarqatish majburiyati zimmasiga yuklatiladi. Shunda noshir ham to‘g‘ri saboq chiqarib, hushyorroq harakat qilishga majbur bo‘ladi.

***

Noshirlik sohasi – ma’naviy hayotimizning ajralmas qismi, mentalitetimizning butun bo‘lishiga xizmat qiluvchi asosiy soha ekanligini aytib o‘tishning hojati yo‘q. Shu bilan birga, noshirlik – agar tizim to‘g‘ri va bexato ishlasa, katta daromad keltiruvchi soha ekanligini ham unutmaylik. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida 6,5 million oila yashaydi. Agar har bir oila yil davomida eng kam oylik ish haqining yarmi miqdorida kitob sotib olsa, O‘zbekistonning o‘zida 10 trln 70 million (= 924 mln. AQSh dollari) so‘mlik kitob mahsulotlari sotiladi.

Iqtisodiy qiyinchiliklarni ro‘kach qilish zamoni o‘tdi. Xalqimiz hech kimdan kam emas. Bir iqtisodchi do‘stimizning xomaki hisob-kitobiga ko‘ra, bir oyda O‘zbekiston xalqi uyali telefonlar to‘loviga 20 trln.so‘m sarflar ekan... Faqat targ‘ibot hamda marketing va xizmat ko‘rsatish masalalariga jiddiyroq qarash kerak.

***

Mebelsozlik sohasi ham mamlakatimizda yaxshi rivojlangan. Ammo birorta mebel do‘konida yaxshi kitob javonini ko‘rmaysiz. Sababi – talab yo‘q. Uyida kutubxonasi bo‘lmagan oilada o‘sayotgan o‘spirin keyinchalik turli oqimlarga da’vat etuvchi kitoblarga qiziqsa, ajablanmaslik kerak: sababi, unda kitobxonlik malakasi yo‘q, unga birov kitob sovg‘a qilmagan, kitobni yaxshi-yomonga ajratolmaydi, o‘g‘ri bilan to‘g‘rining farqiga bormaydi. Darslik – majburlab o‘qitiladigan kitob. Badiiy, ommabop, texnika, geografiya...ning qiziqarli masalalariga bag‘ishlangan kitoblarni ko‘rmagan bolaning qo‘liga notanish mehribon kimsa “shuni o‘qing, sizning fikringiz biz uchun muhim”, deb tursa, g‘o‘r bola albatta aldanadi...

Har yili respublika bo‘yicha 10000 dan ortiq kottej davlatning imtiyozli krediti hisobidan qurilmoqda. Atrofida basseyn, do‘kon, ambulatoriya, maktab, ko‘ngilochar maskanlar qurilishi mo‘ljallangan, lekin kitob do‘koni yoki axborot-resurs markazi qurish doimgidek esdan chiqib qoladi. Besh yulduzli mehmonxonalarimizda ham kitob – anqoning urug‘i. Har bir tashkilotda ma’naviyat xonasi bor. Shinam xonalar, patgilamlar, televizor, kompyuter, minbar... Kitob esa, ma’naviyat xonasida yo‘q hisobi. Bu xonalar ko‘pincha dushanba kuni ertalab bir marta ochilib, shu bilan og‘ziga qulf solinadi. Men ma’naviyat bilan kitobni egiz tushunchalar deb bilaman va o‘ylaymanki, siz ham bu borada men bilan hamfikrsiz.

Sho‘ro zamonida bizning qishlog‘imizda uchta kutubxona – maktab, qishloq soveti hamda kolxoz kutubxonalari faoliyat yuritardi. Nashrlarning asosiy qismi rus tilida edi. Har kvartalda yangi kitoblar bilan boyib boradigan kutubxonalar sharofati bilan biz, yoshlar, eng chekka qishloqlardan birida turib, dunyo ma’rifatidan baholiqudrat bahramand bo‘lardik. Suhbatlar, gap-gashtaklarning asosiy mavzusi ham kitoblar atrofida edi. Bugungi kunda kollej va litseylarning kutubxona fondi g‘arib bir ahvolga tushgani, qishloqlarda kutubxona degan ma’rifat maskani deyarli qolmagani achinarli hol...

***

Ochig‘ini aytish kerak – ziyoli moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lmaguncha, ma’naviy yuksalish haqidagi urinishlarimiz zoe ketadi. Millatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi ijodkor kitobini chiqarish uchun echki go‘shtini qo‘y

go‘shtiga qo‘shib sotadigan qaysidir qassobning himmatiga muhtoj bo‘lib turgan joyda bolalarning ideali – olim yo shoir emas, futbolchi yoki tojir, talpinadigan joyi – kutubxona emas, bozor bo‘lib qolaveradi... Men hamma ijodkor bo‘lsin, demoqchimasman. Lekin bozor ma’naviyatning ravnaqiga xizmat qilmasa, aksincha ma’naviyat bozorning talablariga qaram bo‘lib qolsa, millatning iste’dodli farzandlari o‘z aziz umrlarini bozor rastalarida xor qilib o‘tadilar, deb qo‘rqaman... Ma’naviyat sohasida qilingan islohotlar hayotning boshqa sohalaridan ko‘ra kechroq samara beradi. Bunday islohotlar iqtisodiy samaradorlik, siyosiy barqarorlik, taraqqiyotning poydevori bo‘ladi. Poydevor esa, ko‘pincha, ko‘zga ko‘rinmaydi...

Eng og‘riqli nuqtalardan biri – kitob do‘konlari masalasi. So‘nggi uch-to‘rt yilda respublikada kitob do‘konlari ko‘payib bormoqda. Ana shu tizimni faollashtirish uchun yagona elekron tijorat tarmog‘i (har bir nashriyot qaysi do‘konda nechta kitobi sotilganligini muntazam nazorat qilib borishi uchun), imtiyozlar (bozorlarning eng gavjum joyidan do‘kon ajratish, ijara haqi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarda imtiyoz berish) va boshqa qulayliklarni yaratish kerak, deb o‘ylayman.

***

Nashriyotlar muayyan rejalarni amalga oshirish uchun imtiyozli kreditlar olishi tizimini ham o‘ylab chiqish kerak. Deylik, bitta nashriyotning umumiy mulki – 50 mln.so‘m. U amalga oshirmoqchi bo‘lgan loyiha – Ibn Sinoning farmakologiyaga oid asarlarini tarjima qilib, nashr ettirish. Loyihani amalga oshirish uchun 300 mln.so‘m mablag‘ kerak. Xaridor ham topilgan, kitob ham tayyor deylik. Ammo biror bank ana shu loyihaga imtiyozli kredit ajratmaydi. Bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunda “chet el investorlari OAVga muassis yo hammuassis bo‘lishga haqli emas”, deb belgilab qo‘yilgan. Bu – to‘g‘ri. Sababi, chet el sarmoyadori O‘zbekistonda o‘z mablag‘i hisobidan gazeta, jurnal yo nashriyot ochib, o‘z mafkuraviy manfaatlarini targ‘ib qilish vositasiga aylantirishi xavfi bor.

***

Davlatimiz Rahbari o‘z chiqishlarida qayta-qayta ta’kidlaganlaridek, bugungi kunda mafkuraviy poligonlar yadroviy poligonlardan xavfliroq bo‘lib qoldi. Chet mamlakatlaridagi ayrim kuchlar O‘zbekistondagi barqarorligiga raxna solish uchun milliard-milliard dollar sarflayotganini bilamiz. Unga qarshi turishning eng maqbul yo‘li – ma’naviy olami butun Shaxslarni tarbiyalash. Hamma narsani ota-ona yoki maktab o‘rgatolmaydi. Eng yaqin do‘st, eng beminnat yordamchi – bu kitob. Yaxshi kitoblarni ko‘proq chiqarib,

bolalarimizning savodxonligini oshirish – ertangi kunimiz bugundan-da go‘zalroq bo‘lishining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2022.
2. Evola Yu. Osedlat tigra. SPb. : Vladimir Dal, 2016.
3. Yulo Vooglayd, Vatandoshlik dasturi. – Toshkent: “Azon kitoblari”, 2023.
4. Nurgalieva Anastasiya Fagimovna, Nazarova Svetlana Yurevna, Semirikov, Andrey Borisovich. Kultura chteniya v informatsionnom obщestve // Tekst. Kniga. Knigoizdanie. 2017. №14. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kultura-chteniya-v-informatsionnom-obschestve
5. Malaxova Mariya Amiranovna Situatsiya s chteniem segodnya: obzor podxodov k probleme // Filologicheskie nauki. Voprosы teorii i praktiki. 2016. №1-2 (55). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/situatsiya-s-chteniem-segodnya-obzor-podhodov-k-probleme
6. Are We Reading less, and if so, Why ? - Cultural Daily, https://culturaldaily.com/are-we-reading-less-and-if-so-why/

QO‘QON ADABIY MUHITIDA DEBOCHANAVISLIK AN’ANALARI

Farida Karimova,
NamDU dotsenti, f.f.d.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilga ijodkorlar Amiriy, Nodira, Muhsiniy, Uzlat, Muhayyir devonlari debochalari tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar. Adabiy muhit, devon debocha, Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilga ijodkorlar Amiriy, Nodira, Muhsiniy, Uzlat, Muhayyir

Абстрактный

Статья посвящена анализу предисловий к диванам Амирия, Нодиры, Мухсини, Узлата и Мухаййира, творивших в литературной среде Коканда.

Ключевые слова. Литературная среда, предисловие девона, В данной статье творцами, творившими в литературной среде Коканда, являются Амирий, Нодира, Мухсиний, Узлат, Мухайир

Abstract

Stat'ya posvyashchena analizu predisloviy k divanam Amiriya, Nodiry, Mukhsini, Uzlata i Mukhayyira, tvorivshikh v literaturnoy srede Kokanda.

Keywords. Literaturnaya sreda, predisloviye devona, V dannoy stat'ye tvortsami, tvorivshimi v literaturnoy srede Kokanda, yavlyayutsya Amiriy, Nodira, Mukhsiniy, Uzlat, Mukhayir

O‘zbek adabiyotida debochali devon tartib berish Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq. Fors-tojik adabiyotining Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk so‘z san’atkorlarining an’analaridan ijodiy ilhomlangan shoir “Badoe’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” devonlarini o‘ziga xos va mukammal debochalar bilan bezadi. Bu debochalarda mukammal devon tuzishning eng muhim tamoyillarini asoslab berdi. Bu haqda biz avvalgi tadqiqotlarimizda fikr yuritganmiz. [1.112]

Qo‘qon adabiy muhitining deyarli barcha vakillari Navoiyni o‘zlariga ustod deb bildilar va uning ijod sarchashmalaridan bahramand bo‘ldilar. Xususan, Navoiyning debochali devon tartib berish an’anasini ijodiy davom ettirdilar.

XIX asr va XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhitining Amiriy, Nodira, Nodir-Uzlat, Muhsiniy, Muhayyir kabi namoyandalari ham devonlariga debocha bitganlar. Qo‘qon xoni Amir Umarxon Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Amiriydan bizgacha o‘zbek va tojik tillarida yaratilgan she’rlarini o‘z ichiga olgan devon etib kelgan. Shoir tomonidan devonga debocha yozilgan.

Debochada an’anaviy hamd-u na’tdan so‘ng o‘zini “Temur Ko‘ragon gulistoni shajarasining samarasi”, “Bobir Sulton chamanining navbodasi” hisoblagan. Amiriy “davlat taxti va saltanat sariri nishimangohi” bo‘lganligi haqida xabar beradi. Shundan so‘ng mamlakatni mustahkamlash va obodonlashtirish sohasida amalga oshirgan ishlari, qurdirgan binolari haqida batafsil ma’lumot beradi.

So‘ngra Amiriy oshiqona g‘azallar bitganligi, ustodlarning “muhabbatomiz” g‘azallariga naziralar yozganligi, muxammaslar bog‘laganligi, “andak fursatda varaq poralar yuzi to‘lgan”ligi, saroydagi “zakitab’ zufununlar” iltimosi bilan devon tartib berilganligini bayon qiladi. Nihoyat, shoir she’rlaridagi ba’zi saxvu xatolar uchun kitobxondan uzr so‘rab, debochani yakunlaydi.

Amiriy debochada ustodlarining nomlarini keltirmaydi, lekin g‘azal va muxammaslaridan shoir Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi shoirlarni o‘z ustozi deb bilganligini anglash mumkin. Ayniqsa, shoirning Lutfiy va Navoiylarga muhabbati kuchli. U Lutfiyning 4 ta, Navoiyning 20 tadan ortiq g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi. Bu haqda debochada shunday deb yozadi: “Va gohi ustodlar devonlaridin biror shavqangiz va muhabbatomiz g‘azaldin rangin va tahsin qofiya topar edim, tatabbuida g‘azal aytur edim, filhol zavq shavq fartidin

muxammas bog‘lar edi va chun har abyot gavharlarin xayol dafinasidin terib, va har nazm javharlarin andisha xazinasidin chiqorib zohir qilur erdim” [2.6-7].

Qo‘qondagi adabiy hayotning taraqqiyotida katta rol o‘ynagan Amir Umarxon, garchi birinchi navbatda hukmdor bo‘lsa-da, o‘z davrining iste’dodli shoirlaridan biri edi. Uning buyuk ustozi Navoiy an’analarini davom ettirishga, shoir mahorati sirlarni o‘rganishga intilishi, shuningdek, devonga debocha bitishi diqqatga sazovordir.

Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakillaridan yana biri talantli shoira Nodiradir. U o‘zbek va tojik tillarida devon tuzgan bo‘lib, o‘zbekcha devoniga debocha yozgan. Debocha an’anaviy ruhda yozilgan. Hamdu na’tdang so‘ng shoira Amir Umarxon bilan o‘tkazgan baxtli onlari haqida so‘z yuritadi. Nodira she’riyatga qanday kirib kelganligi haqida so‘zlar ekan, Amir Umarxon bilan bo‘lgan suhbatlar davomida “…kam-kam she’r qonunidan xabardor bo‘lub, goho biror misra, goho biror bayt taqlid birla aytgan»ligi, oz fursatda «nazm fununig‘a mohir va mazmun sehrida sohir” [3.36] bo‘lganligini ta’kidlaydi. So‘ngra shoira Amir Umarxonning vafoti va bu tufayli chekkan iztiroblari, keyingi davrdagi ijtimoiy, madaniy faoliyati xususida so‘zlaydi.

Shuningdek, devonning yaratilish tarixiga to‘xtalib, uning saroydagi olima va fozilalarning taklifi bilan tartib berilganligini bayon qiladi. Nihoyat, o‘z she’rlaridagi saxvu xatolar uchun uzr so‘raydi. Va Yaratgandan ularni «ko‘ngullarga mahbub va marg‘ub qilish»ni iltijo qilish bilan debochani yakunlaydi. Debochada masnaviy, ruboiy, qit’a janrlaridagi she’rlar keltiriladi.

Nodiraning tojikcha devonida ham debocha mavjud bo‘lib, u noma’lum kotib tomonidan yozilgandir.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon Adabiyot muzeyida Uzlatning noyob qo‘lyozma devoni (inv. № 474) va shu devonning nomukammal fotokopiyasi (inv.№ 360) saqlanadi. Uzlat devonga she’riy bag‘ishlov yozgan. Uning bosh qismi yo‘qolgan bo‘lib, 70 baytdan iborat. Noto‘liq devonda esa bu bag‘ishlov 100 baytni tashkil etadi. Bu she’riy bag‘ishlov ko‘p jihatlari bilan debochaga o‘xshaydi. Shu nuqtai nazardan uning kompozitsion tuzilishga e’tibor beraylik:

1. Hamd-u sano (Yaratganni sharaflash).
2. Ollohdan o‘z qalamini ravon etishni so‘rab qilgan iltijosi.
3. Amir Umarxon va uning «kishvari adamni tark aylagan» ligi haqida.
4. Nodira va uning amir Umarxon vafotidan keyin mamlakatda amalga oshirgan ishlari tavsifi.

5. O‘zi haqida. Shoir Kosonda yashagan paytda bir zolim amaldor uning va hamshaharlari boshiga solgan kulfatlar haqida Nodiragacha arz qilib, uni o‘z panohiga olishni so‘raydi.

6. She’rlaridagi ayrim qusurlar uchun uzrxohlik qilish.

7. Devon bag‘ishlangan shaxs – mamlakat malikasi Nodirani duo qilish.

This article shows the importance of rhythm in the formation of poetic speech. Sirajuddin Sayyid's works in such genres of classical poetry as ghazal and muhammas are analyzed in terms of meter in various branches of the aruz poetry system: hajaj, ramal, rajaz bahr.

Keywords: rhythm, aruz, poetry systems, poetics, ramal, hijo, ghazal, bayt.

Ritm insonning hayotiy faoliyati va uni qurshab olgan atrof-muhitidagi harakat sifatida fizika, biologiya, sotsiologiya, san’atshunoslik, musiqashunoslik, estetika, adabiyotshunoslik kabi turli fanlarda o‘rganiladi. Hayotdagi har qanday harakatda ritm mavjud. Ritm borliqdagi harakatning bir xildagi tartiblanishi, ma’lum bir ketma-ketlikda almashinishi, har qanday jarayonning muntazam davomiyligi hodisasidir. Hatto insonning qadam tashlashi, mehnat faoliyati, jismoniy xatti-harakatlarida, umuman, turmush tarzi, madaniy hayotida o‘ziga xos ritm mavjud. Qadimgi greklar ritmni “rhythmos” – harakat deb bilganlar. Shunday ekan, “ritm – bu tartib, uyg‘unlik, bir xil o‘lchamdagi va izchillikdagi harakat” [1, 58].

She’rshunoslikda esa bu tushuncha “teng o‘lchovlilik” degan ma’noni anglatib, bir-biriga mutanosib bo‘lgan bo‘laklarning bir xil vaqt ichida tartibli takrorlanishidan tug‘ilgan ohangdorikdir. Ritmning vujudga kelishida teng o‘lchamli va bir tartibli elementlarning takrorlanishi muhim belgilardan biridir. Ko‘rinadiki, adabiyotshunoslikda she’riy nutqdagi muayyan bo‘laklarning ma’lum bir vaqt ichida izchil takrorlanib kelishiga ritm deyiladi. Ritm she’riy nutqni tashkillashda asosiy vositalardan biri bo‘lib, tuyg‘u-kechinmalar, obrazlar harakati va ularning uyg‘unligini ta’minlaydi. “Ritm poetik nutqni tashkil etishning asosiy boshlovchisi bo‘lgan” [2, 18]. Bu esa she’riy nutqning hosil bo‘lishida ritmning

ahamiyatini ko‘rsatadi. Ritm she’riy asarda ohangdorlik, kompozitsiya, janr, uslub kabilardan avval paydo bo‘lgan.

Ritm vaznning hosil bo‘lishiga zamin yaratgan. Chunki vazn musiqa ritmiga tayangan holda paydo bo‘lgan. U.To‘ychiyev ritmning umumiy qonunlari asosan uchta – biron me’yorga asoslanish, takrorlanish va uni eshitish mumkinligi haqida fikr bildirib, takror bo‘g‘inlarda, qofiyalanish tartibida, bandda, so‘z va misrada bo‘lishi hamda ritmni hosil qilishda qatnashuvchi bu omillarni bog‘lovchi vosita vazn ekanligi haqida fikr bildirgan [3, 211]. Demak, “ritm she’r sistemalari va ularga mansub bo‘lgan vaznlarga bog‘liq ravishda uyushtiriladi” [3, 213]. Shuningdek, vazn ritmning barqarorlashgan ko‘rinishidir.

Hozirgi davr o‘zbek lirikasida ijodkorlarimiz barmoq va aruz she’r tizimidagi vaznlardan mahorat bilan foydalanmoqdalar. Salaflari adabiy an’analarini davom ettirgan Erkin Vohidov ko‘hna aruz vaznlarida qalam tebratib, aruziy latofatni saqlagan holda g‘azal, muxammas, mustazod kabi janrlarning vazn xususiyatlarini, obrazlar tizimi va mavzu ko‘lamini poetik tafakkur yangilanishlari orqali boyitdi. Shoir qalamiga mansub “Sevgi kelsa” g‘azalining matla’si quyidagichadir:

Sev-gi kel-sa/ qad-di yo ham /yosh bo‘-lur,
Sev-gi-siz jo/ no-na hay-kal/ tosh bo‘-lur[4, 45].

- V - - / - V - - / - V - /
- V - - / - V - - / - V - /

Foilotun/ foilotun/ foilun

G‘azal ramali musaddasi mahzuf vaznidadir. G‘azalda cho‘ziq va qisqa hijolarning birikuvidan rukn hosil bo‘lgan. Hijolar ritmni hosil qilish uchun ruknga birikkan. Baytdagi har bir misrada uchtadan rukn (foilotun, foilotun, foilun) bo‘lib, har bir ruknning ikkinchi hijosi qisqa, qolgan hijolari esa cho‘ziq holda takrorlangan. Baytning birinchi misrasida 11 ta hijo bo‘lib, 8 tasi cho‘ziq va 3 tasi qisqa, bu holat ikkinchi misrada ham aynan takrorlangan. Baytdagi (- V - -) cho‘ziq va qisqa hijolar birikuvidan rukn hosil bo‘lgan. Bu holat qolgan 7 baytda ham takrorlanadi. Ko‘rinadiki, ruknlar cho‘ziq va qisqa hijolarning muayyan taribda guruhlanishi va uyushishidan hosil bo‘lib, misra va bayt qurilishi bilan bog‘langan holda o‘ziga xos ritmni yaratgan. She’riy nutqning “ritmik bo‘laklari sifatida bo‘g‘in (hijo), turoq (rukn), misra va band muhim. She’r misralaridagi ritmik bo‘laklarning ma’lum o‘lchov asosida tartibli takrorlanishidan hosil bo‘luvchi ohang she’riy ritmdir” [5, 219]. Erkin Vohidovning sakkiz baytdan iborat mazkur g‘azalida eng kichik ritmik bo‘lak hijo bo‘lib, asosan, cho‘ziq hijolar ohangdorlikni yuzaga chiqarishda muhim badiiy-estetik funksiya bajargan. Lirik subyektning ruhiy manzaralarini ifodalashga xizmat qilgan. G‘azal *aa, ba, va, ga, da, ya, ja, za* tarzida qofiyalanib, “*yosh-haykaltosh-sirdosh-farrosh-osh-*

bebardosh-fosh-quyosh-bosh” qofiyadosh so‘zlari ritmik jihatdan misrani ta’kidlab ko‘rsatishga, g‘azal ohangdorligi va musiqiyligini oshirishga xizmat qilgan. Shuningdek, shoir birinchi boshlanma misrada “yoy” so‘zidagi “y” tovushini tushirib, “yo” tarzida, beshinchi baytning birinchi misrasidagi “lekin” so‘zini “lek” shaklida qo‘llab she’rning ritmik tabiatini oshirgan.

Abdulla Oripovning aruz vaznida bitilgan asarlari haqida ko‘plab mushohadalar yuritilgan. Xususan, professor N.Jabborov o‘tgan asrning 20-30-yillari she’riyatida aruzdan barmoqqa o‘tish tendensiyasi kuzatilganligi, bugun esa aruzga ehtiyoj kuchayganligi va bu ko‘hna vaznga yangicha ruh berayotganlar ichida eng faoli Abdulla Oripov ekanligini ta’kidlaganda to‘la ma’noda haq edi [6,21]. Shoirning “Ohkim, tushganda ko‘z...” g‘azali olti baytdan iborat bo‘lib, ramal bahrining musammani mahzuf vazniga xosdir.

O-h(i) kim, tush/ gan-da ko‘z tut/ ding sa-lo-ming/ ni da-rig‘
- V - - / - V - - / - V - - / - V -
Tut-ma-gil yum/ gan-da ko‘z bir/ juft ka-lo-ming/ ni da-rig‘ [7, 10].
- V - - / - V - - / - V - -/ - V -
Foilotun/ foilotun/ foilun

Har bir misrasi 15 hijodan iborat mazkur g‘azalda baytlarning ritmik jihatdan uyushishi cho‘ziq va qisqa hijolar, ular birikuvidan tashkil topgan rukn, hamda *aa*, *ba*, *va*, *ga*, *da*, *ya* tarzidagi qofiya tizimiga asoslangan. Qofiyaning ritmik, intonatsion vazifasi L.Timofeyev hamda B.Goncharovlar izlanishlarida uchraydi [8, 182]. G‘azalda “*salomingni-kalomingni-maqomingni-maromingni-jomingni-payomingni-nomingni*” tarzidagi qofiyalanish tizimi mazmun va ritmning uyg‘unlashuviga, o‘quvchi tasavvurida yaxlit birlik hosil qilishiga yordam bergan. Mazkur qofiyadosh so‘zlar tarkibida “m” sonor tovushining raviy bo‘lib kelishi, uning “*maqom-marom*” so‘zlari boshida ham takrorlanishi g‘azal ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan.

Aruz she’r tizimi va uning turfa vaznlarida samarali ijod etayotgan shoirlar orasida Sirojiddin Sayyid alohida o‘ringa ega. Avvalo aytish kerakki, Sirojiddin Sayyidning mumtoz she’riyatning g‘azal, muxammas kabi janrlaridagi asarlari aruz she’r tizimining hazaj, ramal, rajaz bahrlarining turli tarmoqlarida yozilgani bilan musiqiylik kasb etgan. Mazkur bahrlar o‘zbek tovush tizimiga mosligi va o‘zbek mumtoz musiqasidagi ko‘plab ashulalar ularda bitilgani bilan ajralib turadi. Shoirning “Xamsa” hayratlari” she’riy turkumining “Birinchi hayrat” hamda “Hayratul-abror” turkum she’rlarining aksariyati aruz vaznida yozilgan. Masalan, turkumning quyida keltirilgan she’rida ramali musaddasi maqsurdan foydalanilgan:

Oh-ki um-rim/ o‘t-di mis-li /fo-lu-rom,
– V – – / – V – – / – V ~

Foilotun/ foilotun/ foilon
Bar-cha a’-no/ mu xa-yo-lim / no-ta-mom[10,180]
– V – – / – V – – / – V ~
Foilotun/ foilotun/ foilon

Ramal bahri o‘zbek she’riyatida eng ko‘p tarqalgan vazn bo‘lib, foilotun ruknining takroridan iborat. Mumtoz she’riyatimizda ushbu bahr dastlab “Qisasi Rabg‘uziy”da uchrasa, Alisher Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy”dagi 3132 turkiy she’ridan 1827 tasi, xususan, 1666 ta g‘azali ushbu bahr o‘lchovlarida bitilgan... Ramal bahri vaznlari “Shashmaqom”ning jami 49 kuyiga, “Bayot”, “Dugoh Husayn” turkumlaridagi 9 kuyga, shuningdek, ko‘pchilik xalq kuylariga mos keladi”[11, 112]. Shuning uchun ham xalqona uslubda she’r yozadigan shoir Sirojiddin Sayyid mazkur vaznga ko‘p bor murojaat qilgan. Shoirning “Gapirgaylar” radifli g‘azali hazaji musammani solim vaznida bitilgan:

G‘a-nim-lar sen / bi-lan biz-ni / ha-li yil-lab / ga-pir-gay-lar.
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
Ke-zar-miz, or/ ti-miz-dan so / ya- lar yo‘l-lab / ga-pir-gay-lar [12, 106].
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

G‘azaldagi mahzun ohang va lirik qahramonning o‘ziga ishonchi g‘azal vaznidagi ritmga mos tushgan. Kerak o‘rinlarida g‘azal vazni talabi bilan mumtoz she’riyatga xos so‘z va iboralar (*alar, gapirgaylar, rozi dil, yafrog‘, huzn, farxunda*)ni qo‘llab, ruknlarning vaznini chiqarishda foydalangan. Shuningdek, g‘azalda vazn talabidan kelib chiqib, tovushlar tushib qolishi (gar), o‘zgarishi (ular-alar, goh-gahi, kabi-kibi) ham qo‘llangan. Mazkur vazn musiqiyligi va nisbatan bosiqroq musiqiy ohangga muvofiqligi g‘azalni mumtoz ashulaga yaqinlashtirgan. Natijada, g‘azaldagi ijtimoiy mazmun o‘quvchi ko‘nglidagi bahrni ham hazaj bahriga mos to‘lqinlanishga undaydi.

Shoirning quyidagi “Bilsa bas” g‘azali esa ramal bahrida bitilgan bo‘lib, unda yuqoridagi usullardan tashqari vasl hodisasidan ham foydalangan:

Shah-r a-ro shar/ hi di-lim-ni / bit-ta dil-kash / bil-sa bas.
– V – – / – V – – / – V – – / – V –
foilotun / foilotun / foilotun / foilun
Yer bi-lan os / mo-na-ro ul / men-ga sir-dosh /, bil-sa bas.
– V – – /– V – – / – V – – / – V –
foilotun / foilotun / foilotun / foilun

Vasl hodisasi aruzda undosh bilan tugagan so‘zdan keyin unli bilan boshlanuvchi so‘z ishlatilganda oldingi so‘zning oxirgi undoshi keyingi so‘zning

birinchi unlisi bilan qo‘shilib bir hijo hosil qilishidir. Yuqoridagi baytning har ikkala satrida ham vasl hodisasi kuzatiladi: vazn talabiga ko‘ra birinchi misraning birinchi hijosi tarkibidagi (shah) r va shu hijoning unli bilan boshlangan keyingi so‘zning birinchi a (ro) harfi o‘zaro birlashib qisqa (ra) hijosiga aylangan. Shunday holat ikkinchi misraning hashv ruknida osmon so‘zining oxirgi harfi bilan undan keyingi aro so‘zini birinchi harfi orasida (na) yuz bergan va bu o‘rinda ham qisqa hijo vujudga kelgan. Natijada she’r vazni puxta va mazmunga muvofiq holga keltirilgan.

Sirojiddin Sayyidning “Salomnoma” she’ri hazaj bahrining musammani solim vazniga xosdir.

Sa-lom bo‘l-sin / sa-mo-lar-ga / sa-bo-lar-ga / sa-lom bo‘l-sin
V - - - / V - - - /V - - - / V - - -
Mafoiylun/ mafoiylun / mafoiylun/ mafoiylun
Qu-yosh xat yo‘l / la-gan tong-ga /zi-yo lar-ga /sa-lom bo‘l-sin [12, 38].
V - - - / V - - - /V - - - / V - - -
Mafoiylun/ mafoiylun / mafoiylun/ mafoiylun

Yoki uning “Junun vodiysiga moyil...” she’ri ham hazaji musammani solimda yozilganligini kuzatish mumkin:

Qa-yon kel-dim / bi-lol-mam o‘l / tu-ro-rim yo / tu-ro-rim-ni,
V – — – / V – — – / V – — – / V – — –
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
Bo-shim qo-ru, / qa-ro-lik chul / g‘a-mish tog‘-lar / da qo-rim-ni [12,110].
V – — – / V – — – / V – — – / V – — –
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Sirojiddin Sayyid aruz vaznida ijod qilar ekan, uning didi yuksakligi, so‘z oldidagi mas’uliyatni his eta olishi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun u g‘azallariga aruz vazniga mos so‘zlarni izlab topadi. Mazmun va shaklning imkon qadar uyg‘unlashuvini ta’minlashga harakat qiladi. Bu esa shoirning hazaj va ramal bahrining turli tarmoqlariga ko‘p murojaat qilganida ham kuzatiladi. Masalan, “Bahor bu yil ajib pinhona kelmish, Ko‘ngillar roziga in, xona kelmish”, “Chamandirsan chamandan tashqarida, Chamanlar bari sandan tashqarida” baytlari bilan boshlanuvchi g‘azallar hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun, mafoiylun, mafoiyl), “Gul sanamning gul bo‘lib turmoqlari, Gulni lab birlan suyib, kulmoqlari” bayti ramali musaddasi mahzuf (foilotun, foilotun, foilun), “Bir dilorom birla shom yo shom dilorom birladir, Xush kechar shoming agar orom dilorom birladir” bayti ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun,

foilun)da yaratilgan. Umuman olganda, shoir bir to‘plamiga kirgan g‘azal va muxammaslari 100 ga yaqin bo‘lib, ularda ramal, hajaz va qisman rajaz bahri hamda ularning tarmoqlaridan foydalangan. Sirojiddin Sayyidning aruzda bitgan she’rlari ifodali o‘qilishi, bu jarayonda unlilar talaffuziga alohida e’tibor berilishi, jumladan, o‘ta cho‘ziq unlilar cho‘ziq o‘qilishi, zarur o‘rinlarda ular cho‘ziq (o‘ta cho‘ziq emas) talaffuz qilinishi va vazn talabi bilan she’rning musiqiy ohangdorligiga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

Xulosa shuki, she’r ritmi ritmik bo‘laklar va ritmik vositalar asosida musiqiylik va ohangdorlikni, emotsionallikni yuzaga keltiradi. She’riy nutqning o‘quvchi qalbiga etib borishida ritm, qofiya, tovushlar jilosi she’rdagi fikr va tuyg‘u bilan uyg‘unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Медведев В. Изучение лирики в школе. – М.: Просвешение, 1985. – С.58.
2. Литература древнего Востока. – М.: Издательство МГУ, 1984. – С.18.
3. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.211.
4. Воҳидов Э. Тўла асарлар тўплами. 3-жилд. – Тошкент: Sharq, 2016. – Б.45.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – B.219.
6. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.21.
7. Орипов А. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2012. – Б.10.
8. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – С.334.
9. Гончаров Б.П. Звуковая организация стиха и проблемы рифмы. – М.: Наука, 1973. – С.182.
10. Сирожиддин Саййид. Онамнинг кулчалари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. – Б.180.
11. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.112.
12. Сирожиддин Саййид. Сўз йўли. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б.106.

ADABIY MUHIT! ADABIY HARAKAT! ADABIY HAYOT!

(*Adabiy muhit tarixini yozguvchilarga eslatma*)

Amonkeldi Axmadov,
Tarix va filologiya fanlari doktori,
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Bugungi kunda hududiy miqyosda adabiy jarayonlarni o‘rganish odat tusiga kirganligi quvonarli hol. Adabiy harakatchilikni hududiy jihatdan ajratish biroz g‘alizlik tug‘dirsa-da, jahon adabiyotshunosligi bu borada katta tajribaga ega. Adabiyotshunoslik va tarixshunoslikda Qo‘qon, Xiva, Buxoro adabiy muhitlari o‘rganilib kelinmoqda. Tadqiqotchilarning adabiy harakatchilik haqida ma’lumotlarni jamlashga kirishganliklari O‘zbekiston tarixida oldinga tashlangan yana bir muhim qadam sifatida baholash mumkin. Tadqiqotchilarning sa’y-harakatlari natijasida viloyat ijodkorlari haqidagi ma’lumotlar yaxlit holda jamlanmoqda.

Adabiyot tarixini o‘rganish ham ajdodlar merosini o‘rganish nuqtayi nazaridan, ham kelajak adabiyot rivojini ta’minlash zarurati sababli muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni damda, ma’lum adabiy muhitni o‘rganish shu adabiy muhit mansub milliy adabiyot taraqqiyotini o‘rganish, boshqa adabiy muhit bilan chog‘ishtirish, adabiy muhit vakillari ijodini o‘rganish jarayonida kerak bo‘ladi.

Adabiy muhit juda keng tushuncha. Adabiy muhit - muayyan joyda yashab ijod etgan yirik shoir va adiblar ta’sirida yuzaga keladi. Adabiy muhitning vujudga kelishi albatta yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liq. Jumladan, Hirot adabiy muhit (Lutfiy, Navoiy, Jomiy va boshqalar), Qo‘qon adabiy muhiti (Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Xaziniy va boshqalar), Buxoro adabiy muhiti (Rudakiy, Ubaydiy, Farog‘iy, Ojiz, Ayniy, Fitrat, T.Hamid va boshqalar) yirik shoirlar faoliyati, ijodiy ta’sirida yuzaga kelgan. Adabiy muhit adabiy oqimlar va yo‘nalishlardan farq qiladi. Bir adabiy muhitda bir necha oqim va yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Adabiy muhit boshqa joylardagi adib va shoirlardan o‘ziga xosligi, ijodiy alohidaligi, badiiy fikrlash tarzidagi betakrorligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Xiva, Qo‘qon, Andijon, Shahrixon adabiy muhiti mavjud bo‘lib, ularning etuk vakillari yaratgan asarlar o‘zbek adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi. Degan ma’lumotlar beriladi rasmiy sayt va nashrlarda.

Bundan kelib chiqadigan bo‘lsak muhit bo‘lishining ham o‘ziga yarasha talablari bor. Hududdagi shoirlar yig‘ilib yoki ikkita **“adabiyotshunos”**, **“tarixchi”**ning aytgani bilan ma’lum bir hududda adabiy muhit shakllanib qolmaydi. Buning uchun me’yor va talablar bajarilishi shart. Ayrim hududlardagi jarayonlarni **“adabiy hayot”** deb olish haqiqatga yaqin bo‘lar edi chamamda.

Biroq bugungi kunda **ayrim ilmiy rahbarlar** tomonidan tadqiqotchilarga adabiy muhit tarixi degan ko‘r-ko‘rona mavzularnig berilishi ilmdagi fojeaning bir ko‘rinishidir. Agarda tadqiqotchilar mavzu nomini isbotlab bera olsalar muammoga echim topilar edi. Afsuski ishda bu muammo echimi topilmaydi. Achinarlisi shundaki rahbar ham tadqiqotchi ham adabiy muhit haqida tushunchaga ega bo‘lmay turib, mavzuni doktorlik himoyasi darajasiga olib chiqmoqdalar.

“Har qanday hududdagi adabiy harakatchilikni “adabiy muhit” deb atash mumkinmi?” – degan masala adabiyotshunoslikda muhim hisoblanadi.

“Adabiy muhit” deganda shunchaki biror hududda mavjud bo‘lgan adabiy faollik emas, balki muayyan yozuvchilar guruhi, ularning ijodiy aloqalari, adabiy an'analar, o‘quvchilar bilan munosabatlari, nashriyotlar, tanqidchilar, davriy matbuot va adabiy muhokamalar tizimi tushuniladi.

Shunday ekan, har qanday adabiy harakatchilikni adabiy muhit deb atash mumkin emas. Agar u quyidagi tarkibiy unsurlarni o‘z ichiga olsa muhit darajasiga ko‘tariladi.

Hududda faoliyat yuritayotgan yozuvchilar, shoirlar, tarjimonlar bo‘lishi kerak. Ular biror mavzu, uslub yoki adabiy g‘oya atrofida birlashgan yoki kamida bir-birining ijodiga nisbatan munosabat bildirayotgan bo‘lishi kerak.

Adabiy muloqot muhiti bo‘lishi zarur. Bu muloqot nashriyotlar, gazeta-jurnallar, radio, internet, adabiy kechalar, seminarlarda kechadi. Agar yozilgan asarlar faqat "yakkaxon" bo‘lib, hech qanday bahs, tahlil yoki adabiy doirada muhokama qilinmasa, bu holat "adabiy muhit" tushunchasiga to‘liq javob bermaydi.

O‘quvchilari orasida va ijtimoiy muhitda ta’siri bo‘lishi lozim. Asarlar kim uchundir yoziladi. Agar ular jamiyatda muhokama qilinayotgan bo‘lsa, asarlarga ijtimoiy javob bo‘lsa, bu ham muhitning mavjudligini bildiradi.

Davriylik va doimiylik muammosi ham adabiy muhit uchun zaruriy holatdir. Yagona bir adibning faoliyati yoki qisqa muddatli faollikdan ko‘ra, **uzluksizlik** ya’ni vaqt o‘tishi bilan yangi yozuvchilar paydo bo‘lishi, o‘zaro muloqotda bo‘lishi adabiy muhitni belgilovchi asosiy belgidir. Jumladan:

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi XIX asr adabiy hayot: bu erda adabiy majlislar, she’riy mushoiralar, shoirlararo tanqid va muloqot bo‘lgan. Bu to‘laqonli adabiy muhit hisoblanadi.

Yakkaxon yozuvchi faoliyati (masalan, chekka qishloqda yozayotgan, ammo hech kim bilan aloqada bo‘lmagan muallif): bu holat adabiy harakat sifatida baholanishi mumkin, lekin bu holatga adabiy muhit degan ta’rifni berish qiyinroq bo‘ladi, agar u ijtimoiy, muloqot va tahlil doirasidan chetda qolsa.

Endi yana ayrim savollarga o‘z qarashlarmizni bayon qilsak. Adabiy muhitni hududiy jihatdan ajratib o‘rganish mumkin va bu juda qiziqarli va foydali yondashuv bo‘lishi mumkin. Hududiy jihatdan adabiy muhitni o‘rganish, ayniqsa turli mintaqalarda yashovchi yozuvchilarning ijodi va adabiy tendensiyalarni o‘rganishda muhim. Bu yondashuv adabiyotda mintaqaviy xususiyatlarni, madaniyatni, tilni va ijtimoiy sharoitlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiy muhitni hududiy jihatdan ajratishda til xususiyatini hisobga olish kerak. Turli hududlarda turli lahjalar yoki tillar qo‘llanishi mumkin, bu esa o‘z navbatida adabiyotning uslubi, so‘z boyligi va ifoda shakllarini o‘zgartiradi. Masalan, o‘zbek adabiyotida qarluq va o‘g‘uz til lahjalari o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish qiziqarli bo‘lishi mumkin.

Har bir hudud o‘zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy muhitiga ega. Bu omillar adabiyotda ko‘pincha o‘z aksini topadi. Masalan, shahar va qishloq hayotini yorituvchi adabiyot yoki ma’lum bir tarixiy davrni aks ettiruvchi asarlar. Chunki, turli hududlar o‘zining maxsus ijtimoiy va tabiiy muhitiga ko‘ra o‘ziga xos mavzularni va motivlarni tanlaydi. Bunda o‘sha hududdagi odamlarning hayoti, urf-odatlari, an’analari, iqtisodiy sharoitlari kabi omillar o‘z aksini topishi mumkin.

Ba'zi hududlarda adabiyotning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan va bunday hududlarda o‘ziga xos adabiy makon paydo bo‘lgan. Masalan, Samarqand, Buxoro yoki Toshkent kabi shaharlar o‘zining adabiy markazlari bilan tanilgan.

Adabiy muhitni hududiy jihatdan ajratib o‘rganish to‘g‘ri va samarali usul bo‘lishi mumkin, ammo bu usulda ba'zi muhim jihatlar va ehtiyotkorlikka e'tibor berish kerak. Hududiy yondashuvda adabiyotning turli shakllari va madaniy xususiyatlarini o‘rganish, ayrim hollarda, g‘oyat foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, bu yondashuvni amalga oshirishda ba'zi muammolar va cheklovlar ham mavjud.

Quyida adabiy muhitni hududiy jihatdan ajratib o‘rganishning turli tomonlarini tahlil qilamiz.

Har bir hudud o‘zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlariga ega. Bu sharoitlar adabiy asarlarda o‘z aksini topadi. Hududiy yondashuv, adabiyotning mintaqaviy xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, shahar va qishloq adabiyoti o‘rtasidagi farqlarni yoki ma’lum bir mintaqadagi yozuvchilar tomonidan ishlatilgan o‘ziga uslubni o‘rganish mumkin.

Har bir hudud o‘zining adabiy markazlariga ega bo‘lishi mumkin, masalan, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar O‘zbekiston adabiyotining markazlari bo‘lib kelgan. Hududiy yondashuv orqali bu markazlarning adabiyotdagi rolini va ular orasidagi farqlarni o‘rganish mumkin.

Hududiy ajratish, mintaqalar o‘rtasida adabiy almashinuv va ta'sirni o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bunda mintaqaviy yozuvchilar o‘zaro qanday ta'sir ko‘rsatganligini yoki o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rish mumkin.

Ehtiyotkorlik talab qiluvchi tomonlari:

Hududiy yondashuvda ehtiyotkor bo‘lish zarur, chunki ba'zan hududiy ajratish ma'lum stereotiplarni yoki chegara o‘rnatishni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bir hududdagi adabiyotni faqat o‘sha hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog‘lash, uning global yoki umumiy adabiy oqimdagi o‘rni haqida noto‘g‘ri tasavvurga olib kelishi mumkin.

Yozuvchilar ko‘pincha turli hududlarda yashab, o‘z asarlarini turli mintaqalarda yozadilar. Shuning uchun, bir yozuvchini faqat bitta hudud bilan bog‘lash, uning ijodiy taraqqiyotini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Masalan, Toshkentda tug‘ilgan yozuvchi Buxoro va Samarqand adabiy an’analaridan ham ta'sirlangan bo‘lishi mumkin.

Hududiy yondashuvda ba'zan adabiyotdagi farqlarni ortiqcha ta'kidlash yoki haddan tashqari ajratish ehtimoli mavjud. Biroq, adabiyotda ko‘pincha umumiy mavzular va g‘oyalar mavjud bo‘ladi, bu esa hududlar o‘rtasidagi farqlarni engillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy muhitni hududiy jihatdan ajratib o‘rganish to‘g‘ri, ammo uni amalga oshirishda ehtiyotkorlik zarur. Hududiy yondashuv, albatta, adabiyotning o‘ziga xosligini va mintaqaviy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, lekin bu jarayonda mintaqalar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va o‘zaro ta'sirlarni ham inobatga olish kerak. Adabiyot, ko‘p hollarda, hududiy chegaralarni buzib, umumiy insoniyat tajribasini aks ettiradi. Shuning uchun, hududiy ajratish jarayonida adabiyotning kengroq kontekstini hisobga olish muhim.

Shuningdek, har qanday adabiy harakat adabiy muhit bo‘lishi mumkin emas. Faqatgina u muloqot, an’ana, o‘quvchi va adabiy faoliyat tizimini o‘z ichiga olgan taqdirdagina bu atama to‘liq qo‘llanadi. Shunchaki bir hududda yozuvchilik bo‘lishi – adabiy muhit mavjud degani emas.

Adabiyotlar

1. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.
2. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
3. Kobilova, Z. (2019). THE TRADITION AND FEATURE IN THE CREATIVE WORK OF AMIRIY. *Theoretical & Applied Science*, (9), 436-439.

4. Kabilova, Z. (2022). STUDYING EMIRI DEVON IN TURKEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 669-671.

5. Qobilova, Z. B., & Abdullayeva, D. A. Q. (2023). QO ‘QON ADABIY MUHITI IJODKORLARINING O ‘ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDAGI O‘RNI. *World of Philology*, *2*(3), 25-29.

ADIBNING KONFLIKT YARATISH MAHORATI

(Abduqayum Yo‘ldoshevning “Jadid” qissasi misolida)

E’zozhon Kobilova,
Qo‘qon davlat universiteti v.b professori
Zumradxon Teshaboyeva,
Renessans ta’lim universiteti
Xorijiy til va adabiyot
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Jadid” qissasida konflikt yaratish mahorati, kompozitsion qurilishi, ta’sirli syujeti, badiiy-g‘oyaviy yuki haqida so`z boradi. Mazkur qissaning tag zamiriga singdirilgan mazmunlar va qahramonlar taqdiri haqida ham fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar. konflikt, qissa, xarakter, badiiy asar, syujet, kompozitsiya, g‘oya, qahramon.

Аннотация

В статье рассматривается мастерство создания конфликта, композиционная структура, впечатляющий сюжет, а также художественно-идеологическая значимость рассказа «Джадид» писателя Абдукаюма Юлдашева. Также высказываются мысли о главных темах этой истории и судьбах персонажей.

Ключевые слова. конфликт, история, персонаж, художественное произведение, сюжет, композиция, идея, герой.

Annotation

The article demonstrates the skill of creating a conflict, the compositional structure, the impressive image, as well as the artistic and ideological

significance of the story "Dzhadid" by writer Abdukayuma Yuldasheva. It also reveals thoughts about the main themes of this story and the fate of the character.

Key words: conflict, story, character, artistic work, image, composition, idea, hero.

“Insoniyat tarixidan ma’lumki, ezgulik bilan yovuzlik, go‘zallik bilan xunuklik, ozodlik bilan bosqinchilik, ma’rifat va jaholat, odob-ahloq va axloqsizlik kabi g‘oyalarning murosasiz kurashi dunyoqarashning tub mohiyatini tashkil etib kelgan. G‘oyalar esa ikki xilga: ilg‘or, taraqqiyparvar va jaholatga eltuvchi, qoloq g‘oyalarga bo‘linadi. Biri jamiyat taraqqiyotiga, insoniyat ma’naviy kamolotiga xizmat qilsa, ikkinchisi tanazzul tomon boshlaydi. Adabiyot mana shu kurashning ma’naviy-ruhoniy, ijtimoiy asoslarini o‘zida mujassamlashtirishi, namoyon etishi bilan xarakterlanadi”[2:166]. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Jadid” qissasi ham yuqoridagi fikrlarga to‘la mos keladi.

“Jadid”[3:224] qissasida bosh qahramon – Ubaydulla Xo‘jayevning ruhiy holatini, kechinmalarini tasvirlash orqali muallif qahramon ichki konfliktini mahorat bilan ochib beradi. Qissada Lev Tolstoyni o‘qib qalbida “yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik” e’tiqodi shakllangan va qo‘shnisi Mixail Yefremovning jamadonida ko‘rgan portlovchi moddalarning insonlar hayotiga zomin bo‘lishi mumkinligidan tashvishga tushgan qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshilik ong oqimi tarzida jonli tasvirlanadi. Muallif qissaning boshidayoq Ubaydulla Xo‘jayevga Tolstoy qarashlari qay darajada ta’sir qilganini xotini Yekaterina bilan bo‘lgan suhbati orqali bayon qiladi. Bundan tashqari, Misha bilan suhbatda ham muallif uning “sendan tolstoychilikning hidi kelyapti” jumlasi orqali qahramonning buyuk adib g‘oyalariga muhabbati yuqori ekanligini bildiradi.

Adibning konflikt yaratishdagi mahorati shundaki, u bir konflikt ustiga ikkinchisini mahorat bilan quradi. Ikki qo‘shnining dastlabki suhbatidayoq anarxist Misha va jadid Ubaydulla Xo‘jayev qarashlaridagi ziddiyatlar bo‘y ko‘rsata boradi:

“Yigit bo‘sh kelmadi:

– To‘g‘ri-da. Yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik kerak.

– Bu senga o‘xshagan omi sartlar uchun atay o‘ylab chiqarilgan nazariya! – birdan g‘azablanib, dag‘dag‘aga o‘tdi Mixail. – Chunki senlar o‘ng yuzingga

urgan odamga chap yuzlaringniyam tutib berasanlar, agar urmasa, “Uring meni!” deb tiz cho‘kib iltijo ham qilasanlar, urgan odamdan minnatdor bo‘lib, muborak qo‘llarini o‘pgancha ho‘ng-ho‘ng yig‘laysanlar ham!

Ubaydulla istehzo qilmaslikdan o‘zini tiyib turolmadi:

– Osiyoliklarga nisbatan muhabbatingiz bu qadar kuchli ekanligini bilmagan ekanman.

Misha “sen ham odammi” deganday Ubaydullaga mazaxomuz qaradi:

– Haqiqat shunaqa achchiq bo‘ladi, sart!” [3:229]

Qahramonlar o‘rtasidagi mavjud konflikt kuch va boshqaruv haqidagi suhbatda yanada kuchayadi. Adib Yefremovning Xo‘jayevga munosabatini tasvirlar ekan, anarxist xarakteridagi mensimaslik, kibr va vijdonsizlikni jadidning pok qalbi va vijdoniga qarama-qarshi qo‘yadi. Yefremov jamadoniga yashirgan portlovchi moddalar esa mavjud xarakterlararo konflikni qahramon ruhiyatiga ko‘chiradi. Endi Xo‘jayev anarxist bilan emas o‘zi bilan bahsga kirishadi. “Eng yomoni, eng og‘iri – ko‘z oldingda, yonginangda shunday qabohat yuz berayotganini, vahshiy xunrezlikka hozirlik ko‘rilayotganini bilib tursang va mana shu dahshat voqelikni bugun, ertaga yoki indinga, istagan mahal sodir etishi mumkin bo‘lgan mal’unlardan birini tanisang, uning razil, g‘ayriinsoniy, tuban niyatlaridan voqif bo‘lsang... Shunda ham qo‘l qovushtirib, jarayonning gumroh kuzatuvchisi bo‘lib turishing joizmi yoinki nechukdir sa’y-harakatlar ila buning oldini olmoqqa, yovuzlikka barham bermoqqa chog‘lanmog‘ing lozimmi... Unda Tolstoy boboning yovuzlikka qarshilik ko‘rsatmaslik g‘oyasiga amal qilmagan bo‘lmaymanmi? Ammo tarozining bir pallasida tirik jonlar hayoti turibdi-ku, inchunin, shunisi muhimroq, ahamiyatliroq emasmi...”[3:232].

Yuqoridagi qahramonning o‘ylari o‘quvchiga uning xarakterini yanada kengroq masshtabda ochib beradi, ruhiy holatini yanada yorqinlashtiradi. Ma’naviy e’tiqod va vijdon orasida qolgan qahramon allaqachon yakuniy qarorga – Mishaning manfur maqsadiga to‘siq bo‘lish qaroriga keladi. Ammo e’tiqodi ta’sirida ma’naviy rahnamosiga maktub yo‘llaydi. Yozuvchi falokatning oqibatlarini anglagan jadidni Tolstoydan javob olganidan keyin ham Mishaning qarshisiga chiqarmaydi. O‘quvchiga qiziq bo‘lgan yana bir jihat shuki, Yekaterina portlovchi moddalar ostida halok bo‘lganida ham Xo‘jayev aybdorning kimligini bilgani holda unga ro‘para bo‘lmaydi, gunohlarining hisobini so‘ramaydi. Shu o‘rinda adibning mahorati yana kitobxonni hayratga soladi. Sinchkov kitobxon mustamlaka yurtda tug‘ilgan va hali jadidchilik

borasida ustozlar ta’limiga muhtoj Xo‘jayevning bu o‘rindagi holatini to‘g‘ri anglaydi. Shu sababdan adib qahramonni qissaning keyingi o‘rinlarida Abduvahob qori, Munavvar qori singari jadidchilikning buyuk namoyondalari bilan uchrashtiradi. Abduvohid qorining so‘zlari qahramonni vatanga qaytish fikrini qat’iylashtirsa, Munavvar qorining nutqlari uning keyingi faoliyatidagi qat’iyatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Jadid ustozlari suhbatlaridan xulosa chiqargach, yurtga qaytgan qahramon ruhiyatida evrilishlar paydo bo‘ladi. Endi u muhit bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri konfliktga kirishadi. Yo‘qsil kimsalar himoyachisi sifatida taniladi, kambag‘al aholining haqqi uchun yuqori lavozimdagi rus amaldorlari bilan ham bahsga kirishadi. Ko‘p hollarda ustun ham keladi. Buni Ko‘lankaning Rossiya maxfiy siyosiy politsiyasi Turkiston rayon muhofaza bo‘limiga yozgan hisobot hatida ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, rus amaldori Tevkelevga qaratilgan gaplarda qissa boshidagi “sart” Ubaydulla bilan o‘zligini to‘la anglagan jadid Ubaydullaxo‘ja o‘rtasidagi tafovut yaqqol namoyon bo‘ladi:

“Tevkelev luqma tashladi:

– Vahima qilmang, Xo‘jayev. To‘rtta bebosh ko‘chaga chiqqani bilan Imperator hazratlarining farmoni bekor qilinavermaydi.

Xo‘jayev unga tik qaradi:

– Bular siz aytganday beboshlar guruhi emas, janob Tevkelev.

– Kim unda? – savol berishini qo‘ymadi Tevkelev.

– Xalq!”[3:273].

Qissada yozuvchi ilk o‘zbek advokati Ubaydulla Xo‘jayev obrazini tarixiy faktlar va badiiy to‘qima yordamida gavdalantiradi. Saratovdagi yosh advokatning millatparvar jadid ziyolisi bo‘lib etishishini ijtimoiy omillar bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladi. Xarakterning o‘sib borishida konfliktdan ustalik bilan foydalanadi. Shu sababdan kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanayotgan ma’rifatparvar shaxs siymosi o‘quvchida hech qanday savol uyg‘otmaydi, uning ichki kechinmalariga hayrihohlik uyg‘otadi. Bu ham adibga xos mahorat qirralaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Тошкент, 2009. https://www.e-adabiyot.uz/maqola/

2. Абдуқаюм Йўлдош. Шараф йўли. Биографик роман, қисса. – Тошкент: Sahhof, 2023.
3. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
4. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
5. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
6. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
7. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
8. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
10. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

BUXORO QO‘LYOZMALAR FONDIDAGI NOYOB DURDONA

H.O. Safarova,
BuxDU, f.f.n. dotsent

Annotatsiya

Maqolada Mulla Qurbon Xiromiyning Buxoro San’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan “Chor darvesh” asarining 27844\11 raqamli toshbosma nusaxasi haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mulla Qurbon Xiromiy, nastaliq, ramka, basmala, salovot, hamd.

Аннотация

В статье представлена информация о литографический изданный номером 27844\11 произведения «Четыре дервиша» Муллы Курбона Хиромий, хранящейся в сокровищнице Бухарского художественного музея.

Ключевые слова: Мулла Курбан Хиромий, насталик, басмала, саловат, хамд.

Annotation

The article provides information about the stone-printed copy of the artwork "Chor Darvesh" by Mulla Qurbon Khromiy, stored in the Bukhara Art Museum's collection, with the reference number 27844\11

Keywords: Mulla Qurbon Khromiy, nasta'liq, frame, Basmala, Salawat, Hamd.

Yurtimizda yillar mobaynida har bir sohada, ayniqsa, istiqloldan so‘ng juda ko‘plab yutuqlarga erishildi, jumladan matnshunoslik sohasida ham. O‘zbek adabiyotshunosligida “Chor darvesh”ning o‘rganilishi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Mulla Qurbon Xiromiy ijodini o‘rganish, to‘plash va ilmiy tadqiq etish ishlari XX asrning 40-70-yillardan boshlangan. Xiromiy asarlari 1940- yildan xrestomatiya va darsliklarga, ya’ni 1945 yilda O.Sharafiddinov tomonidan Oliy pedagogika o‘quv yurtlari uchun tuzilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. XV- XIX asrlar” va 1959 yilda yaratilgan 4 tomlik “O‘zbek adabiyoti” darsliklariga kiritila boshlandi. Keyinchalik shoirning asarlari alohida kitob qilib chop ettirildi [3,4].

Xiromiy madrasada olgan bilimlari bilan birga yana o‘zi ham mustaqil o‘rganib, bilimini oshiradi. Dastlab, uning Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy va Zebuniso g'azallariga muxammas (taxmis)lari maydonga keladi. Keyinchalik “Chor darvesh” (1834), “To‘tinoma” (1854), “Ra’no va Zebo” (1856) va “Yusuf va Zulayho” (1862) dostonlarini yaratib, xalq qalbidan joy oladi. Hozirgi kunda Xiromiy dostonlarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari anchagina. Ularni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari qilingan va qilinyapti.

Akademik B.Valixo‘jayev tomonidan yaratilgan Mavlono Xiromiyning estetik qarashlari, ijodkorlik salohiyati haqidagi ilmiy-nazariy xulosalar professor T.Qorayevning tadqiqotlarida to‘liq mukammal isbotini topdi. Yangi ilmiy-nazariy fikr mulohazalar bilan boyitildi [2.31]. I.Yo‘ldoshev “Chor darvesh”ning uzoq asrlar davomida yuzaga kelgan tarjima nusxalari va Mavlono Xiromiy “Chor darvesh”ini qo‘lyozma manbalar asosida qiyosiy tahlil etdi. Asar qo‘lyozmalarini tavsif va tasnif qilib dostonning matniy tadqiqini amalga oshirdi [1.13].

Buxoro San’at muzeyi xazinasida “Chor darvesh” asarining 2 ta toshbosma nusxasi mavjud bo‘lib, ularning biri "Nazmi chor darvesh" nomi bilan 24390\11 invertar raqami ostida saqlanadi va u 100 betdan iborat. Ikkinchisi 252 betni tashkil etadi. Biz ishimizda 27844\11 raqamli toshbosma nusxasi haqida fikr yuritishga harakat qildik.

27844\11 raqamli toshbosma nusxa “Basmala”, “Na’ti Hazrat Rasuli Akram sollollohu alayhi vasallam”, “So‘z qoili o‘z ahvolin nukta saj’ eliyga bayon qilmog'i va bir xolis oshno so‘zi birla nazm yo‘lig'a kirmog'idur”, “Hazrat Rasul sollollohu alayhi vasallamning to‘rt yori ham diyni islom qasrining to‘rt ustuni va xaloyiq rahnamunidurlar, onlarning bayonidadur”, “Boriy taologa munojot qilib nazr elidan ta'ma duo qilmoq”, “Shoh raiyyat parvar ani Muhammad Xo‘jamquli sulton zikridur”, “Muhammad Xo‘jamqulishoh majlis tuzub fazl ahlin ehsondin bahra qildirgani”, “Shoh ozodbaxt libosin badal qilib yarim tun chortoq ustig'a to‘rt darveshni ko‘rib ahvolin bilurg'a kamin qilmog'iy va ul darveshlar ahvolidin muttoli' bo‘lmog'ining bayoni” kabi sarlavhalar ostida qissa bayon etilgan.

Basmaladan keyin 11 misra Alloh taolo hamdi, 5 misra payg‘ambarimizga na't va 8 misrada xalifalarga maqtov keltirilgan. “Na'ti Hazrat Rasuli Akram sollollohu alayhi vasallam” sarlavhasi ostida Muhammad sollollohu alayhi vasallamning arablarning Quraysh qabilasiga mansubliklari, u zot keltirgan shari'at bizning dunyo va oxiratda qudrat va ulug'ligimizga sabab ekanligi, Alloh taolo bizni aynan shu tufayli yaratgani go‘zal misralarda o‘z ifodasini topgan. Payg'ambarimiz sollollohu alayhi vasallamning buyuk mo‘jizalari - Alloh taoloning izni ila ishora qilishlari bilan oy ikkiga bo‘linganligi ham aytib o‘tilgan. Biz bilamizki, Qur’oni Karimning Qamar surasining birinchi oyatida: “Qiyomat yaqinlashib qoldi. (Mana, ilohiy mo‘jiza sifatida) Oy ham bo`lindi”-deyilgan. [5,528]

Haqiqatdan ham, Muhammad sollollohu alayhi vasallamga ummat bo‘lish ulkan sharaf va ulkan maqomdir. Xiromiy ikki jahondagi baxtu davlatga tatiydigan bir xursandchilik menga berildi, u ham bo‘lsa- u zotga meni ummat bo‘lganimdur deb zavqu shavq bilan kuylaydi.

“Hazrat Rasul sollollohu alayhi vasallamning to‘rt yori ham diyni islom qasrining to‘rt ustuni va xaloyiq rahnamunidurlar, onlarning bayonidadur” faslida Payg'ambarimiz sollollohu alayhi vasallamning izdoshlari bo‘lgan to‘rt islom xalifasi haqida bayon etadi. Birinchilari Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhudirlar. Nabiy sollollohu alayhi vasallamdan keyin ikki yil xalifalik qilganlar va hijratda hamsafar bo‘lganlar.

Ikkinchi xalifa Umar roziyallohu anhu bo‘lib, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhudan keyin 10 yil xalifalik qilib, shu vaqt ichida islom diyorini adolat bilan

boshqarganlar. Uchunchi xalifa Usmon roziyallohu anhu bo‘lib, Umar roziyallohu anhudan keyin 12 yil xalifa bo‘lib, o‘z davrida halimlik va saxovatpeshalikda shuhrat qozonganlar. To‘rtinchi xalifa esa Hazrati Ali bo‘lib, u kishining laqablari “haydar” ya'ni sher bo‘lgan va qachon jang qilsa sher kabi olishib dushmanni engib, g‘alaba qozongan.

Xiromiy o‘z baytlarida bu zotlarni ulug‘lab, agar adashsam yoki toyilsam bu zotlar meni to‘g'ri yo‘lga boshlashlaridan umidvorman deb aytib o‘tadi. Haqiqatda, bu zotlarning hayotlari barcha uchun ibrat va namunadir. Shuning uchun ham Rasul sollollohu alayhi vasalllam: “Mendan keyin mening hamda xulofoyi roshidinlarning sunnatini o‘zlaringizga lozim tuting!"-ded aytganlar. (Imom Termiziy rivoyati)

To‘rt islom xalifasidan keyin “So‘z qoili o‘z ahvolin nukta sanj eliga bayon qilmog‘i va bir xolis oshno so‘zi birla nazm yo‘lig‘a kirmog‘idur” sarlavhasi ostida voqealar davom etadi. Undan keyin “Boriy taolog‘a munojot qilib nozir elidan duo ta’ma qilmoq” faslida Xiromiy Allohga munojot qilib, muhabbat bilan qo‘lidan tutib, o‘zi tomon to‘g‘ri yo‘lga boshlashini va karam ko‘rsatib, ikki olam ichra rost yo‘lni tutishga madadkor bo‘lishini so‘raydi.

“Basmala”, “Na'ti Hazrat Rasuli Akram sollollohu alayhi vasallam”, “Hazrat Rasul sollollohu alayhi vasallamning to‘rt yori ham diyni islom qasrining to‘rt ustuni va xaloyiq rahnamunidurlar, onlarning bayonidadur”, “So‘z qoili o‘z ahvolin nukta saj' eliyga bayon qilmog'i va bir xolis oshno so‘zi birla nazm yo‘lig'a kirmog'idur”, “Boriy taologa munojot qilib nazr elidan ta'ma duo qilmoq”, “Shoh raiyyat parvar ani Muhammad Xo‘jamquli sulton zikridur”, “Muhammad Xo‘jamqulishoh majlis tuzub fazl ahlin ehsondin bahra qildirgani” kabi sarlavhalar ostida berilgan 119ta bayt keltirilgan. 1960-yilgi nashrda yuqorida nomlari keltirilgan qismlar mavjud emas.

“Chor darvesh” she’riy asar bo‘lsa ham, shoir har bir bobga nasriy sarlavhalar qo‘yadi. Ularning “Chor darvesh” asari badiiyatida tutgan o‘rni beqiyos. Har bir sarlavhani shu bobning o‘ziga xos nasriy debochasi deb aytishimiz mumkin. Chunki nasriy sarlavhalarda bobdagi voqealar mazmuni ixcham ifodalangan bo‘lib, ular bobning, ba’zan esa hatto dostonning g`oyaviy va badiiy olamini tushunish uchun o‘ziga xos bir kalit bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular Xiromiy qalamining sehri va qudrati bilan so‘z san’atining betakror namunalari darajasiga ko‘tarilgan. Nasriy sarlavhalarda ham tashbeh, talmeh, istiora, tanosub kabi o‘nlab lafziy va ma’naviy san’atlarning namunalarini uchratishimiz mumkin.

“Xotimati tabb’i kitob” faslida “…nusxai dilbazir va pisandiydai barnoi pur mahbub va marg‘ub har begona-u xesh musammoi (Chor darvesh) Turkiy

musannif va muallifiy (Mirzo Qurbon) mutaxallis (Xiromiy). Kitob viloyati mahkumi doril-foxirai Buxoroi sharifning mutavallidi va mutavattini bo‘lib shevai turkiycha uzra bir necha masnaviyyot ajiybai muallafoti g‘ariyba sohibi va jomi’iy mutahammili ko‘b funun va odob va husni axloq ila mumtoz va o‘z zamonida suxanvarlik maydonida amsol va aqronidin go‘yi sabqat olmish bir donishmand ro‘zgor va hunarpeshai boiqtidor edi. Kamtarin xodim Ibodulloh Mirzo Oston Qorovulbegi mutaxallis (Dabiriy)ning qalam shikasta raqami sa’y va ihtimomidin sana 1332 hijriyda zevari tab’i ilan orasta va matbu’i jahon o‘ldi. Tavaqqu’i va tarsaddi barodaroni kirom va do‘stoni zavil ihtiromdan shuldurkim har chand bu faqir saropo taqsir nusxai kitobning mutaaddid qilib tas’hih va tadqiq uchun sa’y va kushish ayladim. Yaqindurkim inson jariydasi nuqson va nisyondon mubtar emasdur, aning uchun zaloli muruvvat va soyai futuvvatlarini himoyat etib kistoxona umidvordurmankim har necha sahv xatoiy nazari shariflarig‘a manzur bo‘lsa va iborat to loyiq ko‘rulsa hamiyyat nomi hurmatidin isloh va afvig‘a ishorat buyursunlar. Kamoli karam va ihsondan xoli bo‘lmag‘ay va bul axloqi hamiydai va atvor pandidalari dargohi Xudovandog‘a beajr va zoye qolmag‘ay. (Vallohu la yuziy’u ajrol muhsinin) va sollollohu ala xoyri xolqihi va olihi va as’hobihi ajma’iyn[4,250], degan so‘zlar bilan tugatilgan. Dostonning oxirida “Tarixi sol tab'iy roqam satur bandai pur qusur DABARIY dan” faslida Xiromiy bilan bir davrda yashab ijod etgan Ibodulloh Mirzo Oston Qorovulbegi mutaxallis (Dabiriy) Dabariy haqida va bu kitobning yozilish sanasiga doir ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

Alhamdu bu nomai xushmarom-topib lutfi iyzid[1] bila ixtimom,

Xiromiyki mashhur ofoq edi-yetib vaqti uqbo[2]g‘a qildi xirom, [4,251]

Allohga hamd bo‘lsinki uning lutfi bilan olamga mashhur bo‘lgan Xiromiyning asari go‘zal tarzda nihoyasiga etdi. Xiromiy oxirat yo‘liga safar qilganda, xalq orasida asarlari bilan mashhur edi.

Dabiriy xirad[3]din savol ayladim-ki tarixi tab’ig‘a bergil poyom

Muborak bashorat javobim dedi-degil soli tab’iyn (Xiromiy tamom)

Dabiriy (biznincha Dabiriy Xiromiydan qolgan nomani qayta ko‘chirib chop qildirgan) asarning yozilish sanasini bildirish maqsadida ilm kishilari bilan maslahat qilgan. Misrada: “Abjad hisobi bo‘yicha (Xiromiy tamom) degan jumlasi 1332 raqamini hosil qiladi. Bu esa kitobni 1332-hijriy sanada yozilganligini bildiradi.

[1] Arabcha ortiqcha, ziyoda ma'nosida
[2] Arabcha oxiratga ma’nosida
[3] Arabcha aql ma’nosida

Mazkur toshbosma ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga bayon qilmoqchimiz:

1. Toshbosma jami 252 sahifadan iborat bo‘lib, dastlabki sahifada basmala, alloh taologa hamdu sano, payg'ambar sollollohu alayhi vasallamga salovot, u zotning to‘rt xalifalariga maqtov keltiriladi.
2. Toshbosma nastaliq xatida yozilgan. Matnlar ikkita ustun shaklida bitilgan bo‘lib, atrofi ramka va naqsh bilan bezatilgan.
3. Basmala, na’t, Muhammad alayhissalomning to‘rt xalifalari (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali), munojot va barcha fasllarning sarlavhalari o‘rtada alohida ramkaga olingan.
4. Toshbosmadagi misralar asosan o‘zbek tilida yozilgan. Ayrim bir misralar fors tilida bitilgan.
5. Har bir sahifa ostida keyingi sahifa qaysi so‘z bilan boshlanganini bildiruvchi so‘z yozilgan va u sahifalar almashib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.
6. Sahifalar alohida betlangan.
7. Kitob kartondan muqovalangan va muqova hamda sahifalar juda yaxshi holda saqlangan.
8. Varag‘ining hajmi: 14 x 26 ni tashkil etadi.
9. Harflarning hajmi: 9 x19 holatda yozilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, basmala, hamd, na’t va munojotlarning keltirilishi mumtoz adabiyotining o‘ziga xos an’analaridan hisoblanadi. Xiromiy dostonda o‘zbek mumtoz adabiyotidagi an’analarni davom ettirib, o‘zining xalqqa, hayotga bo‘lgan munosabatlarini singdira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Yo‘ldoshev I. O‘zbek yozma adabiyotidagi "Chor darvesh" asarining qo‘lyozma manbalari va matniy tadqiqi. Filol. fanl nomzodi dis. avtoreferati. Toshkent, 1998. – 23 b.

2.Тожи Қораев. Танланган асарлар. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2008. 311 Б.

3. Хиромий. Чор дарвеш. Тошкент, Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёти нашриёти, 1960.

4. Хиромий. Раъно ва Зебо. Тошкент, Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёти нашриёти, 1963.

5. Xiromiy. Chor darvesh. 27844\11 raqamli toshbosma nusaxasi. 252 sahifa.

6. Қуръони Карим. Маъноларининг таржима ва тавсири. –Т:, “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2018.- 624 б.

SHASHMAQOM TIZIMINI SAVT TURKUMINING RITMIK QOLIPLARI HAQIDA

Abdurashidov Abduvali Abdulmajidovich,
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri, san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqola Shashmaqom turkumining ritmik tizimi muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shu munosabat bilan asarda nazm (aruz) va musiqa (usul) ritmi o‘rtasidagi munosabatda hosil bo‘lgan ritmik qoliplar ko‘rib chiqiladi. Shashmaqom san’atining tojik va o‘zbek ustalari tomonidan maqom amaliyotida qo‘llaniladigan ritmik qoliplar variantlari o‘rnatilgan. Unda Tojikiston Maqom akademiyasi aspirantlari bugungi kungacha saqlanib qolmagan Savt turkumining alohida turlarini tiklashda ushbu mashhur ritmik qoliplar (modellar)-dan qanday foydalanganliklari tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: aruz, usul, ritmik qolipi, turkum, Savt, Shashmaqom, Tojikiston Maqom akademiyasi.

Аннотация

Статья посвящена изучении проблем ритмической системы цикла Шашмаком. В этой связи в работе рассматриваются ритмические модели, формирующиеся в соотношении ритмики стиха (аруз) и музыки (усул). Устанавливаются варианты ритмических моделей, применяемые в макомной практике таджикскими и узбекскими мастерами искусства Шашмаком. Разъясняется, как аспиранты Академии макома Таджикистана использовали эти известные ритмические модели при восстановлении недошедших до нашего времени отдельных из видов цикла Савт.

Ключевые слова: аруз, усул, ритмическая модель, цикл, Савт, Шашмаком, Академия макома Таджикистана.

Abstract

The article is devoted to the study of the problems of the rhythmic system of the Shashmaqom cycle. In this regard, the work examines the rhythmic models formed in the relationship between the rhythm of the verse (aruz) and music (usul). Variants of rhythmic models used in maqom practice by Tajik and Uzbek masters of the art of Shashmaqom are established. It is explained how graduate students of the Academy of Maqom of Tajikistan used these well-known rhythmic models when restoring individual types of the Savt cycle that have not reached our time.

Key words: aruz, usul, rhythmic model, cycle, Savt, Shashmaqom, Academy of Maqom Tajikistan

Maqolada Shashmaqom og‘zaki ijodi mumtoz musiqa muammolarini o‘rganishning amaliy tomoniga bag‘ishlangan. Zamonaviy maqom amaliyotida e’tibor va echim talab qiladigan muammolar ko‘p. Biroq dolzarb masalalardan biri Shashmaqom tizimi rivojlanishining kech davriga (19-asrning 2-yarmi — 20-asr boshlari) tegishli bo‘lgan Savt turkumining turiga qaratilgan. Aynan shu davrda, bizningcha, Savt turkumining shakl va tuzilish jihatdan yangi turlari shakllana boshlagan. Taxminlarga ko‘ra, tarixning qaysidir bosqichida bu jarayon qandaydir ob’ektiv sabablarga ko‘ra to‘xtatilgan va shuning uchun Savt turkumining turi keyingi rivojlanishni olmadi va tugallanmagan bo‘lib qoldi. Ulardan faqat bir nechtasi bugungi kungacha saqlanib qolgan va ular birgalikda atigi 12 turkumni tashkil qiladi.

Ayni paytda, Savt turkumining turlari haqida ba’zi ma’lumotlarni birlamchi manbalarda kuzatish mumkin. Qo‘lyozma manbalarda – *risolai Shashmaqom*, *bayozi Shashmaqom* [2, c.136-137] larda tizimli davrlarga taalluqli bo‘lgan ba’zi Savt turkumlarining nomlari berilgan, masalan, *Savti Husayniy, Savti Ajam, Savti Hijoz, Savti Muxayyar* va boshqalar. Lekin negadir ular zamonaviy maqomda uchramaydi. Bu shundan dalolat beradiki, ularning ba’zilari bizning jonli ijro xotiramizda saqlanib qolmagan va shuning uchun ular hozir ishlatilmadi - ular yo‘q. Bu juda asosli savollarni tug‘diradi: nima qilish kerak? Agar biz ushbu turkumlarning tiklanishi juda muhim deb hisoblasak, darhol savol tug‘iladi: buni qanday qilish kerak? Bu muammoni hal qilish, tabiiyki, amaliy echimni talab qiladi. Bunday holda, bu erda asosiy muammo Shashmaqom tizimining Savt turkumining turlarini yig‘ish bo‘ladi. Bularning barchasi ushbu tadqiqot mavzusini o‘rganish darajasi va dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada muallif 2008-2010 yillarda ushbu muammo qanday ko‘rib chiqilgan va hal qilinganligini tasvirlashga harakat qiladi. Tojikiston Maqom Akademiyasining faol ijodiy davrida va bir paytlar 19-asr yozma manbalarida qayd etilgan Savt turkumining ayrim turlari 21-asrda Tojikiston Maqom akademiyasi aspirantlari sa’y-harakatlari bilan qanday qayta tiklangani [1, c.63-73].

Asosiy maqsad Tojikiston Maqom akademiyasi aspirantlaridan iborat ijodiy guruh Shashmaqom tizimidagi Savt turkumining turlarini tiklash masalalarini qanday hal qilgani, Shashmaqom tizimining Savt turkumlarini tiklashda qanday ritmik modellardan foydalanganini o‘rganishdan iborat. Ushbu kontekstda maqolada quyidagi vazifalarni ko‘rib chiqishga harakat qilingan:

1) Shashmaqom tizimining Savt turkum turlarini ijro etish amaliyotida qo‘llaniladigan ritmik qoliplarni o‘rnatish;

2) Ritmik qoliplar bilimi Maqom akademiyasi talabalariga Shashmaqomning vokal-cholg‘u qismining Savt turkumining ilgari maqom amaliyotida bo‘lmagan turlarini tiklashda qanday yordam berganligini tushuntirish.

Shashmaqom tizimidagi turkum turlarini aniqlash uchun ishda tasniflash uslubidan foydalaniladi. Shashmaqom kompozitsiyasidagi turkum turlarini tahlil qilish va amaliy o‘rganish jarayonidagi ahamiyatiga ko‘ra asosiy va hosila turkumiga bo‘lingan uch xil turkum mantiqiy asoslab berildi. Turkumning asosiy turlariga *Mushkilot* — cholg‘u va *Nasr* — vokal-cholg‘u qismlari, hosilalariga esa Shashmaqom tizimining vokal-cholg‘u qismi bo‘lgan *Savt* turkumlari kiradi.

Shashmaqom tizimidagi turkum turlarini o‘rganishga bunday yondashuv ishning yangiligini belgilaydi. Ishda turkumning asosiy va hosila turlari, shuningdek, ularning belgilanishi - silsila (so‘zma-so‘z - "qator", "zanjir", "aylana") tushunchasi ishlab chiqilgan. Turkumning asosiy turlarini muallif tomonidan *silsilai Mushkilot* – cholg‘u va *silsilai Nasr* - vokal-cholg‘u qismlari va hosilalari, *silsilai Savt* - Shashmaqom tizimining vokal-cholg‘u qismlari sifatida belgilab berilgan. Shashmaqom turkumining barcha turlarining bunday ta’rifi va belgilanishi zamonaviy musiqashunoslik va maqom amaliyotida birinchi marta qo‘llanilmoqda. Bu turkumlarning taqdim etish shakli va belgilanishi birinchi marta “Shashmaqom” kitobining tojikcha 6 jildlik oxirgi nashrida keltirilgan [4] (1- jadval).

1-jadval. Kanonik Shashmaqom tizimidagi turkum turlari

Asosiy turlari		Hosila turlar
1. Cholg‘u turkumi	2. Vokal-cholg‘u turkumi	Vokal-cholg‘u turkumi
Silsilai MUSHKILOT	*Silsilai* NASR	*Silsilai* SAVT

Endi biz Shashmaqomning Savt tizimi turkumlarini tiklash uchun dastlab haqiqiy muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga harakat qildik. Keyin Maqom akademiyasi talabalarining quyidagi tadbirlardan iborat ijodiy ishlari rejasi ishlab chiqildi:

1) Kanonik Shashmaqom tizimida mavjud bo‘lmagan Savt turkum turlarini belgilash;

2) Shashmaqomning kanonik tizimini shakllantirishda haqli ravishda qatnasha oladigan Savt turkumining barcha turlarini tiklash yo‘llarini aniqlash.

Avvalo, ustalarimiz Boboqul Fayzulloev (1899-1964), Shohnazar Sohibov (1903-1973), Fazliddin Shaxobov (1911-1974)-larning “Shashmaqom” kitobida berilgan va zamonaviy ijro amaliyotida qo‘llanilayotgan barcha Savt turkumlarini tahlil qildik. Ularning faqat 12 tasi borligi ma’lum bo‘ldi. Shu munosabat bilan biz bugungi kunda maqom amaliyotida Savt turkumining qaysi turlari qo‘llanilishi va qaysi biri qo‘llanilmasligi ko‘rsatilgan jadvalni taqdim etamiz (2-jadval).

2-jadval. Shashmaqomning vokal-cholg‘u qismining Savt turkuming maqom amaliyotida qo‘llaniladigan va yo‘q turlari.

№	Shashmaqom	Ishlatilgan Savt turkumlari		Savtning namoyon bo'lmagan turkumlari	
1	ROST	—	*Savti Ushshoq, Savti Sabo*	*Mug‘ulchai Rost*	—
2	NAVO	Mug‘ulchai Navo	*Savti Navo, Mustazodi Navo*	—	*Savti Bayot, Savti Oraz*
3	BUZURG	Mug‘ulchai Buzurg	*Savti Sarvinoz, Rok*	—	*Savti Uzzol, Savti Nasrullohi*
4	DUGOH	Mug‘ulchai Dugoh	*Savti Chorgoh*	—	*Savti Husayniy*
5	SEGOH	Mug‘ulchai Segoh	*Savti Kalon*	—	*Savti Hijoz, Savti Xoro, Savti Ajam*
6	IROQ	—	—	*Mug‘ulchai Iroq*	*Savti Chorgohi Muhayyar, Savti Muhayyar*
		4	8	2	10
		Jami 12 turkum		Jami 12 turkum	

Shunday qilib, Shashmaqom tizimida Savt turkumining atigi 12 ta tizimli turi etishmayotganligi aniqlandi.

Aytishimiz kerakki, tahlil jarayonida biz Savt turkumining turlaridan biri – Rost maqomidagi *Savti Ushshoq*ni kashf qildik, u faqat *Ushshoq* deb belgilangan, lekin aslida u *Muxayyar* maqomini tashkil qiladi. Ya’ni, bu turkum Iroq maqomi bilan bog‘liq bo‘lgan *Muxayyar* uslubida qurilgan.

Shunday qilib, masalalardan biri hal qilindi. Biroq, muammo kamaymadi. Endi maqomda *Savti Ushshoq* turkumini tiklashni boshlash kerak edi.

Aytish joizki, Savtning tizimli turkumlarini qayta tiklashda Shashmaqomning vokal-cholg‘u qismining bosh turkumi “Nasr” bo‘limlari asosiy manba bo‘lgan. Mug‘ulcha deb belgilangan turkum turlari Saraxbor bosh Nasr turkumining birinchi bo‘limlari asosida, Savtning qolgan turlari esa Shashmaqom tizimining

asosiy Nasr turkumining Nasr bo‘limi asosida qurilishi kerak edi. Shunday qilib, nima va qanday qilib qurish va yaratish haqida vaziyat aniq bo‘ldi.

Ushbu maqolada muallif ritmik tizimning faqat jihatini o‘rganish bilan chegaralanganligi sababli maqom amaliyotida qo‘llaniladigan Savt turkumining ritmik modellarini o‘rganish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi. Ma’lumki, Savt turkumi besh bo‘limdan va shunga mos ravishda Savt (yoki Mug‘ulcha), Talqincha, Qashqarcha, Soqinoma va Ufar nomi bilan mashhur bo‘lgan va o‘ziga xos ritmik qoliplarni ko‘rsatuvchi ritmik formulalardan (usul) iborat.

Albatta, bunday qiyin vazifani hal qilish uchun asosiy bilim, tajriba va ishlash qobiliyatlari kerak edi. Bu bosqichda Tojikiston Maqom akademiyasi talabalari allaqachon bularning barchasiga ega edilar. Ular Shashmaqomning ritmik, modal va kompozitsion tizimi asoslarini nazariy va amaliy jihatdan puxta o‘rganib, shu bilan birga Maqom akademiyasidagi 4 yillik o‘qish davrida Shashmaqom tizimi turkumining barcha turlarini o‘zlashtirish va ijro etish orqali ijro mahorati tajribasi va mahoratiga ega bo‘ldilar. Shunday qilib, ular o‘z oldilariga qo‘yilgan eng qiyin vazifalarni hal qilishga tayyor edilar. Keling, Maqom akademiyasi talabalari o‘z oldilariga qo‘yilgan muammolarni qanday hal qilganliklarini ko‘rib chiqamiz.

Ijodiy guruh – Tojikiston Maqom akademiyasi aspirantlari oldidagi asosiy vazifa Savt turkum turlarining ritmik tizimini o‘rganishdan iborat edi. Tabiiyki, boshida bu muammoni qanday hal qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Va shundan keyingina ular o‘zlarining ijodiy ishlarini boshladilar. Avvalo, ular yangi Savt turkumlarini tiklashda qo‘llashni xohlaydigan ritmik modellarning turlarini o‘ylab ko‘rishlari va tasavvur qilishlari kerak edi (1-rasmga qarang). Va shundan keyingina ular aruz o‘lchovlarida yaratilgan yangi she’rlarni izlab, saralashga kirishdilar, chunki Shashmaqom tizimining she’riy asosi asosan tojik-fors mumtoz she’riyatiga asoslangan edi. Savt turkumining bo‘limlari tahlil natijasida Tojikiston Shashmaqom san’at ustalari B. Fayzulloev, Sh. Sohibov va F.Shaxobovlar tomonidan quyidagi aruz o‘lchovlarida bayt qo‘llaganliklari ma’lum bo‘ldi (3-jadval):

Jadval 3. Savt turkumining bo‘limlari va tojik shashmaqom san’ati ustalari tomonidan aruz ta’sirining amaliy o‘lchovlari [3].

№	Savt turkumining turlari bo'limlari	Aruzning qo‘llaniladigan o‘lchovlari
1	Savt	Hazaj
2	Mug‘ulcha	Ramal
3	Talqincha (Chapandoz)	Muzore’, Rajaz, Komil, Hazaj
4	Qashqarcha	Ramal
5	Soqinoma	Mutaqorib, Hazaj, Komil
6	Ufar	Hazaj, Ramal

Savt turkumining turi beshta bo‘lim (*shoxa*) va ritm formulalari (*usul*)dan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos (faqat unga tegishli) ritmik model (*kolib*)-ni ifodalaydi, turkumining yangi turlarini tiklash masalasida akademiya talabalari allaqachon mavjud bo‘lgan va bir paytlar Shashmaqom san’at ustalari tomonidan yaratilgan ritmik modellarga tayandilar. Aniq taqdimot qilish uchun biz Savt turkumining ritmik modellaridan bir nechta misollar keltiramiz (1-rasm).

1-rasm. Shashmaqomning vokal va cholg‘u qismining Savt turkum bo‘limlarining ritmik model (qolip)-lari

1) Savt - Hazaj o‘lchami — *Hazaj musammani solim* (yoki *musabbag‘*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining birinchi qismining ritmik modeli.



2) Mug‘ulcha — Savt turkumining birinchi bo‘limining ritmik modeli bo‘lib, Ramal o‘lchami – *Ramali musammani mahzuf* (yoki *maqsur*) hajmiga nisbatan qurilgan.



3) Talqincha - Komil o‘lchami — *Komil musammani solim* (yoki *muzol*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining ikkinchi qismining ritmik modeli.



4) Talqincha – Muzore’ o‘lchami — *Muzore’i musammani axrabi makfufi mahzuf* (yoki *maqsur*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining ikkinchi qismining ritmik modeli.



5) Qashqarcha - Ramal o‘lchami — *Ramaliy musammani mahzuf* (yoki *maqsur*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining uchinchi qismining ritmik modeli.



6) Soqinoma - Mutaqorib o‘lchami — *Mutaqoribi musammani mahzuf* (yoki *maqsur*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining to‘rtinchi bo‘limining ritmik modeli.



7) Soqinoma – Muzore’ o‘lchami — *Muzore’i musammani axrabi makfufi mahzuf* (yoki *maqsur*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining to‘rtinchi bo‘limining ritmik modelidir.



8) Ufar - Ramal o‘lchami — *Ramali musammani mahzuf* (yoki *maqsur*) misrasining o‘lchamiga nisbatan qurilgan Savt turkumining beshinchi bo‘limining ritmik modeli.



9) Ufar - Hazaj o‘lchami — *Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (yoki *maqsur*) misrasi hajmiga nisbatan qurilgan Savt turkumining beshinchi bo‘limining ritmik modeli.



Binobarin, Maqom akademiyasi talabalari uchun, birinchidan, ~~sikl~~turkumdagi har bir bo‘lim uchun kerakli bayt hajmidagi bayt tanlash, ikkinchidan, bu misralarning mazmuni ham maqomning ohangdor mavzusi mazmuniga mos kelishi muhim edi. Shundan so‘ng aspirantlar she’rlarni tahlil qilib, bo‘g‘inlarga ajratishga kirishdilar.

O‘quvchilar barcha she’rlarni aruz ritmik to‘r qoidalariga ko‘ra bo‘g‘inlarga ajratdilar va tahlil davomida diqqat bilan o‘qib chiqdilar. So‘ngra misra ritmida misralardagi bo‘g‘inlarning jarangdorligi va tartibga solinishi oldindan seziladigan tarzda o‘qilib, talaffuz qilingan. Talabalar tanlangan she’rlar sinovdan o‘tganiga va foydalanishga yaroqliligiga ishonch hosil qilgach, darhol boshqa vazifaga – Savt turkum bo‘limlarining ritmik modellari asosida she’r o‘rganishga o‘tdilar.

Bu erda she’riyat vazn (*iko‘*) va musiqa (*usul*) ritmining uyg‘unligini his qilish uchun barcha baytlarni o‘rnatilgan bo‘g‘in bo‘linish tartibida o‘qib, shartli ravishda maqom ritmik modellari asosida kuylash zarur edi. Har bir tanlangan misra o‘zi tanlab olingan ritmik model asosida kuylangan: masalan, Ramal o‘lchagichda tanlangan misra Mug‘ulcha yoki Qashqarcha ritmik formulaga asoslangan ritmik modelda aytilgan va kuylangan, Hazaj metrdagi boshqa misra – Savt yoki Ufarning ritmik formulasiga asoslangan ritmik modelda va boshqalar. Bu bosqichda ijrochi o‘zi tanlagan misralarning munosibligini nihoyat anglagan yoki aksincha, amaliyot ko‘rsatganidek, ba’zan ularning ba’zilari boshqa misralar bilan almashtirilgan.

Shunday qilib, Savt turkumining tiplar tizimining ritmik komponenti o‘z echimlarini aniq va amaliy jihatdan topdi.

Oxir-oqibat, Tojikiston Maqom akademiyasi talabalari she’riyat va musiqa ritmi o‘rtasidagi munosabatda shakllangan barcha turdagi ritmik qoliplarni amalda

takrorladilar, shuning uchun Shashmaqom kanonik tizimining Savt turkumining modal va kompozitsion asoslarini aniqlash bilan bog‘liq natijasida keyingi bosqich va musiqiy ijodning quyidagi vazifalariga tayyorgarlik ko‘rish uchun.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурашидов А. А. Шашмаком ва масоили инкишофи он (Shashmaqom va uni rivojlantirish muammolari). – Душанбе: «Бухоро», – 2012. – 120 с.
2. Баёзи Шашмаком (баргузидаи рисола-баёзхои Шашмаком). – Душанбе, 2007. - 249 с.
3. Шашмақом: в 5 т. [Ноты] / сост. Б.Файзуллаев, Ш.Сахибов, Ф.Шахобов. ред. В.М. Беляев. – М.: ГМИ, — 1950-1967гг.
4. Шашмаком: в 6 томах [Ноты] / авт.–сост. А.А.Абдурашидов. – Душанбе.: Адиб, 2016.

UMAR SAYFIDDIN IJODIDA QADRIYATLAR FALSAFASI

G.Sattorova,
filologiya fanlari nomzodi
+998909471761

Annotatsiya

Qadriyatlar milliy madaniyatning asosiy belgisidir. Shu nuqtai nazardan, jamiyatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalari va madaniy qadriyatlarini aniqlash, ularni bir mezonga solish maqsadida Qozog‘iston poytaxti Ostonada joylashgan Turk akademiyasi tomonidan har yili Turkiy davlatlarning turkiy dunyoda umumiy qadriyatlari mavzusida 34 ta savoldan iborat so‘rovnoma bir vaqtning o‘zida 5 ta turkiy davlatda olib boriladi. Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar doirasida olib borilgan ushbu tadqiqot orqali turkiy davlatlar o‘rtasidagi yaqinlashuv va mamlakat imiji haqidagi fikrlarni tasavvur etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, qadriyat, milliylik, madaniyat, turkiylar, badiiy asar.

Har bir milliy adabiyotning rivojlanishi undagi milliy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq.

Milliy adabiyotlarning taraqqiyoti ma’lum bir tadqiqot ob’ekti sifatida ko‘zdan kechirilganda, kelib chiqish e’tibori bilan bir-biriga yaqin, qardosh xalqlar o‘rtasida o‘zaro adabiy ta’sir va aloqa muammolarining juda teran tarixiy ildizlarga molik ekanligi ayon bo‘ladi. O‘zbek xalqining ham barcha qardosh xalqlar bilan adabiy aloqalar tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Asrlar mobaynida davom etib kelgan urf-odat va an’analari, adabiyoti, falsafasi, me’morchiligi, musiqasi, tili jihatidan turkiy xalqlar bir-biriga juda yaqindir. Ushbu xalqlarning bir-biriga

yaqinlashtirgan umumiy va o‘xshash jihatlar ularning adabiyoti va madaniyatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada qadriyatlar falsafasining aks etishi turk yozuvchisi Umar Sayfiddin ijodi misolida yoritishga harakat qilingan.

Globallashuv jarayonlari barcha mamlakatlardagi iqtisodiyot, siyosat bilan bir qatorda, milliy madaniy jabhalarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon har bir millat kishisining ichki va tashqi tabiatida o‘zgarishlar yasamoqda.

Globallashuv natijasida o‘zgarib borayotgan zamonni, insonni, uning ta’siri tufayli har bir millat hayotida yuzaga chiqayotgan muammolarni; ro‘y berayotgan yangiliklarni; shular girdobida o‘z muammolari echimini izlab yashayotgan zamondosh qiyofasini, bir jihatdan, badiiy adabiyotda aks ettirish, ikkinchi bir tomondan badiiy asarlarda, adabiy jarayonda kechayotgan bu xodisalarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Badiiy adabiyotda milliy qadriyatlarning aks etilishi masalasi bizgacha ham tadqiq etilgan. Biz bu masalani tadqiq etishda dastlab turk adabiyotidagi hikoyanavislar ijodiga murojaat qildik.

Dunyoning yirik olimlari tomonidan turk va adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: turk-o‘zbek adabiyotining o‘zaro mushtarakligi; shakllanishi; ularning davriy bosqichlarini asoslash; yozuvchilar ijodida badiiy mahorat va uslub masalasini ochib berish; adabiyotlararo adabiy oqimlarning ahamiyatini izohlash; turk yozuvchilarining asarlarini asliyatdan o‘zbek tiliga, o‘zbek adiblari asarlarini turk tiliga tarjima qilishni amalga oshirish ishlari ikki xalq adabiyotshunoslari orasida allaqachondan buyon amalga oshirilayotgan ishlar sarasidandir.

Tajribali tarjimashunoslar bilan birga bugungi yoshlar ham turk adiblari asarlarini o‘zbek kitobxonlariga havola etishda samarali mehnat qilmoqdalar turk hikoyalarini o‘zbek tiliga o‘girish va adiblar hayoti va ijodi bilan tanishtirishda turk adabiyotshunosi Vali Savash ham o‘z o‘rniga egadir. Uning o‘zbek adabiyotshunosi Poshshajon Kenjaeva bilan hamkorlikda yaratilgan turk yozuvchilarining hayoti va ijodi haqidagi “Kutilmagan mehmon”[1.320] asari fikrimizning dalilidir.

Ildizlari mushtarak turk va o‘zbek elining adabiy aloqalari qadimiy tarixga ega. Ikki xalq ijodkorlari asarlarining bir-biriga bu qadar singib ketishiga nafaqat ularning qadimiy ildizlari birligi, balki asarlardagi mavzular mushtarakligi, yashash tarzi, bugunga qadar ham an’ana va odatlarning umumiyligi hamdir.

Umuman, XX asr boshlaridan bugungi kungacha bo‘lgan davrda turk va o‘zbek hikoyanavisligida qator yangi poetik tamoyillar kashf etildiki, bu

tamoyillar har ikki halq hikoyanavisligida ham bo‘y ko‘rsatdi. Bu esa turkiy xalqlar adabiyotning jahon nasri bilan bo‘ylashayotganligidan dalolat beradi.

Zamonaviy turk nasrining yirik vakili – XX asr turk adabiyotida hikoya janri rivojida o‘ziga xos uslubga ega yozuvchilardan biri Umar Sayfiddindir.

Birinchi jahon urushi davridagi siyosiy ahvol barcha turkiy xalqlar singari Turkiya adabiy muhitiga ham ta’sir etmasdan qolmadi. Adabiy oqimlarning ko‘payishi, adabiyotga turlicha yondashuvlar bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan adib turk nasri, ayniqsa, hikoyachiligini yuqori darajaga ko‘tarib, o‘z xalqi adabiyotini jahoniy miqyosga olib chiqdi. Yozuvchining hikoyachilikdagi mahoratini Dj.London, G.Mopassan, A.Chexov, o‘zbek adibi Cho‘lpon, A.Qahhor hikoyalari bilan qiyoslash mumkin.

Umar Sayfiddin o‘z ijodini she’rlar yozishdan boshlagan. She’rlari “Dekin” majmuasi, “Zamon” va “Vaqt” gazetalarida ketma-ket chop etiladi. U “Turk so‘zi”jurnalida bosh muharrirlik qilgan paytlarida turkiy fikrlarni ifoda etuvchi maqolalarini yozish bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullanadi. Umar Sayfiddinning hayoti og‘ir qiynoqlar va iztiroblarda kechgan bo‘lsa ham muxlislari uchun 10 ta kitobga jamlangan 125 tahikoyasini o‘z muxlislariga qoldirdi. Yozuvchi juda qisqa umr ko‘rgan bo‘lsada, turk adabiyotida o‘ziga xos ovozga ega bo‘lib, nodir hikoyalar yaratgan ijodkor sifatida yodga olinadi. U o‘z mamlakatini sevgan, millat va uning kelajagi uchun qayg‘urgan vatanparvar bo‘lganligi uning asarlarida aks etgan. Adib asarlarini o‘qir ekansiz XX asr boshlarida mamlakatni tarqoqlikka, millatni mahdudlikka etaklayotgan yot kuchlar qoralanadi, milliy o‘zlikni anglash, xalqni vatan ozodligi va obodligi yo‘lida birlashtirish kabi g‘oyalar adib asarlarining bosh maqsadini belgilaydi. Uning asarlarida ilgari surilgan g‘oya va maqsadlar insoniyat uchun, millat rivoji uchun xizmat qilganligi bois adib asarlari turli tillarda o‘qilmoqda.

Adib o‘tgan asrning birinchi o‘n yilligigacha askarlik xizmatida bo‘lganligi uning asarlarida ham sezililarli darajada ifoda etiladi. Adib aksar hikoyalarida asirlikdagi hayotni aks ettiruvchi voqealarni bayon qildi. “Pastkash”, “Mahdiy”, “Hurriyat Bayroqlar” hikoyalari shunday mavzudagi asarlardir. Uning “Tarix azaliy takrordir” (1910), “Haram” (1918), “Efruz Bey” (1919), “Qahramonlar”, “Bomba”, “Uzun poshnalar”, “Halollik”, “Yolg‘iz bahodir”, “Iskanja”, “Ishq to‘lqini”, “Oq Lola”, “Sirli amaliyot”, “Forsa”, “Qizil durli ko‘ylak”, “Badal” kabi bir qancha hikoyalari turkiya o‘quvchilarini yuksak ma’naviy-axloqiy g‘oyalar ruhida tarbiyalashda, ijtimoiy fikrni shakllantirishda katta rol o‘ynagan bo‘lsa, bugun bu asarlar o‘zbek kitobxonlarining ham qalbidan joy olgan.

Turk ta’lim tizimida shunday bir ta’lim turi borki, unga ko‘ra Milliy ta’lim vazirligining qadriyatlar ta’limi dasturlari va Qadriyatlar ta’limi yo‘riqnomasi bilan turk tili darslarida qadriyatlar ta’limi tushunchasi ham kiritilgan. Mazkur dasturda Umar Sayfiddin hikoyalari kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda va ularda milliy qadriyatlarni tarbiyalash elementlarini etkazish darslarda foydalanish mumkin bo‘lgan kuchli hikoyalar deb tan olingan. Bundan maqsad, badiiy matnlar tufayli o‘quvchilarga o‘rgatilishi orzu qilingan qadriyat haqidagi tushunchalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirilmasdan, hikoyalar orqali beilishi, o‘qish zavqi va adabiy go‘zalligi bilan yanada samaraliroq beriladi, deb tushuniladi. Qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda etkazishda samarali vosita bo‘lgan hikoyalarni tanlashda turk hikoyachiligining buyuk ustasi Umar Sayfitdin hikoyalarida turkiy qadriyat sanalagan 20 ta aniq tushunchalar tavsiflangan. Olingan natijalarga ko‘ra, Umar Sayfitdin hikoyalarida eng ko‘p qo‘llanilgan qadriyat vatanparvarlik, olijanoblik va muhabbat, mehmondo‘stlik va h.k..[2.1314]

Umar Sayfiddin yozuvchi sifatida tahlildan ko‘proq voqealar tasvirini birinchi planga qo‘yadi. Adib qahramonlarini turli vaziyatlarda tasvirlarkan, ularning ruhiy holatini, ichki dunyosini ochishga urg‘u beradi. “Marmar dastgoh” hikoyasida yozuvchi inson ruhiyatin teran ifodalay olishini Jabi afandi, Usta Ali obrazlari misolida namoyon etadi. Ana shunday ruhiy holatlar ifodalangan hikoyalaridan yana biri “Uch nasihat” hikoyasidir. Hikoyaning bosh qahramoni oddiy yigit Durmush. Uning onasidan boshqa yaqini yo‘q. Ijtimoiy muhit, ishsizlik Durmushning boshiga ko‘pgina sinovlarni soladi. U ish axtarib Istambulga keladi va bu erda Mustaqim Afandining qo‘lida bir qurush va bir nasihat uchun ishlaydi. Omonatga xiyonat qilmaganligi, halol mehnati tufayli baxtli hayot kechiradi. Asar xalq og‘zaki ijodi motivlari asosida yaratilgan, didaktik xarakterga egadir. Durmush xarakterini chizish orqali adib insonni halol yashashga, nafsini tiya bilishga, sabr qilishga undaydi.

Yozuvchi ijodi o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan keng o‘rganilib kelinmoqda. Ulardan biri adabiyotshunos Adhambek Alimbekov adib ijodini mavzu mundarijasiga ko‘ra quyidagicha tasniflaydi:

1. Vatanparvarlik mavzuidagi asarlar;
2. Folklor motivlaridan foydalanib yozilgan asarlar;
3. Satirik ruhdagi hikoyalar;
4. Ayollar bosh qahramon bo‘lgan asarlar.

Biz shu tasnifga asoslanib adib ijodini tahlil qilishga harakat qildik.

Vatanparvarlik mavzusi barcha xalqlar adabiyotida etakchi mavzu sanaladi. Ayniqsa, vatan ozodligi, uni tashqi kuchlarning ta’siridan asrash millat va milliy tilning rivoji, xalqchillik adib hikoyalarining asosiy mag‘zini tashkil etadi. Rus

adabiyotshunosi L.G.Yudkevichning «Adabiyotda milliy xarakter muammosi» deb nomlangan tadqiqotida: «Adabiyotda xalqchillik masalasi so‘zsiz milliy xarakter muammosining qay darajada aks ettirilishi bilan bog‘liq»,- deb yozadi.

Olim milliy xarakterning ikkilamchi xususiyati deb har bir adabiy qahramonda milliy xususiyatlar etakchilik qilishi, umuminsoniy xususiyatlar bevosita milliylikdan kelib chiqishi ko‘rsatiladi. Uchinchi xususiyat, badiiy qahramonning o‘z vatanini sevuvchi, millat baxt-saodati yo‘lida kurashuvchi sifatida tasvirlanishidir. To‘rtinchidan, milliy xarakterning to‘laqonli chiqishi uchun yozuvchi ijtimoiy pozitsiyasi uning estetik ideali bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim. Beshinchidan, muallif dunyoqarashi o‘z millatining ilg‘or ideallarini ifoda etishi, bunday ideallar bilan bir jon, bir tan bo‘lishi kerak. Oltinchidan, milliy xarakterni tasvirlash uchun muallif tarixiylik tamoyiliga asoslanishi lozim.

L.G.Yudkevich milliy xarakterning yuqoridagi olti xususiyatiga qo‘shimcha yana quyidagicha ta’kidlaydi: «Milliy xarakter o‘ziga xosligining muhim (birlamchi) belgisi - bu qahramon ichki dunyosidir. Shu bilan birga badiiy til, qahramon nutqi, badiiy tasvir usullaridagi milliylik milliy xarakter butunligini ta’min etadi».[3.146-148]

L.G.Yudkevichning fikrini quvvatlab shuni ta’kidlash mumkinki, xarakterning milliy bo‘lishi uchun unda millatga xos barcha xususiyatlar mujassam bo‘lishi kerak

Umar Sayfiddin asarlari xususida gap ketganda L.G.Yudkevich tomonidan nazariy asoslab berilgan barcha xususiyatlar mujassam ekaniga amin bo‘lamiz.

“Pushti dur to‘n” (ba’zi tarjimalarda “Qizil durli ko‘ylak”), “Boshini bermagan shahid”, “Gurzi”, “Ajabo, u ne edi?” kabi hikoyalarida Vatan ishqi, vatanparvarlik, uni asrash, himoya qilish kabi tuyg‘ular birinchi planda turadi. “Pushti durli to‘n” hikoyasida adib o‘z g‘oyalari va qarashlarini Muhsin Chalabiy obrazi orqali aks ettiradi. Bu obraz orqali adib turkiy xalqlarga xos haqiqiy xarakterni yaratadi. Ma’lumki, adabiy xarakter tom ma’noda hayotni badiiy aks ettirish usuliga qarab belgilanadi. Hayotni badiiy aks ettirish o‘z navbatida hayotiy xarakterdan badiiy xarakter yaratishdir. Natijada, inson shaxsiyati orqali badiiy xarakterning tarixiy, umumbashariy, xalqona va milliy qirralari yuzaga keladi. Yozuvchi badiiy obrazni turli davrlar, turli ruhiy, tarixiy vaziyatlar girdobiga tashlaydi va bu orqali obraz xarakteriga xos jihatlarni yoritib beradi.

Xazinadan bir pul olmasdan, bor mol-mulkini sotib, o‘rniga qimmatbaho toshlar qadalgan chopon tiktirgan va uni Eron shohi saroyida qoldirib kelgan mulkdor Muhsin Chalabiy tantiligi har qancha tahsinga loyiqdir. U Vatanga foydasi tegishi uchun butun boyligidan ajrasa-da, xizmatini hech qachon minnat

qilmaydi. Yozuvchi Muhsin Chalabiyni shunday ta’riflaydi: “U xudojo‘y, g‘oyatda aqlli inson edi. Insonga ta’sir etguvdek salobati va siri bor edi. Qarag‘ay o‘rmonining orqasidagi katta xo‘jalikni boshqarar, peshona teri bilan mehnat qilar, hech kimga g‘ayirligi yo‘q edi. Yo‘qsil va g‘ariblarning ko‘nglini olar, dasturxonidan mehmon arimasdi. Dinni mahkam ushlardi. Ammo mutaassib emasdi. Din, ulus, vatan ishqini, mamlakatining buyukligi, muqaddasligini yurakdan his qilardi. “Tangridan boshqasiga sajda etmay, qulga qul bo‘lmaslik uning hayotdagi maqsadi edi”[i] –deya ta’riflaydi. Adibning hikoyadan maqsadi ham ana shu ta’rif orqali ochib beriladi. Muhsin Chalabiy amaldorlar oldida ikki bukilib, ularga mulozamat ko‘rsatgan, o‘z g‘ururini bilmaydigan, zaiflardek erga sudralib yuradigan isqirt insonlardan nafratlanardi. Hatto bundaylarni ko‘rmaslik uchun odamlardan uzoqda yurar edi. Adib birgina mana shu ta’riflar orqali inson ruhiyatidagi evrilishlar, qadr-qimmatning barcha narsalardan ustunligini badiiy bo‘yoqlar orqali ifodalasa, qahramonning “davlatdan nuqul olish kerak ermas... biroz berish ham kerak...”, eron shohiga qarata “Saroyingizda ulug‘ bir podshoning elchisini o‘tqazish uchun gilamingiz, ko‘rpachangiz yo‘q ekan. Buning ustiga bir turk erga yozgan narsasini qaytib kiymaydi” kabi so‘zlari haqiqiy vatanparvarlikni, inson g‘ururi, or-nomusini anglatadi. Yozuvchining turk millatining taqdiri, uning kelajagi borasidagi xavotirlari “Do‘stu nodo‘stlarimiz” hikoyasida yorqin aks etgan. Hikoya qahramoni “Tarixi, ta’limi, adabiyotida o‘zini bu qadar inkor etgan bir millat o‘z milliyligiga asoslangan “ittihod” birlik g‘oyasini o‘rtaga qo‘yishi mumkinmi? Yevropaliklar bizni yaxshi o‘rganmaganliklari uchun bunday g‘oya borligini taxmin qilish mumkin!... Oramizdagilar bo‘lsa bu qadar go‘l bo‘lmasliklari kerak. Mamlakatimizda “turk, turklik, Turkiya turkiyot” kalimalari bo‘lmaganligi singari “turk tili” degan bir til ham yo‘qdir”, deydi. Millatni millat sifatida shakllantiradigan,birlashtiradigan, rivojlantiradigan, birinchi omil tildir. Tilni yo‘qotish millatni o‘ldirish tomon etaklaydi. Shu boisdan ham muallifning o‘z ona tilining ahamiyati, uning sofligini asrash to‘g‘risidagi o‘y fikrlari, tashvishlari bu asarda o‘ziga xos ohangda jaranglaydi. Adib qahramonining bu qarashlari orqali milliy til va milliy adabiyot milliy davlatni vujudga keltiradi, degan g‘oyalar ilgari surilganligining guvohi bo‘lamiz.

Adibning vatanparvarlik g‘oyalari ulug‘langan hikoyalaridan yana biri “Tutqun” hikoyasidir. Yigirma yil tutqunlikda yashagan, ammo bir daqiqa ham vatan tuprog‘i, uning ozodligi haqidagi orzularidan voz kechmagan, unga ishonib yashagan Qora Mamish obrazi asarda insonning metin irodasi, e’tiqodi qanchalar kuchli bo‘lsa, uning atrofidagilarga, oilasiga, vataniga bo‘lgan sadoqati ham shu darajada samiimiy bo‘lishini tasvirlaydi. Qora Mamishning o‘z millatiga, xalqiga,

diniga bo‘lgan e’tiqodini yozuvchi shunday ta’riflaydi: “Faqat tahorat qilolmagani uchun qayg‘uradi. Doimo kunchiqar tomonning chap tarafida turib, ko‘zlarini qiblaga qaratar, besh vaqt nomozini yashirin ishoralar bilan ado etardi ”. Asar qahramoni 20 yil tutqunlikda, 10 yil xo‘jayinning xizmatida bo‘lgan endi u kuchdan qolgan, hech qanday foydali ishga yaramaydi. Ammo uning xotirasi hali baquvvat. Yozuvchi qahramonining vatanni qayta ko‘rish haqidagi orzu istaklarini bayon etishda tush motividan foydalanadi. Bu motiv orqali insonni yashashga, hayotiylikka undovchi vosita uning ruhiyati ekanligiga ishora qiladi. Yozuvchining mahorati shundaki, qahramon biror o‘rinda vatanini sevadi, deya oshkor ifodalamaydi, ammo uning asar so‘ngida “-Shahid bo‘lsam meni shu bayroqqa o‘rang! Ol bayroq hilpiragan er vatan emasmi, axir?!”, degan fikrlari bilan dalillaydi. Chunki keksa kemachining so‘nggi daqiqalargacha yashash istagini so‘ndirmagan tuyg‘u bu- Vatan tuyg‘usi edi.

Umar Sayfiddinning hikoyalari orasida ayollar obrazi birinchi planda ko‘rsatilgan asarlari talaygina. “Baland poshnalar”, “Qurigan og‘ochlar” hikoyalarida ayollar qalbidagi nozik, ilg‘ab bo‘lmas tuyg‘ular, ularning iztiroblari go‘zal chizgilarda ifodalanadi. Adibning ayollar bosh qahramon bo‘lgan hikoyalari orasida “Kamalak” hikoyasi xarakterlidir. Hikoya bosh qahramoni Oysha endigina o‘n yoshga kirgan. Shunday bo‘lsada adib asarda uni “Pahlavon Oysha”, deya ta’riflaydi. Pahlavonlik odatga o‘g‘il bolalarga nisbat beriladi. Bu o‘rinda yozuvchi Oyshani “pahlavon” deb ta’riflashining o‘ziyoq uning kurashuvshanligiga ishoradir. Oysha pahlavon bo‘lishi bilan birga nihoyatda go‘zal qiz. Ana shu go‘zallik va pahlavonlik tashbehlarining bir-birini qabul qila olmasligi, ya’ni qiz bolaning ot minishi, o‘q otishi, kurash tushishi mumkin emas, degan eski qarashlar Oyshaning qalbida isyon tug‘diradi. Oddiygina o‘n yoshli qiz bola qalbidagi isyon orqali adib XX asr boshlaridagi turk ayollari qalbida ko‘tarilgan kurashchanlikni ifodalaydi. Tuzumdagi eskilik sarqitlari, ayollarga bir buyum sifatida qarash, ularning ko‘ngli bilan hisoblashmaslikni hayotining bosh mezoniga aylantirib olgan, dinni niqob qilib, undan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanayotgan kimsalar obrazini Bo‘ri domla qiyofasida gavdalantiradi. Oyshaning xayollari orqali uning domla kabi kimsalarga qarshi isyonini ifodalasa, Bo‘ri domlaning o‘n yoshli qizga nisbatan nuqul “hijobga soling, hijobga. Endi uning ochiq yurishi maqbul emas”, deya qayta-qayta javrashi u yashab turgan tuzumning uzoq davom etishi uchun isyon qilgan kimsalarning hali ulg‘aymasdan ildizini kesishi, ular orqasidan ergashib ketuvchilarning ko‘payib ketmasligi uchun bir tushov ekanligining ifodasidir.

Yozuvchi Oysha va Bo‘ri domla obrazlarini bir-birlariga qarshi qo‘yarkan XX asr boshlarida butun turkiy xalqlar hayotida ro‘y bergan vatan ozodligi bilan

birga ayollar oozodligi uchun ham bo‘lgan kurashlar haqida hikoya qiladi. Oysha obrazi ayollarning ozodlikka, paranjini tashlashga qarshi kurashi, erkak va ayolning jamiyatda teng huquqli ekanligining namunasi sifatida ko‘rsatilar ekan, bu obraz o‘zbek adabiyotda ayollar ozodligi uchun kurashgan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi, Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasidagi Unsin obrazlarini eslatadi. Ammo Umar Sayfiddin asaridagi qahramon Oysha ozodlikni qanchalik istamasin, “Kecha va kunduz”dagi Zebi, “Dahshat”dagi Unsin kabi Oysha ham haqiqiy ozodlikka kurashlar orqali etish mumkinligini anglab etmaydi. U xayolan Bo‘ri domla kabi kimsalarga qarshi kurashishni o‘ylasa-da, uning qalbidagi isyon kurashga aylanmaydi. Bu bilan yozuvchi o‘sha davrdagi muhit bunga imkon bermaganligi tasvirini chizib beradi.

Yozuvchi hikoyalari orasida “Ajinali ko‘shk”, “Oq yuz”, “Vasiyatnoma”, “Jasorat” kabi asarlari hajv va satiraga boyligi bilan ajralib turadi. “Ajinali ko‘shk”, “Vasiyatnoma”, hikoyalarida adib jamiyatdagi ziqna, birovning haqi evaziga kun ko‘rayotgan imonsiz odamlar obrazini yaratadi. Ro‘za va namozni niqob qilib olgan soxta dindorlarni Hoji niyoziy obrazida ifodalasa, birovning haqiga xiyonat qiluvchilarni Mufti hoji afandi obraziga singdiradi. “Jasorat” hikoyasining sarlavhasini o‘qigan kitobxon asar kimningdir jasorati haqida bo‘lsa kerak deb o‘ylaydi. Hikoya mazmuniga kirib borganingiz sari adib o‘zining o‘tkir satirik tig‘i bilan aslida qo‘rqoq, qo‘lidan hech qanday ish kelmaydigan kimsalarning tashqi qiyofasi bilan boshqalarni qo‘rqitib yurgan kishini oddiygina jonzot kanaga qarshi qo‘yishining o‘ziyoq asarning o‘tkir hajvga boyligidan dalolatdir. “Vasiyatnoma” hikoyasida esa adib hayotning mazmunini kayfu safodan, qimoru ichkilikbozlikdan, ayshu ishratdan iborat deb bilan kimsalar ustidan kuladi. Bu kulgularni qahramonning jiyaniga yozgan soxta vasiyatnomasida ko‘rsatib bergan uch qismdan iborat dasturga singdiradi. Adib qalamga olgan bu xil satira va hajv nafaqat turk xalqi hayotida, balki butun insoniyat hayotida uchrashi mumkin bo‘lgan voqea hodisalar ekanligi bilan o‘qimishlidir.

Adib hikoyalarining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shundaki, qaysi hikoyani o‘qimang, unda millat dardi, o‘z xalqining or nomusini ulug‘lash bilan birga insonni inson, xalqni xalq darajasiga ko‘taruvchi yagona timsol TILga alohida urg‘u beriladi. Ayniqsa, “Chanoqqal’adan so‘ng” hikoyasi qahramoni tilidan aytilgan: “o‘z ismini bilmaydigan, o‘z tilida yozmaydigan, dushmanlarini do‘st deb bilgan bir millat yashashi mumkinkinmi? Buning imkoni bormi? otini bilmaydigan, o‘z tilida yozmagan, dushmanini do‘st deb bilgan bu bechora millat ertaga ruslar, fransuzlar, inglizlar qo‘lida Hindiston xalqi kabi asir bo‘ladi, ularga molday xizmat qiladi, madaniyatdan, ya’ni insoniylikdan, axloqiylikdan mahrum

bo‘ladi”, deya tili va ma’naviyatini unutgan, ular uchun kurashmagan kimsalarga qarata “Eh, asir podalari...” deb xitob qiladi. Adibning qahramon tilidan aytilgan “-Uyg‘oning! O‘zligingizni bilib oling, hayvon singari g‘oyasiz, tashkilotsiz, madaniyatsiz yashamang, millat bo‘ling...” kabi xitobi birinchi jahon urushining iztirobli damlarida erk uchun kurashayotgan vatandoshlariga qarata aytilgan bo‘lsa-da, nafaqat kechagi kun uchun bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatlidir. Har bir xalq, har bir millatning o‘z tili va ma’naviyati, vatanini zo‘ravonlik, tashqi ta’sirlardan himoya qilish uchun chorlagan xitobdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ёлуқ *Вали Саваш*., Кенжаева, Пошшажон. *Кутилмаган меҳмон*: (тўплам). – Тошкент.: Академнашр, 2011. 320 б.
2. Atıf/ İnce, Ö., A. Acemoğlu (2021), “Ömer Seyfettin Hikâyelerinin Değerler Eğitimi Açısından İncelenmesi” Littera Turca, Littera Turca Journal of Turkish Language and Literature, 7/4, 1314-1328.
3. Юдкевич Л.Г. Проблема национального характера в литературы /Теория литературы в связи с проблемами эстетики. Москва: Высшая школа, 1970. С. 146-148.
4. Sayfiddin Umar. “Badal” hikoyalar. — T.: «Yangi asr avlodi », 2012 - 248 ...
5. Yudkevich L.G. Problema nasionalnogo xaraktera v literaturы /Teoriya literaturы v svyazi s problemami estetiki. Moskva: Vыsshaya shkola, 1970. S. 146-148.
6. Atıf/ İnce, Ö., A. Acemoğlu (2021), “Ömer Seyfettin Hikâyelerinin Değerler Eğitimi Açısından İncelenmesi” Littera Turca, Littera Turca Journal of Turkish Language and Literature, 7/4, 1314-1328.
7. [1]https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-milliy-va-ijtimoiy-kurashlar-davri-adabiyoti-xx-asrning-birinchi-choragi.
8. Alimbekov A**.** Umar Sayfiddin va turk hikoyachiligi. Sharqshunoslik / vostokovedenie / oriental studies 2022, № 1, 43-49 b.
9. Yoluq Vali Savash., Kenjaeva, Poshshajon. Kutilmagan mehmon: (to‘plam). – Toshkent.: Akademnashr, 2011. 320 b.
10. G.Sattorova. Milliy xarakter va badiiy talqin. Toshkent, Fan, 2007 yil. 120 sahifa.
11. G.Sattorova. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining tadrijiy takomili. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz 3(6), June, 2023.

MUMTOZ ADABIYOTDA QADRIYAT VA BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARI

Jo‘raboev Otabek Rustambek o‘g‘li,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
atabekrj@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Sharq mumtoz adabiyoti bag‘rikenglik g‘oyasi qanday aks etganligi misollar yordamida ochib berilgan. Jaloliddin Rumiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Muhsiniy va Haziniy she’rlaridagi ana shu jihatlarga uyg‘un o‘rinlar tahlil etilgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari diniy mavzular qatori dinlar va mazhablararo bag‘rikenglik tushunchasini o‘zlarining ayrim asarlarida targ‘ib etganliklari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Bag‘rikenglik, mumtoz adabiyot, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Muhsiniy, Haziniy

Аннотатсия

В статье на примерах показано, как в восточной классической литературе отражается идея толерантности. Проанализированы соответствующие этим аспектам отрывки в стихотворениях Джалал ад-Дина Руми, Навои, Бабура, Увайси, Мухсини и Хазини. Показано, что представители узбекской классической литературы, наряду с религиозной тематикой, в некоторых своих произведениях пропагандировали концепцию толерантности между религиями и сектами.

Ключевые слова. Толерантность, классическая литература, Навои, Бабур, Увайси, Мухсини, Хазини.

Abstract

The article shows, using examples, how the idea of tolerance is reflected in the Eastern classical literature. The corresponding passages in the poems of Jalal ad-Din Rumi, Navoi, Babur, Uvaysi, Mukhsini and Khazini are analyzed. It is shown that representatives of Uzbek classical literature, along with religious themes, in some of their works promoted the concept of tolerance between religions and sects.

Keywords. Tolerance, classical literature, Navoi, Babur, Uvaysi, Mukhsini, Khazini.

Qadimdan Sharq adabiyoti ezgu va umumbashariy qadriyatlarni vasf etib, targ‘ib qilib kelgan. Ana shunday tushunchalardan biri bag‘rikenglikdir. Sharq

mumtoz adabiyotining eng ulug‘ siymolari dinlararo bag‘rikenglik va umuminsoniy qadr-qimmatni o‘z asarlarida kuylaganlar. Misol uchun, Mavlono Jaloliddin Rumiy (1207-1273) “Devoni kabir”da shunday deydi:

Onhoki talabgori Xudoyid, Xudoyid!
Berun ze shumo nist, shumoyid-shumoyid!
Chize ki nakardid gum az bahra chi juyid,
Ve-andar talab gum nashuda bahra charoyid?..

Tarjimasi:

Sizlarki talabgori Xudosiz, Xudosiz,
Sizdan narida yo‘q u, bilasiz, bilasiz.
Neniki yo‘qotmabsiz nechun axtaradirsiz?
Yo‘q bo‘lmagan ul narsani istab ne qilasiz?.. [1, 87]

Albatta, o‘z davrida din va mazhab talashib juda ko‘plab jang-u jadallar, urushlar va qon to‘kishlar yuz berardi. O‘sha holatlarni ko‘rgan va chuqur mushohada qilgan Jaloliddin Rumiy Tangri taoloni o‘z hollaricha qidirib, turli g‘avg‘olarga sababchi bo‘layotganlarga qarata – inson, avvalo, o‘zligini tanishi lozim, “o‘zini tanigan Tangrini taniydi” demoqda. Negaki, har bir inson Tangridan ya’ni, uning marhamatidan chetda emasligini yana bir bor eslatmoqda.

Bu borada hazrat Alisher Navoiy (1441-1501) aytadiki:

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,
O‘zingga ravo ko‘rmaganni ravo. [2, 57]

Ya’ni, ulug‘ shoirga ko‘ra: Xalqni ko‘p ham benavo (maslaksiz, yo‘lsiz) deb o‘ylama; o‘zingga ravo ko‘rmagan yomonliklarni xalqqa ham ravo ko‘rma.

Xalq ham doimo sof e’tiqod sari intiladi. Uni ana shunday poklik sari chorlash lozim. Faqat o‘zini “haq” deb, tutgan yo‘lini esa “to‘g‘ri” deb turib olguvchilarga qarata Navoiy deydi:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q andoqki ko‘ngul ka’basi. [2, 14]

Demak Navoiyning ta’kidlashicha, Ka’ba butun olamning qiblasi bo‘lsa-da, ko‘ngul ka’basining qadri ortiqroqdir.

Bu o‘rinda inson omili, uning qalbi bosh planga chiqmoqdaki, mumtoz adabiyotda ham bosh mavzu inson go‘zalligini vasf etishdir. Uning ezgu ishlarini maqtash, turli yomon illatlar, chunonchi diniy mahdudlik va ayirmachilikni qoralash ham bosh mavzulardan bo‘lgan. Albatta, bu jihat asl insoniy xislatlarni ulug‘lash va sirama-sira tavsif etish orqali namoyan bo‘ladi. Yana, Navoiy yozadi:

Agar ishq aro bo‘ldi mubaddal kufr ila dinim,
Ne g‘am, chun poklik rasmidurur bu ishda oyinim.[2, 21]

Ya’ni, ishq ichra qolib, hatto ba’zilar nazdida dinim ham kufrga mubtalo bo‘lgan esa-da; g‘amim yo‘q, chunki bu ishda (ishq yo‘lida) bajaradigan odatlarim poklik bilan yo‘g‘rilgandir.

Mana asl bag‘rikeng insoniylik va oshiqlikning ochiq ko‘rinishi. Navoiy bir o‘rinda aytadiki: *“O‘zi poku ko‘zi pokni inson desa bo‘lur...”* Demak, pok niyatli va pokiza zotlarnigina INSON degan yuksak sharafli nom bilan atash mumkin ekan. Pok insonlar albatta butun dunyo ahliga yaxshilik tilaguvchi, millatlarni teng ko‘ruvchi bo‘ladi. Zeroki,

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung biringizgaki, erur yorlig‘ ish...[2, 30]

Bag‘ri butun va keng insoniylikning yana bir ko‘rinishi Navoiy nazdida ehson-saxovatdir. U “Mahbub-ul-qulub”da yozadi: *“Insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari ham ehsondur va odamiyliq gulining arjumandroq gavhari ham ehsondur...”* (ya’ni: Agar insoniyatni bir bog‘ deb atasak, dillarni tutib turguvchi daraxt ham ehson, odamiylikning guli, tanlab olingan gavhari ham ehsondir...)

Demakki, ehson hox moddiy, hox ma’naviy bo‘lsin asl insonni bag‘rikenglik sari ildamlovchi, komillikka etaklaguvchi jihat ekan. Shuning uchun Navoiy:

Bu gulshan ichra yo‘qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshiliq bila ot!

deya insonning nomini abadul-abad baxtlilar safidan o‘rin olishi uchun albatta yaxshilik bilan nom chiqarishi zarurligini uqtirmoqda. Yaxshilik esa Navoiy uqtirganidek birinchi galda, o‘zgalarga ezgulik tilash, tinchlik-farog‘atda sodir bo‘ladi.

Albatta kishi o‘z istak-hoxishlarini ustun qo‘yib, o‘zgalar fikri bilan hisoblashmas ekan, o‘z ra’yiga e’tiqod qilib el-yurt farovonligini istamas ekan bunday odam bag‘rikenglik da’vo qilolmaydi. Shuning uchun Navoiy yozadiki:

Aylama o‘z ra’yingga ko‘p e’tiqod,
Mo‘tamad el ra’yidin ista kushod.[2, 101]

Bu kabi qarashlarni keyingi davr ijodkorlaridan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) asarlarida ham ko‘ramiz. Ma’lumki, Boburning Samarqandni olish uchun qilgan uchinchi yurishi (1510-1511) davrida Erondagi safaviylar davlati bilan ittifoq tuzilgan edi. Safaviylar esa “qizilboshlar” deya atalib, Islomning shia mazhabini mahkam tutgan mutaassib sulola edi. Shuning uchun, ayrim zamondoshlari Boburni ham shia mazhabiga o‘tib, e’tiqodini o‘zgartirdi, deya mish-mishlar tarqatishadi. Mana shu vaqtlarda yozilgan Boburning bir fardida ularga qarata shunday javob berilgan:

Meni e’tiqodsiz deb bori el ichra yod etma,

Xudo uchun bori elni o‘zungdek e’tiqod etma.[3, 9; 142]

Anglashiladiki, boshqa bir insonni e’tiqodsiz deb xalq o‘rtasida badnom qilib, gapirib bo‘lmaydi. Agar Tangri taoloni rozi qilaman desa, aynan uning ko‘rib turgani uchun, Undan qo‘rqib, o‘zgalarni ham o‘zidek buzuq fikrli deb o‘ylamaslik zarur. Aks holda ig‘vogar va fasodchi bo‘lib qoladi.

Bobur esa hayoti davomida vijdonli, jasur va sog‘lom e’tiqodda sobit bo‘lib, nihoyatda bag‘rikeng ham edi. U Hindistonni fath etganida (1526) bir qator shaharlarda hindlarning ziyoratgohi, ibodatxonalari va ma’bud haykallarini buzmaslikni amr qiladi. O‘zga din vakillarini ibodatlarini qilishga qarshilik ko‘rsatmagan. Aksincha, bid’at va buzuq e’tiqodni kasb qilib olgan firibgarlarni jazolagan. Masalan, “Boburnoma”da keltirilishicha (1519-1520 yil voqealari) hozirgi Afg‘onistonning Maqom degan joyida Shahboz degan soxta qalandarning qabrini buzdiradi. Negaki, Yusuf Zayi va Dilozakdagi jamoani adashtirgan shu qalandar edi va Bobur aytadiki: *“Mundoq havolig‘ erda mulhid qalandarning qabri betaqribdur...”* deydi [4, 165]. Chunki, kimligi aslida noma’lum va soxta qalandarning juda xushmanzara joydagi qabri atrofiga bir toifa yolg‘onchi kishilar yig‘ilib, bu qabr salavot aytsa tebranadi, deb odamlarni aldar, o‘zlari pinhona pardani silkitib turishardi. Bobur bu voqeani sinchiklab taftish qiladi, o‘rgangach, yolg‘onni fosh etib yuqoridagi chorani ko‘radi.

Bobur 1525-1526 yillarda o‘z e’tiqodiy qarashlarini aks ettiruvchi “Mubayyin” asarini yozadi. Unda muallif turli buzuq e’tiqodlarni emas necha asrlardan buyon diyorimizda amal qilinib kelinayotgan ahli sunna va jamoa e’tiqodini aks ettiruvchi to‘liq hanafiya mazhabi asosida Islom fiqhini she’riy yo‘lda o‘zbek tilida kitob qilgan. Bunda ham Bobur dunyoqarashidagi bag‘rikenglik, o‘zga mazhab va dinlarni kamsitmaganligini ko‘ramiz.

Bu kabi qarashlar aynan shunday yoki biroz o‘zgacharoq ko‘rinishda XIX asr o‘zbek shoirlari ijodida ham namoyan bo‘lgan. Misol uchun, Jahonotin Uvaysiy (1785-1845) g‘azallaridan birida yozadi:

Kufrdin din ahli qilg‘ay doim tarsandaliq,
Mazhabi ishq ichra Islom istama zunnorsiz...[5, 64]

Ya’ni, shoira aytmoqchiki, dindorlar kufr keltirib qo‘yishdan doimo qo‘rqadilar; agar sen ishq mazhabini tanlagan bo‘lsang Islom dinini zunnorsiz talab qilma.

O‘sha XIX asr birinchi yarmi uchun bunday fikrni she’riy shaklda baralla aytish shoiradan katta jasorat talab qilgan. Negaki, mazkur baytda ta’kidlangan birlamchi ma’nodan tashqari, ikkilamchi – irfoniy mazmun ham aks etgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Shayx San’on tarso (nasroniy) go‘zaliga oshiq bo‘lib qolgunga qadar, Islom olamida ma’lum va mashhur zot edi. U aynan o‘sha qizga oshiqligi

tufayli nasroniy diniga o‘tadi va buning belgisi sifatida beliga zunnor boylaydi. Ya’ni, aslida u botinan Islom ichra bo‘lgani holda ishq mazhabi tufayli zohiran zunnor taqdi. Uvaysiy ham aynan mana shunday nozik ma’noga ishora qilgan holda asarida bag‘rikenglik g‘oyasini ilgari surmoqda.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib esa bunday qarashlar ma’rifiy-ijtimoiy xarakter kasb eta boshladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining taraqqiy topishi, turli sohalarda (fan, texnika, madaniyat) ilg‘or an’analarni o‘zlashtirishi she’riyatdagi bag‘rikenglik tushuncha va g‘oyalari bilan mushtarak holda ifoda etila boshlandi. Shu bilan birga, Turkiston xalqlarining qoloqlikka tushib qolish sabablari ham bir qancha shoirlar nazmida bo‘y ko‘rsatar, she’riyatning u yoki bu shaklida jarang topardi. Masalan, Husaynquli Muhsiniy (1860-1917) qalamiga mansub bir muxammasga diqqat etsak:

Tutmaduk ibrat ila ilmu hunur ohangin,
Ko‘tarub bori jaholatlari nomi tekin,
Yovrupo ahlini ko‘r, donish ila farhangin,
Ko‘rsatur kechavu kun biza hama nayrangin,
Bemaorifda bizim ishlari dushvor o‘lduk...[6,108]

Aytilmoqchiki, ilmu hunarni zamonaviy bilimlar asosida mukammal o‘rganib, jaholatdan voz kechib, kechayu kunduz tinmay ma’rifatni o‘rgangan Yevropa xalqi donishmandlik va fan-texnikada ilgarilab ketdi. Bizning bemaorif (ma’rifatsiz) ishlarimiz esa dushvor bo‘lib qoldi.

Shoir yana davom etadiki, Xudodan boshqa barcha jonzot o‘tguvchi. Shuning uchun, o‘tkinchi dunyo hech vafo qilarmidiki, jahonning ingliz, fransuz, nemis, yahudiy va polyak kabi ilg‘or xalqlari ilmu hunarni mukammal egallab, rivojlanib ketdilar. Biz Turkiston xalqlari esa ma’rifatsizlik oqibatida firqalarga bo‘linib qoldik:

Anglagaymizki, Xudodin digaridur holik,
Qildimu hech vafo bu falaki miynolik,
Anglis, xohi farang, nemisa, yahudu folik,
Bo‘ldilar barchalari ilmu hunarg‘a molik,
Bemaorifda bizim firqamu iqror o‘lduk...[6, 10; 109]

Mana shunday insonparvarlik (gumanizm) tushunchalari bilan sug‘orilgan she’riy satrlar o‘sha davr millatimiz shoirlarining ne qadar keng fikrli va bag‘rikeng, tom ma’noda – tolerantlik g‘oyasi bilan ham hamohang ijod qilganliklarini isbot etadi. Ularda insonlarni millatlarga ajratib emas, qaysi xalq-millat ma’rifatga qay darajaga erisha bilganligi bilan vasf etiladi [8, 66]. Yoxud, asl insoniylik sifatlari ulug‘lanadi. Bir so‘z aytganda, Inson bo‘lib dunyoga

kelganimiz uchun shukronalar aytib, to‘g‘ri va pok yashashga da’vat qilinadi. Chunonchi, shayx va shoir Ziyovuddinxon Haziniy (1867-1923) yozadi:

Birni qildi shayxu olim, suvratin qildi u kun,
Shukri behad o‘zga qilmay, bizni inson ayladi... [7, 166]

Demakki, inson aslida insonlik bilan sharaflanganiga shukr aytmog‘i zarur. Yana bir o‘rinda esa odamlar irqi, dini va millatidan qat’iy nazar bu dunyoga kelgan ekan albatta baxtli bo‘lishga haqli ekanligini shoir ta’kidlaydi:

Bu jahonga kim kelibtur, bo‘lmasun baxti qaro,
Ushbu illatga kishini qilmasun Haq mubtalo...[7, 209]

Xulosa qilganda, mumtoz ijodkorlarimizning yuqorida keltirilgan va boshqa asarlarida insoniy qadriyatlar, ulug‘lik, ezgulik, keng fikrlilik va albatta xalqlar aro hamjihatlik hamda diniy bag‘rikenglik g‘oyalari baland pardalarda kuylangan. Bu kabi jihatlarni yanada atroflicha o‘rganish va targ‘ib etish ma’anviyatimiz uchun g‘oyat muhimdir.

Adabiyotlar

1. Шамс Табризий. Ғазаллар. Асқар Маҳкам таржимаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
2. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. Тузувчи: А.Рустамов. –Тошкент: МК нашриёти, 1985.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. Нашрга тайёрловчи: А.Абдуғафуров. –Тошкент: Фан, 1994.
4. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. –Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2002.
5. Увайсий. Девон. Нашрга тайёрловчи: Ҳ.Раззоқов, Анисий. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963.
6. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. Нашрга тайёрловчи: У.Неъматов. – Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2008.
7. Ҳазиний. Девон. Нашрга тайёрловчи: О.Жўрабоев. –Тошкент: Akademnashr, 2017.
8. Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. Монография. -Тошкент: Tamaddun, 2017.
9. Juraboev O. BOBUR DEVONI QO‘LYOZMALARI VA UNING TUZILISHI XUSUSIDA. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD). 7 Cilt, 2 Sayi. 2023. P.287-295.
10. Juraboev O. DAVR ADABIYOTIDA AMIR UMARXON FENOMENI. Educational Research in Universal Sciences (ERUS). Volume 2. Special Issue 14. 2023. P. 680-688.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA AFSONA VA RIVOYATLAR SINTEZI

Eshanova Zilola Qo‘chqarovna,
Andijon davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail: zeshanova79@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada istiqlol davri o‘zbek she’riyatida afsona va rivoyat janridan sintezlashgan folklorizm sifatida foydalanish asosida ham asarlar yaratilayotgani, haqida so`z boradi. Unda afsona va she’riyat sintezining namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklarni tahlillar yordamida ko‘rsatish maqsadi qo‘yilgan. Unda quyidagi jihatlar: afsona va rivoyatlarning she’r bilan sintezlanishi natijasida yaratilgan she’rlar, odatda, voqeaband bo‘lib, afsona va rivoyat janri komponentlari she’r kentekstiga modifikatsiyalash asosida sintezlanashi; bunday modifikatsiyalarda folklordagi afsona va rivoyatlar (birlamchi matn) mazmuni saqlanadi, biroq ifoda usuli o‘zgarib, she’rning ritmik-intonatsion tashkillanishiga bo‘ysundirilgan holda she’riy yo‘lda berilishi; bunday she’rlar afsona va rivoyatga xos kirish, voqealar bayoni va ma’rifiy xarakterdagi xulosa asosida, ularning syujetidagi voqelik tasviri asosida shakllantirilishi va she’rdagi lirik syujet va afsona hamda rivoyat syujeti qorishib, ajralmas holga kelgan badiiy butunlikni hosil qilishi; bunday she’rlarning lirik kirish vazifasini bajaruvchi kirish bandi xalq afsona va rivoyatlariga xos “qadimda...”, “qadim zamonda...”, “uzoq o‘tgan zamonda... ”deb boshlanuvchi kirish konstruksiya bilan boshlanishi hamda lirik syujet afsona va rivoyat syujeti asosida hamda shu syujet ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri asosida rivojlantirilishi; bunday she’rlarning xulosa vazifasini bajaruvchi so‘nggi bandi afsona va rivoyatlarga xos ma’rifiy g‘oya va muallif xulosasi bilan yakunlanishi; bunday she’rlarda afsona va rivoyat janriga xos turli arxetipik va mifologik obrazlar, motivlardan ham modifikatsiyalanmagan holda foydalanilishi ochiqlangan. Maqolada istiqlol davrida yaratilgan afsona va rivoyat janri sintezi asosidagi voqeaband she’rlar tahlil orqali davr she’riyati folklor an’analaridan foydalanish tamoyili asosida taraqqiy etayotgani, bu tamoyil esa ijodkorlarga asarlarida xalqchillikni ta’minlashga, g‘oyaviy-estetik maqsadiga erishishga xizmat qilayotgani asoslangan.

Kalit so‘zlar: she’r, afsona, rivoyat, folklorizm, sintezlashgan folklorizm, asar komponentlari, badiiyat, xalqchillik, g‘oyaviy maqsad.

Аннотация

В статье говорится о том, что в узбекской поэзии периода независимости произведения создаются на основе использования жанра легенды и предания в качестве синтезированного фольклоризма. В ней поставлена цель показать с помощью анализа особенности проявления синтеза легенды и поэзии. В нём раскрыты следующие аспекты: стихотворения, созданные в результате синтеза легенд и преданий со стихотворением, обычно сюжетные, а компоненты жанра легенд и преданий синтезируются к к тексту стихотворения на основе модификации; в таких модификациях сохраняется содержание фольклорных легенд и преданий (первичный текст), но изменяется способ выражения и передается в стихотворной форме, подчиняясь ритмико-интонационной организации стихотворения; такие стихотворения формируются на основе введения, повествования о событиях и вывода просветительского характера, основанного на изображении действительности в их сюжете, и лирический сюжет в стихотворении и сюжет легенды и предания смешиваются, образуя неразделимое художественное целое; вступление таких стихотворений, выполняющее функцию лирического вступления, начинается с вводной конструкции, характерной для народных легенд и преданий, начинающейся словами "в древности...," "в древние времена...," "в далекое прошлое...," и лирический сюжет развивается на основе сюжета легенды и предания, а также на основе изображения переживаний, возникших под влиянием этого сюжета; заключительная часть таких стихотворений завершается просветительской идеей, характерной для легенд и преданий, и авторским заключением; в таких стихотворениях используются различные архетипические и мифологические образы, мотивы, характерные для жанра легенды и предания, как в немодифицированном виде. В статье на основе анализа сюжетных стихотворений, созданных в период независимости, основанных на синтезе жанров легенд и преданий, обосновано, что поэзия того периода развивается на основе принципа использования фольклорных традиций, а этот принцип служит обеспечению народности в произведениях, достижению идейно-эстетических целей.

Ключевые слова: стихотворение, легенда, предание, фольклоризм, синтезированный фольклоризм, компоненты произведения, художественность, народность, идейная цель.

Abstract

The article states that in the Uzbek poetry of the independence period, works are created on the basis of using the genre of legend and legend as a synthesized folklore. It aims to show through analysis the peculiarities of the manifestation of

the synthesis of legend and poetry. It reveals the following aspects: poems created as a result of the synthesis of legends and traditions with the poem are usually plot-based, and the components of the genre of legends and traditions are synthesized to the text of the poem on the basis of modification; in such modifications, the content of folklore legends and traditions (primary text) is preserved, but the way of expression is changed and conveyed in verse form, subject to the rhythmic-intonational organization of the poem; such poems are formed on the basis of introduction, narration of events, and conclusion of an educational nature, based on the depiction of reality in their plot, and the lyrical plot in the poem and the plot of legends and traditions are mixed, forming an indivisible artistic whole; The introduction of such poems, performing the function of a lyrical introduction, begins with an introductory construction characteristic of folk legends and traditions, beginning with the words "in ancient times...," "in ancient times...," "in the distant past...," and the lyrical plot develops based on the plot of the legend and legend, as well as on the depiction of experiences arising under the influence of this plot; the concluding part of such poems concludes with an educational idea characteristic of legends and traditions and an author's conclusion; in such poems, various archetypal and mythological images, motifs characteristic of the legend and legend genre are used, in unmodified form. The article, based on the analysis of narrative poems created during the independence period, based on the synthesis of legends and traditions, substantiates that the poetry of that period developed on the basis of the principle of using folklore traditions, and this principle serves to ensure folk character in the works, achieving ideological and aesthetic goals.

Keywords: poem, legend, legend, folklore, synthesized folklore, components of the work, artistry, folk character, ideological purpose.

Istiqlol davri o‘zbek she’riyati taraqqiyotida folklor an’analaridan foydalanish tamoyili ham ahamiyatli bo‘lib, bu an’ana ijodkorlarga asarlarida xalqchillikni ta’minlash, g‘oyaviy-estetik maqsadga erishishda vosita bo‘ldi. Davr she’riyatida afsona va rivoyat janridan sintezlashgan folklorizm sifatida foydalanish asosida ham asarlar yaratilmoqda, ya’ni afsona va she’riyat sintezi namoyon bo‘lmoqda. Maqolada istiqlol davri o‘zbek she’riyatidagi ayni shu adabiy hodisaning namoyon bo‘lishining o‘ziga xosliklarini tahlillar yordamida ko‘rsatish maqsadi qo‘yildi.

Folklorizm hodisasi jahon adabiyotshunosligida jiddiy tadqiq etilgan nazariy hodisalardan biridir. Folklorizm inglizcha folklorismus so‘zidan olingan bo‘lib, ilmiy adabiyotlar va lug‘atlarda bu termin XIX asrda yashagan frunsuz folklorshunosi Pol Sebiyo (Paul Sébillot) tomonidan folklor bilan qiziqish, band bo‘lish ma’nosida qo‘llanganligi ta’kidlanadi. Olim folklorning jamiyat hayotidagi

rolini hamda madaniyat va san’atda undan foydalanish masalalarini o‘rgangan. Folklorizm termini yozuvchi, munaqqid va publitsistlarning folklor asarlariga qiziqishini, ularning xalq og‘zaki badiiy ijodiga xos obraz, motiv va syujetlarga murojaatini tavsiflash uchun qo‘llangan[1]. Folklorizmlar muammosi N.P.Andreyev, M.K. Azadovskiy, D.N. Medrish, L.I. YEmelyanov, A.A. Gorelov, U.B. Dalgat, K.V. Chistov, B. E.Гусев, B.Sarimsoqov, S.Mirzayeva, I.Yormatov, L.Sharipova,G.Imomova, Sh.Davronova, Z.Eshanova, D.Xoliqova, N.Tursunova, S.Xamdamova, N.Alisultonovalarning ishlarida yoritilgan. Xususan, ushbu tadqiqotlarda folklorizmlar borasidagi nazariy qarashlar, turli davrlarda folklorizmlarning namoyon bo‘lishi va tipologiyasi masalalari yoritilgan.

Folklorizmlarning ichki turlaridan bo‘lgan sintezlashgan folklorizmlar she’r badiiy to‘qimasi bilan birikib ketadi va she’rning g‘oyaviy mundarijasini shakllantiradi. Bu haqda B.Sarimsoqov: “... sintezlashgan folklorizmlar asosida yaratilgan asarda xalq e’tiqodi, uning dahosi yaratgan durdonalarning ratsional mag‘zi ijodkor g‘oyasi, uning estetik prinsiplari, davr talabi va muammolari bilan shu qadar kirishib, uyg‘unlashib ketgan bo‘ladiki, aksariyat hollarda ularning chegarasini belgilash mumkin emas” [2,357], - deydi. L.Sharipova esa:”Folklor materiali ma’lum ijodkor tafakkuri bilan qorishib, badiiy asar tarkibidagi unsurga aylangandagina folklorizm tug‘iladi. Ayniqsa, sintezlashgan folklorizm asar tarkibiga qorishib ketadi va asar syujetini boyitadi, mukammallashtiradi, shoir maqsadining yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynaydi. Biror bir ijodkor folklorga xos syujetni o‘z asari syujetiga singdirib yuborsa va bu ikki syujet qorishib, ajralmas holga kelsa, murakkab folklorizmning sintezlashgan folklorizm ko‘rinishi yuzaga kelishini[3,17] aytadi. Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, folklor janrlari bo‘lgan afsona, rivoyat, ertaklar syujeti ijodkorlar tomonidan o‘zlashtirilib, badiiy asar matniga singdirilishi sintezlashgan folklorizmdir. Bizning maqolalarimizda ham she’riyatdagi sintez muammosi, an’analar sathidagi sintez, ertak va xalq dostonlari sintezi masalasi yoritilgan. Xususan, davr she’riyatida namoyon bo‘layotgan folklor sintezi hamda an’analar sathidagi sintez bevosita folklorizmlar, xususan, stilizatsion, sintezlashgan, etnografik folklorizmlar asosida yuzaga chiqayotganligi [4] ta’kidlangan. Demak, she’r mazmun-mundarijasining afsona, rivoyat, ertak va dostonlar syujeti, motivlari asosida shakllantirilishi sintez hodisasi bo‘lib, istiqlol davri o‘zbek she’riyatida bu adabiy hodisaning namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklar, tipologiyalarni yoritish tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lgan emas.

Maqolada struktural, germenevtik va semiotik tahlil metodlaridan foydalanilgan holda afsona va rivoyatlar sintezi asosida yaratilgan she’rlar tahlil

qilindi hamda afsona va she’r, rivoyat va she’r sintezining namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklar, tipologiyalar yoritildi.

Istiqlolga erishilgandan so‘ng adabiyotda evrilishlar, yangilanishlar yuz berdi, bu holat ijodkorlarning folklor an’analari va folklorizmlardan foydalanishdagi estetik pozitsiyasining yangilanishiga, adabiyot va folklor sinteziga murojaat qilish tamoyilining kuchayishiga, folklor sintezi ta’sirida she’rlar yaratilishiga zamin yaratdi. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida tom ma’noda turli ohanglar, an’analar, janrlar sintezi yuz berdiki, bu holat mazkur davrda ijod qilgan shoirlar ijodida ham yaqqol bo‘y ko‘rsatdi.

Abdulla Oripovning “Odam va shayton qissasi”, “Firibgar qissasi” kabi voqeaband she’rlari xalq afsona va rivoyatlari syujetlari, epizodlari asosida shakllantirilgan. “Odam va shayton qissasi” voqeaband she’r bo‘lib, hajman ancha katta, 46 banddan iborat. Shoir she’rda o‘zining g‘oyaviy maqsadini berishda Odam Ato va Momo Havo haqidagi afsonadan ijodiy foydalanadi. She’r sarlavhasining o‘ziyoq o‘quvchiga shoir g‘oyaviy maqsadini tushunishda kalitlik vazifasini bajaradi.

Afsona janri she’r bilan sintezlanar ekan, bunda uning komponentlari she’r kontekstiga modifikatsiyalash asosida kiritiladi. Bunday modifikatsiyalarda folklordagi afsona (birlamchi matn) mazmuni saqlanadi, ifoda usuli she’riy yo‘lda beriladi.

“Odam va shayton qissasi” she’ri afsonaga xos kirish, voqealar bayoni va ma’rifiy xarakterdagi xulosa asosida shakllantirilgan. Shoir she’rning lirik kirish vazifasini bajaruvchi ilk bandini afsona syujetiga xos juda qadim zamondagi voqea tasviri bilan boshlaydi:

Juda-juda qadim zamon
Yuz berib bir xatomiz,
Arshdan ketgan Momo Havo
Hamda Odam Atomiz[5,32]

Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishi arxetipik syujeti aksariyat mif va diniy qarashlarda uchraydi. She’r bandlari ushbu arxetipik syujet asosida shakllantirilgan. She’rning keyingi bandlarida Odam Ato va Momo Havoning erdagi hayoti, turmush tarzidan hikoya qilinadi:

Tong otmasdan Odam Ato
Shoshib ovga ketardi,
Momo esa chaylasida
Otamizni kutardi

She’rning keyingi bandlarida shoir Odam Ato, Momo Havo va Shayton uchlik arxetip obrazidan ijodiy foydalanadi. Shaytonning Momo Havoga bolasini

tashlab ketishi uch bora takrorlanadi. Ushbu arxetipik syujet shoirga shaytonning inson qoniga qirishi sababini dalillash hamda chuqur falsafiy umumlashma chiqarish uchun imkon bergan:

Endi qaytib kelmasin, deb
Qarg‘ab, so‘kib beayov,
Nonushtaga shayton go‘shtin
Paqqos tushirdi ikkov.

Ilk ibtidoda shaytonning hiyla va makr bilan inson qoniga kirishi inson tabiatidagi salbiy jihatlarni yuzaga chiqishiga asos bo‘lganligi izohlangan afsona syujeti vositasida shoir she’rning xulosa qismidagi falsafiy fikrini beradi:

Ko‘rdik qancha shaytonlikni,
Qancha Shayton Insonni,
Chiqarolmay ovoramiz,
Qonimizdan Shaytonni [5,33].

Abdulla Oripov “Firibgar qissasi” she’rida firibgarning Amir Temur, shoh Bobur, Amir Olimxon va shoir zamoni voqeligidagi sarguzatlarini tasvirlash orqali firibgarlikning zamon va makon bilmas, yo‘qotib bo‘lmas yomon illat ekanligi haqidagi ma’rifiy fikrlarini beradi.

A’zam O‘ktamning “Munozara” she’ri “Iskandarning shoxi bor” xalq afsonasi syujeti asosida shakllantirilgan. She’rning ilk bandida shoir afsona personaji bo‘lgan sartarosh bilan munozaraga kirishadi. Keyingi bandda esa mavjud syujet voqeligiga shubha nazari bilan qaraydi va uni savol tarzida ifodalaydi. She’rning uch misradan iborat so‘nggi bandida esa har qanday zamonda zolim hukmdorlarning mavjud bo‘lishini quyidagicha ifodalaydi:

Shoxi yo‘qdir men bilgan shohning,
Lekin g‘irt ho‘kiz.
(Ertakdan o‘qirsiz qolganin.) [6.B.238]

A’zam O‘ktam “Eski afsona” she’rida o‘z davri muammolarini yoritishda xalq afsonalaridagi shoh va cho‘pon obrazlaridan foydalanadi. She’r voqeaband bo‘lib, voqealar odil shoh va tog‘lik cho‘pon o‘rtasidagi savol-javob asosida yoritiladi. She’rda jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida bo‘lganidek, hukmdorlarga xalqning arzi etib bormaydi, hukmdorning farmonlari esa xalqqa o‘z holicha etkazilmaydi, shuning uchun ham haqqingizni o‘zingiz talab qiling, degan fikr qor va suv detallari orqali beriladi:

— Axir mening farmonlarim ham
shu saroyda qat’iy va chindir.
To sizlarga etib borguncha
suv bo‘lishi balki mumkindir!

Shu boisdan doimo hushyor,
sal jangari, yovqur bo‘linglar.
Gar sizlarga “suv”ni tutishsa,
ko‘nmang,
“qor”ni talab qilinglar... [6,51]

Shuningdek, she’rda “o‘g‘ri bo‘lsang boshingni eysan, to‘g‘ri bo‘lsang oshingni” maqolini (oddiy folklorizm) paradoksal yondashgan holda modifikatsiyasini yaratish orqali qo‘llaydi va davr muammolarini, jamiyatdagi ildiz otgan illatlarni fosh etadi:

G‘irt yangicha maqol bor hozir,
qadimgisi ketgandir abas—
“O‘g‘rimisan—yeysan oshingni,
to‘g‘rimisan—o‘z boshingni, bas!” [6,51]

Farida Afro‘z ham afsona, rivoyatlari va ertaklardan falsafiy mushohalarni hamda lirik subyekt ruhiyati tasvirini berishda mahorat bilan foydalanadi. Shoiraning “Onamdan eshitgan quvnoq rivoyat”, “Nikoh yoxud ayolning yaratilishi haqida rivoyat”, ”Bir o‘choq o‘tin va bir quchoq etim haqida rivoyat” kabi she’rlari xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lgan rivoyatlar syujeti asosida shakllantirilgan. Voqeaband she’r rivoyat syujetidagi voqelik tasviri asosda shakllantirilib, she’rdagi lirik syujet va rivoyat syujeti qorishib, ajralmas holga kelgan badiiy butunlikni hosil qilgan. Bunda ham she’rning lirik kirish vazifasini bajaruvchi kirish bandi xalq rivoyatlariga xos “qadimda...” deb boshlanuvchi kirish konstruksiya bilan boshlanadi va lirik syujet rivoyat syujeti asosida hamda shu syujet ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri asosida rivojlantiriladi. She’rining xulosa vazifasini bajaruvchi so‘nggi bandida rivoyatlarga xos ma’rifiy g‘oya va muallif xulosasi beriladi. “Onamdan eshitgan quvnoq rivoyat” voqeaband she’r bo‘lib, uning kirish bandi rivoyatga xos boshlanma bilan boshlanadi:

Qadimda bir donishmand,
O‘tgan ekan, xo‘b,fozil.
O‘stiribdi aqli xush,
Ta’rifga sig‘mas o‘g‘il. [7, 320]

She’rning tematik kompozitsiyasi rivoyat syujeti hamda baxt qidirib safarga chiqish, sinovga chiqish oldidan otaning nasihat qilishi, nikoh uchun aqliy sinash kabi ertakka xos syujet motivlari sintezi asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning qahramoni uylanish uchun yorini qidirib uzoq safarga chiqadi:

Bir kun ota o‘g‘ilga
Pand-u nasihat etmish:
“-Uylan,joylan,jon bolam,

Vaqti-soati etmish!”
Ixtiyor et sayohat,
Bo‘lsin senga omad yor!
Xushyor bo‘l, har mo‘mindan,
Ayama xush kaloming [7, 320].

Safar davomida bo‘lajak yorining otasi bilan hamsuhbat bo‘lib, dono qizning aqliy sinovlaridan o‘tadi. Natijada esa dono qiz uning yoriga aylanadi:

Alqissa , rivoyatdan
Tez chiqaring xulosa.
Kutarga vaqtimiz yo‘q,
To‘y kechikar bo‘lmasa!

Shoira rivoyatda tasvirlangan voqelik asosida mardlik, to‘g‘riso‘zlik, boshqalarga yordam berish kabi insoniy fazilatlarga ega inson hamisha baxtga erishadi, degan ma’rifiy g‘oyani berishda mahorat bilan foydalanadi. Shoira qo‘llagan sintezlashgan folklorizm davrning muhim ijtimoiy-ma’naviy muammosi bo‘lgan oila qurish, yor tanlash kabi boqiy mavzular echimiga yo‘naltirilgan.

”Bir o‘choq o‘tin va bir quchoq etim haqida rivoyat” da ham rivoyat lirik qahramon qalb tug‘yonlari ifodasi uchun vosita bo‘lgan. She’r uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida bevafo yorning o‘zga yor topishi voqeasi asosida paydo bo‘lgan ayol qalbi qiynoqlari beriladi. She’r bandlarida yorning bevafoligi sabab yuzaga kelgan ayol qalbi faryodlari berilgan:

Oh, otajon, jon ota,
Kuymas edim shunchalar
O‘lganingda sen agar!
Voy, onajon, jon ona,
So‘lmas edim shunchalar
O‘lganingda sen agar!!! [7,158]

Ikkinchi qismda esa bevafo erning uyidan o‘tin olib ketishi voqeasi ta’sirida ayol va uning etim bo‘lgan bolalari qalbidagi alamli iztirob beriladi:

Arra tortar mitti jon,
O‘tin qildilar g‘aram.
Muzlasa ham qo‘lchalar,
Bolalar hursand biram[7,159].

Yuqoridagi bandlarda bolalarning qishda qiynalib o‘tin qilsa ham, ularning hursandligi tasviri beriladi. Bunga sabab esa otasining kelganligi. Lekin, afsuski, ularning quvonchi uzoqqa cho‘zilmaydi. O‘tin betavfiq otaning yori uchun, bu esa go‘daklar va ayol qalbida dahshatli og‘riqni paydo qiladi.

She’rning uchinchi qismida shoiraning voqeaband she’rdan ko‘zlagan asosiy maqsadi – ayol qalbi iztiroblari beriladi. She’rda davr ijtimoiy hayotidagi ayollarning o‘ziga o‘t qo‘yib halok bo‘lishi bilan bog‘liq muammolar rivoyat janri sintezi asosida beriladi.

Ismoil To‘lakning 1996-yilda yozilgan “Odamsifat qush va qushsifat odam haqida rivoyat” she’ri garchi rivoyat deb nomlansa-da, rivoyat janri sintezi asosida yaratilmagan. She’rda qushning qafasdan qo‘yib yuborilishi va uning ko‘klarga parvoz etishi, biroq yana qaytib qafasga kelishi voqeasi tasviri asosida lirik subyekt kechinmalari beriladi hamda erk, ozodlik, mutelik kabi muallif g‘oyaviy maqsadi ifodalangan:

Menga erk ber, – dedi qafasdagi Qush, –
do‘stligimiz haqqi aylagil himmat.
Lojuvard osmonga uray so‘ng bor to‘sh,
qafasda ko‘z yummak emasdir qismat.

She’r yaratilgan davrda yurtimiz mustaqil bo‘lgan, ozodlik shabadasi esayotgan pallalar bo‘lgan v bu davr jtimoiy hayotida yangi o‘zgarishlarga to‘la moslasha olmayotgan insonlar ham mavjud edi. Ijtimoiy hayot voqeligidagi ushbu masalalar she’rda aks ettirilgan:

Tongda
safar oldidan
noxush
qafasga yaqinroq keldi – yu Odam,
hayratdan tosh qotdi.
Ichkarida Qush
mo‘ltirab turardi ko‘zlarida nam... [8,58-60]

She’rda qush va uning ozod bo‘lishi ramz bo‘lib, qafasda o‘sgan va bir umr ho‘jayinga qaram bo‘lgan qush ozod bo‘lganda ham bu mutelikdan, qaramlikdan chiqib keta olmaydi, degan falsafiy qarash beriladi. Odam va qush o‘rtasida kechgan diologlar, rivoya va qafas, qush kabi ramzlar shoir badiiy-estetik maqsadi ifodasiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o‘zbek she’riyatida folklor an’analari va janrlari sintezi yuz berdi. Afsona va rivoyatlarning she’r bilan sintezlanishi natijasida yaratilgan she’rlar odatda voqeaband bo‘lib, afsona va rivoyat janri komponentlari she’r kentekstiga modifikatsiyalash asosida sintezlanadi. Bunday modifikatsiyalarda folklordagi afsona va rivoyatlar (birlamchi matn) mazmuni saqlanadi, biroq ifoda usuli o‘zgarib, she’rning ritmik-intonatsion tashkillanishiga bo‘ysundirilgan holda she’riy yo‘lda beriladi. Bunday she’rlar afsona va rivoyatga xos kirish, voqealar bayoni va ma’rifiy xarakterdagi xulosa asosida, ularning

syujetidagi voqelik tasviri asosida shakllantiriladi, she’rdagi lirik syujet va afsona hamda rivoyat syujeti qorishib, ajralmas holga kelgan badiiy butunlikni hosil qiladi. Bunday she’rlarning lirik kirish vazifasini bajaruvchi kirish bandi xalq afsona va rivoyatlariga xos “qadimda...”, “qadim zamonda...”, “uzoq o‘tgan zamonda... ”deb boshlanuvchi kirish konstruksiya bilan boshlanadi va lirik syujet afsona va rivoyat syujeti asosida hamda shu syujet ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri asosida rivojlantiriladi. Bunday she’rlarning xulosa vazifasini bajaruvchi so‘nggi bandi afsona va rivoyatlarga xos ma’rifiy g‘oya va muallif xulosasi bilan yakunlanadi. Bunday she’rlarda afsona va rivoyat janriga xos turli arxetipik va mifologik obrazlar, motivlardan ham modifikatsiyalanmagan holda foydalaniladi. Afsona va rivoyatlarning she’r bilan sintezlanishi natijasida yaratilgan she’rlarda davr bilan bog‘liq muhim masalalar, turli ijtimoiy muammolar yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kartaslov.ru › значение-слова › бытование Карта слов и выражений русского языка; Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. — М.: НПК «Интелвак», 2001. — 799 с.; http:// feb-web.ru›feb/kle/KLE-abc/ke9/ke9-7622.htm…Фольклоризм //Краткая литературная энциклопедия.; Националная историческая энциклопедия http://interpretive.ru/termin/folklorizm.html

2.Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // XX asr o‘zbek folklorshunosligi. Antologiya. [Matn] / Tuzuvchilar: O. To‘laboyev va boshq. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 592 b.

3.Sharipova L.F. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyati badiiy taraqqiyotida folklor. Filol. fanlari doktori (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. –73 b.

4. Eshanova Z.Q. Istiqlol davri o 'zbek she'riyatida an'analar sathidagi sintez // - ACTA NUUz, 2025 - journals.nuu.uz.; Folklor sintezi ilmiy-nazariy muammo sifatida // - News of the NUUz, 2024 - journalsnuu.uz

5. A.Oripov. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2010.

6.A’zam O‘ktam. She’rlar va tarjimalar. – T., 2019.

7.Bo‘tayeva Farida Afro‘z. O‘sha kun-bugundir. –T:Sharq, 2013.

8.Ismoil To‘lak.Ko‘ksimdagi haqiqat.She’rlar. – Toshkent: Kamalak, 1998. – 84 b.

CHO‘LPON SHE’RIYATIDA XALQONA OBRAZ VA MOTIVLAR TALQINI

Shahlo Hojiyeva,
O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Emayl: *sh.hojiyeva@mail.ru*
tel: +998974469468

Annotatsiya

Maqolada Abdulhamid Cho‘lpon she’riyatida folklor obrazlari, motiv va janrlar stilizatsiyasining o‘rni tahlilga tortilgan. Shoirning Ismoilbek Gasprinskiy, Mullanur Vohidov, Maksim Gorkiy kabi turli xalqlar ijodkorlariga yozgan marsiya va bashlovlari yig‘i va yo‘qlov qo‘shiqlari ruhi va ohangida yaratilgani isbotlangan. Bundan tashqari, shoir she’rlarida oddiy va murakkab, etnografik, analitik hamda sintezlashgan folklorizmlardan foydalanilgani, bu esa Cho‘lpon she’rlarining ta’sir kuchini, badiiyatini oshirgani asoslangan.

Kalit so‘zlar: adabiy-estetik omil, oddiy va murakkab folklorizmlar, analitik folklorizmlar, sintezlashgan va etnografik folklorizimlar, obraz, motiv, talqin.

Аннотация

В стате анализируетсуа рол фолклорных образов, мотивной и жанровой стилизации в поэзии Абдулхамида Чулпана. Было доказано, что марсиуа и посвуащениуа поэта, которые он написал творителуам разных народов, таким как Исмаилбек Гаспринский, Мулланур Вохидов, Максим Горкий, были созданы в духе и тоне песен плача и тоски. Кроме того, стихи поэта основаны на исползовании простых и сложных, этнографических, аналитических и синтезированных фолклоризмов, что повысило силу воздействиуа, поэтичност стихов Чулпана.

Ключевые слова: литературно-эстетический фактор, простые и сложные фолклоризмы, аналитические фолклоризмы, синтезированные и этнографические фолклоризмы, образ, мотив, интерпретатsiya.

Annotation

The article analyzes the role of folklore images, motive and genre stylization in Abdulhamid Chulpan's poetry. It has been proved that the poet's marcia and dedications, which he wrote to the creators of different nations, such as Ismailbek Gasprinsky, Mullanur Vokhidov, Maxim Gorky, were created in the spirit and tone of songs of lament and longing. In addition, the poet's poems are based on the use

of simple and complex, ethnographic, analytical and synthesized folklorisms, which increased the power of impact, poeticism of Chulpan's poems.

Keywords: literary and aesthetic factor, simple and complex folklorisms, analytical folklorisms, synthesized and ethnographic folklorisms, image, motif, interpretation.

XX asr boshlarida o‘zbek she’riyatining tamal toshini qo‘ygan Abdulhamid Cho‘lpon she’rlarida folklor obraz va motivlaridan ijodiy foydalangan. Bu esa, o‘z navbatida, she’riyatni shakl va mazmun jihatdan yangilashda adabiy-estetik omil vazifasini o‘tagan. Folklor obrazlarining yozma adabiyot tomonidan o‘zlashtirilishi ijodkor fikrining chuqurroq anglashilishi, asarning jozibali bo‘lishi uchun xizmat qilishi ayon. Shoir ijodida uchraydigan folklorizmlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va ularni o‘rganish so‘z ustasining poetik mahorati darajasini yanada yorqinroq tasavvur qilish barobarida u yashagan XX asr boshlaridagi adabiy jarayon taraqqiyotida folklorning ta’sirini bilib olishga yordam berishi jihatidan yanada muhimdir.

Cho‘lpon she’rlarida nafaqat folklor obrazlari, balki motiv va janrlar stilizatsiyasi ham kuzatiladi. Masalan, shoirning “Muttakoi ahli islom erdingiz, millatimiz yo‘lida jon erdingiz” deb boshlanuvchi “Ma’rifatparvar bobomiz Ismoil Gaspirinskiy hazratlari haqinda ta’ziyanomamiz” nomli, shuningdek, “Mullanur Vohidov ruhiga” deb ko‘rsatilgan “Sharq nuri” yoki yana “Maksim Gorkiyga” deyilgan “Yaxshi bor, ustoz!”, “Ulug‘ yo‘lovchiga. A.M. ruhiga. Dunyoga ishlar uchungina kelganman. (O‘z so‘zi)”, “Ketding. Rahmatilla Sultonovga”, “Shoir Abdulla Avloniy vafoti munosabati ila onalari Habibaxonim yozgan marsiya-g‘azalga muxammas” she’rlari bevosita xalq og‘zaki badiiy ijodiga aloqador yig‘i va yo‘qlov qo‘shiqlari ruhida, ohangi va shaklida yaratilgani bilan e’tiborni tortadi.

Cho‘lpon o‘zining “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi” nomli marsiyasida bu buyuk ma’rifatparvarning yashirincha o‘ldirilib, pinhona ko‘mib yuborilganiga ishora qilish uchun “Belgisiz qabringni qora tunlarda amalimning shamin yoqib izladim”, “Qo‘lindagi tutam-tutam gulini qabring topib, sochmoq uchun tirishdi”, “Qabring topib, ko‘z yoshimni to‘kmakka hamda achchiq hiddatim-la ul erda Oq kallalik qora devni so‘kmakka”, “Aziz otam, qo‘limdagi gullarning motam guli ekanini bilmaysen”, “Shodlik guli ko‘pdan beri so‘lganin er ostida pok ruhing-la sezmaysen” misralarini keltirgan. Bu misralardagi qabr, belgisiz qabr, qabrga gul qo‘yish yoki sochish, sham yoqish, ko‘z yosh to‘kish, motam guli, er osti, ruh, pok ruh, qora devso‘z va birikmalari bevosita motam marosimi folklori bilan bog‘liq

tushunchalar bo‘lib, aytish mumkinki, yaqin tushunchalarning bunday uyushiq holda qo‘llanishi marsiyada tanosib san’atini vujudga keltira olgan.

Cho‘lpon ijodida o‘zbek motam marosimi folkloridagi yo‘qlov janri shakli va ohangida yaratilgan bir necha yo‘qlovlar borki, ular shoir ijodiga xos janr stilizatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni oydinlashtirishda muhim manba bo‘la oladi. Shoir o‘lim tufayli yo‘qotish va ayriliq mazmunidagi bunday she’rlari bilan o‘zbek she’riyatida marsiya janrini yanada boyitishga muvaffaq bo‘la oldi.

Shoirning ayrim misralarida bir qarashda folklorizm yo‘qqa o‘xshaydi. Lekin sinchkovlik bilan yondashilsa, unda folklorizm borligi ayonlashadi. Jumladan, Cho‘lponning quyidagi misralarida **etnografik folklorizm** mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Masalan,

Amalimning yulduzikim ko‘z tekdi.
Qora, jirkanch, o‘lim koni – erlarga.
Savol berdim: “Yo‘qotganim qayda?” – deb
O‘zimni ham yutmoq bo‘lgan erlarga.

“Ko‘z tekmoq”ga xalq ishonch bilan qaraydigan holatlardan biridir.

Tumorchalar xamoyillar taqingan,
Dalalarda lola bargi yopingan,
Tog‘-toshlarda o‘yin qilgan,
Chopingan
Go‘zal qizlar, yosh kelinlar qaerda. [Cho‘lpon. 3:88]

Xalq ishonchi bo‘yicha, tumor – asrovchi vosita. Shoir nima qilinsa-da, yurtni bosqinchilardan asrab qolish tarafdori.

Keldi qarg‘a, ochdi og‘zin qichqirib g‘og‘oladi,
Ko‘zlarini o‘ynatib kimdir birovni izladi.
Men yaqin bordim “Yo‘qmi suyuklikdan **xabar?”**
“Men, – dedi, – o‘ynab kelardim bir xabar bo‘lsa agar”.

[Cho‘lpon. 3:26]

Odatda, xalqimiz orasida qarg‘aning qag‘illashi eshitilsa, “Xush xabar” deyiladi. Negaki, qadimda o‘lgan insonlar tuproqqa dafn qilinmagan. Ularning jasadi qarg‘a-quzg‘unlarga em qilinib, ajralib qolgan suyaklari ostadonlarga solib qo‘yilgan. Shu asosda qarg‘a o‘lim hodisasi bilan bog‘lab talqin qilinadigan bo‘lgan. [O‘raeva D. 5:120]

Qop-qora lattadan o‘lik ko‘ylagi,
Qip-qizil cho‘g‘dan-da o‘lik yotog‘i,
Go‘rga qo‘ymoq uchun shayton bilagi,
So‘nggi changqovimga zahar bor dog‘i. [Cho‘lpon. 3:37]

Ushbu misralarda shayton bilagi, ya’ni bosqinchilar qo‘li bilan “o‘lik ko‘ylagi – kafan” kiydirilgancha “o‘lik yotog‘i – go‘r”ga qo‘yilayotgan kishilarga achinish ruhi mujassam.

O‘zbeklarda marhumlarga, odatda, oq surfdan kafan kiydirilib dafn etiladi. Ruhiga sham yoqiladi. Ammo, Cho‘lpon qatag‘on qurbonlarining kafani qoraligini aytadi:

Ulardagi **qora kafan**, ey maymunlar,
Sizdagi tilaklardan sof, pokdir.
El ko‘ksiga sham yoqgali topilmasmi siniq tosh?
U ezgu sham yoqilmasa, hech to‘xtamas qonli yosh.

[Cho‘lpon. 3:77]

Shoir “Yana qor” she’rida qor bilan qoplangan atrofni tasvirlash uchun “oq kafan” timsolidan foydalangani kuzatiladi. U “Yana qor. Oq kafan o‘raldi yana” deya, mavjud manzarani poetik tasvirlashga uringan.

Cho‘lpon o‘z she’rlarining ko‘pincha mahzun ohangdaligini, dardchanligini inobatga olib, ularda o‘zbek motam marosimiga aloqador etnografik folklorizmlarga birmuncha ko‘proq o‘rin ajratgan. Jumladan, uning “Alamzadalar” she’ri boshlanishida, avvalo, shunday ma’lumot keltiriladi: “O‘likka yig‘lash man’ qimlinsun”. (Mahkami shar’iya qarori”. Mana shundan so‘ng she’r misralari tizilib keladi:

Voy, bu qanday zamonki, qanday ish?
Yig‘lamoq endi yo‘q bo‘lar emish...

Bobom o‘lganda, biz otam boshliq
To‘nimiz ustidan chizgib belni,
Ushladik tol tayoqni, ko‘z yoshliq,
Yig‘ladik... yig‘latib butun elni... [Cho‘lpon. 3:131]

Shoir “Turkistonli qardoshlarimizga” she’rida o‘zbeklar madaniy turmush tarziga xos o‘g‘il farzand uchun karnay-surnay chaldirib, kattadan-katta sunnat to‘yi qilish odatini yodga olar ekan, bunday dabdababozlikka ketadigan xarajatni farzandning tarbiyasiga sarflagan ma’qulligini eslatib o‘tadi:

Orzu qilmas o‘g‘limi maktabda aylay tarbiya,
To‘y qilub, karnay cholurni orzu aylar bizni xalq. [Cho‘lpon. 3:14]

Navro‘z yasharish va yangilanish bayrami ekani ma’lum. Shu ma’noda shoir “Navro‘z kunida” she’rini yozar ekan, bu qadimiy va an’anaviy bayramga xos ana shu jihatga alohida urg‘u qaratadi. O‘lkaga tashrif buyurgan Naro‘zning o‘zi bilan

birga xalq uchun yangi hur va ozod, baxtli va farovon, obod turmushni olib kelishini, “Navro‘z kuni erksizlarga erk berar” deya niyat qiladi.

Shoir ba’zan erk va ozodlikka erishish yo‘lida xalq e’tiqod qo‘ygan eranlardan ham madad kutadi. Ularning homiyligidan umidvor bo‘ladi:

“Ayt-chi menga, qayda sening o‘tganlaring,
Sharqdan G‘arbga shovlab oqqan ulug‘ shoning?
Kunu tun ilm uchun jonin bergan,
Qayda ketdi, qayga uchdi **eranlaring**”. [Cho‘lpon. 3:15

O‘zbek xalq dostonlaridan ma’lumki, eranlar tarbiyat va homiylik qilgan qahramonlar er yuzi, er osti, ko‘kda bemalol yura oladi, ko‘ngliga barcha ilmlar, tillar jo bo‘ladi. [Turdimov Sh.4:12-14] Shu ma’noda shoir “Umid” sarlavhali she’rida “homiy ruh” – “eran” obraziga alohida o‘rin ajratgan.

Oltinli qo‘ng‘izni bolalar ushlashib,
Ip bilan ko‘klarga uchirib o‘ynaylar. [Cho‘lpon. 3:110]

Yoki yana:

Yoshligimda ko‘p o‘ynadim oshiqni,

Da

Bu misralarda bolalar o‘yinlariga etnografik ma’lumot sifatida yondashilmoqda.

Cho‘lpon ijodida sintezlashgan folklorizmlarni ham kuzatish mumkin. Jumladan, uning “Kaptar” (Semiramis-Semiramida) she’ri voqeaband, ya’ni syujetli bo‘lib, uning g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion qurilishi tarkibiga xalqning Kaptar qiz haqidagi afsonasi singdirib yuborilgan. Afsona mazmuni she’r boshida keltirilgan. Unda hikoya qilinishicha, Semiramis-Kaldoniva – osuriylar xurofotida ma’buda sanalib yurgan bir qiz. Bosh tomoni qiz, tanasi baliq bo‘lgan emish. Onasi uni tuqqandan keyin qamishzorga tashlagan, unda uni kaptarlar o‘sdirib, parvarish qilganlar. Shu uchun ismi kaptar ma’nosida Semiramis qo‘yilgan. Qal’alar fath etgan, ko‘p urushlar ko‘rgan, Hindistonga qadar borgan bir fotiha emish.

Misrga bir parixonga fol ochdirgan, o‘sha foli to‘g‘ri kelib, oxirda suvga tushib yo‘q bo‘lib ketgan emish. O‘rniga o‘g‘li podshoh bo‘lgan. O‘zi kechalari dengizga cho‘kar, kunduz hukm surar ekan.

Bir rivoyatda Semiramis turk qizi bo‘lib, Eron podshohlaridan mashhur Kayxusrav-Kirni o‘ldirgan emish. [Cho‘lpon. 145-146]

She’r yakunida shoir mana shu kaptar qizga murojaat qilib: “Kel, mundog‘i onalarni uyg‘otaylik ikkimiz!..” deya, o‘zbek ayollarini milliy uyg‘onishga da’vatlantiradi.

Cho‘lpon ijodida xalq qo‘shiqlaridan parchalarni epigraf qilib tanlash yoki ularni she’r yo dostonlar tarkibida analitik folklorizm sifatida kedtirish, xalq qo‘shiq ohanglari asosida she’r yozish holatlari ham namoyondir. Aytaylik, shoirning “Oy qo‘ynida” she’rida xalq qo‘shig‘idan olingan quyidagi misralar epigraf qilib keltirilgan:

Shaftoli kelinchak,
Uning qo‘ynida men tentak...
Men bog‘ingga kirmasdan
Odoq bo‘pti emasdan.
Muncha to‘lib yig‘laysan
Men qo‘yningga kirmasdan?! [Cho‘lpon. 3:162]

“Qo‘shiq” sarlavhali she’rning “Xush keldingiz Xorazmga” kuyiga moslab bitilgani bevosita muallifning o‘zi tomonidan bildirib o‘tilgan.

Yana bir jihati borki, Cho‘lpon ijodida folklor terminlaridan olqish, qarg‘ish, ertak (cho‘pchak), afsona, doston, qo‘shiq nomlari ko‘p tilga olingan. Jumladan, shoirning “Erk **ertak**larini eshitgan boshqa, Qullik **qo‘shig‘i**ni tinglagan menman” , “Na **cho‘pchak**lar aytgali, Na sevgali kishi yo‘q”, “Kel, men senga qisqagina **doston** o‘qiy, Qulog‘ingga o‘tganlardan **ertak** to‘qiy”, “Faqat qancha **olqish,** hurmat qilinsa-da, oz senga!”, “Yolg‘iz aldanishni ko‘rgan bir banda, Borliqqa **qarg‘ish**lar yog‘dirgan tanda”, “Men unga kechmishdan alamli **afsona** varaqlab berayin” tarzida.

Xullas, Abdulhamid Cho‘lpon she’rlarini xalqqa yaqinlashtirish uchun, nafaqat ularning ohanggiga, balki til qurilishiga alohida e’tibor qaratdi. U boshqa ijodkorlar singari o‘z **she’rlarida oddiy va murakkab, analitik, sintezlashgan, etnografik folklorizmlar**dan yuksak did va mahorat bilan foydalanganligini kuzatish mumkin. Shoir folklorizmlarini o‘rganish orqali u yashagan davrda yozma adabiyot bilan folklorning o‘zaro munosabati XX asr boshlarida qanday kechganligi ayonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulhamid Cho‘lpon. Safarnoma va yo‘ldagi bitiklar (Nashrga tayyorlovchi I.Madg‘oziev). – Toshkent: Akademnashr, 2022.
2. Cho‘lpon tarjimalari. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi D.Abdullaeva. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.
3. Cho‘lpon. Asarlar. To‘rt jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
4. Turdimov Sh.G. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari: Filol. fanlari doktori avtoref. – T., 2011.
5. O‘raeva D. O‘zbek motam marosimi folklori. – T.: Fan, 2004.

6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.

KOMIL INSON TARBIYASI IBN SINO ANTROPOLOGIK QARASHLARINING YETAKCHI G‘OYASI

Ahlilloyev Turdimurod,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
Akademik Bobojon G‘afurov nomidagi Xujand davlat universiteti,
tmurod53@mail.ru

ANNOTATSIYA

Qomusiy olim Ibn Sino uzining ko‘p qirrali faoliyati jarayonida o‘ziga xos falsafiy antropologik g‘oyalar tizimini yaratdiki, unda insonni mukammal mavjudod ekanligini e’tirof etiladi va uni komillik sari intilishi jamiyat ma’naviy olamini yaratuvchi omil ekanligi ta’kidlanadi. Uning insonni tabiatning bir qismi va uning kamolotida tabiiy va ijtimoiy omillarning o‘rni muhim ekanligini ta’kidlab ma’lum kelajakning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga da’vatlantirdi. Abu Ali ibn Sino va komil inson muammosi xususida mulohaza yuritar ekanmiz, bu masalaga ikki tomonlama yondoshish lozim deb hisoblaymiz. Birinchidan o‘zi komil inson namunasi bo‘lsa, ikkinchidan esa jamiyat a’zolarini komil inson sifatida tarbiyalash lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni butun umri davomida yaratgan va uni targ‘ib qilgan. Maqolada Ibni Sinoning axloqiy qarashlari ayrim asrlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida yoritib berilgan. Abu Ali ibn Sinoning komil inson xususidagi g‘oyalarining pedagogik qimmati shundaki, u etuk insonlar hayot tarzi, turish-turmushi va xulq atvorlarini ifodalash bilan kifoyalanib qolmay, bu sifatlarning shaxsiy fazilatlar ko‘rinishidagi ifodasini bayon etadi va sharhlab beradi. Maqolada Sino axloqiy qarashlarini ijtimoiy mohiyati, davlat siyosati darajasini talqin qilinishi ham imkon darajasida yoritib berilgan. Ibn Sinoning farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rni haqidagi fikrlarini umumlashtirib berilgan. Ibn Sino insonni tirik mavjudot, aql-idrok shaxsi, dunyodagi eng yaxshi mavjudot deb bilgan, uning hurmati va izzat-ikromini zaruriy shart deb bilgan. Ibn Sino asarlarini tahlil qilish asosida tarbiya to‘g‘risidagi ibratli maslahatlari tahlil va tavsif qilingan. Barkamol insonni tarbiyalash - allomani fikricha bolani mehnatga, ijtimoiy hayotga, oilaviy turmushga, insoniy munosabatlarga o‘z-o‘zining jismoniy va ma’naviy kuch-quvvatlarini boshqara olishga tayyorlash demakdir.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ta’lim, axloq, komil inson, barkamollik, bola, shaxs, fazilatlar, illatlar.

ABSTRACT

The encyclopedist Ibn Sina, in the course of his multifaceted activity, created a system of philosophical anthropological ideas that are unique to him, in which it is recognized that man is a perfect being and that his striving for perfection is a factor that creates the spiritual world of society. He emphasized that man is a part of nature and that natural and social factors play an important role in his perfection, calling for the development of scientific thinking for a certain future. Reflecting on the problem of Abu Ali Ibn Sina and the perfect person, we believe that this issue should be approached from two sides. First, he himself was an example of a perfect person, and secondly, he created and promoted ideas about the need to educate members of society as perfect people throughout his life. The article sheds light on Ibn Sina's moral views based on the study and analysis of certain centuries. The pedagogical value of Abu Ali ibn Sina's ideas about the perfect person is that he does not limit himself to describing the lifestyle, lifestyle and character traits of mature people, but also describes and explains the expression of these qualities in the manifestation of personal virtues. The article also sheds light on the social essence of Sina's moral views, the level of state policy, as much as possible. Ibn Sina's thoughts on the role of parents in raising children are summarized. Ibn Sina considered a person to be a living being, a person of reason and perception, the best creature in the world, and considered his respect and honor to be a necessary condition. Based on the analysis of Ibn Sina's works, his instructive advice on upbringing is analyzed and described. Raising a perfect person, according to the scientist, means preparing a child to manage his physical and spiritual strength for work, social life, family life, and human relationships.

Key words: upbringing, education, morality, perfect person, perfection, child, personality, virtues, vices.

АННОТАТСИЯ

Учены энциклопедист Ибн Сина в ходе своей многогранной деятелности создал уникалную систему философско-антропологических идей, в которой человек осознаётся как совершенное существо, а его стремление к совершенству подчеркивается как фактор, создающий духовный мир общества. Он поощрял развитие научного мышления определенного будущего, подчеркивая, что человек является частю природы и что в его развитии важны природные и сотсиалные факторы. Размышляя об Абу Али ибн Сине и проблеме совершенного человека, мы считаем, что к этому вопросу следует подходит с двух точек зрения. Во-первых, он сам был примером совершенного человека, а во-вторых, на протяжении всей своей жизни он создавал и продвигал идеи о необходимости воспитания членов

общества как совершенных людей. В стате на основе изучения и анализа ряда произведений освещаются моралные взгляды Ибн Сины. Педагогическая сенност представлений Абу Али ибн Сины о совершенном человеке заключается в том, что он не ограничивается описанием образа жизни, поведения и черт характера зрелых людей, но также описывает и объясняет выражение этих качеств в проявлении личных добродетелей. В стате также максимально подробно излагается трактовка сотсиалной сущности моралных взглядов Сино и и принятие ее на уровне государственной политики. Ибн Сина считал человека живым существом, наделенным разумом и восприятием, лучшим созданием в мире, а его уважение и почет считал необходимым условием. На основе анализа произведений Ибн Сины проанализированы и описаны его поучителные советы по воспитанию. По мнению ученого, воспитат совершенного человека - значит подготовит ребенка к труду, общественной жизни, семейной жизни и человеческим отношениям, чтобы он мог управлят своими физическими и духовными силами.

Ключевые слова: воспитание, образование, нравственност, совершенный человек, совершенство, ребенок, личност, добродетели, пороки.

Ibn Sino (980-1037) faylasuf va tajribakor olim, qomusiy ma’lumotli kotib va amaliyotchi tabib, shoir va davlat arbobi siymolarini bir shaxsda birlashtirdi, uning ko‘p qirrali faoliyati o‘zi yaratgan fikr va amaliyot, haqiqat va yaxshilik birligiga erishishga qaratilgan falsafiy tizimda o‘z ifodasini topgan. Favqulodda shaxs, olim va rassom sifatida u narsalarning mohiyatiga kirib borishga, koinotning ideal qonunlari va tuzilmalarini tushunishga intildi, tabiatshunoslik va gumanitar bilimlarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirdi, ko‘p jihatdan kelajakning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga da’vatlantirdi. Uning asarlari arab va fors tillarida bayon qilingan bo‘lib, falsafa, kimyo, tib, geologiya, tarix va pedagogika fanlarining o‘sha davrdagi aktual masalalarini o‘rganish va talqin qilish bobidagi ilg‘or fikrlarni qamrab olgan.

Abu Ali ibni Sino insonga aql-idrokka ega, iroda erkinligi va o‘zini o‘zi anglay oladigan mukammal mavjudot sifatida qaragan. Uning insonni fizik qonunlardan musstasno holda mustaqil, fikrlash va harakatga qodir erkin shaxs sifatidagi g‘oyalari o‘z davri uchun ahamiyatli edi. Avitsenna insonni nafaqat jismoniy tanaga, balki rivojlanishi va amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ruhiy tamoyilga ham ega bo‘lgan noyob mavjudod sifatida ko‘rdi. Uning insonni

takomillashtirishga qodir erkin va mas’uliyatli mavjudot sifatidagi g‘oyalari keyingi avlodlarning falsafiy va tibbiy tafakkuriga ta’sir ko‘rsatdi.[7, 14]

Ibn Sinoning antropologik g‘oyalari o‘zining ustozi deb tan olgan buyuk faylasuf Aristotel va usha davrning etuk olimlari Forobiy va Beruniy asarlarida bayon qilingan mulohazalar ta’sirida shakllangan. Allomaning fikricha inson ongining dastlabki shakllaridan - moddiy (potensial) va real ongdan boshlab, eng yuqori orttirilgan aqlga ko‘tarilish bosqichlari va ularning "faol aql" bosqichiga erishish bosqichlari insonning intellektual va axloqiy takomillashuvining namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Komillik g‘oyasi Ibn Sinoning barcha ilmiy-falsafiy, axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy ta’limotlari orqali o‘tadi. Biroq, inson faoliyatining turli shakllari ichida Ibn Sino ham Arastu singari tafakkur-nazariy, falsafiy faoliyatga komillik g‘oyasiga ustunlik beradi. Ijtimoiy mohiyati va o‘zligini anglab etgan komil insonnning hayoti ijtimoiy ideal, odamlarga ezgu va yaxshi hayotga erishish yo‘lini ko‘rsatishga mo‘ljallangan namuna sifatida e’lon qilinadi.

Abu Ali ibn Sino va komil inson muammosi xususida mulohaza yuritar ekanmiz, bu masalaga ikki tomonlama yondoshish lozim deb hisoblaymiz. Birinchidan o‘zi komil inson namunasi bo‘lsa, ikkinchidan esa jamiyat a’zolarini komil inson sifatida tarbiyalash lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni butun umri davomida yaratgan va uni targ‘ib qilgan.[6, 132]

Inson barkamolligining bosh me’yori mutafakkirning fikricha uning axloqiyligidir. Alloma axloq muammosi xususida mulohaza yuritar ekan, uni fan darajasida talqin etadi. Axloq fani - deydi u "Uyun-al-hikma" asarida odamlarning chinakam baxtli bo‘lishi uchun unga doimo yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib beradigan fandir. Bu fan kishining xulq atvori uning borliq hayoti ustidan rahbarlik qiladi.

O‘z zamonasining Shayx-ur-Raisi inson barkamolligi g‘oyasini qariyb xamma asarlarida turli ko‘rinishlarda bayon etgan. Ayniqsa, bu borada maxsus mulohazalar yuritilgan asarlarni eslatib o‘tmay ilojimiz yo‘q. Bular jumlasiga "Tadbiral ma’nozil" (“Turar joylarni boshqarish choralari"), "Risola fi ilmi axloq” («Axloq ilmga oid risola"), "Risola fil-ahd" (“Burch haqida misollar"), "Risola fi tazqiyat an-nafs" (“Nafsni pokiza tutish haqida risola"), "Risola siyosat al-badan" ("Badanni boshqarish risolasi"), "Kitob al ansof" (“Adolat haqida kitob") va boshqalar.

Abu Ali ibn Sinoning komil inson xususidagi g‘oyalarining pedagogik qimmati shundaki, u etuk insonlar hayot tarzi, turish-turmushi va xulq atvorlarini ifodalash bilan kifoyalanib qolmay, bu sifatlarning shaxsiy fazilatlar ko‘rinishidagi ifodasini bayon etadi va sharhlab beradi. Uning fikricha, inson barkamolligini ifodalovchi xislatlar qo‘yidagilardir: iffat, shijoat hikmat, adolat, saxiylik, sabr, yumshoqlik, karam, gunohni kechira bilishlik, sir saqlay olishlik, farosatlilik,

qat’iyatlik, rahm, rahmdillik, vafo, hayo, kamtarlik, bardoshlik, chidamlik va boshqalar. "Axloq ismi haqida" asarida bu fazilatlarning ichki quvvatlarga ega ekanligini ta’kidlab, ularning mazmunini ham yoritib beradi.

"Shijoat" - Sinoning ta’kidlashicha, g‘azabiy quvvatga mansub bo‘lib, bunda inson har qanday alam va og‘riqlarga befarq qaraydi.

"Qanoat" - tana uchun me’yordan ortiq ozuqani iste’mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilmaslikdir.

"Rahmdillik" - baxtsizlikka uchragan yoki azob uqubatga duchor bo‘lganlarga nisbatan xushmuomala bo‘lishlikdir.

"Sabr" - insondagi shunday quvvatdirki, u orqali kishi boshiga tushgan yomonlik bartaraf qilinadi.

"Yumshoqlik" - g‘azabning yuz berishidan o‘zini tutishdir. g‘azabdan o‘zini tutishni ibn Sino inson oliyjanobligi deb ta’riflaydi.

"Farosatlilik" - tez fahmlash his va tushunchalar orqali berilgan ma’lumotning haqiqiy ma’nosiga darrov tushunib olishdir.

Barkamol inson ijobiy fazilatlarni bilish va ularni o‘zida mujassamlashtirishi bilan birga illatlar va ularni mohiyatini ham anglab olishi lozim deb ta’kidlaydi, alloma. U o‘zining "Hayy ibn Yakzon" asarida salbiy illatlarni "kishi oshnolari" deb ataydi va ularning mazmunini talqin qilib beradi. Uning fikricha insonlardagi salbiy illatlar quyidaglardir: o‘g‘rilik, aldamchilik, fisqu fasod, nafrat, rashk, adovat, o‘ch olish, bo‘hton, irodasizlik, ahmoqlik, hasad, g‘azab, sergaplik, so‘kinish, g‘iybat, behayolik, yolg‘onchilik, jur’atsizlik, bo‘shanglik, sir saqlay olmaslik, jaholat va boshqalardir.[1, 527]

Bizningcha, allomaning ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda har bir komil inson salbiy illatlarni ham bilishligi to‘g‘risidagi mulohazasi uning kishi ruhiy olami qonuniyatlarini chuqur his qila olganligidan dalolat beradi. Uning ta’kidlashicha, insondagi ijobiy fazilatlar salbiy illatlar o‘rtasida vositachi bo‘ladi, ya’ni xislat illatlar orasida namoyon bo‘ladi. Masalan: iffat - qizg‘onchilik, bilan istak o‘rtasida saxiylik - baxillik bilan isrofgarchilik o‘rtasida, adolat - zulm bilan ezilish holati o‘rtasida, qanoat - hirs bilan tavakkalchilik o‘rtasida namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino bolaning kamol topib, komil insonlik darajasiga etishini insonparvarlik siyosati bilan bog‘lagan. U bu fikrni «Kitob-ush-shifo» va «Al-qonun»da asarlarida bir qator tarbiyaviy masalalarni davlat funksiyalari darajasiga ko‘tarib, mutaxassis va hunarmandlar qancha ko‘p bo‘lsa, davlat, jamoat, ishlab chiqarish, madaniyat ishlari shunchalik ko‘p rivojlanib borishini ta’kidladi. Sino bola shaxsini shakllanishida ota-onalar va o‘qituvchilarning o‘rni va ta’siri

egallaydi. Porso Shamsiev amalga oshirgan ishlaridan yana biri xorijda saqlanayotgan shoir asarlari qo‘lyozmalarining foto nusxalari haqidagi manbashunoslik yo‘nalishidagi keng qamrovli ma’lumotlar kelajakda tekstologik tadqiqot ishlari uchun muhim materiallardir. Arxiv hujjatlari orasida mumtoz adabiyotimiz namoyondalari ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalardan tashqari hali kam o‘rganilgan, xattoki hozirgacha ilmiy jamoatchilikka noma’lum bo‘lgan asarlar yoki asarlardan parcha ham uchraydi. Masalan, “Mubayyin-ul-murid” nomli asar. G‘oyibiy she’riyatlaridan namunalar. Hamdamiyning “Nasihatnoma” asari, “Hadisi arba’in” asarining Mute’iy tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi, Turobiyning masnaviy yo‘lidagi asaridan parchalar, eshonlar haqida xotiralar “Hilvatiy sufaho” asarining bosh qismi, “Podshohi Jimjima” qissasi kabi adabiy yodgorliklari xususida ma’lumotlar mavjud. Olim arxividagi hujjatlarning ko‘p qismi Navoiy ijodiyotiga doir bo‘lib, ularning aksariyati Navoiyshunoslik uchun muhim materiallar deyish mumkin. Olimning navoiyshunosligimizga qo‘shgan katta hissasi Navoiy asarlari ustida qilingan yirik tekstologik tadqiqotlari, forsiy asarlarining tarjimalari, taqriz va risolalar, 1920-yildan 1960-yillargacha mamlakatimiz vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilingan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodiga taa’lluqli maqola va badiiy asarlarning bibliografiyasini yaratganligi, ayrim murakkab baytlar, so‘z va iboralar tahlili hamda Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining xorijiy mamlakatlar xazinalarida saqlanayotganligi haqidagi ko‘plab ma’lumotlar kelajakda ilmiy ta’qiqot olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘ladi, deyish mumkin.

Porsoxon Shamsiev shaxsiy arxivini tavsifdan o‘tkazib, nashr ettirgan filologiya fanlari nomzodi, dotsent, muzey katta ilmiy xodimi Yusuf Tursunov olim tomonidan ko‘chirilgan arab xatidagi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining Parij nusxasi, muzey fondida saqlanayotgan Navoiy kulliyoti, fonddagi bir necha qo‘lyozma nusxalarining mikrofilm va fotonusxalari bilan qiyosiy o‘rganib, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi va 2021-yilda nashr ettirdi. Xulosa shuki, Porsoxon Shamsiev arxivi ana shunday katta-katta tadqiqotlar uchun manba bo‘la oladigan noyob materiallarga boy.

Muzeyimiz arxivida shoir Maqsud Shayxzoda arxivi ham saqlanib kelinmoqda. Maqsud Shayxzoda arxivi 1972-yilda shoirning umr yo‘ldoshi Sakina xonum Xalil qizi tomonidan Shayxzodaning roziligi va professor Hamid Sulaymon tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyiga topshirilgan.

Maqsud Shayxzoda shaxsiy arxiv xujjatlari o‘sha yillari arxiv bo‘limi mudiri Saidbek Hasanov tomonidan tavsif qilingan va 1985-yilda katalogi nashr etilgan.

Maqsud Shayxzoda nihoyatda boy va noyob tarixiy meros qoldirgan bo‘lib, uning ko‘plab badiiy yuksak she’rlari, ajoyib dostonlari, tragediya va ilmiy

maqolalari matbuotda chop etilgan, xrestomatiya va to‘plamlarga kiritilgan. Biroq ijodkorning bu asarlarini ko‘pchilik ko‘rmagan. Shayxzoda ijodining dastlabki qoralama nusxalari, ilk ro‘yxatlari, birinchi bor kompyuterdan chiqarilgan variantlaridir. Bular shoir tafakkurining mevasi bo‘lishi bilan birga, fan uchun o‘ta qimmatli manbadir. Shuning uchun ham ular ilmiy va ma’rifiy ahamiyatga egadir. Odatda, arxiv hujjatlarini yig‘ish va ularni saqlashdan maqsad ma’lum fanning ravnaqiga xizmat qilishga qaratilgan bo‘ladi. Adabiyotshunoslik singari ijtimoiy fanlar uchun esa arxiv hujjatlari asosiy poydevor vazifasini o‘taydi. Shuning uchun ham birinchi navbatda arxivdan imkoni boricha mukammal foydalanish uchun arxiv hujjatlarini shunday tavsiflash kerakki, ular ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiqotchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga tezroq yetishini ta’minlasin.

Maqsud Shayxzoda arxivi faqat shoir shaxsigagina mansub emas, albatta balki u ijod qilgan davr O‘zbekistonda adabiyot va madaniyatning yuksalganligi, kamol topganligini ko‘rsatuvchi hujjat hamdir. Ijodkor arxivi tavsifini o‘rganishda davr nuqtayi nazaridan yondoshmoq kerak, nazarimizda. Maqsud Shayxzoda o‘zi yashagan davrni kuylaydi, madh etadi. Har bir ijodkor o‘z davri shoiri va yozuvchisidir. Shuning uchun ham ular ijodini o‘rganishda albatta ular yashagan davr ham hisobga olinmog‘i kerak.

Maqsud Shayxzodaning yuqoridagi arxiv hujjatlarini filologiya fanlari doktori S.Hasanov tavsifdan o‘tkazgan. Hujjatlar soni 831 tadan iborat. Ushbu hujjatlar tavsifi 1985-yilda katalog holida nashrdan chiqqan edi. Ushbu tayyorlanayotgan katalogga 1987 va 1989-yillarda arxivga topshirilgan hujjatlarni ham kiritdik. Bu arxiv hujjatlariga muzey ilmiy xodimlari R.Sharafutdinova va T.Zufarovlar tavsif berishgan. Ular tavsif bergan hujjatlar soni 284 ta hujjatdan iborat.

Maqsud Shayxzoda arxivi hujjatlari orasida juda ko‘plab qimmatli materiallar mavjud. Bu hujjatlarda shoir, yozuvchi, dramaturg Maqsud Shayxzodaning umri davomida yozgan asarlari bir yerga yig‘ilgan. 2022-yilda yozuvchi arxivi hujjatlari asosida J.Jovliyev filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertattsiyasini himoya qildi. Bunday tadqiqotlar bundan keyin ham davom etib, fanimizga, adabiyotimiz ravnaqiga o‘z ilmiy izlanishlari bilan olimlar, yosh tadqiqotchilar ham hissalarini qo‘shadilar deb o‘ylaymiz.

O‘zbek adabiyotining birinchi avlodiga mansub bo‘lgan, eng iste’dodli shoirlardan biri, dramaturg, publitsist, jamoat arbobi, olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, o‘zbek adabiyotining yo‘nalishi va rivojiga o‘z ijodi, tashkilotchiligi bilan katta hissa qo‘shgan Hamid Olimjon arxivi shoira Zulfiyaxonim ko‘magida muzeyimiz fondiga 1971-yili qabul qilingan. Ushbu arxiv hujjatlarini filologiya fanlari doktori Fozila Sulaymonova tavsifdan o‘tkazgan.

Hamid Olimjon qisqa umr ko‘rdi.(1909-1944), ammo 30- yillar va Ikkinchi jahon urushi davri madaniy hayotida olovqalb shoir ishtirok etmagan, o‘z hissasini qo‘shmagan birorta tadbir bo‘lmagan. Shuning uchun uning arxivida lirik she’rlar yangi maslak, yangicha hayotni targ‘ib etib, eskilikka qarshi kurashga chaqiruvchi, lirik hamda vatanparvarlik ruhidagi she’riyat va tarixiy dramatik asar, aktual problemalarga bag‘ishlangan chuqur ma’no va ilg‘or g‘oyalar tashuvchisi bo‘lgan, xalq donishmandligi o‘z ifodasini topgan doston va ertaklar bilan bir qatorda siyosiy publitsistik va adabiyotimiz tarixini to‘g‘ri talqin qilishga yordam beruvchi ilmiy tadqiqot ishlari ham bor. Bularning asosiy qismi shoirning o‘z qo‘li bilan yozilgan, aksariyat arab yozuvidagi avtograflardir.

Hamid Olimjon arxivi ustida ish olib borgan Fozila Sulaymonova, bu o‘rinda Moskva (TsIGALI) va Leningrad (Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasi) olimlarining ish tajribalaridan foylangan, materiallarni tematik ajratib, har temada xronologik izchillikka rioya etilgan. Ana shu tartibga binoan shoir arxivi quyidagi qismlarga ajratiladi: she’rlar, dostonlar, dramatik asarlar, shoir tomonidan qilingan tarjima, publitsistika, folklorga oid ilmiy tadqiqotlar, adabiy tanqidchilik, front kundaliklari, fragment, variant va qoralama yozuvlar, shoir asarlari tarjimasi, shoir tomonidan asarlar uchun to‘plangan turli materiallar, boshqa shoirlar bilan hamkorlikda yaratilgan publitsistik asarlar, O‘zbekistonda fan va adabiyot rivoji haqidagi materiallar, xat va telegrammalar, shoir asarlariga taqrizlar, shaxsiy hujjatlar, shoir vafoti va xotirasi hakidagi materiallar, hammasi bulib ijodkor arxivida 373 ta hujjat mavjud. Bularning aksariyati adib qo‘lyozmasi bo‘lib, mashinkalangan, hatto ba’zi chop etilganlari ham shoir tomonidan ko‘zdan o‘tkazilgan va tuzatilgan.

Hamid Olimjon adabiyot tarixida birinchi navbatda otashqalb shoir sifatida o‘rin olgan. Shoir, dramaturg, tarjimon, publitsist Hamid Olimjon o‘zbek adabiyotshunosligi, ayniqsa, navoiyshunosligi ravnaqi uchun ham ko‘p xizmat qilgan. 1938-yili O‘zbekiston hukumati, 1939-yili VKP(b) Markaziy Komiteti o‘zbek adabiyotining buyuk dahosi bo‘lmish Alisher Navoiy tavalludiniig 500 yilligini nishonlash xaqida qaror qabul qiladilar, yubiley komiteti tashkil etiladi, Hamid Olimjon esa uning ilmiy kotibi etib tayinlanadi. Ana shu mamlakat miqyosidagi ulkan tadbirni amalga oshirishda olim-shoir katta jonbozlik ko‘rsatadi va tashkiliy ishlardan (Navoiy asarlari tarjimasini uyushtirish, asarlar majmuasi, tarjimasini chop ettirish, Leningradda FA Sharqshunoslik institutida tuzilgan FA Yubiley Komiteti, katta sharqshunos olimlarni Navoiy haqida ilmiy asarlar yaratishga jalb etish va h.k.) tashqari o‘zi ham Navoiy asarlarini o‘rganish, tadqiq etish va maqola, ilmiy asarlar yozishga kirishadi. Hamid Olimjon arxivida saqlanayotgan Navoiy haqidagi ilmiy ishlar, materiallar ko‘pginadir (inv. №№ 83,

84, 93, 95, 101, 102, 103, 104, 105, 106, Yu7, 108, 109, 110, 111, 112, 113, 114,115, 116, 117, 118, 119, 120, 121, 122, 123, 124, 125, 163,164, 165, 166, 167, 168, 169, 170, 171, 172, 173, 174,175,176, 177, 178, 179, 180, 181, 182, 183, 184, 209, 210, 211, 212, 213, 214, 215, hammasi bo‘lib 648 varaqni tashkil etadi). Bular orasida Navoiy asarlaridan ko‘chirma, shoir davriga, tiliga oid materiallar, turli mulohazalar, Navoiy dunyoqarashi va ijodining turli tomonlarini yorituvchi qaydlar, yubiley komitetining qarorlari kabilar mavjuddir. Afsuski, ularning ayrimlarigina tugallangan va chop etilgan («Navoiy o‘zbek adabiy tilining yaratuvchisi», «Farhod va Shirin»ni nashrga tayyorlash va so‘z boshi, «Alisher haqida», «Navoiy va zamonamiz», «O‘zbek xalqining ulug‘ shoiri Navoiy”, “Mehnat kuychisi”, “Farhod va Shirin obrazlari haqida”) xalos.

Umuman olganda Alisher Navoiy asarlarini barcha kitobxonlarga yetkazish, shuhratini 30-40 yillardayoq olamga taratish borasida Hamid Olimjonning ham olim, ham tashkilotchi sifatida qilgan xizmtlari tahsinga sazovor.

Hamid Olimjon otashin shoir, publitsist, dramaturg, tanqidchi, olim bo‘lishidan tashqari faol tashkilotchi, jamoat arbobi sifatida ham namoyon bo‘lgan.

Har qanday adibning arxivi uning xarakteri, qiziqishlari, ijodiy izlanishlari, ijod etish jarayonini kursatuvchi laboratoriyadir, saqlanib qolgan arxivlar adib ijodini chuqur va kengroq ochib berishga, yoritishga yordam beruvchi birinchi manbadir. Matnshunos olimlar ham asosan arxiv materiallaridan foydalanadilar. Bu borada O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan o‘zbek adiblari arxivi adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar uchun noyob xazinadir.

Muzeyimizda uzoq yillar o‘z ilmiy faoliyatini olib borgan taniqli navoiyshunos olim Muhammadjon Hakimov arxivi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak M.Hakimov 1967-1978-yillarda Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida katta ilmiy xodim vazifasida faoliyat yuritdi. Shu davrda olim Adabiyot muzeyining Alisher Navoiy davri, hayoti va zamondoshlariga bag‘ishlangan ekspozitsiyani yaratishda tarixchi olimlar, rassomlar bilan hamkorlikda ishladi. Olim uzoq yillar Alisher Navoiiy asarlarining qo‘lyozmalarini ilmiy tavsiflash jarayonida ulug‘ mutafakkir va shoir ijodiga xalq og‘zaki ijodining katta ta’sir ko‘rsatganligini g‘oyat sinchkovlik bilan o‘rgandi. Olim 1979-1986-yillarda Qo‘lyozmalar instituti fondidagi Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalarini tavsifladi. Bu tavsiflar ikkita kitob holida chop etildi hamda rus tilida nashr qilingan “Каталог фонда института рукописей” katalogining 1 jildiga kiritildi (1989).

M.Hakimov o‘zbek adabiyotshunosligi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarga qulay bo‘lishi uchun yana bir xayrli ishni amalga oshirdi. U

o‘zbek adabiyotshunosligining hamma masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan 1935 yildan boshlab yoqlangan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining avtoreferatlari bo‘yicha bibliografiyasini tuzib chiqdi. Bu bibliografiyaning 1975-yilgacha bo‘lgan qismi “Adabiy meros” ilmiy jurnalining 6-10 sonlarida (1976-1978 yillarda) bosilib chiqdi. Ushbu bibliografiya faqat O‘zbekistonda yoqlangan dissertattsiyalar bilan chekeklanmadi. Unga sobiq Ittifoqning hamma respublikalarida yoqlangan o‘zbek adabiyotiga aloqador dissertatsiyalar kiritilgan. Olim arxiv hujjatlari orasida Navoiy “Xamsa”sida qadimgi yunonlarning bir necha olimlari, hakimlari, astronomlari, matematiklari jami 18 ta faylasuflari haqida ma’lumot beradi. M.Hakimov “Navoiy qomusi” uchun 120 dan ortiq ma’lumotlarni tayyorlagan. Ushbu ma’lumotlar orasida Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar Sultonali Mashhadiy, Abduljamil kotib, xattot Darvesh Muhammad Toqiy haqidagi ma’lumotlar bilan birga yana bir necha kotiblar haqida ma’lumotlar beradiki, bu kotiblar haqida deyarli ma’lumotlar yo‘q edi. Ana shu kemtiklikni Muhammadjon Hakimov o‘z ilmiy izlanishlari orqali to‘ldirgan edi. Yuqoridagi navoiyshunos olimlar singari M.Hakimov ilmiy faoliyati ham Alisher Navoiy bilan chambarchas bog‘liqligi uning arxiv materiallaridan ham ko‘rinib turibdi.

Har qanday adibning arxivi uning xarakteri, qiziqishlari, ijodiy izlanishlari, ijodini ko‘rsatuvchi laboratoriyadir. Saqlanib qolgan arxivlar adib ijodini chuqur va kengroq ochib berishga, yoritishga yordam beruvchi birinchi manbadir. Tekstolog olimlar ham asosan arxiv materiallaridan foydalanadilar. Bu borada O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan o‘zbek adiblari arxivi adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar uchun noyob xazinadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М. Шайхзода архиви. -Тошкент., ЎзФА Ҳ.С.Сулаймонов номидаги Қўлёзмалар институти. 1985й. 126 б.
2. Ҳамид Олимжон (ҳужжатлар тавсифи). -Тошкент., “Фан” нашриёти, 1979й. 59 б.
3. П.Шамсиев шахсий архивининг каталоги. -Тошкент., 2017й. 175 б.
4. Муҳаммаджон Ҳакимов архиви каталоги. -Тошкент., 2023й. 144 б.
5. Г.Абдуллаева. Уч навоийшунос архиви ҳақида. Матншунослик ва адабий манбашунослик масалалари(илмий мақолалар). – Тошкент: “Javohir ilm nashr”, 2024. -Б. 94-99.
6. G. Abdullayeva. Navoiyshunos Natan Mallayev arxivi haqida/ O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishning nazariy va manbaviy asoslari

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (30-oktabr, 2024-yil. –B. 33-37.

PROFESSOR INOMJON RASULOVNING ILMIY QARASHLARI

B.Abdurahmonova
QDU dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli olim, professor Inomjon Rasulovning ilmiy merosi, uning til nazariyasi va grammatikasi sohasidagi qarashlari tahlil etiladi. Olimning fonetika, morfologiya, sintaksis va stilistika yo‘nalishlarida olib borgan tadqiqotlari, shuningdek, ilmiy-metakognitiv yondashuvlari yoritilgan. Professor I.Rasulov ilmiy merosi, uning sintaksik qarashlari haqida so‘z boradi, ilmiy asarlari, xususan, “O‘zbek tilida bir sostavli gaplar” kitobi tahlil qilinadi. I.Rasulov ilmiy maktabining shakllanishi, uning shogirdlari va tilshunoslikdagi innovatsion g‘oyalari alohida e’tirof etiladi. Mazkur ish tilshunos olimlar, magistrantlar va til nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tilishunosligi, sintaksis, til birliklari, sodda gaplar, bir sostavli gaplar, gap komponentlari.

Аннотация: В статье анализируется научное наследие профессора Иномжона Расулова, видного ученого, внесшего значительный вклад в развитие узбекского языкознания, его взгляды на теорию языка и грамматику. Освещены исследования ученого в области фонетики, морфологии, синтаксиса и стилистики, а также его научно-метакогнитивные подходы. Будет обсуждаться научное наследие профессора И. Расулова, его синтаксические взгляды, а также его научные труды, в частности, книга “Однородные предложения в узбекском языке”. Особо отмечено формирование научной школы И. Расулова, его учеников, его новаторские идеи в языкознании. Данная работа является важным научным ресурсом для лингвистов, аспирантов и исследователей, занимающихся теорией языка.

Ключевые слова: узбекское языкознание, синтаксис, языковые единицы, простые предложения, односоставные предложения, компоненты предложения.

Abstract: This article analyzes the scientific heritage of Professor Inomjon Rasulov, an outstanding scientist who made a significant contribution to the development of Uzbek linguistics, his views on language theory and grammar. The scientist's research in the areas of phonetics, morphology, syntax and stylistics, as

well as scientific and metacognitive approaches, are highlighted. The scientific heritage of Professor I. Rasulov, his syntactic views are discussed, and his scientific works, in particular the book “Single-compound Sentences in the Uzbek Language”, are analyzed. The formation of I. Rasulov's scientific school, his students and innovative ideas in linguistics are especially recognized. This work serves as an important scientific source for linguists, graduate students and researchers engaged in language theory.

Keywords: Uzbek linguistics, syntax, language units, simple sentences, single-compound sentences, sentence components.

Professor Inomjon Rasulov – o‘zbek tilshunosligining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy faoliyati tilshunoslikning turli sohalarini qamrab olgan, ayniqsa, leksikologiya, sintaksis va stilistika yo‘nalishlarida samarali tadqiqotlar olib borgan.

Professor I.Rasulov o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini chuqur o‘rganib, bu borada qator ilmiy asarlar yaratgan. Uning asosiy ilmiy qarashlari o‘zbek tilining tabiiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash, til va tafakkur munosabatlarini tahlil qilish hamda tilshunoslik nazariyalari asosida milliy til xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Shuningdek, u tilning ijtimoiy vazifalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. Olim o‘z tadqiqotlarida til birliklarining semantik, struktural va funksional jihatlarini uyg‘un holda tahlil qilishga harakat qilgan.

Inomjon Rasulov – o‘zbek tilshunosligida, xususan, sintaksis sohasida salmoqli ilmiy iz qoldirgan olimlardan biridir. Uning sintaktik qarashlari chuqur nazariy asosga ega bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilining gap tuzilishi, komponentlararo munosabatlar, gapning turli modellarini izohlashda muhim o‘rin tutadi. Uning sintaksisga oid qarashlari til birliklarining grammatik munosabatlari, gap tuzilmalari va ularning funksional xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. I.Rasulov o‘z tadqiqotlarida gapning strukturasini nafaqat shakliy, balki semantik va pragmatik jihatdan ham tahlil qilgan.

Olimning ilmiy ishlari, ayniqsa, sodda gaplarning tuzilishi, gap bo‘laklari hamda gapda so‘z tartibi masalalarini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. U o‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining o‘zaro munosabatini tizimli yondashuv asosida tahlil qilgan va bu borada mavjud nazariyalarga ilmiy asoslar bilan o‘zgartirishlar kiritgan. Ayniqsa, ega va kesim munosabatining ma’no va shakl jihatidan o‘zaro bog‘liqligini tahlil etish borasida chuqur mulohazalar bildirgan.

Shuningdek, sintaktik birliklarning vazifasi, ularning matndagi o‘rni va nutqdagi ifoda imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. Professor

I.Rasulov uchun sintaksis nafaqat grammatik tuzilma, balki fikrning ifodasi, matn qurilishi va nutqiy muloqotning asosiy vositasi sifatida muhim bo‘lgan.

Uning bu yo‘nalishdagi ilmiy ishlari o‘zbek tilshunosligida sintaktik tahlil nazariy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, o‘quv adabiyotlarining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

I.Rasulov gapni strukturaviy jihatdan tahlil qilish bilan birga, uning vazifaviy xususiyatlariga ham e’tibor qaratadi. U gapni nafaqat grammatik birlik, balki kommunikativ birlik sifatida o‘rganadi. Gap komponentlari o‘zaro qanday bog‘langan, qanday semantik yukka ega – ana shu masalalarga chuqur yondashadi.

Inomjon Rasulovning “Hozirgi o‘zbek tilida bir sostavli gaplar” nomli asari o‘zbek tilshunosligida sintaksis sohasiga oid muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Ushbu kitobda muallif hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchraydigan bir sostavli gaplarning shakllanishi, tuzilishi, semantik-pragmatik xususiyatlari va funksional imkoniyatlarini chuqur ilmiy tahlil qiladi. Asarda gapning to‘liq va to‘liq bo‘lmagan turlari, egasiz gaplar yoki emotsional ifodalar singari strukturalar alohida tahlil qilinadi. U bu gaplarni mustaqil sintaktik birlik sifatida qaraydi va ularning o‘ziga xosligi, kontekstga bog‘liqligini chuqur asoslaydi.

Olim bir sostavli gaplarni faqat predikativ yadrosi — oraliqli yoki oraliqsiz predikat bilan ifodalangan gaplar sifatida belgilaydi. Bunday gaplarda an’anaviy subyekt komponenti yo‘q yoki u kontekstual tarzda tushuniladi. Masalan: *Keldi, Boraman, Sovuq bo‘ldi* kabi.

I.Rasulov kontekstning roliga alohida e’tibor qaratadi. Bir sostavli gaplar kommunikativ vaziyatga qarab subyekt yoki boshqa komponentlarni anglatishi mumkin. Bu esa ularning pragmatik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muallif ayrim o‘rinlarda rus va boshqa tillardagi bir sostavli gaplar bilan qiyosiy tahlil ham beradi. Bu yondashuv o‘zbek tilidagi gap tuzilmasining milliy xususiyatlarini ochib beradi.

Inomjon Rasulovning mazkur asari hozirgi o‘zbek tilidagi gaplar tizimini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. U sintaksis, semantika, pragmatika va stilistika kabi sohalarni birlashtirgan holda bir sostavli gaplarning ilmiy modelini yaratadi. Bu ish nafaqat nazariy, balki amaliy tilshunoslik uchun ham muhim manba hisoblanadi.

I.Rasulovning fikricha, gap alohida holatda emas, balki matn doirasida, kontekstda to‘liq anglashiladi. Shuning uchun u kontekstual sintaksisga ham e’tibor beradi. Bu qarash bugungi tilshunoslikdagi pragma-sintaksis yondashuvlariga yaqin turadi.

U gap tarkibidagi komponentlarning asosiy va ikkilamchi qismlari o‘rtasidagi ierarxiyani aniqlab, ularning o‘zaro bog‘lanish usullarini aniq qismlarga ajratadi. Bu tahlillar an’anaviy sintaktik qarashlarni yanada boyitgan.

I.Rasulov so‘z tartibining faqat grammatik emas, balki stilistik va pragmatik yukka ega ekanligini ta’kidlaydi. Gapdagi so‘zlar joylashuvi muhim ma’no farqlarini keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Inomjon Rasulovning sintaktik qarashlari grammatik yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy kontekstual va kommunikativ yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi. U o‘zbek tilining sintaktik tizimini nazariy asoslangan, sistemali va tahliliy yondashuv bilan o‘rganishga katta hissa qo‘shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 197
2. Rasulov I. O‘zbek tilining grammatikasi (morfologiya va sintaksis). – Toshkent: Fan, 1983.
3. Jo‘rayev N. O‘zbek tilshunosligining rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Jo‘rayev N., To‘xtayev N. Tilshunoslik tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Karimov A. Professor Inomjon Rasulovning ilmiy merosi. // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2010, №4.
6. Xaitboev M. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
7. Qosimov B. va boshqalar. O‘zbek tili: ilmiy-nazariy asoslar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.

GAHI KO‘RDIM FALAKDIN NOTOVONLIG‘...

Tojixon Toshboltayeva,
QDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning zamonasida ahli ilmga, xususan yosh ilm toliblariga bo‘lgan ustozlik mehri, otalik muhabbati, ularni tarbiyalashdagi mehnat va mashaqqatlari, iztiroblari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: farzand, mehr, muhabbat, otalik sadoqati, farzandlar kamoli, otalik iztiroblari.

Аннотатсия

В статье рассматриваются наставничество, отцовская любовь, труд и тяготы воспитания молодых интеллектуалов во времена великого мыслителя и поэта Алишера Навои.

Ключевые слова: ребенок, привязанность, любовь, отцовская преданность, детская зрелость, отцовские страдания.

Abstract

This article discusses the mentorship and fatherly love of the great thinker poet Alisher Navoi for scholars, especially young students of science, his labor, hardships, and suffering in raising them during his time. Key words: child, affection, love, fatherly devotion, children's perfection, fatherly suffering.

Hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodi o‘zining mo‘jizakorligi, ko‘lamining beadadligi va ohangrabosi bilan har bir insonni hayratga solib keladi. Olloh tomonidan bir suyukli bandasiga berilgan bunday hadsiz iste’dod va iqtidor, shuning zaminida yuzaga kelgan ma’naviy boylik biz – o‘zbek xalqining baxtidir. Shoir umrining har bir kuni, har bir yili ijodiy mo‘jizalar yaratilishiga, xalq uchun yaxshilik qilishga, o‘zbek xalqi tafakkurining yuksalishiga sarflandi. Shu bois olti asrdirki, Navoiy biz farzandlariga imon yo‘lini ko‘rsatib kelmoqda.

Ma’lumki shoir o‘z umri davomida minglab shogirdlarga ustozlik qilgan, ba’zilarini esa bolaligidan katta qilib “farzandi arjumand” deb atagan. Mirzobek, Mir Darvesh, Xoji Muhammad, Sulton Husayn Xatmiy, Sayid Muhammad, Mir Ibrohim kabilar shular jumlasidandir.Biz shularning ba’zilari haqida to‘xtalamiz.

Mirzobek shoirning sevimli farzandlaridan biri, iste’dodli shoir bo‘lgan, Navoiy uni xalifalik martabasiga ko‘tarmoqchi bo‘ladi, hurmat bilan e’zozlaydi, har sohada g‘amxo‘rlik qiladi. Bu davrda shoir Abusaid Mirzonining tazyiqlariga uchrab, musofirlik azoblarini tortib yurgan paytlari edi.Abu Sayid Mirzobekni o‘z xodimiga aylantirish uchun saroyga ishga taklif qiladi. Mirzobek shohning ra’yini qaytara olmay taklifga rozi bo‘ladi. Navoiy bu holatdan qattiq iztirobga tushadi.Shoir uning “bo‘luptur”radifli baytiga tazmin qilib yozgan g‘azalida Mirzobek haqida fikr yuritadi:

Ko‘zing ne qaro balo bo‘luptur,
Kim, jong‘a qaro balo bo‘luptur.
Begona bo‘luptur oshnodin
Begonaga oshno bo‘luptur.

Navoiy g‘azalning dastlabki baytlarida shogirdi firoqida chekkan dard-alamlari unga davo bo‘lganligini yozadi va unga sadoqat izhor qiladi.Mirzobekning undan begona bo‘lib, begonaga ya’ni Abu Sayidga oshno bo‘lganidan g‘oyat achinadi.

Mirdarveshni ham otalik mehri bilan tarbiyalaydi ammo, u ham uzoq safarga ota iznisiz ketib uni sog‘inch iztirobi bilan qiynaydi.

Andakim, hajr kamiyatin so‘rdum
Bir-ikki yor sanga topshurdim
Biri ham yor manga, ham farzand
Jonga oromu, yurakka payvand.
Biri hamsuhbatu, hamdardu rafiq
Tuqqanimdin dog‘i yuz qatla shafiq.

Nihoyat Mirdarvesh uzoq safarni, Mirzobek esa saroy xizmatini tark etib, ustoz huzuriga qaytadilar.Biroq ko‘p o‘tmay Mirzobek 35 yoshida bu dunyoni tark etadi.Piri ustoz uning bemahal o‘limiga g‘oyat achinadi. “...Hayf va yuz hayf va darig‘ va yuz ming darig‘kim, hayot chashmasidan serob bo‘lmadi va umri naxli mevasidin bar emadi.Mazori Samarqand mahfuzasida Ahmad Hojibek sallamulloh madrasasida mutayyin madfanlaridadur.Makoni ravzai jinon va ruhig‘a firdavsi a’loda makon bo‘lsin,” deb yozadi.[“Majolis-un-nafois”, 37-bet]

Bu orada Abu Sayid Navoiyni Samarqandga surgun qiladi, ustozsiz, himoyasiz qolgan Mirdarveshni esa qora kuchlar o‘z domiga torta boshlaydi.Tushkunlikka tushgan shogird ichkilikka beriladi va og‘ir kasallikka chalinib vafot etadi. Shoir yozadi:

Yoshung‘on emish qaro bulutg‘a mohim,
Gardunni sovurmoqlik erur dilhohim
Kirmush qaro tufroqqa kuyoshdek shohim,
Nevchun qaro qilmasun quyoshni ohim...

Bobur “Boburnoma”da Navoiy haqida “Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum ermaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”, deb yozadi.Hazrat Navoiy mamlakatdagi iste’dod egalarini tarbiyalab ham iqtisodiy, ham ma’naviy jihatdan qo‘llab quvvatlagan, madrasalar qurdirgan, tolibi ilmlarga maosh tayin qilib ularni rag‘batlantrib borgan. Shogirdlariga otalik mehri bilan qaragan, ularning sho‘xliklarini, nodonliklarini kechirib, g‘amxo‘rlik qilishda davom etgan va kamolotlarini ko‘rishni orzu qilgan.

Navoiy jondan aziz musohib shogirdlari Hoji Muhammad va Mir Ibrohimni ham avvalo ilohiy fazilatlari – g‘oyatda teran bilim, yuksak iste’dod va juda yoqimli nutqlari uchun sevgan va qadrlagan. Shoir “Majolis–un-nafois”da yozadi: “Mavlono Hoji Muhammad-Mashhaddindur.Ko‘praq avqot bu faqir bila musohibdur va farzand o‘rnig‘adur, balki andin ham azizroq.Ahloqda malakiydir, bashar surati ila kelgan va atvorda farishtadur, inson surati zuhur qilg‘on.Tab’i sofiy va tafakkuri barcha diqqatlarga vofiy.Zehni mushkulkusho taaammulli funun ishkolig‘a raso”. [Majolis un nafois”.70 bet]Hoji Muhammad Navoiy xonadonida

shoirning eng sevimli farzandi va sevimli musohibi sifatida qadrlangan.Mehribon ota va g‘amxo‘r piri ustoz uni bir kun ko‘rmasa sog‘inib, betoqat bo‘lgan.Sevimli farzand xarbiy xizmatda bo‘lganida, shoir shaharni tark etib, u bilan sahroda yashaydi.

Gar shahrni tark etib, sahroga qo‘yubmen yuz,
Ma’zur erurmenkim, mohim erur o‘rdo‘da.

Hoji Muhammad dushmanlarning ig‘vosiga uchib, shoirdan uzoqlasha boshlaydi.Safarga ketib yillab yo‘q bo‘lib ketadi, otani intizor qilib, yullariga termultiradi.Nihoyat sog‘inch g‘olib kelib, ota farzandini o‘zi izlab boradi.Farzand esa uni noxush kutib oladi, va qo‘pol muomalada bo‘ladi.Bundan ota ranjisada yana mehr bilan farzandiga intiladi. Uni sevishda davom etadi.Bu o‘rinda Navoiyda ham barcha otalarga berilgan kabi bahri kenglik xislatini namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz.Ammo farzandidan ranjiganini quyidagi g‘azalida izhor qilgan.

Men agar mahrum edim, mahram ham ermas erdi ul,
Ko‘nglim aro ozurda erdi, lek minnatdor edi.

Shoirning o‘zi e’tirof etib tarbiyalagan yana bir farzandlaridan biri Mir Ibrohimdir. Navoiy “Majolis-un –nafoisda””Sulton Husaynning o‘g‘lidur va faqirning og‘asining nabirasidir.Faqir uni o‘g‘il chilay asrabmen”, deb ma’lumot bergach, bu bolani og‘osi Shayx Bahlulbekning nevarasi, sevimli shogirdi Husayn Xatmiyning o‘g‘li ekanligini aytadi.Shoir o‘g‘liga atalgan bir maktubida unga bolaligidan to so‘nggi damgacha singgan mehnatlariyu qilgan yaxshiliklarini eslatadi va shu yo‘l bilan uni uzoq safardan qaytarmoqchi bo‘ladi. Xat boshida Mir Ibrohimning qashshoq bir oilada dunyoga kelib, moddiy qiyinchilikda o‘sgani, shoir uni farzandlikka qabul qilib,”chehrasini mazallat tufrog‘idan aritganini” yozadi.So‘ngra haqiqiy ota bo‘lish uchun o‘ziga qat’iy so‘z bergani, o‘g‘liga qattiq mehr qo‘yib, butun hayotini unga bag‘ishlagani va kechayu kunduz uning tarbiyasi bilan band bo‘lganini ta’kidlaydi. “Hayotimni sening tarbiyatingga mash’uf va ovqotimni sening muhofazatingga masruf qildim va farzandlig‘ing raqamini xotirimg‘a muharrrar va otalik mehru shafqatin sening muhofazatingga muqarrar etdim.Oyu yilda bir kun, balki kechalik, kunduzlikda bir soat ahvolingdin g‘ofil bo‘lmadim...” deb yozadi shoir.

Nihoyat farzand barcha ilmlarni teran biluvchi benazir olimu fozil va haqiqiy inson bo‘lib etishadi. Navoiy shogirdining nafaqat ma’naviy, balki jismoniy kamolotiga ham e’tibor beradi.U boshlang‘ich ta’limni olgach otasidan saboq ola boshlaydi.Darsdan so‘ng jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanadi, ot minib maydonga boradi. U erda yigitlar bilan chavgon o‘ynaydi, ot choptirib, kamondan nishonga o‘q otish kabi musobaqalarda qatnashadi.

Tariqat va uning maktablariga qarshi bo‘lgan mutaassib ruhoniylar, shoir tanqidiga uchragan unsurlar fitna-fasod gaplar bilan Mir Ibrohimni ham shoirdan sovutish va uzoqlashtirishga harakat qiladilar.Mir Ibrohim o‘zi va otasining pokligiga ishonsa-da, quruq tuhmatlarga chidayolmay mayga ruju’ qo‘yadi.

Mast chiqdi, yana ul qotili bebok yigit,
Chok aylara ko‘ngillar yoqasin chok yigit.

Shoir Mir Ibrohimni kuchli nazorat ostiga olgach, u Navoiy xonadonini tark etib, o‘z uyiga qaytadi va ichishni davom ettiradi.Shoir Astroboddan qaytganida o‘g‘lini batamom sarxush holatda ko‘radi. Uni bu yo‘ldan qaytarish uchun har qancha harakat qilmasin, foydasi bo‘lmaydi.Mir Ibrohim shoirdan yo‘l harajatlari uchun mablag‘ olib yana yo‘lga otlanadi.Ammo foydali mehnat bilan shug‘ullanmaydi.Navoiy o‘g‘lining noyob iste’dodini va otaning bir necha yillar davomida qilgan mehnatlarini uvol qilganidan qattiq ranjiydi. “U farzandlarini dushmanga aylanganidan qattiq iztirob chekadi va dard alamini zo‘rligidan Hoji Muhammad va Mir Ibrohim nomlarini “Majolis-un – nafois”ning 1491 yilgi nusxasidan tushirib qoldirib, 1498 yilgi nusxasida qayta tiklaydi.”[M.Maxmud.”Yana Navoiyni o‘qib”, T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011. 65-bet]

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Hazrat Navoiy shogirdlarini ota sifatida tarbiyalab, kamolga etkazishga harakat qilganligini, bu boradagi qiyinchiliklar va iztiroblarni bir ota sifatida jimsmi jonidan o‘tkazganligini ibrat sifatida qabul qilishimiz lozim.Shoir aytadi:

Gahi ko‘rdim falakdin notavonlig‘,
Gahi ko‘rdim zamondin komronlig‘,
Base issig‘-sovug‘ ko‘rdum zamonda.
Base achchig‘, chuchuk tortdim jahonda.

Navoiy yuksak ijodiy orzusi amalga oshganidan behad sevinadi.Kelgusi avlodlar buni asarlarimdan o‘qurlar va eslarlar deb umid qiladi:

Toki Navoiy chekti raqam ishtiyoqi yor,
Shoyadki bo‘lg‘ay bir kun elga hikoyatim...

Ollohga shukrki, har birimizning xonadonimizda Navoiyning hech bo‘lmaganda bitta asari mavjud va undan bahramandmiz.Hammamizga Navoiy ibratlari o‘laroq yashamoq nasibi ro‘zi aylasin, inshalloh.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. Т., Ўз МЭ нашр. 2011.

2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. Т., Ўз МЭ нашр. 2011. 3. Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979.

4. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 2018.

5. Муҳаммаджон Махмуд .“Яна Навойни ўқиб”.Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2011.

6. Бердак Юсуф. Мумтоз адабий асарлар луғати. 2010.

7. Бобоева Т. Шеър илми таълими. Т.: “Ўқитувчи”, 1996.

8. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. Т.: “Адолат”, 2004.

9. Воҳидов Р.Ж., Эшонқулов Ҳ.П. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Т.: 2006.

TILDA “SHAXS OMILI” TUSHUNCHASINING IFODALANISHI (lisoniy sathlar uyg‘unligi aspektida)

Umidjon Yigitaliyev,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilda shaxs omili tushunchasi antroposentrik paradigmaning kognitiv-verbal tadqiq usuli yordamida o‘zbek tilining barcha sathlari uyg‘unligida voqelanishi masalasi tadqiq tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: til, shaxs, tushuncha, antroposentrik paradigma, konsept, assotsiativ-verbal tadqiq, lisoniy sath,

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос о понятии личностного фактора в языке в гармонии всех уровней узбекского языка с использованием когнитивно-вербального метода исследования антропоцентрической парадигмы.

Ключевые слова: язык, личность, концепт, антропоцентрическая парадигма, понятие, ассоциативно-вербальное исследование, лингвистический уровень.

Annotation

This article analyzes the issue of the concept of the personal factor in language in harmony of all levels of the Uzbek language using the cognitive-verbal method of research of the anthropocentric paradigm.

Key words: language, personality, concept, anthropocentric paradigm, notion, associative-verbal research, linguistic level.

Til odamning muhim atributlaridan biridir. Bu inson o‘zini anglagandan beri tilni odamning hayondan farqlovchi belgilaridan biri sifatida uqqanligi bilan isbotlanadi.

Mir Alisher Navoiy bu holatni “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida shunday sharhlaydi:

Ey so‘z ila qilgan ofarinish og‘oz
Insonni aroda aylagay mahrami roz
Chun kun faya kun sahfasiga bo‘ldi tiroz
Qilg‘on ani nutq ila baridin mumtoz[10.].

O‘tgan asrning so‘nggi choragida yuzaga kelgan antropotsentrik paradigma qator fanlar tadqiqot yo‘nalishining o‘zgarishiga olib keldi. Jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, mantiqshunoslik, madaniyat-shunoslik kabi fanlarda til, adabiyot, ruhiyat, mantiqni tekshirishda, xalq milliy-madaniy qadriyatlarini o‘rganishda ***inson omili*** muammosi markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Tilda *inson omili* muammosini tekshirish tadqiqotchilar e’tiborini til sistemasini undan foydalanuvchi so‘zlovchi shaxsi bilan uyg‘unlashgan holda o‘rganishni taqozo etdi. Tilni o‘rganishga bunday yondashuv uni real kommunikatsiya sharoitida tadqiq etishga olib keldi. M.Salomatina bu holatni hozirgi kommunikativ lingvistikada “shaxsning personallashuvi” bilan izohladi[7:3].

Antropotsentrik aspektda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda lisoniy birliklar sof grammatik qonun-qoidalar asosida emas, balki turli fanlar hamkorligida *inson omili* bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Jumladan, til birliklarini kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish orqali lisoniy hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida tilda inson omilining o‘rni masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlarda inson omilining barcha fanlar, shu jumladan, tilshunoslikning ham o‘rganish predmeti ekanligi g‘oyasi ilgari surildi[8.46]. Shuningdek, turli tillarda “odam” yoki “shaxs” kontseptining ifodalanishi[3:25], xususan, shaxsning *baho* sifatlarini ifodalovchi maqollar, zoonimik va fitonomik[3:45] leksik birliklar orqali voqelanishi masalasini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi[4:]. Albatta, kontsept mental tuzilma bo‘lsa-da, uning moddiylashuvi bevosita lison bilan bog‘liq, shu bois kontseptni inson ongi va til tizimi o‘rtasidagi hamkorliklikning mahsuli sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan asrda o‘zbek tilshunosligida ham tilda *shaxs kategoriyasi* muammosiga munosabatlar bildirildi. Xususan, tilda shaxs otlarining ifodalanishi, yasalishi, semantik xususiyatlari, shaxs aktantining sintaktik sathda voqelanishi masalasi leksik-semantik, derivatsion, sintaktik va stilistik aspektlarda tadqiq etildi. Biroq tilshunosligimizda “til egasi” (inson)ning *shaxs* sifatidagi xususiyatlari (ruhiyati, kasb-kori, assotsiativ tafakkuri, jinsi, ijtimoiy mavqei kabilar)ning tilda aks etishi masalasi, “odam” “shaxs” kontseptining o‘zbek tilida voqelanishi, *lisoniy shaxs,* lisoniy shaxsning nutqiy muloqot jarayonidagi o‘rni, *lisoniy shaxs tiplari* muammosi yetarlicha tadqiq etilmadi.

Ma’lumki, tilning vazifasi aloqa-aralashuv vositasi sifatida quruq axborotni uzatishdan iborat bo‘lmasdan, kommunikativ muloqot elementlari, ya’ni so‘zlovchining muloqot maqsadi, uzatilayotgan axborotning sifati, adresat tomonidan qabul qilib olinishi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, muloqot amalga oshgan vaziyat kabilarni ham qamrab oladi. Bu o‘rinda axborotning qay tarzda uzatilayotgani va tinglovchining axborotni qabul qilib olishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra til inson tafakkuri va hayot tajribalarining lisoniy verballashuvi, kishilar o‘rtasidagi hamkorlikdagi faoliyat mahsuli deb qaralmoqda.

Fanda kishilarning o‘zaro nutqiy muloqoti keyinchalik alohida tadqiq yo‘nalishi – *diskursiv yondashuv*ning maydonga kelishiga zarurat tug‘dirdi.

D.Xudoyberganova K.F.Sedovning diskursiv tahlil borasidagi qarashini qayd etar ekan, shaxs omilini o‘rganish, eng avvalo, ongli tarzda nutq yaratish va idrok etish bilan bog‘liqdir[9.26].

N.Mahmudov tilda *inson omili* muammosi xususida fikr yuritar ekan, “Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi”, -deb ta’kidlaganida bu muammoning qanchalik murakkabligini e’tirof etgan edi[3:78].

Anglashiladiki, tilda inson omili muammosi tadqiqotchidan tildan foydalanuvchi ***shaxs***ga xos xususiyatlarning tilda voqelanishini aniqlashdek murakkab vazifalarni o‘rganishni taqozo etadi. Negaki, tilshunoslikda *shaxs* tushunchasi, birinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning natijasi sifatida qaralib, kishining *kasbiy, ijtimoiy, jinsiy, yosh, irqiy, etnik, diniy, huquqiy* va boshqa munosabatlari natijasida ro‘yobga chiqadi.

Tilda inson omili muammosini kontseptual tadqiq etishda kontseptning til vositalari orqali ifodalanishi masalasini o‘rganish muhim o‘rin tutadi[2:35].

Kontsept antropotsentrik paradigmaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi zamon tilshunosligida kontseptning ifodalanishi xususida deyarli fikrlar bir xil. Chunonchi, kontsept lisoniy tizimda, asosan, leksik hamda leksik-frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyot bosqichida sintaktik kontseptlar haqidagi nazariy qarashlar, monografik tadqiqotlar ham maydonga keldi[3:78].

Kontseptning tub mohiyatida ***shaxs*** omili yotar ekan, u tafakkurning ifoda vositasi – tilning barcha sathlarida til vositalari orqali bevosita yoki bilvosita voqelanishi, shubhasiz. Jumladan, nutq tovushi ma’no ifodalamaydi, biroq ma’noni farqlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, muayyan nutq sharoitida “shaxs” kontseptining verballashuviga ham xizmat qiladi. Til egasi nutqida kuzatilgan o‘ziga xos nutq tovushi bevosita “shaxs” kontseptiga assotsiativ tarzda ishora qila oladi.

Ilmiy faraz nuqtai nazaridan fonetik-fonologik sathda “shaxs” kontseptining voqelanishini aniqlashda bevosita fonemalarga berilgan ta’riflarga suyanish ham mumkin. Hozirgi davr tilshunosligida fonemaga berilgan yuzlab ta’riflar mavjud.[8:18]. Chunonchi: “...fonema tildagi ma’nodor birliklar – *so‘z* va *morfema*larni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, o‘zi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan birligidir”[1:46]. “Fonema – til moddiy tomoni (substatsiyasi)ning eng kichik birligi bo‘lib, aloqa quroli uchun ahamiyatli bo‘lgan farqlovchi fonologik belgilarning barqaror yig‘indisidir”[5:26]. “Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi”[6:46]. “So‘z, so‘z formalari va morfemalarni tashkil etuvchi va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmovchi til birligi fonema (grekcha *phone* – tovush, ovoz ma’nosida) deyiladi. Masalan, *til – tol, kel – kul* so‘zlari unli fonemalar yordamida farqlanadi”[4:4].

Umuman olganda, bu xildagi ta’riflarni ko‘plab keltirish mumkin. Bundan asosiy maqsad mana shu ta’riflar asosida fonologik tizimda “odam” lisoniy kontseptining assotsiativ voqelanishi ko‘lamlarini ochish. Agar yuqorida qayd etilgan ta’riflarga e’tibor qaratilsa, har bir ta’rifda *“ma’no farqlashga xizmat qiluvchi”* degan differentsial belgiga duch kelamiz. Bundan shunday hukm chiqarish mumkinki, faqat *shaxs*gina ma’noli, sotsial ahamiyatga molik bo‘lgan nutq tovushlarini hosil qila oladi. Demak, *“ma’no farqlashga xizmat qiluvchi”, “nutq tovushi”* tavsiflari bevosita *shaxs*ga ishora qilib turadi. Chunki nutq ijtimoiy hodisa bo‘lib, u orqali faqat odamlarga nisbat beriladi.

Adabiyotlar

1.Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.:O‘qituvchi, 1990. – 146 b.

2. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. –Л.: Наука, 1974. – 451 с.

3.Yigitaliyev U.S. O‘zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi (Monografya). –Toshkent: “Lesson press”, 2023. – 130 b.

4.Yigitaliyev U.S., Umidjanov Sh. U. The role of the concept "man" in the functional-semantic and assotciative-verb expression of the forms of the category of cases (on the example of Uzbek-language sources) // Journal for Educators,Teachers and Trainers, Vol. 14 (5) 18-22 / DOI: 10.47750/jett.2023.14.05.004

5. Ne’matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 94 b.

6. Nurmonov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 46 b.

7. Саломатина М.С. “Коммуникативная личность филолога”: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Воронеж, 2005. –С. 13.

8.Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Наука,1960. –С.18.

9.Xudayberganova D. S. O‘zbek tilida badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol.fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2015. – B.6 (-54 b.)

10.https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Muhokamatul%20lug‘atayn.pdf

MATNNING ASSOTSIATIV MAYDONINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

(A.Oripovning “Ayol” she’ri misolida)

G‘afforjon Ro‘zmatovich Rahmonov,
Qo‘qon universiteti dotsenti, (PhD)
gafforjon1968@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezis matnning assotsiativ maydonini shakllantirish tartibini A.Oripovning “Ayol” she’ridan olingan misra oraqali keng, atroflicha ilmiy nuqtayi nazardan yoritib berilgan. Undan tashqari, mazkur ilmiy manbada badiiy matnni assotsiativ maydon nazariyasi aspektida o‘rganishda matnning leksik-semantik strukturasiga tayanib ish olib boorish haqida batafsil ma’lumotlar ham berilgan.

Kalit so‘zlar:derivatsion baza, inson xotirasi, assotsiativ birliklar, til sohiblari, assotsiativ tajribalar, assotsiativ maydon, struktur jihat, leksikografik

xususiyat, inson ongi, voqelik, verbal ifodasi, tasavvur, semantik va grammatik munosabat.

Аннотация

В данной диссертации на примере строки из стихотворения «Аёл» А. Орипова подробно рассматривается процесс формирования ассоциативного поля текста с научной точки зрения. Кроме того, в этом научном источнике представлена подробная информация о том, как изучать художественный текст в аспекте теории ассоциативного поля, опираясь на его лексико-семантическую структуру.

Ключевые слова:деривационная база, человеческая память, ассоциативные единицы, носители языка, ассоциативные эксперименты, ассоциативное поле, структурный аспект, лексикографическая особенность, человеческое сознание, действительность, вербальное выражение, представление, семантические и грамматические отношения.

Abstract

This thesis examines the process of forming the associative field of a text through an example from A. Oripov’s poem “Ayol” from a broad, detailed scientific perspective. Additionally, this academic source provides comprehensive information on studying literary texts within the framework of associative field theory, based on their lexico-semantic structure.

Keywords: derivational base, human memory, associative units, language speakers, associative experiments, associative field, structural aspect, lexicographical feature, human consciousness, reality, verbal expression, representation, semantic and grammatical relations.

Tilshunoslikda biror til birligi, ya’ni derivatsion bazaga nisbatan inson xotirasida tiklangan, bir-birini yodga tushiruvchi birliklar *assotsiativ birliklar* sifatida e’tirof etiladi. Til sohiblari ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribalar asosida hosil qilingan bunday birliklar majmui *assotsiativ maydon* deb ataladi. Masalan, “urush” derivatsion bazaga nisbatan inson xotirasida qon to‘kish, jarohat, vayronalik, bevalar, etimlar, majruhlar, tanazzul, inqiroz, mag‘lubiyat, g‘alaba, xoin, qahramon va hakazo kabi assotsiativ birliklarlar birlashib assotsiativ maydonni tashkil etadi.

“Entsiklopedicheskiy slovarь”da qayd etilishicha, “*Assotsiativ maydon* – bu inson ongida shakllanuvchi tasavvurlar va u bilan bog‘liq tushunchalar, so‘z, til birliklari guruhi majmuidir” [1.840].

D.Lutfullayeva assotsiativ maydonning ongdagi bilim va tasavvurlarni namoyish etuvchi birliklar ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “*Assotsiativ maydon* – struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir”[2.58].

Ta’rifdan ma’lum bo‘ladiki, inson tasavvurlari va bilimi bilan bog‘liq holda o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar majmui bo‘lgan assotsiativ maydon turli sath birliklarini qamrab oladi. Uning tarkibidan nafaqat leksik-semantik birliklar, balki grammatik va fonetik birliklar ham o‘rin oladi.

Assotsiativ maydon so‘zlarning assotsiativ ma’nosini tekshirishda, tilning leksik tarkibi, undagi o‘zgarishlarni aniqlashda, leksik birliklarning o‘zaro paradigmatik, sintagmatik aloqasini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Yu.N.Karaulov assotsiativ maydonni o‘rganishning ahamiyati haqida quyidagilarni ko‘rsatgan edi: 1) derivatsion baza va javob reaktsiyasining birikuvidan tashkil topgan har qanday so‘z birikmasi nutqiy model sifatida ko‘rilishi mumkin, demak, assotsiativ maydon so‘z birikmasi bo‘yicha o‘quv topshiriqlari, mashqlarni tuzishda manba vazifasini bajaradi; 2) ikki so‘zli modellar to‘liq gap uchun qurilish materiali hisoblanadi; 3) assotsiativ maydondan o‘rin olgan birliklar majmuidagi boy axborot ko‘pqiymatli derivatsion bazaga xos barcha ma’nolarning ro‘yobga chiqishini namoyish etish, uning sinonimik, antonimik, paronimik, omonimik va boshqa munosabatlarini aniqlash imkonini beradi; 4) assotsiativ verbal tarmoq nafaqat leksik va grammatik, balki kognitiv va pragmatik ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi, assotsiativ maydon strukturasi, unda yadro va chegara qismlarning ajratilishi esa rus lisoniy shaxsini o‘rganish uchun materiallarni taqdim etadi[3.218].

Anglashiladiki, assotsiativ maydon nutq yaratilishi, xususan, so‘z birikmasi, gapning hosil bo‘lish mexanizmini tadqiq etishda, so‘zga xos ma’nolarni aniqlashda, matnda lisoniy shaxs, unga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Assotsiativ tilshunoslikda assotsiativ maydon, asosan, 2 xil usulda shakllantiriladi: 1) til egalari ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajriba usuli. Bunday tajriba ko‘p sonli til egalari ustida o‘tkaziladi. Bunda til egalaridan ma’lum bir vaqt ichida o‘qib eshittirilgan derivatsion baza bo‘yicha xotirasiga kelgan birinchi so‘zni yoki so‘z birikmasi, gapni tarqatilgan anketaga yozish so‘raladi. Bu tajriba og‘zaki ravishda o‘tkazilganda sinaluvchining derivatsion bazaga bergan birinchi javobi tajriba o‘tkazuvchi tomonidan diktofonga yozib olinadi. So‘ngra barcha natijalarni jamlash asosida assotsiativ maydon shakllantiriladi; 2) tayyor matnning

assotsiativ maydonini belgilash usuli. Ushbu usul yozuvchi, shoir yoki boshqa shaxslar tomonidan yaratilgan matnlarni ular ishtirokisiz ham assotsiativ maydonlarini hosil qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu usulda matn tarkibida qo‘llanib, derivatsion baza bilan assotsiativ-semantik bog‘langan barcha til birliklari, ular so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklida bo‘lishi mumkin, ajratilib assotsiativ maydonga birlashtiriladi. Matnning assotsiativ maydoni uning egasi ifoda etmoqchi bo‘lgan mazmun, xulosa haqida oldindan tasavvur hosil qiladi. Matn egasining tasvir ob’yekti haqidagi bilimlari, tasavvuri va leksikoni haqida ma’lumot beradi.

Tilshunoslikda badiiy matnning assotsiativ maydonini shakllantirishning bir qancha usullari ko‘rsatilgan. Mashhur rus tilshunosi Yu.N.Karaulov “DE” operatsiyasi deb nomlangan matnning assotsiativ maydonini belgilash metodikasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra dastlab matn bir qancha mustaqil parchalarga ajratiladi, ya’ni dekompozitsiyalashtiriladi. Bu parchalar nisbiy mustaqil, ammo bir-biri bilan bog‘langan gipermatn birliklari to‘plamiga aylantiriladi. Keyingi bosqichda bunday gipermatn birliklariga mansub bo‘lgan so‘zshakllari ajratilib, grammatik shaklidan soqit qilinadi, ya’ni degrammatikalizatsiyalashtiriladi. So‘ngra propozitsiyalar to‘plami buzilib yuboriladi (depropozitsiyalanadi) va ularni tashkil etuvchilar turli assotsiativ maydonlarga taqsimlanadi. Oxirgi bosqichda assotsiativ birliklardan shaxs diskursi soqit qilinadi, ya’ni ular depersonallashtiriladi [4.165].

Ko‘rinadiki, “DE” operatsiyasida badiiy matn bir qancha mayda bo‘laklarga ajratilib, uning tarkibidan grammatik shakllardan xoli qilingan derivatsion bazaga nisbatan va o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar ajratiladi.

Mazkur ishda A.Oripovning “Ayol” she’ri assotsiativ maydonini hosil qilishda ikkinchi usuldan foydalanildi.

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.

Sevgidan etim-u umrdan yarim,
Qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko‘mir.

Parishon sochlari yor ko‘ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o‘tdilar, hamon u yolg‘iz,
Mung‘ayib termular botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O‘zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shu cho‘lpon ko‘zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so‘zi deya,
So‘ylang-chi, vafoning nadir qimmati
Siz ham kutganmisiz biror soniya.

Ba’zida tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat.

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo‘yingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi ayol [5].

Quyida A.Oripovning “Ayol” she’rining birinchi to‘rtlik asosida assotsiativ maydonni shakllantiramiz.

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.

She’rning birinchi to‘rtligida takror qo‘llangan so‘z yoki so‘z birikmalari, shoir nutqi qaratilgan predmet, shaxsni bildiruvchi undalma mavjud emas. Biroq she’rning sarlavhasi “Ayol” deb nomlanidan ma’lumki, unda derivatsion bazani she’rning tasvir ob’yekti hisoblangan mazkur sarlavhaga qarab belgilaymiz. She’rda muallifning ayol obrazida sadoqat, vafo haqidagi qarashlari ifoda etilgan. Shu sababli she’rda *Ayol* so‘zini derivatsion baza deb qabul qilamiz.

Ushbu to‘rtlikda propozitsiya ifodalovchi quyidagi konstruktsiyalar mavjud: 1) Yigitlar maktubin bitganda qondan*; 2)* Kelinlar firoqdan chekkanda yohu*; 3)* Uning ham panohi qaytmadi jangdan*; 4)* O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u*;*

Propozitsiya ifodalovchi mazkur konstruktsiyalar tarkibida *ayol* derivatsion bazasi bilan bevosita yoki bilvosita assotsiativ bog‘langan birliklar qo‘llangan. Bu birliklar *ayol* derivatsion bazasi bilan semantik-mantiqiy jihatdan bog‘lanib, matn yaratilishiga xizmat qilgan.

Abdulla Oripovning “Ayol” she’rida umumiy derivatsion baza “Ayol” obrazi bo‘lsa-da, she’rdagi har bir misrada derivation bazani tashkil qiluvchi propozitsiya ifodalovchi konstruksiyalar turlichadir. Tilshunoslikda bizga ma’lumki, propozitsiya atamasi gapda ifodalangan asosiy ma’noni, gapdagi real voqelik to‘g‘risidagi axborotni ifodalaydi. Demak, ushbu she’rning birinchi misrasida “Yigitlar bitganda”, ikkinchi misrasida “Kelinlar chekkanda”, Uchinchi misrasida “Panohi qaytmadi”, to‘rtinchi misrasida “U beva qoldi” propozitsiyalari orqali har bir misradagi derivatsion bazani aniqlashimiz munkin. Unga ko‘ra birinchi misrada “Yigitlar”, ikkinchi misrada “Kelinlar” uchinchi misrada “Panohi”, to‘rtinchi misrada “U” derivatsion bazani, ya’ni turtki so‘zni tashkil qilayapti. Har bir misradagi bu derevatsion bazalar she’rning umuiy derivatsion bazasiga birlashib assotsativ maydonni tashkil qiladi.

Demak, she’rning umumiy assotsiativ maydoni birliklari quyidagicha: ***AYoL:*** yigitlar bitganda, maktubin qondan, kelinlar chekkanda, firoqdan yohu, panohi qaytmadi, uning ham jangdan, beva qoldi u, o‘n to‘qqiz yoshida.

She’rning assotsiativ maydonidan jami 8 ta assotsiativ birlik o‘rin olgan. Ulardan 4 tasi (yigitlar bitganda, kelinlar chekkanda, panohi qaytmadi, beva qoldi u) *ayol* derivatsion bazasi bilan bevosita bog‘langan, 4 tasi (maktubin qondan, firoqdan yohu, uning ham jangdan, o‘n to‘qqiz yoshida) derivatsion baza bilan bilvosita usulda assotsiativ aloqaga kirishgan.

Assotsiativ maydondan 17 ta leksik birlik (yigitlar, maktub, bitgan, qon, kelinlar, firoq, chekkan, yohu, u, panoh, qaytmadi, jang, o‘n to‘qqiz, yosh, beva, qoldi, u) shaklidagi, 5 ta so‘z birikmasi tuzilishidagi assotsiativ birlik (bitganda qondan, firoqdan chekkanda, uning panohi, qaytmadi jangdan, o‘n to‘qqiz yoshida) qo‘llangan.

She’rdagi assotsiativ birliklarning bog‘li aloqasini chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:



Mazkur ishimiz tezis bo‘lganligi uchun faqat bir to‘rtlikni tahlilga tortishni maqsad qildik xolos.

Xullas, badiiy matnni assotsiativ maydon nazariyasi aspektida o‘rganish matnning leksik-semantik strukturasi haqida batafsil ma’lumot olishga imkon yaratadi. Matnning assotsiativ maydoni birliklari tahlili orqali tilning ma’lum davridagi leksik tarkibi, so‘zlarning assotsiativ ma’nosi bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – B 58.

2. Karaulov Yu.N. Russkiy assotsiativnыy slovarь kak novыy lingvisticheskiy istochnik i instrument analiza yazыkovoy sposobnosti // Russkiy assotsiativnыy slovarь. Kniga 1. (Yu.N. Karaulov, Yu.A. Sorokin, Ye.F. Tarasov, N.V. Ufimtseva, G.A. Cherkasova. – M.: Pomovskiy i partnerы, 1994 b.) – S. 191-218.

3. Karaulov Yu.N. Assotsiativnыy analiz: novыy podxod k interpretatsii xudojestvennogo teksta. – M., 1999b. – S. 165.

4. Entsiklopedicheskiy slovarь-spravochnik lingvisticheskix terminov i ponyatiy. Russkiy yazыk: v 2 t. T. 1 / A.N. Tixonov, R.I. Xashimov, G.S.

Juravleva i dr.; pod obщ. red. A.N. Tixonova, R.I. Xashimova. – M.: Flinta: Nauka, 2008. – S. 27. (– 840 s.)

5. Manba https://tafakkur.net/ayol/abdulla-oripov.uz

QATAG‘ON DAVRI VOQELIKLARINING SHUKRULLONING “KAFANSIZ KO‘MILGANLAR” ROMANIDA AKS ETTIRILISHI

Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna,
Qo‘qon DU, dotsent
mukaddassaidakbarova@gmail.com
Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi,
Qo‘qon DU, iqtidorli talaba
robiyaxonsobitova04@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyotining atoqli adibi Shukrullo Yusupov hayoti va ijodiy faoliyati, ko‘plab ziyolilar qatori o‘tgan asrdagi qatag‘on siyosatining qurboniga aylanganligi, surgun yillarining og‘ir dahshati “Kafansiz ko‘milganlar” avtobiografik romani asosida yortib beriladi. Surgunning butun bir millatlar boshiga solgan fojeaviy qismati haqida fikr yuritiladi.

Annotation: the article highlights the life and creative work of the outstanding writer of Uzbek literature Shukrullo Yusupov, the fact that he was not invaluable from the politics of repression in the last cyentury, the harsh horror of the ears of Exile is highlighted based on the autobiographical novel “buriyed without shrouds”. There is a reflection on the tragic part of the exile that he put on the head of a whole nation.

Annotatsiya: V statye rasskazыvayetsya o jizni i tvorcheskoy deyatelnosti vыdayuщyegosya uzbekskogo literatora Shukrullo Yusupova, o repressionnoy politike proshlogo veka, o tyajelom ujase let ssыlki na osnove avtobiograficheskogo romana “poxoronennыye bez Plaщanisы”. Razmыshlyayetsya o tragicheskoy chasti izgnaniya, kotoraya postigla syelыye narodы.

Kalit so‘zlar: Shukrullo Yusupov, qatag‘on, surgun, millatchilik, “Kafansiz ko‘milganlar”, avtobiografik roman, mustabid tuzum.

Keywords: Shukrullo Yusupov, repression, exile, nationalism, “buriyed without shrouds”, autobiographical novel.

Klyuchevыye slova: Shukrullo Yusupov, repressii, ssыlka, nasionalizm, “poxoronennыye bez plaща”, avtobiograficheskiy roman, despoticheskiy rejim.

O‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri, iste’dodli shoir, nosir, dramaturg, publisist va tarjimon sifatida o‘zbek adabiy-badiiy merosida o‘zining salmoqli ijodiy faoliyati bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan Shukrullo Yusupovning

umr manzarasi ijodiy olamiga monand – sabr, ilhom va iztiroblar bilan to‘la bir umid yo‘li bo‘ldi. Adib qariyb bir asrlik hayoti mobaynida to‘qson to‘qqiz bahorni qarshi oldi. Shukrullo Yusupov 1921-yilning 2-sentyabrida Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida tug‘ilgan. Maktab ta’limidan so‘ng pedagogika bilim yurtida, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida, Davlat universititi qoshidagi aspiranturada tahsil olgan. Kasbiy faoliyati davomida turli gazeta va jurnallarda, nashriyotlarda ishlab, o‘qituvchilik ham qildi, Yozuvchilar uyishmasida adabiy maslahatchi sifatida ish olib bordi.

Adib shoir sifatida o‘nlab she’riy to‘plamlar va bir qancha dostonlar muallifi bo‘lsa, nosirlikda o‘zining qissa va romanlari, dramaturg sifatida o‘zbek teatrlarda sahnalashtirilgan bir qancha dramalari, shuningdek, publisistik maqolalari bilan e’tiborga tushgan. Asarlari rus, arab, turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz singari qator tillarga tarjima qilindi.

Ijodkor Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti lauriati (1994). «Do‘stlik» (1994) va «El-yurt hurmati» (1999) ordenlari bilan mukofotlangan. U O‘zbekiston xalq shoiri (1981), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1977), Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotlari bilan taqdirladangan. [5]

Shukrullo ijodiy merosi:

/r	***Shakli***	***Asarlar nomi***
.	She’riy to‘plam	“Birinchi daftar”, “Qalb qo‘shiqlari”, “Hayot ilhomlari”, “Umrim boricha”, “Inson va yaxshilik”, “Inson — inson uchun”, “Bahor sovg‘asi” (1962), “Yulduzlar”(bolalarga bag‘ishlangan)(1964), “Zarralar”(ruboiylar to‘plami) (1973), “Suyanchiq” (1977), “Yashagim keladi” (1978), “Sening baxting”
.	Doston	“Chollar”(yangi erlarni o‘zlashtirishga kirishgan zamondoshlari obrazini yaratgan), “Rossiya”, “Ikki qoya”, “26-tong otari”
.	Roman	“Kafansiz ko‘milganlar” (1989) xotira-romani, “Tirik ruhlar” (1999) (Ubaydulla Xo‘jayev to‘g‘risidagi roman-xronikasi)
	Qissa	“Javohirlar sandig‘i”(1983)

[5] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/shukrullo-1921

.		
.	Drama	“Xatarli yo‘l”, “Tabassum o‘g‘rilari”(1977), “O‘g‘rini qaroqchi urdi” (1984)
.	Tarjima asarlar	Karlo Gotssining “Baxtiyor gadolar” pesasi, Sh. Petyofi, T.Shevchenko, Q.Quliyev asarlari
.	Publisistika	“Qasosli dunyo” (falsafiy maqolalar to‘plami)

Siyosatning qora dahshati boshqa yozuvchi, shoirlar, ijodkorlar, umuman, ziyoli qatlam vakillari qatori Shukrulloning hayotida ham o‘zining ayanchli ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. 1951 yilda O‘zbekiston davlat nashriyotida ishlab yurgan payt “millatchilik” va “sovetlarga qarshi targ‘ibot qilganlik”da ayblanib, hibsga olinadi va 25 yillik qamoq jazosiga mahkum etiladi.

“Bordiyu kimdir menga bu ko‘rgiliklar biron payt ota-onangning dilini ranjitganing, ozor berganing uchun desa, ularning oyoqlariga yiqilib tavba-tazarru qilishga, hatto har qanday jazoga ham rozi bo‘lardim. Ammo o‘z vatanim, xalqimga aslo xiyonat qilgan emasman! Agar shundoq bo‘lganda o‘limimga rozi edim”[6], – deya yozadi adib.

Tergov jarayonida adibga turli xil be’mani tuhmatlardan iborat ayblar qo‘yilib, uni imzo qo‘yishiga, iqror bo‘lishiga majburlanadi. Bulardan ayrimlarini ijodkor o‘zining “Kafansiz ko‘milganlar” nomli avtobiografik romanida shunday eslaydi: “Men xalq dushmani, ashaddiy millatchi, sovetlarga qarshi harakatlari uchun qamalib ketgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosirlarning millatchilik, hayotimizdan nolishdan iborat, pessimistik asarlarini sevib o‘qib, ularning millatchilik, sovet davlatiga qarshi, tuhmatdan iborat g‘oyalarini o‘tirishlarda tanishlarim orasida bilim yurtida o‘qigan davrimdan targ‘ib qilib kelganman” kabi mutlaqo tuhmatdan iborat, o‘ylab topilgan uydirmalardan iborat gaplarni o‘qidim.”[7]

Jazoni Sibirdagi lagerlarda o‘tagan Shukrullo Stalin o‘limidan so‘ng ozod etiladi va oqlanadi. Yillab ma’naviy va ruhiy, jismoniy qiynoqlarda ezilgan, dunyoda adolat bir kuni, albatta, qaror topishiga ishonib, turli qamoq va lagerlarda surgunlik va tutqunlikka sabr qilib kelgan shoir o‘z ona vataniga qaytganidan so‘ng, ruhiy tushkunliklar ta’siriga qaramasdan o‘zining ijodkorlik faoliyatini to‘xtatib qo‘ymaydi, aksincha, lirika bilan bir qatorda nasriy va dramatik janrlarga ham qo‘l uradi. Turkiston ziyolilarining ayanchli taqdiri, qorong‘u kunlari, darbadarlik va sargardonlikda, surgun yillaridagi og‘ir mehnat sharoitida, xo‘rlik

[6] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.11-b.
[7] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.50-b.

va jabr- zulmlar iskanjasida kechirgan azob-uqubatli hayotiga sabab bo‘lgan Sovet hukumati siyosati, uning “millatchi”, “bosmachi”, “vatan xoini”, “chet el josusi”, “xalq dushmani” kabi asossiz “unvonlari” ga musharraf bo‘lgan XX asr ma’rifatparvar ziyolilari va ularning keyingi avlodi hisoblangan 30 - 40 - yillarning adabiy vakillari, zamonaning “beayb aybdorlari” hisoblangan siyosat qurbonlari, ularning yaqinlari, farzandlarining qora kechmishiga shunchaki ko‘z yummasligi, bu davrning asl yuzini ko‘rsatib berishni o‘zining kasbiy burchi ekanligini anglagan Shukrullo o‘z boshidan kechirgan voqealari asosida bir asar yaratishni ko‘ngilga tugadi va yillar o‘tib bu maqsadini amalga oshiradi. Yozuvchi ushbu asarini 1951-yilda yozishni boshlaydi va 1989-yilda “Kafansiz ko‘milganlar” nomi ostida o‘z taqdiri misolida avtobiografik romanni yozib tugallaydi. Yurtimiz mustaqillikka erishgachgina, 1991-yilga kelib, roman “Adabiyot va san’at” nashriyotida chop etiladi. “Kafansiz ko‘milganlar” asari Şuayip Karakaş tomonidan turk tiliga tarjima qilinadi.

Asar so‘zboshisida roman haqida shunday deyilgan: “Boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklarini, to‘g‘rirog‘i, xo‘rliklarini eslash insonni yana bir karra og‘ir azobga ro‘baro‘ qiladi. Uni yozish esa... Qatag‘onlik davri tasviri, undan ham og‘iri - o‘zining «xalq dushmani» deb ayblanishi haqida yozish, mahbusligini eslash, qamoq voqealari, lager hayoti, so‘zsizlik... bularning haqqoniy tasviri Shukrulloning «Kafansiz ko‘milganlar »ida yaqqol ifodalangan. Asarning yana bir ahamiyatli jihati - uning mazkur mavzudagi yagona asarligida. Ushbu xotira-roman o‘quvchiga qatag‘on davri haqida tirik lavhalarni namoyish etadi.”[8]

Bu romanda Turkiston ziyolilarining, umuman, Turkiston xalqining eng qorong‘u kunlari haqida hikoya qilinadi:

„Bu asar ozod Turkiston yo‘lida qizillarning o‘qlariga nishon bo‘lgan „Kafansiz ko‘milganlar“ – „Tirik ruhlar“ – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘ozi Yunus o‘g‘li, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo‘jayev kabi ma’sum va mazlum millionlarning aziz xotiralariga bag‘ishlanadi…“

Romanda qatag‘on davrining dahshati bir necha odamlar taqdiri asosida yoritib beriladi. Sobiq ittifoqi rahbarlarining xalq orasida har qanday erkin fikrli, o‘qimishli, so‘z erkinligiga ega, mustaqillik va erkka intiluvchi ilm ahllarining ildizini quritish, millatni qoloqlikka, erksiz tobe’likka, millatni butun boshli o‘tmishi, tarixidan mosivo qilish yo‘lida o‘ylagan rejalarini bir ma’noda amalga oshirganligi, shuningdek, adolatsiz tuzumning insonlarning qon-qonigacha singitib yuborgan ishonchsizlik, umidsizlik hissi, loqaydlik, beparvolik, zo‘ravonlik, xoinlik kabi illatlari kishilar kechmishi zamirida o‘z ifodasini topadi.

[8] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.5-b.

Roman davomida asli haqiqat, adolat nima-yu kimlar haq, kim nohaqligi, kimlar adolatga munosibligi-yu, lekin qay ahvolda qolgani, hammasi ham so‘zlangani kabi chin, ko‘rilgani kabi to‘g‘ri bo‘lmasligi haqidagi muallifning qarashlari bayon etiladi.

Yozuvchi romanda shunday yozadi:

“ - Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir degan yozuvchilarni eshitganmisan? Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromovdek buyuk rahbarlarni-chi? Ularni kim otgan? Nega? Bilasanmi?.. Mana yoningda o‘tirgan Shukrullo «xalq dushmani» bo‘lib, necha yilga hukm qilingan, necha yil qamoq lagerlarida o‘tirib chiqqan, bunga ham ishonmaysanmi? Bir necha o‘limlardan qanday qilib qolgani, xo‘rliklarini eshitganmisan?

Yigit elka qisdi.

Nahotki hozirgi bu avlod buyuk iste’dod, bilim sohiblari bo‘lgan bobolarining vatanga, xalqiga xoinlikda ayblanib otilganiga ishonib kelgan bo‘lsalar! O‘tirganlardan biri bu avlod qonli tarixini bilib qo‘ysin, gapiring, degandek menga qaradi. Aytib bering, deyish oson. Har qanday dahshatli, fojiali voqealarni ham ertak eshitgandek eshitish mumkin. Ammo qamoqlarda tilka-pora bolgan bu yurak, qaqshagan bu asablar tuhmat va haqoratlar azobini qayta xotirlashga endi bardosh bera olarmikanlar![9]

Asar davomida muallif keltirib o‘tgan obrazlarning har biri real voqeliklarga asoslangan, haqiqatda mavjud shaxslar bo‘lib, muallif bilan bir davrda yashab o‘tgan tarixiy shaxslar timsoli sifatida gavdalanadi. Roman markazidagi bosh qahramon muallifning o‘zi va uning atrofidagi epizodik obrazlar: yaqinlari, oila a’zolari, surgun yillarida ma’lum sabablarga ko‘ra muallif bilan hamsuhbat bo‘lgan shaxslardir. Roman boshida muallifni tergov uchun qamoqqa olib o‘zining aybsizligini o‘ylab, bu adolatizliklar uning yoshlik chog‘laridanoq sodir bo‘lib kelishi, esini taniganidan buyon xavf-xatar ichida hayot kechirishi, mahallasining Mamanbey ismli g‘alamis “ ayg‘oqchi komissiyasi” sababli otasining ayblov bilan olib ketilishi, bu kimsa ko‘plab beayb kishilarning qamalishiga, quloq qilinishiga, surgun bo‘lishiga sabab bo‘lgani va oxir oqibat o‘zi ham urush yillarida “ortiqcha zoborniy olib sotish”da aylanib qamalishi va qamoqda necha xo‘rliklar bilan o‘lib ketganligini yodiga oladi. Uyida yig‘i - faryodlari bilan qolgan xotini va farzandlari, opasi haqida, ularning kelajagi haqida qayg‘urar ekan, xotinining bolalik chog‘larida ham dunyodan ro‘shnolik ko‘rmagani, olti yoshida otasi quloq qilinib, uzoq bir shaharga oilaviy surgun qilinganligi, u erda ota-onasidan ayrilgani, hozir esa bu ayolning uch farzandi bilan yolg‘iz o‘zi qolganli, bunday

[9] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.12-b.

ahvolga tushib ezilgan oilalar qanchadan qancha ekanligini o‘ylab, “qamoqdagi birdan bir hamrohi xayol” bilan dunyoning adolatsizligidan dardlashadi.

“Tergovchining, sen hayotimizdan noligansan, menga qayg‘uli she’rlar yoqadi degansan, deb qo‘ygan aybnomasiga javoban bu gaplarim haqmi, tuhmatmi, mendan emas, yigirmanchi yillarning oxirida begunoh quloq qilinib, o‘z yurtidan judo bo‘lgan, xazondek to‘zib, 1932 - 1933-yillarda ochlikdan ko‘chalarda shishib o‘lganlardan so‘ra! Yo‘q, faqat bulardan emas, 1937-yillarda qatl etilgan minglab, millionlarning faryod urgan ruhlaridan, tirik etim qolgan farzandlaridan so‘ra, ular rozimikan? - degim kelardi. Ammo aytib bo‘larmidi? Bordi-yu bu gaplarimga ishonmasang, bunday azob-uqubatlar, nohaqliklarni o‘z boshidan kechirgan xotinimdan so‘ra, degudek bo‘lsang - o‘sha kuni xotiningni ham xalq dushmani deb yoningga olib kelishlari muqarrar edi.”[10]

Qamalganlar orasida ilm ahllari, shoir va yozuvchilar, tanqidchi olimlar aka-uka Abdurahmon, Abdunabi Alimuhammedovlar, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliy, Meli Jo‘ra, shuningdek, o‘sha davrdagi Qozog‘iston gimni muallifi Qayum Muhammadxonovlar bilan birgalikda partiyaga jon-jahdi bilan yillab xizmat qilib kelgan, biroq qanaqadir ayblar qo‘yilib, shuncha mehnati evaziga umrining so‘ngini qamoqda, surgunlarda o‘tkazayotgan partiyaning keksa hodimlari, generallar, huquqshunoslar ham anchagina edi. Xususan, 50-60 yoshlardagi Raim ismli sobiq partiya xodimi, Tojixon Shodiyeva ismli ayol, kommunistik partiya a’zosi toshkentlik Nasriddin Xo‘jayev, “Inqilobning birinchi yillaridayoq otilib chiqib partiyaga kirganlardan, Endi haqiqiy ozodlikka erishdik, butun orzu-umidlarimiz endi ro"yobga chiqadi, deb, yigirmanchi, ottizinchi yillarda joni-jahdi bilan jonbozlik ko‘rsatganlardan. Mana endi elkasida ko‘rpa-yostiq bilan kirib kelib, men bilan zixi pachoq mis toboqda bo‘tqa emoqda”,[11] muallifning xolasining o‘g‘li huquqshunos Ubaydulla Xo‘jayev, partiyadan baxt topaman deb xorlikda o‘lgan tog‘asining o‘g‘li Bahovuddin “Jasadini olib kelishganda kiyimlarining cho‘ntagidan bitta besh so‘mlik, bitta uch so‘mlik g‘ijimlangan pul chiqdi. Ta’na emas, axir tobutini o‘rashga uyidan 4 metr surp chiqmadi. Bobosi Zaynuddin maxsum o‘lganda tobutga yopilgan mallani xaloyiq tabarruk deb yirtish qilib olgan bo‘lsa, tobutini butun shahar ko‘tarib ketsa-yu, davlat xizmati uchun jonini ayamay, mol-u mulk, qarindosh - urug‘ demay xizmat qilgan bu odamni o‘z shahrida musofirdek mahallaning besh-o‘n odami olib borib joyiga tiqib kelsa!”

Shuningdek, ikkinchi jahon urishida mardlarcha ishtirok etib, o‘z fidoiyligini ko‘rsatgan insonlarning “vatan xoini”, “josus” deb atalishi fojea edi. Jazoga hukm qilinganlar orasida aqlga sig‘maydigan darajada ahmoqona ayblar bilan

[10]Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.24-b.
[11] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.59-b.

qamalganlar ham anchayin topilar edi. Masalan, qizil va qora xo‘rozni urishtirishayotgan paytda 70 yoshlarlardagi keksa bir cholga “Kimning xo‘rozi engadi, qizilimi, oqimi, sen qaysi birining tarafdorisan?” - degan so‘roviga: “Ko‘rinishdan qizilga qaraganda oqi zo‘rroq ko‘rinadi, oqi engadi, men oq tarafdoriman”, - degan gapni aytgani bo‘libdi. Uning bu gapidan tergovchi o‘zicha xulosa chiqarib: “Haqiqatan ham Xorazm shohi Junaydxonga mening xeshligim bo‘lgani rost, shuning uchun ham men xo‘roz urishtirish paytidan foydalanib qizillardan, ya’ni sovet hukumatidan ko‘ra oq poshsho yaxshi edi, bir kunmas bir kun oq poshsho engadi, demoqchi bo‘lganman”, deb yozib, undan qo‘l qo‘yishni talab qilgan” ligi haqidagi aybnomalarni eshitib, kishi hayron bo‘lmay iloji yo‘q.

Shuningdek, maktabdagi hali balog‘atga etmagan bir bolaning siyosiy mahbus sifatida qamallishi, bunga sabab esa “Birdan bir dardkashim siyosiy ayb bilan qamalgan 20 yoshlar chamasidagi yigitcha bo‘lib qoldi. Bu bechora qishloqi yigitning gunohi, xalq dushmani bo‘lib qamalishiga sabab o‘rta maktabda shanbalik qilingan kuni Stalinning byustini bir joydan ikkinchi joyga qo‘yaman deb ko‘tarib ko‘rsa, nihoyatda engil unnab, juda engil ekan, kallasining ichi bo‘sh ekan, degan bir og‘iz to‘g‘ri gapni aytgani bo‘libdi. Keyinchalik bir sabab bilan oralari buzilib qolgan maktabdoshlaridan qaysi biri bu gapni tegishli joylarga malum qilib, KGB qoshidagi maxsus komissiyaning qarori bilan xalqlar dohiysini masxaralash, unga tuhmatda ayblanib o‘n yil ozodlikdan mahrum etilibdi. Bu voqea yuz berganda u hali balog‘atga etganmi, etmaganmidi? Nahotki, bu bola sho‘rlikning Stalinda qasdi bo‘lgan bolsa!”[12]. Mafkuraning chirkin “qatli om” sifati ayni o‘rinlarda ochib berilgan.

Shukrullo uchun qo‘yilgan yana bir ayblov elpig‘ich haqidagi aytgan latifasi bo‘lib, kishini taajjublantirmay iloji yo‘q. Muallif kolxoz raisining uyiga sovg‘a tariqasida ikkita elpig‘ich olib boradi, rais uni ishlatayotganida sochilib ketadi va buni shoirga hazilomuz qilib aytib beradi. “Shuning uchun ertasiga elpig‘ich sotgan do‘kondorga uchrashib, voqeani aytdim. Gapimni eshitgan do‘kondor: - Aka, elpig‘ich sochilib ketgan bolsa, bizda ayb yo‘q, elpig‘ichni tuta bilish kerak, qani, qanday qildingiz, ko‘rsating-chi, - deb so‘rab qoldi. Men elpig‘ichni olib o‘zimni qanday qilib elpiganimni aytdim. U esa: - Mullaka, elpig‘ichni tutishni bilmapsiz, elpig‘ichni bunday tutmaydi. Sizga o‘xshab elpig‘ichni ochib elpisa, albatta, sochilib ketadi, bu ahvolda sizga bir kunda o‘nta elpig‘ich ham kamlik qiladi. Yelpig‘ich sochilib ketmasin desangiz, elpig‘ichni ochib mana bunday qilib qo‘lingizda tutib uni qimirlatmasdan kallangizni o‘zini ikki yoqqa qimirlatsangiz elpig‘ich sochilib ketmasdi... Ha, akajon, elpig‘ichni tuta bilish kerak, dedi jiddiy. Awaliga gapiga jiddiy quloq solib, keyinchalik bu andijonliklarning mehmonlarga

[12] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.116-117-b.

qilgan hazili ekanini anglagach, rosa kulishdik. Choy quyib, hol-ahvol so‘rashdik”[13]. tergovchi bu voqeadan shunday xulosa chiqaradi: “«Men bu latifani to‘qib chiqarishimdan maqsad sovet davlati sifasiz mol chiqarib, xalqni aldash bilan shug‘ullanadi, bu bilan men sovet savdo sistemasiga tuhmat qilmoqchi bolganman». Bunga nima deysiz! Sovet savdo sistemasiga tuhmat etish!”[14]

Bunday bo‘lar-bo‘lmas tuhmatlar bilan jazolashdan, o‘ldirish, qamash, surgun qilishdan ko‘zlangan maqsad millat odamlariga gapirish uchun so‘z bermaslik, ularni qo‘rquvda ushlab turish, o‘z dardini aytishga yo‘l qo‘ymaslik, “baxtliman, qornim to‘q, ustim but” deyishga majburlash, har qanday “tili bor” kishini yo‘q qilish, xalqni ozodlik mafkurasi asosida birlashishdan to‘sish edi.

Muallif “Kafansiz ko‘milganlar” romanining muqaddimasida Navoiyning quyidagi baytlarini keltirib o‘tishi bejiz emas:

Navoiy g‘amga qoldi o‘z kalomi jonfizosidin,

Aningdekkim, etar bulbulga mehnat o‘z navosidin.

Millat ziyolilarining boshiga etgan mehnat-u g‘amlarga ham, albatta, ularning ziyodan bahramand bo‘lgani, o‘z “kalom”lari bilan bu nurni xalqqa ham ulashmoqchi bo‘lganliklari sabab bo‘ldi.

XX asr mustabid tuzimida hukmron bo‘lgan qatag‘on, quloq, qamoq, surgun tushunchalari bu davrda butun boshli millat fojeasiga aylanib ulgurgan edi. Bu faqatgina bir kishining o‘z yurtidan yiroqda, undan ayro azob-uqubat tortishi emas, ona vatanning o‘z fidoiy farzanlaridan judoligi ham edi.

Bu haqida Naim Karimov shunday deydi:“Mustabid tuzum davridagi eng dahshatlli narsa xalqning guli bo‘lgan kishilarni terib olish, davlat miqiyosida fikrlovchi kishilarni yo‘q qilish, xalqni ommaga, ommani esa podaga aylantirish edi. Bu faqat ayrim shaxslarga emas, balki butun-butun xalqlarga qarshi ongli ravishda, rejali asosda tashkil etilgan jinoyat edi”.[15]

“Qora mashina” ning tunda qishloqlarda “ov”ga chiqishi, insonlarning na tunida na kunida halovat bo‘lmagani, har lahza, har daqiqada qaysidir norasida o‘z otasidan, kimdir o‘z bolasidan, sevikli yoridan ayrilgani, insonlarni farzand dog‘ida kuyganliklari, tirik etimga aylangan bolalar, sarson kezgan sargashtalar, bemahal o‘limlar, besabab tuhmatlar, og‘ir mehnatlar, achchiq xaqoratlar – bularning barchasi o‘tgan asrning qora chizgilar bilan bo‘yalgan mash’um hayot lavhalaridir.

Siyosatning qirg‘in mashinasi hamma joyni qamoqxonaga aylantirganligi ham tarixdan ma’lum. Asarda shunday eslanadi:

[13] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.71-72-b.
[14] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.73-b.
[15] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.4-b.

“Qadimda qamoqxona Toshkentning qayerida bo‘lganini hech kim aniq aytib berolmaydi. Chunki o‘g‘rining o‘zi bo‘lmasdi. To‘g‘ri, bo‘lardi, bo‘lganda ham bitta-yarimta ot o‘g‘risi bo‘lardi. Bir yil, ikki yilda bitta-yarimta o‘g‘irlik bo‘ladimi, bolmaydimi, buning uchun maxsus qamoqxona, maxsus mirshabxona yo‘q edi. Shuning uchun bitta jazo - xalq ichida olomon qilish bolgan. Zindonlar-chi? Zindonlar bolgan. Zindonlar podsholar yashagan poytaxtlarda bolgan. Unga qancha odam sig‘ardi! Ikki-uch yil mobaynida bir necha odam zindon qilingan degan gapning o‘zi ham eshitgan quloqqa u mahallarda dahshatli tuyilardi. Endichi? Nima desam?.. Hozirgi vaqtda qamoq degan so‘z odamlarga kurort, sanatoriy degandek oddiy gap bolib qolgan. Chunki qadimda biror xonlik, biror hokimlikda bitta zindon, biror qamoqxona bo‘lsa, endi, har bir deparaning o‘zida yuzlab, minglab odamlar sig‘adigan qamoqxonalar qilingan. Hatto, hozir ayrim tashkilotlarning shaxsiy qamoqxonalari ham bor. Masalan, melisaning o‘z qamoqxonasi bor. Davlat xavfsizlik qo‘mitasining o‘ziniki alohida! Qadimda gohida ot o‘g‘risi uchrasa yoki bitta-yarimta pichoqlashgan bolsa, endi qamoqning ham, jinoyatning ham, jabr-zulm, inson xo‘rliklarining ham ming bir xili paydo bolgan.”[16]

Hukumat surgun qilingan, turli siyosiy ayblar bilan qamalgan kishilarning oilalarini ham o‘z holiga tashlab qo‘ymagan. Ularga ham tinimsiz tazyiq, xo‘rliklar orqali ta’sir o‘tkazgan. Bolalar maktabda ustozlaridan, tengqurlaridan “xalq dushmanining bolasi” degan xaqoratlarni eshitishgan bo‘lsa, erlarining jazosi sababli xotinlarni ham ma’lum sohalarda ishlashiga yo‘l qo‘yilmagan. Ochlik, bir luqma ovqatga muhtojlik ko‘p oilalarning qirilishiga olib kelgan. Bunday og‘ir kunlarga sabr-matonat bilab bardosh bergan, 3-4 ta bolani ayol boshi bilan ocharchilik zamonida imkoni boricha qornini to‘q, ustini but qilishga jon-jahdi bilan kurashgan millat onalari, jafokash ayollar ham ko‘p bo‘lgan. “Mana kechagida xotining sakkizta yog‘liq patir yopib, bir oz mayiz va chaqilgan yong‘oq, ikki-uch pachka «Saratov» maxorkasini kiritibdi. Albatta, senga patirni eyishdan ham ko‘ra sevikli xotiningning unga tekkan qo‘llari, bolalaring ko‘z oldingga kelib, yurak-bag‘ring ezilgani rost. Har burdasi tomog‘ingga tiqilib, ko‘z yoshlaring bilan zahar bo‘lib yutilmoqda. Bu bevaqt ayriliq alami chidab bo‘lmas darajada albatta og‘ir. Axir, qamalganingda oilangga pul bosib ketmagan eding-ku! Bu qaysi pulga kelgan? Uch bolani boqish osonmi? Ijod qilaman, doston yozaman deb litfonddan ming so‘m pul olib, hali tolaguningcha yo‘q edi, rahm qilmay uni qistab kelsalar kim to‘laydi! Sen sovet adabiyoti haqiqatni, kishilarning dard-alamlarini kuylaydigan adabiyot deyilishiga ishonsang, shu ayriliqlarni, shu

[16] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.78-79-b.

sog‘inchlarni, shu to‘kilgan ko‘z yoshlaringni she’r qilib yozaolasanmi? Matbuotda bosishlariga ishonasanmi?”[17]

Umuman olganda, og‘ir siyosiy tuzim, qoloqlik, jaholat, ilmsizlik, oqni qoradan farqlamaslik, o‘g‘rilik va talonchilik kundalik yumushga aylangan, din, imon-e’tiqod tushunchalariga bolta urilgan bu davr “Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur” degan zamona edi. Xalq orasida o‘g‘rilikning avj olishi, eng yaxshi odamlarning esa xalq dushmani sifatida qamalishining asosiy sababi ham inqilobdan so‘ng siyosatda yo‘l qo‘yilgan “rejalashtirilgan” xatoliklar ekanligi tarixiy haqiqat. Xalqni boy- kambag‘alga ajratish, bu bilan hamma baxtli yashaydigan kommunistik jamiyat tuzish go‘yoki odamlarni “susambil”ga ishontirishdek gap edi. Aslida esa bu tabaqalanish ham ko‘plab xoinliklarga, birovning moli va jonidagi omonatlarga xiyonat qilinishga olib keldi. Kimningdir uyi boshqasidan bir qarich baland bo‘lsa, uni yuqoriga etkazish, birovni dindor deb, birovni boy deb mol-mulki, uy-joyidan mahrum qilib, hech vaqosiz, butun boshli oilalarni surgun qilish bir ma’noda kimlarningdir kundalik vazifasiga aylanib qoldi.

“Xalqni birovlarning haqidan qo‘rqmaslik, quloq qilinib begona yurtlarga surgun qilinganlarning ko‘z yoshlari, nolalariga rahm qilmaslikka o‘rgatdik. Mana shu siyosat mehr-shafqatning orada ko‘tarilishi, yo‘qolishiga sabab bo‘lmadimikin? Xohlagan odamni xohlagan paytda qamash, surgun qilish, mol-mulkini tortib olish kabi adolatizliklar, sud, tergov organlaridagi qonun buzilishlari yoshlar o‘rtasida kelajakka ishonchsizlik uyg‘otmadimi? Nohaq qamalganlarning oilalari, do‘st-yaqinlari, qarindosh-urug‘larida davlat siyosatiga nisbatan ishonchning susayishiga, halol bo‘lib jon kuydirganingning foydasi yo‘q, halol bo‘lganlar nima bo‘lyapti, o‘zingni o‘yla, bir amallab kuningni ko‘rsang bo‘ldi, deyishga sabab bo‘lmadimikin!”[18]

Insondan o‘z boshiga tushgan og‘ir musibatlarni, azobli lahzalarni, xo‘rlik va xaqoratlarni qayta eslash, qo‘liga qalam olib, uni qog‘ozga muhrlash uchun ham katta kuch talab etiladi. Bunga sabab o‘sha xotiralarni unutishga bo‘lgan urinishlardir. Shukrullo Yusupov ham “Kafansiz ko‘milganlar” romanini yozishda o‘tmishini qayta eslashi, u qora kechmishlarni hayolida yana gavdalantirishi, so‘zga sig‘mas satrlarni qog‘ozga tushirishida ko‘pgina qiyinchiliklarga uchrashiga qaramasdan boshlagan ishini oxirigacha yakunlaydi. Bu roman qatag‘on siyosatining dahshatini bir ma’noda akslantirgan o‘zbek yozuvchilari tomonidan yaratilgan yagona asar ekanligi va tarixiy haqiqatlarni yuksak poetik mahorat vositasida talqin etilishi bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi

[17] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.92-b.
[18] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020.144-1145-b.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedovning «Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti» kitobi.Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 20043.

2. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent,2016

3.Jadidlar ilm-ma’rifat va ma’naviy merosining yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallariToshkent – 20204. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. T.: 1978-1983

5. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: 1993

6. Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi,2020

7. Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. Toshkent:Oltin qalam nashriyoti, 2024.

8. Mirzayev S.XX asr o‘zbek adabiyoti.Toshkent:Tangi asr avlodi,2005

9. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/shukrullo1921

10. https://ilmlar.uz/shukrullo-hayoti-va-ijodi-shukrullo-tarjimai-holi/

11. https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/qatagon-qurbonlari-hotirasi-muzeyi-fondidan/attachment/rustam-shamsutdinov-qatagon-quronlari-2-kitob/?lng=lat

YOZUVCHI USLUBIDA ESTETIK IDEALNING NAMOYON BO‘LISHI

Barno Xasanova,
Qo‘qon DU dotsenti (PhD)
barnoxonxasanova432@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozuvchi Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi har bir hikoyat va rivoyatning paydo bo‘lishi va uni asar matnida o‘zaro mutanosib ravishda joylashtirilishi yozuvchining estetik idealini ifoda etishda juda muhim vazifa ado etgani ko‘rib o‘tilgan. Roman badiiy asar sifatida juda ham o‘qimishli bo‘lgani holda, undagi rivoyatu hikoyatlar mantiqiy izchillikni ham ta’min qila olgani tahlilga tortilgan. Asardagi voqealar, timsollar, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikr va xulosalar ana shu rivoyatu hikoyatlar negizida ochilib borilgani, bu esa o‘quvchiga manzur bo‘lib, asarga umrboqiylik kasb etgani haqida mulohaza yuritilgan va xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: yozuvchi, rivoyat, hikoyat, roman, tarixiylik, asar badiiyati, “Chinor”, estetik ideal, tarixiy shaxs.

Аннотация

В данной статье рассматривается возникновение каждой истории и повествования в романе «Чинар» писателя Аскада Мухтара и их пропорциональное размещение в тексте произведения, что играет очень важную роль в выражении эстетического идеала писателя. Хотя роман очень литературен как произведение искусства, анализируется, что повествования и истории в нем также обеспечивают логическую последовательность. Считается, что события, символы, мысли и выводы в произведении раскрываются на основе этих повествований и историй, что радует читателя и придает произведению длительный эффект. Представлены выводы.

Ключевые слова: писатель, повествование, повесть, роман, историчность, художественность произведения, «Чинар», эстетический идеал, историческая личность.

Abstract

This article examines the emergence of each story and narrative in the novel “Chinar” by writer Asqad Mukhtar and its proportional placement in the text of the work, which plays a very important role in expressing the aesthetic ideal of the writer. While the novel is very literary as a work of art, it is analyzed that the narratives and stories in it also provide logical consistency. It is considered that the events, symbols, thoughts and conclusions in the work are revealed on the basis of these narratives and stories, which is pleasing to the reader and gives the work a lasting effect. Conclusions are presented.

Keywords: writer, narrative, story, novel, historicity, artistic merit of the work, “Chinar”, aesthetic ideal, historical figure.

Asqad Muxtor o‘z ijodiy faoliyati davomida “Davr mening taqdirimda”, “Opa-singillar”, “Tug‘ilish”, “Amu” va “Chinor” romanlarini yaratgan. Ular o‘z davri ma’naviy-ruhiy dunyosi, ijtimoiy voqeligini aks ettirgani bilan ahamiyatli. Shuningdek, bu romanlarni hozirgi kunda ham yosh avlod ma’naviy dunyosini yuksaltirishga xizmat qilishga qodir asarlar sirasiga kiritish mumkin.

Mazkur romanlar ichida, shubhasiz, “Chinor” romani badiiy va g‘oyaviy jihatdan baquvvat, o‘quvchini ishontira olish kuchiga ega va adabiy davralarda ancha shov-shuvlarga sabab bo‘lgan, Davlat mukofotiga muvofiq topilgan.

Bizningcha, bu muvaffaqiyatning omillari qatorida adibning romanga aniq maqsadga yo‘naltirilgan syujet tanlay olganligi va ana shu syujetning badiiy manzarasini to‘laqonli ko‘rsatib bera olganidir. U o‘z ijodiy niyatini ro‘yobga chiqara oladigan vositalar galereyasini bir butun qilib uyg‘unlashtira bergan. Bu

esa yozuvchi romanining umrboqiyligini ta’minlay olgan. Unda keltirilgan rivoyatlar va ularning qay tariqa roman matniga mutanosib bo‘lib ketishi esa romanning badiiy va g‘oyaviy ko‘lamini yorqinroq qilib yuborgan.

Romanni shoirona tasvir, nasriy mukammallik, publisistik talqin va jahon adabiyotining eng yuksak tajribalarini omuxtalash samarasi sifatida baholash ham mumkin. Negaki roman kompozitsiyasida, fabulalar va unda ishtirok etuvchi timsollar talqinida Ch.Aytmatov, V.Rasputin, G.G. Markes, A.Kamyu romanlariga hamohang jihatlar ham ko‘zga tashlanadi.

O‘z davri uchun bu romanning ritmi butkul yangicha edi. Asqad Muxtor an’anaviy bir me’yor va tizimda bayonlash yo‘lidan bormaydi, balki romandagi umumvoqelikni bir qancha bo‘laklarga bo‘lib, ularni asarning nomi, etakchi qahramoni taqdiri va asar xotimasida birlashtiradi.

Muallif romanning bir butun syujetini turli hikoyat, rivoyat va qissalarga ajratgan holda, ko‘tarilayotgan har bir muammo va masalaga esa etakchi obraz Ochil bobo tasavvuri orqali baho berib boradi. Bu holat o‘z-o‘zidan roman ichida yana bir qancha mustaqil syujet chiziqlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Ta’kidlangan har syujetning esa turli genezisga egaligi diqqatni tortadi. Fikrimizcha, ularni shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin: a) tarixiy genezislar; b) to‘qima genezislar; d) timsollar genezisi.

Albatta, bu tasnif asarning yaxlit syujetidan kelib chiqadi. Undagi “bo‘lakcha”lar bir-birini to‘ldiradi, masalan, “Chinor”da rivoyat hikoyatning, hikoyat esa qissaning epilogi sifatida namoyon bo‘ladiki, bu ham adibning yangicha uslubi, o‘ziga xos tasvirlash yo‘sini sifatida ko‘rinadi.

Yetakchi qahramoni Ochil buvaning qoshg‘arlik nabirasi Azimjon bilan har tomonga sochilib ketgan zurriyodlari holidan xabar olguvchi otaning o‘y-kechinmalari, farzandlarining quvonchu iztiroblarini o‘ziniki sifatida qabul etgan otaning sarguzashtlari tarzida keladi. Bu o‘rinda chinor – Ochil buva, chinorning tarvaqaylagan shoxlari esa uning avlodlari.

Asarga tanlangan fabulalar romanni “semirtirish” maqsadini bajarmaydi. Hammasi yagona maqsadga yo‘naltirilgan. Voqea (rivoyat va hikoyat)lar muayyan tarixiy ildizga ega. Adibning o‘zi suhbat va maqolalarida ta’kidlaganidek, tanlangan syujetlarning mohiyati ana shu rivoyat, hikoyat va qissalarning milliy ildizlaridadir. Roman o‘ziga xos ravishda o‘zbek xalqi va uning tarixi, boshidan kechirgan shodu noshod kunlari, yurt uchun kuyib-yonishlari haqida, xalqimizdagi eng yaxshi fazilatlarni vasf etishga harakat qilinadi.

Asarda tasvir etilgan voqealar – mustabid Sho‘ro tuzumi siyosati tufayli o‘z yurtlarini tark etishga majbur bo‘lgan sarmoyadorlar mashaqqati, XX asr boshlarida ro‘y bergan ba’zi tarixiy-siyosiy voqealar, xususan Jizzax

qo‘zg‘oloni, o‘zbek qorako‘lining taqdiri, chigirtka ofatiga qarshi kurash, Lev Tolstoyning o‘zbek ziyolisi bilan uchrashuvi va yana boshqa qator voqealarning faol ishtirokchilariga aylangan timsollar muayyan darajada tarixiy hujjatlarga asoslangan. Keltirilgan dalillar romanda tasvirlangan voqelik va personajlarning rivoyat va hikoyatlarda qanday mutanosiblik kasb etganiga e’tibor berishni taqozo qiladi.

Romandagi dastlabki hikoyat Ochil buvaning qoshg‘arlik nabirasi Azimjonning otasi Bozorqul hamda onasi Onaxon qismati to‘g‘risida[1.12]. Hikoyat o‘sha mash’um inqilob yillari manzarasini gavdalantiradi. Uylanganiga salkam etti oy bo‘lgan Bozorqul biroz pul topish maqsadida chorvador boyning qo‘ylarini yayov haydovchilar safiga kiradi. Onaxonga tez qaytish va’dasini berib, yo‘lga otlanadi. Ammo, boyning topshirig‘i bilan Qoshg‘arga yaqin qolganda cho‘liqlar zaharlab o‘ldirilishi kerak edi. Mash’um rejani ko‘ngli sezgan Onaxon cho‘liq qiyofasida safarga chiqadi va yo‘l davomida eri Bozorqulni kuzatib boradi. Bozorqul boshqalar qatori zaharlangach, Onaxon uni asrab qoladi. Keyin chalamurdaga aylangan Bozorqulni opichlab manzilga etib boradi. Eri hayotini saqlab qoladiyu, biroq xomilasi nobud bo‘ladi. Ular etib kelgan qishloqda bir umrga qolib ketadilar. Sirtdan qaralsa hikoyat syujeti jo‘n va u to‘qima kabi tuyuladi. Lekin bu voqelik o‘sha davr uchun tipik hodisa edi. Yuzlab Bozorqullar o‘xshash voqealar tufayli yovuzlik qurboniga aylanardi. Yozuvchi esa ana shunday voqealarni umumlashtirib, ta’sirchan yagona fabula tuza olgan.

Yana bir rivoyat Sharqda muallimi soniy rutbasi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy haqidadir. Buyuk alloma uzoq yillik safardan qaytganida, yaqinlarining ko‘pi olamdan o‘tgan, hayot bo‘lgan ukalari va boshqa qarindoshlarini Bujuliston hukmdori dunyoning sakkizinchi mo‘jizasini yaratish maqsadida qul qilib olib ketgan edi. Forobiy Bujuliston sari yo‘l oladi. Yetib borib, qullar safiga qo‘shiladi va o‘lat tarqaganidan xabar topadi. Forobiyning kelganini eshitgan hukmdor uni xuzuriga chorlaydi, oyoqlari ostiga oltin sochib, o‘latni bartaraf etishini so‘raydi. Forobiy o‘latning sababi qullardagi Vatan sog‘inchi ekanini aytganida, shoh darg‘azab bo‘lib, uni qullar safiga qaytaradi. Forobiy bir nay yasaydi. Bu nayda turli musiqalarni ijro qilib, qullarning dardlariga malham bo‘ladi va o‘lat chekinadi.

Ushbu rivoyatning ham ildizi chuqur. Unga mazmunan yaqin rivoyatlar Sharqda keng tarqagan. “Guliston”, “Masnaviyi ma’naviy”, “Mantiq ut-tayr” singari asarlarda ularga duch kelish mumkin. Bu hodisa romanga olib kirilayotgan rivoyatning tarixiy va adabiy ildizlari mavjudligini ko‘rsatadi. Qolaversa, Abu Nasr Forobiy bir qator musiqa asboblarini yasagan, o‘zi chalgan va hatto, qonun nomli musiqa asbobini ham yaratganligi haqida ma’lumotlar bor.

Endi Lev Nikolayevich Tolstoy bilan bog‘liq hikoyatga kelsak. Rusiyada ham bu ulug‘ adibning e’tiqodi va estetik qarashlariga shubha bilan munosabatda bo‘lingani ma’lum. L.Tolstoy Islom dini va uning axloqiy qoidalariga ijobiy qarashda bo‘lgani, bu dinga ta’limotlardan biri sifatida qaragani va Osiyo xalqlarining ma’naviy merosiga astoydil qiziqqani haqida ma’lumotlar bor. Ko‘p asrlik Sharq donishmandligi orqali adib bir umr qalbini qiynab kelgan axloqiy muammolarga javob topmoqchi bo‘lgan. Bunday intilishlar uning ijodida shunday badiiy kuch bilan o‘z ifodasini topdiki, ayrim tolstoyshunoslar uning Islom dinini qabul qilgan, tasavvuf ta’limotiga moyil bo‘lgan, degan xulosaga ham kelishgan. Bu haqda Asqad Muxtor bir maqolasida shunday deydi: “Ma’lumki, Lev Nikolayevich talabalik vaqtidayoq Sharq tillarini o‘rgangan. Keyin Sharq xalqlari og‘zaki adabiyoti, eposlari bilan qiziqqan, Shoir Fetga “hofizxonlik”da ko‘maklashgan, qadimiy Sharq klassikasining “Guliston”, “Qobusnoma” asarlarini mutolaa qilgan”[2.197].

Darhaqiqat, realistik adabiyotda bevosita ko‘rish, kuzatishning, yozuvchi hayotiy tajribasining roli, ahamiyati katta. Realist yozuvchi o‘zi ko‘rmagan hodisalarga ham o‘zining ko‘rganlari, shaxsiy hayotiy tajribalari asosida yondashadi. “Chinor” romanidagi Mulla Abdul Ahad qori bilan L.Tolstoyning uchrashuvi hikoyatida tarixiy fakt va yozuvchi fantaziyasi uyg‘unlashib ketgan.

Roman chop etilgan yillarida bu uchrashuv voqeasini ko‘plab kitobxonlar to‘la-to‘kis yozuvchining fantaziyasiga yo‘yishgan. Keyinchalitk, “Chinor”dagi bu lavhani bir rassom chizadi ham. A.Muxtor bir suhbatida mazkur voqea haqiqatan ham sodir bo‘lganligini aytadi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, haqiqatan bu lavha hayotiy zaminga ega ekan.

Yasnaya Polyanadagi L.Tolstoy uy-muzeyining o‘sha paytdagi direktor o‘rinbosari N.Azarovaning “Literaturnaya gazeta”dagi chiqishida yozgan qaydlari buni tasdiqlaydi. A.Muxtorning ta’kidlashicha, hikoyatda L.Tolstoy kundaligidagi bir jumladan boshqa real fakt bo‘lmagan. Shundan so‘ng adib Mulla Abdul Vohid qorining tarjimai holini o‘rgana boshlagan. Aniqlanishicha, qori asli toshkentlik bo‘lib, obro‘-martabali, ziyoli inson bo‘lgan. Hatto, o‘sha paytda Chor Rusiyasining Dumasiga a’zo qilib ham saylangan. Ammo bir sabab tufayli Rusiyaga surgun qilingan. U haqida dog‘istonlik sheriklaridan biri kitob ham yozgan.

Yig‘ilgan ma’lumotlar yozuvchiga keng yo‘l ochib bergan: hujjatlar, kitoblar, kundaliklar. O‘sha davr manzarasi, odamlar dunyoqarashi va qorining ulardan ajralib turadigan xislatlari, uning L.Tolstoy bilan uchrashuvdagi kayfiyatlari, Yasnaya Polyanani bilishi yozuvchiga tasavvur imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu bois hikoyatga o‘z davrining ulug‘ adibi bilan uchrashuv, bu uchrashuvda

L.Tolstoyning Sharq xalqlari madaniyati, ma’naviyatini chuqur bilishi, Mulla Abdul Vohid qorining Ahmad Yassaviydan o‘qigan hikmatlarini jon qulog‘i bilan eshitib, unga munosabat bildirgani haqidagi lavhalar juda ham ta’sirli bayon qilingan.

Demak, “Chinor” romanidagi har bir hikoyat va rivoyatning paydo bo‘lishi va uni asar matnida o‘zaro mutanosib ravishda joylashtirilishi yozuvchining maqsad-muddaosini ifoda etishda juda muhim vazifa ado etgan. Roman badiiy asar sifatida juda ham o‘qimishli bo‘lgani holda, undagi bu kabi rivoyatu hikoyatlar mantiqiy izchillikni ham ta’min qila olgan, deyish mumkin. Asardagi voqealar, timsollar, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikr va xulosalar ana shu rivoyatu hikoyatlar negizida ochilib boradi. Bu esa o‘quvchiga manzur bo‘lib, asarga umrboqiylik kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqad Muxtor. Chinor. Roman. -Toshkent. Adabiyot va san’at, 1975. 12-27-betlar.
2. Asqad Muxtor. Inson ruhining ulug‘vorligi/ She’r shoir vijdoni. To‘plam. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. 197-bet.
3. Ijodkorning daxlsiz dunyosi (Asqad Muxtorning munaqqid U.Normatov bilan suhbati) / She’r shoir vijdoni.To‘plam..., 304-bet.

VASLIY IJODINING XX ASR BOSHLARI SHARQIY TURKISTONDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Karimova Shaxloxon G‘aniyevna,
Oriental Universiteti dotsenti, PhD.
Tel; 90-185-69-13, shkarimova1984@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-5380-4852

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda yashab ijod etgan o‘zbek shoiri Vasliy she’riyati haqida o‘zbek kitobxonlariga ilk marotaba ma’lumot beriladi. Muqimiy kabi ma’rifatparvar shoirlar ijodi ta’sirida yozgan she’rlari tahlil qilinadi. Shoir she’rlarining aksariyati Furqat, Muqimiy, Xislat, Zavqiy kabi shoirlarning millatparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan lirik asarlari bilan hamohang. “Shinjong o‘zbek shoirlari” to‘plamidagi lirik she’rlar tasnifi shundan dalolat beradiki, Vasliy o‘zbek mumtoz she’riyatida shoirlarga yo‘ldosh bo‘lib kelgan mavzularni qalamga olgan, badiiy uslub jihatdan ijodiy ergashgan. Bu kabi shoirlar ijodi bilan tanishish o‘sha davr Sharqiy Turkistondagi uyg‘ur va o‘zbek shoirlarining ijodiy hamkorligi, mumtoz an’analarga munosabati qay darajada bo‘lganidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, adabiy aloqa, janrlar tizimi, poetika, mavzu va obraz, g‘azal, muxammas, masnaviy, ijodkor uslubi, xalq og‘zaki ijodi, taxmis-nazira, doston, izdoshlik.

Абстрактный

В статье впервые узбекский читатель знакомится с поэзией Васли, узбекского поэта, жившего и творившего в Восточном Туркестане в начале XX века. Анализируются его стихотворения, на которые оказало влияние творчество таких просветленных поэтов, как Мукими. Большинство стихотворений поэта созвучны лирическим произведениям таких поэтов, как Фуркат, Мукимий, Хислат, Завкий, проникнутым националистическими и просветительскими идеями. Классификация лирических стихотворений в сборнике «Поэты узбекской поэзии Синьцзюнь» свидетельствует о том, что Василий писал на темы, общие для поэтов классической узбекской поэзии, и творчески следовал им в плане художественного стиля. Знакомство с творчеством таких поэтов свидетельствует о степени творческого сотрудничества и отношении к классическим традициям уйгурских и узбекских поэтов в Восточном Туркестане того времени.

Ключевые слова: литературная среда, общественно-политическая жизнь, литературная коммуникация, жанровая система, поэтика, тема и образ, газель, мухаммас, маснави, творческий стиль, народное устное творчество, тахмис-назира, эпос, последователь.

Abstract. This article provides Uzbek readers with the first information about the poetry of the Uzbek poet Vasliy, who lived and worked in East Turkestan at the beginning of the 20th century. His poems, written under the influence of the work of enlightened poets such as Mukimiy, are analyzed. Most of the poet's poems are in harmony with the lyrical works of poets such as Furqat, Mukimiy, Xislat, and Zavqiy, imbued with nationalist and enlightened ideas. The classification of lyrical poems in the collection "Xinjiang Uzbek Poets" indicates that Vasliy wrote about themes that have been common to poets in Uzbek classical poetry and creatively followed them in terms of artistic style. Getting acquainted with the work of such poets indicates the extent of creative cooperation between Uyghur and Uzbek poets in East Turkestan of that period and their attitude to classical traditions.

Keywords: literary environment, socio-political life, literary communication, genre system, poetics, theme and image, ghazal, muhammas, masnavi, creative style, folk oral art, takhmis-nazira, epic, followership.

Har bir millatning adabiyot tarixi shu millatning jamiyat taraqqiyoti tarixida yuz bergan zo‘r ijtimoiy tarixiy hodisalarga bog‘liq holda vujudga kelgan

idealogiya alohadaliklari adabiyotning yana shu ijtimoiy mavjudiyatni aksi o‘rtasidagi usul alohidaligi (metodologiya va tematik alohidaligi) hamda adabiyotning asosiy quroli bo‘lgan til alohidaligidan iborat bir qancha tarafning birligi asosida shakllangan o‘zining muayyan tarixiy davr va bosqichlariga ega bo‘ladi. Insoniyat tarixida zo‘r burilish hosil qilib, insonlarni o‘zini qayta tanish davrga, yangilikka, aqliy tafakkurga bo‘lgan yanggi davrga olib kirgan milodiy XX asr uyg‘ur adabiyotida ham yangi bir tarixiy davrning muqaddimasini ochdi, Uyg‘ur adabiyotining ”Uyg‘ur hozirgi zamon adabiyoti” [1.] deb atalgan mazkur tarixiy davri uyg‘ur adabiyotida o‘n necha asr mobaynida izchil davom etib kelgan mumtoz adabiyot asl an’analariga vorislik qilish hamda uni davr oqimi, talabi va taqozosiga mos holda, mazmun va xohish, shakl va janr, til va uslub jihatdan muayyan darajada boyidi. Yangilanishga, davr yuksakligiga ega qilib yangi bir adabiyot tarixiy davrini ochgan mumtoz va yangi uyg‘ur adabiyoti o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tadi. Uyg‘ur bugungi zamon adabiyotining bir qator alohidaliklari bilan uyg‘ur adabiyoti tarixida emas uyg‘ur jamiyat taraqqiyoti tarixi, falsafa, idea tarixi va madaniyati tarixida ham muhim o‘rin tutadi[2]. Bu davr adabiy muhitida o‘z qobig‘ida emas, balki yondosh xalqlar adabiyotining muhim badiiy mezonlarini o‘zlashtirgan holda rivojlanib, boyib borgan adabiyot maydoni bir qancha iste’dod vakillariga beshik bo‘ldi. Shunday shoirlardan biri o‘zbek ziyoli oilalaridan birida tavallud topib, yoshlik chog‘laridan Sharqiy Turkistonga ketib hayot kechirgan ijodkor Vasliy ham bor.

Aziziddin Muhammad Qamariddin o‘g‘li Vasliy[3] 1919-yili O‘shda tug‘ilgan. Ilk savodini mahalladagi eski usuldagi maktabda chiqaradi. Boshlang‘ich maktabni bitirgandan keyin 1933-yili oilasi bilan Shingjongga kelib Qog‘alik nohiyasida yashagan. 1938-yili “Xo‘tan dorulmuallimin”ga o‘qishga kirib, bu maktabni bitirgandan keyin 1942-yiligacha Qog‘aliqda o‘qituvchi bo‘lgan. Dars berish bilan birga zamonning texnik yangiliklariga ham ochiq bo‘lgan ziyoli shaxs sifatida qo‘shimcha foto suratchilik kasbi bilan shug‘

ullangan.

Vasliyning adabiy ijodiyoti 30-yillarning oxiridan dorulmuallimida o‘qiyotganda boshlanadi. Mumtoz badiiy asarlarga muhabbati o‘laroq u dastlabki o‘zbek klassiklari she’riyatiga taqlid qilingan lirik she’rlarni yozish bilan boshladi. Uning ba’zi she’rlari axloqiy didaktik xarakterda bo‘lib, Qashqarning kichik gazetlarida ham e’lon qilinadi. 40-yillarg‘a kelganda shoirning badiiuy ijodda sermahsul davri hisoblanadi: har xil mavzudagi she’rlarni yozishga kirishadi. 1941-yil otasi Shissay turmasida qatl qilingandan keyin Vasliy xizmatni tashlab, og‘ir sarsonlik ichida turmush kechiradi. U Qog‘alik, Yakan, Xo‘tan shaharlarida foto suratchilik kasbi va boshqa mashg‘ulotlar bilan nihoyatda iqtisodiy tang

ahvolda yashaydi[4]. Bu davrga mansub she’rlarida ham shoirning ijtimoiy ahvoli, mavjud tartibotlardan nolish, “charxi kajraftor eldan yozg‘irish” motivlarida she’rlar bundan dalolat beradi. U ko‘proq jamiyatdagi tuban ishlardan zo‘rlanish xarakteridagi lirik she’rlari bilan o‘ziga tasalli beradi.

Aziziddin Vasliy nasab jihatdan shoir Xuvaydoning avlodi. Xuvaydo avlodlari II asrdan buyon Janubiy Shingjongda juda katta ijtimoiy munosabatga ega edi. Xuvaydoning bir nevara ukasi shoir va adabiy tarjomon Siddiq 19-asr ham Yakan (Yorkent)da yashab, adabiy ijodiyot bilan shug‘illangan[5.114-140] (Xuvaydoning qarindoshlari Salohiddin Soqib, Sirojiddin Sirojiy kabilar ham hayotining ma’lum qismini Yakanda o‘tkazgan va o‘z zamonasida Yakanda keng bir adabiy muhit yaratgandi.

Vasliy oilasining O‘shdan Yakanga ko‘chib kelishi ham yuqoridagi ijtimoiy munosabatdan holi bo‘lmagan. Vasliyning adabiy ijodiyoti mazmun jihatdan xilma-xil. U oddiy turmush voqealigidan tortib, siyosiy hodisalargacha ahloq, tabiat manzaralarigacha hamma sohani she’riy til bilan tarannum qilgan. Shoirning sh’erlari Xo‘tan, Qo‘g‘aliq, Yakan, Qashqar kabi shaharlardagi o‘zbek aholisi ichida qo‘ldan-qo‘lga ko‘chib, yodlanib, hozirga qadar saqlanib kelinmoqda.

1985-yil biz shoirning bir qism qo‘lyozmalari ni to‘planib, Shingjong ijtimoiy fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti institutining havolasi bilan Yakan(Yorkent)da yashovchi mahalliy aholilardan peshqadam ziyoli Ehsonjon Xoji Ishoqjon yolg‘uz va Fayzulloxonlar shoir asarlarini to‘plash va uni atrofli o‘rganish bilan shug‘ullanmoqdalar.

Aziziddin Muhammad Qamariddin o‘g‘li “Vasliy”dan boshqa “Mavriy”, “Nahfiy”, “Ohiy” taxalluslari bilan ham she’rlar yozgan. Uning she’rlarida Huvaydo uslubi ko‘zga ko‘rinib turadi. Shoir Yakanda vafot bo‘lgan.

Shoir asarlarida o‘zbek umtoz adabiyotidagi an’anaviy mavzular: ishq, vafo, do‘stga sadoqat, Vatanga bo‘lgan muhabbat, pok insoniy sevgi, hayotiy mahsaqqatlatlarga chidam, umrni zoye ketkizmaslik kabi inosniy fazilatlar ulug‘lanadi, jaholat, ma’rifatsizlik, yolg‘onchilik va loqaydlik, bepisandlik qoralanadi. An’anaviy obrazlar: oshiq, mahbuba, raqib, soqiy, do‘st kabi timsollar-u, dev, pari, Hizr kabi diniy tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi. Biz tayangan “Shinjong o‘zbek adiblari” kitobidida shoirning Huvaydo, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlarga ergashib, bu shoirlar uslubida bitgan g‘azal va muxammaslari ham berilgan.

- Zulfu soching sunbuli tun kechadek ermish qaro,
Ham yana erkan uzun solsang taroqing nozanin.

-ma’shuqa ta’rifiga bag‘ishlangan “Nozanin” radifli g‘azalida ushbu baytlar uchraydi. Tasvirning an’anaviyligidan tashqari, u ishlatgan mayda detallar nomi (taroq ham) uyg‘ur tuprog‘ida ham o‘zbek tilining saqlanibn davom etib kelganidan, bu shoirlar g‘azallarida ishlatilganidan darak berib turibdi. “Man sani ko‘rgan edim Ganji ravona yo‘lida” kabi misralarida esa, o‘sha davrdagi qishloq joylarining nomlanishiga ishora qilsa, toponimlarning ham deyarli ikki tilde o‘xshash variantlariga ega ekanliginin ko‘rsatib turibdi.

Lirik she’r janrlaridan muxammas ham bu davrda faol she’riy janr hisoblanib, Vasliy ijodidagi “Man o‘zum har joydaman, albatta ko‘nglum sandadur” asari ham ayni shu janrga mansub. Bu, albatta birinchi o‘qishadyoq Muqimiyning “O‘zim har joydaman ko‘nglim sandadur” murabbasiga hamohang tarzda yaratilgan. Bu o‘sha paytda ham hassos shoir g‘azal va murabbalarining Sharqiy Turkistonga etib borgani-yu u erdagi adabiy maktab vakillariga yaxshi tanish bo‘lganidan darak bo‘lsa, uning asarlaridagi o‘ziga xos ohang va mazmunni ijodiy o‘zlashtirgan holda yangi shaklda, janriy o‘zgarishda davom ettirib, shoirning o‘ziga xos ovozi va uslubini ko‘rsatishga uringanini sezamiz. Muxammasning boshlanmasi quyidagicha:

Bog‘ aro raftor qilsang, g‘unchalarda handadur,
Sarf ila shamshodi ar-ar sanga sir apkandadur
Shul sababdin borcha inson gul yuzinga bandadur
Haq ato qilmish sanga kim ushbu xislat sandadur
Man o‘zum har joydaman, albatta ko‘nglum sandadur.

Vasliyning adabiy merosi mazmun-mundarija va g‘oyaviy jihatdan rang-barang, obrazlarga boy. Poetik uslub va badiiy mahoratda salaf hamda zamondosh shoirlardan olgan ilhomi va ibrati o‘laroq o‘z iste’dodini namoyon qila olgan salohiyatli shoir. Shuningdek, shoir ijodida mumtoz o‘zbek adabiyotidagi janrlar va mazvularni tadrijiy takomili sifatida bo‘y ko‘rsatsa-da, o‘ziga xos novatorlik belgilari ham uchraydi. Izlanishlarimizdan quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Vasliy taxallusi bilan ijod qilgan shoir, hattot, ma’rifatpparvar Aziziddin Muhammad Qamariddin o‘g‘li o‘zbek shoirlaridan bo‘lib, o‘tgan asrning eng murakkab, ammo qizg‘in davrida Sharqiy Turkistonga ketib, o‘sha erda umrining oxirigacha yashab ijod etgan iste’dodli ijodkorlaridan biri.
2. Vasliy she’riyati islom ma’rifati va tasavvuf axloqi, pok insoniy sevgi, axloqiy qadriyatlar tarannumi va ijtimoiy masalalarga qaratilgan. Bu adabiy meros o‘sha davr uyg‘ur va o‘zbek adabiy aloqalarining qay darajada rivoj toganidan, ijodiy izlanishlardan darak beradi.

3. Shoirning ijodiy faoliyati va adabiy merosi XX asr boshlaridagi Sharqiy Turkistondagi o‘zbek shoirlari yashagan adabiy muhitni baholashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

4. Bu kabi ijodkorlar merosini o‘rganish har ikki adabiy muhit – o‘zbek va uyg‘ur adabiy aloqalari qay darajada bo‘lganligi, ijodiy hamkorlik va adabiy uslubning ta’sir ko‘lami haqida muhim xulosalar chiqarishga asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960. **ئۇيغۇر كلاسسىك ئەدەبىيات تارىخى. ئۇنۇۋېرسىتېتلارنىڭ دەرسلىك كىتابى. تۇزگۈچى: گايراتجون ئۇسمان قاتارلىقلار. شىنجاڭ 2002**

2. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960 (Mamatoxunov U. Classics of Uyghur literature. - Tashkent., 1960).

3. O‘zbek adabiyotida Vasliy taxallusi bilan ham ijod qilgan adib bor. S**aidahmad Vasliy Samarqandiy** (1869–1925) — 19-asrning ikkinchi yarmi va 20-asrning boshlari Samarqand adabiy muhitiga mansub ijodkor. Muallimlik qilgan. Vasliy o‘zbek, arab va fors tillarida darsliklar tuzgan. Vasliy shu tillarda birday ijod ham qilgan. Forsiydagi „Armug‘oni do‘ston“, o‘zbekchadagi „Devoni turkiy“ kabi devonlar, „Nazmus silsila“ (forscha), „Adab ud-din“ (o‘zbekcha) she’riy asarlar, tilshunoslikka oid „Muqaddimai sarfu nahvu arabi ham namunai sarfu nahvu forsiy“ kitobi mashhurdir.

4. Ҳурматжон Фикрат, Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти, 2005. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature.Urumchi: Xinjiang People’s Publishing House, 2005. (in Uyghur).

5. Chaxor darvesh tarjimasidan boshqa hozirgacha topilgani yo‘q deb izoh beradi Qodir Akbar. Qarang: شىنجاڭ ئۇزبېك ئەدبلىرى. نەشر قىلىشقا تەييارلانغان: قادىر ئەكبەر. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى 1989 Шинжонг ўзбек адиблари. Нашрга тайёрловчи: Қодир Акбар. Шинжонг халқ нашриёти.1989 й., 114 – 140 бетлар.

“QISASI RABG‘UZIY”DA TURKIYLAR VA TURK TILI

Zulayho ABDURAHMON,
O‘zr FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Millatning ruhi uning tilida namoyon bo‘lishi ma’lumdir. Shuning uchun milliy tafakkur, xususan, badiiy tafakkur ham til imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Maqolada tilning paydo bo‘lishi, til va ruhoniyat masalalaridan bahs yutiladi. Turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Abstract

It is well known that the spirit of a nation is manifested through its language. Therefore, national thought, particularly artistic thought, arises from the potential of the language. This article discusses the origin of language and examines the relationship between language and spirituality, highlighting the unique characteristics of the Turkic language.

Kalit so‘zlar: turk, til, payg‘ambar, millat, ruh, qavm, badiiyat, tafakkur, din.

Keywords: Turkic, language, prophet, nation, spirit, people, literature, thought, religion.

Til va millat tushunchalarini ayro tasavvur etib bo‘lmaydi, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Til – darhaqiqat, millatning ruhi, tiliga sohib bo‘lmagan millat boshsiz tana kabidir. Bu ruhni asrashda, ajdodlardan avlodlarga etkazishda badiiy adabiyotning beqiyos xizmati bor. Shu ma’noda, “Qisasi Rabg‘uziy” asari ham millat ruhini asrashda, turkiy dunyoni birlashtirishda, milliy mustaqillikni ta’minlashda bugun ham o‘rganilishi zarur va tabiiy. Zero, asar eski turkiy til leksikasini asrash, fonetik, grammatik, stilistik xususiyatlarini namoyon qilish barobarida turkiylar va turk tili haqida ham muhim ma’lumotlar beradi. Ma’lumki, zalolat va jaholati tufayli to‘fonga uchragan Odam farzandlari Odami soniy - Nuh a.s.ning avlodlaridan yana er yuziga tarqadi: “Nuh kemidin chiqdi. Ul kun sekson besh odamiy — qirq er, qirq xotun Shom viloyatinda tengiz qirog‘inda bir kend qubordilar. Anga “Qaryat us-samonina” atadilar. Olti oy suv ichinda turub el to‘qimadi. Ongsizin chiqib el to‘qidi ersa yarashmadi. Zaif bo‘ldilar. Qamug‘ o‘ldilar, magar etti kishi qoldilar. Taqi Nuh o‘g‘ullari, uch kelin. Olam ichinda bu etti kishi qoldi, azin kim ersa qolmadi. Bu kun muncha xaloyiq yovuz, yaxshi, mo‘min, kofir Nuh o‘g‘lonlarindin tug‘dilar”. Insoniyat tarixi shu zaylda davom etadi. Nuh a.s.ning uch o‘g‘illari: Xom, Som, Yofasdan turli qavmlar paydo bo‘ldi, jumladan, turkiy elatlar ham. Muallif turkiylarning otasidan duo olgan qavm ekanligiga alohida urg‘u beradi: “...Bir kun Nuh alayhis-salom uziyur erdi, el esandi. Nuh etagin ko‘turdi, uvut andomi ochildi. Hom ani ko‘rub kuldi. Som Homg‘a malomat qildi. Yofas ani ko‘rub to‘ni birla o‘rtdi. Mavlo taolo aning shumluqindin Homning o‘ngurqasindaqi nutfani qora qildi. O‘g‘lonlari qora bo‘ldi. Uyalmishda evluki ilkin oldi. Tengiz qirog‘inda atog‘g‘a kirdi, qamish birla ev qildi. Andag‘uq urug‘lari hindular, habashiylar, zangilar qamug‘i aning urug‘i

tururlar. Ammo arab va ajamning otasi Som turur, Homni Hindustonga izdi. Somni arab va ajam viloyating‘a izdi. Yofasni Turkiston viloyatiga izdi. Qamug‘ turklar Yofas urug‘i turur. Ul yo‘ldin turklar aziz va mukarram bo‘ldilar”. Ushbu ma’lumotlar, deyarli, barcha payg‘ambarlar tarixida uchraydi. Ammo turkiy tilda yozilgan payg‘ambarlar haqidagi ilk asar “Qisasi Rabg‘uziy”da mazkur mavzu atroflicha yoritilgan. Hatto qiyomat oldi fitnalariga sabab bo‘luvchi Ya’juj va Ma’jujning kelib chiqishi to‘g‘risidagi turli qarashlarni berib, masalaga oydinlik kiritadi: “...Ya’juj va Ma’juj Yofas urug‘idin turur”, degan Amoriy olimlarining fikriga qarshi bir necha manbalarni keltiradi: “*Ka’b rivoyat qilur:* Odam uziyur erdi tush ko‘rdi. Nutfasi erga tomdi, tufroqg‘a yo‘g‘ruldi. Mavlo taolo ul suvdin Ya’juj va Ma’jujni yaratdi. Bizga ota singirdin qotilurlar, qarindosh bo‘lurlar. Havvo singirdin qotilmaz, o‘gay bo‘lurlar. Abdulloh ibn Abbos aytur raziyallohu anhu, Odam o‘g‘lonlari o‘n ulush turur, to‘quzi Ya’juj va Ma’juj turur, bir ulushi qamug‘ odamiylar temishlar”. Tarixni bu tarzda bayon qilish, har bir hodisaning Alloh taolo nazdidagi hikmatini aniqlashga urinish teran ilmni talab qilgan, asosiysi, Nosiriddin Rabg‘uziy bularni jonli irfoniy-badiiy tilda bayon qilish orqali turkiy til imkoniyatlarini to‘laqonli ko‘rsata olgan. Farzandlar uchun ota-onadan duo olish Alloh taoloning rizoligi, istiqbolli kelajak ekanligiga qissalarda alohida e’tibor qaratiladi. Avlodning go‘zal axloqi, ta’lim-tarbiyasida muhim sanalgan amallarga asarda qayta-qayta murojaat qilinadi. “Somiriy qissasi”dagi “Kahf” surasi “Va kaana abuhumo solihan” – “Ularning otalari solih kishilar edi (Kahf: 18/82)” oyatiga asoslanib, “ota-ona ezgu bo‘lsa, ularning ezguligi etti urug‘ga tegar” izohini keltiradi. Bunday millat ulug‘ligiga daliliy ishoralardan keyin yana turkiy xalqlardan bahs etadi. Rasulullohning Islomga da’vatlari tinchlik va adolat yo‘li bilan olib borilgani ma’lum. Bunday ibratli diplomatik aloqalarda dunyo xalqlariga Islom dinining mohiyatini anglatish va ularni imonga keltirish uchun maktublar muhim vositalardan biri hisoblangan. Vizantiya, Eron, Misr, Habashiston, Yaman kabi bir necha davlatlarga maktub jo‘natilganidan tarix guvohlik beradi. Jumladan, Nosiriddin Rabg‘uziy katta hududni egallagan ulug‘ millat turklarning musulmonlashuvini quyidagicha izohlaydi: “Aymishlar, qachon Mustafo alayhissalomning bitigi turklarga keldi ersa qabul qildilar, og‘irladilar. Lojaram qiyomatga tegi bo‘lg‘anlari hurmatlig‘, davlatlig‘ bo‘ldilar”. Turklarning musulmonlashuvi rasulullоh maktublarining yaxshi qabul qilinishidan boshlangani tarix haqiqatlariga uyg‘un emasligi ba’zi ilm ahli tomonidan aytilsa-da, bu muallifning inonchi, maqsadi, shuningdek, turkiy qavmni Rasulullоh bilan bog‘lovchi bir rishta topganligi kitob maslagiga ham uyg‘un ekanligini e’tirof etadilar. Ilk davrlardan tarqala boshlangan islomning uzoq yillar davomida cho‘zilishi esa, tabiiyki, turkiy o‘lkalarning ko‘pligi bilan ham aloqadordir.

Turk tiliga bo‘lgan munosabat asarda dunyo yaralishi, Odam a.s.ning xalifa etib saylanishi zamonlariga bog‘lab beriladiki, tilning insoniyat taqdiridagi roli chuqur anglashiladi. Odam a.s. bani basharning otasidir. U Qur’oni karimda “Va U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatdi. So‘ngra ularni farishtalarga ro‘baro‘ qilib dedi: “Agar xalifalikka biz haqdormiz, degan so‘zlaringiz rost bo‘lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!” Ular aytdilar: “Ey pok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta, Sen o‘zing ilmu hikmat sohibisan”. (Alloh); “Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir”, dedi” (Baqara: 2/31-32). Rabg‘uziy keyingi jarayonni quyidagicha bayon qiladi: “Odam otlarin aytu berdi, bu yig‘och, bu tosh, bu suv. Qamug‘ narsaning otini bu idish bu ayoqg‘a tegru ***qamug‘ tillar*** birla bayon qildi. Xitob keldi: “Ey farishtalar, sizlarga aymadimmu man bilganni sizlar bilmazsiz”, teb”. Qur’onda Odam a.s. “asmo ilmi”ning sohibi deyiladi. Rabg‘uziy esa uning qamug‘(hamma) tillarni bilishini ta’kidlaydi. Ismlarni aniq bilish, aslida o‘sha narsalarning mohiyatini ham anglash ma’rifatidir. Moddiy narsalar, ma’naviy tushunchalar, qalbiy hislarning asl ismida ularning ma’no-mazmuni yashiringan. Mana shu imtiyozga ega Odam a.s. farishtalardan olimligi bilan ustun bo‘ldi. “Qisasi Rabg‘uziy”da o‘qiyiz: “Emdi sizga ma’lum bo‘ldikim, Odam olim turur, siz obidsiz. Maning hazratimda ming obiddin bir olim fozilroq turur. Qayda obid ersa olimg‘a xizmat qilmoq kerak. Ul mahdum bo‘lsun, sizlar xodim bo‘lung. Ul masjid bo‘lsun, sizlar sojid bo‘lung, Odamg‘a sajda qiling”. Asardagi bu tafsilotlar tafsir kitoblaridagi oyatlarning batafsil sharhlarini eslatadi. Ularda insoniyatga meros tuyg‘ular manbai ochib beriladi. Odamzodning yaratilish sababi, bandalik vazifalaridan tortib, qobiliyat imtiyozlarigacha ta’riflanadi. Hatto Rabg‘uziy she’riy parchada Odam a.s.ning forsiy va turkiy tilni bilishini urg‘ulab deydi:

Bildi asmo ilmini ul etu berdi belguluk,
Barcha tillar birla so‘zlar tozi forsiy turkidin.

Bu kabi ma’lumotlar, hatto Odam a.s.ning boshda faqat turkiy tilni bilishi haqidagi tafsilotlar, boshqa badiiy asarlarda ham uchraydi.

Til masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan mazkur asarning bir o‘rnida esa Odam avlodlari tilining bo‘linib ketish sababi ko‘rsatiladi: “Aydi: “Ul kim ersakim o‘tg‘a kivurdi”. Namrud aydi: “Ema yaxshi Tengri turur saning Tengring”, teb musulmon bo‘lg‘ug‘a ko‘ngulsindi. Qotindaqilar unamadilar. Anda kezin tutun birla halok qilaling, teyushtilar. Lut alayhissalom kelib, Ibrohimg‘a xabar qildi, kenddin tunda qarong‘uda qochib chiqdilar. Namrud yo‘lda soqchilar qo‘zub turur erdi. Ibroniy tillik kim ersa yo‘luqsa tutung, teb. Ul tunda qamug‘ tillar Mavlo qudrati birla bulg‘ashdi, tillar aynadi. Aymishlar, etmish iki turluk til bo‘ldi. O‘n sekiz til Hom urug‘i hindular oldilar, o‘n sekiz Som urug‘i arab va ajam oldilar. O‘tuz olti til

Yofas urug‘i turklar oldilar. Ibrohim birla Lut yo‘l soqchilarindin o‘ttilar”. Demak, Alloh taolo ikki mo‘min qullarini qutqarish maqsadida tillarni qorishtirib tashladi va insoniyatning bo‘linishiga ham bu sabab bo‘ldi. Bugungi ilm ahlining ma’lumotlariga ko‘ra ham, turkiy tillar oilasiga 30 dan ortiq til mansubdir. Asar ilmiy-nazariy ma’lumotlarning badiiy tarzda ifodalanishi bilangina emas, balki arabiy nomlarning turkiy tildagi muqobilini keltirilishi bilan ham qimmatlidir. Masalan, “Mavlo azza va jalla bir qushni qulovuz iza berdi. Oti arab tilincha Axyol erdi, turk tilicha ko‘k qarg‘a. Ul uchar erdi, Odam so‘nguncha borur erdi. Xabarda kelur, Rasul alayhissalom aydi: Olti qushni o‘lturmang, biri ko‘k qarg‘a, Odam qulovuz uchun” yoki yana bir o‘rinda: “...Farmon bo‘ldi farishtalarga, ul xotunni urdilar, masx bo‘ldi. Arab tilincha oti Zuhra erdi, forsiy tilincha oti Nohid erdi, ibriy tilincha oti Biduxt, turk tilincha oti Saqit”. Birgina Alloh so‘zi bilan barobar Tengri, Iziyo deya turkiy lafzlar ishlatilishining o‘ziyoq asarning lisoniy jihatdan qimmatini ko‘rsata oladi: “Aydi: «Ilohiy, munung yoshi necha turur?» Yorlig‘ keldi: «Oltmish yil», teb. Duo qildi: «Iziyo, munung umrini orturg‘il». Yorlig‘ keldi: «Taqdirda andog‘ qalam oncha bitildi».

Xulosa shuki, avvalo, turkiy til badiiyat imtiyozlarining kengligi isbotlangan “Qisasi Rabg‘uziy” asari eski turkiy tilda, siyratshunoslarga ko‘ra, Xorazm turkchasida yozilgan. Ta’kidlash joizki, turkiy tilning o‘ziga xos boy leksik qatlami, fonetik, grammatik, uslubiy xususiyatlarini namoyon qilgan ushbu asarda turkiy tafakkur, turkiy ruhning saqlanishi alohida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosiruddin Rabg‘uziy . “Qisasi Rabg‘uziy”.1-, 2-kitob. Toshkent: Yozuvchi, 1990.

2. Mallaev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. / Darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1976.

3. Abdullaev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980.

4. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.

5. Rahmonova Z. Ishq, irfon va irshod. – Toshkent: Tafakkur tomchilari. 2021.

JADID MATBUOTIDA TIL VA SHAXS MA’NAVIYATI

Mashhuraxon Adiljon qizi Darmonova,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
mashxura.darmonova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid matbuoti sahifalarida til va shaxs ma’naviyatiga oid masalalar chuqur ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadid mutafakkirlarining milliy tilni asrash, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni keng targ‘ib qilishga bo‘lgan intilishlari asosiy masala sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu mavzu dolzarbligi shundaki, jadid matbuoti faqat ma’lumot etkazish vositasi bo‘lmay, balki xalqning ongini yuksaltirish, shaxs ma’naviyatini boyitish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Maqolada jadid matbuotida chop etilgan maqola va asarlardan namunalar tahlil qilinib, til va imlogaga oid fikrlar, tortishuvlar talqini berilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadid matbuoti, jumladan, milliy tilni rivojlantirish, ma’naviyatni yuksaltirish yo‘lida katta o‘rin tutganligi, u zamonaviy o‘zbek tilining shakllanishiga asos bo‘lganligi aniqlangan. Shu bilan birga, maqolada milliy til va ma’naviyatni targ‘ib qilishda jadid matbuoti materiallaridan foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, o‘quv dasturlariga jadid matbuoti namunalarini kiritish, yoshlarni milliy merosga qiziqtirish, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Maqola ilmiy va amaliy jihatdan jadid matbuoti orqali milliy til va ma’naviyatni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot sifatida muallifning o‘ziga xos hissasini aks ettiradi. Maqola materiallari tilshunoslik, tarix, madaniyat va pedagogika sohalarida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadid matbuoti, til, imlo, tarix, jadidlar, gazeta, jurnal.

Аннотация

В данной статье подробно анализируются вопросы языка и духовности личности на страницах джадидской прессы. Исследование сосредоточено на стремлениях джадидских мыслителей сохранять родной язык и широко распространять духовно-просветительские ценности. Актуальность темы заключается в том, что джадидская пресса служила не только средством передачи информации, но и важной платформой для повышения уровня сознания народа и обогащения духовности личности. В статье рассматриваются примеры статей и произведений, опубликованных в джадидской прессе, с анализом взглядов на язык и орфографию, а также обсуждений и споров по этим вопросам.

Результаты исследования показали, что джадидская пресса сыграла значительную роль в развитии национального языка и повышении духовности, став основой для формирования современного узбекского языка. Кроме того, в статье предложены практические рекомендации по использованию материалов джадидской прессы для популяризации национального языка и духовности. В частности, предлагается включить образцы джадидской прессы в учебные программы, стимулировать интерес молодежи к национальному наследию и развивать аналитическое и критическое мышление.

Статья имеет как научную, так и практическую значимость, отражая авторский вклад в исследование сохранения и развития национального языка и духовности через джадидскую прессу. Материалы статьи могут быть полезны исследователям, работающим в области лингвистики, истории, культуры и педагогики.

Ключевые слова: Туркестан, джадидская пресса, язык, орфография, история, джадиды, газета, журнал.

Abstract

This article provides a detailed analysis of issues related to language and personal spirituality on the pages of the Jadid press. The study focuses on the efforts of Jadid thinkers to preserve the native language and widely promote spiritual and educational values. The relevance of the topic lies in the fact that the Jadid press served not only as a means of information dissemination but also as an important platform for raising public consciousness and enriching personal spirituality. The article examines examples of articles and works published in the Jadid press, analyzing views on language and orthography, as well as discussions and debates on these topics.

The study results revealed that the Jadid press played a significant role in the development of the national language and the enhancement of spirituality, becoming the foundation for the formation of the modern Uzbek language. In addition, the article offers practical recommendations for using materials from the Jadid press to promote the national language and spirituality. Specifically, it suggests including samples of the Jadid press in educational programs, encouraging young people to study national heritage, and developing analytical and critical thinking skills.

The article is of both scientific and practical significance, reflecting the author's contribution to the study of preserving and developing the national language and spirituality through the Jadid press. The materials of the article can

be useful for researchers working in the fields of linguistics, history, culture, and pedagogy.

Keywords: Turkestan, Jadid press, language, spelling, history, Jadids, newspaper, magazine.

Davriy matbuot, ayniqsa, jadidlar matbuoti qardosh Turkiston ahli uchun milliy jipslik, milliy mustaqillikning qanchalik muhim va zarurligini anglab etishda maktab vazifasini bajargan. Mustamlakachilik va turg‘unlikni boshidan kechirayotgan Turkiston ahlining mazkur tuzumga qarshi kurash g‘oyasi atrofida birlashib, zarur qudratga ega bo‘lishi jadid matbuoti ko‘zda tutgan asosiy maqsad bo‘lgan [1]. “Samarqand”, “Hurriyat”, “El bayrog‘i”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Yeni ikbal”[19], “Yeni irshad’”[20], “Oyina” kabi dastlabki gazeta va jurnallar sahifalarida milliy uyg‘onish g‘oyalari targ‘ib qilingan.

Bundan tashqari, gazetalar bilan birga “Oyina”[21], “So‘l saroblari”, “Al-isloh”[22], “Dehqon”, “Yurt”[23], “Kengash”[24], “Al-izoh”[25], “Izhor ul-haq”[26], “Bayon ul-haq”[27], “Ishchilar dunyosi”[28], yarim tatar shevasida “Chayon”[29], “Sadoq”[30], “Sredne-Aziatskiy Vestnik”[31], “Srednyaya Aziya”[32], “Turkiston chayoni”[33], “Turkiston qora qurti”[34] kabi jurnallar nashri yo‘lga qo‘yilgan.

Jadid matbuotida til masalasi alohida o‘rin tutib, arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish, tilni soddalashtirish, grammatik islohotlar va yangi terminlarning joriy qilinishi kabi masalalar atroflicha muhokama qilingan.

Jadid nashrlari o‘z davrida ta’lim-tarbiya, ijtimoiy ongni uyg‘otish va milliy g‘oyalarni targ‘ib qilishda samarali axborot vositasi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Bu

[19] Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Nodir nashrlar bo‘limi. Saqlov raqami – G-123 (1916). Baku.
[20] Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Nodir nashrlar bo‘limi. Saqlov raqami – G-121 (1911 – 1912). Baku.
[21] “Oyina” jurnali Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida “Samarqand” gazetasi o‘rniga 1913-yil avgustdan nashr etila boshlagan. 1913 – 1915-yillari jurnalning 69 ta soni nashr etilgan. Tili o‘zbekcha (arab alifbosida), forscha va ruscha bo‘lgan, dastlab 28 bet, keyin 30 – 35 sahifalik holda haftada bir marta chiqqan. Tahririyat manzili Samarqand shahri Reshetnikovskaya ko‘chasi 9 – 11-uyda joylashgan Zarafshon nashriyot shirkati bo‘lgan.
[22] “Al-isloh” jurnali 1915 – 1917-yillari chop qilingan.
[23] “Yurt” – adabiy jurnal bo‘lib, Muharriri va noshiri Ashurali Zohiriy bo‘lgan. Iqtisodiy qiyinchilik tufayli 5 – 6 sonidan keyin nashr etilmagan. Jurnal Toshkentda chiqarilgan, uning 3 – 4 soni chop qilinganidan so‘ng, moddiy tanglik tufayli nashr to‘xtatilgan.
[24] “Kengash” jurnalining noshiri Muallimlar jamiyati, muharriri esa Hamza Hakimzoda bo‘lgan.
[25] “Al-izoh” jurnali 1917 – 1918-yillari nashr qilingan.
[26] “Izhor ul-haq” jurnali “Fuqaro” jamiyatining nashri.
[27] “Bayon ul-haq” jurnali “Madaniya” shirkatining nashri bo‘lib, “Izhor ul-haq” jurnali o‘rniga chiqqan.
[28] “Ishchilar dunyosi” ijtimoiy jurnal bo‘lib, Toshkentda nashr etilgan.
[29] “Chayon” – yarim tatar shevasida Toshkentda nashr qilingan hajviy-rasmli jurnal.
[30] “Sadoq” – Yettisuv viloyati Olmaota shahrida chiqqan hajviy jurnal.
[31] “Средне-Азиатский Вестник” jurnali O‘rta Osiyodagi dastlabki jurnal bo‘lib, 1896-yil mart oyidan nashr etila boshlagan.
[32] “Средняя Азия” jurnali 1910 – 1911-yillari A.L. Kirsner tahriri ostida chop qilingan.
[33] “Turkiston chayoni” jurnali 1907-yil Toshkentda nashr qilingan.
[34] “Turkiston qora qurti” jurnali 1911-yil Toshkentda chop etilgan.

nashrlar orqali jadidlar til vositasida ma’rifat tarqatish, yosh avlodni savodli qilish va millatning ma’naviy rivojlanishiga xizmat qilishga alohida e’tibor qaratganlar. Ular ona tilini mukammal o‘zlashtirishni targ‘ib qilish bilan bir qatorda, xorijiy tillarni o‘rganishni ham muhim deb hisoblashgan.

Jadid ma’rifatparvari Ashurali Zohiriy o‘z asarlarida til bilimining zarurligini ta’kidlab: “Durust, forsiycha, arabcha, uruscha va boshqalarini ham bilaylik, bilaylikgina emas juda yaxshi bilaylik, lekin o‘z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyodaroq, sarf va naxvlari bilan bilaylik. Va ham shundog‘ bo‘lg‘onda arabcha, forsiycha va boshqalarig‘a tushunurmiz. Qachonki o‘z tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz. Shuning birla na uni bilurmiz va na buni!” [2] – degan fikrni ilgari surgan.

Elbek esa, milliy tilning millat hayotidagi ahamiyatini urg‘ulab: “Bir ulusning dunyoda borliqqa chiqara turg‘on narsasi shubhasiz, uning milliy narsalari va tili bo‘lg‘usidir” [3], – deb yozgan. Unga ko‘ra, til — xalqning milliy qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishda muhim vositadir. Tili yo‘q millat o‘z o‘zligini yo‘qotadi, ma’naviy bo‘shliqqa duchor bo‘ladi. Shu sababli, jadidlar tilni saqlash, uni rivojlantirish va uning ijtimoiy qadrini oshirishni milliy ehtiyoj sifatida qaraganlar.

Jadid matbuoti til va shaxs ma’naviyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib, tilni nafaqat muloqot vositasi, balki millatning ma’naviy va madaniy negizini tashkil etuvchi asosiy omil sifatida talqin qilgan. Shu orqali yoshlarning ona tilini mukammal bilishi, uning orqali milliy ma’naviy qadriyatlarni anglashiga yo‘l ochgan. “Imlo masalasi” bo‘yicha muhokamalar yozuvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida keng qamrovli bahslarni keltirib chiqargan. Ko‘r-ko‘rona taqlid qiluvchi o‘qituvchilarning imlo xatolari tanqid qilinib, yangi imloning afzalliklari haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon etilgan [4].

“Chig‘atoy gurungi” imlochilari va boshqa imlochilar o‘z imlo qoidalarini to‘g‘ri deb hisoblab, ularni gazetalarda yoritganlar va munozaralarga chaqirganlar. Yangi imlochilar o‘z pozitsiyalarini himoya qilish uchun munozaralarda faol qatnashganlar. Gazetalar sahifalarida yozilgan maqolalarda yangi imloni qo‘llab-quvvatlash, uni ta’lim tizimiga joriy etish zaruriyati haqida yoritilgan bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq, eski imlochilar ochiq muhokamalarga kirishishdan bosh tortgan holda, o‘z qarashlarini yashirin tarzda himoya qilganlar. Bu holat, o‘z navbatida, jamiyatda turli imlo yo‘nalishlarining yuzaga kelishiga olib kelgan. Jadid matbuoti esa til va imlo masalalari bo‘yicha muhokamalarni ochiq va ommabop tarzda yoritishga xizmat qilgan.

Jadidlar tilni soddalashtirish va uning imlosini isloh qilishga katta e’tibor qaratdilar. Arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish, grammatik qoidalarni

tizimlashtirish va yangi imlo qoidalarini joriy etish bo‘yicha qator maqolalar e’lon qilingan [5]. Bu tashabbuslar jadid matbuoti sahifalarida faol muhokama qilinib, tilni xalq ommasiga yaqinlashtirish, uning savodxonlikdagi o‘rnini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan.

Til va imlo qurultoyi ham ana shu islohotlar yo‘lidagi muhim qadamlardan biri edi. 1921-yil 1-yanvar kuni Ispolkom binosida boshlangan mazkur qurultoyda milliy tilni rivojlantirish, uning yagona imlo qoidalarini yaratish va ta’lim-tarbiyada uni to‘g‘ri qo‘llash masalalari muhokama qilingan. Qurultoyda til mutaxassislari va jadid ziyolilari, jumladan, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon, Shokirjon Rahimiy, Ashurali Zohiriy, Vadud Mahmud, Shohid Ahmadiev, Nurillo ishtirok etib, tilni zamonaviy talablarga moslashtirish yo‘llarini izlaganlar. Qurultoyning birinchi yig‘ilishida Shohid Ahmadiev nutq so‘zlab, milliy tilning ahamiyatini alohida ta’kidlagan.

Avliyo Ota vakili Vahob Dovud o‘z chiqishida imlo turliligi sababli o‘quvchi va o‘qituvchilar turli qiyinchiliklarga duch kelayotganini aytib, yagona imlo qoidalarini joriy etish zarurligini alohida qayd etgan. Uning fikriga ko‘ra, Toshkentda chaqirilgan mazkur qurultoy faqatgina til masalalarini emas, balki umumiy ma’naviy va madaniy rivojlanishga yo‘naltirilgan tashabbuslarni ham qo‘llab-quvvatlagan: “Toshkentga chaqirilgan bu qurultoy bizning muallimlarimizni juda suyuntirdi. Avliyo ota shahrinda pe’sa yozishuv, teatr qo‘yuv, musiqa o‘rganuv ishlari juda yaxshi boradur. Bu ishlar taraltudilar orasida boshlangan bo‘lsada, ayni vaqtda maorif sho‘basining yonida maxsus trupp tashkil etildi. Muallimlarg‘a maxsus musiqa maktabi ochildi” [6].

Vahob Dovud xalq orasida san’atga bo‘lgan havasning kuchayganini alohida ta’kidlar ekan, ushbu yo‘nalishdagi imkoniyatlar cheklanganini ham tan oladi. Muallimlar etishmasligi va rahbarlikning cheklangan yordami mavjud tashabbuslarning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilardi. Shu bois, milliy ziyolilar til, ma’rifat va san’atni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida yondashganlar.

Jadidlar esa Vahob Dovud kabi ma’rifatparvarlarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlab, milliy tilni soddalashtirish, yagona imlo qoidalarini joriy qilish, adabiy va madaniy saviyani oshirish orqali yosh avlodni savodli, ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli qilishga intilganlar. Ular tilni faqat axborot almashinuvi vositasi emas, balki millatning ma’naviy kamolot va milliy o‘zlikni anglashining asosiy omili sifatida qabul qilganlar. Bu kabi tashabbuslar yoshlar o‘rtasida savodxonlikni oshirish, milliy tilni chuqurroq o‘zlashtirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Jadidlar matbuoti yangi adabiy tilni shakllantirish, yangi terminologiya yaratish va tilni boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi. Jurnalistlar va yozuvchilar

milliy tilni me’yorlashtirish va uni adabiy shaklga keltirishda faol ishtirok etdilar. Shuning natijasida imlo masalasini hal qilish maqsadida uyushmalar tuzildi, jamiyatlar tashkil etilib, ularning qurultoylari o‘tkazildi. Kengashlar shakllanib, fikrlar almashildi. Natijada, “eski”, “o‘rta” va “yangi imlo” kabi uch xil yo‘l shakllandi: “Imlo va harf masalasi bilan qiziqsing‘on kishilarimiz shu uch turli yo‘ldan biri tanladilar, shuning shunga mansub bo‘ldilar. Buning orqasida uch turli gruppa maydonga chiqdi. Bu uch to‘daning ham amali armoni bir, faqat yo‘li, ketishi ayrodir.

Barchasi ham xalqimizni savodsizliqdin qutqorish, barcha o‘zbeklarning yozuvini bir turli qilish, bolalarimizning tezdan savodini chiqarish yoqlovchilaridandir. Faqat ayro bo‘lg‘oni shugina biroz xalaqit berdi. Maktablarimiz kitob so‘raydur. Ilmiy kuchlarimiz yo‘q deyish darajada. Shu darajadagi kuchlarimiz ham bo‘lgon, “yangi imloda kitob yozmayman” deb bir turlisi aytadur, eski imloing buzuq, buni maktablarga kirgizmayman, qabul aytmayman” deb aytganchisi aytadir. “na saniki va buniki, har ikkovining o‘rtasida bo‘lg‘oni kerak”, deb uchinchisi aytadir. Aro yo‘lda maktablarimiz kitobsiz qolmoqda, matbuotimiz turli yo‘lda bir-biridan ajralmoqda edi” [7].

Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustamlaka zulmi ostida bo‘lgan Turkiston taraqqiyotning muhim omili sanalgan vaqtli matbuot organlarini nashr etishda juda ko‘p – ham iqtisodiy, ham nazorat, ham boshqaruv yuzasidan qiyinchiliklarga duch kelgan [8,144]. Matbuotda e’lon qilingan maqolalar mazmuni hamda ularning tahlili asosida aytish mumkinki, gazeta va jurnallar ham ularning ta’sischilari, muharrir va yozuvchilari qatorida qatag‘on qilingan. 1906 – 1908 va 1913 – 1915-yillari jadidlar tomonidan chop etilgan barcha matbuot nashrlarining faoliyati bunga aniq misol bo‘la oladi.

Jumladan, jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniy “Turon” nomli gazeta nashrini yo‘lga qo‘yib, unda istiqlol, milliy mafkuraviy qarashlarni olg‘a surgan. Millatning taraqqiyoti yo‘lida qilingan barcha xayrli ishlar kurashlarsiz bo‘lmagan. Avloniy chop qilgan birinchi gazeta “Shuhrat”ning o‘nta soni chiqar-chiqmas hukumat tomonidan ta’qiqlangan. “Turon” gazetasining taqdiri ham shunday kechgan. Hatto Avloniy “kofir” deb e’lon qilinib, o‘limga mahkum etilgan. Faqat matbuot orqali “tavba-tazarru”gina uni o‘limdan saqlab qolgan.

Umuman olganda, jadid matbuoti til islohotlari va milliy o‘zlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. U nafaqat axborot vositasi, balki xalqni ma’rifatli tarbiyalash, ilmiy va ma’naviy yuksalishga xizmat qilgan muhim platforma bo‘lgan. Jadid mutafakkirlarining milliy tilni rivojlantirish, ma’naviyatni yuksaltirish va xalq ongini boyitishga qaratilgan faoliyati katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ular o‘z asarlarida til orqali shaxsni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni saqlashda izchil ish olib borganlar.

Olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Jumladan, jadid matbuoti materiallaridan o‘quv dasturlarida keng foydalanish zarur. Yoshlarni milliy matbuot materiallarini o‘rganishga qiziqtirish va ularni tahliliy fikrlashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Davriy matbuot materiallarini tadqiq etish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham zamonaviy pedagogika va madaniyat sohalarida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Машҳурахон Дармонова. Жадидлар фаолияти ва ижодида миллий уйғониш масаласи. “Водийнома” журнали. 2023 йил № 3 (30). – 45 – 51-бетлар.

2. A.Zohiriy. Ona tili // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi. 1914-yil 13-aprel.

3. Elbek. O‘lka qurultoyi va uning qoldirgan ta’siri // “Qizil bayroq” gazetasi. 1921-yil 13-yanvar.

4. Chig‘atoy gurungining imlo to‘dasi. Imlo masalasi // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 13-iyun.

5. Davlat lisoni masalasi // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1918-yil 4-dekabr; Elbek. O‘lka qurultoyi va uning qoldirgan ta’siri // “Qizil bayroq” gazetasi. 1921-yil 13-yanvar; Sodiq. Til imlo qoidasi // ““Qizil bayroq” gazetasi. 1921-yil 25-yanvar.

6. Siddiqov. Til va imlo qurultoyi (Vadud Mahmud, Zehniy, Ashurali Zohiriy, Hamid Sulaymonlarning qilgan dokladlariga doir) // “Qizil bayroq” gazetasi. 1921-yil 7-yanvar.

7. O‘ktam. O‘rta Osiyo o‘zbeklarining imlo konferensiyasi munosabati ila // “Turkiston” gazetasi. 1923-yil 24-oktabr.

8. Туркистон матбуоти тарихи (1870 – 1917). Тузувчи Н.А. Абдуазизова. Тошкент: “Академия”. 2000. 144-бет.

G‘OYA, MAVZU VA MA’NO MUSHTARAKLIGI

Asqarov Dilmurod,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada muxammaslarda mavzu, g‘oya, ma’no jihatdan umumiylikni yuzaga chiqarishda muallif mahorati masalasi Amiriy va Feruz lirik merosi misolida ochib berilgan. Amiriyning Navoiyga izdoshligi masalasi taxmislar orqali ko‘rsatib berilgan. Ikki hukmdor ijodkorlarning mushtarak mavzu va g‘oyalarini ishq masalasiga bag‘ishlangan muxammaslari misolida tahlil qilingan, o‘xshash va farqli jihatlari yuzasidan fikr bildirilgan.

Kalit so‘z va iboralar: muxammas, o‘xshashlik, tafovut, izdoshlik, mavzu, g‘oya, mazmun.

Аннотация

В статье рассматривается мастерство автора в создании общих тем, идей и смыслов в своих стихотворениях на примере лирического наследия Амири и Феруза. Вопрос о приверженности Амира Навои проиллюстрирован через тахмисы. На примере их стихотворений, посвященных теме любви, анализируются общие темы и идеи двух правящих творцов, обсуждаются их сходства и различия.

Ключевые слова и фразы: сходство, подобие, различие, связность, тема, идея, содержание.

Abstract

This article examines the author's skill in creating common themes, ideas, and meanings in mukhammas using the example of the lyrical heritage of Amiri and Feruz. The issue of Amiri's adherence to Navoi is illustrated through metaphors. The common themes and ideas of the two ruling creators are analyzed using the example of their mukhammas dedicated to the issue of love, and their similarities and differences are discussed.

Key words and phrases: mukhammas, similarity, difference, adherence, theme, idea, content.

Ishq – musulmon mintaqa xalqlari mumtoz adabiyotining o‘zak mavzusidir. Asrlar davomida ulug‘ so‘z san’atkorlari tomonidan ijod etilgan nazm namunalari, ayniqsa, g‘azaliyot ana shu umrboqiy mavzudan ruh oldi. G‘azalning she’rxon ko‘nglida tuyg‘ular tug‘yonini vujudga keltiruvchi nazm durdonasiga aylanishida unda qalamga olingan ishq mavzusining ham ko‘lami kengligi asos bo‘ldi. Badiiy salohiyati yuksak shoir tomonidan ayni mavzuda ijod etilgan g‘azaldagi rangin satrlar she’rxonni taxayyul olamiga etaklaydi. [1.16]

Muxammas asosida g‘azal yotadi. Asos g‘azalda ko‘tarilgan mavzu va g‘oya muxammasda atroflicha boyitiladi. Muxammas haqida gap ketganda, shoir o‘ziga yoqqan va g‘azalda etarlicha yoritib berilmagan mavzularni kengroq mushohada

qilishga harakat qiladi. Muxammasning har bandi besh misra ekanligi bu ishda ijodkorga keng imkoniyat yaratadi.

Shoir o‘quvchini so‘zning fusunkor qudrati bilan xayol olamiga sayr ettirarkan, ba’zan uni benazir go‘zallik sohibi bo‘lgan ma’shuqasi bilan uchrashtiradi, ba’zan esa unga hijron iztiroblarida shirin jonining o‘rtanishi-yu, sog‘inch hislarining asiriga aylanishini so‘zda namoyon etadi. Biroq shoir she’rxonni ko‘ngil istaklariga uyg‘un holda xayol olami tomon qanchalik etaklamasin, o‘sha badiiy tafakkurning bir tomoni hamisha o‘quvchining ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq bo‘ladi. Mana shunday o‘ziga xos uslubiy jilo she’rxonga ham estetik zavq bag‘ishlaydi, ham uni yuksak insoniy fazilatlar sohibi bo‘lishga undaydi. Mumtoz adabiyotning etakchi mavzusi bo‘lgan ishqning ushbu jihatlari uning badiiy talqini asosida yaratilgan nazmning turli namunalari, xususan, muxammasning barcha zamonlar uchun birdek qadr topishiga omil bo‘ldi.

“Ishq” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari haqida ma’lumot beruvchi diniy va tasavvufiy manbalardagi ayrim qaydlar Sharq mumtoz adabiyotining bu etakchi mavzusi bevosita Qur’oni karim, hadislar va yirik mutasavviflarning Allohga bo‘lgan muhabbat hamda inson ma’naviy kamoloti haqida bildirgan fikrlari asosida vujudga kelganiga ishora qiladi. Qur’oni karimda ishq kalimasi uchramasa ham, tasavvufiy manbalarda ushbu ilohiy kitobning ba’zi suralarida Alloh va inson orasidagi muhabbatga dalolat qiluvchi oyatlarning mavjudligi haqida so‘z yuritiladi.

Mahmud Sa’diddin Bilginarning “Alloh va inson” nomli kitobida tasavvuf ahlining e’tiborida bo‘lgan ana shunday oyatu hadislar hamda ularning muhim irfoniy xususiyatlaridan bahs etiladi. Olim “Baqara” surasining 165-oyatida ishq so‘zi o‘rnida nozil bo‘lgan Alloh kalomi mavjudligiga diqqatni qaratib, uni quyidagicha izohlaydi: *“Vallazina amanu ashadu xubban lilloh” (“Iymon keltirganlarning Alloh uchun sevgisi eng shiddatli sevgidir”)*, ─ deyiladi. Bu oyatda ishq ifoda etilgan, zero, ishq sevgining shiddatli bo‘lish shaklidir”. [2.67-68] Taniqli tarjimon Alouddin Mansur yuqoridagi ilohiy jumlani: *“Iymonli kishilarning Allohga bo‘lgan muhabbatlari qattiqroqdir”*, [3.24] ─ tarzida o‘zbekchalashtiradi. Abdulaziz Mansur: *“Iymon keltirganlarning Allohga bo‘lgan sevgilari (ularnikidan) kuchliroqdir”*, [4.25] holida o‘sha ilohiy jumlani o‘zbekchaga uyg‘unlashtirgan. “Islomiy istilohlar lug‘ati”da ishqning “sevgi”, “savdo”, “muhabbat”, “aloqa” kabi so‘zlar bilan ma’nodoshligi hamda ishq “sevgining yuksalishi”, “muhabbatning ifrodi”, “yuqori darajaga etgan sevgi” singari istilohiy ma’nolarda qo‘llanishi qayd etiladi. [5.42]

Ishq va muhabbat kalimalari arabcha so‘z bo‘lib, ma’no-mohiyatiga ko‘ra har ikkalasi ham ko‘ngilning mahbub tomon kuchli ishtiyoq bilan intilishini anglatadi. [6.49]

Amiriy devoni debochasida shundy fikrlar bor: “*Bovujudi muncha shug‘lu taraddud va bu miqdor tajassus va tafaqqud ko‘ngul ishq-u muhabbat zavqig‘a rog‘ib va zamirimda oshiqona, shavqangiz g‘azallar shavqi g‘olib erdi. Parichehra gulandom shohidlari sahfayi orazida sun’i qalami birla yozilg‘on xatti rayhoniy g‘uborin va xol binafshasi nuqtalari savodin mutolaa va mushohada qilib, “al-majozu qantarat ul-haqiqa” ta’limi birla haqiqat sarmashqin olur erdim. Har qachonkim sarvqomat sumanbarlar ko‘zim hadiqasi chamanida jilva qilurlar erdi, tabiat gulshanida mavzun xayollar gulbuni ko‘karib, ul Sone’i bechun san’atining ta’rifida barjasta ash’orlar mazmunining misralari sarvi ra’no nihollaridek bosh chekar edi. Va har gohkim gulruxsor sanamlar husnining oyinasikim, mahbubi bemisl jamolining jilvasi mazharidir, hayolim nazarig‘a manzur bo‘lg‘och, tab’im to‘tisi mushohada hayratgohida shirin ash’orlar birla azal naqqoshining irodati xomasi chekkon bade’ naqshlar ofarinanda surud qilur erdilar. Nazm:*

Agarchi hush diyorida g‘olib erdi ko‘ngul,
Jununi ishqu muhabbatg‘a rog‘ib erdi ko‘ngul.
Shuhud bazmida paymonai muhabbat ichib,
Mudom sog‘ari sahbog‘a tolib erdi ko‘ngul.

Va gohi ustodlar devonlaridin biror shavqangiz va muhabbatomuz g‘azal topar erdim, filhol zavqu shavq ifrotidin muxammas bog‘lar erdim. Va har g‘azaldin rangin va tahsin qofiya ko‘rar erdim, tatabbu’ida g‘azal aytur erdim.”

Ishq inson ruhiy-ma’naviy olamida his-tuyg‘ular vositasida namoyon bo‘ladigan murakkab jarayon bo‘lib, har bir oshiq ko‘nglidan kechirgan bunday vaqelikni o‘zicha talqin etadi. Badiiy ijod insonning botiniy kechinmalarining ham obrazli in’ikosi bo‘lganligi bois o‘sha xilma-xilllik so‘z san’atkorlarining badiiy tafakkuri mahsuli namunalarida adabiy ifodasini topadi. Ijodkorning ishqqa munosabatini to‘g‘ri anglash va shu mavzudagi asarlarini ishonarli tahlilu talqin qilishning muhim omili uning e’tiqodiy qarashlaridagi etakchi tushunchalarni chuqur idrok etishni talab etadi. Mustaqillik sharofati bilan mumtoz shoirlarimiz, ayniqsa, Alisher Navoiy adabiy merosi, uning asarlarining tadqiqi borasida masalaning ana o‘sha muhim tomoniga alohida e’tibor qaratildi. Ayni choqda respublika matbuotida e’lon qilingan ba’zi maqolalarda mavzu mohiyatini to‘la anglamaslik, bir yoqlama tahlilga moyillik, mumtoz asarlarda ilgari surilgan tasavvufona g‘oyalarni dunyoning turli o‘lkalarida vujudga kelgan ta’limotlar bilan

uyg‘un holda tahlil qilish holatlari paydo bo‘la boshlaganiga o‘z vaqtida munosabat bildirildi. [7.3]

Komil, pok ishq haqida fikr yuritilar ekan, mantiqiy tafakkur komil inson tushunchasiga borib taqaladi. Alisher Navoiy va Sharqning boshqa buyuk mutafakkirlari komil inson deganda, avvalo, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ni nazarda tutganliklari aksariyat manbalarda qayd etiladi. Taniqli olim N.Komilov tasavvufga oid tadqiqotida Muhyiddin Ibnul Arabiy, Shayx Olimiy, Sayid Abdukarim Geloniy, Aziziddin Nasafiy singari allomalarning komil inson haqidagi qiymat va ahamiyati yo‘qolmagan qarashlari, fikrlariga e’tiborni qaratadi. Tadqiqotchi ushbu mutafakkirlar mulohazalarini teran tadqiq etadi. E’tiborli jihati shundaki, olim Aziziddin Nasafiy falsafiy mushohadalariga ko‘ra, komil inson hayotdan tashqari allaqanday mavhum zot bo‘lmay, muayyan shaxs ekanligi, yaxshi sifatlarni egallab borgan inson shunday martabaga ko‘tarila olishi hamda komil inson martabasi tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiradigan yuksak martaba ekanligiga urg‘u beradi. [6.143-153] Shunday mulohazalar akademik B.Valixo‘jayev va adabiyotshunos E.Ochilovlar maqolalarida ham ko‘zga tashlanadi. [8.12-17; 9.7-14]

Amiriy va Feruz muxammaslari haqida adabiyotshunoslikda umumiy ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, poetik xususiyatlari hali maxsus va to‘liq o‘rganilmagan. Ularni har taraflama tadqiq etish o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotidagi muxammas nazariyasini o‘rganish, mavjud adabiy an’analarni davom ettirish va rivojlantirish hamda mazkur janrning yangidan yangi qirralarini kashf etishga qo‘shgan hissani teranroq anglash imkoniyatini beradi. Amiriy va Feruz muxammaslari tahlilida bajarilishi lozim bo‘lgan ilmiy izlanishlar ko‘lami va yo‘nalishini aniqlab olish, muxammaslarda asos g‘azal bilan orttirma misralarning shakl va ma’no mutanosibligiga e’tibor qaratish muhim.

Muxammaslarda ilohiy ishq mavzusini oshib berish maqsadida an’anaviy obrazlarga murojaat qilinadi. Lirik qahramon ikki ijodkorda ham oshiqdir. Oshiq ruhiy kechinmalarini yanada chuqurroq ochib berish uchun muxammas tanlangan.

Oshiq o‘lsang bazm aro bearg‘anun may ichmagil,
Garchi voiz senga aytur: “Lolagun may ichmagil!”
Ey Amiri dahr, sen haddin fuzun may ichmagil,
Tonglog‘i kavsar uchun bersanbukun may ichamagil,
Tek tur, ey zohid, Navoiy sen kabi loshimudur?!

Muhabbat mavzuining badiiy talqini har qanday shoir ijodining asosini tashkil etadi. Darhaqiqat, Feruz lirik shoir sifatida ishq-muhabbat mavzusining badiiy talqiniga alohida e’tibor qaratdi. Professor Nusratullo Jumaxo‘janing yozishicha: “Badiiy ijodda ham Feruz o‘z zamonasi shoirlarining peshvolaridan edi.

Qalamkashlikda u nozik tab’i, o‘tkir didi, ravon uslubi bilan adabiy muhitdagi ko‘pgina shoirlardan usturn turardi. Ayniqsa, ishq-muhabbatning mumtoz tasvirini yaratishda Feruz komil ijodkor darajasiga etganligini ishonch bilan e’tirof etish mumkin.

Feruz ishqni o‘ziga xos obrazlar orqali, ohorli uslubda vasf etdi, sof tuyg‘ulari va kechinmalarini betakror ifodaladi. Feruz buyuk ijodkor salaflari asarlaridagi obraz va tasvirlarni takrorlamadi. Ko‘hna tuyg‘u hisoblangan ishqni yangi ohanglarda, yangicha poetik talqinlar orqali tarannum etdi. Shu o‘rinda bu kabi izlanishlarning eng ahamiyatlilari xususida to‘xtalish zarurati seziladi.

To ishqing ichra ey pari, devonai zor o‘lmusham,
Hajringda g‘am tirnog‘idin a’zoyi bir-bir yulmusham,
Guldek uzoringni tilab gulbargi yanglig‘ so‘lmusham,
Rozi o‘lumga orazing hajri g‘amidin bo‘lmusham,
O‘ltur mani yo tig‘ ila, ko‘rguz manga yo orazing.

Feruz lirikasining asosiy mavzusi ishq-muhabbatdir. Shoir ushbu mavzuda o‘ziga xos jozibali she’rlar bitdi. Uning lirikasida shohning emas, oddiy insonning – oshiqning ruhiy kechinmalari, iztiroblari o‘z ifodasini topgan. Feruz g‘azallarida yuksak insoniy fazilatlar egasi – oshiq hamda go‘zallikda yagona, ba’zan mehribon, ba’zan zulmkor ma’shuqa timsoli turadi. Lirik qahramonning e’tiroficha, ishq borasida shohu qul barobar”. [10.78]

Shuni ta’kidlash kerakki, an’anaviy ishqiy she’riyatda bo‘lgani kabi Feruz lirikasida ham asosiy obrazlar oshiq, ma’shuqa va raqibdir.

Feruz muxammaslarining ikkitasi **taxmis.** Muxammas «beshlik» bo‘lsa, taxmis «beshlantirish» demakdir. Unda shoir o‘ziga ma’qul g‘azalning har bayti oldidan uch misradan qo‘shib, uni muxammasga (beshlikka) aylantiradi. Buning sharti shuki, taxmischi shoir g‘azalning vazni va qofiyasiga to‘la «bo‘ysunishi» kerak. Ayni paytda, unga ham taxmis so‘ngida o‘z taxallusini qo‘llash «huquqi» berilgan. Feruz o‘ziga ustoz deb bilgan Muhammad Rizo Ogahiy g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. Taxmis bog‘lashda shoir g‘azalning nafaqat vaznu qofiyasiga, balki uning tili va uslubiga ham e’tibor beradi. Ogahiyning “qoshu ko‘zung” radifli g‘azaliga yozilgan taxmis shu jihatdan alohida ahamiyatga ega:

Bir jilvagar bo‘lg‘och ko‘zum oldida to qoshu ko‘zung,
Fahmu xiradni ayladi mandin judo qoshu ko‘zung,
Jonimni oldi aylabon nozu ado qoshu ko‘zung,
Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qoshu ko‘zung –
Kim, bir nazarda soldi o‘t jonim aro qoshu ko‘zung.

E’tibor berilsa, Feruz misralarida ham g‘azal satrlaridagi singari ogahiyona zavqni, teranlik va ohangni his etish mumkin. Ulug‘ ustoz shoirlar g‘azallariga

taxmis bog‘lashning yana bir sharti – g‘azalga bog‘langan uch misra mohiyatan unga shunchalik singib ketishi kerakki, beshlik band yaxlit o‘qilganda bamisoli bir ijodkor tomonidan bitilgandek taassurot uyg‘otishi zarur. Feruz taxmis bog‘lash borasida ustozi Ogahiyga munosib izdosh ekanini ko‘rsata olganini ta’kidlash kerak. Muxammasning keyingi bandlarida ham xuddi shu holni kuzatish mumkin:

Husn ahli shohisan, erur mulkung malohat kishvari,
Ikki ko‘zung jodu erur, qoshing – alarning xanjari,
Majnundek o‘ldi ko‘rgach – o‘q husnung jahon donolari,
Man zori hayroning nechuk devona bo‘lmay, ey pari –
Kim, aqlu hushum ayladi mandin judo qoshu ko‘zung.

Muhammad Rahimxon Feruz asarlarida ishq mavzusining talqini masalasini o‘rganish uning asarlarida ham aynan xavos ishqi badiiy ifodalangani haqidagi to‘xtamga olib keladi. Shoir asarlaridagi oshiq, ma’shuqa va raqib triadasi ham hazrat Navoiy ilgari surgan ana shu konsepsiyadan kelib chiqib o‘rganilishi zarur. Ana shunda Feruz asarlaridagi ishq talqini ilmiy jihatdan to‘g‘ri baholangan bo‘ladi. Professor Nusratullo Jumaxo‘janing mana bu fikrlari ham buni tasdiqlaydi: “Ixlosmand shoirni Tangrining kashfu karomatlari, u ijod etgan mo‘jizakor olam sirlari, o‘zining husnu jamolini oynadagidek ko‘rish ishtiyoqida vujudga keltirgan tabiat va inson go‘zalliklari maftun etadi. Uning ruhiyatida Haq muhabbati tug‘yon uradi. Feruzning ilhomi va ijodi Haqning ishqi jununidan zavqu shavqqa to‘lish to‘lg‘og‘ida tavallud topadi”. [12.50-51]

Ayni xususiyat hazrat Alisher Navoiy ishqiy lirikasida ham kuzatiladiki, buyuk mutafakkirning ishq haqidagi qarashlari, prinsiplari nafaqat mumtoz she’riyatimizning Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat kabi shoirlar, balki Muhammad Rahimxon Feruz uchun ham o‘ziga xos mezon vazifasini o‘tagani ma’lum bo‘ladi. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is’hoqov hazrat Alisher Navoiy ijodi misolida mumtoz she’riyatimizdagi ishq talqini asoslarini quyidagicha ta’riflaydi: “Navoiyning ishq masalasidagi konsepsiyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, majoziy ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Balki, majoziy ishq ishqi haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma’naviy komil inson uchun majozning o‘zi ayni haqiqatdir”.[13.25] Ta’kidlash kerakki, ishq konsepsiyasi borasida Feruzning tutumi Alisher Navoiy qarashlariga har jihatdan muvofiq keladi. Feruz ham majoziy ishqni haqiqiy ishqqa eltuvchi vosita deb biladi va she’rlarida ayni shu mazmunda badiiy talqin etadi.

Amiriy Navoiy g‘azallariga eng ko‘p muxammas bog‘lagan ijodkor hisoblanadi. [15.21-27]

Amiriy taxmislari, aytish mumkinki, hamma tomondan g‘azallari asos bo‘lgan mualliflar uslubi, dunyoqarashi, g‘oyasi, badiiy ifoda vositalariga yaqinlashib boradi. Masalan, Alisher Navoiyning “Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o‘t” misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g‘azaliga bog‘langan taxmisda Amiriy mahoratining yana bir qirrasi namoyon bo‘ladi. Navoiy qo‘llagan romantik uslub, ifoda etayotgan hayotiy mazmun va samimiy ohang Amiriyga ilhom baxsh etadi, lirik qahramonning dardu hasratlarini, ruhiy kechinmalarini, dil so‘zlarini ifodalash vositasiga aylanadi. Bu taxmis mahbubaning beparvo va jafokor, sitam qiluvchi odatlaridan ozor chekkan oshiq holatining bayoniga oid. Binobarin, Navoiy lirik qahramonining ohu nolasidan o‘t yog‘ilishi, bu o‘tning ufqning qirmizlanishiga sabab bo‘lishi, yor dardida oshiq ko‘zi, badanining kuyishi kabi poyetik tasvirlarni Amiriy yanada kuchaytirishni maqsad qilib olganligini g‘azalga bog‘langan misralar ko‘rsatib turadi

Baski ul gul ishqidin men notavong‘a tushti o‘t,
O‘rtanib, bag‘rim ila ko‘nglumu jong‘a tushti o‘t,
Dog‘liq ko‘ksum o‘tidin kahkashonga tushti o‘t,
Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o‘t,
Yo‘q shafaqkim, har qiroqdin osmong‘a tushti o‘t.

Oshiq Amiriy birinchi bandda mashuqani gulga o‘zini esa bir notavonga o‘xshatadi. Yor ishqida o‘rtangan lirik qahramon bag‘ri, ko‘ngliga o‘sha malaksiymo sabab o‘t tushadi. Muhabbat alanga oladi. Lirik qahramonning “dog‘lik ko‘ksi” o‘tidan nafaqat zamin, balki osmon (kahkashon – somon yo‘li) ham kuyadi.. Navoiy g‘azalida mahbuba sabab oshiq tortgan ohlardan jahonga o‘t tushganligi aytilsa, Amiriy lirik qahramoni ohlari osmon-u falakni o‘t bilan qoplashi aytiladi. Bu o‘rinlarda Amiriy ishq o‘tini yanada kuchayganini ko‘rishimiz mumkin.

Tushti hajridin ko‘ngul uyig‘a ul dildor o‘ti,
Yog‘durur gardi balodek boshima idbor o‘ti,
Kuydurur andoqki bulbul paykarin gulzor o‘ti,
Dedilar: “El xonumonin o‘rtar ul ruxsor o‘ti”,
Bu so‘z eshitgoch, mani bexonumong‘a tushti o‘t.

Bu bandda yana oshiq mashuqa sabab chekkan ozorlari haqida bayon qiladi. Oshiq uchun bu dunyoda birgina ko‘ngil deb atalmish uyi bo‘lardi, mashuqa sabab shu uyga ham o‘t tushadi. Navoiy xalq ichida yorning go‘zal yuzi sabab elning boyligiga (xonumoniga)o‘t tushgani aytsa, Amiriy bor boyligi hisoblanmish ko‘ngliga o‘sha dildorning o‘ti tushganini aytadi. Shu banda ilohiy ishq haqida so‘z yuritayotgani ko‘zga tashlanadi. Olloh insonning qalbiga, ko‘ngliga nazar soladi va o‘sha joyda zuhr qiladi, namoyon bo‘ladi. Ko‘ngil uyiga olloh ishqi

tushgani sabab oshiq mahbub dardga, sitamga mubtalo bo‘ladi. Boshiga shu ishq sabab baxtsizlik balosi yog‘iladi. Zero, hajr o‘tlari oshiq boshiga “gardi balo”dek yog‘ilar ekan, undan oshiq ko‘nglining o‘t ichra qolishi tabiiy. Buni Amiriy kul ichra vatan tutgan laxcha cho‘qqa mengzaydi:

Soldi ko‘ksim ichra o‘t bir sarvqaddu siymtan,
Yona-yona sham’ yanglig‘ paykarim, o‘ldi tikan,
Tong emas, axgar kibi kul ichra gar qilsam vatan,
O‘qlaring ko‘nglumga tushdi – kuydi ham ko‘z, ham badan –
Kim, kuyar ho‘lu qurug‘, chun naysitong‘a tushti o‘t

Navbatdagi bandda mashuqa qaddi savrdek tik hamda kumush tanli malakligi tilga olinadi. Mumtoz adabiyotda ko‘p bora tilga olingan mashuqa singari. Mashuqa ishqi oshiq ko‘ksiga o‘t yoqadi. Shu sabab ham oshiq yor ishqida sham kabi yonib eriydi. Agar shunday yongudek bo‘lsam, hech shubhasiz, laxcha cho‘g‘ singari kul ichida vatan qilaman. Yuqoridagi bandda oshiqning xonumoni bilan birga ko‘ngliga ham o‘t tushgandi. O‘sha o‘t mashuqni yoqib kul qiladi. Bu bandda esa lirik qahramon kul orasidagi laxcha cho‘g‘ kabi bo‘lishini aytib o‘tmoqda. Mashuqa yorga bir qiyo boqqandi (o‘qlaring ko‘ksimga tushti) oshiqning unga termulgan ko‘zlari bilan birga badani ham yonib ketdi. Navoiy mazkur holatni dalillash uchun xalqimizning “Qamishzorga o‘t ketsa ho‘lu quruq baravar yonadi” maqolini keltirgan.

Amiriyning quyidagi misralari go‘yo Navoiy qurgan binoning poydevori bo‘lib, uni yanada yorqinroq ko‘rinishini ta’minlagan, ya’ni ulug‘ shoir fikrlarining ma’no doirasini ochgan va kengaytirgan:

Dilraboliq shevasin oromi jonlardin so‘rung,
Mehnati hijron tariqin bag‘ri qonlardin so‘rung,
Lolaruxlar vasfini rangi somonlardin so‘rung,
Ishq sirrin hajr asiri notavonlardin so‘rung,
Aysh ila ishrat tariqin komronlardin so‘rung (1,388).

“Bunda taxmis bog‘layotgan shoirning o‘sha g‘azal mazmuniga putur etkazmasligi, qo‘shilayotgan misralarning g‘azal vazni, qofiyasi, radifi va boshqa jihatlariga mos bo‘lishi talab etiladi”. [16.196]

Qofiya tizimida ham Amiriy Navoiyga izdoshlik qiladi. Misraning qofiyasini ta’minlovchi so‘z etimologik jihatdan qaysi tilning leksik qatlamiga mansub bo‘lsa, Amiriy aynan o‘sha qatlamdagi so‘zlarni qofiya sifatida keltirishni ma’qul ko‘radi. Masalan, Amiriyning turkiy devonidagi ikkinchi muxammasining uchinchi bandida Navoiy qo‘llagan “quyosh” so‘ziga “yosh”, “qosh”, “bosh” kabi sof turkiy so‘zlar qofiya vazifalarini bajargan bo‘lsa, undan keyingi bandda Navoiy

qo‘llagan “takallum” so‘ziga arabcha qofiya tizimini qo‘llashni muvofiq deb bilgan:

Moni’ o‘ldi yoshima, vasling tarahhum ayladi,
Shomi hijrondin quyoshdek raf’i anjum ayladi,
Gah itobu noz aylab, gah tabassum ayladi,
Nargising afsun, gulbarging takallum ayladi,
Aqli kul topti firib, ul makri oliyni ko‘rub (1, 366).

Navoiy g‘azallari mavzu jihatdan juda rang-barang. Ammo Amiriy faqat oshiqona g‘azallarga taxmis bog‘lashni ma’qul ko‘radi. Uning muxammaslarida hasbi hol, orifona, hamd va na’t mavzularidagi she’rlarni ko‘rmaymiz. Bu ham Amiriyning ijodga munosabatini bildiruvchi jihatlardan biri hisoblanadi.

Umarxon Amiriy hamda Muhammad Rahimxon Feruz she’riyatida etakchi o‘rinda turuvchi ishq mavzusi ijodkorlar tomonidan yuksak badiiy mahorat bilan vasf etilgan. Shoirlar an’anaviy oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlarini o‘ziga xos tasvirlashga harakat qiladi, ular vositasida katta ahamiyatga ega fikrlarni ifodalashga muvaffaq bo‘ladi. An’anaviy hisoblangan ishq mavzusi talqiniga yangicha ruh berishga erishadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Eshonqulov H. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типологик таҳлили (“Хазойин ул-маоний” мисолида). F.f.d. disser.. Buxoro, 2020. – B. 16
2. Mahmud Sadettin Bilginer. Allah ve insan. ─ Istanbul, 1991. ─ S. 67-68.
3. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. ─ Тошкент: “Чўлпон”, 1992. − Б.24.
4. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур). ─ Тошкент, 2004. − Б. 25.
5. Hasan Altay. Islami terimler sözlügü. ─ Ankara: Işaret yayınları, 1995. ─ S. 42.
6. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. − Тошкент: “Ёзувчи”, 1996, − Б. 49.
7. Ҳаққул И. Моҳиятдан йироқлашмайлик ва тасаввуфшуносликдаги ғаройиботлар// “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2002, 5 апрель, -Б.3.
8. Валихўжаев Б. Комил инсон – комил жамият: Алишер Навоий талқинида// Истиқлол ва умрбоқий ижод. − Самарқанд, 2002, − Б. 12-17.

9. Очилов Э. Дарвеш – комил инсон тимсоли// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001, 6-сон, − Б. 7-14.

10. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.78.

11. Алишер Навоий. Маҳбубу-л-қулуб. – Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. –Б.498

12. Жумахўжа Н. Миллий мустакиллик мафкураси ва адабий мерос (XVII-XIX асрлар ўзбек шеърияти асосида): Филол. фан. д-ри... дисс. - Тошкент, 1999. – Б. 50-51.

13. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 25.

14. Абдуғафуров А. Топилмаган ғазаллар // Буюк бешлик сабоқлари (Мақолалар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 76.

15. Жўрабоев О. Амирийнинг Навоий ғазалларига тахмислари хусусида. // Филология масалалари. 2005. №2-3. – Б. 21-27.

16. Қуронов Д., Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 196.

17. Саъдиев С. Самарқанд адабий муҳити тарих кўзгусида. – Т.: Фан, 2009. – 286-286.

18. Жабборов Н. Огаҳийнинг адабий-эстетик ва маънавий-ахлоқий мезони. / Огаҳий шоир, муаррих, таржимон. – Урганч, 2019. – Б. 28.

“O‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASINING ADABIY AHAMIYATI

Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o‘g‘li,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” Po‘latjon Qayyumiyning uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasi bo‘lib, Qo‘qon xonligi tarixi va Qo‘qon adabiy muhiti haqida qimmatli manbalardan biridir. Maqolada shu xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: antologiya, tazkira, devon, manba, onomastika, etnografiya, tarix, adabiyot, o‘lkashunoslik.

Аннотация: “Образец тетради узбекской литературы” является результатом многолетних научных исследований Полатджана Кайюми и

является одним из ценных источников по истории Кокандского ханства и литературной среды Коканда. В статье это обсуждается.

Ключевые слова: антология, тазкира, девон, источник, ономастика, этнография, история, литература, краеведение.

Annotation: “Sample notebook of Uzbek literature” is the result of many ears of scientific research of Polatjan Kayyumi and is one of the valuable sources on the history of the Kokand khanate and the literary environment of Kokand. The article discusses this.

Keywords: anthology, tazkira, devon, source, onomastics, ethnography, history, literature, local lore.

Po‘latjon domulla Qayyumiy 1885-yilda Xo‘qandi latifning Xo‘jand dahasiga qarashli Haydarbek II mahallasi (hozirgi 1-Sharq ko‘chasi)da dunyoga kelgan.

Tazkiranavis, matnshunos, ma’rifatpar va pedagog Po‘latjon domullo Qayyumiy (1885-1964) adabiyot sohasida rivojida bir qancha muhim ishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagining yozib olinishi va e’lon qilinishi, Rahmatullohqori Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as’hob”, Afzal Pirmastiyning “Tazkirai Afzaliy”, Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” tazkiralarining tarjima qilinishi, Maxmurning 69ta she’ridan iborat noyob qo‘lyozma devonining topilishi (1950), Furqat qo‘lyozma devonining tuzilishi (1959) bevosita olim nomi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, adabiyotshunos tazkiranavis sifatida turkiy (o‘zbek) shoirlari hayoti va ijodi bilan bog’liq ma’lumotlarni jamlash natijasida “O‘zbek adabiyoti namuna daftari”, “Tazkirai Qayyumiy”, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”, “Tazkiratu-sh-shuaro” kabi tazkiralarini yozdi. 1911-yildan boshlab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi sifatida ish boshlagan Po‘latjon domla 1917-yildan boshlab sovet makyablarida dars boshlaydi. 1942-yilda uning pedagogik faoliyati 25 yilligi nishonlanadi. 1944-yilda O‘zSSSR tashkil etilganligining 20 yilligi munosabati bilan xalq maorifi sohasidagi xizmatlari munosib baholanib, unga faxrli “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni beriladi.

Po‘latjon Qayyumiyning pedagoglik mahorati ham tahsin qilarlik darajaga etgan. Uning shogirdlari ichidan jadid adabiyotning tengsiz shoiri – Usmon Nosir (1912-1944); O‘zbekiston xalq yozuvchisi – Abdulla Qahhor (1907-1968), shoir, yozuvchi va dramaturg, O‘zbekiston xalq shoiri (1965), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1944) – Sobir Abdulla; adabiyotshunos, ijodkor, jurnalist – Sharif Rizo; O‘zSSR madhiyasi matni muallifi (T.To‘la bilan birgalikda), shoir, yozuvchi, tarjimon – Temur Fattoh; tarjimon va ijodkor Adham Rahmat;

olimlardan: T.Zohidov[35], M.O‘rozboyev[36], U.Oripov[37], J.Saidov[38], O.Aminov[39], M.Qoriyev[40], S.Sodiqov[41], Y.Otabekov[42], S.Sirojiddinov[43], T.Sarimsoqov[44] kabilar etishib chiqqan.

[35] Tesha Zohidov (1906-1981) – O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘zMU) ni tamomlagan, zoolog. Biologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi (1947), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1952). O‘zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti (1952-1956). Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati (1970). Xalqaro zoologiya akademiyasining haqiqiy a’zosi. 300 dan ortiq ilmiy ish, 50 ta monografiya muallifi.

[36] Muhammad Toshevich O‘rozboyev (1906-1971) – mexanik olim. O‘rta Osiyo universitetining ishchi fakultetini (1928), Moskva oliy texnika bilim yurtini (1932), Moskva universitetining matematika-mexanika fakultetini (1934) tugatgan. Professor (1938), texnika fanlari doktori (1947), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1956), O‘zbekistonda xizmat qo‘rsatgan fan va texnika arbobi (1960). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Inshootlar instituti direktori (1947-1957), Ilmiy-texnika davlat qo‘mitasi raisi (1957-1961), Toshkent politexnika instituti rektori (1963-1971), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi a’zosi hamda Mexanika va boshqarish jarayonlari bo‘limining akademik kotibi (1970-1971). Davlat mukofoti (1952), Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1967). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi instituti uning nomiga qo‘yilgan.

[37] Orifov Ubay Orifovich (1905-1976) – O‘zbekiston pedagogika akademiyasini tamomlagan (1931). Fizika-matematika fanlari doktori (1954), professor (1956), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1956), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi (1959). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti (1945-1956, 1963-1967), Yadro fizikasi instituti direktori (1956-1962, 1967-1969), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti (1962-1966), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Elektronika instituti direktori (1966-1976). Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1968). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Elektronika institutiga uning nomi berilgan.

[38] Saidov Jo‘ra Kamolovich (1909-1999) – O‘zbekiston pedagogika akademiyasini tugatgan (1932). Biologiya fanlari doktori (1960), professor (1967), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1968), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1977). Samarqand qishloq xo‘jalik instituti direktori (1943-1952), O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi Fanlar Akademiyasi akademik-kotibi (1960-1961), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori (1964-1986).

[39] Aminov Olim Mo‘minovich (1906-1981) – iqtisodchi olim, 1930-yilda O‘zbekiston pedagogika akademiyasini tugatgan. Qo‘qondagi davlat paxtachilik institutining tashkilotchisi va direktori (1931-1934). O‘zbekiston fanlar akademiyasi Iqtisod instituti direktori (1945-1948). Iqtisod fanlari doktori (1955), professor (1959), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1964). Toshkent Davlat Universiteti huzuridagi Ijtimoiy fanlar o‘qituvchilari malakasini oshirish institutining direktori (1966-1969).O‘zbekiston fanlar akademiyasi muxbir a’zosi (1968).

[40] Muhammadjon Qoriyev – professor. Moliya-iqtisodiyot institutining asoschilaridan biri.

[41] Saodat Sodiqovich Sodiqov (1910-1995) – genetik olim, O‘rta Osiyo paxtachilik va ipakchilik institutini tugatgan (1932). O‘zbekiston Davlat nazorati vazirligi xodimi (1942-1948). 1948-yildan O‘simliklar eksperimental biologiyasi institutida g‘o‘za amaliy genetikasi laboratoriyasi mudiri (1950-1963 yillarda shu institut direktori). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi (1952), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1980). Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1996).

[42] Yusuf Otabekov - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan shifokor, professor, 1955-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti tashkilotchilaridan biri.

[43] Sa’di Hasanovich Sirojiddinov (1920-1988) – O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘zMU)ni tugatgan (1942). Fizika-matematika fanlari doktori (1953), professor (1956), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1966), S. Bernulli nomidagi xalqaro matematik statistika va ehtimollar nazariyasi jamiyati (Gollandiya)ning haqiqiy a’zosi (1966), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1971). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi matematika instituti direktori (1957-1967), Toshkent Davlat Universiteti rektori (1966-1970; 1983-1987), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti (1970-1983). Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1973), "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2002).

[44] Toshmuhammad Aliyevich Sarimsoqov (1915-1995) – O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘zMU)ni tamomlagan (1936). Fizika-matematika fanlari doktori (1942), professor (1942), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1943), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1960), Mehnat Qahramoni (1990). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti (1943-1946), prezidenti (1946-1952), O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri (1959-1971). O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘zMU) rektori (1971-1983). 1988-yildan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumida maslahatchi. Topologiya va funksional analiz bo‘yicha Toshkent ilmiy maktabi asoschisi. Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1967, 1992). "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi (2002).

Po‘latjon domla matnshunos va adabiy manbashunos sifatida ham salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” olimning mana shu sohadagi ilk qadamlaridan biri edi.

Tazkira O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, Po‘latjon domullo Qayyumiy (1885-1964) tomonidan tuzilgan ilk tazkira bo‘lib, Sadriddin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” ta’sirida bitilgan. Po‘latjon Qayyumiy butun umrlik ilmiy faoliyati davomida turkiy (o‘zbek) mumtoz shoirlari haqida faktlarni yig’ib borgan. Biroq sovet mafkurasi ta’siri ostida ularni qay tarzda keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishga qiynalgan. Chunki u yig’gan shoirlarning juda katta qismi “feodal klerikal saroy adabiyoti” vakillari edi. Shunday paytda 1926-yilda S.Ayniy yuqoridagi asarini e’lon qilgan. Bu jarayon Po‘latjon Qayyumiyga o‘z maqsadini ochishga yo‘l ochgan. S.Ayniy mafkura yalovbardori bo‘lganligi sababli Po‘latjon Qayyumiy uning asari soyasi ostida xuddi u kabi o‘zbek shoirlari she’rlarini e’lon qilish, Ayniyga ergashish orqali o‘zi va asarini tanqiddan omon saqlashi mumkin edi. Shundan so‘ng olim o‘zidagi tarqoq materiallarni tartiblashga kirishadi.

Ushbu tazkira turkiy (o‘zbek) mumtoz adabiyoti vakillari to‘g’risida unikal ma’lumotlarni taqdim eta olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.





Tashqi muqovaning orqa tarafiga kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida “Qayyumov P. Qoqand. 15.IX.1960”,-deb yozilgan. Shundan so‘ng Xudoyorxon O‘rdasining qurilishi va Qo‘qon xonligining eski o‘rdasi haqida ma’lumotlar qayd etilgan: “1844nchi yilda Xudoyorxon ko‘tarilgach, eski o‘rdadagi (Umarxondan qolgan arki oliy (Furqat nomidagi parkning orqasida Abdurahimbek bino etgan II nchi o‘rdadur) Muhammad Alixon tomonidan 3nchi o‘rda bino etilgach, bo‘shagan edi) Xudoyorning regent bo‘lmish qipchoq Musulmoqul mingboshi Xudoyor nomiga bino bino etdirgan edi. Nomi “Madrasai Oliydur”. Mavlaviy Jabaliy Hindistonda tahsili kamolot hosil etmish olim ham shayxlardan bo‘lub, “Madrasai Oliy”ga 1nchi mudarrisi bo‘lmishdur. Qabri Shayxonda bo‘lub, shoir

Muqimiyning qabrining sharqi-shimolisindagi mazorda madfundur. Oltiariq royunidagi Kabutarxona qishlog’idandur. Eng oxirgi mudarris namangonli domulla Yo‘ldoshdur”.

Shundan keyin ba’zi madrasalarning mudarrislari to‘g’risida qisqa izohlar berilgan: “Madrasai Oftoboyim mudarrisi: Oxund devon Muhammad Nosir domla”, “Madrasai Begimdur, mudarrisi – Mahmudbekkim, Shodi Muhammad Yayfoniy o‘g’li. “Ju’zu-l-iloj” 2 jild Xo‘qand shaharida Shmokuf matbaasinda 1912 nchisinda bosdirilmishdur. O‘z xaroboti edi.

Qo‘lyozma ichki va tashqi muqovalardan iborat bo‘lib, tashqi muqova ko‘k rangli qattiq karton qog’ozdan olingan. Ichki muqovaga A.Qayumov tomonidan keyinchalik Abdufattoh Rasulov haqidagi maqola uning rasmi bilan birgalikda qirqib olinib yopishtirib qo‘yilgan. Xususan, maqolada O‘zSSR FA ShI ning eng keksa ilmiy xodimlaridan biri ekanligi, arab, fors-tojik va eski o‘zbek (turkiy) tillaridan mukammal xabardor etuk sharqshunosligi, Buxoro tarixiga oid materiallar ustida ish olib borayotgani to‘g’risidagi ma’lumotlar qayd etilgan. Olimning surati fotograf R.Shamsiddinov tomonidan ishlangan.



Абдуфаттох Расулов — Ўзбекистон ССР Фанлар академияси Шарқшунослик институтининг энг кекса илмий ходимларидан бири. Араб, форс ва эски ўзбек тилларини пухта билган шарқшунос А. Расулов ҳозир Бухоро тарихига оид материалларни ўрганмоқда. СУРАТДА: Абдуфаттох РАСУЛОВ.
Р. Шамсиддинов фотоси. (ЎзТАГ фотохроникаси).



2-sahifada quyidagi matn keltirilgan: “Mavlono Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonini tugallashda o‘zi to‘g’risida so‘zlagan nashidalari mazmundorligi ila fasohatda jilvanamodur. Kuchli ash’or, purma’nodaki, mustasno manzumdur. Jumladan:

Ahvolimi ko‘r xarob-u muztar,
Ahvol zamondan mukaddar.

So‘z doirasidagi bu ahvol,
Insof bangakim o‘lmazam lol.

O‘lsaydi agarchi bir xaridor,
Bing ganj nihon qilurman izhor.

Insof ver, ey husud insof,
Ta’n etmaki, gar harimingdagi sof.
***
Teshaga dasta,
Fanorlarga shisha.
***

1-sentyabr juma kuni. Bugun ish yozuvni Bokuga 10 dona yuborish uchun tayyorlab qo‘ydim. Oxirgi bir keluvida Azizxonga bir xat qilib yana Hamid Orasliga bir xat yozdim 12.VII. Bugundan boshlab 31-avgust 1-sentyabr bir no‘mer “Qizil O‘zbekiston” kela boshladi.

***



3-sahifa:

Tabriz Eron adir yonbag’rida bo‘lsa-da, biz uchun siyosiy-ma’muriy jihatidan qat’iy nazar milliy hisobdin O‘zbeyxonlidur. Unda Mirzo Muhammad Ali Soib Tabriziy ulug’ Eron shoiri hisoblansa-da, o‘zbeyxonli bo‘lub, badiiy kuchga egadur. O‘zbeyxon tilida juda oz she’r so‘zlamish. Bu esa zamoniga mavquf ekani ma’lumdur. Mavlono Fuzuliyning porsiycha tilda yozgan devonchasi ham ko‘ruldi. Mavlono Abdurahmon Jomiyning turkiy she’rlari ham bor ekani ko‘runadur. Mavlono Muhammad Ali Soib o‘z-o‘ziga baho berishi to‘g’ri. Biz uni tasdiqlaymiz:

Mechkad shahdi halovat Soib az guftor tu,
To‘ti kilki turo munqor go‘yo shakkar ast.

Soib tamom she’r tu tigd ast, toz ast,
In qasam she’r ho notavon jo‘basta-jo‘basta guft.

Dar suxan az urfiy-u tolib nadorad ko‘tahiy,

Aybi Soib in bud kaz zumrai aslof nest.

***

Saburiy 1269nchi hijriyda vafot etmish shoir, nuktasanj ham tabrizli ekani ma’lumingizdur. Ash’ori obdor mazmundorligi ila shuhratlidur. She’ridan namunalar:

Olma dunyoniki, dunyoda basi g’amlar vor,
Ol ko‘ngil mamlakatin ko‘rgani olamlar vor.

Charx ur naqsh fusun dahr sarosar qad vor,
Aysh asbobida g’am so‘ngida motamlar vor.

Bog’ Homun giz dam ishq junun kasratidin,
Ko‘rki Farhod ila Majnun kibi hamdamlar vor.

Ey yuzing Ka’bai iqbol, labing la’li subh,
Rahm qilkim, yoqa chok va ko‘zi purnamdor vor.

Dahr zulmidin agar kuysa taning chekma darig’,
Ey Saburiy, ayt ayog’iga marhamlar vor.

Tazkirada, yuqorida keltirilganidek, nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun turkiy xalqlardan etishib chiqqan shoirlar ijodi qamraab olingan bo‘lib, xususan, Ozarbayjon zaminida kamol topgan Mirzo Muhammad Ali Soib Tabriziy, Saburiy, mavlono Muhammad Fuzuliy kabi ijodkorlar to‘g’risida ham ma’lumotlar ham taqdim etilgan.

Bundan tashqari, tazkirada nafaqat adabiyotga doir ma’lumotlar, balki tarix faniga doir muhim ma’lumotlar ham yoritilgan. Chunonchi, Qo‘qon xonligi tarixi, minglar sulolasi, xonlikning ma’naviy-ma’rifiy hayoti bilan bog’liq bo‘lgan faktlarga ham alohida o‘rin ajratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po‘latjon domulla Qayyumiy. O‘zbek adabiyoti namuna daftari (qo‘lyozma). –Qo‘qon: Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Buyuk allomalar muzeyi №953.

2. Po‘latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy (qo‘lyozma). –Toshkent: O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734.

3. Po‘latjon domulla Qayyumiy. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti (qo‘lyozma). –Toshkent: O‘z R FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondi №10041.

4. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).

7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.

8. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.

9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

10. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

11. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

“SHUM BOLA” QISSASIDA BOLA E’TIQODI

RUSTAM UMURZAKOV,
Farg‘ona davlat universiteti
adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti v.b.
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: rustamumrzoq1987rum@gmail.com

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikdagi e’tiqod masalasi o‘rganilish jihatidan nozik, tadqiqotchini boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘yishi mumkinligi bilan cho‘chitadigan mavzular sirasiga kiradi. Bugunga qadar o‘zbek adabiyotshunosligida qahramon e’tiqodi masalasiga ma’lum sabablarga ko‘ra qo‘l urilmay kelinmoqda. Davr talabi va badiiy asarga yondoshuv usuli bu yo‘nalishda tadqiqotchini cheklaganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, e’tiqod tushunchasini bir yoqlama anglash ham cheklovlarni yuzaga keltiradi. Kengroq qaralsa, e’tiqod albatta, Xudoga va diniy ta’limotlarga ishonchdan iborat emas.

Ayniqsa, bola e’tiqodi masalasida bu tushuncha yangi va o‘zgacha ma’nolar kasb etishi mumkin.

Ushbu maqolada yozuvchi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidagi bola obrazi tahlil qilinadi. Muhit sabab bolaning qarashlari nafratga, undan keyin fosh etish va o‘ch olishga, yakunda esa, e’tiqodsizlikka olib kelishi va natijada birorta suyanchig‘i yo‘q, hech kimga va hech nimaga ishonchi qolmagan shaxsga aylanishi ochib beriladi. Tahlillarga ko‘ra, insoniy munosabatlar sohasida ishonch-e’tiqod har qanday do‘stlik va muhabbatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bola kamol topib borishi, unda insoniy fazilatlar, iqtidor va qobiliyatlar shakllanishi uchun unga nisbatan e’tiqod zarur. Bunda bola uchun juda ahamiyatli inson, ya’ni ota va ona unga ishonishi talab etiladi. Aks holda, bolada bunday qobiliyatlar mutlaqo bo‘lmaganday ruhiyatida pinhon qolib ketishi mumkin.

Insondagi barcha yovuzlik tashqi ta’sir oqibatida yuzaga keladi, natijada uning tanlash imkoniyati qolmaydi. Bolalar ma’lum yoshga etib, ijtimoiy hayotni ko‘rganlaridan keyin ikkilanib qolishi bejiz emas. Eng yomoni – bolada tanlash imkoniyatining qolmaganligi. Aynan tanlash imkoniyatining qolmaganligi, e’tiqod emirilishi kabi XX asrning tipik muammolarini G‘afur G‘ulomning (1903-1966) “Shum bola” qissasida ko‘rishimiz mumkin. Asarga o‘smir yoshida kirib kelgan Shum bola tez orada o‘spiringa aylanadi. Qissadagi dinamik syujet, voqealarning tez rivojlanishi, bola ruhiyatidagi evrilishlar yosh davrlarini tez bosib o‘tishga majbur qiladi.

Kalit so‘zlar: Qissa janri, bola obrazi, bola e’tiqodi, e’tiqod emirilishi, bola nigohi va muallif munosabati, inson gravitatsiyasi, psixologizm, dinamik syujet, etimlik tasviri.

Аннотация. Проблема веры в литературоведении — одна из тех тем, изучение которой является деликатным и может оказаться сложным, поскольку она может завести исследователя в тупик. До сих пор в узбекском литературоведении проблема веры в героев по ряду причин остается практически неизученной. Мы видим, что требования эпохи и подход к произведению искусства ограничивали исследователя в этом направлении. Кроме того, однобокое понимание концепции веры также создает ограничения. В более широком смысле вера не обязательно подразумевает доверие Богу и религиозным учениям. Особенно в случае детской веры эта концепция может приобрести новые и уникальные значения.

В статье анализируется образ ребенка в рассказе «Шум Бола» писателя Гфура Гулама. Выявляется, что взгляды ребенка, обусловленные окружением, приводят к ненависти, затем к осуждению и мести, и, наконец, к недоверию, в результате чего человек не имеет поддержки и доверия ни к

кому и ни к чему. Согласно анализу, в сфере человеческих взаимоотношений доверие является неотъемлемой частью любой дружбы и любви. Вера в ребенка необходима для его взросления и развития человеческих качеств, талантов и способностей. Для этого необходимо, чтобы человек, который очень важен для ребенка, а именно отец и мать, доверяли ему. В противном случае ребенок может остаться психически слепым к таким способностям, как будто они полностью отсутствуют.

Все зло в человеке возникает в результате внешних воздействий, вследствие чего у него нет выбора. Неудивительно, что дети испытывают нерешительность, достигнув определенного возраста и познакомившись с общественной жизнью. Хуже всего то, что у ребенка нет выбора. Типичные проблемы XX века, такие как отсутствие выбора и подрыв веры, мы можем увидеть в рассказе Гафура Гулама (1903-1966) «Шум Бола». Мальчик Шам, который появляется в пьесе подростком, вскоре становится подростком. Динамичный сюжет повести, стремительное развитие событий, изменения в психике ребенка обусловливают необходимость быстрого прохождения стадий подросткового возраста.

Ключевые слова. Жанр рассказа, образ ребенка, детская вера, разрушение веры, детская точка зрения и авторское отношение, человеческая гравитация, психологизм, динамичный сюжет, изображение сиротства.

The issue of faith in literary criticism is one of the most delicate and frightening topics in terms of study, which can lead the researcher into a dead end. To date, the issue of the hero‘s faith has not been touched upon in Uzbek literary criticism for certain reasons. We can see that the demands of the time and the method of approaching a work of art have limited the researcher in this direction. In addition, a one-sided understanding of the concept of faith also creates limitations. Looking more broadly, faith, of course, does not consist of faith in God and religious teachings. Especially in the issue of the faith of a child, this concept can acquire new and unique meanings.

This article analyzes the image of a child in the story "Shum Bola" by the writer G'fur G'ulom. It is revealed that the child's views, due to the environment, lead to hatred, then to denunciation and revenge, and finally to distrust, and as a result, he becomes a person who has no support, no one and no trust in anything. According to the analysis, trust and faith in the field of human relations are an integral part of any friendship and love. For a child to mature, to form human qualities, talents and abilities in him, faith in him is necessary. This requires that a person who is very important to the child, that is, a father and mother, believe in

him. Otherwise, the child may remain hidden in his psyche as if such abilities were completely absent.

All evil in a person arises as a result of external influences, as a result of which he has no choice. It is not for nothing that children, after reaching a certain age and experiencing social life, hesitate. The worst thing is that the child has no choice left. We can see the typical problems of the 20th century, such as the lack of choice and the erosion of faith, in the story "Shum Bola" by Gafur Ghulam (1903-1966). Shum Bola, who enters the work as a teenager, soon becomes a teenager. The dynamic plot of the story, the rapid development of events, and the changes in the child's psyche force us to quickly overcome the stages of youth.

Key words and phrases. The genre of the story, the image of a child, children's faith, the destruction of faith, a child's point of view and the author's attitude, human gravity, psychologism, a dynamic plot, the depiction of orphanhood.

Neofreydizm asoschilaridan biri Erix Frommning ta’rificha, ratsional va irratsional e’tiqod o‘rtasida farqlar mavjud. Irratsional e’tiqod inson yoki g‘oyaga nisbatan bo‘lib, irratsional avtoritetga nisbatan itoatgo‘ylikka asoslanadi. Ratsional e’tiqod esa, buning aksi o‘laroq uning ildizlari shaxsiy fikr-mulohazalarimiz va his-tuyg‘ularimizga borib taqaladi. Ratsional e’tiqod nafaqat biron-bir narsaga e’tiqod, balki ishonch-e’tiqodimizga xos qat’iyatlilik va sobitqadamlikdir.[1.232] Insonga ishonishning boshqa tomoni o‘zgalarning imkoniyatiga ishonchimizdir. Bunday ishonchning eng ibtidoiy ko‘rinishi onaning go‘dagiga ishonchidir, ya’ni ona chaqalog‘ining yashashi, ulg‘ayishi, yurib ketishi va so‘zlashiga ishonadi. Biroq bolaning o‘sib-ulg‘ayishi shu qadar tabiiy kechadiki, bunga hech qanday e’tiqodning hojati yo‘qday tuyuladi.

Aytish kerakki, insoniyat tarixida bola shaxsiyatiga doim ham ijobiy munosabatda bo‘linmagan. Jumladan, Aflotun bolalarga biroz salbiy munosabatda bo‘ladi. Bolalar va johillar so‘zini ko‘p bor yonma-yon qo‘llab, ularni bir-biriga o‘xshatadi. Ruhni e’zozlash haqida gapirib, bolalar va johillar o‘z ruhiy ehtiroslarini o‘zlari hohlaganday qondiradilar, deydi.[2.35] Avreliy Avgustin esa, insondagi azaliy gunohga moyillikni bolaning odobsizligidan, deb hisoblaydi. Uning fikricha, buzuqlik azaldan odamning qonida bor, chunki boladagi illatlar hali u jamiyat bilan aloqa bog‘lamasdan oldin paydo bo‘ladi. Z.Freydning bola haqidagi tasavvuri ham Avgustin qarashlarini eslatadi. Freyd bolaga biologik mavjudot va individ sifatida qarab, ulardagi soflik, samimiyat, ko‘ngilchanlik, atrof-olamni o‘rganishga bo‘lgan intilish, umuman, katta odamlarni ajablantiruvchi hislatlariga e’tibor bermaydi. Z.Freyd va uning shogirdi K.Yung inson

psixologiyasini katta odamlar misolida o‘rganishadi. Natijada inson ruhiyatining kaliti bo‘lgan bolalik, ulardagi manfaat talab qilmaydigan mayl tushunchasi berk tizim sifatida qolib ketadi. Fransuz faylasufi Blez Paskal inson hayotini yigirma yoshdan hisoblashni tavsiya etadi.[1.10] Uning fikricha, bu yoshgacha boladan farqimiz yo‘q, bola esa hali to‘la-to‘kis inson degani emas. Faqat Viktorian davrida (XIX asr oxiri XX asr boshlari) go‘daklarning “begunoh” ekanligi haqidagi g‘oya, bolada yomon istaklar paydo bo‘lmaydi, degan tushuncha hukmron bo‘ldi.

Avgustin qarashlariga uyg‘onish davri mutafakkirlari qarshi chiqdilar. Ularning ta’kidlashicha, insondagi barcha yovuzlik tashqi ta’sir oqibatida yuzaga keladi, natijada uning tanlash imkoniyati qolmaydi. Agar tashqi ta’sirlar bartaraf etilsa, inson yana o‘z-o‘zidan azaliy ezgulikka qaytadi. Buni bolalarda ko‘rishimiz mumkin. Ular tashqi ta’sirga uchragunlariga qadar o‘zlaridagi tabiiy beg‘uborlik, soflikni saqlab qoladilar. Bolalar ma’lum yoshga etib, ijtimoiy hayotni ko‘rganlaridan keyin ikkilanib qolishi bejiz emas. Eng yomoni – bolada tanlash imkoniyatining qolmaganligi.

Aynan tanlash imkoniyatining qolmaganligi, e’tiqod emirilishi kabi XX asrning tipik muammolarini “Shum bola” qissasida ko‘rishimiz mumkin. Asarga o‘smir yoshida kirib kelgan Shum bola tez orada o‘spiringa aylanadi. Qissadagi dinamik syujet, voqealarning tez rivojlanishi, bola ruhiyatidagi evrilishlar yosh davrlarini tez bosib o‘tishga majbur qiladi. Shum bola o‘spirinligini o‘z tili bilan aytadi: “Har ikkovimizning ham dunyo qidirib, baxt izlab yurgan o‘spirinligimiz ma’lum bo‘ldi. Mol-u jonni bir qilib, ahdu-paymon qilishdikda, katta, ulug‘ safarni mo‘ljal oldik”.[3.169]

Qissada “qayerga boraman” degan savol ko‘p qo‘llangan. Yuzaki qaraganda Shum bola bu savolni boshpanasiz, pulsiz, chorasiz qolganda o‘z-o‘ziga beradigandek tuyuladi. Aslida bu savol negizida ertangi kunni, kelajakni ko‘ra olmaslik, katta hayot arafasidagi o‘spirinning mustahkam e’tiqodi mavjud emasligi fojiasi bor. E’tiqod emirilishi, davr va ruhiyat mutanosibligini ifodalovchi ushbu ritorik so‘roq ko‘p shum bolashunoslar e’tiboridan chetda qolgan. Bizningcha, bu savol asar o‘q ildizini tashkil qiladi.

O‘z davri bolalar va o‘smirlarining tipik namunasi hisoblangan Shum bola sarguzashtlari davomida ijtimoiy hayotning bir qancha illat va kirdikorlarini fosh etadi. Voqealar davomida fosh etish uning asosiy quroliga aylanadi. Ana shu fosh etish jarayonida unda jamiyatga nisbatan nigilistik negativ qarash shakllanadi. Qissa avvalida faqat kuzatuvchi maqomida turgan Shum bola tanishtiruv orqali bosqichma-bosqich dinamik faollikka kirib boradi. U o‘z uyidan ham masofa jihatdan, ham ruhiy jihatdan qadam-baqadam uzoqlashadi. Ammasining uyi Shum bola uchun katta sarguzashtga bosqich vazifasini o‘taydi. Onalik, ammalik – oila,

qarindoshlik iplari sekin-astalik bilan uzib boriladi. Haqiqatan ham bolaning to‘satdan katta begona muhitga otilib chiqib ketishi to‘g‘ri bo‘lmasdi. Real hayotda ham shunday. Uzoqlashuv, begonalashuv birdaniga emas, bosqichma-bosqich bo‘ladi. Qayerga bormasin, uning psixologik holati frustratsiya (omadsizlik, maqsadga etolmaslik) bilan yakunlanadi. Natijada Shum bolada fosh etishdan tashqari zo‘ravonlikka yaqin bo‘lgan qasd olish tuyg‘usi ham shakllanadi. Tandir ichida yotib jazman yigitdan pul talab qilishi, takyaxona ahlini manqaldonda shishada suv qaynatib qo‘rqitish epizodlarida unda o‘ch olish hislatlari shakllangani ko‘rinadi.

E.Frommning ta’kidlashicha, “e’tiqod emirilishi” bolalar hayotida tez-tez uchrab turadi. Uning fikricha, bola o‘z hayotini mehr-muhabbat, ezgulik va adolat tushunchasi bilan boshlaydi.[5.25] Go‘dak hayotini to‘laligicha ona ixtiyoriga topshiradi, ona go‘dak uchun “hayot manbai” hisoblanadi. U norasida bo‘lganligi uchun onasiga to‘la ishonadi. Bunday ishonch o‘z otasiga, buvasi va bobosiga, boshqa biror yaqinlariga, shuningdek Xudoga nisbatan ham bo‘ladi. Keyinchalik otaga muhabbat – orzu-intilishlar tayanadigan manbaga aylanadi. Bu davrda bola otasining rag‘bati va e’tiborini qozonishga, norozi qilmaslikka intiladi. Ota rozi – Xudo rozi deyilishi ham farzandning ota orqali ilohiyotga itoatkorona bog‘lanishiga ishoradir. Shum bola asardagi yoshi bo‘yicha, ya’ni ilk o‘smirlik davrida onadan ota tomon yurishi, uning mehrini qozonishi kerak edi. Voqealar uni har ikkisidan ham ayiradi. E.Frommning ta’kidlashicha, ziddiyatli ekanidan qat’iy nazar otalik va onalik hissi bola uchun birdek muhim. Agar bola faqat otalik hissini saqlab qolsa, shafqatsiz bo‘lib insoniy qiyofasini yo‘qotadi. Agar onalik hissi saqlab qolinsa, qiyoslash-baholash qobiliyatini boy beradi va o‘zining ham, o‘zgalarning ham kamolotiga monelik qiladi. Yetim o‘sganlarning ruhiyatidagi saktalikning ildizi aynan mana shu erda ko‘rinadi. Bola onaga ojizona ibtidoiy bog‘langanlik davridan, otaga itoatkorona bog‘lanish orqali balog‘at pallasiga qadam qo‘yadi. Bu davrda u ham ona, ham ota shaxsiyatidan xalos bo‘ladi. Agar oiladagi muhit, ota-onaning o‘z vazifasini to‘la ado etmasligi yohud etimlik sabab bo‘lsa, bolaning tasavvurlari o‘zgaradi va bu undagi ishonchni emiradi. Aynan Shum bolada mana shu ishonch bosqichma-bosqich yo‘qolib boradi. Uning uydan chiqib ketishi, ijtimoiy hayot ichida darbadar kezib yurishi, avvalo, unga, uning o‘ziga va uning odamlarga bo‘lgan ishonchsiz munosabati sabablidir. Garchi Shum bola darbadar hayoti davomida ko‘p bor o‘ziga va yaqinlariga “uyga quruq qo‘l bilan borishni ep ko‘rmagan”ligini aytsada, asl masala qaytishga bo‘lgan ishonchning emirilganida edi. Ayrim “Shum bola”shunoslar buni iqtisodiy qiyinchilik bilan bog‘lashadi. Katta hayotga qadam qo‘yish arafasida turgan o‘spirin yigitning pulsiz, muqim ishsiz, darbadar kezishiga davrning moliyaviy

inqirozi emas, balki ma’naviy tanazzuli sababdir. Zero, Andre Morua ta’kidlagandek, moliyaviy qiyinchiliklar hech qachon fojiona bo‘lmaydi.[6.201] Hamma gap ma’naviy qashshoqlik, insonga, xususan, bola shaxsiga bo‘lgan ishonchsiz munosabatda. Shum bolaga ishonchsiz munosabat, avvalo, oilada mavjud edi. Unga singlisi ham “-ha, ...o‘lgur”, deb murojaat qiladi. [3.164] Ikki o‘rinda nutqi keltirilgan onasining so‘zlari ham “juvonmarg, zumrasha”, degan faqat haqorat va tergashdan iborat. Mana shunday haqorat va kamsituvchi murojaatlar butun asar davomida uni tark etmaydi. U jamiyat a’zolari tomonidan “yetim, etimcha, xaromi” kabi so‘zlar bilan kutib olinadi. Masalan, Shum bola butun qish bo‘yi xizmatini qilgan Hoji boboning munosabatida o‘sha davr ulug‘larining bolaga bo‘lgan tipik qarashlarini ko‘rish mumkin. Shum bolaning etimligi Hoji boboni ajablantirmaydi. U sovuqqonlik bilan ota-ona topiladi, deydi: “Hay,zararsiz. “Yaxshi buzoq ikki onani emibdi”, degandek o‘zing epchil bo‘lsang, ota topib olasan. Otaki topiladi, ona degan o‘z oyog‘i bilan keladi”. [3.240] Qancha xizmat qilmasin, Shum bolaga Hoji bobo dargohida yaxshi munosabat bo‘lmaydi. Hoji boboning Shum boladan ko‘ngli to‘lib, kayfiyati chog‘ bo‘lgan paytlarda ham “yetim toylog‘im”, deb “erkalatib” qo‘yadi.

Fizika qonunlaridan ma’lumki, butun koinotni gravitatsiya boshqaradi. Gravitatsiya ikki obyektning bir-biriga qarab tortilib harakatlanishidir. A.Enshteyn fikricha, quyosh nuri egiladi va u fazoga shakl beradi. Sayyoralar o‘sha shakl bo‘yicha harakatlanadi. Yerning quyoshdan ozgina uzoqlashishi yoki yaqinlashishi uning falokati hisoblanadi. Milliard yillar davomida ko‘plab orbitalar quyoshni tark etib ketgan. Faqat gravitatsion doimiylik orqali quyosh sayyoralarni ushlab turibdi. Bunday fizik hodisalar tabiatning bir qismi bo‘lmish inson hayotida ham mavjud. Adabiyot o‘z tili bilan fizik hodisalarni badiiy ifodalab kelgan. Xususan, quyosh va uning garavitatsiyasi adabiyotda “mehr” deb ataladi. Quyoshga nisbatan “Avesto”da “Mehr yasht” (quyoshga madhiya) qismi, mumtoz adabiyotda M.Ogahiyning “Kim mehr nuri teng tushar vayrona obod ustina” kabi misralari mavjudligi fikrimizni tasdiqlaydi. Quyoshning gravitatsiyasi o‘z tizimidagi sayyoralarga amal qilsa, insonning mehri ham, eng avvalo, o‘z yaqinlariga bo‘ladi. Inson gravitatsiyasi ko‘proq bolalarda amal qiladi. Shuning uchun ham ularda mehr-muhabbat tuyg‘usi rivojlangan bo‘ladi. Bola ulg‘ayib jamiyat ichiga kirgani sari unda gravitatsiya susayadi. Psixologlar, faylasuflar tabiat va bola doim birga bo‘lishi, ular bir-biridan ajralmasligi kerak, deydilar. Tabiat bolani haqiqiy shaxs qilib tarbiyalashini ta’kidlaydilar. Bu fikrlarning aksi o‘laroq Shum bolaning hayoti jamiyat ichida – bozorda, takyaxonada o‘tadi. U muhit sabab o‘smir davridayoq oilasidan, yaqinlaridan uzoqlashadi. Oiladagi gravitatsion kuchni yo‘qotgan Shum bolani jamiyat ichida hech qanday kuch o‘ziga tortib ololmaydi

В произведении Садриддина Айни «Смерть ростовщика» с помощью стилистических средств изображено языковое выражение духовного упадка. В произведении подчеркивается нарушение моральных ценностей людей, их внутреннего опыта и потрясения в социальной системе посредством языка. Стилистические приемы, такие как повтор, метафора, антитеза, иронические выражения и другие, играют важную роль, помогая автору донести до

читателя внутреннее состояние персонажей, их отношения с окружающей средой и духовные путешествия.

Ключевые слова:Садриддин Айний, духовный упадок, стилистические средства, повтор, метафора, иронические выражения, социальный упадок, моральные ценности, лингвистический анализ.

Abstract

In Sadriddin Aini's work "The Death of the Usurer", the linguistic expression of spiritual decline is depicted using stylistic means. In the work, the violation of people's moral values, internal experiences, and unrest in the social system are illuminated through language. Stylistic means — for example, repetition, metaphor, antithesis, ironic expressions, etc. — play an important role in the author of the work in conveying to the reader the inner state of the characters, their relationships with the environment, and their spiritual departures.

Keywords: Sadriddin Aini, spiritual decline, stylistic means, repetition, metaphor, ironic expressions, social decline, moral values, linguistic analysis.

“Sudxo‘rning o‘limi” asarida ma'naviy tanazzulning lingvistik ifodasi, stilistik vositalar yordamida tasvirlanadi. Bu asarda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning inqirozi, insonning o‘z-o‘zini yo‘qotishi va ijtimoiy tizimdagi notinchliklar til orqali aks ettirilgan. Stilistik vositalar yordamida asar muallifi o‘quvchiga qahramonlarning ichki kechinmalari, ularning muhit bilan aloqalari va ma'naviy izdan chiqishlarini etkazadi.Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” asaridagi ma'naviy tanazzul atamasi haqida qisqacha ma'lumot bersak

Ma’naviy tanazzul — bu kishilarning axloqiy qadriyatlarining buzilishi, ichki kechinmalari, ijtimoiy hayotga bo‘lgan befarqligi va o‘z-o‘zini yo‘qotish jarayonidir. Asarda til, ayniqsa stilistik vositalar yordamida bu jarayonlar chuqur va ta'sirchan tarzda aks ettirilgan. Ushbu maqola asar tilida qo‘llanilgan stilistik vositalarning ma'naviy tanazzulni ifodalashdagi o‘rni va funksiyalarini tahlil qilishni maqsad qilgan.Ushbu asarda fragmentlari tanlab olindi va ularning lingvistik xususiyatlari, ya'ni tilning ichki va tashqi qatlamlari, stilistik vositalar orqali qanday ma'nolarni etkazayotganligi o‘rganildi. Shuningdek, asardagi so‘z va iboralarning ma'naviy tanazzul bilan bog‘liq kontekstdagi ishlatilishiga alohida e'tibor qaratildi.

1. Tasvirlash usullari va metaforalar:Tasvirlar matnda Qori Ishkambaning jismoniy holatini ta'riflashda keng ishlatilgan. Uning gavdasi "yum-yumaloq" va "yo‘g‘on" qilib tasvirlanadi, bu orqali uning semizligi va yuksak ma'naviy holati bilan birga fiziologik holatini ta'kidlaydi. "Qorni katta", "g‘oyat katta edi" kabi iboralar orqali esa, bu odamning jismoniy xususiyatlari o‘zining

oxirgi holatini tasvirlashda asosiy markazga aylanishi ko‘rsatilgan.Matnning boshida **tasvirlash** usulidan keng foydalanilgan. Qori Ishkamba "boyini cho‘zib, boshini ko‘tarib, ko‘zini sartaroshning yuziga tikib" deb tavsiflanadi[1.8]. Bu tasvir orqali uning nafaqat jismoniy holati, balki xarakteri, boshqalar bilan munosabati ham ko‘rsatilgan. Shuningdek, **metafora**dan ("boshining tepasi sochsiz, terisi burma-burma bo‘lib, qotib qolgan") foydalanish orqali uning jismoniy holatini va, ehtimol, uning ichki va ma'naviy holatini ta'kidlashga harakat qilinadi. Sochning to‘liq yo‘qolishi, uning «buzilgan kayfiyati» (yuzida ifodalanmagan kayfiyat), shuningdek, terisi «qotib qolgan» va «burma-burma» bo‘lishi, qahramonning ichki qiyofasi, hayotdagi o‘rnini aks ettiradi. **Metaforalar** orqali semizlik holatining haqiqiy ma'nosi yana ham ravshanlashadi. "O‘zgacha yo‘g‘on va semiz" deyish orqali uning boshqa odamlarning jismoniy holatlaridan farqi aks ettiriladi. Boshqa tomondan, **"g‘oyat katta qorin"** orqali faqat jismoniy holat emas, balki uning ijtimoiy tizimdagi o‘rni, ya'ni boshqalarga nisbatan o‘zini yuqori tutish hissi ham o‘quvchiga etkaziladi.

2.Repetitsiya : Asarda **repetitsiya**ning (takrorlanish) o‘rni katta. “Sallangiz shunday katta va og‘irki” kabi takrorlanishlar yordamida Qori Ishkambaning jismoniy qiyofasi ta'kidlanadi. Bu takrorlanish uning jismoniy holatini yanada aniqroq, sezilarliroq qilishga yordam beradi. Shuningdek, bu ibora Qori Ishkambaning o‘ziga bo‘lgan e'tiborini va o‘ziga xos xususiyatlariga bo‘lgan orzu-havasini ham aks ettiradi.Asarda **repetitsiya** usulidan ham foydalanilgan. "Siz bir marta ustara urasiz" va "Men har haftada bir marta soch oldiray" kabi iboralar Qori Ishkambaning o‘ziga xos xulq-atvorini ko‘rsatadi. Bu takrorlanish uning o‘zgacha munosabatlarini, qiziqishlarini va o‘ziga bo‘lgan e'tiborini, hatto boshqalarga nisbatan ma'naviy farqini ko‘rsatishga yordam beradi.

3.Ironiya va **sarkazm** (masxara) vositalari ham matnda aniq kuzatiladi. "Sizning sallangiz tuproqqa tushsa hech bir zararlanmas edi", deya sartarosh tomonidan aytilgan nutqi orqali mohirina tasvirlangan.Ironiya Qori Ishkambaning sallasi holatidagi murakkablikni va uning ehtiyotkorlik bilan ko‘rsatilgan holatini o‘zgacha yoritadi. Bu ibora, bir tomondan, odamning ko‘rinishi qanchalik yomon bo‘lmasin, undan farqli ravishda ko‘rsatilgan ma'naviy ishorani ko‘rsatadi. Shuningdek, **"tuproqdan ham farqsizroq holga kelgan"** degan ibora orqali uning o‘zgacha ijtimoiy holati bilan bog‘liq bo‘lgan farqni ko‘rsatadi.[1.9]

Ironiya va **sarkazm** asarda aniq ko‘rinadi. Qori Ishkamba sartaroshga shunday deb aytadi: "Agar men soch oldirish haqini boshqalardan ko‘ra kamroq bersam, bu to‘g‘rida shikoyat qilishga haqingiz yo‘q". Bu so‘zlar Qori Ishkambaning ma'naviy holati va ayniqsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qanday muvozanatga keltirilganligini ifodalaydi. U,bir tomondan, o‘zining

to‘lovini belgilashda xuddi oddiy odam kabi bo‘lishni, lekin boshqa tomondan, o‘ziga yuqori mavqe berishni talab qilmoqda.Bundan tashqari, uning **"Boylik, qashshoqlik Xudodan"** degan gaplari ham ironiya bilan boyitilgan. Bu ibora Qori Ishkambaning materialistik dunyoqarashi va tashqi dunyo bilan aloqasi haqida darak beradi, shu bilan birga, uning turmush tarzini va iqtisodiy holatini masxara qilishni maqsad qilgan.

4.Taqqoslash: Asarda **taqqoslash** usullari va belgilari ham mavjud. "Qori Ishkambaning sallasi pechlariga qozon sochiq qistirib o‘ragandek" - bu taqqoslash orqali uning sallasidagi holat (qora dog‘lar)ni o‘rganish mumkin. Ushbu tasvir orqali nafaqat jismoniy holatning salbiy ta'siri, balki ijtimoiy tengsizlik va mavjud tizimga muvofiq bo‘lmagan holatni ta'kidlash niyati ham bor. Bu taqqoslash nafaqat jismoniy holatni, balki ijtimoiy mavqeyi va odamlar o‘rtasidagi farqni ham o‘quvchiga his ettirishga yordam beradi.

Asarda **taqqoslash** va **kontrast** (antiteza) usullari aniq ishlatilgan.Masalan, "Sartarosh Qori Ishkambaning buzilgan kayfini tarqatish uchun bolsa kerak uzr ohangi bilan" - sartaroshning bu so‘zi orqali, bir tomondan, uning xushmuomalaligi va ehtiyotkorligi ko‘rsatilgan, boshqa tomondan esa Qori Ishkambaning kayfiyati va o‘ziga xos holati ziddiyatda aks etadi. Bu kontrast orqali o‘quvchiga Qori Ishkambaning ijtimoiy mavqeyini va uning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni ko‘rsatishga erishilgan. Shuningdek, **"Agar men soch oldirish haqini boshqalardan ko‘ra kamroq bersam"** degan ibora orqali uning o‘zini boshqalar bilan solishtirishda o‘zini yuqori tutishini tasvirlash mumkin.Qori Ishkambaning semizligi, og‘irligi va noqulay holati bilan birga, "yuzining yaltirab, qizarib turishi" uning salomatligi, kasalligi haqida boshqa bir holatni aks ettiradi. Shu tarzda, semizlikning noxush ko‘rinishi bilan birga, uning jismoniy ko‘rinishi yaxshi va salomatligi barqaror ekanligini ta'kidlashning o‘zi ham ziddiyat yaratadi.

"Sallarangiz tuproqqa tushsa hech bir zararlanmas edi", sartaroshning aytgan so‘zlarida ham ziddiyatni sezish mumkin. Sallarada qora dog‘lar mavjud bo‘lsa-da, uning yomon holati o‘zgacha ko‘rsatiladi va shu bilan birga, Qori Ishkambaning ma'naviy holatining ham boshqacha ekani ko‘rsatilgan.

5. So‘zlarni boshqarish va stilistik xususiyatlar. Asarda **so‘zlarni boshqarish** ham katta ahamiyatga ega. Qahramonlarning tilida ishlatilgan so‘zlar va iboralarda, ayniqsa "Sallangiz shunday katta va og‘irki" kabi ifodalar orqali, jismoniy holatni tasvirlashda ehtiyotkorlik va noziklik ko‘rsatiladi. Bu usul bilan muallif o‘quvchiga nafaqat ko‘rinishning, balki ichki ruhiyatning ham qanday ta'sirda ekanligini etkazadi.[6.10]

6.So‘z o‘yinlari va **tinglovchi effekti** matnda katta ahamiyatga ega. Masalan, "Janoza uchrasa soat o‘n ikkilarda xonaqoh sahnasida uchraydi" kabi

ibora orqali Qori Ishkambaning qanday qilib o‘zining hayotini boshqarishga va oddiy ijtimoiy faoliyatlarini o‘zgacha tarzda ifodalashga harakat qilayotganini ko‘rsatiladi. Bu holatda, Qori Ishkamba jismoniy va ma'naviy holatini bir-biriga yaqinlashtiradi, uni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb ajratish qiyin bo‘ladi.

7. Semantik tafsillar:Asarda **semantik tafsillar** (so‘zlarning ma'nosi va ulardan foydalanish) orqali Qori Ishkambaning jismoniy holati va ma'naviy holatiga qo‘shimcha ma'nolar berilgan. "Qorni katta" va "yaltirab turishi" kabi iboralar nafaqat uning jismoniy holatini, balki uning ijtimoiy pozitsiyasini, obro‘sini va boshqa insonlar bilan munosabatini ham o‘quvchiga etkazadi.

Dialoglarning kuchli ta'siri bor, ayniqsa Qori Ishkambaning o‘zini boshqalarga nisbatan qanday tutishi ko‘rsatiladi. Uning sartarosh bilan suhbatida, shuningdek, soch oldirish haqidagi munosabati o‘ziga xos. Bu suhbat orqali nafaqat jismoniy holati, balki uning ijtimoiy pozitsiyasi, ma'naviy holati ham yoritiladi. Uning harakatlari, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabati, unga nisbatan ikkilanishli kayfiyatni yaratadi, bu esa uning ijtimoiy tanazzulini va ichki muvozanatsizligini ko‘rsatadi.Qori Ishkambaning murakkab obrazini shakllantiradi. "Agar bu odam bir necha zarxarid hujraning egasi bo‘lsa, nega o‘zining tirikchiligini... yirtishi ustiga qo‘ygan?" degan savolni o‘zingizga berish orqali, uning kimligi va haqiqiy ahvoli haqida noaniqlik paydo bo‘ladi. Bu so‘zlar orqali uning aslida kimligi va ichki dunyosi haqida turli xulosalar chiqarish mumkin.

Sadriddin Ayniyning "Qori Ishkamba" asaridagi stilistik vositalar — metaforalar, ironiyalar, kontrastlar, repetitsiya va so‘z o‘yinlari orqali Qori Ishkambaning jismoniy va ma'naviy holatini, ijtimoiy mavqeyini va ruhiyatini aks ettiradi. Uning xarakteri va atrofidagi odamlar bilan munosabati orqali o‘quvchiga qanday qilib ijtimoiy va ma'naviy tanazzul holatidagi shaxsni ko‘rsatish mumkinligi aniq ifodalangan. Bu asar nafaqat odamning tashqi qiyofasini, balki uning ichki holatini, ruhiyatini va ijtimoiy mavqeyini ham yoritadi. Sadriddin Ayniyning "Qori Ishkamba" obrazi orqali qanday tarzda ijtimoiy, axloqiy va jismoniy holatlar tasvirlanganini ko‘rdik. Stilistik vositalar, masalan, takrorlanish, metafora, taqqoslash, ironik ifodalar, antiteza va so‘zlarni boshqarish orqali asarda Qori Ishkambaning ijtimoiy mavqeini, uning ma'naviy tanazzulini va umumiy holatini ta'riflashda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar orqali asar nafaqat jismoniy tasvirlarni, balki insonning ruhiy va axloqiy holatini ham o‘quvchiga etkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayniyning, S. (2020). *Sudxo‘rning o‘limi*. Toshkent: Ma'naviyat.

2. Davronovna, M.M. va Muhammadievna, D.S. (2024, aprel). *The study of euphemisms in linguistics*. In *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London)* (Jild 2, 22–25-betlar).

3. Karimov, S. (2015). *O‘zbek adabiyoti va tilshunoslik*. Toshkent: Sharq nashriyoti.

4. Mardanova, M. (2021). *Semantic characteristics of English jargonisms*. *Journal of Foreign Languages and Linguistics*, 2(3).

5. Mardanova, M.D. va Davlatova, Sh.M. (2024, 25-aprel). *The problem of stylistic classification of vocabulary*. *Modern Science and Education: Achievements and Development Prospects*, (2), 10–13.

6. Mirzaahmedov, J. (2018). *Stilistik vositalar va ularning adabiyotda qo‘llanilishi*. Toshkent: O‘zbekiston matbuoti.

7. Muhammadievna, D.S. (2025). *Similarities and differences between terms related to the judicial process in Harper Lee and Uzbek literature*. *Hamkor Konferency*, 1(14), 1185–1189.

8. Sobirjonovna, S.M. va Murodullayevna, Q.M. (2023). *The theory of foreign language teaching and its purpose*. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 150–158.

9. Xudoyberdiyev, A. (2020). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: Akademnashr.

RAY BRADBURY’NING FARENGEYT 451 ASARIDA JAMIYATDAGI IJTIMOIY JIMJITLIKNING TASVIRLANISHI

Xalilova Shoxista Muhammadi qizi,
Navoiy innovatsiya universiteti Surxondaryo kampusi, o‘qituvchi
+998900471828

shohistakhalilova95@gmail.uz

Annotatsiya

Ushbu maqola Ray Bradbury'nin Farengeyt 451 asarida jamiyatdagi ijtimoiy jimjitlik, haqiqiy muloqotning yo‘qolishi va insonlarning o‘zaro aloqalari qanday pasayganini o‘rganadi. Kitobda jamiyatning yuzaki axborot va texnologiyalarga qaramligi, o‘z fikrlarini erkin ifodalashdan mahrum bo‘lgan shaxslarning pasivlashtirilgan holati aks ettirilgan. Mildredning parlor devorlari bilan bog‘lanishi, Beatty ning konformizmni ta’kidlashdagi roli va Clarisse ning jamiyatdagi bo‘shliqni aniqlashga bo‘lgan intilishi kabi elementlar orqali, asar ijtimoiy jimjitlik va odamlar o‘rtasidagi haqiqiy muloqotning yo‘qolishi masalalarini o‘rtaga qo‘yadi. Kitobda aks etgan texnologik boshqaruv va uning

oqibatlari, jamiyatni faqat shovqin va bo‘sh vaqtlardan iborat qilib qo‘yadi, insonlarning o‘zini anglash va fikr yuritish qobiliyatini pasaytiradi.

Kalit so‘zlar: Farengeyt 451, ijtimoiy sukunat, texnologiya va boshqaruv, yuzaki muloqot, g'oyalar almashinuvi, axborotni boshqarish, odamlarni passivlashtirish, haqiqiy muloqot

Аннотация

В статье исследуются социальное молчание, утрата реального общения и упадок человеческого взаимодействия в обществе в романе Рэя Брэдбери «451 градус по Фаренгейту». Книга отражает зависимость общества от поверхностной информации и технологий, а также пассивное состояние людей, лишенных свободного выражения своих мыслей. Благодаря таким элементам, как связь Милдред со стенами гостиной, роль Битти в подчеркивании конформизма и стремление Клариссы выявить пустоту в обществе, пьеса исследует проблемы социального молчания и утраты подлинного общения между людьми. Технологический контроль и его последствия, как показано в книге, сводят общество к шуму и безделью и снижают способность людей понимать себя и мыслить.

Ключевые слова: 451 градус по Фаренгейту, социальная тишина, технологии и управление, поверхностное общение, обмен идеями, управление информацией, пассивизация людей, реальное общение.

Abstract

This article examines the social silence, loss of real communication, and decline of human interaction in Ray Bradbury's novel Fahrenheit 451. The book reflects society's dependence on superficial information and technology, and the passivized state of individuals who are deprived of free expression of their thoughts. Through elements such as Mildred's attachment to the parlor walls, Beatty's role in emphasizing conformity, and Clarisse's desire to identify the void in society, the work raises issues of social silence and the loss of real communication between people. The technological control reflected in the book and its consequences reduce society to noise and idleness, reducing people's ability to understand themselves and think.

Keywords: Fahrenheit 451, social silence, technology and management, superficial communication, exchange of ideas, information management, passivization of people, real communication

Ray Bradburyning Farengeyt 451asari nafaqat distopik adabiyotning yorqin namunasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy jimjitlik va mas’uliyatsizlikning qahramonlar va jamiyat uchun qanday xavflar tug‘dirishini ko‘rsatuvchi kuchli syujetga ega. Romaning asosiy g‘oyalaridan biri — bilim va ma’rifatning ta’qib

qilinishi, shu bilan birga, madaniyat va adabiyotning yo‘q qilinishi. Bu asarda jamiyat, o‘zining qulayliklari va ko‘r-ko‘rona mavjudligi bilan, haqiqatni qabul qilishni istamaydi. Ushbu maqolada, *Fahrenheit 451*da jamiyatdagi ijtimoiy jimjitlik va uning oqibatlari haqida batafsil tahlil qilinadi. Ijtimoiy jimjitlikning o‘zi — bu faqat ko‘r-ko‘rona qo‘llanadigan va faollikka qarshi bo‘lgan jamiyat tuzilmasidir.

Ijtimoiy Jimjitlik va Uning O‘rni.*Fahrenheit 451*da jamiyatda yuzaga kelgan jimjitlikni asar o‘zgacha tarzda taqdim etadi. Bradbury jamiyatni g‘ayrioddiy tarzda boshqarilgan, texnologiya va ommaviy axborot vositalari orqali manipulyatsiya qilinadigan bir joy sifatida tasvirlaydi. Bu jamiyatda bilim, san’at, adabiyot va erkin fikr o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotgan. Kitoblar ta’qib qilinadi, ular yoqiladi va o‘qish taqiqlanadi. Shuningdek, odamlar shaxsiy hayotlari haqida o‘ylashdan ko‘ra, o‘zlarining "yuklagan" realiti orqali yashashni afzal ko‘radilar. Shu tarzda jamiyat, hech qanday shaxsiy qarorlar qabul qilmasdan, faqatgina texnologik qulayliklar va ko‘r-ko‘rona farovonlikni qadrlashga odatlanadi.Mildred Montagning xarakteri bu jimjitlikni yanada oydinlashtiradi. U, roman bosh qahramoni Guy Montagning xotini, texnologiya va ko‘ngilochar vositalarga haddan tashqari qiziqishi bilan jamiyatning eng yaqin ifodalaridan biridir. Mildredning hayotidagi asosiy maqsad — bu o‘zini o‘zgartirish va hayotda ma’naviy jihatdan boyishdan ko‘ra, televizorlar orqali qisqa vaqtli zavqlanishdir. U o‘zining haqiqiy ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini unutadi va jamiyatdagi ko‘r-ko‘rona tinchlikka ishonadi. Uning bunday holati jamiyatning umumiy ijtimoiy jimjitligini aks ettiradi, u faqat shu narsalar bilan yashaydi va o‘zini baxtli deb hisoblaydi.

Asarda *senzura*ning ijtimoiy jimjitlikni mustahkamlashdagi o‘rni juda katta. Jamiyatdagi haqiqiy bilimga va ijtimoiy tanqidga qarshi kurash o‘zini senzura orqali ko‘rsatadi. Kitoblarning yoqilishi va ularning muhimligini yo‘qotish — bu jamiyatni jiddiy ravishda boshqarishning bir usulidir. Kitoblar jamiyatdagi adolatni saqlash, o‘rganish, rivojlanish va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ammo *Farengeyt 451*dunyosida bu imkoniyatlar cheklangan. Kitoblar yondiriladi va o‘qish ta’qiqlanadi, bu esa jamiyatni ma’lumotdan mahrum qiladi va uning aqliy faolligini cheklaydi.Guy Montagning rivojlanish jarayoni, aynan shu ijtimoiy jimjitlikni engib o‘tish uchun boshlangan. U dastlab, jamiyatning tasavvurlaridan xabarsiz bo‘lib, ishiga berilgan, kitoblarni yoqish vazifasini bajaradi. Ammo u bilan tanishgan Clarisse va boshqa personajlar uni o‘zgartiradi. Montag kitoblarning haqiqiy qiymatini anglaydi va jamiyatdagi jimjitlikni engishga intiladi.

Bradbury texnologiyaning, ayniqsa televidenie va o‘zini o‘zi ko‘rsatuvchi media vositalarining, jamiyatni qanday manipulyatsiya qilishini

ko‘rsatadi. *Fahrenheit 451*da texnologiya va ommaviy axborot vositalari odamlarni faol fikrlashdan, tanqidiy o‘ylashdan va bilim olishdan chalg‘itadi.[1.60] Televizorlar va ko‘ngilochar vositalar insonlarni nafaqat chalg‘itadi, balki ular o‘zlarini real hayotdan ajratib qo‘yadi. *Fahrenheit 451*da barcha odamlar o‘zlarini "yangi realitiga" joylashtirib, hayotni shunchaki ko‘ngilochar o‘yin kabi qabul qiladilar.

Mildred, o‘zining televizoriga bo‘lgan ishtiyoqi bilan, bu jamiyatdagi keng tarqalgan xususiyatni aks ettiradi. Ommaviy axborot vositalarining ta’siri odamlarning fikrlarini va qarorlarini shakllantiradi, ularni “yangi realitiga” xushnudlik va qulaylik yaratib, haqiqiy dunyo bilan aloqalarni yo‘qotishlariga sabab bo‘ladi.

Ray Bradburyning *Farengeyt 451*asari, jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy jimjitlikni, odamlar o‘rtasidagi haqiqiy muloqotning yo‘qolishini va o‘zini anglashni to‘liq rad etishni aks ettiradi. Ushbu ijtimoiy jimjitlik, texnologiyaning ortiqcha ishlatilishi, konformizm va boshqaruvchi hokimiyatning xalqni pasivlashtiruvchi usullaridan kelib chiqadi. [5.2]Kitobda, Mildred, Beatty, Montag va Clarisse kabi xarakterlar orqali, jamiyatning shovqinli va yuzaki aloqalar bilan bog‘lanishini, muloqotning haddan tashqari yuzaki bo‘lishini ko‘ramiz. Keling, asar voqealarini chuqurroq tahlil qilib, jamiyatdagi jimjitlikning qanday ko‘rinishlarida aks etganini va uning oqibatlarini kengroq ko‘rib chiqamiz.Mildredning parlor devorlari va "Seashells" quloqchinlari bilan doimiy bog‘lanishi, jamiyatning texnologik geribozasi va uning yuzaki fikrlashga olib boradigan asosiy vositasidir. Parlor devorlari uning o‘zini anglashiga to‘sqinlik qiladi, chunki u har doim ekranlarga e’tibor qaratib, hech qanday haqiqiy muloqot yoki o‘ylashni amalga oshirmaydi. Ushbu texnologiyalar faqatgina tashqi shovqin va axborotlarni uzatadi, insonlarning ichki dunyosini o‘zgartirmasdan, ularga befarqlikni singdiradi. Mildred va boshqa jamiyat a’zolari, texnologiyalar yordamida doimiy ravishda o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini e’tibordan chetda qoldiradilar. Jamiyat o‘zini tasavvur qilishni, yangi g‘oyalarni o‘rganishni va chuqur fikr yuritishni unuturadi.

Misol: Mildredning shovqinli parlor devorlariga bo‘lgan obsesiyasi, haqiqiy o‘zaro muloqot va aloqalarga o‘rin qoldirmaydi. U hayotining eng muhim qismlarini parlor devorlaridagi "oilaviy" ko‘rsatuvlarga va media axborotiga ajratadi. [1.70]Bu, axborotning avvaldan tayyorlanishi va tarmoqdagi boshqaruvning intensivligining natijasidir.

Bradbury, jamiyatdagi ijtimoiy jimjitlikni, o‘zaro muloqotning yo‘qolishi va yuzaki aloqalar bilan tushuntiradi. Mildredning o‘z hayotidagi eng oddiy savollarga javob bera olmaydi, bu esa uning ichki dunyosining deyarli

yo‘qligini ko‘rsatadi. Montagning Mildred bilan bog‘liq bo‘lgan misolida, ular qanday tanishganini yoki o‘zaro qanday hissiy bog‘liqlik yaratganini eslay olmaydilar. Bu holat, jamiyatda shaxsiy, hissiy muloqotning to‘liq yo‘qolganligini anglatadi.

Misol: Montag va Mildredning munosabati, ularning hayotidagi eng muhim savollarni (qachon tanishganlari, o‘zaro qanday bog‘lanishganlari) eslay olmaydilar. Bu, yuksak darajada ichki aloqalar va haqiqiy bog‘lanishlarning butunlay yo‘qligini ko‘rsatadi. Ushbu holat, ko‘plab zamonaviy jamiyatlarda mavjud bo‘lgan yuzaki muloqotning aksidir.Beatty, jamiyatdagi individualizmni yo‘qotib, o‘zgacha fikrlarni rad etishga undaydi. U, " Aholi qanchalik ko‘p bo‘lsa, ozchiliklar shunchalik ko‘p" va "Biz hammamiz bir xil bo‘lishimiz kerak " [1.132]degan so‘zlar bilan, jamiyatdagi hammasi bir xil bo‘lishi kerakligi, har bir insonning tenglashi va har qanday farqning yo‘qolishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu, haqiqiy bilim, ijodkorlik va fikrlashni so‘ndirishga olib keladi. Beatty jamiyatni pasivlashtiruvchi va har bir shaxsni monotondan chiqarib tashlaydigan boshqaruvni yo‘qlaydi. Ularning fikrlarini va intellektual erkinliklarini o‘limga olib kelishi mumkin. Misol: Beatty, Montagga, barcha jamiyatni bir xil qilish va hech qanday tafovutga joy qoldirmaslikni ta’kidlaydi. Jamiyatning "yo‘qotilgan" tafovutlarini bartaraf qilish maqsadida, u odamlarni o‘zlarining haqiqiy fikrlarini ifodalashga to‘sqinlik qiladi.Clarisse, o‘zining oddiy va chuqur fikr yuritish uslubi bilan, jamiyatdagi ijtimoiy jimjitlikka qarshi tura oladigan yagona personajdir. U jamiyatdagi superficial muloqotlarni va odamlarning o‘zaro hamohangligini tanqid qiladi. U, jahonning haqiqiy tabiati haqida o‘ylashni va bir-birining fikrini so‘rashni taklif etadi. Clarisse, jamiyatning bunday passivligini buzish, haqiqiy muloqot va chuqur fikrlashni rag‘batlantirishga harakat qiladi. Misol: Clarisse, o‘zining tengdoshlarini va jamiyatni tanqid qiladi. U, maktabdagi darslarning nafaqat foydasiz, balki hech qanday haqiqiy so‘rov yoki interaktiv aloqalar yo‘qligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u har kimning bir xil fikrni takrorlayotganini va hech kimning yangi va original fikrlar bildirmayotganini ko‘rsatadi.

Bradbury, *Farengeyt 451*asarida, jamiyatga to‘g‘ri va engil axborotlarni taqdim etish orqali, jahonni pasivlashtirishning qanday kuchli vositalaridan foydalanilayotganini ko‘rsatadi. O‘zgacha fikrlar, g‘oyalar va falsafiy masalalar o‘rniga, faqat jismoniy va sathiy ma’lumotlar taqdim etiladi. Bu, odamlarni faqat iste’molchilarga aylantiradi va ularning aqliy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Odamlar o‘zlarining ichki izlanishlaridan, haqiqiy bilimlardan yiroq bo‘ladilar.

Misol: Beatty, jamiyatga faqat "faktlarni" taqdim etishni, falsafa va sotsiologiyani esa "melankoliyaga olib kelishini" ta’kidlaydi. U, odamlarni noaniq

va aniq bo‘lmagan fikrlardan saqlashga harakat qiladi, natijada jamiyat faqat tekis, o‘zgarishsiz va monoton bo‘lib qoladi.*Farengeyt 451*asaridagi ijtimoiy jimjitlik, jamiyatdagi doimiy passivlikni, shovqinli va yuzaki axborot bilan o‘zgartirilgan odamlarni, hamda chinakam muloqot va fikr almashishning yo‘qolishini ko‘rsatadi. Bradbury, texnologiyaning, boshqaruvning va conformizmning salbiy ta’sirini ochib berib, jamiyatni yo‘qotilgan, faqat tashqi shovqinlar bilan to‘lgan bir holatga olib kelishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy jimjitlikning oxirgi oqibati, insoniyatning haqiqiy muloqotni, ijodkorlikni va fikrlashni yo‘qotishidir. Asar, shaxsiy aloqalarni, o‘rganishni va haqiqiy fikr almashishni rag‘batlantirishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Odamlar o‘zlarining ichki dunyolarini yangilash, haqiqiy fikrlarni ifodalash va jamiyatni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish uchun harakat qilishlari kerak.

*Fahrenheit 451*da jamiyatning ijtimoiy jimjitligi va uning oqibatlari o‘ta xavfli bir tushuncha sifatida ko‘rsatiladi. Bu roman orqali Bradbury, insoniyatni hayotdagi haqiqiy ma’lumotdan va ilm-fandan ajratib, texnologiya va senzura orqali jamiyatni boshqarishning ijtimoiy oqibatlarini ochib beradi. Kitoblar, bilim va ijtimoiy faollikning o‘chirilishi odamlarni tanqidiy fikr va qarorlar qabul qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Romaning bosh qahramoni Guy Montag, jamiyatdagi jimjitlikni engish uchun ichki inqilobni boshlaydi, bu esa o‘zining va jamiyatining o‘zgarishiga olib keladi.Shunday qilib, *Farengeyt 451*, nafaqat adabiy asar, balki jamiyatdagi senzura va ijtimoiy jimjitlikning xavfini tasvirlovchi muhim ogohlantirishdir. Bradburyning romanidagi ijtimoiy tanqid, hozirgi zamonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi va uni o‘qigan har bir o‘quvchiga chuqur o‘ylash va tanqidiy fikrlashga ilhom beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bradbury, R. (1953). *Fahrenheit 451*. Ballantine Books.
2. Bradbury, R. (1980). *Ray Bradbury: The Life of Fiction*. Dover Publications.
3. Davronovna, M.M. va Muhammadievna, D.S. (2024, aprel). *Tilshunoslikda evfemizmalarni o‘rganish*. In *Linguistika, adabiyot va tarjima bo‘yicha xalqaro konferensiya (London)* (Jild 2, 22–25-betlar).
4. Johnson, S. (2011). *"Fahrenheit 451"da texnologiyaning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri*. *Journal of Modern Literature*, 25(3), 114–123.
5. Khalilova, S. (2024). *XX asr adabiyotida utopik va antiutopik janrlarning rivojlanish bosqichlari*. *Tamaddun Nur Journal*, 11(62), 225–227.
6. Mardanova, M. (2021). *Ingliz jargonizmlarining semantik xususiyatlari*. *Chet tillar va lingvistika jurnali*, 2(3).

7. Mardanova, M.D. va Davlatova, Sh.M. (2024, 25-aprel). *Leksikani stilistik jihatdan tasniflash muammosi*. *Modern Science and Education: Achievements and Development Prospects*, (2), 10–13.

8. Muhammadievna, D.S. (2025). *Harper Li va o‘zbek adabiyotida sud jarayoni bilan bog‘liq atamalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar*. *Hamkor konferensiyasi*, 1(14), 1185–1189.

9. Smith, D. (2009). *Ray Bradbury asarlarida konformizm va individuallik*. *Journal of Dystopian Studies*, 12(2), 58–75.

10. Sobirjonovna, S.M. va Murodullayeva, Q.M. (2023). *Chet tilini o‘qitish nazariyasi va uning maqsadi*. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 150–158.

ARABIY SO‘ZLAR VA POETIK IFODALARNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA AKS ETISHI

Rayhonoy G‘oyibboyeva Ahmadjonovna,
NamDU, filologiya fakulteti katta o‘qituvchisi
E-mail:rgoyibboyeva@gmail.com Mobile phone: +998941746121
Hafiza Ergashaliyeva, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabiy so‘zlar, ularning o‘zlashish sabablari va arab harflariga asoslangan tashbeh, kitobat kabi she’riy san’atlar bilan bezalgan bir nechta baytlar tahlilga tortilgan. Alisher Navoiyning ko‘plab asarlari , devonlaridan o‘rin olgan baytlari yuqorida sanab o‘tilgan go‘zal she’riy san’atlar ila o‘zgacha rang olgan. Quyida Alisher Navoiy „Xamsa‘‘sida o‘ziga xos o‘rin egallagan „Layli va Majnun‘‘ dostonidagi arab harflari va ular bilan bezalgan baytlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, vazn, o‘zlashma so‘z, tashbeh, kitobat, bayt, misra, arab alifbosi, harf, she’riy san’at, qalam, adabiyot

Аннотация

В данной статье рассматриваются арабские заимствованные слова в узбекском языке, причины их заимствования, а также анализируются отдельные байты, украшенные поэтическими приёмами, такими как ташбех (сравнение), китобат (каллиграфия), основанными на арабских буквах. Байты из различных диванов и произведений Алишера Навои обрели особое звучание благодаря этим прекрасным поэтическим средствам. В статье также рассматриваются арабские буквы и байты, украшенные ими, из поэмы «Лейли и Маджнун», которая занимает особое место в «Хамсе» Навои.

Ключевые слова: Навои, размер стиха, заимствованные слова, ташбех, китобат, байт, стих, арабский алфавит, буква, поэтическое искусство, калам, литература

Annotation

This article explores Arabic loanwords in the Uzbek language, the reasons behind their adoption, and analyzes several verses adorned with poetic devices such as *tashbih* (simile) and *kitabat* (calligraphic art), based on Arabic letters. Verses from various divans and works of Alisher Navoi take on a unique color through these beautiful poetic techniques. The article further discusses Arabic letters and the verses embellished with them in the poem *"Layli and Majnun"*, which holds a special place in Navoi’s *"Khamsa"*.

Keywords: Navoi, poetic meter, loanword, tashbih, kitabat, verse, line, Arabic alphabet, letter, poetic art, pen, literature

O‘zbek tili leksikasining boyishida arab tilining o‘rni beqiyosdir. Tilimizda arab tilidan o‘zlashgan so‘z va iboralar juda kata qismni tashkil qiladi. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar deyarli o‘z qatlamimizga aylanib ulgurdi. Bunday so‘zlar tilimizga o‘zlashishiga bir qator sabablar bor. Ulardan biri Islom dinini yoyish maqsadida O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishidir.VII asr o‘rtalarida arablar tomonidan bosib olingach, O‘rta Osiyo Arab xalifaligi tarkibiga kiritiladi. Arablar istilosiga qadar amalda bo‘lgan mahalliy so‘g‘d tilidagi ilmiy asarlar, kitoblar yo‘q qilinadi, ibodatxonalar jome’ masjidlariga aylantiriladi. Amalda bo‘lgan tohar, oromiy, va so‘g‘d tillarining o‘rnini asta-sekinlik bilan arab tili egallay boshlaydi. O‘rta Osiyoning arablar tomonidan zabt etilishi, Arab xalifaligi tartiblari mamlakatda joriy etilishi va, albatta, davlat tili sifatida arab tilining iste’molda bo‘lishi bu tilning nafaqat xalq tomonidan keng qo‘llanishiga, balki asarlar ham ayni mana shu tilda yaratilishiga zamin bo‘ldi. O‘sha davrda yashab, ijod etgan deyarli barcha ajdodlarimizning asarlari arab tilida yozilgandir.

Xalq o‘rtasida arab tili keng yoyilishiga yana bir sabab „Qur’oni karim‘‘dir. Muqaddas manbalarni, jumladan, „Qur’oni karim‘‘ va hadisi shariflarni o‘rganish, uning ma’nosini tushunishga bo‘lgan intilish ham mazkur tilning iste’molda keng qo‘llanishiga sabab bo‘ldi.

Hayotning har bir jabhasida asrlar o‘tishi bilan arab tili keng qo‘llana boshladi. Hattoki, masjid-u madrasalarning peshtoqini bezashda ham arab tilidan foydalanildi. Arab harflariga asoslangan maxsus she’riy san’atlar yuzaga keldi. Bunday she’riy san’atlar, harfiy o‘yinlar ko‘plab mumtoz asarlarimizni bezadi. Arab harflariga asoslangan tashbeh, kitobat kabi she’riy san’atlar bir qator ijodkorlarning nodir asarlarida uchraydi. Mana shunday tengsiz namunalar ichida

o‘ziga xos bo‘y ko‘rsatgan Alisher Navoiy asarlarini ham arab harflariga asoslangan she’riy san’atlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Alisher Navoiyning ko‘plab asarlari, devonlaridan o‘rin olgan ko‘plab baytlari yuqorida sanab o‘tilgan go‘zal she’riy san’atlar ila o‘zgacha rang olgan. Navoiy ijodiga oshno bo‘lgan har bir kitobxon bu rang-baranglikdan, o‘zgacha musiqiylik va baytlar ohangidan bahra oladi.

Keling, quyida Alisher Navoiy „Xamsa‘‘sida o‘ziga xos o‘rin egallagan „Layli va Majnun‘‘ dostonidagi arab harflari va ular bilan bezalgan baytlar haqida so‘z yuritamiz. Misralarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ulardagi asosiy she’riy san’atlar sifatida tashbeh hamda kitobat san’atini ko‘rishimiz mumkin.

Quyidagi baytga etibor bering:

Boshig‘a chu bilsa sajda chog‘in,
„He‘‘ davrasidin sunub ayog‘in.

Mazkur baytda arab alifbosidagi „he‘‘ harfi bilan bog‘liq bo‘lgan kitobat san’ati qo‘llangan. Misrada ibodat chog‘idagi inson holati tasvirlangan. Unga ko‘ra sajda chog‘idagi insonning holati arab alifbosidagi „he‘‘ harfining yozilishiga o‘xshaydi. Naqadar go‘zal o‘xshatish. Alisher Navoiy mazkur baytni qo‘llash orqali tashbeh she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Bal sajdadajismi chun topib ham,

Aylab ani „he‘‘ xamiga mudg‘am.

Mazkur baytda ham ibodat chog‘idagi inson tasvirlangan. Hammamizga ma’lumki, ibodat Alloh bilan bo‘lgan bizning pinhoniy suhbatimizdir, ibodat Allohga bo‘lgan pinhoniy ishqimizdir. Bu ishq faqat jismda emas, balki qalbda , ruhda bo‘lmog‘i lozim. Chunki Alloh va unga bo‘lgan muhabbatimiz faqat qalbdagina bo‘ladi. Mazkur baytda ham aynan Allohga bo‘lgan muhabbati jo‘sh urgan bandaning, Oliy Zot qarshisidagi ibodatga chog‘langan kishining holati ifodalangan. Ibodat ,asosan, ko‘ngilda bo‘lishi jism unga ko‘makchi bo‘lishi tasvirlangan. Ushbu baytda ham insonning jismi sajda chog‘ida „he‘‘ kabi tasvirlangan. Buni „mudg‘am‘‘ so‘zi orqali ham ifodalagan. Mudg‘am so‘zi „birikkan,yashiringan‘‘ degan ma’noni bildiradi.

Yakroni bo‘lib chu charx paymoy,
Nun o‘rnig‘a na’l anga yangi oy.
Yakron – yol va dumlari oq, tanasi qizg‘ish ot.
Paymoy- tortuvchi, kezuvchi.
Na’l- taqa.

Mazkur baytda ko‘rishimiz mumkinki, nun harfining yozilishi ,,na’l‘‘ , ya’ni otning taqasiga o‘xshatiladi. Yozilishi jihatidan nun ham, shakl jihatidan otning taqasi ham yarim oy shaklida bo‘lgani uchun ushbu baytda unga ishora qilib tashbeh qilinmoqda.

Ham lom livog‘a zulfi pur xam,
Bu qasr sutuni so‘ng alif ham.
Sutun- ustun.
Livo- bayroq.
Pur- ko‘p, to‘la.

Ushbu baytda alif tik bo‘lgani uchun ustunga o‘xshatilmoqda. Alifni qasrning ustuni sifatida ta’rif etmoqda Navoiy. ,,Zulfi pur‘‘ iborasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu birikma izofa bo‘lib , u sochlarning ko‘pligini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Baytning mazmuniga ko‘ra ko‘p sochlar lom bayrog‘iga banda ekanligi, bu qasrning ustuni esa alif bo‘lishi ifodalangan.

Kin vaqtiki ochilib kamandi,
Dol o‘rnig‘a fath zulfi bandi.

Kin- adovat, o‘ch.
Kamand – sirtmoq.

Misrada ham arab harflariga asoslangan tashbeh she’riy san’atini ko‘rishimiz mumkin. Baytning tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, ,,kin‘‘ – adovat, o‘ch olish vaqtida sirtmoq ochiladi. Arab alifbosidagi ,,dol‘‘ yozilish jihatdan sirtmoqqa o‘xshatiladi. Mazkur baytga ko‘ra yorning sochlari dol kabi ,, kin vaqtida‘‘ sirtmoq vazifasini bajaradi.

Mimin qilibon aso naziri,
Musodek ish o‘lsa dastgiri.
Dastgir- yordamchi, madad beruvchi/sop.
Aso- tayoq.

Mazkur misra tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, yuqoridagi biz uchun notanish bo‘lgan so‘zlar ma’nosini anglash uning mazmunini to‘liq tushunish imkonini yaratadi. Baytga ko‘ra arab alifbosidagi ,,mim‘‘ harfi ,,aso‘‘, ya’ni tayoqning asosiga tashbeh qilinadi. Ushbu baytda Muso tayog‘iga ishorani ham ko‘rish mumkin. Misrada qo‘llangan ,,dastgir‘‘ so‘zini dasta, sop ma’nosida ham, madad beruvchi ma’nosida ham tushunishimiz mumkin. Mim asosi bo‘lgan tayoq Muso tayog‘idek madad beruvchi bo‘lishi haqida ifodalangan misrada.

Xusrav ruhig‘a etkurub shayn,

Lekin yana birga qurratul-ayn.

Shayn- ayb, nuqson.

Qurratul-ayn- ko‘z qorachig‘i.

Mazkur misra ,,Xusrav‘‘ obrazini keltirish orqali talmeh she’riy san’ati orqali bezalgan. Misradagi hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini o‘qish misraning mazmunini biz uchun oydinlashtirib beradi.

Bayt tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, an’anaviy qahramon bo‘lgan Xusrav obraziga ishora borligini ko‘rishimiz mumkin. Baytga ko‘ra ,,shayn‘‘- ayb,nuqson degan ma’noni anglatadi. ,,Qurratul-ayn‘‘ esa ko‘z qorachig‘i ma’nosida berilgan. Shunga ko‘ra baytning mazmuni oydinlashadi: Xusrav ruhiga, uning tabiatiga ayb, nuqson etkazsak-da, uning kamchiliklari u bilan yana birga , go‘yoki ko‘z qorachig‘i kabi unga yaqindir.

Ham jon kelib ikki la’li maygun,

Ham tavqi zaqan kelib anga nun.

Maygun- qizil.

Zaqan- iyak.

La’l- qimmatbaho tosh, lab ma’nosida.

Baytning mazmuni: ikki qizil labi jon bo‘lsa, iyak ostidagi baqbaqalari ,,jon‘‘ so‘zining nun harfidir.

Bir-biridan go‘zal talmeh, tashbeh-u kitobat san’atlarini o‘ziga xos tarzda qo‘llay olish Alisher Navoiy ijodiga xosdir. ,,Shams-ul millat‘‘ bo‘lgan buyuk xamsanavis ijodkor mazkur parchada ham ushbu an’anadan chekinmagan holda arab alifbosidagi harfdan foydalanib, ajoyib bayt yaratadi. Baytda qo‘llangan ,,la’l‘‘ yorning labiga ishora qiladi va bu orqali Navoiy istiora san’atini mohirlik bilan qo‘llaydi.

Zaqan insonning iyagini ifodalaydi. Baytning mazmuniga ko‘ra nun harfining yozilishi yarim oy shaklida bo‘lgani uchun iyakka ham ishora qiladi.Demak, Alisher Navoiy nun harfini iyakka qiyos etish orqali tashbeh san’atidan mohironalik bilan foydalandi desak ham, arab alifbosida yoziladigan ,,jon‘‘ so‘ziga ishora qilib, kitobat san’atidan foydalandi, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Zulfu yuzi xad yonidag‘i dol,

Fam nuqtasi og‘zi ustida xol.

Xad- yuz.

Fam- og‘iz.

Arab harflaridan foydalanib, kitobat san’atini a’lo darajada qo‘llay olish Navoiy ijodining o‘ziga xosligi, buyuk xamsanavis ijodkorning naqadar Benazir ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Baytning birinchi misrasiga e’tibor bering: go‘zal ma’shuqaning sochi-yu yuzini ta’riflaydi. ,,Xad‘‘ so‘zi orqali yuz so‘zining

arab tilidagi variantini beradi. „Xad‘‘ so‘zining hosil bo‘lishida ishtirok etgan „dol‘‘ harfini ma’shuqaning go‘zalligiga go‘zallik qo‘shgan zulfga qiyos etadi.

Baytning ikkinchi misrasida ham xuddi mana shunday holatni ko‘rish mumkin. „Fam‘‘ so‘zining arab harflari asosida yozilishiga diqqat qiladigan bo‘lsak, f harfining yuqorisida joylashgan nuqta labning ustidagi xolga qiyoslanadi. Navoiy arab harflariga asoslanib ajoyib she’riy o‘yin qiladi va bu orqali baytning mazmunini bezaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy nafaqat o‘z zamondoshlari orasida, balki bugungi kungacha ijod etgan shoirlar orasida ham alohida o‘ringa ega benazir ijodkordir. Uning qalamidan to‘kilgan har bir so‘z she‘riyat olamida o‘zgacha jaranglaydi.Uning ijodini o‘qir ekanmiz ko‘plab she’riy san’atlarga duch kelamiz.Ularning ayrimlari bilan esa yuqorida tanishib chiqdik. Buyuk xamsanavis tomonidan yozilgan har bir bayt hamisha adabiyot chamanining eng go‘zal gullari bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 10-жилд www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. -жилд www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019, (54-57 betlar).

5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (38-40 betlar).

6. Hifniy Nosir, Muhammad. Diyab va boshqalar. Ad-Durus an-Nahviyyah. Darslik. – Toshkent, 2010, (15 bet).

7. Носиров О., Юсупов М. Ан-На’йм арабча-ўзбекча луғати. – Наманган, 2014.

8. G‘oyibboyeva R. Mahmudjonova D. O‘zbek tiliga o‘zlashgan ayrim arabiy so‘zlarning lisoniy xususiyatlari.THE PROGRESS OF SCIENCE JOURNAL APRIL- 2023 539-546-betlar https://doi.org/10.5281/zenodo.7985797

9. G‘oyibboyeva R. Navoiy ijodida Idris teonimining tarixiy ildizlari Ўзбек тили ва адабиёти Ўзбекистон Республикаси ФА, 2023 йил 4/2023 72-76-бетлар ISSN 2181542-9

10. Rahmatullaev Y. G'oyibboeva R. Analysis Of Nouns In The Accusative Cases In Arabic International Journal of Progressive Sciences and

Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119. © 2021 International Journals of Sciences and High Technologies http://ijpsat.ijsht-journals .orgVol. 25 No. 2 March 2021, pp. 63-66

11. Asranov M. G'oyibboeva R. NEGATIVE PARTICLES IN ARABIC AND THEIR EFFECT ON NOUNS. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, Impact factor: 8,2 2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 4, Issue 05, 22.05.2023, 766–769-pages. https://doi.org/10.5281/zenodo.7960682

12. Goyibboyeva Rayhonoy. THE IMAGE OF ABDURAHMON JAMI IN NAVOI'S PROSE. Germany World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: https://www.scholarexpress.net Vol. 10, May,2022 ISSN: 2749-361X

AHMAD DONISH ASARLARINING SHAXS MA’NAVIYATINING SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI (Y.E.BERTELSNING “AHMAD KALLENING ASARLARI QO‘LYOZMALARI” MAQOLASI TAHLILIDA)

Alisher Atayev Rizkulovich,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi.

Annotatsiya

Mazkur maqola XIX asr oxiridagi Buxoro mutafakkiri Ahmad Donishning asarlarida ilgari surilgan axloqiy-falsafiy qarashlarning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rnini o‘rganadi. Tadqiqot Yevgeniy Bertels tomonidan 1936-yilda yozilgan “Ahmad Kallening asarlari qo‘lyozmalari” (“Рукописи произведений Ахмада Каллэ”) nomli maqola asosida olib boriladi. Har bir asosiy fikr muayyan tarixiy kontekstda Ahmad Donishning iqtiboslariga bilan asoslanib, ularga Bertelsning bahosi va zamonaviy tahliliy yondashuv orqali izoh beriladi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Donish, shaxs ma’naviyati, axloqiy tafakkur, Yevgeniy Bertels, tarixiy ong, adolatli rahbar, diniy tanazzul, islohot, davlat boshqaruvi.

Аннотатsия

В статье рассматривается роль морально-философских взглядов, выдвинутых в трудах бухарского мыслителя конца XIX века Ахмада Дониша, в формировании духовности личности. Исследование основано на статье «Рукописи произведений Ахмада Калле», написанной Евгением Бертельсом в 1936 году. Каждая основная идея основана на цитатах Ахмеда

Дониша в определенном историческом контексте и поясняется через оценку Бертельса и современный аналитический подход.

Ключевые слова: Ахмад Дониш, личная духовность, нравственное мышление, Евгений Бертельс, историческое сознание, справедливый лидер, религиозный упадок, реформа, государственное управление.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi — bu ma’naviyatdir. Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz: birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatdir,”[1] — deya ta’kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Bu fikr bugungi taraqqiyot va islohotlar asosida ma’naviyatning o‘rni naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, bu yondashuv tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ayni ma’naviy tafakkur va islohot g‘oyalari XIX asrda yashab o‘tgan ulug‘ mutafakkir Ahmad Donish (Ahmad Kalla)ning asarlarida ham o‘z aksini topgan.

Ahmad Donish XIX asr Buxoro amirligida chuqurlashib borayotgan siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy inqiroz sharoitida yashagan va jamiyatni tubdan isloh qilishga chorlagan ziyoli mutafakkirdir. U o‘z asarlarida Sharq ma’naviyati, axloqiy qadriyatlar va diniy tafakkur an’analarini chuqur tahlil qilgan holda, har doim islohotlar markaziga shaxs ma’naviyatini qo‘yadi. Ya’ni u nafaqat davlatni, balki uni tashkil etuvchi insonni isloh qilish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, uning “Navodir-ul-voqoe” va “Mi’yor-ut-tadayyun” asarlarida ilgari surilgan fikrlar shaxsiy kamolotning ilm, vijdon va pok niyat asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Donish sufiya falsafasi va islomiy dunyoqarash doirasida ijtimoiy adolat, ruhiy poklik, ilohiy hikmat va axloqiy tozalikni taraqqiyot omili sifatida ilgari suradi.

Uning bu qarashlari o‘z davrida zamonasidan ancha ilgarilab ketgan edi. Donish tarixni, falsafani va dinni jamiyatni uyg‘otish vositasi sifatida ko‘rgan. Shu bois Yevgeniy Bertels uni oddiy tarixchi emas, balki jamiyatni anglash va uni o‘zgartirishga da’vat qiluvchi fikr arbobi deb baholaydi. Bertelsning ta’kidlashicha, Donishning asarlari axloqiy uyg‘onish va shaxsiy kamolotga yo‘naltirilgan mukammal ijtimoiy dasturdir.

Ahmad Donish o‘z davrida Buxoro amirligidagi boshqaruvni tanqid qilishdan oldin, jamiyat qanday tarixiy jarayonlar natijasida inqirozga yuz tutganini tahlil qiladi. Uningcha, xalq va rahbarlar tarixiy saboqlardan bexabar bo‘lib qolgan, natijada ongli qarorlar o‘rnini takroriy xatolar egallagan. Donish tarixni shunchaki voqealar ketma-ketligi emas, balki axloqiy saboqlar manbai sifatida ko‘radi.

Bertels uning bu fikrini quyidagicha ifodalaydi: “…u so‘nggi 300 yil ichidagi tarixiy voqealardan o‘ziga ma’lum bo‘lgan barcha narsalarni bayon qilish niyatida

ekanini aytadi. Uning fikricha, bu hozirgi zamon hukmdorlari uchun yaxshi saboq bo‘lishi mumkin.”[2.23]

Donish har bir rahbar tarixdan saboq olishi kerakligini, zero tarixiy xotira — bu kelajakni anglash kalitidir, deya ta’kidlaydi. Bertels bu yondashuvni “siyosiy tahlil vositasiga aylangan axloqiy murojat” deb baholaydi.

Donish tarixiy ongni uyg‘otish orqali rahbarlik fazilatlarini shakllantirishga intiladi. U o‘z asarida rahbarlikning nafaqat siyosiy, balki axloqiy jihatlarini ham tahlil qiladi. Shu sababli, “Navodir-ul-voqoe” asarini Bertels quyidagicha baholaydi: "Bu erda Ahmad Kallaning siyosiy traktati boshlanadi, unda u davlat boshqaruvi va islohotlar zarurati haqidagi qarashlarini izchil tizimda bayon qiladi…”[2.20] Donishning qarashlarida tarix voqealari, hukmdorlarning xatti-harakatlari va xalq ahvoli o‘zaro chambarchas bog‘langan. Tarixni bilmaslik — adolatsiz hukm, ongli xotiradan mahrum rahbar esa inqiroz sababidir. Donish bu bilan shaxsiy tafakkur va davlat tafakkuri o‘rtasidagi aloqani uzviy bog‘lab beradi. Tarixiy tafakkur asosida shakllangan ongli rahbarlik tushunchasi Donishda shaxs ma’naviyati bilan uzviy bog‘liqdir. Tarixdan saboq olgan rahbar, Donish nazarida, avvalo ichki mas’uliyatni his etishi lozim. U rahbarning har bir qarori adolatga asoslangan bo‘lishini, bu adolat esa boshqaruvning asosiy mezoniga aylanishi lozimligini uqtiradi. Shu nuqtai nazardan Donish quyidagi g‘oyani ilgari suradi: “…sulton o‘z fuqarosi ustidan hukm chiqarayotganida, har doim o‘zini ayblanuvchi o‘rnida tasavvur qilishi kerak.”[2.21] Bu fikrni Donishning siyosiy-axloqiy qarashlaridagi eng yuksak tamoyil sifatida baholab, uni “rahbar uchun ichki kompas” deb atasa bo‘ladi. Donish uchun adolat shunchaki siyosiy vazifa emas, balki rahbar ma’naviyatining ko‘zgusidir. Mazkur yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan III. Абдуллаев quyidagicha yozadi: “Bu davrda... biz ba'zi ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jumladan, Sharq ma'rifatparvarligi va islomdagi islohatchilik harakati kabi oqimlarning ta'sirini uchratishimiz mumkin...”

Donish tarixiy xotirani uyg‘otishdan keyin rahbar shaxsining ma’naviy etukligi masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Uningcha, davlat islohoti bir shaxs — adolatli va mas’uliyatli rahbar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu borada u amir Shohmurodni ideal rahbar sifatida ko‘rsatadi. Donishga ko‘ra, Shohmurod o‘z zamonasidagi zo‘ravonlik, poraxo‘rlik va diniy befarqlikni qat’iylik bilan yo‘qotgan. Uning bu boradagi eng yorqin obrazini quyidagi tarzda beradi: “Amirning «boshsizligi» tufayli... Amir Ma’sum madrasaga o‘qishga ketdi... va so‘ng arkaning darvozasida poylab turib, Qozikalon Nizomni o‘ldirdi...” Bertels bu epizodni Donish tomonidan tarixiy voqealar asosida yaratilgan kuchli axloqiy obraz sifatida baholaydi.

Shohmurodning qozikalon va vazirni qat’iy jazolashi — Donish nigohida rahbarning adolatga sadoqatini ifodalaydi. U bu orqali rahbarlik faqat qonunlar bilan emas, balki ruhiy poklik, axloqiy jasorat va tarixiy ong bilan barpo bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Shohmurod obrazida adolatli rahbar qanday bo‘lishi kerakligi haqida aniq talqin bergan Donish, endigi bosqichda mansabdorlarning salohiyatiga doir muammolarni tahlil qiladi. Uning fikricha, Buxorodagi siyosiy inqiroz faqat yuqoridagi sultonning o‘zgarishi bilan emas, balki butun boshqaruv tizimining yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lishi lozim edi. Bunga esa, avvalo, malakali va halol kadrlar zarur. Donish bu borada tayinlov amaliyotining o‘z davridagi nosog‘lom holatini ochiq tanqid qiladi: “…boshqaruv lavozimlariga tayinlash nasab va boylik asosida emas, balki harbiy ishdagi qobiliyat va bilim asosida amalga oshirilishi kerak…”[2.21] Uningcha, boshqaruv tizimi boylik va nasab asosida emas, salohiyat va bilimga qarab shakllanishi kerak. Bu masalaga Bertels katta baho bergan, biz ham bu fikrni “Donishning davlat boshqaruvidagi meritokratiya printsipini ilgari surgan eng muhim taklifi” deb atasak bo‘kladi. Donish bu bilan boshqaruvdagi shaxs ma’naviyatini jamiyat barqarorligi bilan bog‘laydi. Donish ayni masalani kengroq miqyosda harbiy tizim orqali ham ko‘taradi. U nafaqat tayinlov tamoyillarini, balki harbiy sarf-xarajatlar, armiya tuzilishi va boshqaruv xarakterini ham izchil tahlil qiladi. U armiyaning soni, ta’minoti va maoshlar darajasini matematik aniqlik bilan hisoblab, quyidagicha taklif qiladi: «Автор высчитывает точно, какой величины армия нужна для Бухары… получает в результате общую сумму расходов на армию».[2.21] Yevgeniy Bertels bu yondashuvni “axloqiy tamoyillar asosidagi iqtisodiy tartib” sifatida baholaydi. Ya’ni bu erda Donish nafaqat muammoni ko‘rsatmoqda, balki unga amaliy echim taklif qilmoqda. Uning fikricha, rahbarlik va mansab taqsimoti masalasi axloqiylik va samara prinsipiga asoslanishi zarur. Tizimning har bir elementi — rahbar, armiya, moliyaviy boshqaruv — axloqiy tartib bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Shu sababli u: shaxs axloqi — davlat axloqining zaminidir, degan fikrni ilgari suradi. Donishning bu g‘oyalari bugungi konstitutsion boshqaruv tamoyillariga qiyoslanganda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. U ilgari surgan konsepsiyada demokratik islohotlarning ildizida aynan ma’naviy tafakkur yotadi. Mazkur holatni bevosita tarixiy misolda aks ettirgan rus tadqiqotchisi L.G. Levteyeva quyidagicha yozadi: «Бухарская пушка имела железный ствол длиною в 8 вершков… в игрушечных магазинах можно встретить такие пушки»[3.19] Uning bu ta’rifi Buxoro armiyasining real holatini fosh etadi — ya’ni harbiy jihatdan ojizlik, strategik befarqlik va zamonaviy kuchlar bilan raqobatlasha olmaslik. Donish bergan takliflar aynan shunday tarixiy haqiqatlar fonida vujudga kelgan bo‘lib, ular

faqat texnik yoki moliyaviy echimlar emas, balki chuqur ma’naviy yondashuv asosida shakllangan edi.

Ahmad Donish boshqaruvdagi adolat va salohiyat mezonlarini belgilab bergach, bu prinsiplarning amaliyotda qanday ishlashi lozimligini ham ko‘rsatadi. Uningcha, eng to‘g‘ri qarorlar — kengash, maslahat va ijtimoiy ishtirok orqali shakllanadi. Bu fikr Donish nazarida individual irodadan emas, ko‘pdan-ko‘p salohiyatli insonlarning aqlini jamlagan holda amalga oshiriladi. Shu bois, u davlat rahbarlari yonida doimo maslahat beruvchi kengash bo‘lishini zarur deb hisoblaydi.

Donish bu haqda aniq siyosiy taklif beradi. U Devoni mashvarat — ya’ni Davlat kengashi tuzishni taklif etadi. Bertels bu loyihani quyidagicha izohlaydi: "Bob Davlat kengashi tuzish loyihasi bilan yakunlanadi…"[2.22] Donish bu kengashni sulton hokimiyatini cheklash uchun emas, balki uni kuchaytirish — ya’ni bilimli va tajribali kishilar yordamida mustahkamlash maqsadida taklif qiladi. Aslını olganda bu — “hokimiyatga mas’uliyatli yondashuvning yangi shakli”. Donishning bu qarashi shuni ko‘rsatadiki, u rahbarning bexato bo‘lishini emas, maslahat bilan barqarorlikka erishishini muhim deb biladi. Boshqacha aytganda, adolat faqat kuch orqali emas, maslahat va aql bilan qaror topadi. Bu o‘z navbatida rahbar axloqining bir qismi sifatida qaraladi.

Donishning davlatni jamoaviy idora qilish haqidagi qarashlari faqat kengash doirasida emas, balki mas’uliyatli boshqaruv madaniyatining bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Buning zamirida yotgan tamoyil — bu shaxs ma’naviyatiga tayanuvchi muvozanatli boshqaruv g‘oyasidir. Shu tarzda Donish islohotlarning nafaqat tashkiliy, balki axloqiy asoslarini ham ishlab chiqadi.

Davlat kengashi kabi jamoaviy boshqaruv g‘oyasini ilgari surgan Ahmad Donish, shu bilan birga, islohlarning nega zarurligini ham aniq tushuntirib beradi. U Buxoro jamiyatining tanazzulga yuz tutgan asosiy sabablarini shaxsiy axloqsizlik, ilm-fanning qadrsizlanishi va diniy riyokorlikda ko‘radi. Donishga ko‘ra, xalq orasida ruhiy tanazzul — ya’ni haqiqatdan bexabar bo‘lish, soxta taqvodorlik va johillik — ijtimoiy inqirozni chuqurlashtirgan. Donish diniy hayotda yuzaga kelgan buzuqlikni ochiq fosh etadi: "Islomning belgilaridan faqat boshdagi salla, imon rasm-rusumlaridan esa faqat minoradan eshitiladigan azon qoldi. Og‘izlardan 'Abu Hanifa aytdi' degan so‘zlar yangraydi, ammo xatti-harakat va odoblarda bunday dahshatli og‘ishlar borki, ularni hech bir millatda uchratib bo‘lmaydi…" [2.15]Bertels bu iqtibosni keltirar ekan, Donishni “og‘riqli haqiqatni aytishdan cho‘chimagan haqiqatparast mutafakkir” sifatida tavsiflaydi. Bu erda diniy amallar shaklan saqlanayotgan bo‘lsa-da, mazmunan butunlay bo‘shab qolgan. Donish uchun bunday ijtimoiy ikkiyuzlamachilik axloqiy inqirozning eng

muhim belgilaridan biridir. Bu yondashuvni Ш. Абдуллоев ham Donishning davriga oid diniy ongdagi muammolarni tahlil qilib, quyidagicha izohlaydi: "O‘rta Osiyoda diniy ong chuqur turg‘unlik holatiga tushib qolgan edi… islohotchilar e’tiqodni xurofot va skolastikadan tozalashga intildilar."[4.67]

Ikkinchi muhim muammo — rahbar va ulamolarning hamkorligidagi riyo va manfaatparastlikdir. Donish bu holatni quyidagicha bayon qiladi**:** "Hokimlar mas’uliyat yukining og‘irligi sababli ulamolarga murojaat qiladilar, ulamolar esa hokimiyatga intilganlari uchun dinning mohiyatini turlicha talqinlar orqali yashiradilar."[2.15] Bertels bu fikrga munosabat bildirar ekan, Donish “islom ta’limotining siyosiy vositaga aylanishidan iztirob chekayotgan islohotchi” bo‘lganini ta’kidlaydi. Donish nafaqat dunyoviy hokimlarni, balki diniy elitani ham tanqid qiladi — bu uning axloqiy pozitsiyasini mustahkamlovchi omildir.

Donishning ijtimoiy tanqididagi uchinchi qator muammo — xalqning ilm va tafakkurdan uzoqlashib, formaga tayanib qolganidir. U bu holatni kinoya bilan quyidagicha ifodalaydi: "…ular, go‘yoki, johillardir va fan deb faqat arab tili grammatikasining asoslarini bilishni tushunadilar."[2.19] Bertels bu jumlani izohlab shunday deydi: “Donish bu erda bilim va savod o‘rtasidagi farqni keskin ajratmoqda. U shakliy savodli, ammo fikr yurita olmaydigan odamlarni eng xavfli ijtimoiy qatlam deb biladi.”.

Bu fikrning davomi sifatida, Donish soxta bilimning eng xavfli natijasi sifatida johil kimsalarning etakchi maqomlarga chiqib olishini ko‘rsatadi. U bu holatni tarixiy tahlil bilan quyidagicha bayon qiladi: "…ularning xayollariga ham kelmaydi: agar biz zulmdan himoya topish uchun sultonga murojaat qilmas ekanmiz, unda bizga amir nima kerak?"[2.26] Donish bu so‘zlar orqali xalqning o‘z haq-huquqini talab qila olmaydigan darajaga tushib qolganini, zulmga chidashni odatiy hol sifatida qabul qilayotganini fosh qiladi. Bertels bu fikrni “fuqarolik ongi yo‘qolgan ijtimoiy muhitning portreti” sifatida izohlaydi.

Donish soxta bilim va befarqlikning ildizini esa chuqurroq qaziydi — u bu illatlarni siyosiy mafkura sifatida tasvirlaydi. Xususan, u hukmdorlar nima uchun bu muhitdan manfaatdor bo‘lishini ochiq bayon etadi: "…A. Kalla (Ahmad Donish) fikricha, dunyoning abadiyligiga ishonish faqat podshohlargagina foydali, chunki bu e’tiqod ularni axloqiy majburiyatlardan ozod qiladi." [216] Bertels bu erda Donishning siyosiy tafakkurini alohida ta’kidlab, uni “axloqdan mahrum hokimiyatning mafkuraviy tanqidchisi” deb ataydi. Donishga ko‘ra, e’tiqodning abadiylashtirilgan soxtaliklari orqali hukmdor o‘zini javobgarlikdan ozod etadi, xalq esa taqdirga bo‘ysunishga odatlanadi.

Shu tarzda, Donish soxta bilim, johillik va irodasizlikning jamiyatni qanday zaiflashtirganini ko‘rsatadi. Bu ruhiy inqiroz uning nazarida davlat tanazzulining

ichki sababi bo‘lib xizmat qiladi. Islohni esa u har doimgidek — ruhdan, tafakkurdan va haqiqatni tan olishdan boshlash kerak deb biladi. Ahmad Donish ijtimoiy inqiroz sabablari va ulamolarning axloqiy mas’uliyatsizligi haqida fikr bildirgach, davlat tomonidan qo‘llanilayotgan jazolar — xususan, o‘lim jazosi va harbiy xarajatlar masalasiga to‘xtaladi. U bu muammolarni axloqiy tamoyillar asosida tahlil qilib, ularni isloh qilish zarurligini asoslaydi. Donish o‘lim jazosini to‘liq bekor qilishni taklif etmaydi, biroq uning haddan tashqari qo‘llanishiga qarshi chiqadi. Bu masalada u quyidagicha yozadi: "Muallif (Ahmad Donish) o‘lim jazosini bekor qilishga jur’at etmaydi, biroq uni imkon qadar kamaytirish zarur, deb hisoblaydi…" Bertels bu fikrni Donishning “odamiylik va adolat mezonidagi huquqiy islohotlar”iga bo‘lgan munosabati sifatida izohlaydi. Ya’ni Donish davlat qudratini emas, axloqiy javobgarlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu fikrni R. X. Хадизаде ham qo‘llab-quvvatlab, Donishning “odamiylik va adolat mezonidagi huquqiy islohotlar” tarafdori ekanini qayd etadi: "Bu — jazoni emas, adolatni talab qilgan inson edi…"[2.2]

Tashqi siyosiy zaiflik va rahbarlar beparvoligi fonida Ahmad Donish jamiyatni inqirozdan olib chiqish uchun kuchli shaxsiy ma’naviyatga ega “yetakchilar” kerakligini uqtiradi. Bunday etakchilar faqat siyosiy hokimiyat emas, balki axloqiy o‘rnak bo‘la oladigan shaxslar bo‘lishi lozim. Donish ularni “zamonlar boshida paydo bo‘luvchi ilohiy rahnamolar” deb ta’riflaydi. Bu g‘oyani u quyidagi tarzda ifodalaydi: "Butun tarixiy jarayon to‘g‘ri yo‘ldan borsa va muvozanat saqlansa, har ming yillik va har yuz yillik boshida insoniyat madaniyatining barcha sohalarida faoliyat yurituvchi alohida 'ma’naviy rahnamolar' (mujaddid) paydo bo‘ladi…" Bertels bu g‘oyani Donish tafakkuridagi “ma’naviy progress nazariyasi” deb talqin qiladi. Unga ko‘ra, Donish tarixda faqat tasodiflar emas, balki ma’naviy zaruratga javob sifatida paydo bo‘ladigan etakchilar orqali ijtimoiy uyg‘onish sodir bo‘lishiga ishonadi.

Donish bu etakchilarning davriy paydo bo‘lish mexanizmini ham ta’riflaydi. Ularning chiqish tartibi, ta’siri va tarixiy natijalari haqida quyidagicha yozadi: "Agar tinsayib ming yillikning rahnamosi bo‘lgan bo‘lsa, avval 500 yillik yuksalish, so‘ngra esa 500 yillik tanazzul kuzatiladi…" Bertels buni “Donish tafakkuridagi tarixiy determinizm modeli” sifatida izohlaydi. Donish bu erda tarixiy jarayonlarni ilohiy iroda, axloqiy zarurat va insoniyatning ruhiy holati bilan bog‘laydi. U uchun yuksalish va tanazzul — ma’naviy etakchilik mavjudligiga bog‘liq.

Bu g‘oyani yanada aniqroq qilish uchun Donish etakchilarning zamon talabiga mos holatda paydo bo‘lishini ulug‘lashda quyidagi tarixiy shaxslarni misol keltiradi: "Muallif fikricha, hijriy sakkizinchi asrning mujaddidi Temur bo‘lgan,

o‘n ikkinchi asrning rahnamosi esa Amir Ma’sum bo‘lib, u 'Ikkinchi Umar' laqabi bilan tanilgan Shohmurodbiydir." [232] Bertels bu satrni “Donish tarixiy voqelikni ruhiy ideallar orqali talqin qilgan” muhim jihatlaridan biri deb hisoblaydi. Shohmurodning bu erda “Umari soniy” deya tilga olinishi, uning nafaqat siyosiy, balki ruhiy etakchi sifatida ko‘rilganini bildiadi.

Shunday qilib, Donish uchun ma’naviy yuksalish — bu tarixiy tasodif emas, balki axloqiy tayyorgarlik va zamon ehtiyojiga javoban etishadigan shaxslar orqali yuzaga chiqadigan zaruratdir. Bu etakchilarni u “ilohiy belgilangan rahnamolar” deb tasvirlaydi va ularning asosiy vazifasi — xalq ongini uyg‘otish, ma’naviy barqarorlikni tiklashdir.

Ahmad Donish asarlarida ilgari surilgan axloqiy-falsafiy g‘oyalar XIX asr Buxoro amirligidagi jamiyat va davlat tuzumining inqiroz holatini tanqidiy tahlil qilish bilan birga, shaxs ma’naviyatini shakllantirishga doir chuqur qarashlarni ham aks ettiradi. Donishning adolat, salohiyat, axloq va maslahatga asoslangan boshqaruv tamoyillari zamonaviy konstitutsiyaviy nazariyalar bilan hamohangdir. Yevgeniy Bertels Donish asarlarining har bir satrini faqat tarixiy manba sifatida emas, balki axloqiy-siyosiy tafakkur namunasi sifatida baholaydi. Donish tarixni saboq manbai, rahbarni esa ruhiy etakchi sifatida tasvirlaydi. U adolatli rahbar timsolida Shohmurodni ko‘rsatgan, diniy riyo, ilmsizlik va siyosiy loqaydlikni esa jamiyat emirilishining ildizi deb bilgan. Donishning barcha g‘oyalari bir yo‘nalishga bo‘ysunadi — ma’naviy uyg‘onish orqali ijtimoiy islohotni amalga oshirish. Shunday qilib, uning asarlari shaxs va jamiyat tafakkurini uyg‘otishga qaratilgan murakkab va sermazmun ijtimoiy-falsafiy dasturdir. Bu jihatdan u jadidchilik g‘oyalarining nazariy ildizlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev, “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”, 2021-yil 19-yanvar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti: https://president.uz/oz/lists/view/4089
2. Bertels Ye.E. Ahmad Kallening asarlari qo‘lyozmalari. – Moskva–Leningrad, 1936
3. Donish A. *Puteshestviye iz Buxary v Peterburg*. — Dushanbe: Irfon, 1960. Xadizade R.X. so‘zboshisi.
4. Левтеева Л. Г. *Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках*. Ташкент, 1986. С.
5. Абдуллоев Ш. *Маорифпарвари ва озодфикри*. Душанбе, 1990. С.

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA JON (RUH) TUSHUNCHASINING METAFORALAR ORQALI IFODALANISHI

Ibotova Madina,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning g‘azallarida jon (ruh) tushunchasi va uning metaforalar orqali ifodalanishi o‘rganilgan.Mazkur tushunchalar orqali hosil qilingan metaforalarni yaratishda shoir mahorati va jon (ruh)ning badiiy talqini orqali ilgari surilgan g‘oyalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:jon, ruh, qush, tana, qafas, zindon, nur, tuproq.

Abstract

The article studies the concept of soul (ruh) in Alisher Navoi's ghazals and its expression through metaphors. The poet's skill in creating metaphors created through these concepts and the ideas put forward through the artistic interpretation of soul (ruh) are analyzed.

Keywords:soul, spirit, bird, body, cage, dungeon, light, soil.

Аннотация

В статье исследуется понятие души (духа) и ее выражение через метафоры в газелях Алишера Навои. В создании метафор, порожденных этими понятиями, были проанализированы навыки поэта и идеи, выдвинутые через художественную интерпретацию души (духа).

Ключевые слова: душа, дух, птица, тело, темница, свет, земля.

Alisher Navoiy lirik mersosida o‘ziga xos talqin qilingan ramziy obrazlar sirasiga jon va ruh ham kiradi. Shoir g‘azaliyotida ruh (jon), tana-jism bilan bog‘liq bir qator metaforalar hosil qilingan.

Ulug‘ shoir Alisher Navoiy lirikasida jon va ruhning badiiy ifodasida o‘ziga xos metaforalar qo‘llangan bo‘lib, tadqiqotda ularni quyidagicha tasniflarda berishib o‘tishga harakat qildik.

1. ***Ruh –qush, tana – qafas***
2. ***Ruh – nur, vujud – tuproq***
3. ***Ruh – nur, ruh – soya***
4. ***Ruh–nay, jism – nayiston***

Ruh –qush, tana –qafas. Ruhni qushga, tanani qafasga qiyoslash Sharq adabiyoti keng qo‘llangan tashbehlardan biridir. Ruh nozik mavjudot bo‘lishi va samoviy idrokni o‘z ichiga olganligi nuqtai nazaridan, u qushlarga o‘xshatiladi. O‘limdan keyin ham u yuqori olamlarga tegishli bo‘lgani hamda uning ketganiga ishonilgani uchun ham “uchib ketdi” iborasi qo‘llangan. Mumtoz adabiyotda qo‘llangan “jon qushi”, “ko‘ngil qushi ”, “g‘am qushi”, “xirad qushi” kabi qator birikmalar ham jon va ruhning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

Mumtoz she’riyatda vujudni qafas tashbehi bilan berish an’nana tusini olgan. Insonning hissiy yoki ruhiy jihatdan “qotib qolgan” holatlarini, uning ichki dunyosidagi “cheklanganlik” vaziyatlarini ifodalashda “qafas” metaforasiga tez-tez murojaat qilingan.

Tabiat chohidin ruhungni qutqarkim, xush ermastur

Qafas qaydi aro bulbulg‘a bo‘lmoq mubtalo asru [1.471].

Shoir ajoyib tasvirni hosil qilgan. Baytda ruh – bulbul, vujud – qafas timsolida tasvirlangan. Biz yuqorida tansiz ruhni yoki ruhsiz tanni tasavvur qilib bo‘lmaydi, degan ta’kidni bergan edik. Xo‘sh, Alisher Navoiy ruh badanni tark etishi bilan bog‘liq tasvirdan qanday maqsadni ko‘zlaydi? Bulbulning maskani bog‘-u rog‘lar. U erkinlikni, ozodlikni sevadi. Ruh ham erkinlikni sevadi. Buning uchun u *“tabiat chohi*” – nafsoniy illatlardan ozod bo‘lishi kerak. *Tabiat chohi* – dunyoga bog‘lanib qolmoq. Ruhni bunday chohdan qutqarmaslik qafas ichidagi bulbulning holatini eslatadi. Ruhning asl maskani Alloh dargohi – jannat bog‘laridir. Bunday maskanga faqatgina kamolga etgan va jism qafasidan ozod bo‘lgan ruhgina eta oladi.

Alisher Navoiyning oshiqona g‘azallarida ham oshiqning ruhiy holatining ifodasida *vujud – qafas* ramzidan mahorat bilan foydalangan.

Ne xayol edi yanakim, ko‘ngul qushi saydini havas aylading,

Badanimg‘a har soridin xadang urubon, anga qafas aylading [1.301].

Ko‘ngul qushining saydini istagan ma’shuqa oshiq vujudiga har tomondan yoy o‘qi (xadang) otib, u (ruhi)ni badan qafasida bandi qiladi.

Alisher Navoiy she’riyatida jon va ruh talqinida qo‘llangan yana shunday metaforlardan biri *zindondir*. Tasavvuf adabiyotida ruh – qushga, tana – vujud zindonga qiyos qilinadi. O‘lim orqali ruh qushi tana zindonidan qutulib, muqaddas makonga uchadi. Biroq “o‘lmasdan oldin o‘lish” siriga erishgan oriflar tabiiy o‘limga etmasdan, ilohiylik osmoniga uchadilar. Alisher Navoiy bu ramzdan o‘zining ishqiy mavzudagi g‘azallarida keng foydalangan. Jumladan,

Yana bu oqshom buzug‘ ko‘nglum, base, badholdur,

Tan buzug‘ zindonida jon ham xarob ahvoldur [5.122].

Keltirilgan baytda oshiqning tani “buzuq zindon”ga qiyoslangan. Zindonga qamalgan jon ham xarob ahvoldi. Demak, shoir baytda oshiq tanini zindong‘a qiyoslash orqali uni imkonsizligini, “buzug‘ ko‘nglini” “badhol” ekanligini tasvirlaydi. Bu bu bilan ishq va oshiqlik muammolarini hayot ziddiyatlari bilan birga uyg‘un holda tasvirlashga erishadi.

Ruh – nur, vujud – tuproq. Ruh va nur o‘rtasidagi munosabat insonning ichki ma’rifati va ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liqdir. *“Inson ruhi mohiyatan nurdan iborat, shuning uchun inson nurni ko‘rganda zavqlanadi, zulmatdan qo‘rqadi. Koinotdagi barcha sababiy yaratilmalar oxir-oqibat Nur ul-anvor (Alloh)ga qaytadi [6.184]*.

Ruh ul nurdururkim, haq anga bermish avj,
Nafs zulmatqa qolib, qilmish anga poya hubut [4.198].

Rasulullоh s.a.v. hadislarida “Alloh xalq – yaratilmishni zulmatda yaratdi, so‘ng unga nurni yo‘lladi”,- deyiladi [1.122]. Yuqoridagi baytda shoir ruhning nurdan yaralganligini, Alloh unga *“avj”-yuksalish*, ko‘tarilishining zaminida nurning inson ma’naviy kamolotida yo‘naltiruvchi va yorituvchi rolini ta’kidlangan bo‘lsa, nafs esa “zulmatda qolib” u (ruh)ni martaba, darajadan (hubut) mosuvo qolishiga sababkor bo‘ladi. Demak, ruh - nur zulmatda insonning yo‘lini yorituvchi, iymon va umidni ifodalaydi.

Desang falakka chiqay, foniy o‘l anosirdin,
Nedinki ruhunggadur chormix bu to‘rtov [3.457].

Anosiri arba’ – to‘rt unsur: havo, suv, olov va tufroq. Bu to‘rt unsur inson vujudining asosi. “*Falakka chiqmoq*” - ruhning parvozi. Bu bilan ruhiy yuksalish va Xudoga yaqinlashish jarayonida ruhning moddiy olam chegarasidan tashqariga chiqishi va haqiqiy borliq bilan qo‘shilib ketishi nazarda tutiladi. Baytda ulug‘ shoir parvozga shaylangan ruh uchun to‘rt anosir “chormix” ya’ni “to‘rt qoziq” bo‘lishi ta’kidlaydi.

Albatta, bunday tasvirlar orqali tasavvufiy g‘oyalarni ilgari surilgan. So‘fiy adabiyotda ruhning moddiy olam chegaralaridan qutulib, haqiqiy saodat va orom topishi orqali Ilohiy olamga ko‘tarilishini tasvirlash an’ana tusini olgan. Ko‘ngilni poklash va ilohiy ishq bilan to‘lib-toshish orqali Qalbning parvoziga erishish mumkin. Buning uchun ruh foniy bo‘lishi, ya’ni “to‘rt anosir” dan qutulmog‘i kerak. Baytda “to‘rt anosir” “o‘zlik” timsoli.

Quyida keltirilgan baytda ham xuddi shu g‘oya ilgari surilgan.

Badan anosirining chorgohin et xorij,
Navoiyo, desang aylay falak sari ohang [2.324].

Jism “falak sori ohang” qilmoq uchun to‘rt anosir chorgog‘idan tashqarida bo‘lishi bilan bog‘liq tasvir keltrilgan. Bu o‘rinda ham ruhning kamolga etishi bilan bog‘liq g‘oya ilgari surilgan.

Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy *ruh – nur, vujud – tuproq* ramzlari orqali tasavvufiy g‘oyalar targ‘ibida mahorat bilan foydalangan. Shoirning oshiqona g‘azallarida ham mazkur ramzlar shoirning badiiy niyati uchun xizmat qilgan.

Chunki sensen ruhi poku men nachukkim tiyra xok,
Suhbatimdin topsa tab’ing tiyralik, sensen muhiq [4.220].

Ma’shuqa – ruhi pok, oshiq – tiyra xok. Muhiq – haqli. Ular o‘rtasidagi suhbatdan ma’shuqa ta’bi tiyralik tortsa, u haqli. Oshiq bu bilan uning pok ekanlini uqtirmoqchi. Baytda ruhning pok yaratilganligi bilan bog‘liq ilohiy-irfoniy g‘oya shoirning badiiy niyat uchun qo‘l kelgan. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy lirikasida jon va ruhning badiiy ifodasida o‘ziga xos metaforalar qo‘llangan. Shoir lirik merosida qo‘llangan *ruh –qush, tana – qafas; ruh – nur, vujud – tuproq; ruh – nur, ruh – soya; ruh–nay, jism – nayiston;* ruh – bulbul, vujud – qafas kabi tasvirlarga ramziy ma’no yuklangan bo‘lib, ular goh solikning, goh oshiqning ma’naviy qiyofasining badiiy talqini uchun xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Abulhasan Hujviriy. «Kashf ul mahjub». Tehron, «Tebbiyon». Faridun Osiyobiy Ishqiy Zinjoniy tahriri ostida. (A.A. Boltaev tarjimasi), 2003.
2. Navoiy Alisher. Badoe’ ul-bidoya .MAT. XX jildlik. I jild. –T.: Fan, 1987.
3. Navoiy Alisher. Navodir un - nihoya. MAT. XX jildlik. II jild. –T.: Fan, 1987.
4. Navoiy Alisher. Favoyid ul-kibar. MAT. XX jildlik. VI jild. –T.: Fan, 1987.
5. Navoiy Alisher. Badoe’ ul-vasat. MAT. XX jildlik. V jild. – T.: Fan, 1990.
6. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: “Yangi asr avlodi”.

XALQ RIVOYATLARIDA AMIRIY: TARIXIY SHAXS VA BADIIY OBRAZ KESISHMASIDA

Payg‘amova Shirin Jakbarali qizi
FarDu 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Umarxon Amiriy shaxsiyatiga oid xalq rivoyatlari badiiy-folkloriy manba sifatida o‘rganilgan. Rivoyatlarda Amiriy shaxsining xalqparvarligi, ijodiyati, adolatparvarligi, iymon-e’tiqodi, hatto oddiy insonlarga munosabati kabi qirralar ko‘rsatiladi. Ayniqsa, uning rafiqasi Nodirabegim bilan bog‘liq sahnalarda o‘zbek oilaviy munosabatlari, madaniyat va badiiy estetik did yuksakligining namunasi sifatida rivoyatlar namoyon bo‘ladi. Maqolada tarixiylik, xalq xotirasi va badiiy obraz uyg‘unligi asosida Amiriy siymosi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar : Amiriy, xalq rivoyati, Nodirabegim, adolat, shoir, ijod, estetik did, xalqparvarlik, tarixiylik

Аннотация

В статье рассматриваются народные предания, связанные с личностью Омархона Амирия, как фольклорно-художественный источник. В этих рассказах раскрываются такие черты, как народолюбие, справедливость, религиозность и уважение к простому народу. Особое внимание уделяется отношениям с супругой Нодирабегим, где через семейные сцены проявляется высокая культура и эстетический вкус узбекского народа. Образ Амирия анализируется на основе исторической памяти и художественной интерпретации.

Ключевые слова: Амирий, , народное предание, Нодирабегим, поэт, творчество, эстетический вкус, народолюбие, историзм

Abstract

This article examines folk legends about Umarxon Amiriy as a source of folkloric and literary value. These narratives reflect Amiriy’s justice, devotion to people, literary talent, and spiritual strength. His relationship with Nodirabegim illustrates refined family values and aesthetics within Uzbek culture. The paper explores how historical memory and artistic imagination together shape the enduring image of Amiriy in collective consciousness.

Keywords: Amiriy, folk legend, Nodirabegim, justice, poet, creativity, aesthetic taste, devotion to people, historicism.

“Hayotiy voqealarni hayoliy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og‘zaki ijod janrlaridan biri rivoyatdir. Rivoyat og‘izdan-og‘izga o‘tib, jonli an’anada saqlanib kelgan epik janrlardan biri hisoblanadi. Rivoyat janriga mansub asarlar uni aytuvchidan muayyan ijrochilik san’ati va ma’lum tayyorgarlikni talab qilmaydi. Bunday folklor asarlari u yoki bu tarixiy hodisani yodga olish, ta’riflash yoki biror tarixiy shaxs haqida ma’lumot berish zarurati tug‘ilgan paytda hikoya qilinaveradi.

Bu esa rivoyat janrining o‘ziga xos xususiyatlaridan birini tashkil qiladi”[4. B.13].

Dunyoda shunday tushunchalar borki, ularning birini eslaganda ikkinchisi beixtiyor yodga tushadi, biri birini to‘ldirib, mujassamlashib turadi. Shu jumladan insonlar ham. Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi, qudratli hukmdor hamda ulug‘ ijodkor Amiriy nomi eslanganda, o‘z-o‘zidan, o‘zbek mumtoz adabiyotining go‘zal vakilasi Nodirabegim yodga tushadi. Xalqimiz orasida Qo‘qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog‘liq ko‘plab rivoyatlar uchraydi. Ularning deyarli barchasida Umarxon shaxsiyatidagi ijobiy fazilatlarga urg‘u beriladi. Masalan quyidagi rivoyatda Nodirabegim va Amiriy munosabatlari aks etgan: Bir kuni Umarxon va Nodira o‘zaro xafalashib qolishadi. Umarxon achchiq ustida Nodiraga saroydan istagan narsasini olib, Andijonga ketishini aytadi. Ertasi kuni Umarxon uyqudan ko‘zini ochsa, Qo‘qon aravada Andijon yo‘lida ketyapti. Bu holatga izoh so‘raganda, Nodirabegim shunday javob qiladi: “Siz saroydan istaganimni olib, keyin yurtimga ketishimni aytgandingiz, mana, o‘z istaganimni olib ketyapman”. Umarxonning bu gapdan ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib, Nodira bilan birga Qo‘qonga qaytgan ekan. Ko‘rinadiki, ushbu rivoyatda Podsho va malika o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar, ularning go‘zal echimi o‘z ifodasini topgan. Bu rivoyat xalq orasida shunchalik ommmalashib ketganidan ba’zi variantlari ham paydo bo‘lgan. Ularda aynan Umarxon va Nodira ismlari keltirilmasa-da bir podshoh va malika sifatida bayon qilinadi. Bunday hayotiy voqealarning el og‘ziga tushib, odamlar uchun ibratga aylanishi Nodirabegimning yuksak zakosi va cheksiz muhabbatining ham o‘rni beqiyos. Chunki Nodira aqlli tadbiri bilan nafaqat oilasini saqlab qoldi, balki o‘z hukmdoriga sevgi va sadoqatini o‘ziga xos tarzda ko‘rsata oldi. Amiriy devonidagi qizlar majlisi ta’riflagan 52-g‘azalning yaratilish tarixi haqida ham rivoyat mavjud. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amiriy shoirlarga alohida e’tibor berib, ularning maqomini yuksaltiradi, hattoki yaxshi shoirlarga maosh ham joriy etadi. O‘z navbatida rafiqasi Nodirabegimga ham shoiralarni to‘plab, ijodiy bahslar uyushtirishiga, yosh ijodkor qizlarga shoirlik yo‘lida rahnamolik qilishiga imkon yaratadi. Nodirabegim saroyda ayollar o‘rtasida mushoiralar tashkil etadi. Rivoyat qilinishicha, ana shunday mushoiralardan biri saroy bog‘ida, tabiat qo‘ynida o‘tkaziladi. Amiriy bog‘da sayr qilib, tabiat go‘zalliklaridan bahra olib yurar ekan, nogahon latif suhbat bo‘layotgan qizlar majlisiga ko‘zi tushadi. Bazmda 13 ta qiz jam bo‘lib, she’r aytishar, biri qo‘shiq aytsa, biri raqsga tushar edi. Bunday maftunkor sahnadan ilhomi jo‘shgan Amiriy ularning ta’rif-u tavsifiga bag‘ishlangan go‘zal bir g‘azal bitadi. G‘azal 13 nafar anjuman ahliga monand tarzda 13 baytdan iborat. Nodirabegim tashkillagan go‘zal majlis badiiy jihatdan yuksak bir g‘azalning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ushbu g‘azalda matladan maqtagacha anjuman ahli bo‘lgan go‘zal qizlarning ta’rif-u tavsifi keltirilgan.

Garchi bu go‘zallar lirik qahramon ko‘ngil qasrining buzilishiga, telba bo‘lishiga sabab bo‘lsa-da, lirik qahramon bunga shukrona keltiradi:

Ko‘rsaturlar jilva birla bizlara gulzorlar,
Nozparvarlar, sumanbarlar, chamanruhsorlar.
Ishq elin qatl etguchi berahm dilozorlar,
Jam o‘lub bir bazm aro suhbat etarlar yorlar *[1. B.84].*

Nodirabegim devoni debochasida ham bir tarixiy rivoyatnomo voqea hikoya qilinadi: “Ersa goho ul Hazrat ba’zi toza mazmunlardin bir misra’ birla savol tariqasida so‘rar erdilar, filfavr oxiri misra’ birla’ javob aytur erdim va tabiatlarini xush qilur erdim. Biri budurkim, bir kuni savol qildilarkim, misra’:

Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?

Javob aytdimki, misra’:

– Kim, alar uryon, bularning jubbau dastori bor.

Bu tariqa mazmunlar birla ko‘ngullarig‘a farah etkurur erdim, mundog‘ latoyif va nazokatlar birla ro‘zgori davlat va saltanat xush kechar erdi”[2. B.16]. Ko‘rinadiki, Amiriyning savol tarzidagi bir misrasiga Nodira munosib javob qaytgan va u Amiriyga bag‘oyatda xush yoqqan. Keyinchalik Amiriy xuddi shu matla’ni davom ettirib, go‘zal bir g‘azalga aylantirib, uni o‘z devoniga kiritganligi sababi ham shu bo‘lsa, ehtimol emas. G‘azal matla’si shunday:

Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?

Kim, alar uryon, bularning jubbau dastori bor[1. B.82]

Amiriyning “Nega aqlu donish egalari ishq yo‘lida telbaga aylangan insonlardan orlanadilar?” degan savoliga Nodira shunday mazmunda javob beradi: “Chunki junun ahli kiyarga kiyimi yo‘q darajada nochor bo‘lgani holda, arbobi xiradning jubba – ust-boshi va dastor – badavlat kishilarning boshga o‘raladigan sallasi bor”. Bu o‘rinda zohiriy va botiniy ma’nodagi ma’naviy boylik o‘zaro zidlangani shubhasiz. Keyingi baytlar matla’dan farqli ravishda yor vasfiga ulanib ketadi.

Savol-javob tarzida boshlangan bu mashhur g‘azal matla’sining yaratilish tarixi haqidagi mazkur rivoyatda Nodira va Amiriyning yuksak aql-u zako egasi ekanligi yorqin namoyon bo‘lgan. Amiriy va Nodira munosabatlari haqidagi yana bir rivoyat bunday: Yoz paytida Nodira oyog‘ini suvga solib, bog‘da she’r yozib o‘tirgan ekan. Amiriy ko‘shkdan uni tomosha qilib turgan bir paytda, bundan xabari yo’q bog‘bon, suvni kechadan buyon shu bog‘ga kiryapti, narigi bog‘ning ham ichadigan payti keldi, deb boshqa boqqa burib yuboribdi. Nodira o‘rnidan turibdi. Amiriy biladiki suv to‘xtadi. Jallodga bog‘bonni tezda olib kelishni buyurib, unga o‘lim jazosi tayyor turibdi, debdi. Amiriyning qo‘l ostida hatto bog‘bon ham shoir edi-da! Bog‘bon kela solib:

–Hazrat bir qoshiq qonimdan kechsangiz.

–Sen hali buni bilib qildingmi?

Bog‘bon: – bilib qildim.

– Nega bilib qilding? – Men qaradim, bilmadim, bulutning soyasida shunday ko‘rindimi, yoki mening ko‘zimga shunday tuyildimi, sizning qarashingizda o‘zgarish sezdim. Buning sababini o‘zimcha topdim-da.

–Nima ekan u sabab?

– Shu ariqda borayotgan suv, Nodirabegimning oyoqlarini o‘pganligi uchun sizning rashkingiz keldi deb o‘yladim-da, suvni bo‘ynidan bo‘g‘ib, u yoqqa burib yubordim. – Bog‘bonning so‘zamolligi va ajoyib javobidan ta’sirlangan podsho unga qarab buyurdi:

– Sen vazifangni bajarding, lekin Nodirabegimning ko‘ngli ozurda bo‘lib qoldi. Kechqurun bir guldasta tayyorlagin-da, menga olib kelgin.

– Bog‘bon guldastani olib keladi. Haqiqatdan ham, guldasta ajoyib san’at asari darajasi edi, Nodirabegim uni ko‘rib badihatan bir bayt she’r aytadi:

Baroyi zebi dast at, shoham, banas dam guldasta ovardi,
Dedi bulbul shikastivu banas dam basta ovardi.

Ya’ni, shohim, qo‘lingning zebi uchun guldasta olib kelibsan, lekin bog‘da qolgan bulbulning ko‘ngli sinib qolibdiku. Amiriy ham badihatan javob beribdi:

Baroyi zebi dastam, man ba tu guldasta ovardam.
Ki o‘ az lutfi lof mezad, banas dast basti ovardam.

“Haqiqatdan ham, qo‘limning zebi uchun guldasta olib keldim. Faqat qo‘lning chiroyi uchun emas, bog‘da turgan gullar hammasi talashayotgan ekan, men go‘zalman, men go‘zalman deya. Haqiqiy go‘zalni ko‘ringlar deb, bularni bo‘ynidan bog‘lab sizni oldingizga olib keldim”. Ushbu rivoyatda nafaqat Amiriy va Nodira muhabbati, ijodkorligi, balki, Umarxon davrida Qo‘qon xonligida yashagan har bir fuqaroda shoirona did va ta’b yuksak darajada bo‘lganligi namoyon bo‘lgan. Ayrim rivoyatlarda Umarxonning dinu islomni mahkam tutgan haqiqiy imon kishisi ekanligi hikoya qilinadi. Aslida ham shunday edi. Amiriy devoni debochasida shuday yozadi: “...gohe ulamo suhbatida o‘lturdum – oyat va hadis gavharlari birla qulog‘im sadafini to‘ldurdim va gohe fazl va kamol ahli birla mujolasat qildim – ilmu donish nuridin bahra oldim. Funun maoniy javohirlarin ko‘ngul xazinasig‘a soldim”[1. B.27].

Adabiyotshunos B.Karim “Amiriy va Abdulla Qodiriy” maqolasida “O‘tkan kunlar” romanidan quyidagi parchani keltiradi va o‘z mulohazalarini bildiradi: “Majlis Otabekning Shamay taassurotini maroq bilan eshitkan, shu kungacha hech kimdan eshitilmagan uning fikrlariga ajablangan edi. Istiqbol qayg‘usi tushiga ham kirmagan bu Turkiston otalari Otabekning daruni dildan chiqarib aytkan gaplaridan

hissasiz qolmadilar: – Amiri Umarxondek odil poshsho bo‘lsa, – dedi qutidor, – biz ham o‘risdan oshib ketar edik. Ziyo shohichi: – Bizning bu holga tushishimiz o‘z fe’li xo‘yimizdan. Akram hoji: – To‘g‘ri. Homid ham boshqalardan qolishmas uchun: “Xudo kofirning dunyosini bergan”, deb qo‘ydi. – Manimcha, o‘risning bizdan yuqoridalig‘i uning ittifoqidan bo‘lsa kerak, - dedi Otabek, – ammo bizning kundan-kunga orqag‘a ketishimizga o‘zaro nizoyimiz sabab bo‘lmoqda...”, deb Qo‘qon xonligida bo‘lib o‘tgan o‘zaro nizolar tarixidan so‘zlaydi. “Amiri Umarxondek odil poshsho bo‘lsa, biz ham o‘risdan oshib ketar edik” – bu ta’bir nafaqat Mirzakarim qutidor yoki ahli majlisning niyati, balki Abdulla Qodiriy ham o‘zaro qirpichoq va parokandalikka yuz tutgan el-yurt uchun shunday bir adolatli rahbar bo‘lishini orzu qilgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas[3. B.414-419]. Olimning ushbu fikrlarini Umarxon haqida bildirilgan xolis e’tirof tarzida qabul qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, “O‘tkan kunlar” asari ham Amiriy haqida ijobiy fikrlar bayon etilgan rivoyatlarni yanada quvvatlantiradi.

Umarxonning komil e’tiqod kishisi ekanligi uning Qo‘qondagi Jome’ masjidining qurilishi bilan bog‘liq voqeada aks etadi. rivoyatga ko‘ra muhtasham Jome’ masjidi birinchi g‘ishtini qo‘yish uchun shariat buyurgan amallarga bir umr og‘ishmay amal qilgan insonni taklif etiladi. Hech kim chiqmaydi. Shunda Umarxonning o‘zi umri davomida shariat ahkomlariga qat’iy amal qilib kelayotganligini aytadi va birinchi g‘ishtini qo‘yib beradi. Shundan keyin xalq Umarxonni “Jannatmakon”, “Amiral muslimin” rutbalari bilan ulug‘lay boshlaydi. Ko‘rinadiki, xalq Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ulug‘ farzandlari, buyuk siymolari qatorida Umarxon Amiriy nomini ham ardoqlab, asrlar davomida saqlab kelmoqda. Chunki Amiriy ijodi xalqimizning ma’naviy madaniyati taraqqiyotida beqiyos rol o‘ynaganligi sababli, uning ezgu ishlari, buyuk so‘z san’atkori sifatida mahorati haqidagi hikoyalar og‘izdan-og‘izga o‘tib, asrlar davomida rivoyatlarga aylangan. Bu rivoyatlarda tasvirlangan shoir obrazi o‘zining elparvarligi, oilaparvarligi, sadoqati, hozirjavobligi, badiiy so‘zni benihoya qadrlashi, adolatpesha va halol inson bo‘lganligi, beqiyos aql-zakovat va idrok sohibi ekanligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амирий. Девон. – Тошкент: Тамаддун, 2017.
2. Э. Очилов, З.Қобилова. Ишқ мулкининг амири /Амирий. Қошингга текузмағил қаламни. Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова. Тошкент: Шарқ, 2008.
3. Karimov.B. Amiriy va Abdulla Qodiriy / Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro konferensiya materiallari. – T.,2018.
4. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
8. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
10. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
11. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

MIRZO XAYRULLO HO‘QANDIY “BAYOZ”I MATNIDA UNLI HARFLARNING QO‘LLANISHI (musaddaslari misolida)

Umarjon Melikuziyev,
Qo‘qon DPI tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada Mirzo Xayrullo Ho‘qandiyning bayozi va undagi musaddaslar tadqiq etiladi. Musaddas janri va Ho‘qandiy salaflari yozgan musaddaslarning ko‘lami haqida so‘z boradi. Eski o‘zbek yozuvidagi matnlarda unli harflarning qo‘llanishi jumladan Mirzo Ho‘qandiy musaddaslari matni so‘zlarining turli o‘rinlarida tushib qolgan unli harflar tadqiq ostiga olinadi.

Kalit so‘zlar: bayoz, matniy tadqiq, musaddas janri, nastaliq, eski o‘zbek yozuvi, unli harflar

Abstract

This article examines the Bayaz of Mirzo Khairullo Khoqandi and the musaddas in it. The genre of musaddas and the scope of musaddas written by Khoqandi's predecessors are discussed. The use of vowels in texts in the old Uzbek script, including the vowels that occur in different places in the words of the text of Mirzo Khoqandi's musaddas, is examined.

Keywords: Bayaz, textual analysis, musaddas genre, nastaliq, old Uzbek script, vowels

Аннотация

В данной статье рассматривается Баяз Мирзо Хайрулло Хоканди и мусадды в нем. Будут обсуждаться жанр мусадд и объем мусадд, написанных предшественниками Хоканди. Рассматривается употребление гласных в текстах на староузбекской графике, в том числе гласных, встречающихся в различных местах слов текста «Мусаддаса» Мирзо Хоканди.

Ключевые слова: байоз, текстологический анализ, жанр мусаддас, насталик, староузбекское письмо, гласные

Qo‘qon shahrida tavallud topgan ma’rifatparvar shoir, hattot Mirzo Xayrullo Ho‘qandiyning adabiy merosi 214 betlik bayozida o‘rin olgan. Bayoz janr jihatidan keng ko‘lamli bo‘lib g‘azal, muhammas, musaddas, murabba, masnaviy kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Bayoz eski o‘zbek yozuvida nastaliq hatida yozilgan bo‘lib, matniy tadqiqning bir qancha usullari bilan tadqiq etsa bo‘ladi. Bayoz matnidagi gloslarni tadqiq etish, statistik tahlil, matnni interpratatsiya qilish, konyektura usullarida tadqiq etish turli rakurslarda o‘rganishga imkon beradi. [1.10-42] Albatta bularning barchasini bir maqolada bayon qilish imkonsiz bo‘lgani uchun ushbu maqolada bayozdagi faqat musaddaslarnigina tadqiq ostiga olganmiz.Musaddas (arabcha: oltilik) - har bir bandi olti misradan iborat bo‘lgan she‘r shakli bo‘lib, musammat xillaridan biridir. Aruzning turli vaznlarida, turli mavzularda yoziladi. a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, v-v-v-v-v-a yoxud a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib keladi. Musaddasda ham musammatlarning boshqa xillaridagi kabi shoir yoxud ikki shoir taxallusi keltiriladi. Shu taxalluslarga qarab mustaqil yoki tazmin usulida yozilganligi aniqlanib olinadi. Alisher Navoiy, Mashrab, Nishotiy, Huvaydo, Amiriy, Ogahiy, Nodira, Furqat, Sidqiy Xondayliqiy, Tabibiy, Kamiy va boshqalarning ijodlaridan musaddasning go‘zal na’munalarini toppish mumkin. Jumladan Navoiy devonida "G‘aroyib us sig‘ar”da 1ta radifsiz 9 bandli; “Navodir ush-shabob”da 1 ta “ey rafiq” radifli 9 bandli; “Badoyi ul vasat”da 2 ta birinchisi radifsiz 7 bandli, ikkinchisi “meni” radifli 7 bandli; “Favoyid ul kibar”da 1 ta “ustuna” radifli 7 bandli musaddaslar o‘rin olgan. Amiriy devonida jami 4 ta musaddas bo‘lib birinchisi “qadardandur” radifli 8 bandli; ikkinchisi “saning” radifli 13 bandli; uchinchisi “jonim” radifli 9 bandli; to‘rtinchisi “muruvvat soati” radifli 7 bandli musaddaslar mavjud. Zavqiy ijodida 1 ta besh bandli musaddas bor. Hamza devonida jami beshta: birinchisi “o‘lsun” radifli 8 bandli; ikkinchisi “qilma” radifli 6 bandli; uchinchisi “ushshoqim” radifli 12 bandli; to‘rtinchisi radifsiz 8 bandli, beshinchsi radifsiz 5 bandli musaddas bor. Ogahiy devonida jami 5 ta birinchisi “bo‘lay” radifli 7 bandli; ikkinchisi “shod o‘loli” radifli 5 bandli; uchinchisi “ayla jovid” radifli 7

bandli, to‘rtinchisi “sitamgarlar” radifli 7 bandli; beshinchisi “jafosini ko‘rung” radifli 9 bandli musaddas o‘rin olgan.

Asosiy qism. Mirzo Xayrullo Ho‘qandiy bayozidan o‘rin olgan musaddaslar ko‘lami salaflarinikidan ko‘p bo‘lib 6 tani tashkil qiladi. Bayozda janrlar alohida-alohida turkumda berilmagan bo‘lib, betartib yozilgan. Birinchi musaddas 27B, 28A sahifalaridan joy olgan. “Musaddas Mirzo azjihat Mirzo Malakzod” sarlavhasi qo‘yilgan bu musaddas besh banddan iborat. “Aylasa” so‘zi radif holida takrorlangan va a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Bayozdagi ikkinchi musaddas 69A, 69B, 70A, 70B sahifalarida berilgan. Bu musaddasga ham avvalgisi kabi “Musaddas Mirzo azjihat Mirzo Malakzod" sarlavhasi qo‘yilgan. To‘qqiz banddan iborat va "salom" so‘zi radif holida takrorlangan. Musaddas a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Bayozdagi uchinchi musaddas 70B, 71A, 71B sahifalaridan o‘rin olgan. Musaddasga “Azjihat Nizomiddin Foniy” sarlavhasi qo‘yilgan. Demak bu Alisher Navoiyga tazmin holida yozilgan. Bu musaddasda radif takrori mavjud emas hamda a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Musaddas etti banddan iborat. Bayozdagi to‘rtinchi musaddas 77B, 78A sahifalaridadir. Musaddasga sarlavha qo‘yilmagan. “Bu kun” so‘zi radif xolida qo‘llanib, a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Musaddas besh banddan iborat. Bayozdagi beshinchi musaddas 78B, 79A, 79B, 80A, sahifalarida berilgan. Bu musaddasga ham sarlavha qo‘yilmagan. “Yaxshiliq qil kim ursa boshinga tosh” misrai bilan boshlangan. Musaddas to‘qqiz banddan iborat bo‘lib radif takrorlamagan. Musaddas a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Har bir bandning oxirida-

Har kishi fe’li badni ayladi fosh,
Qildi ul o‘zig‘a yomon yo‘ldosh.
misralari takror qo‘llangan.

Bayozdagi oltinchi musaddas 96A, 96B sahifalarida berilgan. Bu musaddasga “Dard saf shahri Toshkand” sarlavhasi qo‘yilgan bo‘lib Mirzoning Toshkentga qilgan sayohati tafsilotlari yozilgan. Musaddas to‘rt banddan iborat bo‘lib har bir bandning ohirgi ikki misrasida “habar bergay” birikmasi radif holida takrorlangan. Musaddas a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. E’tibor berilsa bayozdagi oltita musaddasning qofiyalanish tartibi bir xildir. Qofiyalanishning birinchi shakli a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, v-v-v-v-v-a tarzidagi qofiya Ho‘qandiy musaddaslarida uchramaydi.

Mirzo Hayrullo Ho‘qandiy bayozi litografiya usulida bosilgan. “Bunda asosiy ishni hattot bajargan. Hattot matnni maxsus qog‘ozga ko‘chirgan. Qog‘ozdagi matn toshqolip sirtiga o‘tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan.

So‘ngra ana shu toshqoliplardan nusxalar olingan. Bunday usulda tayyorlangan kitoblar asosan nastaliq xatida yozilgan”. [6.51] Nastaliq xatida unlilar ko‘pincha tashlab ketilgan. Bunga yozishni tezroq amalga oshirish sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Chunki kitob yozish ishlari asosan qo‘l mehnati bilan amalga oshirilgan. Bu kitoblarni o‘qigan o‘sha zamon kitobxonlari forsiy, arabiy, turkiy so‘zlarni va ularning ma’nolarini kundalik ishlatgan so‘zlari bo‘lganligi uchun yaxshi bilishgan. Shuning uchun bunday unlilar tashlab ketilgan xatlarni o‘qish o‘sha zamon kishisi uchun qiyin bo‘lmagan. Keyingi davrlarda ruslashtirish boshlanib ko‘pgina so‘zlar o‘rnini ruscha so‘zlarga bo‘shatib berdi. Biz mana shu davr odami bo‘lganimiz uchun XIX asr kishilari ishlatgan so‘zlar biz uchun tushunarsiz bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham u davr asarlarini o‘qish arab harflarini bilgan zamondoshlarimiz uchun ham qiyinchilik tug‘diradi. U davrda arab harflari asosidagi eski o‘zbek yozuvining imlo qoidalari bo‘lmaganligi uchun har bir shoir yoki hattot o‘z salohiyatiga ko‘ra matn yozgan bo‘lib unli va undosh harflarni qo‘llashda har xillik yuzaga kelgan.

Qozon bosma yozuvlari nasx xatida yozilgan bo‘lib bularda so‘z tepasidagi a, u unlilarini ifodalash uchun fatha, zamma belgilari tashdid belgilari qo‘yib ketilgan. So‘z ostidagi i harfini bildiruvchi kasra belgisi qo‘yilmagan. O‘rta Osiyo hattotlari asosan nastaliq hatidan foydalangan bo‘lib, unlilar aniq imlo qoidalari asosida ifodalanmagan. Ayrim so‘zlarning 1-bo‘g‘inida, ayrimlarining 2-bo‘g‘inlarida, ayrim so‘zlarning 3-bo‘g’inida ba’zi so‘zlarning 1-2-bo‘g‘inlarida, ba’zilarining 1-2-3-bo‘g’inlarida, fors izofalarda unlilar qo‘llanmagan. Lekin ayrim o‘rinlarda nasx xati kabi so‘z tepasidagi fatha zamma tashdid belgilari qo‘llanilganligini ko‘ramiz.



Yuqorida Mirzo bayozidan bir baytni misol qilishimiz mumkin. Baytning birinchi misrasidagi “o‘q” so‘zi yuqorisiga zamma belgisi qo‘llanilgan. Lekin bunday holatlar juda kam uchraydi.

Turkiy so‘zlardagi unli tovushlarning yozuvdagi ifodasi bo‘yicha hali jahon matnshunosligida bir qarorga kelingani yo‘q. [1.61] Nastaliq xatida unlilarning qo‘llanilmasligi bir tomondan hattotlarga qulaylik tug‘dirsa, ikkinchi tomondan o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Masalan eski o‘zbek yozuvidagi ((عرض ushbu so‘zni ikki xil (arz, oraz) holida o‘qish mumkin. Lekin bu so‘zni aynan arz yoki oraz so‘zi ekanini qayerdan bilib olamiz? Albatta, yonidagi (oldingi yoki keyingi) so‘zlarni o‘qish bilan birga qaysi so‘z ekanini chiqarib olinadi. Bunday

holatda o‘quvchidan ozgina farosatli bo‘lish talab qilinadi. Mirzo bayozinining 1B sahifasi birinchi ustun ikkinchi misrasi:

سنکا عرض دلیمنی ایلاب اضحار

Shaklida ifodalangan bo‘lib misradagi ikkinchi so‘z arz yoki oraz so‘zi ekani ma’lum. Lekin aynan qaysi so‘z ekanini misradagi boshqa so‘zlarni o‘qish bilan aniqlash mumkin bo‘ladi. “Senga oraz dilimni aylab izhor”, “Senga arz dilimni aylab izhor” jumlalarining ikkinchisi to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki birinchi misrada ma’no g‘aliz bo‘lib qoladi. Mirzo Hayrullo Ho‘qandiy bayozining ko‘pgina o‘rinlarida unlilar bilan bog‘liq xatoliklar mavjud. Bayozni sinchiklab o‘rganib, tushib qolgan unlilarni joyiga qo‘yib joriy alifboga o‘girish biroz murakkab jarayondir. Chunki ifodalanmagan unlilarni joyiga qo‘yishda hato qilish misra yoki bayt ma’nosining tamoman o‘zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday qo‘pol xato bilan asar o‘quvchiga noto‘g‘ri talqinda etib boradi. Shunday ekan tadqiqotimiz qolaversa unlilarning qo‘llanilishi haqidagi ushbu maqolamiz matn tahriri bilan shug‘ullanuvchilar uchun oz bo‘lsa-da foydasi tegadi degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Manzar Abdulhayrov. Adabiy manbani matniy tadqiq etish usullari va tamoyillari. – Toshkent, 2022. – 132 b.
2. Amiriy. Devon (2 jildlik). – Toshkent: Tamaddun, 2017.
3. Zavqiy. Ajab zamona. – Toshkent: Sharq, 2003. – 176 b.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To’la asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1988. – 399 b.
5. Navoiy. Devon. Toshken: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
6. Shuhrat Sirojiddinov. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent, 2019. – 128 b.
7. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
8. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
9. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
10. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
11. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
12. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
13. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

14. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

“NASOYIMUL MUHABBAT” ASARIDA SHAXS FENOMENI

(muqaddima qismida)

Sharipov Nazarjon,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti (PhD)
nazarjon138@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangilanayotgan jamiyatimiz – Yangi O‘zbekistonda ma’nan tarbiyalangan, yuksak insoniy xislatlarni o‘zida mujassam etgan, ma’rifatli shaxs qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi. Shu nuqtai nazardan buyuk ajdodlar merosini o‘rganish, ma’naviy-ma’rifiy saboqlar olish maqsadida milliy ma’naviyatimiz va mumtoz adabiyotimiz darg‘asi Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asari muqaddimasi misolida shaxs fenomeni qanday ko‘rsatib berilgani haqida bahs yuritamiz. Asar hajmi katta bo‘lgani uchun biz aynan muqaddima qismini tahlilga oldik. Keyingi maqolalarimizda asarning asosiy qismida yana shu mavzu atrofidagi mulohaza va kuzatishlarimizni berish niyatimiz bor.

Kalit so‘zlar: “Nasoyimul muhabbat”, shaxs, fenomen, Yangi O‘zbekiston, ma’naviy komillik, komil inson, ijtimoiy hayot.

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос о том, каким должен быть образованный человек, воспитанный в нравственном плане, обладающий высокими человеческими качествами, в нашем обновляющемся обществе – Новой Узбекистане. В этом контексте мы рассуждаем о необходимости изучения наследия великих предков, извлечения из него нравственно-просветительских уроков, и на примере предисловия к произведению Алишера Навои “Насойимул мухаббат”, яркого представителя нашей национальной духовности и классической литературы, обсуждаем феномен личности. Поскольку произведение весьма объёмное, мы ограничили анализ предисловием. В последующих статьях мы планируем продолжить размышления и наблюдения по этой теме, опираясь на основную часть произведения.

Ключевые слова: “Насойимул мухаббат”, личность, феномен, Новый Узбекистан, духовное совершенство, совершенный человек, общественная жизнь.

Abstrakt

This article discusses the qualities of a morally educated, enlightened individual who embodies high human virtues in our evolving society – New Uzbekistan. From this perspective, we will delve into the legacy of our great ancestors, seeking moral and intellectual lessons. We will analyze how the personality phenomenon is presented in the preface of “Nasoiymul muhabbat” a work by Alisher Navoi, a prominent figure in our national spirit and classical literature. Due to the extensive nature of the work, we have focused on analyzing the preface. In subsequent articles, we intend to continue our reflections and observations on this topic, drawing upon the main body of the work.

Keywords: “Nasoiymul muhabbat”, personality, phenomenon, New Uzbekistan, spiritual perfection, perfect human being, social life.

Jamiyat hayoti farovon, yurt obod bo‘lishi uchun undagi har bir shaxs ham ma’nan ham jisman barkamol hamda sog‘lom bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, sog‘lom jamiyatni komil inson sifatida shakllangan shaxslargina yarata oladilar. Komil inson deb ma’naviy barkamol insonga aytiladi. Yaxshi sifatlar, ezgu fazilatlar hamda oliy insoniy xulq-atvorlarni o‘zida mujassam eta olgan odam komillik darajasiga etadi. Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilmaxildir. Masalan, nasliy, hayotiy, tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalarni misol qilib aytish mumkin. Shaxs mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, aql va ong orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an’ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakilidir. Biz bejizga shaxsga nisbatan fenomen atamasini qo‘llamadik. Xo‘sh, fenomen degani o‘zi nima? Oldin qisqacha uning mohiyatiga nazar solaylik. Fenomen yunoncha “phainomenon” – “yuz beruvchi” degan so‘zdan olingan, ko‘zga ko‘rinib turgan hol; noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo‘lgan inson; hissiy bilish, tajribada berilgan ma’lum bir holni anglatadigan falsafiy atama bo‘lib (7, 427), yunon falsafasida bu atama sezgi orqali idrok qilinadigan narsa yoki hodisalarga nisbatan ishlatilgan. Vaqt o‘tishi bilan fenomen so‘zi ingliz va boshqa tillarga kirdi va har qanday kuzatilishi mumkin bo‘lgan yoki e’tiborga loyiq hodisa, hodisa yoki faktga ishora qilish uchun ishlatiladigan bo‘ldi. Demak shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadigan hodisadir. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy-ma’naviy me’yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga

ehtiyoj sezadi. Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne’matlaridan to‘la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo‘lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to‘laqonli shaxs bo‘lib etilmasligi mumkin.

Shaxsni komil inson qilib tarbiyalovchi eng muhim vositalardan biri shubhasiz bu adabiyotdir. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy muhitini shakllantirishda, undagi har bir shaxsni ma’rifiy yuksaltirishda ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy-adabiy merosning xizmati benihoya kattadir. Shuning uchun ham bugun buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish davlatimiz oldida turgan muhim strategik ahamiyatga ega masala sifatida qaralmoqda.

Adabiy merosimizni o‘rganish haqida gap ketar ekan ushbu maqolamizda nafaqat millatimiz, balki jahon adabiyoti faxri bo‘lmish buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ma’naviy merosi misolida masalani yoritishni lozim topdik.

Barchamizga ma’lumki, Alisher Navoiy xoh u she’riy bo‘lsin xoh nasriy bo‘lsin har bir asarida albatta oliyjanob sifatlar egasi bo‘lgan etuk shaxslarni ma’naviy qahramon qilib ko‘rsatishga harakat qiladi va shu orqali xalqning ko‘z oldiga ma’naviy ideallarni gavdalantirib beradi. Bu jihat Navoiy ijodining mohiyatiga aylangan o‘ziga xoslikdir. Yanayam aniqroq qilib Navoiyning butun boshli ijodi zamirida shaxsning ma’naviy-ma’rifiy kamolotga erishish g‘oyasi yotadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Xamsa”, “Lisonut tayr”, “Majolisun nafois”, “Mahbubul qulub”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsatul mutahayyirin”, “Nasoyimul muhabbat” kabi asarlarida Navoiy ko‘plab ana shunday komil shaxslar timsolini taqdim eta olgan. Yuqorida tilga olingan asrlardan biz “Nasoyimul muhabbat”ning muqaddima qismida shaxs fenomeni qanday tasvirlanishini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, Navoiy ustozi Abdurrahmon Jomiyning “Nafahotul uns min hazarotil quds” asaridan ilhomlanib, umrining so‘ngi yillarida o‘zining “Nasoyimul muhabbat min shamoyimil futuvvat” asarini yozadi. “Nasoyimul muhabbat”ning asosiy qismiga kirishmasdan oldin Navoiy: *“Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi”*, deb kichik muqaddima boshlaydi. Unda insonning azizu mukarram qilib yaratilganini eslatib o‘tadi. Shunday bo‘lsada, insonlar bandalik yuzasidan nomaqbul ishlarni sodir etishgach, ularni isloh qilish uchun oralaridan eng yaxshilarini payg‘ambar qilib tanlab olinganini aytib shunday deydi: *“Va chun maxluqning zotida bashariyatni doxil qildi. Bashariyat muqtazosi bila alardin nopisand ishlar vujud tutti. Muning islohi uchun ba’zi bir guzida bandalar*

boshig‘a nubuvvat tojin qo‘yub, beliga hidoyat kamarin bog‘lab, bu maxluqning amru nahyig‘a o‘z ollidin mahkum va bularg‘a hokim qildi” (1,5).

Biz bilamizki, insonning borlig‘i modda va ruhdan iborat. Moddiy qismni tashkil qiluvchi tana faqat harakat yoki sakanatni amalga oshirsa, ruh esa tanani boshqaradi. Ruhiyatning o‘zida yaxshilik va yomonlik tinimsiz kurashda bo‘ladi. Ruhdagi yaxshilikni aql deb tanisak, yomonlikni nafs sifatida taniymiz. Ilm olish, yaxshi fazilatlarni odatga aylantirish orqali ruhimizdagi nafsiy illatlarni engishga harakat qilamiz. Navoiy muqaddimada insoniyatning ana shu xususiyatini *“Bashariyat muqtazosi bila alardin nopisand ishlar vujud tutti”*, demoqda. Ana shu nopisand – nojoiz ishlardan saqlanish, ma’naviy komillikka erishish uchun bashariyatning har bir a’zosi alohida shaxs sifatida o‘z nafsini isloh qilishi, ezgulik sari yurishida unga yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy tarbiyachiga zarurat paydo bo‘ldi va bunday sharafli maqomga nubuvvat tojini kiyganlar, ya’ni payg‘ambarlar hokim qilindi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bashariyat ichida eng afzal shaxslar bular payg‘ambarlardir. Chunki ular ilohiy tanlov asosida saralanib, ilm-ma’rifatni ilohiy vosita – vahiy orqali qabul qilib oladilar va iloh tomonidan tarbiyalanadilar.

Navoiy yana davom etib payg‘ambarlardan keyingi pog‘onada ularning yor-do‘stlari (sahobalar), ulardan keyin valiy zotlar turishini aytadi. Navoiy “Nasoyitmul muhabbat”da komil insonlar sifatida valiy zotlarni tanishtirar ekan, eng avval ularning barchasi mehnat qilib halol kasb bilan tirikchilik qilganlarini aytib o‘tadi. Maslan, Shayx Abu Said Xarroz va Abdulloh Ansoriy etikdo‘z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu Hafs Haddod temirchi, Shayx Abu Bakr Xabboz novvoy, Shayx Abulabbos Omiliy va Shayx Abusaid Abulxayr qassob, Shayx Ibrohim Ojuriy g‘isht qo‘yuvchi, Mirchai Safolfurush kulol, Shayx Abulhasan Muzaiyin va Shayx Bannon hammol, Shayx Abul Hasan duradgor, Xoja Bahouddin Naqshband matoga naqsh solish bilan mashg‘ul bo‘lganlarini misol qilib keltiradi. Bulardan boshqa mashoyixlar ham halol rizq talabida turli kasb qilganlarini va bu esa fayzu m’rifatni oshiradigan omil deb ko‘rsatiladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, komil inson eng avvalo luqmasi halol bo‘lishiga katta ahamiyat qaratishi lozim bo‘ladi. Undan tashqari, ta’magirlik, boqimandalik va yalqovlik kabi yomon illatlardan uzoq bo‘lishi kerak bo‘ladi. Halol kasb ilinjida yurgan inson o‘z navbatida jamiyat uchun zararli bo‘lgan bir qancha yomon illatlardan saqlangan bo‘ladi. Masalan, bunday inson hech qachon o‘g‘rilik qilmaydi. Birovlarning haqqiga ko‘z olaytirmaydi. Savdoda yolg‘on ishlatmaydi va birovni aldamaydi.

Barchamizga ma’lumki, avliyolar dunyodan yuz o‘girgan tarki dunyo ilgan bo‘ladir. Bu degani ular kim nima berar ekan deb rizqini kutib uzlatda o‘tirgan emaslar. Ularning dunyoni tark qilganlari dunyo matosiga va huzur-halovatiga

ko‘ngil qo‘ymasliklaridir. Ular ham barcha odamlar singari rizq talabida turli kasb va hunarlar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Bu esa mehnatsevarlikning bir namunasi hamda boqimandalikdan ta’magirlikdan yiroq bo‘lishni anglatadi.

Navoiy valiy zotlarni halol luqma talabida yurishlaridan keyingi sifatlari shariatga rioya qilish ekanini aytib, islomdagi besh arkon – avval shahodat kalimasi, keyin kunlik besh mahal namoz, zakot, ro‘za va hajni ado qilishda sobit turishlarini ta’kidlaydi. Bundan tashqari kamtar bo‘lish, rahmdil bo‘lish, rostgo‘y bo‘lish, saxiy bo‘lish, xushxulq bo‘lish, taqdirga rozi bo‘lish, sabrli bo‘lish kabi boshqa sifatlarni ham sanab o‘tadi. Navoiy komil insonlarda topilishi kerak bo‘lgan yaxshi fazilatlarni sanab o‘tarkan ulardan birinchisini: *“Ul adabdurki, yaxshiyu yomong‘a va ulug‘u kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, borcha xaloyiqdin o‘zlarin kichik va kamroq tutorlar va barchag‘a xizmat huzurida bo‘lurlar. Hattoki, o‘z farzandlarig‘a va xodimu mamluklarig‘aki, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat birla alarg‘a so‘z demaslar, balki nasihatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rig‘acha”* (1,8), deydi. Misol tariqasida Hazrat Xoja Abdulvafoyi Xorazmiyning sallasini olib qochmoqchi bo‘lgan o‘g‘riga qilgan muomalasini keltirib o‘tadi. O‘g‘ri shayxning sallasini olib qochmoqchi bo‘lganida shayx salla eskirganini u hech narsaga yaramasligini aytadi. O‘g‘ri gapga quloq solmay sallani olib qochadi. Sal nari borgach sallani haqiqatdan ham yaroqsiz ekanini ko‘rib tashlab ketadi. Shayx esa hech narsa bo‘lmaganday borib sallasini olib keladi. Shayx o‘g‘riga hech qanday qo‘pol so‘z aytmaydi, koyimaydi. Ortidan quvmaydi ham. Xotirjamlik bilan odob saqlab muomala qiladi. Shayx bu bilan o‘zidagi yuksak insoniy xulqni namoyon etadi.

Saxovatpeshalik haqida namuna o‘rnida Xoja Abunasr Porsoning qilgan ishini aytadi: *“Xoja Abunasr Porso q.r.ning Balxda bir yaxshi otlari bor ermish. Va hokimning xotiri ko‘p ul ot sori moyil ermish. Ammo tilamas ermishki, shoyadki, Xojaning muborak xotirlari ham anga vobasta erkin. Bir kecha ikki o‘g‘ri ittifoq qilibdur. Tavilani teshib, ul otni chiqarib eltibdurlar. Tong erta ma’lum qilg‘och, muridlar va mulozimlar iztirob birla kelib, Xojag‘a arz qilibdurdar. Xoja debdurlarki, biz oz minar erdik, eltgan kishilarga bizdin darboyistroq erkandur. As’hob hokimg‘a arz qilurlar. Hokim ul tama’ig‘aki, bu vasila bila shoyad Xojadin tilasa bo‘lg‘ay. Tush-tushdog‘i yo‘llorg‘a kishilar choptirib, o‘g‘rilarni tutub, bir ulug‘ navkaridin Xoja xizmatig‘a yuborur, ikki ko‘histoniy o‘g‘ri bila. As’hob aydurlarki, hokim o‘g‘rini tutub, otni falon ulug‘ navkaridin yiboribdur, toshqoridur. Xoja derlarki, kirsun! Ul navkar kirgach, Xoja ta’zim uchum qo‘porlar va oni o‘lturdurlar. Ul ikki mulozimlarg‘a ishorat qilurkim, o‘g‘rilarni kiyururlar. Iliklari boglig‘. Alar ham kirgoch, Xoja hamul dastur bilan qo‘porlar*

va alarni o‘lturdurlar va iliklarnn eshtirurlar va so‘rarlarki, Qaydalig‘siz?- Derlarki, ko‘histonlig‘. So‘rarlarki, holo, ul yon ozim erdingiz? Derlarki, bale. Derlarki, magar yoyog‘ erdingiz? Derlarki, bale. Derlarki, qo‘nung, ul ot sizga darboyistroqdur, oling va boring! Hokim navkaridin hokimg‘a minnatdorlig‘ bila uzr qo‘lub yiborurlar” (1,9).

Guvohi bo‘lganimizdek, ushbu voqeada ham o‘g‘rilarga iltifot ko‘rsatilmoqda. Jazo qo‘llash imkoniga ega bo‘la turib, ularni kechirib, boz ustiga ular muhtoj bo‘lgani uchun ham o‘g‘irlangan otlarni ularga hadya qilib topshirsh bu oddiy insonning qo‘lidan keladigan ish emas. Bu erda Xoja Abunasr Porso o‘zining yuksak darajadagi shaxsiyati namoyon qilmoqda.

Navoiy taqdirdan rozi bo‘lish haqida to‘xtalar ekan bunga misol qilib ajoyib bir hikoyani keltiradi. Unda aytlishicha, bir ulug‘ zotning yaxshi axloqli bir o‘g‘il farzandi bo‘lib, bir necha kun xastalinib yotadi va vafot etadi. Atrofidagi yoru do‘stlari motamda g‘amgin bo‘lsa, ota taqdirdan rozi holda tushkunlikka tushmay aksincha atrofidagilarni yupatib turadi. Bundan xaloyiq lol qoladi.

Rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik bobida mana bu voqeani keltiradi: *“Manquldurki, Hajoj b. Yusuf qatlidin imomzodalardin biri qochib erdi va keynicha jami’i qavub kelur erdilar. Bu toifadin birovki, ul imomzodag‘a ixlosu xizmatkorlig‘i bor erdi, yo‘luqti. Alar iztirob yuzidin dedilarki, bir er topsang, biznn yoshurki. Bu jamoat bizning qatlimizg‘a keladurlar. Va iynak etishtilar. Ul darvesh dediki, bu vayronag‘a kiring! Anda bir buzuq erdi. Imomzoda onda jon havlidin kirdi. Kirgoch, qavib keladurg‘onlar ul darveshg‘a ettilar. So‘rdilarki, bu boradurg‘on kishi qayon bordi? Ul darvesh dediki, bu buzuqqa kirdi. Alar bir necha yig‘och va qamchi urub, dedilarki, oni uzasun deb, bizni hayalg‘a solursan, deb o‘ttilar. Alar ketgandin so‘ngra imomzoda chiqib, ko‘ngul qolish qildikim, ravo bo‘lg‘oykim, o‘zung vayronada bizni yoshurub, o‘zung dushmang‘a so‘rog‘ berursen? Ul darvesh ayttikim, ey maxdumzoda, maning rostliqim barakatidin xalos bo‘ldung. Endi o‘z fikringni qil, dedi. Va aning maxlasig‘a tadbir qildikim, ul xalos bo‘ldi”* (1,10). Bu voqeada nomi ochiq aytilmagan valiy zotning rostgo‘yligi garchi o‘ziga kaltak edirgan bo‘lsada, yordam so‘ragan mazlumning jonini saqlab qoldi. “Boshinga qilich kelsa ham rost so‘zla” iborasining amaldagi holati mana shunday bo‘ladi.

Navoiy muqaddimani uzun bo‘lib ketmasin deb, ezgu fazilatlar borasidagi misollarni qisqaroq qiladi va shunday deydi: *“Va bu nav’ hamida axloq va pisandida sifotki, bu toifadin voqe’dur, ko‘pdurki, agar sharhin qilsa, yana bir kitob yasamoq kerak”* (1,10).

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Navoiy komil insonni o‘zida zohiriy va botiniy ilmlarni, insoniy fazilatlarni mujassam eta olgan hamda hayotini ezgu

ishlar bilan o‘tkazgan shaxs sifatida tanishtiradi. Komillikka erishish yo‘lida ayniqsa, ruhiy poklik va nafs tarbiyasini eng muhim omillardan deb biladi. Asarning muqaddimasini o‘qish bilan butun boshli asarning mazmunini his qilish mukin. Umuman olganda Navoiy o‘zi komil inson edi va asarlarida ham komil inson qiyofasini namoyish eta oldi. Ulug‘ mutafakkirning fikriga ko‘ra, har bir inson dunyoda Alloh unga atab ne’mat sifatida yaratgan fazilatlar egasi bo‘lmog‘i, komillikka intilmog‘i zarur. Ana shundagina u insonlik burchini bajargan, inson degan nomni oqlagan sanaladi. Alisher Navoiy ijodi bilan qanchalik tanishib borsak, shoir asarlaridagi g‘oyalarni hozirgi hayotimizga ham tatbiq etish mumkinligini anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 17 tom. “Nasoyimul muhabbat min shamoyimil futuvvat”. – T.: “Fan”. 2001. – B. 345.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1 tom. – T.: “Fan”. 1983. – B. 655.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 3 tom. – T.: “Fan”. 1984. – B. 624.
4. Manzar Abulxayr. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. – B. 560.
5. Abdusalom Abduqodirov. Amir Alisher Navoiy. (Hayoti va ijodi). – T.: “BAYOZ”. 2022. – B. 256.
6. Abduqodirov A. Jomiy “Nafahot ul-uns”i va Navoiy “Nasoyim ul muhabbat”ining muqaddimalari. Navoiyga armug‘on. III kitob. – T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2003. 69 - 72 betlar.
7. Falsafa qomusiy lug‘at. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2004. – B. 492.

SHAXS MA’NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTIDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI (HOFIZ XORAZMIY IJODI MISOLIDA)

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
shukurjonyeldashbayevna@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3301-0776
Bagibekova Xamida Allayarovna,
Osiyo Xalqaro Universiteti “Pedagogika” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqola Hofiz Xorazmiyning poetik merosini axloqiy-falsafiy va estetik-ma’naviy yondashuvlar asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda

shoir g‘azallarida “aql” va “ishq” tushunchalarining dialektik mohiyati shaxsiy kamolotning bosh omillari sifatida chuqur yoritilgan. Tadqiqot davomida “aql” – inson tafakkuri, intellektual tanqidiylik va hayotni anglash vositasi sifatida; “ishq” esa – ma’naviy yuksalish, ruhiy uyg‘onish va ilohiy sevgi orqali mukammallikka intilish sifatida talqin etiladi. Bu ikki unsur qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi, shaxsni ichki uyg‘onish sari etaklovchi asosiy kuchlar sifatida baholanadi.

Hofiz Xorazmiyning g‘azallarida aks etgan estetik obrazlar, axloqiy fazilatlar, ruhiy iztiroblar va ichki uyg‘onish jarayoni didaktik va tarbiyaviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq ekani ilmiy asosda yoritilgan. Muallif “aql” va “ishq” yondashuvlarining tafsirini grafik jadvallar orqali tizimlashtirib, ularning o‘zaro ta’sirini shaxs tarbiyasidagi etakchi mezon sifatida izohlaydi.

Hofiz Xorazmiy ijodini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalashga doir metodik takliflar ilgari suriladi. Jumladan, shoir g‘azallaridan foydalanib o‘quvchilarda axloqiy-estetik tafakkur, mustaqil tahlil qilish qobiliyati, ichki dunyoni anglash madaniyati va ma’naviy immunitetni shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotda shaxs tarbiyasida tasavvufiy poetikaning ahamiyati, ichki yuksalishga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalari pedagogik nuqtayi nazardan asoslangan.

Maqolada shuningdek, pedagogika, falsafa, psixologiya va adabiyotshunoslik kesishmasida o‘quvchilar ma’naviy kamoloti, estetik anglash qobiliyati va axloqiy tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha konseptual yondashuvlar ilgari surilgan. Shoirning asarlari yosh avlodda ruhiy uyg‘onish, badiiy-estetik idrok, axloqiy immunitet va mustaqil tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati sifatida ko‘riladi.

Kalit so‘zlar. Badiiy adabiyot, Hofiz Xorazmiy, tarbiya, ma’naviy-axloqiy kamolot, aql, ishq.

Аннотация

Статья посвящена анализу поэтического наследия Хафиза Хорезма на основе этико-философского и эстетико-духовного подходов, в котором глубоко освещена диалектическая сущность понятий «разум» и «любовь» как основных факторов личностного совершенствования в газелях поэта. В ходе исследования «разум» определялся как человеческое мышление, интеллектуальная критичность и средство понимания жизни; «Любовь» трактуется как духовное возвышение, духовное пробуждение и стремление к совершенству посредством божественной любви. Эти два элемента не противоречат друг другу, а скорее дополняют друг друга и рассматриваются как основные силы, ведущие человека к внутреннему пробуждению.

Научно доказано, что эстетические образы, нравственные качества, душевные страдания, процесс внутреннего пробуждения, отраженные в газелях Хафиза Хорезма, неразрывно связаны с дидактическими и воспитательными ценностями. Автор систематизирует трактовку подходов «разум» и «любовь» с помощью графических таблиц, поясняя их взаимодействие как ведущий критерий в личностном образовании.

Выдвигаются методические предложения по интеграции творчества Хафиза Хорезма в современный образовательный процесс. В частности, с использованием газелей поэта разработаны механизмы развития нравственно-эстетического мышления, способности к самостоятельному анализу, культуры познания внутреннего мира, духовного иммунитета у учащихся. В исследовании рассматривается значение мистической поэтики в личностном образовании и образовательных стратегиях, направленных на внутренний рост с педагогической точки зрения.

В статье также выдвигаются концептуальные подходы к формированию духовной зрелости, эстетического восприятия и нравственного мышления учащихся на стыке педагогики, философии, психологии и литературоведения. Творчество поэта рассматривается как возможность духовного пробуждения, художественно-эстетического восприятия, нравственного иммунитета, формирования навыков самостоятельного мышления у подрастающего поколения.

Ключевые слова: Литература, Хафиз Хорезм, образование, духовно-нравственная зрелость, разум, любовь.

Annotation. This article is devoted to the analysis of the poetic heritage of Hafiz Khorezmii based on ethical-philosophical and aesthetic-spiritual approaches, in which the dialectical essence of the concepts of "reason" and "love" as the main factors of personal perfection in the poet's ghazals is deeply illuminated. During the study, "reason" is interpreted as a means of human thought, intellectual criticism and understanding of life; "love" is interpreted as spiritual elevation, spiritual awakening and the pursuit of perfection through divine love. These two elements are not contradictory, but rather complementary, and are considered as the main forces leading the individual to inner awakening.

It is scientifically demonstrated that the aesthetic images, moral qualities, spiritual suffering and the process of inner awakening reflected in Hafiz Khorezmii's ghazals are inextricably linked with didactic and educational values. The author systematizes the interpretation of the approaches of "mind" and "love" through graphic tables and explains their interaction as a leading criterion in the upbringing of the individual.

Methodological proposals are put forward for the integration of Hafiz Khorezm's work into the modern educational process. In particular, mechanisms for the formation of moral and aesthetic thinking, the ability to analyze independently, the culture of understanding the inner world, and spiritual immunity in students using the poet's ghazals are developed. The study examines the importance of mystical poetics in the upbringing of the individual, educational strategies aimed at internal growth from a pedagogical point of view.

The article also puts forward conceptual approaches to the development of students' spiritual maturity, aesthetic perception, and moral thinking at the intersection of pedagogy, philosophy, psychology, and literary studies. The poet's works are seen as an opportunity for spiritual awakening, artistic and aesthetic perception, moral immunity, and the formation of independent thinking skills in the younger generation.

Keywords. Fiction, Hafiz Khorezm, education, spiritual and moral maturity, mind, love.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda insonning ma’naviy-axloqiy kamolotiga erishishi dolzarb ijtimoiy-madaniy masalaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, shaxsni komil inson sifatida tarbiyalash, unda umuminsoniy qadriyatlar asosida barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, badiiy adabiyot nafaqat estetik didni shakllantirish vositasi, balki inson ruhiyati va tafakkuriga chuqur ta’sir etuvchi ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Badiiy asarlar orqali shaxs tafakkurining kengayishi, axloqiy mezonlarining mustahkamlanishi, ichki dunyosining boyishi ta’minlanadi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va ularni barqaror rivojlantirish jarayonida badiiy adabiyotning tarbiyaviy salohiyatini o‘rganish nafaqat pedagogik, balki falsafiy, psixologik va madaniy nuqtayi nazardan ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zero, badiiy adabiyotda mujassam bo‘lgan g‘oyaviy-falsafiy mazmun, obrazlar orqali berilgan ijtimoiy-ma’naviy xulosa va axloqiy mezonlar shaxsning ichki olamiga ta’sir etib, uning hayotga, jamiyatga, o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantiradi. Xususan, klassik adabiyot vakillarining asarlarida ifodalangan insoniylik, ezgulik, adolat, fidoyilik, halollik va vatanparvarlik g‘oyalari shaxsni har tomonlama etuk va ijtimoiy mas’uliyatli inson sifatida kamolga etkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Hofiz Xorazmiy ijodining tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish ayni dolzarb masalalardan biridir. Uning asarlarida mujassam bo‘lgan didaktik mazmun, axloqiy-ruhiy saboqlar, aql va muhabbat,

adolat va sabr, saboqlilik va kamtarlik kabi fazilatlar haqida ilgari surilgan fikrlar shaxsning ma’naviy kamolotini ta’minlashga qaratilgan kuchli manba sifatida qadrlanadi. Hofiz Xorazmiy obrazlari orqali ifodalangan ideal inson qiyofasi, uning ruhiy kechinmalari, hayotiy pozitsiyasi va axloqiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarb tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Bugungi ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ichki dunyosini boyitish va ijtimoiy faol pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi milliy-ma’naviy manbalarni izchil o‘rganish va amaliyotga joriy etish zarurati kuchayib bormoqda. Ayniqsa, mumtoz adabiy merosga asoslangan didaktik yondashuvlar orqali yoshlarning axloqiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, ularning ijtimoiy ongini yuksaltirish va ruhiy kamolotini ta’minlash muhim metodik vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosi hozirgi davrda shaxs tarbiyasida yangicha pedagogik yondashuvlar ishlab chiqishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Hofiz Xorazmiy ijodiga bo‘lgan ilmiy e’tibor yildan-yilga ortib borayotgani bejiz emas. Uning asarlari nafaqat tarixiy-adabiy meros sifatida, balki zamonaviy davrning tarbiyaviy, ma’naviy va estetik ehtiyojlariga javob bera oladigan bebaho boylik sifatida ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shoirning asarlari orqali ifodalangan insoniy fazilatlar, axloqiy-ruhiy izlanishlar va falsafiy qarashlar bugungi kunda shaxs tarbiyasida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Hofiz Xorazmiy lirikasi — didaktik mazmuni, axloqiy qarashlar tizimi va ijtimoiy ong bilan uyg‘unligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarida bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Hofiz Xorazmiy ijodini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda shoirning asarlaridagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, estetik mezonlar, shaxsiy kamolotga yo‘naltirilgan fikrlar, axloqiy ideallar va ma’rifiy maqsadlar tahlil etildi. Xususan, M.Sulaymonov[1], J.Jo‘rayev[2], M.Inog‘omxo‘jayeva[3], Yu.Jumanazarov[4], S.Hasanov[5], I.Haqqulov[6] kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda Hofiz Xorazmiy ijodining badiiy-estetik tabiati, poetik uslubi, axloqiy-falsafiy yondashuvlari tahlil etilib, bu merosning bugungi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya jarayonidagi tutgan o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Mazkur izlanishlar ichida, xususan, professor M. Sulaymonovning izchil ilmiy faoliyati alohida e’tiborga loyiqdir. Uning rahbarligida tayyorlangan filologiya fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasida [7] Hofiz Xorazmiyning devonidagi janrlar xilma-xilligi, badiiy ifoda vositalari, poetik tafakkuri va o‘zbek hamda turkiy adabiyotdagi o‘rni chuqur tahlil qilinib, shoir ijodining shaxs kamoloti va ma’naviy tarbiyasi bilan bog‘liq qirralariga ham ilmiy asosda

yondashilgan. Olim o‘z maqolalarida “Hofiz Xorazmiy ijodining didaktik yo‘nalishlari”ni [8,144] tahlil etib, shoir lirikasidagi tarbiyaviy g‘oya va axloqiy mezonlarning poetik ifodasini chuqur yoritadi [9,20]. Jumladan, Hofiz Xorazmiy g‘azallarida axloq, odob, sabr, vafodorlik kabi fazilatlar inson kamolotining muhim omillari sifatida talqin qilinadi [10,80]. Shuningdek, Hofiz Xorazmiyning poetik merosini tahlil etishda M. Sulaymonov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda shoir asarlaridagi epik obrazlar tizimi chuqur talqin etilib, ularning estetik va ma’naviy-ma’rifiy yuki aniqlangan hamda tarbiyaviy funksiyalari ochib berilgan [11, 23]. Mazkur ilmiy izlanishlar Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosini shaxsning axloqiy-estetik kamolotini shakllantirishdagi nazariy-metodik manba sifatidagi ahamiyatini asoslab beradi.

Shaxs ma’naviy-axloqiy kamolotining shakllanishi, tafakkur darajasi va estetik didining rivojlanishi bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, badiiy adabiyot bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu jarayon, avvalo, shaxsning jamiyatdagi faolligini, ijtimoiy ongini va madaniy-estetik qarashlarini belgilovchi axloqiy-ma’naviy kompetensiyalar bilan uzviy aloqador holda kechadi. Xususan, estetik-ma’naviy yo‘nalishdagi ta’lim tarkibiy qismlari – badiiy adabiyot, falsafa, madaniyatshunoslik, san’atshunoslik, musiqa va boshqa shu kabi fanlar orqali shaxsning ichki dunyosini boyitish, uning dunyoqarashini estetik va gumanistik mezonlar asosida shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishi orqali shaxsda nafaqat bilim va ko‘nikmalar shakllanadi, balki ularning intellektual salohiyati, hissiy-estetik sezgirligi, madaniy muloqotga tayyorligi va axloqiy pozitsiyasi ham taraqqiy etadi. Bu ayniqsa o‘smirlik davrida — shaxsning estetik idroki, badiiy tafakkuri va ichki dunyosining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim oluvchilarning uchun ta’limning har bir bosqichi ularning estetik qobiliyatlari va ma’naviy qiyofasi rivojida keskin burilish nuqtasi sanaladi. Shu jihatdan qaralganda, badiiy adabiyotni o‘qitishda adabiy matnlarni shunchaki xronologik ketma-ketlikda emas, balki yosh psixologiyasiga mos tematik tizimda tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’limda bunday tematik yondashuv shaxsda murakkab badiiy matnlarni anglash, badiiy obrazlar va ularda mujassam bo‘lgan axloqiy-estetik g‘oyalarni talqin qilish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari bilan ishlashda matnni nasriy bayon orqali tushuntirish usuli metodik nuqtayi nazardan ma’qullanishi mumkin bo‘lgan yondashuv sifatida qaralmoqda. Bu esa o‘quvchi shaxsning tushunish darajasini engillashtiradi, asarning g‘oyaviy-estetik mohiyatini anglashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, bu yondashuvni amaliyotda qo‘llashda metodik ehtiyotkorlik talab etiladi. Asosiy e’tibor, avvalo,

badiiy matnning o‘ziga, uning tahlili va talqini orqali shaxsda estetik-emotsional kechinmalarni uyg‘otishga qaratilishi lozim. Aks holda, mazmuniy bayon asosiy matndan ustun qo‘yilsa, badiiy asarning o‘ziga xos estetik ta’siri yo‘qoladi, natijada shaxsda ma’naviy-axloqiy tarbiya kuchsizlashadi.

Tadqiqotchi V.A.Qodirov bu borada olib borgan kuzatuv va tahlillarida shunday xulosaga keladi: “... o‘qituvchilarning aksariyati asosiy matnni tashlab, hatto o‘quvchilar e’tiborini sal bo‘lsa ham unga qaratmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mazmuniy bayonni o‘qitib qo‘yaqolmoqdalar”. [12,18] Bu holat esa, nazariy jihatdan ma’qul yondashuv amalda o‘z ta’sirchanlik kuchini yo‘qotishiga olib kelmoqda. Shu sababli, asosiy matnni o‘rganish, uni chuqur tahlil qilish va estetik tahliliy faoliyat orqali shaxsda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish jarayoni didaktik jihatdan bosh mezon sifatida qaralishi lozim. Bunda muhim muammo sifatida, o‘quv jarayonida adabiy matnning mohiyatan estetik-idrok va tarbiyaviy funksiyasini to‘liq ochib bera olmaslik holati ko‘zga tashlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy asarning ichki qatlamlarini anglash, undagi ma’naviy-estetik g‘oyalarni tahlil qilish hamda shaxsning axloqiy ongini shakllantirishga xizmat qiladigan jarayonlarning etarli darajada tashkil etilmasligiga olib keladi. Ayniqsa, adabiy-badiiy matnni faqatgina informativ yoki soddalashtirilgan mazmunli yondashuv asosida o‘rganish, talaba-yoshlarning estetik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo‘yadi.

Hofiz Xorazmiy “tarbiya” tushunchasini ikki asosiy g‘oyaviy mezon — aql va ishq o‘rtasidagi murakkab, lekin zaruriy uyg‘unlik kontekstida yoritadi. Shoirning g‘azallarida bu ikki tushuncha bir-biriga zid emas, balki o‘zaro mantiqan va ruhan to‘ldiruvchi, shaxsiy kamolotga etaklovchi dialektik asoslar sifatida talqin etiladi. Unga ko‘ra, inson kamoloti har ikki unsurning uyg‘un rivoji orqali yuzaga chiqadi: aql – hayotni tanqidiy idrok etish, anglash, muvozanatli qarorlar qabul qilish salohiyatini anglatsa, ishq – qalbning ilohiy holati, insoniy ilhom, sezgi va ma’naviy uyg‘onishning muhim manbai sifatida qaraladi.

Mazkur yondashuvda tarbiya tushunchasi insonning ichki ruhiy shakllanishi, axloqiy o‘sishi va estetik etilish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, tarbiya faqat tashqi xatti-harakat me’yorlari yoki ijtimoiy muvofiqlikni shakllantirish emas, balki inson ruhiyatining chuqur qatlamlarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar – ruhiy poklanish, ichki uyg‘onish, va yuksak axloqiy ideallarga yo‘naltirilgan izlanishlar majmuasidir. Hofiz Xorazmiy ijodidagi bu g‘oyaviy konsepsiya shaxsning ma’naviy taraqqiyotiga kompleks yondashuvni ifodalaydi. Shoir g‘azallarida ideal shaxs – bu sevgi va aql orqali hayotiy to‘siqlardan o‘tib, ichki uyg‘onish sari intiluvchi, o‘z ustida fikran va ruhan ishlovchi komil zot sifatida gavdalantiriladi. Bu obraz nafaqat individual mukammallik namunasi, balki

axloqiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlarning ifodasidir. Ayniqsa, Hofiz Xorazmiy g‘azallarida sevgi vositasida inson o‘z nafsini engib, poklik, fidoyilik, sabr, va iymon kabi fazilatlarni egallashi orqali ma’naviy mukammallikka erishadi.

Hofiz Xorazmiy g‘azallarida inson kamoloti masalasi aql va ishq o‘rtasidagi murakkab, ko‘p qatlamli ichki ziddiyatlar fonida ochib boriladi. Shoirning:

Aql birla ishqni bilmak erur amr-i mahol,

Tifl-i abjadxon erur bu yo‘lda aql-i pirimiz, [13,238]

misralari ushbu falsafiy nuqtayi nazarning poetik ifodasidir. Bu baytda shoir inson aqliy salohiyatining chegarasini, ishq sirlarini anglashdagi ojizligini o‘ta nozik badiiy uslubda, ramziy-estetik vositalar orqali bayon etadi.

Birinchi misrada "*aql birla ishqni bilmak erur amr-i mahol*" deya ishq va aql o‘rtasidagi tafovutni keskin chizib beradi. Bu erda "*amr-i mahol*" iborasi orqali ishqning mohiyatini sof aqliy yondashuvlar orqali anglashning imkonsizligi ta’kidlanmoqda. Ya’ni, ishq — inson ongining oddiy tushunchasi chegaralari bilan qamrab olinmaydigan, ilohiy va intuitiv idrok etiladigan holatdir. Aql esa bu borada ojiz, cheklangan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi misrada: "*Tifl-i abjadxon erur bu yo‘lda aql-i pirimiz*" deyiladi. Bu erda aql – hayot tajribasi to‘plagan, “*pir*” darajasiga etgan deb tasvirlansa-da, ishq yo‘lida u go‘yoki hali ham “*abjadxon*” – ya’ni harf tanish bosqichidagi yosh o‘quvchi, ya’ni hali ishq ilmining asl mazmunini anglay olmaydigan, boshlang‘ich darajadagi anglovchidir. Bu o‘rinda abjadxonni yosh o‘quvchi emas, balki ishq sirlariga mutlaqo yot bo‘lgan, faqat shakliy bilimga ega bo‘lgan inson ramzi sifatida talqin qilish mumkin. Demak, aql ishq yo‘lida hali yo‘l boshida turgan tifl (bola)dir, holbuki u dunyo tajribasida “*pir*” bo‘lishi mumkin.

Hofiz Xorazmiy bu misralar orqali shaxs kamolotining faqat intellektual poydevor emas, balki ruhiy tajriba, muhabbat, fidoyilik va ilohiy tuyg‘ular bilan boyitilgan estetik-ma’naviy taraqqiyot orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Shoir tafakkurida aql — zarur, biroq etarli emas; ishq esa komil shaxsga aylanish yo‘lida insonni ruhan tozalovchi, uni o‘zini anglash va o‘zini inkor etish zaminida yuksaltiruvchi kuchdir.

Bu talqin doirasida, Hofiz Xorazmiyning ijodiy qarashlari inson psixologiyasi, axloqiy-falsafiy shakllanishi va estetik tafakkurining murakkab uyg‘unligiga asoslanadi.

Ishq bozorinda gar san tolib-i dnydor esang,

Nekim andin o‘zga bordur boridin bezor bo‘l. [14,16]

Mazkur misralar tafsirida shuni ko‘rish mumkinki, shoir "ishq bozori"ni ramziy tarzda inson ruhiyatining eng nozik, lekin eng qudratli darajasi sifatida talqin qiladi. Bu erda “to‘lib-i dunyodor” iborasi faqat moddiy manfaat yoki

dunyoviy qulaylik izlovchi shaxsni bildiradi. Shoirning nazarida esa, bunday dunyoviylikka berilgan kishi ishq sadosi yangraydigan bu muqaddas makonda begona bo‘ladi; unga bo‘lgan ehtiyoj va qadriyat hissi yo‘qoladi. Baytdagi “andin o‘zga bordur boridin bezor bo‘l” jumlasi orqali shoir dunyoviy manfaatlardan voz kechishni, ishqqa, ya’ni ma’naviy yuksalish sari yo‘nalishni targ‘ib etadi.

Bu ifoda orqali Hofiz Xorazmiy shaxs tarbiyasida ichki tozalik, ma’naviy fidoyilik va axloqiy etuklikni ustuvor mezon sifatida ko‘rsatadi. Aql va ishq o‘rtasidagi yondashuv bu erda yanada chuqurroq tasvirlanadi: insonning aqli dunyoviy haqiqatlarni tahlil qilishi orqali uni tanitadi, ammo ishq – ruhiy yuksalish va ma’naviy uyg‘onish darajasiga olib chiqadi. Demak, bu yondashuvlarda mutanosiblik ham mavjud va uni biz quyidagi jadval shaklida keltirdik (1-jadval).

Mezoni	Aql	Ishq
Tushunchalar	Bilish, tahlil, idrok, mantiqiy fikrlash	Ruhiy kechinma, fidoyilik, ilhom, ma’naviy uyg‘onish
Manba	Tajriba, idrok, mantiq	Dil, qalb, estetik sezgi
Tarbiyaviy vazifasi	Shaxsga tanqidiy fikrlash, oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmasini beradi	Shaxsda ma’naviy sezuvchanlik, ichki uyg‘onish va axloqiy fidoyilikni shakllantiradi
Shaxs kamolotiga ta’siri	Tartib, o‘zini tuta bilish, hushyorlik	Muhabbat, fidokorlik, ruhiy poklik
Cheklovlari	Faqat zohiriy haqiqat bilan chegaralanadi, estetik sezgi sust	Haddan tashqari hissiylik xavfi mavjud, lekin aql bilan uyg‘unlashsa yuksaluvchan bo‘ladi

1-jadval. Hofiz Xorazmiy ijodidagi aql va ishq munosabatining shaxs modeliga ta’siri.

Sharq mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Hofiz Xorazmiy ijodi shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, estetik dunyoqarashi va ichki ruhiy uyg‘onishi uchun mustahkam manba hisoblanadi. Shoir g‘azallarida ilgari surilgan aql va ishq o‘rtasidagi ichki dialektika – inson tarbiyasida zohiriy va botiniy jihatlarning uyg‘unligiga asoslangan yondashuv sifatida talqin etilishi bilan ahamiyatlidir. Bu yondashuv asosida insonning shaxs sifatida kamol topishi nafaqat bilim va tajriba orqali, balki qalbning tozaligi, ruhiy fidoyilik va muhabbat orqali yuzaga chiqadi.

Hofiz Xorazmiyning “aql” va “ishq” tushunchalari orqali taqdim etilgan axloqiy-falsafiy konsepsiyasi shaxsning ichki yuksalish mexanizmini ifodalab, uni hayotiy qarorlar, qadriyatlar va insoniylik mezonlari bilan bog‘laydi. Aynan shuning uchun ham shoir asarlari faqat badiiy-estetik namuna bo‘lib qolmasdan, balki shaxs tarbiyasida ma’naviy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi.

Maqolada keltirilgan ilmiy tahlillar asosida Hofiz Xorazmiy g‘azallaridagi tarbiyaviy g‘oyalar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida universal didaktik vosita sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunda, ayniqsa, shaxsning ichki dunyosini estetik-falsafiy kontekstda boyitishga xizmat qiluvchi adabiy matnlarning tanlovi va ularni tahlil qilish uslubiyatiga e’tibor berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.shu nuqtayi nazardan biz quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– Adabiy ta’limda Hofiz Xorazmiy ijodiga asoslangan tarbiyaviy modelni ishlab chiqish;

– Umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimida Hofiz Xorazmiy ijodiy merosini tematik asosda o‘qitish;

– Shaxsning ma’naviy shakllanishida aql va ishq yondashuvlarining ilmiy-tarbiyaviy konsepsiyasini yaratish;

– Hofiz Xorazmiy ijodi asosida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi ko‘rgazmali resurslar yaratish.

Mazkur yondashuvlar bizga birinchidan, shaxsning aqliy va ruhiy yuksalishini uyg‘un holda rivojlantiruvchi, Hofiz Xorazmiy g‘azallaridagi axloqiy-falsafiy yondashuvlarga asoslangan metodik model ishlab chiqilishi zarur. Bu model zamonaviy o‘quv dasturlariga integratsiyalashgan holda, o‘quvchilarda mustahkam axloqiy qarashlar, estetik sezuvchanlik va ma’naviy ong uyg‘otishda samarali bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, Hofiz Xorazmiy g‘azallari zamonaviy psixologik-pedagogik mezonlarga muvofiq tarzda, mavzular bo‘yicha guruhlanib, shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rgatilishi kerak. Ayniqsa, aql–ishq dialektikasiga asoslangan darslar shaxsda murakkab hayotiy tanlovlarni tahlil qilish, ma’naviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Uchinchidan, bu ikki yondashuvning bir-birini inkor etmasdan, balki to‘ldiruvchi va uyg‘unlashtiruvchi sifatlari asosida shaxs kamolotiga ta’sirini chuqur o‘rganuvchi nazariy asoslar ishlab chiqilishi, bu esa kelajakda ma’naviyat va tarbiya sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim yo‘nalishga aylanishi mumkin.

To‘rtinchidan, o‘quvchilarda axloqiy dunyoqarashni mustahkamlash maqsadida shoir ijodidan olingan badiiy namunalar asosida multimediya vositalari,

badiiy lavhalar, video-ma’ruzalar va audio g‘azal tahlillari kabi vizual-didaktik materiallar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References).

1. Suleymonov M.Y. The role of Hafiz Khorezmi in Turkish poetry // ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (73), 2019. – 527-530 p.

2. Жўраев Ж. Ўзбек адабиётидаги илк марсия.// Ж.: Шарқ юлдузи. - Т., 2015. 6-сон., 10-21 б.

3. Иноғомхўжаева М. Хофиз Хоразмий лирикасида ташбех // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1982. 2-сон., - 82-85 б.

4. Жуманазаров Ю. Хофиз Хоразмий ва ўзбек адабий тили // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1983. 1-сон., - 42-46 б.

5. Ҳасанов С. Хоразм мутафаккирларининг маърифий-педогогик қарашлари (Энг қадимги даврдан XX аср бошларигача): дис. ...пед. фанлари д-ри: 13.00.01/ Ҳасанов С. – Т., – 2000. – 310 б.

6. Ҳаққулов И. Ғазал гулшани. - Т.: Фан, 1991. – 38 б.

7. Сулаймонов М.Ю. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеъриятининг ривожи: Филол. фанлари номзоди … дисс. - Тошкент, 1996. - 160 б.

8. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий лирикасида дидактик қарашлар. // Тил ва адабиёт масалалари 3-китоб. Филология фанлари доктори, профессор Бегматов Эрнст Азимович таваллудининг 80 йиллигига бағишланган республика олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларининг илмий мақолалари тўплами. – Наманган.: 2016. 144-148-б.

9. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмийнинг дидактик қарашлари // Халқ таълими, жур. – Тошкент.: 1992. № 10-12. -20-22 б.

10. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ахлоқ-одоб ҳақида. // НамДУнинг 50 йиллигига бағишланган илмий тўплам. – Наманган, 1992, -80-83 б.

11. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий шеъриятида эпик тимсоллар талқини // Шарқшунослик. 2016. № 1. - 23-30 б.

12. Кадиров В.А. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) … дисс. – Наманган., 2019., – 297 б.

13. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. -Т.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.

14. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. -Т.: ЎзКПМК, 1981. - 3

TOHIR MALIK ASARLARIDAGI FANTASTIK MAVZULAR TALQINI

Hamdamova Shamshoda Saidaxmad qizi,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti.
shamshoda1996@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada fantastik adabiyotdagi mavzularning Tohir Malik asarlaridagi badiiiy ifodasi haqida fikr yuritiladi. Adabiyotshunos olima R. Ibrohimova ilgari surgan o‘n sakkizta fantastik mavzularning adib ijodidagi talqini tahlilga tortiladi. Uzoq umr ko‘rish, regeniratsiya, anabioz, Kelajakka sayohat qilish vositasi sifatida robotlar, androidlar, kiborglar, sun’iy zakovat, o‘zga sayyoraliklar, fazoviy sayohatlar, samoviy urushlar, miyani almashtirish, o‘zga sayyoralik mavjudodlar bilan erda, fazoda muloqotga kirishish, mutantlar, monstrlar, tarixiy-ilmiy fantastika, telepatiya, masofadagi voqelik singari fantastik mavzular yozuvchining “Xning xatarli kashfiyoti”, “Gulliverning xatosi”, “Alvido Otello”, “Sadoqat”, “Qora farishta”, “Xizr suvi” hikoyalari hamda “Falak”, “Ov”, “Davron”, “Devona”, “Zaharli g‘ubor” (Baxtiyor Hoshimxo‘jayev bilan hammualliflikdagi) qissalari misolida yoritib beriladi. “Alvido, Otello” hikoyasida Shekspirning “Otello” tragediyasini sahnada XX asr aktyorlarining kiber egizaklari, ya’ni insonsimon androidlar ijro qiladi. Ushbu hikoyada Hidoyatovdagi san’atkorona mahorat kiber egizakda yo‘qligi voqeasi orqali odam yaratish insonning emas Allohning ishi ekanligi g‘oyasi kelajak mavzusi vositasida ilgari surilgan.

“Gulliverning xatosi” hikoyasida sun’iy bo‘lsa-da idrok, fahm-farosat va hattoki his-tuyg‘u berilgan biorobotlar yangi urushlarga sababchi bo‘lmaslik uchun, farzandlari ham urush balosini tortmasliklari uchun avlod qoldirishdan ongli ravishda voz kechadilar, ya’ni, robotlar, androidlar kelajakda insonlar darajasida fikrlay olishlari mumkinligi fantastik tarzda bashorat etiladi. Maqolada Tohir Malik ijodi orqali sun’iy intellekt va biorobotexnikaning bugungi kundagi rivoji bundan ellik yil avvalgi badiiy fantaziya bilan qiyoslab ilm-fandagi kashfiyotlar rivoji uchun fantastikaning qay darajada ahamiyatli ekanligi masalasi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *Biorobotexnika, Kiber egizaklar, kiborglar, sun’iy zakovat;, fazoviy sayohatlar, miyani almashtirish, tarixiy-ilmiy fantastika, telepatiya, masofadagi voqelik.*

Obstract

This article examines the artistic expression of fantasy themes in the works of Tohir Malik. It analyzes the interpretation of eighteen fantasy themes, proposed by literary critic R. Ibrohimova, in the writer's works. Themes such as

long life, regeneration, anabiosis, robots, androids, cyborgs, artificial intelligence, extraterrestrials, space travel, celestial wars, brain replacement, communication with extraterrestrial beings on Earth and in space, mutants, monsters, historical-scientific fiction, telepathy, and remote reality are illuminated through the examples of Tohir Malik's stories "X's Dangerous Discovery," "Gulliver's Mistake," "Goodbye Othello," "Loyalty," "Black Angel," "The Water of Xizr," and the novellas "Falak," "Hunt," "Davron," "Devona," and "Poisonous Dust" (co-authored with Bakhtiyor Hashimkhojayev). In the story "Goodbye, Othello," Shakespeare's tragedy "Othello" is performed on stage by cyber twins, human-like androids, of 20th-century actors. This story, through the event of the lack of artistic skill in the cyber twin, puts forward the idea that creating humans is not the work of man but of God, using the theme of the future.

In the story "Gulliver's Mistake," biorobots, although artificial, are endowed with perception, understanding, and even feelings, consciously refuse to procreate to prevent their children from suffering the scourge of war, just as they themselves did. This means that robots and androids may be able to think at the level of humans in the future, which is fantasticaly predicted. The article examines the connection between artificial intelligence and biorobotics in Tohir Malik's works, comparing it to the artistic fantasy of fifty ears ago, and explores the importance of fantasy for the development of scientific discoveries.

Keywords: Biorobotics, Cyber twins, Cyborgs, Artificial intelligence, Space travel, Brain replacement, Historical-scientific fiction, Telepathy, Remote reality.

Аннотация

В данной статье рассматривается художественное воплощение фантастических тем в произведениях Тохира Малика. Анализируется интерпретация восемнадцати фантастических тем, предложенных литературным критиком Р. Ибрагимовой, в творчестве писателя. Такие темы, как долголетие, регенерация, анабиоз, роботы, андроиды, киборги, искусственный интеллект, внеземные цивилизации, космические путешествия, небесные войны, замена мозга, общение с внеземными существами на Земле и в космосе, мутанты, монстры, историко-научная фантастика, телепатия и удаленная реальность, освещаются на примере рассказов Тохира Малика «Опасное открытие Х», «Ошибка Гулливера», «Прощай, Отелло», «Верность», «Черный ангел», «Вода Хизра» и повестей «Фалак», «Охота», «Даврон», «Девона» и «Ядовитый туман» (в соавторстве с Бахтиером Хашимхожаевым). В рассказе «Прощай, Отелло»

трагедия Шекспира «Отелло» ставится на сцене кибер-близнецами, человекоподобными андроидами, актеров XX века. Эта история, через отсутствие художественного мастерства у кибер-близнеца, выдвигает идею о том, что создание человека - это не дело человека, а дело Бога, используя тему будущего.

В рассказе «Ошибка Гулливера» биороботы, хотя и искусственные, наделены восприятием, пониманием и даже чувствами, сознательно отказываются от продолжения рода, чтобы их дети не страдали от бедствий войны, как они сами. Это означает, что роботы и андроиды могут быть способны мыслить на уровне человека в будущем, что фантастически предсказывается. В статье рассматривается связь между искусственным интеллектом и биороботикой в произведениях Тохира Малика, сравнивая ее с художественной фантазией пятидесятилетней давности, и исследуется значение фантастики для развития научных открытий.

Ключевые слова: Биороботика, Кибер-близнецы, Киборги, Искусственный интеллект, Космические путешествия, Замена мозга, Историко-научная фантастика, Телепатия, Удаленная реальность.

Tohir Malikning fantastik yo‘nalishdagi asarlari mavzu ko‘lami jihatdan xilma-xil. Ra’no Ibrohimova: “Fantastik adabiyotni ko‘zdan kechirar ekanmiz, undagi mavzular fazo, o‘zga sayyoraliklar va robotlardan nariga o‘tmayotgandek tuyuladi. Aslida ular o‘n sakkizta mavzuni tashkil etadi”, - deya izohlab quyidagilarni sanab o‘tadi:

Uzoq umr ko‘rish, abadiy yashashlik, regeniratsiya; anabioz va letargiya,

Kelajakka sayohat qilish vositasi sifatida; kelajakda paydo bo‘lmoq; robotlar, androidlar, kiborglar, sun’iy zakovat; qiyofadoshlar, o‘zga sayyoraliklar, sintezatorlar, istakni bajo keltiruvchilar; fazoviy sayohatlar; samoviy urushlar; miyani almashtirish; o‘zga sayyoralik mavjudodlar bilan erda, fazoda muloqotga kirishish; mutantlar, monstrlar; tarixiy-ilmiy fantastika; qanotli odamlar; telepatiya; yondosh olam; masofadagi voqelik. [1, 141.]

Yuqorida sanab o‘tilgan mavzular bo‘yicha Tohir Malikning bir qancha fantastik asarlariga murojaat qilamiz. Uzoq umr ko‘rish yoki abadiy yashash. Bu motiv an’anaviy fantastik unsurlardan biri bo‘lib, asarning mohiyatiga ko‘ra turlicha variantlarda uchraydi. Tohir Malikning Baxtiyor Hoshimxo‘jayev bilan hammualliflikdagi “Zaharli g‘ubor” qissasidagi Charlz Long va Ismoil Umidovlarning tajriba va ixtirolarida bu zamonaviy ilm-fan yutuqlari orqali amalga oshiriladi. Charlz longning boqiy umr va qudratli miya sohibi bo‘lishiga o‘zi ixtiro qilgan va miyasiga ulagan Analizator deb ataluvchi qurilma sabab

2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi ishonchli xatti-harakatning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini **tushunib, izohlaydi**, hayotdan va adabiy asarlardan misollar keltiradi.
3	**Qo‘llash** (Application)	O‘quvchi matn tahlilidan so‘ng **o‘z fikrini ishonch bilan bayon etadi**, sinf oldidagi chiqishida ovoz, mimika va nutqiy texnikadan foydalanadi.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi badiiy yoki hayotiy vaziyatda qahramonning xatti-harakatini **o‘ziga ishonch nuqtai nazaridan tahlil qiladi**, sabab-oqibat bog‘lanishini ko‘rsatadi.
5	**Sintez** (Synthesis)	O‘quvchi “Men ishonganim uchun muvaffaqiyatga erishdim” mavzusida **esse, maqola yoki nutq uchun matn** yaratadi.
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z chiqishi yoki ishtiroki ustida **o‘ylaydi**, ishonchli tomonlarini va rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlarni **tan olib, o‘zini o‘zi baholaydi**.

X SINF

№	Bosqich	Nomi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “nutqda qat’iyat”, “shaxsiy pozitsiya” tushunchalarini **izohlaydi va aniq misollar keltiradi**.
2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi ishonchli xatti-harakatning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini **tushuntirib beradi**, hayot va adabiyotdan misol keltiradi.
3	**Qo‘llash** (Application)	O‘quvchi darslikdagi mavzular bo‘yicha **shaxsiy fikrni ishonch bilan bayon etadi**, sinf oldida erkin chiqish qiladi.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi matndagi qahramonlar faoliyatini **ishonchli yoki ishonchsiz xatti-harakatlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi**.
5	**Sintez** (Synthesis)	“Men o‘zimga ishongan paytda…” mavzusida **insho, maqola, so‘z chiqishi yoki ijodiy nutq** yaratadi.

№	Bosqich	Nomi
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z chiqishi yoki ishtirokini **tahlil qiladi**, kuchli va rivojlantirish lozim bo‘lgan tomonlarini **baholaydi va xulosa chiqaradi**.

XI SINF

№	Bosqich	Ona tili darslarida o‘quvchilarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi
1	**Bilish** (Knowledge)	O‘quvchi “o‘ziga ishonch”, “shaxsiy nutq”, “ishonchli chiqish” tushunchalari ma’nosini yaxshi **biladi va izohlaydi**.
2	**Tushunish** (Comprehension)	O‘quvchi ishonchli xatti-harakatning shaxsiy va jamiyatdagi ahamiyatini **tushunadi, izohlaydi**, hayotdan va adabiyotdaan misollar keltiradi.
3	**Qo‘llash** (Application)	O‘quvchi nutqiy mashqlarda **o‘z fikrlarini ishonch bilan bayon etadi**, o‘z pozitsiyasini **ommaviy chiqishda himoya qiladi**.
4	**Tahlil** (Analysis)	O‘quvchi matndagi qahramonlarning ishonchli va ishonchsiz xatti-harakatini **tahlil qiladi**, ularning ichki holatini tushuntirib beradi.
5	**Sintez** (Synthesis)	“Men o‘zimga ishonganim uchun…” yoki “Muvaffaqiyat — ishonchdan boshlanadi” mavzusida **insho, nutq matni yoki maqola** yozadi.
6	**Baholash** (Evaluation)	O‘quvchi o‘z shaxsiy chiqishi yoki ijodiy ishini **refleksiya qiladi**, ishonch darajasini o‘zi baholab, uni rivojlantirish uchun **takliflar ishlab chiqadi**.

Yuqoridagi tahlillar asosida 5–11-sinf o‘quvchilari uchun Ona tili darslarida “O‘ziga ishonch” kompetensiyasini baholash metodikasi 3 ta mezon asosida tizimli, aniq va amaliy shaklda ishlab chiqildi. Metodikaning maqsadi o‘quvchining o‘ziga ishonchi, faolligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish va baholash etib belgilandi.

1-Mezon: O‘ziga ishonch. Indikatorlar: o‘quvchining mustaqil topshiriqni bajarishga tayyorligi, yangicha g‘oyalar bildirishga urinishi va savol berish va fikr bildirishda faolligi, ishonch va tashabbuskorligi). Baholash shakli: o‘qituvchi

tomonidan kuzatish. Faoliyatli yondoshuv asosida 5 ballik shkalada baholanadi. Ya’ni: 5 – tashabbuskor, mustaqil, ishonchli; 3 – kamroq tashabbus, ikkilanish bor; 1 – sust, faol ishtirok etmaydi.

2-Mezon: O‘zini baholash. Indikatorlar: o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilib, xulosa chiqara olishi, xatolarini tan olishi va sababini anglashi; o‘z ishini baholashga harakat qilishi; fikr va natijalarni solishtirishi). Refleksiya varaqlari, baholash kartochkalari.Baholash: “Muvofiq”, “Qisman muvofiq”, “Muvofiq emas” shaklida.

3-Mezon: O‘zini namoyon qilish. Indikatorlar: o‘quvchining o‘ziga xosligi, dunyoqarashi va hayotga munosabatini ifoda etishi; Shaxsiy qarashni asoslab berishi; turli mavzu, masalalarga munosabat bildirishi; o‘zini ijodiy namoyon etish (rasm, she’r, ssenariylashtirish, dramalashtirish). Baholash shakli: ijodiy ishlarni taqdim qilish va baholash; tanqidiy savollar orqali interpretatsiya(“Bu fikr sizning shaxsiy tajribangizga qay darajada bog‘liq?” “Siz bu fikringiz orqali nimani ifoda etmoqchisiz?” qabilida).

Namuna. 7 sinf o‘quvchisi I.Oripovning “O‘ziga ishonch” kompetensiyasining baholanishi.

Mezon	**Ball (1–5)**	**Izoh**
1. O‘ziga ishonch	4	Mustaqil fikrlari bor, lekin ba’zi ikkilanishlar sezilib turadi
2. O‘zini baholash	3	Xatolarini tan oladi, lekin chuqur tahlil yo‘q
3. O‘zini namoyon qilish	5	Shaxsiy fikr, ijodiy yondashuvi juda yaxshi

Jami: 12 ball. “O‘ziga ishonch” darajasi: o‘rtachadan yuqori.

Ushbu metodikadan foydalanishning bir necha yo‘nalishlari bor. Jumladan, darsda: kunlik yoki haftalik formativ baholash. Chorak yakunida: umumiy kompetensiyani summativ baholash. Portfolio usulida: o‘quvchining ijodiy ishlarini yig‘ish, o‘rganish orqali rivojlanish dinamikasini kuzatib baholanadi.

Ona tili fanining lingvistik va ma’naviy salohiyati, xususan, nutqiy faoliyat, adabiy tahlil, erkin insho yozish va bahs-munozara mashqlari - o‘smirlarda o‘z-

o‘ziga ishonch, o‘z fikrini baholay olish va jamiyatda o‘z o‘rnini his qilish kompetensiyasini shakllantirishda kuchli lisoniy mashqlar maydoni hisoblanadi.

Shuning uchun ona tili darslarida o‘z-o‘zini anglash, o‘z fikrini erkin bayon qilish, shaxsiy qarashni asoslash, boshqalar fikrini hurmat qilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali tarbiyaviy va ta’limiy samara oshadi.

Buning uchun darslarda erkin ifoda, nutqiy avtotrening, ijodiy insho va shaxsiy esse mashqlariga keng o‘rin berish; o‘quvchilarni dialog va munozara orqali shaxsiy fikrini asoslashga o‘rgatish; adabiy qahramonlar orqali shaxsiy pozitsiya va qaror qabul qilish masalalarida muhokamalar tashkil qilish; “Men ham qatorda bor bo‘lishga haqliman”, “Men gapira olaman”, “Men fikr bildirishga haqliman” kabi zamonaviy, NLP(neyrolingvistik dasturlashtirish) asosidagi ta’limiy formulalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Darslikdagi mavjud matnlar atrofida “Agar siz shu qahramonning o‘rnida bo‘lganingizda, nima qilgan bo‘lar edingiz?” kabi savollar bilan o‘quvchilarda shaxsiy munosabat uyg‘otish hamda “Mening hayotdagi bosh maqsadim”, “Mening eng katta yutug‘im” kabi ijodiy topshiriqlar berish ham o‘quvchilarning o‘ziga ishonchini “yuzaga chiqarish”ga yordam beradi.

Yana bir jihat bu – darsda sog‘lom psixologik-pedagogik muhit yaratilishi kerak. Buning uchun darslarda xatoga yo‘l qo‘yishni tabiiy jarayon sifatida qabul qilish va shu orqali o‘quvchilarni dadillikka, o‘ziga ishonishga, jasoratga o‘rgatish zarur.

Bunda ona tili o‘qituvchisi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi, ruhlantiruvchi munosabat, muhit barqarorligi ta’minlanishi, o‘quvchilarning bir-birlarini o‘zaro maqtash, erkin, ijobiy fikr bildirishga o‘rgatib borish juda muhimdir.

O‘quvchilarda “O‘ziga ishonch” kompetensiyasini kuchaytirishda amaliy keys (ta’limiy ssenariy)lar juda qo‘l keladi. Shunisi muhimki, har bir keysda maqsad, faoliyat, kutilgan natija va baholash shakli aniq berilishi talab qilinadi. Quyida 5–8 va 9-11-sinf o‘quvchilarida “o‘ziga ishonch” kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan 3 ta amaliy keys (ta’limiy ssenariy) taklif etamiz.

1. “Menda ham fikr bor”.

5-6 sinflar.

Maqsad: O‘quvchini jamoa oldida so‘zlash, fikr bildirish va xato qilishdan cho‘chimaslikka rag‘batlantirish.

Faoliyat:

- O‘qituvchi sinfda “Men uchun muhim narsa bu - … Chunki…..” mavzusida 1 daqiqalik chiqish tayyorlashni so‘raydi.
- Har bir o‘quvchi navbatma-navbat chiqish qiladi.
- Chiqishdan so‘ng sinfdoshlari “Senda mana bu joyi zo‘r chiqdi?” deb, qo‘llab-quvvatlashadi.

Kutilgan natija:

- O‘quvchi so‘zlashdan cho‘chimaydi.
- Shaxsiy fikr bildirishga o‘rganadi.
- Fikr bildirgani uchun rag‘bat oladi va o‘ziga ishonchi ortadi.

Baholash:

Kuzatuvga asoslangan 3 ballik shkala:

1 — fikr bildirmadi;

2 — qiynalib chiqdi;

3 — ishonch bilan chiqdi.

2. “Asar qahramoni o‘rnida bo‘lsang, nima qilgan bo‘larding?”

7 sinf.

Maqsad: O‘quvchining mustaqil fikr bildirishi va shaxsiy pozitsiyani himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Faoliyat:

- Darsda bir qisqa badiiy hikoya o‘qiladi (masalan, “Sodiqlik”, “Jasorat” haqidagi hikoyalar).
- Keyin o‘qituvchi shunday savol qo‘yadi:
  “Agar sen asosiy qahramon o‘rnida bo‘lganingda, qanday qaror qabul qilgan bo‘larding? Nima uchun?”
- O‘quvchilar yozma yoki og‘zaki tarzda shaxsiy fikr bildirishadi.
- Fikrlar sinfda muhokama qilinadi.

Kutilgan natija:

- O‘quvchi o‘z nuqtai nazarini asoslaydi.
- E’tirozlardan cho‘chimay, fikrini himoya qiladi.
- Tanqidiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi.

Baholash:

Fikrning aniqligi, asosliligi va chiqishdagi ishonch belgilarini kuzatib baholash (5 ballik shkalada).

3. **“Men o‘zimga ishonganimda…”** (Insho yozuv keysi)

8 sinf.

Maqsad: O‘quvchining shaxsiy tajribasi orqali o‘ziga ishonchni ifoda etishi va ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish.

Faoliyat:

- Uqituvchi “Men bir kun o‘zimga ishondim va…” mavzusida insho yozishni topshiradi.
- Inshoda o‘quvchi o‘z hayotidan voqea keltiradi, qiyin vaziyatda qanday ishonch bilan harakat qilganini yoritadi.
- Insholar ixtiyoriy ravishda sinfda o‘qiladi.

Kutilgan natija:

- O‘quvchi o‘z kuchiga ishonish haqidagi shaxsiy tajribasini anglaydi.
- Erkin yozadi va ijodkorlik namoyon etadi.
- O‘ziga nisbatan ijobiy munosabati mustahkamlanadi.

Baholash:

Inshoda shaxsiy tajribaning mavjudligi, ishonchni ifoda etishi va ijodiy uslub 3 ta mezon asosida baholanadi (har biri 5 ballik shkalada).

9–11-sinf o‘quvchilari uchun ona tili darslarida “o‘ziga ishonch” kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan 3 ta amaliy keys (ta’limiy ssenariy)ni taklif etamiz. Ular yuqori sinf o‘quvchilariga mos ravishda shaxsiy pozitsiyani bayon qilish, ijtimoiy faollik va nutqiy mustaqillikni kuchaytirishga qaratildi.

1. “Do‘stim, sizga gapim bor!”

9 sinf.

Maqsad: O‘quvchining shaxsiy fikrini jamoa oldida ishonchli va ta’sirli ifoda etish qobiliyatini shakllantirish.

Faoliyat:

- O‘quvchilarga “Zamonaviy yoshlarning zimmasidagi mas’uliyat nimalarda ko‘rinadi?” yoki “Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga imkoniyatmi yoki tahdid?” mavzusida 2 daqiqalik chiqish tayyorlash topshiriladi.
- Chiqishda shaxsiy fikr, dalil va misollar bo‘lishi shart.
- Sinfdoshlari chiqishlarni baholaydi: ishonch, nutqiy ta’sir, dalilning aniqligi.
- Dars yakunida refleksiya savollari: “Chiqishimning qaysi joyida o‘zimga ishondim?”, “Qaysi joyini yaxshilashim kerak ekan?”

Kutilgan natija:

- O‘quvchi o‘z fikrini erkin, ishonch bilan bayon qiladi.
- Muhokama bo‘lishidan cho‘chimaydi.
- Shaxsiy pozitsiyani asoslash ko‘nikmasi shakllanadi.

Baholash:

3 ta mezon bilan baholanadi: ishonch, asoslangan fikr, nutqiy ravonlik (har biri 5 ballik shkalada).

2. **“Men o‘z fikrimda qolaman. Chunki….”** (Debat mashqi)

10 sinf.

Maqsad: Tanqidiy fikrlash, ishonchli nutq, muloqotda jasorat va tahliliy yondashuvni rivojlantirish.

Faoliyat:

- O‘qituvchi “O‘rtog‘i yoki dugonasining kamchiligini betiga aytish kerakmi?” kabi tortishuvli mavzuda sinfni ikki guruhga ajratadi.
- Debat qoidalari tushuntiriladi: har bir guruh o‘z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qiladi.
- Har bir ishtirokchi guruh oldida chiqish qiladi.
- Munozaradan so‘ng “Men chiqishimning qaysi joyida o‘zimga ishondim?” mavzusida qisqa sharh yoziladi.

Kutilgan natija:

- O‘quvchi qarama-qarshi fikrlar orasida o‘z pozitsiyasini himoya qiladi.
- Fikrlashda ishonch va dalillar keltirish qobiliyati rivojlanadi.
- Muloqot madaniyati va jasorat shakllanadi.

Baholash:

Dalillar aniqligi, chiqishda ishonchli intonatsiya, muloqot etikasi asosida baholanadi.

3. **“Mening hayotim”** mavzusida insho yozish.

11 sinf.

Maqsad: O‘quvchining ichki dunyosi, fikrlash madaniyati va ijodiy nutqi orqali shaxsiy ishonchni namoyon qilish.

Faoliyat:

- O‘quvchi “Mening hayotdagi maqsadim”, “Men qanday inson bo‘lishni istayman” yoki “Men – hayotim mening qo‘limda” mavzusida insho yozadi.
- Inshoda shaxsiy tajriba, fikr va munosabatlar bo‘lishi kerak.
- 3–4 o‘quvchi ixtiyoriy ravishda inshosini o‘qib beradi.
- Dars yakunida “Inshoning qaysi joyida o‘zimga ishonchim yaqqol ko‘rindi?” savoliga javob beriladi.

Kutilgan natija:

- O‘quvchi o‘zini erkin tutadi.
- Shaxsiy pozitsiya va maqsadlarini ko‘rsatishga intiladi.
- Ijodiy va nutqiy erkinlik orqali undagi ichki ishonch mustahkamlanadi.

Baholash:

3 mezon: shaxsiylik darajasi, ifodaning ishonchliligi, ijodiy yondashuv. (Shakl: portfolio va o‘qituvchi bahosi).

O‘quvchilarda o‘ziga ishonchni rivojlantirishni bitta fan doirasida mukammal ta’minlab bo‘lmaydi. Buning uchun fanlararo integratsiya kerak. Ya’ni ona tili darslarini “Tarbiya”, “Adabiyot”, “Texnologiya” fanlari bilan integratsiyalash orqali kompetensiyaviy rivojlanishga keng yo‘l ochish kerak.

Va nihoyat, 5-11 sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘ziga ishonchini baholash uchun portfolio, esse, insho, shaxsiy rivojlanish daftari, rolli o‘yinlar orqali namoyon qilinadigan munosabat, mulohaza asosida baholash samaralidir.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim fanlari bo‘yicha kompetensiyaga asoslangan davlat ta’lim standartlari. — T.: 2020.
2. Zokirov M. A. O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasiga doir. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022, 12/2. 207 b.
3. Yunusova M. Kompetensiya tushunchasi va uning ta’limdagi ahamiyati. // “Ta’limda innovatsiyalar” jurnali, №2, 2022.
4. Hasanova M. O‘rta ta’limda ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish. — T.: “Fan va texnologiyalar”, 2021.
5. Mahmudova D. O‘smirlar psixologiyasi va tarbiyasi. — T.: “Ma’naviyat”, 2022.
6. Sharipova L. O‘quvchining o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish. // “Ta’lim psixologiyasi”, №1, 2021.
7. “Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish” moduli bo‘yicha o‘quv–uslubiy majmua. Tuzuvchilar: N.A. Muslimov, M.T.Mirsolieva va b. - Toshkent, 2019. 246 b.

7-SINF O‘QUVCHILARIDA TINGLAB TUSHUNISHGA OID INTERAKTIV AMALIY TOPSHIRIQLAR

Klaraxon Mavlonova, (DSc), professor
Sobirxonova Ziyoda Temurxon qizi,
Alisher Navoiy universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 4-kurs talabasi
ziyodasobirxonova@gmail.com +998934488177

Annotatsiya

Ushbu maqolada 7-sinf o‘quvchilarida tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv topshiriqlarning metodik va amaliy asoslari o‘rganilgan. Maqolada Toshkent shahridagi ikki oylik tajriba asosida “Emo-topshiriq”, “Audio-kvest” va “Yo‘l ta’rifi krokisi” kabi interaktiv topshiriqlarni tizimli qo‘llash orqali ularning eshitgan matnni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va fikr bildirish ko‘nikmalariga ijobiy ta’siri yoritilgan. Maqolada tinglab tushunish tabiiy til kompetensiyasi sifatida qaralib, Dewey va Vygotsky kabi olimlarning konstruktivistik yondashuvlari, shuningdek, Blum taksonomiyasi asosida oddiy topshiriqlar va interaktif topshiriqlar o‘zaro farqlangan. Interaktiv topshiriqlarning oddiy topshiriqlardan farqli o‘laroq, o‘quvchilarni faol fikrlashga, muloqotga va qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi metodik vosita ekani ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada multimodal audiomateriallar, mantiqiy matnlar va yo‘riqnomalar orqali o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rag‘batlantirishga doir tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘z: tinglash, ko‘nikma, ijteraktiv, topshiriq, matn, tinglab tushunish, kompetensiya.

Аннотатция

В статье рассматриваются методические и практические основы применения интерактивных заданий в формировании аудирования и понимания у учащихся 7-х классов. В статье, основанной на двухмесячном эксперименте в Ташкенте, подчеркивается положительное влияние систематического использования интерактивных заданий, таких как «Эмо-задание», «Аудиоквест» и «Описание дороги», на навыки анализа услышанного текста, выявления причинно-следственных связей и выражения мнения. В статье аудирование рассматривается как естественная языковая компетенция, а также проводится различие между простыми и интерактивными задачами на основе конструктивистских подходов таких ученых, как Дьюи и Выготский, а также таксономии Блума. Научно доказано, что интерактивные задания, в отличие от простых задач, являются

методическим инструментом, побуждающим учащихся активно мыслить, общаться и принимать решения. В статье также даны рекомендации по стимулированию познавательной активности учащихся с помощью мультимодальных аудиоматериалов, логических текстов и инструкций.

Ключевые слова: аудирование, навык, интерактивный, задание, текст, аудирование, компетентность.

Annotation

This article studies the methodological and practical foundations of interactive tasks in developing listening comprehension competence in 7th grade students. The article, based on a two-month experiment in Tashkent, highlights the positive impact of the systematic use of interactive tasks such as "Emo-task", "Audio-quest" and "Road description sketch" on their skills in analyzing the text they have heard, identifying cause-and-effect relationships and expressing opinions. The article considers listening comprehension as a natural language competency, and distinguishes between simple tasks and interactive tasks based on the constructivist approaches of scientists such as Dewey and Vygotsky, as well as Blum's taxonomy. It is scientifically proven that interactive tasks, unlike simple tasks, are a methodological tool that directs students to active thinking, communication and decision-making. The article also provides recommendations for stimulating students' cognitive activity through multimodal audio materials, logical texts and instructions.

Keywords: listening, skill, interactive, task, text, listening comprehension, competence.

Nutqiy kompetensiyalarning biri bo‘lgan tinglab tushunish va gapirish boshqa til ko‘nikmalari o‘qish, yozishga nisbatan mehnat qilib o‘rganishni talab qilmaydi. Turkiyalik olim Mehmet Nurining fikricha, tinglash va gapirish bevosita nutq orqali o‘zlashtirish natijasida shakllanadi va shu bois tabiiy til kompetensiyalari sifatida qaraladi. Chunki tinglab tushunish yozish va o‘qish ko‘nikmalari kabi o‘qitish orqali emas, balki til muhitida faol ishtirok etish orqali rivojlanadi. Ayniqsa, ona tilida bu ko‘nikmalar inson tomonidan tabiiy ravishda egallanadi hamda maktab va turli kurslarda ta’lim olish orqali yanada takomillashadi. [4,55] Shu tufayli mamlakatimizda boshlang‘ich sinif o‘quvchilariga sinf rahbarlari tomonidan o‘qish savodxonligi va yozuv o‘rgatiladi. Boshqa til ko‘nikmalari sinf darajasi yuqorilab borgani sari ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari tomonidan o‘rta maktabni tamomlagunga qadar rivojlantirib boriladi.

Iroda Azimovaning tadqiqotida o‘qib tushunish va tinglash orqali matnni tushunishdagi farqlar tog‘risida xorijlik olimlarning qarashlarni yoritgan bo‘lib, bu Mehmet Nurining qarashlarini oydinlashtiradi. Tadqiqotda bayon etilishicha,

matnni o‘qib tushinish bilan eshitib qabul qilish miyyaga ta’sir qilayotgan ikki xil signalning turli yozuvchi kanallar orqali ishlanishi bilan farq qiladi. O‘z o‘rnida ularning har biri o‘zining afzal tomonlariga ega. Xususan, o‘qib qabul qilishda qabul qilinayotgan ma’lumot miqdorini nazorat qilib turish mumkin, shuningdek, signalni segmentatsiyalash o‘qib qabul qilishda osonroq kechadi. Eshitib qabul qilish esa ohangning mavjudligi bilan nisbatan boyroq[1,33]. Demak, yuqoridagi ilmiy izlanishlar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, boshqa nutqiy kopmitensiyalari bilan bir qatorda tinglab tushunish ko‘nikmasini jonli til muhitida o‘zlashtiriladi va rivojlantiriladi. Buni Milliy o‘quv dasturi va darsliklar tarkibida tinglab tushunishga oid topshiriqlarning mavjudligi tasdiqlaydi[5, 224].

Ona tili Milliy o‘quv dasturi o‘quvchilarda rivojlanishi kerak bo‘lgan til ko‘nikmalarini asosiy o‘ringa qo‘yadi [6,7]. Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan darsliklarda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Darsliklarda o‘qib tushunish, yozish savodxonligi, o‘g‘zaki nutq bilan bir qatorda tinglab tushunish topshiriqlariga ham o‘rin ajratilgan. Ammo ona tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmasi haqida ilmiy izlanishlar kam olib borilganligi bois topshiriqlar soni nisbatan kam. Topshiriqlar orasida sabab-natija, mazmuniy bloklarni to‘g‘ri ajratish, sarlavha qo‘ya olish kabi topshiriqlar berilganiga qaramay, savol-javob shaklidagi topshiriqlar ham ko‘p uchraydi. Shu asosda interaktiv topshiriqlar ishlab chiqildi va ularning o‘quvchilarda yuzaga keltirgan o‘zgarishlari muntazam kuzatildi.

O‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida, shakllantiruvchi darslar jarayonida zamonaviy interaktiv topshiriqlar tizimli ravishda qo‘llanildi. Xususan, “Emo-topshiriq”, “Audio-kvest” hamda “Yo‘l ta’rifi krokisi” kabi interaktiv topshiriq shakllari haftada ikki marotaba dars jarayoniga integratsiya qilindi. Tadqiqotda Toshkent shahridagi 7-sinfda 20 nafar o‘quvchini ikki oy davomida interaktiv topshiriqlar asosida o‘qitildi. Topshiriqlar o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini chuqurlashtirib, eshitilgan axborotni tahlil qilish, kontekstda fikr ajratish va muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Interaktiv topshiriqlarning oddiy topshiriq o‘quvchi faoliyatining darajasi, axborotni qabul qilish usuli va fikrlash jarayonining chuqurligi bilan farqlanadi. Quyidagi jadvalda oddiy topshiriq va interaktiv topshiriq o‘zaro farqlangan:

Me’zon	**Oddiy topshiriq**	**Interaktiv topshiriq**
O‘quvchi roli	Passiv ijrochi	Faol ishtirokchi, muhokamachi
Axborotni olish	Eshitish, o‘qish,	Eshitish + muhokama +

	yodlash	qaror qabul qilish
Ko‘nikmalarni shakllantirish	Faqat eslab qolish (reproduktiv)	Tanqidiy fikrlash, muammo hal qilish, kreativlik
Mashg‘ulot shakli	Yakka yoki guruhli	Juftlikda, guruhda, sinf bo‘ylab
Mos metodlar	Diktant, test, savol-javob	Rol o‘ynash, klaster, “baliq skeleti”, “fikrlar bozorı”
Feedback (aloqa)	O‘qituvchidan bir tomonlama	O‘qituvchi + o‘quvchi o‘rtasida ikki tomonlama
Tinglab tushunishdagi roli	Matnni eshitib javob yozish	Eshitib tahlil qilish, muhokama qilish, qaror qabul qilish

Interaktiv topshiriqning tinglab tushunishga ta’siri shundan iboratki, oddiy topshirida o‘quvchi audio matnni eshitib, savollarga javob beradi va bu yuzaki tushunishni rivojlantirsa, interaktiv topshiriqda esa o‘quvchi eshitgan matn asosida guruhda muhokama qiladi, sabablarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi. Interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarda chuqur tinglash va analitik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu borada J.Devey bilim amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirilishi, oddiy yodlash emas, faol tinglash orqali bilim hosil bo‘lishini ta’kidlaydi [3,91]. Devey uchun o‘quvchilar passiv qabul qiluvchilar emas, balki tajriba orqali bilishga harakat qiluvchi subyektlardir. Shuning uchun tinglab tushunishdagi faol modellar Devey yondashuviga mos tushadi. Vygotsky o‘z tadqiqotlarida ta’lim ijtimoiy muhitda sodir bo‘lganda samarali kechishini asoslaydi [7, 175]. Interaktiv topshiriqlarda bu yondashuv kuchli aks etadi va interaktiv metodlar asosini tashkil qilad. Blum taksanomiyasiga ko‘ra, oddiy topshiriqlar *bilim* va *tushunish* darajalarida qoladi, interaktivlar esa yuqori darajadagi bilimlar *qo‘llash*, *tahlil*, *sintez*, *baholash* darajalariga olib chiqadi [2,207].

Quyida interaktiv topshiriqlardan na’munalar berildi:

Emo-topshiriq.

Tinglagan dialoglaringizdagi insonlarning hissiyotlarini quyidagi jadvaldagi nuqtalar o‘rniga yozing.

Diqqat ikkita ortiqcha hissiyot bor!

Shaxslar	Hissiyotlar
1.Erkak	a) umid qilmoq
……	b) afsuslanmoq

2.O‘g‘il ……..	d) ranjimoq
	e) jahli chiqmoq
3.Bola ……	f) xavotir olmoq
4. Erkak …….	g) taskin topmoq

Topshiriqda o‘quvchilar badiiy asarlardan olingan dialoglar yordamida shaxslarning ayni g‘aytdagi hissiyotlarini anglashlari kerak bo‘ladi. Dialoglar orqali obrazlarning ichki kechinmalarini anglash o‘quvchini bilvosita ma’no chiqarish, va badiiy matnni chuqurroq idrok etishga o‘rgatadi. Bu ulardagi emosional tafakkurini va so‘zlarni turli kontekst asosida tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yo‘l ta’rifi krokisi.

Rasmdagi qizchani manziliga etib olishida yordam bering.

Topshiriqda o‘quvchilardan yo‘riqnoma matni asosida rasmdagi obyektni manziliga olib boradigan yo‘lni chizishlari so‘raladi. Ushbu topshiriq eshitilgan ma’lumotni tahlil qilish va fazoviy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xarita va yo‘riqnoma asosidagi topshiriqlar audial ma’lumotni tushunish, tartiblash va qo‘llashga o‘rgatadi. Shu asosida o‘quvchilarning ma’lumotlar ketma-ketligini aniqlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Audio-kvest.

Audiomatnga asoslanib, har bir mahsulotlarni raqam katakchasiga joylashtiring.

Bu topshiriqda o‘quvchilar tarqatma materiallaridagi maishiy texnika vositalarini raqam katakchalariga joylashtirishlari kerak bo‘ladi. Raqamlar to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmay mantiqiy ketma-ketlikda aytiladi. Masalan: Kitob javonlari juft raqam bilan belgilandi; 3 va 6-raqamli obyektlar bir xil turga mansub. Bu esa o‘quvchilarni **tinglangan ma’lumotni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish** va **ma’lumotlar tartibini kuzatishga** o‘rganadi. Topshiriq o‘quvchilarda mantiqiy tinglash, muammoni echish va diqqatni jamlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

1…..	2	3	4	5	6	7	8	9

Turlicha materiallardan foydalanish o‘quvchilarning turli kognitiv faoliyatlarini rag‘batlantiradi. Bu nafaqat tinglashni, balki tahlil qilish, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratish, voqealarning ketma-ketligini aniqlash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Shu boisdan mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi turdagi materiallardan foydalanildi:

– **Dialog matnlari** – o‘quvchilarning og‘zaki nutqni idrok etish, muloqot mazmunini tushunish va suhbat jarayonida fikrlar almashuvini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

– **Mantiqiy masalalar** – o‘quvchilarning tinglab tahlil qilish, ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

– **Yo‘riqnoma matnlar** – o‘quvchilar amaliy vazifalarni bajarishda eshitgan ko‘rsatmalarini to‘g‘ri qabul qilish, ma’lumotlarni izchillikda tahlil qilish va bosqichma-bosqich bajarishga o‘rgatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Matnlarni tanlashda shakli bilan birga o‘quvchining yoshi, qiziqishlari, bilim darajasini ham hisobga olish kerak. Audiomatnlarning uzunligi 3-4 daqiqadan oshib ketishi o‘quvchida zerikish va diqqat chalg‘ishi kabi salbiy omillarni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilarning tinglab tushunish topshiriqlarini to‘g‘ri bajara olishlari, avvalo, ularning audiomatnni to‘liq anglaganliklariga bog‘liq. Xorijiy tadqiqotchilar matnni tushunish jarayonini o‘rganishda ikki asosiy yondashuvdan foydalanadilar:

- yakuniy natijaga qarab tahlil qilish: bu usulda inson ongida matnning umumiy proeksiyasi ya’ni matnga oid umumlashtirilgan tasavvur shakllanadi va shu asosda asl matn bilan solishtirish orqali xulosa chiqariladi.

- jarayonni neyrometodlar yordamida kuzatish: bu usulda tinglovchining miyadagi faollik darajalari maxsus asboblar yordamida qayd etilib, tushunish jarayoni bevosita nazorat qilinadi [1, 80]. Mazkur tadqiqotda birinchi yondashuv bo‘lmish yakuniy natijaga qarab tahlil qilish usulidan foydalanildi. Bunda o‘quvchilar topshiriqlarni bajarish davomidagi natijalari orqali audiomatnni qan darajada tushunganliklari aniqlab borildi.

Maqolada taqdim etilgan interaktiv topshiriqlar tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda metodik yondashuv sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu yondashuvlar amaliy tadqiqot doirasida qo‘llanilib, maqolada ularning nazariy asoslari va qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Kelgusida metodik yondashuvlar asosida o‘tkazilgan tajriba natijalari va topshiriqlarning baholash nazariyasi alohida ilmiy ishda tahlil qilish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy pertseptsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent: O‘zMU, 2008. –163 b.
2. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Printed in the United States of America EDWARDS BROS., ANN ARBOR, MICHIGAN,1956. – 207p.
3. J.Devey. Experience and Education. NEW YORK: COLLIER BOOKS. A Division of Macmillan Publishing Co., Inc. first edition,1963. – 91p
4. Kardaş M.N. Dinleme eğitimi. 2. baskı. – Ankara: Pegem Akademi, 2023. – 400 s.
5. Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022/2023 o‘quv yili. – 215 b.
6. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. Cambridge, Massachusetts London,1978. – 175p.

ALISHER NAVOIYNING TA’LIMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI

E’zozxon Kobilova,
Qo‘qon davlat universiteti professori v/b

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodidagi ta’limiy-pedagogik qarashlar tahlil qilingan. Uning asarlarida yosh avlodni tarbiyalash, ularning ma’naviy va intellektual kamolotini ta’minlash masalalariga bo‘lgan yondashuvlari şerh etilgan. Maqolada Navoiy qarashlarining zamonaviy ta’lim tizimi uchun ahamiyati ham muhokama qilingan. Alisher Navoiyning ustoz-shogird munosabatlariga oid qarashlari, ilm olishni targ’ib etuvchi g’oyalari, shuningdek, uning inson kamoloti haqidagi falsafiy yondashuvlari keng qamrovli o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, ta’lim, pedagogika, tarbiya, ma’naviyat, adabiyot, yosh avlod, ilm-ma’rifat.

Annotation

This article analyzes the educational and pedagogical views in Alisher Navoi's works. It explores his approaches to the issues of educating the younger generation and ensuring their spiritual and intellectual development. The article

also discusses the relevance of Navoi's views for the modern education system. Alisher Navoi's perspectives on teacher-student relationships, ideas promoting the pursuit of knowledge, as well as his philosophical approaches to human perfection, are comprehensively studied.

Keywords: Alisher Navoi, education, pedagogy, upbringing, spirituality, literature, younger generation, knowledge, enlightenment.

Аннотация

В данной статье анализируются образовательно-педагогические взгляды в творчестве Алишера Навои. Рассматриваются его подходы к вопросам воспитания молодого поколения, обеспечения их духовного и интеллектуального развития. В статье также обсуждается значимость взглядов Навои для современной системы образования. Всесторонне изучены взгляды Алишера Навои на отношения учителя и ученика, идеи, пропагандирующие получение знаний, а также его философские подходы к совершенствованию человека.

Ключевые слова: Алишер Навои, образование, педагогика, воспитание, духовность, литература, молодое поколение, знание, просвещение.

Alisher Navoiy nafaqat o‘z davrining buyuk shoir va davlat arbobi, balki ma’rifatparvar sifatida ham o‘z nomini tarixga muhrlagan. Uning asarlarida inson ma’naviyatini yuksaltirish, yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Navoiy fikricha, har bir inson ilm va axloq orqali yuksaklikka erishishi mumkin. Shu bois, uning ijodi nafaqat badiiy meros, balki pedagogik g’oyalarning manbai sifatida ham qimmatlidir.

Mazkur maqola Navoiy ijodida aks etgan ta’limiy-pedagogik qarashlarni tahlil qilish va ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va muhimligi asoslanadi.

Mazkur maqola quyidagi ilmiy metodlar asosida yozildi:

Adabiy tahlil: Navoiy asarlaridagi ta’lim va tarbiyaga oid g’oyalarni aniqlash va ularni tizimlashtirish uchun adabiy tahlil usuli qo‘llandi.

Taqqoslash usuli: Navoiy qarashlarini zamonaviy ta’lim tamoyillari bilan taqqoslash orqali ularning dolzarbligi o‘rganildi.

Tarixiy yondashuv: Navoiy asarlarining o‘z davridagi ta’limiy ahamiyatini aniqlash va uni bugungi kunga tatbiq etish masalalari ko‘rib chiqildi.

Alisher Navoiy va uning ta’limiy-pedagogik qarashlari

Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida nafaqat san’at va ijodiy faoliyat, balki ta’lim va tarbiyada ham chuqur qarashlarni namoyon etgan. Uning ta’limiy-pedagogik qarashlari jamiyatni ma’naviy va madaniy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Ilm va ma’rifatning ahamiyati

Navoiy ilm olishni inson uchun eng yuksak fazilat deb bilgan. U ilmni hayotning mazmuni, ma’naviy yuksalishning asosi sifatida qadrlagan. Shoirning fikricha, insonning haqiqiy boyligi - bu ilm va ma’rifatdir. Uning mashhur "Mahbub ul-qulub" asarida quyidagi satrlar bu qarashning ifodasi bo‘lib xizmat qiladi:

"Ilm — ulug‘likning bezagi, jaholat esa xorlikning sababi."

Adolat va odob tarbiyasi

Navoiy ta’limning asosiy vazifasi insonda odob va adolatni shakllantirish deb bilgan. Uning asarlarida odob-axloqning eng yuqori darajasi sifatida kibrdan uzoq bo‘lish, o‘zgalarga hurmat bilan qarash va mehribonlik qilish singari qadriyatlar targ‘ib qilingan. Masalan, u "Xamsa" asarlarida odil shoh obrazlari orqali adolatning jamiyatdagi o‘rnini yuksak darajada tasvirlagan.

Ustoz va murabbiyning mavqei

Alisher Navoiy ustoz va murabbiyning jamiyatdagi o‘rnini juda yuqori darajada baholagan. Ularning mas’uliyati va ma’naviy vazifalari haqida shunday deydi:

“Ustozsiz kishi o‘z maqsadiga etolmas, chunki ustoz yo‘rg‘alaganni yurishga, bilmaganlarni esa anglashga o‘rgatadi.”

Bu bilan u ta’lim-tarbiyada ustozning rolini alohida e’tirof etgan va ustoz-shogird munosabatlarini mustahkamlashga chaqirgan.

Bolalarni tarbiyalash

Navoiy yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. U bolalik davrini inson hayotidagi eng muhim bosqich deb bilgan va yosh bolalarni erta yoshdan odob, mehnatsevarlik va ilmgacha bo‘lgan muhabbat bilan o‘stirish kerakligini ta’kidlagan.

Hayotiy tajriba va didaktika

Shoir ta’lim jarayonida hayotiy tajriba va axloqiy saboqlarni o‘rgatishga urg‘u bergan. Uning asarlari nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchilarga, balki butun jamiyatga ta’lim va axloqiy saboq beruvchi manba sifatida xizmat qilgan.

O‘zbek tilini rivojlantirish

Navoiy o‘z asarlarini o‘zbek tilida yozib, bu tilni ilm va madaniyat tili darajasiga ko‘targan. Bu orqali u ta’limning keng ommalashuviga va bilimning

milliy o‘zlik asosida rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Uning asarlari yoshlar va o‘qituvchilar uchun didaktik qo‘llanma sifatida xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning ta’limiy-pedagogik qarashlari bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lib, u o‘z asarlari orqali nafaqat o‘z davridagi insonlar, balki hozirgi avlod uchun ham bilim va tarbiyada muhim tamoyillarni ko‘rsatib bergan. U ilmga muhabbat, odob-axloq, adolat va ustozga hurmat kabi tushunchalarni yosh avlodga singdirish zarurligini uqtirgan. Bu tamoyillar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Navoiy qarashlarini zamonaviy ta’lim bilan taqqoslash natijasida ma’lum bo‘ldiki, uning ta’limga oid g’oyalari bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Xususan:

- Axloqiy tarbiyaning ta’lim jarayonidagi o‘rni hanuzgacha katta ahamiyatga ega. Navoiyning bu boradagi qarashlari o‘qituvchilarga zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishda yordam berishi mumkin.

- Ilm olishning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishdagi roli uning ijodida asosiy tamoyil sifatida namoyon bo‘lgan. Bu esa yosh avlodni rag’batlantirishda muhimdir.

- Navoiy ijodidan kelib chiqadigan ustoz-shogird munosabatlari modeli o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samimiylik va hurmatni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiyaga oid qarashlar nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Navoiy ijodini o‘rganish orqali yosh avlodda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Ustoz-shogird munosabatlarini mustahkamlash uchun Navoiy qarashlaridan foydalanish. Bu jarayonni ta’lim tizimida maxsus o‘quv dasturlari orqali joriy etish lozim.

Ta’lim jarayonida axloqiy tarbiyaning o‘rnini oshirishga qaratilgan maxsus kurslarni tashkil etish va bu jarayonda Navoiy ijodidan namunalar keltirish.

Alisher Navoiy merosi kelajak avlod uchun katta ma’naviy xazina bo‘lib qolmoqda. Uning asarlarini o‘rganish va targ’ib qilish orqali biz jamiyatni ma’naviy va ilmiy jihatdan rivojlantirishga hissa qo‘shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.

2.Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.

3. Qobilova, E. B., Toshpolatova, S., Muhammadjonova, M., Muninova, M., Baxromova, M., & Rahimova, D. (2023). QADIMIY MUSIQIY SAN’ATNING SHAKLLANISH JARAYONI. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 14), 560-565.
4.Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(9), 126-130.
5.Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *3*, 127-132.
6.Кобилова, E. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, *1*(1), 156-159.
7.E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. *University Research Base*, 46-49.
8.Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA’LIMDA MUSIQA O ‘QITISHNING AHAMIYATI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *12*, 99-100.
9.Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(26), 192-195.
10.Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O ‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. *Pedagogikada ilmiy izlanishlar*, *2*(1), 28-31.
11.Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *4*(02), 44-49.
12.Qobilova, E. (2024). *THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO ‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100.*
13.Qobilova, E. (2024). The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons. *Uzbekistan Educational Research Journal*, *1*(1).

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

G‘afforjon Ro‘zmatovich Rahmonov,
Qo‘qon universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
gafforjon1968@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezis talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini badiiy estetik tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirish orqali amalga oshirishiga

bag‘ishlangan. Uning asosiy maqsadi - talabalarning kommunikativ kompotentlarini badiiy-nutqiy faoliyat mashg‘ulotlari orqali axloqiy va ma’naviy tarbiyasini takomillashtirish, ularga pedagogik faoliyatda qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi metodik yondashuvlardan boxabar etishdir.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ kompetensiya, badiiy estetik tafakkur, kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi, shaxsiy ish uslublari, qobiliyatlar,v psixologik nuqson.

Аннотация

Данная теза посвящена формированию и развитию коммуникативной компетенции студентов через художественно-эстетическое мышление. Основная цель – совершенствование нравственного и духовного воспитания студентов путем художественно-речевой деятельности, а также ознакомление их с новыми методическими подходами, применимыми в педагогической практике.

Ключевые слова:Коммуникативная компетенция, художественно-эстетическое мышление, коммуникативные знания, система навыков и умений, индивидуальные стили работы, способности, психологические недостатки.

Abstract

This thesis is devoted to the development of students' communicative competence through artistic and aesthetic thinking. Its main goal is to improve moral and spiritual education through artistic and speech activities, as well as to introduce new methodological approaches applicable in pedagogical practice.

Key words: Communicative competence, artistic and aesthetic thinking, communicative knowledge, system of skills and abilities, individual working styles, abilities, psychological deficiencies.

Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini badiiy estetik tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Talabada kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi, ularning barqarorligi, shakllangan shaxsiy ish uslublari mavjud emasligiga asoslanib, ularni jiddiy tekshirib, tashxis qilmasdan turib, shoshilinch tarzda unda qobiliyatlar yo‘q degan xulosa chiqarish oliy maktab o‘qituvchisining qo‘pol psixologik nuqsoni hisoblanadi.

Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo‘lgan juda ko‘p allomalarning nomi olamda mashhur, chunonchi, Albert Eynshteyn (nisbiylik

nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo‘nalishi asoschisi) va boshqalar o‘qishida genial olim bo‘lib voyaga etishishi dalolatnomasi yo‘q edi.

Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladi. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to‘g‘risida mulohaza yuritish imkonini beradi [1.12].

Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi.

Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba’zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq;

a) shaxsning muayyan sifatlari yig‘indisi belgilangan vaqt oralig‘ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir;

b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa, psixologik sifatlar, ya’ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir) [2.14].

Lekin bunday xususiyatli shaxs ko‘nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma’no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho‘zilib ketadi, xolos. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblansa qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi.

Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in’om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat qiyoslanadi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi [3.15].

Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya’ni insonni fahmlash, obyektdan u yoki bu alomatlarni ko‘ra bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir.

Qobiliyatning etakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi

bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko‘pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko‘pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo‘ladi. Zehn nishonalari deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi.

Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma’lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo‘llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg‘unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo‘llari mavjud.

Qobiliyatning yuqori darajasi iste’dod va talantda namoyon bo‘ladi. Qobilyatlar, aslida, tug'ma bo‘ladi. Qobiliyat tug‘ma bo‘lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog‘liq bo‘ladi. Tahlil va natijalar (Analysis and results).Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish. Umuman olganda, aql barcha bilim jarayonlarining tizimi, ya'ni fikrlash, histuyg'ular, xotiralar, hislar, e'tibor, hislar va tasavvurlar kabi tushuniladi [3.21].

Fikrlash tushunchasi insonni o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashtirish uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor xususiyatlarini umumlashtirishga yordam beradi. Hayot muammolarini hal qilish qobiliyatini, og'zaki (o‘qish tushunchasi, tarjimai hol) va amaliy bilimlarni (maqsadlarga erishish qobiliyatini) aniqlash. Shunday qilib, aqlni fikrlash apparatlarining muayyan bosqichi deb hisoblash mumkin. O‘z navbatida, intellektual faoliyat qobiliyati kiruvchi axborotni idrok etish va qayta ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarining kombinatsiyasi hisoblanadi.

Insonning intellektual qobiliyatlari tuzilishi shunday:

1. Depozit - bu miyaning strukturasi asosida

2. Umumiy, har qanday faoliyatda teng namoyon bo‘ladi - xotira , o‘rganish, diqqat-e'tibor.

3. Maxsus - muayyan faoliyat turlari uchun talab qilinadi. Masalan, musiqiy quloq yoki tijoriy tushunish.

4. Maxsus va umumiy maqsadlar asosida rivojlanayotgan guruh.

5. Kasb-hunar qobiliyatlari, ular mehnat jarayonlarida namoyon bo‘ladi [4.10]. Uzoq vaqt davomida inson o‘zgarishi mumkin bo‘lmagan ma'lum bir ong bilan tug'ilgan deb hisoblar edi.

Keyinchalik, o‘zgarishsiz bazalar mavjudligi ma'lum bo‘ldi, lekin biz ushbu ko‘nikmalarning ko‘pchiligiga o‘zimiz javob beramiz. Intellektual qobiliyatlarning eng tezkor rivojlanishi boshqaruvchilik faoliyatida, albatta, har bir kishi kamida ikki kishini bo‘ysunish bilan qabul qilib, jadallik bilan rivojlana boshladi. Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o‘zaro harakat sohasida maxsus ko‘rinishga ega bo‘lgan muloqotga qobiliyatlilikdir.

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko‘rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog’liqlikda ko‘rib chiqish, yuz, qo‘l, gavda harakatlarini “o‘qish” ko‘nikmasi) 2) insonni o‘z-o‘zini anglay olishi (o‘z bilimi, qobiliyati, o‘z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko‘zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to‘g’ri baholay olish ko‘nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo‘lish belgilari haqida ko‘proq axborotlarni ajarata olish, ularga e’tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to‘g’ri idrok etish va baholash) [.123].

Demak, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy elementi hisoblanadi: O‘z fikrini ifodalash, aniq va qiziqarli muloqot qilish, ijodiy jarayonda o‘zaro munosabatda bo‘lish – bularning barchasi estetik idrok etish va shaxs rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayonda esa talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim sanaladi. Talabalarning temperamentlari, o‘rganish uslublari va nutq rivojlanish darajalari har xil. Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay va samarali muhit yaratish uchun ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda usul va uslublarni tanlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma) . –T., 2006.
2. Зиёмухаммедов Б. Педагогик махорат асослари. (ўқув қўлланма). -Т., 2009.
3. Ташпулатова, Д. М. (2023). Халқаро таълим дастурлари асосида интеграцион ўқитиш механизмлари. Образование наука и инновационные идеи в мире, 18(3), 53-63.
4. Tashpulatova, D. M., Salomova, M. K. (2023). Integration of primary education disciplines learning problem. International scientific-online conference INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 16(1), 140-144.
5. http://www.ziyonet.uz

6. *www.pedagog.uz*

UZR NUTQIY AKTINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Murotova Dilnoza Xasan qizi,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
muratovadilnoza2@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-6413-6957

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzr nutqiy aktining lingvokulturologik jihatlari tahlil qilingan. Muallif uzr so‘zlash holatlari va ularning lingvistik shakllarini o‘zbek tilida ko‘rib chiqadi hamda bu hodisaning madaniy kontekstdagi o‘rnini yoritadi. Tadqiqotda uzr ifodalarining pragmatik vazifalari, ijtimoiy vazifasi va kommunikativ samaradorligi masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, uzr aktining boshqa madaniyatlardagi ifoda shakllari bilan o‘zaro solishtirmasi ham berilgan. Maqolada lingvokulturologik yondashuv asosida uzr aytish madaniyatining o‘zbek ijtimoiy hayotidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: uzr, nutqiy akt, lingvokulturologiya, kommunikatsiya, madaniyat, pragmatika

Abstract

This article analyzes the linguoculturological aspects of the speech act of apology. The author examines the usage and linguistic forms of apology in the Uzbek language and highlights its role in the cultural context. The study explores the pragmatic and social functions of apology expressions, their effectiveness in communication, and includes a comparative view with expressions in other cultures. The article emphasizes the significance of apology as a cultural and communicative phenomenon in Uzbek social interaction through a linguoculturological approach.

Keywords: apology, speech act, linguoculturology, communication, culture, pragmatics

Insoniyat o‘zaro muloqot davomida muayyan ijtimoiy, madaniy va axloqiy me’yorlarga asoslanadi. Nutqiy faoliyat bu me’yorlarning asosiy ifodachisi bo‘lib, undagi har bir nutqiy akt insoniy munosabatlarning murakkab tizimini ifodalaydi. Nutqiy aktlar ichida uzr nutqiy akti alohida o‘rin egallaydi, chunki bu akt ijtimoiy munosabatlarni muvozanatlash, nizolarni yumshatish va muloqotni me’yoriy

darajada davom ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada uzr nutqiy aktining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi fandir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, uzr aytish shakllari nafaqat lingvistik birliklar, balki ular ortida turgan madaniy qadriyatlar, odob-axloq normalari va mentalitetni ham ifodalaydi [2,17].

1. Uzr nutqiy aktining mohiyati va funksiyasi

Uzr nutqiy akti — bu sub’ekt (nutq egasi) tomonidan sodir etilgan harakat yoki so‘z natijasida yuzaga kelgan noqulaylik yoki xatolikni tan olish va buni kompensatsiya qilishga bo‘lgan ijtimoiy harakatdir. Ushbu akt bir necha asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Murosaga chaqirish;
- Xatoni tan olish;
- Hurmat ifodalash;
- Ijtimoiy me’yorlarni saqlab qolish.

Tilshunos J. Ostin va keyinchalik J. Searl tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasiga ko‘ra, uzr — bu **illokutsion akt** bo‘lib, u orqali so‘zlovchi auditoriyaga muayyan ijtimoiy va psixologik ta’sir ko‘rsatadi [1].

2. Uzr ifodalarining lingvistik shakllari

O‘zbek tilida uzr aytishning ko‘plab shakllari mavjud. Ular oddiy “Kechirasiz”, “Uzr so‘rayman” kabi rasmiy shakllardan tortib, “Ey, kechirasiz, men buni bilmay qildim” kabi yumshoqroq, ijtimoiy kontekstga moslashgan shakllargacha bo‘lishi mumkin. Misollar:

- “Kechirasiz, kech qolibman.”
- “Uzr, sizni bezovta qildim.”
- “Meni kechiring, bu mening aybim.”

Bu ifodalar orqali so‘zlovchi o‘zining xatosini tan oladi va tinglovchining roziligini kutadi. Shu bilan birga, bu shakllar turli kontekstlarda o‘zgaradi. Masalan, rasmiy vaziyatlarda “Uzr so‘rayman” keng qo‘llansa, norasmiy holatlarda “Kechirasiz” yoki “Ey, uzr” kabi og‘zaki shakllar ustun bo‘ladi [3,11].

3. Madaniy omil va lingvokulturologik jihatlar

O‘zbek madaniyatida uzr aytish — bu faqat til hodisasi emas, balki **axloqiy-ruhiy** muomala aktidir. Bu madaniyatda hurmat, kamtarlik, kattaga ehtirom kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lganligi bois, uzr aytish odatiy va kutilgan ijtimoiy javob hisoblanadi [2].

Ba’zi hollarda hatto ayb so‘zlovchida bo‘lmasa ham, u ijtimoiy muvozanatni tiklash uchun uzr so‘rashi mumkin. Bu holat “madaniy ijtimoiy mas’uliyat” deb talqin qilinadi [4]. Xususan:

1. Kichik yoshdagilar kattalardan uzr so‘rashadi, bu — tarbiyaning belgisi.
2. Ayollar ko‘proq uzr aytishga moyil bo‘lishadi — bu esa ijtimoiy rol va stereotiplarga bog‘liq.

Yapon, koreys yoki turk madaniyatlari bilan taqqoslaganda, o‘zbek tilida uzr so‘rashda **og‘zaki ifoda** va **intonatsiya** katta rol o‘ynaydi. Tana tilining yumshoqligi, ohangdagi kamtarlik ham uzrning samimiyligini belgilaydi [2].

4. Uzrning kontekstual qo‘llanilishi

Uzr aytish har doim ham bir xil semantik yuklamaga ega emas. Ba’zan bu ibora “men aybdorman” degan ma’noni ifodalasa, ba’zan esa bu shunchaki odob-axloq belgisi sifatida qo‘llaniladi.

Masalan:

- “Kechirasiz, so‘zingizni bo‘ldim” — bu erda uzr aytuvchi aybdor emas, lekin madaniy jihatdan so‘z uzgani uchun kechirim so‘raydi.
- “Uzr, bu sizning ishingiz emas” — bu esa ko‘proq **ironiya** yoki **passiv agressiya** anglatishi mumkin [3].

Bu esa uzrning **pragmatik** jihatini ochib beradi. Tilshunoslikda bu fenomen **pragma-semantik tahlil** orqali ko‘rib chiqiladi [4]. Uzr nutqiy akti — bu lingvistik birlik bo‘lish bilan birga, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kommunikativ hodisadir. Uning shakllari, maqsadi va qo‘llanilish uslubi har bir xalqning madaniyati va mentaliteti bilan uyg‘unlashgan holda shakllanadi. O‘zbek tilida uzr aytish ko‘pincha axloqiy normalar, e’tibor va hurmat belgisi sifatida qaraladi. Lingvokulturologik yondashuv orqali uzr nutqiy aktining nafaqat lingvistik, balki madaniy ildizlarini ham chuqurroq tahlil qilish mumkin. Kelgusida bu mavzuda millatlararo taqqoslama tadqiqotlar olib borish, uzr aytish madaniyatining umumiy va milliy xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Searle, J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press, 1969.
2. Abdulxayev N. *Til madaniyati va nutq etiketi*. Toshkent: Fan, 2012.
3. Karimova Z. *O‘zbek tilida kommunikativ nutq aktlari*. Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. Brown, P., & Levinson, S. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press, 1987.

ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA STEAMNI JORIY ETISH

Dilmurod Asqarov,
University of Business and Science
Toshkent filiali dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyot fanini o‘qitishda STEAM yondashuvining nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi. Fanlararo integratsiya orqali talabalar ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil hamda texnologik vositalardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini egallashlari mumkinligi yoritiladi. Matn tahlili, san’at, muhandislik, ilm-fan va matematikani birlashtirish yo‘li bilan badiiy asarlar mazmunini chuqurroq idrok qilishga erishish imkoni aniqlanadi. Pedagogika sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan o‘qitish amaliyotining samaradorligini oshirish borasida muayyan zamonaviy pedagogik tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: STEAM, adabiyot, fanlararo integratsiya, ijodiy fikrlash, texnologik vositalar, tanqidiy tafakkur, metodika, pedagogika

Annotation

This article examines theoretical and practical aspects of applying the STEAM approach in teaching literature. By integrating multiple disciplines, students develop creative thinking, critical analysis, and responsible use of technological tools. The synergy of textual interpretation, art, engineering, science, and mathematics fosters deeper understanding of literary works. Additionally, the paper explores innovative opportunities within pedagogy. Furthermore, specific methodological recommendations are presented to enhance efficiency in integrated educational practice and outcomes.

Ключевые слова: STEAM, литература, междисциплинарная интеграция, творческое мышление, технологические инструменты, критическое мышление, методология, педагогика

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения STEAM-подхода в преподавании литературы. Междисциплинарная интеграция позволяет учащимся развивать творческое мышление, критический анализ и рациональное использование технологических инструментов. Сочетание текстового анализа, искусства, инженерии, науки и математики способствует более глубокому пониманию художественных произведений. Кроме того, автор выделяет инновационные педагогические возможности. Также приводятся конкретные методические рекомендации для повышения эффективности интегрированного образовательного процесса в современной школе. Подобный подход укрепляет навыки исследования и межличностного взаимодействия.

Keywords: STEAM, literature, interdisciplinary integration, creative thinking, technological tools, critical thinking, methodology, pedagogy

Bugungi kunda ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya an’anaviy o‘qitish usullarini rivojlantirish va zamon talablariga mos intellektual salohiyatni shakllantirishga qaratilgan samarali strategiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) konsepsiyasini o‘quv jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni echish, texnologik vositalardan oqilona foydalanish, jamiyat ehtiyojlariga mos loyihalarni ishlab chiqish hamda estetik did va badiiy tafakkurni rivojlantirish kabi qobiliyatlarni barqaror shakllantirish imkoni tug‘iladi. [1.45-51] Avvaliga ushbu yondashuv asosan aniq fanlar doirasida qo‘llanilishi bilan mashhur bo‘lsa-da, uning ko‘lamini kengaytirish, ayniqsa, adabiyot kabi badiiy-estetik fanlarga ham tatbiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot fanida STEAMni joriy etish, o‘quvchilarda nafaqat badiiy asarlarni chuqur idrok etish, balki ilm-fan va texnologiya bilan bog‘liq tushunchalarni tanqidiy tahlil qilish, ijodiy g‘oyalarni amalga oshirishda ilmiy asosli yondashuvni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot o‘zining badiiy, estetik va ma’naviy jihatlari bilan boshqa fanlardan keskin farq qilgandek ko‘rinsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlar uni turli sohalar bilan uyg‘unlashgan holda o‘qitishga keng imkoniyat beradi. Badiiy asarlar, avvalo, inson kechinmalari, xulq-atvori, ma’naviy izlanishlari va ijtimoiy munosabatlarining tarovatli tasviri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, har

qanday asar, xoh u tarixiy, xoh zamonaviy bo‘lsin, o‘z davridagi fan-texnika yutuqlari, madaniy hayot, ijtimoiy muhit va san’at bilan chambarchas bog‘liq ekanini nazardan qochirmaslik lozim. Ana shu omillarni STEAM orqali badiiy matn tahliliga jalb qilish o‘quvchilarning asar mazmunini chuqurroq anglashiga, turli fanlar kesimida o‘ziga xos parallel va analogiyalarni topa olishiga, ijodiy fikrlash jarayonini boyitishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarga ma’lum bir davrda yaratilgan asarni o‘rganish jarayonida shu davr ilmiy kashfiyotlari, texnik taraqqiyot, me’morchilik yoki rassomchilikdagi uslublar haqida ham ma’lumot berish, asar tahlilini yanada kengroq manba va dalillarga tayanib olib borish imkoniyatini ochadi.

Adabiyot fanini o‘qitishda STEAMni qo‘llash, avvalo, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har qanday badiiy asar muallif tasavvurining mahsuli bo‘lish bilan birga, u muayyan voqealar, ijtimoiy munosabatlar, hissiyotlar va tarixiy jarayonlarga oid dalillarga suyanishi mumkin. Shunday asarlarni o‘rganish mobaynida o‘quvchilar reallik bilan badiiy tasvir o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni tahlil qilishga, badiiy matndagi poetik vositalarning psixologik, ijtimoiy yoki hatto tabiiy-ilmiy asoslarini izlashga kirishadilar. Bu jarayonda matematika fanining mantiqiy tahlil uslubini qo‘llash yoki ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning asar mazmunini yanada keng ko‘lamda anglashlariga yordam beradi. Shuningdek, muayyan voqea-hodisalarni turli san’at yo‘nalishlari, xususan, musiqiy hamda tasviriy san’at bilan taqqoslab ko‘rish, o‘quvchilarning badiiy mazmunga nisbatan kuzatuvchanlik, ijodkorlik va tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

STEAM integratsiyasining yana bir muhim jihati shundaki, u badiiy matnning faqat g‘oyaviy-estetik xususiyatlarini emas, balki undagi tasviriy elementlarni texnik va texnologik nuqtayi nazardan ham ko‘rib chiqishga imkon beradi. Masalan, biror asarda suratga olingan tabiat manzarasi yoki shahar tasviri bo‘lsa, o‘quvchilar geografik, ekologik, injenerlik nuqtayi nazaridan ushbu manzaraning haqiqiy hayotda qanday ko‘rinishda bo‘lishi yoki qanday sharoitda shakllanishi mumkinligini tadqiq qilishlari mumkin. Bu ma’lumotlarni to‘plash va taqqoslash jarayonida qidiruv usullarini qo‘llash, raqamli manbalar bilan ishlash, statistika yoki geografik axborotlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Natijada adabiy matnning tasviriy jihatlari ilmiy asos bilan boyitilib, dars jarayonida faqatgina ijodiy tasavvur emas, balki faktlarga tayanilgan izlanishlar ham ro‘yobga chiqadi. [3.39-47]

Adabiyot darslarida STEAMni joriy qilishning amaliy ahamiyati shundaki, bu o‘quvchilarda mas’uliyat hissini, mustaqil o‘rganish va tadqiq qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi ana shu jarayonni

yo‘naltiruvchi, ilmiy izlanishlarga ruhlantiruvchi, o‘quvchilarning turli g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlovchi rahnamo sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarga bitta asarni chuqur o‘rganish topshirig‘i berilganda, ular qahramonlarning ichki dunyosi, tarixiy sharoit, asarning yaratilish davridagi ilmiy kashfiyotlar yoki san’atda kechgan o‘zgarishlar haqida izlanish olib borishlari mumkin. Buning uchun turli manbalar bilan ishlash, internet resurslaridan ma’lumot qidirish, fotogalereyalarni ko‘rish, elektron kitoblar yoki maqolalar bazasini tahlil qilish, so‘ng bu ma’lumotlarni o‘z mulohazalari bilan qayta ishlashga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, o‘quvchilar badiiy asar orqali ma’lumotlarni mustaqil izlash, saralash, ularni tanqidiy baholash va ushbu jarayon natijalarini tartibga solib, ilmiy xulosa chiqarish borasidagi amaliy ko‘nikmalarni tobora mustahkamlab boradilar.

STEAM konsepsiyasi adabiyot fanida fanlararo uyg‘unlashuvni ta’minlovchi vosita bo‘lib, kelajakda raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir badiiy asar, o‘zida turli ma’naviy-estetik ma’nolarni mujassam etish bilan birga, uyg‘unlikda qo‘llanilsa, aniq fanlar yoki texnologik jarayonlar bilan ham bevosita aloqador bo‘lishi mumkin. [1.45-51] Masalan, adabiyotdagi fantastik uslubdagi asarlarni o‘qishda zamonaviy robototexnika, sun’iy intellekt yoki kosmik tadqiqotlar bilan bog‘liq dalillarni o‘rganish, asarni tahlil qilish jarayonida ilmiy g‘oyalarni fantaziya bilan uyg‘unlashtirishga zamin yaratadi. Bu esa yoshlarning ilm-fan va ijod namunalari o‘rtasida cheksiz imkoniyatlar mavjudligini his qilishlariga, shuningdek, o‘z kelajak faoliyatlariga yangicha nigoh bilan qarashlariga turtki beradi. Boshqa tomondan, tarixiy-romantik asarlarni o‘qish orqali o‘quvchilar turli davrlardagi hayot tarzini muhandislik inshootlari, texnologik rivojlanish darajasi, san’at yo‘nalishlarining shakllanish jarayoni bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shunday o‘xshashlik va farqlarni kashf qilish, natijada badiiy matn mazmunini kengroq tarixiy, ilmiy va madaniy kontekstda talqin qilishga yordam beradi.

Adabiy asarlarni STEAM asosida o‘qitish jarayonida tasviriy san’atga doir kompetensiyalarni ham rivojlantirish muhim. Zero, badiiy matnlar rang-barang obrazlar, ramzlar, voqealar tasviri orqali o‘quvchi ongida muayyan estetik olamni shakllantiradi. Ushbu jarayonni tasviriy san’at bilan boyitish, ya’ni asardagi obrazlar yoki muhitni chizish, undagi voqealarni sahnalashtirish, asar atmosferasini ifodalovchi rassomlik yoki dizayn loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini kengaytiradi. Bunday yondashuvlar orqali adabiyot darsi odatiy nutqiy yoki matn tahlilidan iborat mashg‘ulot bo‘lib qolmay, haqiqiy ijodiy laboratoriyaga aylanadi. Natijada, yoshlar o‘z fantaziyasini yorqin ranglar, shakllar yoki ovozlar orqali ifodalashga harakat qiladilar, bu esa nafaqat

badiiy didni shakllantiradi, balki shaxsiy qobiliyat va iste’dodlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

STEAM integratsiyasi adabiyot fanini o‘qitish jarayonida ijtimoiy masalalarga ham e’tibor qaratish imkonini kengaytiradi. Badiiy asarlar odatda insonparvarlik, adolat, muhabbat, vatanparvarlik kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Ushbu mavzularni zamonaviy texnologik yoki ilmiy ishlanmalar doirasida qayta ko‘rib chiqish, ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan loyihalarni ishlab chiqish talabalarda nafaqat adabiy matnni to‘g‘ri talqin qilish, balki jamiyatdagi real muammolarni payqash va ularni ijodiy-innovatsion tarzda hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, asardagi qahramonlarning hayoti yoki ularning ijtimoiy statusi bilan bog‘liq muammolarni ko‘rib chiqish jarayonida ularni zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiya vositalari yoki elektron ommaviy axborot vositalari nuqtayi nazaridan tahlil qilish, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berishga undaydi. Bunday faoliyat natijasida o‘quvchilar avvallari faqat kitob sahifalarida uchratgan ijtimoiy mavzularni bugungi hayot bilan bog‘lashga o‘rganadilar, yangicha echimlar topish orqali esa amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

Adabiyot faniga STEAM yondashuvini tatbiq etish o‘quvchilarning individual qiziqishlari va iqtidorlarini yuzaga chiqarishda ham samarali hisoblanadi. Kimdir muhandislikka ishtiyoqi baland bo‘lsa, asardagi arxitektura va texnologik xususiyatlar bo‘yicha loyihalar ishlab chiqishga harakat qiladi, yana kimdir matematika orqali she’rlarning ritm yoki vaznini tahlil qilishni xush ko‘radi, boshqalar esa muallif hayoti va ijodida kechgan psixologik holatlarni chuqurroq o‘rganishni afzal bilishlari mumkin. Shunday rang-barang qiziqish va istaklarning bir paytning o‘zida amalga oshirilishi STEAM konsepsiyasining betimsol afzalliklaridan biridir. O‘quvchilar o‘zlariga yoqqan yo‘nalishda ijodiy izlanish qilarkanlar, ular bilan bir vaqtda tengdoshlarining boshqa fanlar bilan bog‘liq tajribalaridan ham xabardor bo‘lishadi. Natijada, o‘qituvchi dars jarayonini turli loyihalarga boyitishi, guruh yoki jamoaviy ishlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy, kommunikativ va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlarining kengayishi adabiyot fanidagi ta’lim jarayonini boyitish uchun ham muhim vositalarni taqdim etadi. Videoroliklar, audiokitoblar, virtual safarlar, raqamli kutubxonalar, elektron lug‘atlar yoki interaktiv multimediya materiallaridan foydalanish o‘quvchilarning matnni qabul qilish, idrok etish hamda o‘zlashtirish jarayonlarini yanada jonlantiradi. [5.22-31] Xususan, asarning muallifiga yoki syujetiga doir tarixiy hududlar, muzeylar yoki yodgorliklarga virtual sayohatlar uyushtirish, shu davr bilan bog‘liq ilmiy-texnik taraqqiyot xususida ma’lumotlarni tahlil qilish, asar

qahramonlari izidan turli tajribalar o‘tkazish kabi ta’limiy dasturlar o‘quvchilarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etadi. Shuningdek, o‘quvchilar turli elektron platformalar orqali birgalikda loyihalar yarata oladi, erishgan bilim va natijalarini ijtimoiy tarmoqlar, onlayn konferensiyalar yoki bloglarda baham ko‘rishi orqali keng ommaga namoyish etish imkoniga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanini o‘qitishda STEAMni joriy etish zamonaviy ta’lim tamoyillarini amaliyotda ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur konsepsiya o‘quvchilarning badiiy-estetik didini rivojlantirish bilan birga, ularni fanlararo integratsiya, tanqidiy va ijodiy tafakkur, raqamli vositalardan foydalanish, ijtimoiy masalalarga innovatsion yondashuv, insonparvarlik va hamkorlik kabi turli kompetensiyalarni egallashga yo‘naltiradi. Natijada, adabiyot darslari an’anaviy matn tahlili doirasidan chiqib, kengaygan ko‘lamga ega bo‘ladi. Badiiy asarni o‘rganish jarayonida ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika uyg‘unlashib, yosh avlodda kelajakda jamiyatning ilg‘or taraqqiyotiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har taraflama etuk shaxslar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, STEAM yondashuvi darslarni yanada jonli, qiziqarli va mazmunli qilishi bilan birga, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bilim almashinuvi madaniyatini rivojlantiradi. Shu bois, adabiyot faniga STEAMni joriy etish nafaqat badiiy ijod namunalari bilan tanishtirish yoki matn mazmunini tahlil qilish, balki o‘quvchilarning hayotiy mahoratini mustahkamlash, ularni real voqelikni turli nuqtayi nazardan ko‘ra biladigan, tadqiqot va amaliy faoliyatga tayyor, komil shaxs sifatida kamol toptirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Яковлева Т. М. STEAM-образование: актуальные вопросы и перспективы развития // Педагогические исследования. – 2020. – № 4 (33). – С. 45-51.

2. Федосеева Е. В. Инновационные подходы в преподавании гуманитарных дисциплин: монография. – СПб.: Изд-во «Лань», 2019. – 296 с.

3. Smith J., Roberts T. Incorporating Arts into STEM Education // Journal of Educational Innovation. – 2018. Vol. 12, No 1. – Pp. 39-47.

4. National Research Council. Next Generation Science Standards: For States, By States. – Washington, DC: The National Academies Press, 2013. – 368 p.

5. Хрусталёв Г. В., Дмитриева Н. С. Методика интеграции технологий и искусства в процессе обучения литературе // Вестник современного образования. – 2021. – № 2 (15). – С. 22-31.

BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIGA MULTFILMLARNING TA’SIRI

Imomaliyeva Musharrafxon,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Niyozova Muqaddamxon,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi Tel: +998900568060

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar nutqining rivojlanish jarayonida multfilmlarning ta’siri ko‘rib chiqilgan. Maqolada multfilmlarning til o‘zlashtirish, so‘z boyligini kengaytirish, muloqot qobiliyatlarini shakllantirishdagi ijobiy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Bolalar nutqi rivojlanishi, multfilm, til o‘zlashtirish, muloqot, so‘z boyligi, pedagogik yondashuv, vizual materiallar, maktabgacha ta’lim, interaktiv media, semantik analiz

Аннотация

В данной статье рассматривается влияние мультфильмов на развитие речи детей. Анализируются положительные аспекты мультфильмов в процессе овладения языком, расширения словарного запаса и формирования коммуникативных навыков.

Ключевые слова: Развитие речи детей, мультфильм, овладение языком, общение, словарный запас, педагогический подход, визуальные материалы, дошкольное образование, интерактивные медиа, семантический анализ

Annotation

This article examines the impact of cartoons on children's speech development. It analyzes the positive aspects of cartoons in language acquisition, vocabulary expansion, and the formation of communication skills.

Keywords: Children's speech development, cartoon, language acquisition, communication, vocabulary, pedagogical approach, visual materials, preschool education, interactive media, semantic analysis

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, bolalar hayotida ommaviy axborot vositalari, xususan, multfilmlarning o‘rni keskin ortdi. Multfilmlar bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni turli obrazlar orqali tarbiyalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda til o‘rganish jarayonida muhim vosita sifatida foydalanilmoqda. Shu sababli, bugungi kunda bolalar

nutqining rivojlanishiga multfilmlarning qanday ta’sir ko‘rsatishi dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biriga aylangan.

Nutq inson tafakkuri va ongining mahsuli bo‘lib, u bolaning atrof-muhit bilan muloqotda bo‘lishi, fikrlarini ifoda etishi va o‘zaro tushunishni ta’minlashda muhim vosita sanaladi. Shunday ekan, bolalik davrida nutqni shakllantirish va rivojlantirish, ayniqsa, maktabgacha yoshda, bolaning kelgusidagi ta’lim olishi va jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishida muhim omildir. Ana shu jarayonda multfilmlar vositasida bolaning eshitish, tushunish, so‘zlarni yodda saqlash, yangi leksik birliklarni o‘zlashtirish va ularni nutqiy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi [1, 12].

Biroq multfilmlarning ta’siri har doim ham ijobiy emas. Ularning mazmuni, til sifati, obrazlar va ssenariyning bolaga mosligi ushbu omilning natijadorligini belgilaydi. Sifatsiz va pedagogik me’yorga mos kelmaydigan kontent bolalarda noto‘g‘ri nutq birliklarini shakllantirishi, til xatolari va tajovuzkor ifodalarni paydo qilishi mumkin [2, 21]. Shunday ekan, multfilmlarning bolalar nutqiga ta’sirini o‘rganishda nafaqat ularning mavjudligi, balki sifati, pedagogik yondashuvi va psixologik mosligiga e’tibor qaratish zarur.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, multfilmlar nafaqat bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish vositasi, balki bolalar nutqini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy va lingvistik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada multfilmlarning bolalar nutqiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi, ijobiy va salbiy jihatlari yoritiladi hamda bu jarayonda ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglarning tutgan o‘rni yoritiladi.

Multfilmlar orqali bolalar yangi so‘zlar, iboralar va til birliklarini eshitadi, ularni eslab qolishga va real muloqotda qo‘llashga harakat qiladi. A. Collins va G. Levy tomonidan olib borilgan tadqiqotda bolalarning muntazam ravishda o‘z yoshiga mos til kontentli multfilmlar ko‘rishi ularning semantik tarmog‘ini kengaytirishini ko‘rsatdi [3, 87]. Ayniqsa, 3-7 yosh oralig‘ida so‘z boyligini orttirish uchun multfilm – qulay va tabiiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yoshdagi bolalarda taqlid qilish kuchli bo‘lgani sababli, ular obrazlar orqali eshitgan so‘zlarni tezda o‘zlashtiradi va ularni o‘z nutqida qo‘llashga urinadi.

Misol uchun, “Dora the Explorer”, “Sesame Street”, “Masha va ayiq” kabi mashhur multfilm obrazlari bolalarda ifodali gapirish, qisqa savol-javoblarga tayyor bo‘lish, gap tuzish kabi ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Multfilmlar nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Masalan, bola multfilm qahramonlarining muloqot madaniyatini, navbat kutish, salomlashish, kechirim so‘rash kabi nutqiy etikani kuzatadi va o‘z hayotida ham shunday muloqot madaniyatini shakllantira boshlaydi. Bu esa uning

jamiyatda faol muloqotchi bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tarjima qilingan yoki original tilda berilgan multfilmlar orqali bola bir necha tilda oddiy iboralarni tushuna boshlaydi, bu esa lingvistik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi [4, 59].

Shu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlash joizki, ota-onalar va pedagoglar bolalarga tavsiya etilayotgan multfilmlarni tanlashda mas’uliyatli bo‘lishlari lozim. Chunki bolalar ko‘radigan mazmunli va til jihatdan to‘g‘ri tuzilgan multfilmlar ularning lug‘at boyligini oshiribgina qolmay, balki ularni to‘g‘ri muloqotga ham tayyorlaydi. Bu esa bola nutqining izchil va bosqichma-bosqich shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, YUNISEF tomonidan 2021-yilda 20 mamlakatda olib borilgan global tahlilga ko‘ra, yosh bolalar uchun eng foydali multfilm shakli — bu mavzulashtirilgan, qisqa, real tilga yaqin, savol-javobli tuzilgan multfilmlardir. Bu tahlilda “Did you know?” kabi qisqa savol shakllarining bolalar tomonidan 80% holatda eslab qolinishi, “What happens next?” kabi konstruksiyalar esa ular fikrlashini rag‘batlantirishi aniqlangan [5, 88].

Shunday qilib, quyidagi jihatlar multfilm tanlashda asosiy mezon bo‘lishi lozim:

1. Til sifati – grammatik jihatdan to‘g‘ri, og‘zaki tildan uzoqlashmagan.
2. Yoshga moslik – bola tili va tafakkuriga mos ravishda yaratilgan.
3. Axloqiy va tarbiyaviy yo‘nalish – ijobiy obrazlar, muomala madaniyati ko‘rsatilgan.
4. Pedagogik yondashuv – multfilm asosida suhbat, savol-javob, dramatizatsiya qilish mumkinligi.
5. Multimodal o‘rgatish imkoniyati – harakat, tovush, so‘z, kontekst uyg‘unligi.

Ota-onalar uchun maxsus mobil ilovalar (masalan, *PBS Kids*, *Lingokids*, *Multimundo*) orqali bolaning ko‘rgan multfilmiga doir test, viktorina, interaktiv topshiriqlar berilishi ham foydali. Chunki bola faqat ko‘ribgina qolmaydi, balki eshitgan va ko‘rganlarini amalda qo‘llaydi.

Pedagoglar uchun esa, dars davomida multfilmdan bir parcha ko‘rsatib, uning asosida savol-javob, fikr bildirish, xulosa chiqarish kabi topshiriqlar berish tavsiya etiladi. Bu uslub til o‘rgatishning kommunikativ yondashuviga mos keladi.

Multfilmlar mazmuni va shakliga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlarning har biri bolalar nutqining rivojlanishiga har xil darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ta’limiy multfilmlar bolalarning so‘z boyligini kengaytirish, gap tuzish malakasini oshirish hamda savol-javob shaklida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday multfilmlar ssenariysi odatda

sodda, tushunarli va takroriy shaklda quriladi, bu esa eshitish orqali o‘zlashtirishni osonlashtiradi. “Dora the Explorer” singari multfilmlarda har bir epizodda bolaga savol beriladi, u bilan dialog qilinadi, bu esa faol eshitish va fikrlashga undaydi [7, 214-bet].

Shuningdek, ko‘ngilochar xarakterdagi multfilmlar, masalan, “Tom va Jerri” yoki “Shrek” kabi, bolalarda kulguli sahnalar orqali hissiyotni boshqarish, vaziyatga mos reaktsiya bildirish va ssenariyni kuzatish orqali tushunish ko‘nikmasini oshiradi. Biroq bu turdagi multfilmlarda nutq namunalarining real hayotdan farq qilishi, ba’zan so‘zlarsiz voqea rivojlanishi til o‘rganishga unchalik foydali emas. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar bunday mahsulotlarni tanlashda ehtiyotkor bo‘lishi lozim.

Milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi multfilmlar esa bolalarga ona tilining boyligini, murakkab gap tuzilmalari, maqollar, matal va xalq og‘zaki ijodiy namunalarini eshitish orqali o‘rganishga yordam beradi. Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Afsonalar olami” singari milliy multfilmlar orqali bola o‘z tilini his qiladi, fonetik talaffuz va ma’naviy-axloqiy tushunchalarni ham qamrab oladi.

Pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan qaraganda, multfilmlar ta’lim jarayonining mustahkam vositasiga aylanishi mumkin. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘rish – suhbat – so‘z boyligini rivojlantirish ketma-ketligi asosida dars tashkil qilish ijobiy natija beradi.

Bundan tashqari, pedagogik faoliyatimda shuni kuzatdimki, bola o‘z ko‘rgan multfilmidagi iboralarni nutqida ishlatishga urinadi. Bu holat, agar ota-ona va tarbiyachilar tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, nutqiy rivojlanishga xizmat qiladi. Aks holda, bola noto‘g‘ri talaffuz, begona til strukturasi, tajribasiz ifodalarni o‘zlashtirib, o‘z ona tilidan uzoqlashishi mumkin. Shu bois, har bir multfilmning pedagogik va lingvistik salohiyatiga e’tibor qaratilishi zarur.

Mening fikrimcha, multfilmni bola nutqiga foydali vosita sifatida baholash uchun quyidagilar muhim:

1. Multfilm mazmunining yoshga mosligi;
2. Undagi til boyligi va talaffuzning to‘g‘riligiga e’tibor berish;
3. Milliy mentalitetga zid bo‘lmagan tarbiyaviy g‘oyalar;
4. Bola bilan birga ko‘rib, mazmunini muhokama qilish, interaktiv suhbatlar orqali so‘zlashuvga jalb etish.

Shu fikrlarni inobatga olib aytish mumkinki, multfilmlar nafaqat ko‘ngilochar, balki ta’limiy vosita sifatida ham salohiyatga ega. Biroq bu salohiyatni to‘laqonli amalga oshirish uchun ota-ona, pedagog va media mahsulot yaratuvchilarning hamkorligi zarur.

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar va tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, bolalar nutqining rivojlanishida multfilmlar kuchli ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bu ta’sir har doim ham ijobiy bo‘lmasligi mumkin. Multfilmlar bolaning til o‘zlashtirish, so‘z boyligini kengaytirish, eshitish orqali tushunish, va gap tuzish qobiliyatlarini rivojlantiradi, agar u pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan bo‘lsa.

Bundan tashqari, bolalar uchun tanlangan multfilmlarning til sifati, so‘zlar talaffuzi, mantiqiy bayoni, va axloqiy tarkibi muhim omil hisoblanadi. Interaktiv, savollarga asoslangan, real hayotga yaqin va moderatsiyalangan multfilmlar bolaning faol fikrlashi va muloqotga kirishish qobiliyatini oshiradi. Aksincha, passiv tomosha qilinadigan, haddan ziyod dinamik yoki axborotga boy, lekin kontekstsiz multfilmlar bolaning nutqini susaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar yoki tarbiyachilarning multfilmni bolaga tushuntirib berish, uning haqidagi fikrlarini so‘rash, qahramonlar haqida suhbatlashish orqali faol ishtirok etishi bolaning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Bu yondashuv kognitiv rivojlanish uchun ham, ijtimoiy-emotsional tarbiya uchun ham muhim.

Tavsiyalar

1. Multfilm tanlashda til o‘rgatish vazifasini bajaruvchi, axloqiy tarkibga ega va real hayotga yaqin voqealarni o‘z ichiga olgan interaktiv turlarga ustunlik berish lozim.
2. Ota-onalar va tarbiyachilar multfilm tomosha qilish jarayonida bolalar bilan faol muloqot qilish, ko‘rilgan multfilm haqida savollar berish, voqealarni muhokama qilish, va nutqiy faoliyatga jalb qilish orqali ta’sirni oshirishi zarur.
3. Multfilm tomosha qilish vaqti haftasiga 5–7 soat oralig‘ida bo‘lishi tavsiya etiladi. Buning ortiqligi passiv tomosha qilishga va nutqiy faoliyatning kamayishiga olib kelishi mumkin.
4. Mahalliy va xorijiy pedagoglar ishtirokida bolalar uchun mo‘ljallangan multfilmlarni yaratishda nutq rivojiga xizmat qiluvchi maxsus ssenariylar asosida ishlab chiqish zarur.
5. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multfilm asosida olib boriladigan darslar uchun metodik qo‘llanmalar va tilni rivojlantiruvchi topshiriqlar to‘plami ishlab chiqilishi kerak.
6. Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslariga audiovizual vositalar yordamida nutq rivojlantirish moduli kiritilishi tavsiya qilinadi.

7. Har bir hudud sharoitidan kelib chiqib, lingvistik va madaniy mos multfilm kontentini yaratish mahalliy bolalarning tili va muloqotini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berk, L. E. Development Through the Lifespan. – 6th ed. – Boston: Pearson Education, 2013. – 648 p.
2. Anderson, D. R., & Hanson, K. G. From attention to comprehension: How children watch and learn from television // In D.G. Singer & J.L. Singer (Eds.), Handbook of Children and the Media. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. – P. 15–37.
3. Fisch, S. M. Children's learning from educational television: Sesame Street and beyond. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2004. – 254 p.
4. Vanderwater, J., & Wartella, E. Children and Electronic Media // *The Future of Children*. – Princeton University, 2008. – Vol. 18, no. 1. – P. 39–61.
5. Abdurahmonova, Z. A. Ota-onalarning media tanlovdagi roli // *Oila va tarbiya*. – 2022. – №1. – B. 52–56.
6. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
7. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
9. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
10. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
11. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
12. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

13.Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING PRAGMATIK USULLARI

Parpiyev Odil Olimovich,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirishda pragmatik yondashuvning ahamiyati yoritilib, o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali usullarni aniqlash, ularni amaliyotda sinab ko‘rish va o‘quv jarayoniga tatbiq etishasosida umumiy fikrlar keltirilgan. Tadqiqotda pragmatik yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning fikrini izchil bayon qilish, grammatik me’yorlarga amal qilish, matn tuzish kabi ko‘nikmalari shakllanib borishi tadqiqot metodlari asosida isbotlangan. Amaliy tajriba natijalari o‘quvchilarning yozma nutqi bosqichma-bosqich rivojlanishini, ularning ijodiy fikrlashi faollashganini ko‘rsatgan.

Maqolada pragmatik yondashuv asosida mashqlarni takomillashtirish, AKT resurslari va interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi tajriba-sinov asosida o‘rganilgan va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. O‘quvchilarda grammatik to‘g‘rilik, so‘z boyligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha yangi metodik echimlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, yozma nutqni rivojlantirish, pragmatik yondashuv, interfaol metodlar, AKT resurslari, so‘z boyligi, ijodiy tafakkur, ona tili darsliklari, ta’kidiy diktant.

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается важность прагматического подхода в формировании и развитии письменной речи учащихся начальной школы, излагаются общие положения по выявлению эффективных методов развития письменной речи учащихся, апробации их на практике и внедрению в учебный процесс. Исследование доказало, основываясь на исследовательских методах, что посредством заданий, разработанных на основе

прагматического подхода, учащиеся развивают такие навыки, как связное выражение мыслей, соблюдение грамматических норм и составление текста. Результаты практического эксперимента показали, что письменная речь студентов постепенно развивалась, активизировалось творческое мышление.

В статье на экспериментальной основе изучается эффективность оздоровительных упражнений на основе прагматического подхода с использованием ИКТ-ресурсов и интерактивных методов, разрабатываются научно-практические рекомендации. Представлены новые методические решения для развития грамматической точности, словарного запаса и навыков самостоятельного мышления учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, развитие письменной речи, прагматический подход, интерактивные методы, ИКТ-ресурсы, словарный запас, творческое мышление, учебники родного языка, эмфатический диктант.

ABSTRACT

This article highlights the importance of a pragmatic approach in the formation and development of written speech of primary school students, and presents general ideas on the basis of identifying effective methods that serve to develop students' written speech, testing them in practice, and applying them to the educational process. The study has proven, based on research methods, that through tasks based on a pragmatic approach, students' skills such as coherent expression of thought, adherence to grammatical norms, and text composition are formed. The results of practical experience have shown that students' written speech gradually develops, and their creative thinking is activated.

The article has studied the effectiveness of improving exercises based on a pragmatic approach, using ICT resources and interactive methods on the basis of experimental testing, and developed scientific and practical recommendations. New methodological solutions are presented for developing grammatical correctness, vocabulary, and independent thinking skills in students.

Keywords: primary education, development of written speech, pragmatic approach, interactive methods, ICT resources, vocabulary, creative thinking, native language textbooks, emphatic dictation.

Respublikamizda ta’limga, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim islohotiga alohida e’tibor berilishi global fikr yurita oladigan inson tarbiyasida dolzarbdir. Chunki bolalarni XXI asr hayotiy ko‘nikmalariga tayyorlash yangi avlod darsliklari bilan o‘qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi” [1, 2],–deb ta’kidlaganlarida “Uchinchi Renessans poydevori”ni ta’lim islohotlarida ko‘rdi. Farzandlarimizni bugungi kunda mustaqil fikrli, ijodiy fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallaydigan, o‘zining mustahkam hayotiy mavqeiga ega bo‘ladigan, chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash biz pedagoglar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kundagi har bir pedagog dars samaradorligini oshirishi uchun tinimsiz ishlashi va o‘quvchilarda duch kelayotgan muammolarni hal qilishi muhim masaladir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida asosiy bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun muhim poydevor hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilarning yozma nutqni rivojlantirish jarayoni ta’lim samaradorligini oshirishda asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq o‘quvchilarning o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy bayon qilish, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik kitoblarda berilgan ilmiy ma’lumotlarga qaraganda, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so‘zni bilishlari lozim.[2, 50]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni shakllantirish o‘quv jarayonining barcha fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, ona tili darslari bu borada asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilar yozma nutqni rivojlantirish jarayonida grammatika qoidalarini o‘zlashtirish, so‘z boyligini oshirish va mantiqiy izchillikni ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo, o‘quv materiallarining mazmuni va ulardan foydalanishning metodik jihatlariga bog‘liqdir.

Ona tili darsliklari o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar va topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu darsliklardagi mashqlarni puxta tahlil qilish va ularni pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish orqali ta’lim jarayonining sifatini oshirish mumkin. Pragmatik yondashuv – o‘quvchining hayotiy tajribasi va kundalik faoliyatida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullarni nazarda tutadi. Bu yondashuv nafaqat yozma nutqni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini va ijodkorligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yozma nutq – o‘quvchining fikrini mustaqil, mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifoda eta olish ko‘nikmasi sifatida ta’limda muhim mezonlardan biridir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan pragmatik yondashuvlar zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishiga aylangan. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning kundalik hayotiy faoliyatidan kelib chiqib, ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijodkorlik va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Bu jarayonda o‘quvchilarning fikrlarini yozma ravishda aniq va to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ma’lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o‘rni va roli qadimdan ko‘pchilikni qiziqtirib kelgan. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida nutqni ma’naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. M.R. Lvov tomonidan taqdim etilgan nutq faoliyatining to‘rtta asosiy turlaridan biri ham yozma nutq ekanligi ayni haqiqat.

Ingliz olimi Mishel Keysi o‘zining “9 Strategies for Improving Writing Skills in Primary School” nomli maqolasida qo‘l yozuvi ya’ni husnixat xususida ham fikrlar keltirib o‘tgan: “Husnixat yozuvi o‘quvchilarning mukammal rivojlanishi uchun muhim jarayondir. Husnixatda yoza olmaslik ta’lim olish jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkun. Agar o‘quvchi yozishni mashaqqatli jarayon deb qarasa, bu unda yozishga bo‘lgan qiziqishlarini kamaytiradi. Ushbu qiziqishning etishmasligi yozish jarayonida ortda qolishga olib kelishi mumkun, bu esa yozuv jarayoni qiyinchiligini yanada qiyinlashtiradi. Agar o‘quvchilar qulay, tushunarli, husnixatda va yaxshi tezlikda yoza olsa ta’lim jarayoni uchun qulay sharoit yarata oladi”. [3,3]

K.K.Abdulrahmanning “Teaching and Learning Writing Skills through Literature” nomli maqolasida adabiy asarlar orqali yozma nutqni o‘rgatishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Adabiyotdan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.[4, 5] Bu esa matn yozish ko‘nikmasida muhim ahamiyat kasb etadi.

A.A.Rusinovaning “Методика работы с прагматическими текстами на уроках английского языка” nomli maqolasida ingliz tili darslarida pragmatik matnlar bilan ishlash metodikasi ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda pragmatik yondashuvlarning ahamiyati ta’kidlangan. [5,1]

B.T.Toshmurodovaning tadqiqotlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalanish tavsiya etiladi.[6, 149] Haqiqatdan ham, bu usullar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda asar mazmuni va g‘oyasini chuqurroq anglashlariga yordam beradi, imlo bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etadi.

Tadqiqotchi Z. Abdug‘aniyeva quyidagi fikrlarni bildirgan: “Yozma nutqni o‘stirish tushunchasi, ona tili darslarida nutq o‘stirishning shakl va vositalari hamda noan’anaviy usullardan foydalanish masalalaridan biri tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. [7, 50] Boshlang‘ich sinflarda diktant, insho hamda bayonlar yozish soatlaridan keyingi jarayonlar xatolar ustida ishlash bosqichidir. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tekshirib baholangan yozma ishdagi xatolarini anglaydi hamda ularni bartaraf etadi. O‘quvchining xatolar ustida ishlash jarayoni yozma nutqni rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqotchi O. Parpiyevning “Boshlang‘ich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish” nomli maqolasida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy savodxonlikni rivojlantirish yo‘llari va usullari ko‘rib chiqilib, nutq aspektlari keltirilgan. Muallif o‘quvchilarning nutqiy savodxonlik darajasini aniqlash va rivojlantirish bo‘yicha fikrlar bildiradi. Bular:

1.Adabiy til normalarini o‘zlashtirish.

2.Jamiyatimizning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish.

3.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:

1) so‘z ustida ishlash;

2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash;

3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash. So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib, leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. [8,645]

K.Nazarovaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish” nomli maqolasida nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalashning zamonaviy usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Muallif interfaol texnologiyalar va o‘quv jarayonini faol joriy etishning ahamiyatini

ta’kidlaydi.[9, 242] Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalashning hozirgi holati bo‘yicha tahliliy xulosa bir nechta muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim dasturlarida nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun texnologiyadan faol foydalanishni tavsiya etadi. Interfaol ilovalar, onlayn resurslar va dasturlar bolalarga o‘yin orqali bilim olishga yordam beradi, bu esa o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi va o‘quv jarayonini faollashtiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishdagi pragmatik usullardan biri o‘quvchilarning yoshlariga mos bo‘lgan badiiy asarlardan o‘qitish hisoblanadi. Asarni o‘qigandan so‘ng uni tahlil qilish masalasi ham muhim jarayonlardandir.

Tadqiqotchi Atamurotova Qunduzoy Abdug‘aniyevna “Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” [10, 394] maqolasida boshlang‘ich sinflarda asarlarni tahlil qilish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ulardan foydalanish usullari, shartlari hamda yutuqli taraflari, xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumot bergan. Endilikda o‘qituvchining talanti va mahorati emas, balki ta’lim mazmunining strukturasi hamda pedagogik muhit va sharoitning uyg‘unlashishi asosida o‘qitishning samaradorligini ta’minlashga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Analiz-sintez metodi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqida uchraydigan kamchiliklarni topish va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqildi. Buning uchun mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va darsliklar tahlil qilindi, ilg‘or pedagogik yondashuvlar, pragmatik usullar va metodlar o‘rganildi. Ushbu tahlildan asosiy maqsad bugungi kundagi ona tili darsliklaridagi yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradigan pragmatik mashq turlarini ajratib olish hisoblandi.

Natijada shu narsa aniqlandiki, 2-sinf darsligida qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llashga oid topshiriqlar soni 2-sinf darsligida 32 ta (1qismda 15 ta, II qismda 3 ta, III qismda 8 ta, IV qismda 6 ta), 3-sinf darsligida 100 ta (1qismda 14 ta, II qismda 29 ta, III qismda 28 ta, IV qismda 29 ta) bo‘lib, ulardan 20 tasi pragmatik topshiriqlar hisoblanadi.

Paronimlarga oid bo‘lgan topshiriqlar soni 2-sinf darsligida 10 ta (1qismda 6ta), 3-sinf darsligida 1 ta (IV qismda 1 ta), 4-sinf darsligida 4 ta (I qism 4 ta) bo‘lib, ulardan 2 tasi pragmatik topshiriqlar ekanligi aniqlandi.

Bo‘g‘in ko‘chirish va tinish belgilarni qo‘llashga oid bo‘lgan topshiriqlar esa 2-sinf darsligida 6 ta (I qismda 6ta), 3-sinf darsligida 1 ta (IV qismda 1 ta), 4-sinf darsligida 3 ta (I qism 3 ta) bo‘lib, ulardan 5 tasi pragmatik topshiriqlar ekanligi aniqlandi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan i**nklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi**da o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik pedagogik respublika tashxis markazi tarkibida tashkil etilgan. Shu bilan birgalikda, **inklyuziv sinflar tashkil etish**da 2021–2022-o‘quv yilidan boshlab 31 ta umumta’lim maktablarida 46 ta inklyuziv sinf tashkil etilib, 87 nafar bolalar ta’limga jalb etilgan. 2022–2023-o‘quv yilida esa inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablari soni 195 taga etib, 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga qamrab olingan. **O‘qituvchilarni malakasini oshirish**da inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarga 2021/22-o‘quv yilida 51 nafar, 2022–2023-o‘quv yilida esa 248 nafar pedagoglar biriktirilgan.[58]

[58] https://www.uzedu.uz/uz/news/1271?utm_source=chatgpt.com

Turli jurnaldagi maqolalar o‘rganilganda, Yo‘ldasheva Marg‘iyonaning “O‘zbekistonda Inklyuziv ta’limning rivojlanishi” nomli maqolasida inklyuziv talimning O‘zbekistondagi rivojlanishi va huquqiy – me’yoriy asoslari, ushbu sohada maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar va inklyuziv ta’limning O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi va istiqbollari xususida so‘z yuritiladi. [59] Yo‘ldasheva Marg‘iyona o‘zining “Ozbekistonda inklyuviv ta’limning rivojlanishi va istiqbollari” maqolasida maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarimiz inklyuziv ta’limga qanday tayyorlanayotganligi kabi jihatlarga katta e’tibor qaratgan bo‘lsa, Ochilov Obid “O‘zbekistonda Inklyuziv me’yoriy huquqiy bazasini tashkil qilish” nomli maqolasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish muammosini ko‘tarib chiqdi.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda UNICEF va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi inklyuziv ta’lim bo‘yicha yangi yo‘riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o‘tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. **Infratuzilma yaratish**da UNICEFning maktab binolarini universal loyihalash bo‘yicha yo‘riqnomasiga asoslanib, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalash, shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatladi.

Inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayni sohada bir qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo‘ljallangan O‘zbekistonda sa’y-harakatlar uchun huquqiy asos bo‘ldi. Mazkur qaror bilan, 2020-2025 yillar uchun xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayni sohada bir qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

[59] file:///C:/Users/zeralieva/Downloads/873-875.pdf

Shunga muvofiq, Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogironligi bo‘lgan yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo‘lgan miqdorda subsidiya ajratish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyundagi 341-sonli qarori qabul qilingan. Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish lozimki, 2023 yilda 14-30 yoshdagi nogironligi bo‘lgan yoshlar soni 121 ming 9 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 68 ming 723 nafari erkaklar, 52 ming 268 nafari ayollar; shuningdek, 11 ming 569 nafarida I guruh, 69 ming 724 nafarida II guruh, 3 ming 655 nafarida III guruh nogironligi mavjud va 36 ming 43 nafari nogironligi bo‘lgan bolalardir.

Inkulyuziya – barcha bolalar bilan birga bir xil sharoitda kerakli yordam va ko‘makdan bahramand bo‘lib bilim oladi,barcha bolalar dasturning barcha yo‘nalishlarida teng sharoitda ishtirok etadi. Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni nogiron tamg‘asi ostida ijtimoiy muhitdan alohidalab qo‘yish, ularni ijtimoiy hayotga moslashishlarini imkoniyatlaridan foydalanishlarini chegaralab qo‘yadi. Joylarda ko‘pchilik alohida yordamga muhtoj bolalar butunlay ta‘lim tizimidan chetlanib qolishmoqda. Inklyuziv ta‘limga jalb etish global muammolardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta‘limning asosiy qismi - bolalarga bilim olish uchun do‘stona munosabat va o‘qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotga ilk yoshdan ya‘ni 6 yoshgacha e‘tibor berilsa, ancha yuqori samaralarga erishish mumkin. Inklyuziv ta’lim majburiy emas nogiron bolalar, lekin shu bilan birga, ta’lim inklyuziyasi sharoitida o‘qitish nogiron bolaga maksimal darajada yordam beradi. BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi”gi Konvensiyasi hamma bolalarni, shu qatori maxsus ehtiyojli bolalar huquqlarini ham himoya qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi. Aynan 2, 23, 28, 29 - moddalarda maxsus ehtiyojli bolalari huquqlari belgilangan. 2020-2025-yillarda xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limi rivojlantirish konsepsiyasi alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta‘lim tizimini tashkil etish,ularning ta‘lim olish huquqini kafolatlash va ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Bugungi kunda alohida ta‘limga muhtoj bulgan jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolalar uchun jami Respublika miqiyosida 86ta ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud. 2014-2016-yillarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim” loyixasi amalga oshirildi. Inklyuziv ta‘lim tizimini joriy qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2023-2025-yillar davomida inklyuziv ta‘lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta‘lim tizimlari yo‘lga qo‘yildi.

Inklyuziv ta‘limga maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni kiritishda bir qator jahon miqyosida e‘tirof etilgan, amal qilinadigan va amal qilinishi lozim bo‘lgan tamoyillariga tayaniladi. Imkoniyatdan keng foydalanish, jamiyat hayotida qatnashishi huquqi, inklyuziv ta‘lim jarayonida nogiron bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ta‘limning sifat va samaradorligi, hamkorlikda ishlash, inklyuziv ta‘limni joriy qilishda jahon tajribasini o‘rganish tamoyili va boshqalar, ta‘lim muassasalarida inklyiziv talimni tashkil qilish, tibbiy va ijtimoiy yordamlar ko‘rsatuvchi xodimlar yordamida inkulyiziv ta‘limga muhtoj bolalarni izlab topish, boshlang‘ich sinflarda bolalarni ehtiyojlarini inobatga olgan holda darsliklar va dasturlarni moslashtirish, inkulyiziv ta‘lim uchun tanlangan joy bolalardagi muammolarga moslashtirilgan tarzda shakllantirilishi kerak. O‘zlashtirishida qiyinchiliklari bor bo‘lgan bolalar bilan alohida yani individual shug‘ullanish lozim. Inklyuziv ta‘limda ota-onalar har doim jalb etilishi, maxsus yordamga muxtoj bolalar uchun extiyojlariga mos holda mutaxasis tomonidan dasturlar ishlab chiqilishi, inklyuziv ta‘limda ta‘lim oluvchilar uchun psixalogik - pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini olib boorish, alohida yordamga muxtoj bolalar uchun ta‘lim muassasalarida zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar uskuna va jihozlar bilan ta‘minlash, inklyuziv ta‘limni bolaning iloji boricha yoshligidan boshlash yaxshi samara beradi, ko‘rishida nuqsoni bor bo‘lgan bolalar uchun xona iloji boricha yaxshi yoritilgan bo‘lishi lozim. Inklyuziv ta‘limda pedagog va uning vazifalari: alohida yordamga muxtoj bolalarning qaysi darajada yordamga muxtojligini aniqlash, o‘quvchilarning nuqsonlarni aniqlagan holda korreksiya ishlarini o‘tqazish, o‘quvchilarni ehtiyojlariga mos holda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning har biri bilan alohida individual shug‘ullanish va ularni o‘qitish, baholash, sinf o‘qutuvchisi va psixolog birga ish olib borish va individual resurslarni ishlab chiqish, maxsus yordamga muxtoj bolalarning ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib borish. Inklyuziv ta‘lim jarayoni o‘ziga xos murakkab qiyinchiliklarga ega bo‘lib, shu soxada ishlaydigan mutaxasislar, o‘qituvchilar,psixologlar zimmasiga katta vazifa yuklaydi. Bunday ta‘limda tayyorgarlikdan yaxshi o‘tgan va malakali o‘qituvchilarni talab qiladi. Darslarni olib boruvchi o‘qituvchilar maxsus xulq -atvor, tekshiruv va baholash, guruh ishlari, dasturga moslashish,individual o‘qitish metodlari, o‘qitish qo‘llanmalari va ulardan foydalanishga ham diqqatni qaratishlari lozim.

O‘zbekiston hukumati 2025-yildan boshlab har bir tuman va shaharda inklyuziv ta’lim talablariga javob beradigan kamida bitta umumta’lim maktabini tashkil etishni rejalashtirmoqda. Qo‘qon shahrida ham inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilmoqda. 2023-yil sentyabr holatiga kelib, Qo‘qon shahridagi 417 ta maktabda inklyuziv sinflar tashkil etildi va 734 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Bu chora-

ta’lim tizimida barcha bolalarga, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ham teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi va istiqbollari mavzusi bo‘yicha turli tadqiqotlar o‘tkazdik. Mazkur tadqiqotda quyidagi uslublardan foydalanildi:

1. *Empirik tahlil* – 2020–2024 yillardagi ta’lim sohasida inklyuzivlikka oid statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Empirik tahlil -bu ilmiy tadqiqotlarda amaliy faoliyatga asoslangan, ya'ni real voqelikni bevosita o‘rganish orqali bilim olish usulidir. U o‘z ichiga kuzatish, eksperiment, o‘lchash va taqqoslash kabi metodlarni oladi. Empirik tahlilning asosiy maqsadi - nazariy gipotezalarni real sharoitda tekshirish va tasdiqlashdir. Empirik tahlilning asosiy bosqichlari mavjud. Bular: ma’lumotni to‘plash, ma’lumotni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

2. *Suhbat usuli* – maxsus maktablar, umumta’lim muassasalari va ota-onalar bilan o‘tkazilgan suhbatlardan foydalanildi. Suhbat usuli - bu ilmiy tadqiqotlarda ma'lumot to‘plashning eng samarali metodlaridan biri hisoblanadi. U odatda psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda keng qo‘llaniladi. Suhbat usuli savol-javob shaklida bo‘lib, suhbatdoshning fikrlarini, munosabatlarini va hissiyotlarini aniqlashga qaratilgan. Suhbat usuli ilmiy tadqiqotlarda, ayniqsa, inson psixikasi, ta’lim jarayonlari yoki ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi.

Qo‘qon shahridagi 5- sonli maktab-internatga tashrif buyurib, u erdagi inklyuziv sinflar bilan mashg‘ulotlar olib bordik. Bu mashg‘ulotlar jarayonida empirik tahlil va suhbat usuli metodlaridan keng foydalandik. Ta’lim jarayonida musiqa va jismoniy tarbiya fanlari alohida o‘rin tutadi. Maktab-internatda surdolog-o‘qituvchilar va tarbiyachilar yordamida bolalar qo‘shiqlarni xatti-harakatlari orqali ifodalashadi va raqslar bilan quvonchga to‘ladilar. Bu maktab-internat 1992-yilda tashkil etilgan davlat mulkidagi umumta’lim muassasasi hisoblanadi. Ushbu maktabda 240 nafar o‘quvchi yashab, ta’lim oladi. Ba’zi bolalar yakshanba va ta’til kunlarini oilalarida o‘tkazishadi.



Quyidagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, eksperiment metodida ma’lumotlarni tahlil qilish 2,7, ma’lumotni to‘plash 4,9 natijani, o‘lchash metodida ma’lumotlarni tahlil qilish 1,8 natijani ,ma’lumotni to‘plash 3,8 natijani, eksperiment metodida ma’lumotni tahlil qilish 4,7 ,ma’lumotni to‘plash 2,9 natijani, kuzatish metodida ma’lumotni tahlil qilish 2,8 , ma’lumotni to‘plash 2,7 natijani ko‘rsatyabdi.

2021-yilda O‘zbekiston Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish” to‘g‘risidagi qarori asosida inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha huquqiy asoslar mustahkamlandi. 2023-yilga kelib 200 dan ortiq umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim elementlari joriy etilgan. Hozirgi vaqtda hamon muhim muammolar mavjud: maxsus pedagogik kadrlar etishmasligi, infratuzilma (panduslar, maxsus texnika) cheklanganligi va jamiyatda inklyuzivlikka nisbatan stereotiplar mavjudligi.

Inklyuziv ta’limning rivojlanishi nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy birligi va tenglik prinsiplarini mustahkamlaydi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlash zarur:

Maxsus ta’lim muassasalari bilan integratsiyalashgan tizimni yaratish;

Pedagoglarni maxsus ta’lim metodikasi bo‘yicha muntazam tayyorlab borish;

Ota-onalar va jamiyatda inklyuziv ta’limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;

Infratuzilmani xalqaro standartlarga moslashtirish.

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlanayotganini ko‘rsatmoqda. Tahlillar shuni anglatadiki, davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun va “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” inklyuziv yondashuvni institutsional darajada mustahkamlab bermoqda. Shu bilan birga, tizimga amalda tatbiq etishda hali bir qator muammolar mavjud.

Respondentlar bilan olib borilgan suhbatlar va tajribali pedagoglar fikriga ko‘ra, inklyuziv ta’lim muassasalarida zarur texnik vositalarning etishmasligi, maxsus metodikalarning to‘liq ishlab chiqilmagani, hamda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi etarli darajada emasligi aniqlangan. Bu esa inklyuziv ta’limning sifatli amalga oshirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida inklyuziv ta’limga oid imkoniyatlar o‘rtasida katta tafovutlar mavjud.

Biroq, mavjud holat inklyuziv ta’limni takomillashtirish uchun katta imkoniyatlarni ham namoyon etadi. Jumladan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan pilot loyihalar, pedagoglar malakasini oshirish dasturlari va ijtimoiy ongni o‘zgartirishga qaratilgan targ‘ibot ishlari ijobiy siljishlarga xizmat qilmoqda.

Inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu - nafaqat ta’lim tizimini isloh qilish, balki sog‘liqni saqlash, transport, ijtimoiy xizmatlar kabi boshqa sohalar bilan integratsiyalashgan holda ish olib borishni ham talab etadi. Eng muhimi, jamiyatda nogironlikka bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirish, empatiya va bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish inklyuziv yondashuvning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim sohasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, ammo bu boradagi istiqbollarni ro‘yobga chiqarish uchun tizimli va ko‘p bosqichli yondashuv zarur. Mamlakatimizda inklyuziv ta'lim sohasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy tenglik, adolat va har bir bolaga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan muhim qadamlardir. Davlat siyosatida nogironligi bo‘lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta’lim tizimiga to‘laqonli integratsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlari, pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, hamda oilalar bilan hamkorlik qilish mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Kelgusida inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun hududlarda infrastrukturani kengaytirish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, zamonaviy o‘quv-uslubiy vositalarni joriy etish va jamoatchilik ongini o‘zgartirish bo‘yicha

kompleks yondashuv zarur. Inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim tizimi sifatini oshiradi, balki jamiyatda tolerantlik, bag‘rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 13.10.2020 yil, PQ-4860-son
2. F.U.Qodirova, D. Tangirova “ Inklyuziv ta’lim” Qo‘qon-2023”
3. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNINGO‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505
4. Sadriddinova, Z. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QISH SAVODXONLIGI TA’LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA O ‘LCHOVLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 211-214.
5. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna. (2024). IN MTT’S PREPARATORY GROUPS FOR SCHOOL, CHILDREN ARE TAUGHT TO THINK LOGICALLY AND TO FIND SOLUTIONS IN CONTROVERSIAL SITUATIONS AND ARTISTIC SPEECH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 2(6), 34–38. Retrieved from https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3412
6. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Djo‘rayeva Dildoraxon Rahmonaliyevna. (2023). BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 184–186. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866
7. X.N. Muzaffarova, D.Tangirova “Inklyuziv talim”. Library.samdukf.uz.
8. Kalendarova Zarafshan Kalbaevna, & Raximova Komila. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BILISH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. *University Research Base*, 274–277. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/89
9. Kalendarova, Z. K. (2018). Organizing Work on Developing Mathematical Representations of Children with Help of Didactic Games. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
10. Z.K. Kalendarova. (2025). DEVELOPING STUDENTS’ THINKING ABILITY THROUGH THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(04), 125–129. Retrieved from https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/2859

INGLIZ TILIDA KONNOTATSIYALI BIRLIKLARNI O‘RGATISHNING MUAMMOLARI VA SAMARALI YONDASHUVLAR

Mirzaabdullayeva Mahliyoxon Xosiljon qizi,
Andijon davlat texnika instituti
Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
E-mail: mirzaabdullayeva1991@mail.ru Tel:+998914828729

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi konnotatsiyali birliklarni o‘rgatishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlar yoritilgan. Konnotatsiyaning madaniy va semantik jihatdan murakkabligi, uning til o‘rganishdagi o‘rni, shuningdek, didaktik usullar orqali talabalarning konnotativ so‘z boyligini shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: konnotatsiya, ingliz tili, frazeologizm, til o‘qitish metodikasi, madaniy tafovut, semantik tahlil.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели при обучении коннотативным единицам в английском языке, а также эффективные методические подходы к их преодолению. Анализируется культурная и семантическая сложность коннотации, её роль в обучении языку, а также вопросы формирования коннотативного словарного запаса студентов с использованием дидактических методов.

Ключевые слова: коннотация, английский язык, фразеологизм, методика преподавания, культурные различия, семантический анализ.

Abstract

This article addresses the main challenges encountered in teaching connotative units in English and explores effective methodological approaches to overcoming these issues. The cultural and semantic complexity of connotation, its role in language learning, as well as the issues related to developing students' connotative vocabulary through didactic methods, are analyzed.
Keywords: connotation, English language, phraseology, language teaching methodology, cultural differences, semantic analysis.

Zamonaviy chet tilini o‘qitish tizimi nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmasini ham rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ingliz tilidagi konnotatsiyaviy birliklarni chuqur o‘rgatish til o‘rganuvchining emotsional va semantik idrokini shakllantiradi. Konnotatsiya – bu so‘zning yashirin, ijtimoiy-baholovchi yoki madaniy ma’nosini ifodalovchi ikkilamchi semantik qatlamdir [1:14].

Ingliz tilidagi konnotatsiyaviy birliklarning ko‘p qismi frazeologik birikmalar, idiomalar, metaforalar, sarkazm va ijtimoiy baholovchi so‘zlar shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, “a couch potato” iborasi dangasa, televizor qarshisidan qimirlamaydigan odamni bildiradi. Bu ibora denotativ emas, balki kuchli konnotativ ifodadir [2:37].

Birinchidan, bu birliklarning **madaniy konteksti** til o‘rganayotgan talabalar uchun notanish bo‘lishi mumkin. Masalan, “white elephant” iborasi diniy-historik asosga ega bo‘lib, uni tushunish uchun janubi-sharqiy Osiyo madaniyati haqida tasavvur kerak bo‘ladi [3:115].

Ikkinchidan, **kontekstga bog‘liqlik**. So‘zning konnotativ ma’nosi uning ishlatilgan vaziyatiga qarab o‘zgaradi. Masalan, “He’s ambitious” iborasi ijobiy baho bo‘lishi mumkin, lekin ba’zida salbiy – “oshqozonli, haddan ortiq martabaparast” ma’nosini bildiradi [4:22].

Uchinchidan, **lug‘aviy tarjima bilan cheklanish** konnotatsiyani tushunishga halaqit beradi. O‘quvchilar asosan lug‘atdagi denotativ ma’noga tayanib, konnotatsiyani e’tibordan chetda qoldiradilar [5:98].

Samarali yondashuvlar:

1. **Kontekstual tahlil asosida o‘rgatish** – matnlardagi konnotatsiyaviy birliklarni muhokama qilish. Bu usul orqali talaba konnotatsiyani real nutq vaziyatlarida anglaydi [6:55].
2. **Taqqoslama o‘rgatish** – o‘zbek va ingliz tilidagi konnotatsiyali iboralarni taqqoslash. Masalan, “cold-hearted” – “yuragi tosh” kabi iboralar orqali semantik parallellik o‘rnatiladi [7:41].
3. **Vizual materiallar** – kinolar, videoroliklar, reklama lavhalaridan foydalanish orqali talabalar sarkazm va baholovchi ma’nolarni intuitiv tushuna boshlaydi [8:29].
4. **Rol o‘ynash** (Role-play) – real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalar konnotativ birliklarni nutqda qo‘llashni o‘rganadi [9:63].
5. **Semantik tarmoqlar tuzish** – bitta so‘z asosida uning denotatsiyasi, konnotatsiyasi, sinonimi va antonimlari, shuningdek madaniy bog‘liqliklarini xarita shaklida tuzish. Bu usul talabaning semantik idrokini kuchaytiradi [10:88].

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida konnotatsiyaviy birliklarni o‘rgatish bu faqat leksikani tushuntirish emas, balki o‘quvchining madaniy dunyoqarashini kengaytirish, semantik idrokini boyitish va real kommunikatsiya malakasini shakllantirish demakdir. O‘qituvchilar bu borada zamonaviy metodik usullarni keng qo‘llab, o‘quvchilarga konnotatsiyaviy qatlamlarni tushunishga va uni to‘g‘ri qo‘llashga yordam berishlari lozim. Bu esa nafaqat lingvistik, balki madaniy savodxonlikni ham oshiradi [11:19].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* Cambridge University Press, 2019.

2. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By.* University of Chicago Press, 2003.

3. Allan, K., & Burridge, K. *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language.* Cambridge University Press, 2006.

4. Leech, G. *Semantics: The Study of Meaning.* Penguin Books, 1981.

5. Nida, E.A. *Language Structure and Translation.* Stanford University Press, 1975.

6. Thornbury, S. *How to Teach Vocabulary.* Longman, 2002.

7. Wierzbicka, A. *Understanding Cultures through Their Key Words.* Oxford University Press, 1997.

8. McCarthy, M., & O‘Dell, F. *English Idioms in Use.* Cambridge University Press, 2004.

9. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching.* Longman, 2007.

10. Nation, I.S.P. *Learning Vocabulary in Another Language.* Cambridge University Press, 2001.

11. Halliday, M.A.K. *Language as Social Semiotic.* Edward Arnold, 1978.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING METODIK ASOSLARI

Raxmatova Marjona Uktamovna,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
rakhmatova.marjon6640@gmail.com
tel: 97-846-00-33

Annotatsiya

Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda aksiologik yondashuvning nazariy asoslari va amaliy tatbiqi tahlil qilinadi. Aksiologik yondashuv shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish, madaniyatlararo anglashuvni rivojlantirish hamda talabalarda til vositasida dunyoqarash va madaniy ongni kengaytirishga xizmat qiladi. Maqolada xorijiy til darslarini mazmunan boyitish va talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishda interfaol, kommunikativ, reflektiv, loyihaviy va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi metodlarning o‘rni chuqur tahlil etiladi. O‘qituvchi faoliyatida

qadriyatlarni singdirishga xizmat qiluvchi pedagogik muhit yaratish, ta’lim materiallarini tanlashda aksiologik mezonlarga e’tibor qaratish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotda aksiologik yondashuv asosida xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha nazariy mulohazalar va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiologik yondashuv, xorijiy tillarni o‘qitish, ta’lim metodlari, qadriyatlar tizimi, interfaol ta’lim, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, madaniyatlararo muloqot, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Абстрактный

В статье анализируются теоретические основы и практическое применение аксиологического подхода к обучению иностранным языкам. Аксиологический подход способствует формированию личностных и общественных ценностей, развитию межкультурного взаимопонимания, расширению мировоззрения и культурного сознания учащихся посредством языка. В статье дается глубокий анализ роли интерактивных, коммуникативных, рефлексивных, проектных и межкультурных методов формирования компетентности в обогащении содержания уроков иностранного языка и всестороннем развитии личности учащегося. Обоснована необходимость создания педагогической среды, способствующей формированию ценностных ориентиров в деятельности учителя и ориентации на аксиологические критерии при отборе учебных материалов. В исследовании выдвигаются теоретические положения и практические рекомендации по совершенствованию методики обучения иностранным языкам на основе аксиологического подхода.

Ключевые слова: Аксиологический подход, обучение иностранным языкам, методы обучения, система ценностей, интерактивное образование, коммуникативная компетентность, рефлексия, межкультурный диалог, личностно-ориентированное образование.

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations and practical application of the axiological approach in teaching foreign languages. The axiological approach serves to form personal and social values, develop intercultural understanding, and expand students' worldview and cultural awareness through language. The article deeply analyzes the role of interactive, communicative, reflective, project-based and intercultural competence-developing methods in enriching the content of foreign language lessons and comprehensively developing the student's personality. The need to create a pedagogical environment that serves to instill values in the teacher's work and to pay attention to axiological

criteria when choosing educational materials is substantiated. The study puts forward theoretical considerations and practical recommendations for improving the methodology of teaching foreign languages based on the axiological approach.

Keywords: Axiological approach, foreign language teaching, teaching methods, value system, interactive education, communicative competence, reflection, intercultural dialogue, person-centered education.

Globalizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan XXI asrda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish nafaqat kommunikativ kompetensiyani, balki madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ta’lim sharoitida xorijiy til o‘qitish jarayonida aksiologik yondashuvni qo‘llash shaxsning komil inson sifatida shakllanishida, o‘z va boshqa madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda.

Aksiologik yondashuv talaba shaxsining individual ehtiyojlari, ijtimoiy qadriyatlar tizimi, axloqiy va madaniy etukligi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Shunday ekan, xorijiy tillarni o‘qitishda aksiologik yondashuv asosida metodlarni tanlash va ularni to‘g‘ri qo‘llash darsning maqsadga erishish samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Maqolada xorijiy til darslarini aksiologik yondashuv asosida samarali tashkil etish uchun qanday metodlardan foydalanish zarurligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Aksiologik yondashuv mohiyati va xorijiy til o‘qitishdagi ahamiyati

Aksiologik yondashuv (lotincha "axiologia" — qadriyatlar haqidagi ta’limot) shaxsga xos qadriyatlar tizimini shakllantirish, rivojlantirish va ongli ravishda qabul qilishga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasidir ([1]). Xorijiy tilni o‘qitishda esa bu yondashuv til vositasida dunyoqarashni kengaytirish, madaniyatlararo anglashuvni rivojlantirish, shaxsiy va universal qadriyatlar o‘rtasida uyg‘unlik yaratish maqsadiga xizmat qiladi.

Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan sotsiokultural nazariya asosida til va tafakkur o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi ([7]). Shu nuqtai nazardan, xorijiy til o‘rganish shaxsiy o‘sish va ijtimoiy identifikatsiya jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Aksiologik yondashuvni ta’minlovchi samarali metodlar

Interfaol ta’lim metodlari. Interfaol metodlar o‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantirish, muloqotga, hamkorlikka jalb qilish orqali ularning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

Munozara va bahs-munozaralar orqali o‘quvchilar turli madaniyat vakillari qadriyatlarini o‘z qadriyatlari bilan taqqoslab, analitik va kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Rol o‘ynash va imitatsion o‘yinlar yordamida talabalar real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishni, boshqa madaniyatlarning qadriyatlar tizimiga moslashishni o‘rganadilar. Bu metodlar orqali talaba o‘z individual tajribasini boyitadi va boshqa madaniyatlarni anglashga harakat qiladi.

Kommunikativ metod. Kommunikativ metod talabalarda til ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarga mos tarzda rivojlantiradi ([6]). Aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan kommunikativ metod orqali:

- Madaniy kontekstda muloqot qilish ko‘nikmasi shakllanadi;
- Boshqa madaniyatga hurmat bilan yondashish tamoyili mustahkamlanadi;
- Til vositasida o‘z qadriyatlarini ifodalash va tushuntirish qobiliyati rivojlanadi.

Kommunikativ metodda ishlatiladigan materiallar (kino, maqola, podkastlar va boshqalar) talabalarga turli madaniy qadriyatlarni bevosita idrok etish imkonini beradi.

Reflektiv metodlar. Refleksiya o‘rganilgan materialni shaxsiy tajriba bilan bog‘lash, anglash va baholash jarayonidir ([4]).

- Reflektiv esse yozish;
- O‘zini tahlil qilish uchun "Venn diagrammalari" yaratish;
- Qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantirish mashg‘ulotlari bilan talabalar o‘z shaxsiy qadriyatlarini anglab, ular ustida ongli ishlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Loyiha (projekt) faoliyati. Projekt metod — talabalarning mustaqil izlanish, tahlil qilish, ijodiy faoliyat orqali yangi bilim va qadriyatlarni o‘zlashtirishiga imkon yaratadi.

- Madaniyatlararo loyihalar (masalan, "Dunyo xalqlari qadriyatlari" mavzusida);
- O‘z milliy qadriyatlarini xorijiy auditoriyaga taqdim qilish uchun tayyorlangan prezentatsiyalar;
- Virtual safarlar va onlayn almashinuv loyihalari talabalarni mustaqil ravishda qadriyatlar tizimi ustida ishlashga undaydi va ular orasida madaniyatlararo hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiruvchi metodlar. Madaniyatlararo kompetensiya — bu o‘z va boshqa madaniyatlar vakillari bilan samarali va to‘g‘ri muloqot qila olish qobiliyatidir ([2]).

- Taqqosloviy tahlil metodlari;
- Madaniy tafovutlar va stereotiplarga oid muhokamalar;
- Xalqaro forumlarda ishtirok etish orqali talabalar global miqyosdagi qadriyatlarni anglaydilar va o‘z shaxsiy dunyoqarashlarini boyitadilar ([3]).

Xorijiy til faqat kommunikativ vosita emas, balki boshqa madaniyatlar, dunyoqarashlar va qadriyatlar bilan tanishish vositasidir. Aksiologik yondashuv tilni o‘rganishni shaxsiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Masalan, ingliz tili darslarida madaniyatlararo muloqot bo‘yicha situatsion mashqlar, boshqa xalqlarning urf-odatlari va qadriyatlariga bag‘ishlangan matnlar, hamda muhokamaga asoslangan topshiriqlar orqali talabalarda hurmat, bag‘rikenglik va global fikrlash kabi qadriy yondashuvlarni o‘rganish mumkin.

Aksiologik yondashuvda o‘qituvchi oddiy bilim beruvchidan ko‘ra ko‘proq — yo‘naltiruvchi, qadriyatlarni targ‘ib etuvchi shaxsiy namuna bo‘lishi lozim. Ta’lim muhiti qadriyatlar bilan singdirilgan bo‘lishi kerak: akademik erkinlik, ochiqlik, hurmat, empatiya va mas’uliyat tamoyillari asosida dars tashkil qilinadi. O‘quvchilarning shaxsiy fikrini hurmat qilish, ularni tanqidiy va reflektiv fikrlashga rag‘batlantirish orqali aksiologik yondashuv samaradorligini oshirish mumkin.

Xorijiy til darslarini aksiologik yondashuv asosida tashkil etish talabalar shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining zarur sharti sifatida qaralishi zarur. Til o‘rganish jarayonida faqat lingvistik bilimlar emas, balki madaniyatlararo anglashuv, tolerantlik, axloqiy ong va global fuqarolik fazilatlarini rivojlantirish maqsadida metodik yondashuvlar ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak.

Interfaol, reflektiv, kommunikativ va loyihaviy metodlar orqali xorijiy til ta’limida aksiologik yondashuvni samarali amalga oshirish mumkin. Ularning integratsiyalashuvi mustaqil fikrlash, shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, xorijiy til darslarining aksiologik asosda tashkil etilishi nafaqat til bilimini, balki zamonaviy jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, N. (2021). Aksiologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.

2. Banks, J. A. (2019). Multicultural education: Issues and perspectives (10th ed.). John Wiley & Sons.

3. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.

4. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. D.C. Heath and Company.

5. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293). Penguin Books.

6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and methods in language teaching (2nd ed.). Cambridge University Press.

7. Choriyeva F, Raxmatova M. (2024). Boshlang’ich ta’limda tarbiya fani. O‘quv qo‘llanma. Qarshi, Big Makro World nashiryoti.

8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

VIZUAL-KINESIK KOMMUNIKATSIYA (FRENOLOGIYA, FIZIOGNOMIKA, EKSPRESSIV HARAKATLAR, OKULEKSIKA YOKI OKULAMANTIYA) NING IFODALANISHI

Berdimuratova Madina Xayrullayevna,
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: madinaberdimuratova@65gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada noverbal vositalarning ma’nosi, vazifasi haqida ma’lumot keltirilib, vizual-kinestik kommunikatsiya haqida so‘z boradi. Vizual kommunikatsiya – bu aloqa turi bo‘lib, unda ma’lumotlar, belgilar, obrazlar, tasvirlar, infografika va boshqalar yordamida ma’lumot uzatiladi. Kommunikatsiyaning mazkur turi 4 guruhga ajratiladi: a) frenalogiya; b) fiziognomika: yuzning tashqi ko‘rinishi; burun, quloq, ko‘z; s) ekspressiv harakatlar: mimika, jest, poza, gavda tutishi, yurish; d) okuleksika yoki okulamantiya: ko‘z qarash yo‘nalishi, ko‘z qarash uzoqligi va chastotasi. Vizual-kinestik vositalarni izohlashda o‘zbek badiiy adabiyotidagi asarlar va xalq og‘zaki ijodi na’munalaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar. Frenalogiya, bosh, mimika, burun, quloq, yurish, okuleksika, chastota.

Аннотации.

В статье представлена информация о значении и функциях невербалных средств, а также обсуждается визуально – кинестетическая коммуникация. Визуальная коммуникация – вид коммуникации, при котором информация передается с помошью данных, символов, изображений,

картинок, инфографики и т. д. Данний вид коммуникации делится на 4 группы: а) френология; б) физиогномика: внешность лица; нос, уши, глаза; в)выразительные движения: мимика, жесты, позы, походка; г) окулексика или окуламантия: направление взгляда, расстояние и частота взгляда. Для обьяснения наглядно-кинеститических средств использовались произведения узбекской литературы и образцы народного устного творчество.

Основные слова. Френология, голова, мимика, нос, ухо, походка окулексика, частота.

Annotation.

This article provides information about the meaning and function of nonverbal means and discusses visual-kinesthetic communication. Visual communication is a type of communication in which information is transmitted using data, symbols, images, illustrations, infographics, etc. This type of communication is divided into 4 groups: a) phrenology; b) physiognomy: facial appearance; nose, ears, eyes; c) exspressive movements: facial exspressions, gestures, posture, posture, gait; d) oculexics or oculamantia: direction of gaze, distance and frequency of gaze. Works from Uzbek literary works and examples of folk oral art were used to explain visual-kinesthetic means.

Basic words. Phrenology, head, facial exspression, nose, ear, gait, oculexics, frequency.

Noverbal vositalar insoniy muloqotning muhim vositasidir. Nutqning imo-ishoralari va mimik “hamrohligi” uning ta’sirchanligini oshirishi, aytilganlarni tasdiqlashi va ahamiyatini ta’kidlashi mumkin [1, 151]. NV ma'lum bir vaziyatda aytayotgan fikrini izohlay olmasa, so‘z topa olmasa yordam berishga xizmat qiladi. Ular so‘zlarni almashtirib, verbal matnni qisqartiradi va qo‘shimcha ma'nolarni ifodalashga, shuningdek, ma'lumotlarning ifodaliligi va ta’sirchanligiga hissa qo‘shadi. Rus tilshunos olimi I.Andronikov ta'kidlaganidek, intonatsiya, mimika va imo-ishoralar tufayli nutqqa turli semantik, xususan, hissiy ottenkalar kiritiladi, tobora ko‘proq yangidan yangi semantik zaxiralar ochiladi [2, 575].

G.G.Molchanova kinesika vositalariga (inson his-tuyg'ularining tashqi harakatli ko‘rinishlari) mimika, jestlar, turish, poza va ko‘pincha okulesika (ko‘z harakati, vizual aloqa) kiritadi va mazkur komponentlar katta axborot yukini tashiydi, deb ta’kidlaydi [3, 13-30]. Xuddi shunday vizual-kinesik kommunikatsiya vositasi ham bir qator ma’no guruhlariga ega.

Vizual-kinesik kommunikatsiya - nutqiy kommunikatsiya bilan aloqador bo‘lgan aloqa-aralashuvda kishining ko‘rish a’zosi yordamida turli axborot belgilari, tasvirlar, infografika va boshqalar yordamida axborot uzatiladigan aloqa turi. Ushbu turdagi aloqa qisman yoki to‘liq ko‘rishga tayanadi. Bugungi kunda

vizual aloqa juda rivojlangan va bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Kommunikatsiyaning mazkur turi 4 guruhga ajratiladi: a) ***frenologiya****; b)* ***fiziognomika:*** *yuzning tashqi ko‘rinishi; burun; quloq, ko‘z; c)* ***ekspressiv harakatlar:*** *mimika, jest, poza, gavda tutishi, yurish; d)* ***okulesika yoki okulomantiya:*** *ko‘z qarash yo‘nalishi, ko‘z qarash uzoqligi va chastotasi.*

Frenologiya. XVIII asrda adabiyotlarda “psevdonauka” tushunchasi qo‘llanila boshladi. XIX asrga kelib, Evropada psevdofan tushunchasi alohida fan sifatiada shakllandi. Shunday qilib, 1844-yilda Northern Journal of Medicine (I jild, 387-bet) psevdofan tushunchasi haqida fikr bildiriladi. 1838-yilda fransuz fiziologi Fransua Majandi frenologiyani "zamonaviy psevdofan" deb atadi.

Frenologiya - (yunoncha phrenos — jon, fe’l-atvor, xarakter va lugos — ta’limot) — Frans Yozef Gall tomonidan odam yoki hayvonning psixologik xususiyatlari bilan bosh suyagining tashqi shakli o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida ilgari surilgan ta’limot. Muallifning asosiy g'oyasi: bosh miya po‘stlog'i bir qancha markazlardan iborat bo‘lib, ularning har birida ma'lum bir inson qobiliyati markazlashtirgan. Ushbu qobiliyatning kuchli rivojlanishi bilan miyaning tegishli markazi ham rivojlangan bo‘lib, u bosh suyagining konfiguratsiyasida aks etadi, bu maxsus o‘lchovlar yordamida "qobiliyatlarning zarbalarini" - musiqa, she'riyat, rasm, jasorat va boshqalarni aks ettiruvchi frenologik xaritani tuzishga imkon beradi”. XIX asrda frenologiya psixodiagnostika usuli sifatida e’tirof etildi. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bosh suyagi miya yarim shari qobig’ining shaklini umuman takrorlamaydi, shuning uchun odamning psixologik va axloqiy xususiyatlarini bosh suyagining bo‘laklari orqali aniqlash asossizdir, degan mulohazalar ham bildirildi. Ko‘p yillar davomida F.Gall qarashlarida ratsionallikni, ya’ni miya po‘stlog‘idagi funksiyalarni lokalizatsiya qilish prinsipini obro‘sizlantirdi, keyinchalik bu 1870-yilda Fritsh va Xitsig tomonidan miyaning turli qismlarida psixomotor markazlarning kashf etilishi bilan tasdiqlandi [4].

Bugungi kunda frenologiya alohida fan sifatida keng o‘rganilmoqda va uning boshqa fanlar bilan aloqasi isbotlanmoqda.

Frenologiya ongni turli funksiyalari uchun javobgar bo‘lgan bir nechta ixtisoslashgan quyi tizimlarga bo‘lish g'oyasini ilgari surgan birinchi nazariya sifatida zamonaviy kognitiv psixologiyada qo‘llanilib kelmoqda. U ongning har bir quyi tizimi miyaning alohida sohasi bilan bog'liq degan taxminga asoslangan yondashuvdan foydalanish orqali zamonaviy kognitiv neyropsixologiya va kognitiv neyrobiologiyaning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda [5, 73-75]. Bundan tashqari, mazkur fan madaniyat bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, asar qahramonlarining portretlarini tasvirlashda asar muallifi inson bosh chanog’ining tuzilishini va u qanday insonlarga xos ekanligini o‘rganar ekan. Masalan, mashhur

rus shoiri A.S.Pushkin ham o‘z asarlarida Gall g‘oyalarini bir necha bor eslatib o‘tadi. 1825-yilda Anna Kernga yozgan maktubida u yarim hazil bilan uni erini tashlab, Mixaylovskoyega kelishga taklif qilgan. Anna Kernni bunday harakat zarurligiga ishontirish uchun Pushkin she'riy ravishda uning "yuqori rivojlangan uchish organi" borligiga ishora qildi. Gall o‘zining XIII kitobida bu organni burunning ildizidan peshonaning o‘rtasiga qadar joylashgan ikkita qavariq bo‘lib, bu qismning kuchli rivojlanishi joyning topografik yo‘nalishini yaxshi his qiladigan va sayohat qilishni yaxshi ko‘radigan odamlarga, shuningdek hayvonlar, birinchi navbatda qushlarga xosdir, deb ta'riflagan. Demak, mashhur shoir ham frenologiya fanini yaxshi bilgan. I.S.Turgenev, M.Yu.Lermontov, I.I.Pushin, A.K.Doyl kabi yozuvchi va shoirlar asarlarida bunga to‘xtalib o‘tgan.

Frenologiya murakkab fan bo‘lib, bir necha fan va sohalar bilan chambarchas bog’liq. Agar uning fanlar aloqadorligini tasvirlasak, quyidagi chizma kelib chiqadi:



Dissertatsiya mavzusi va hajmidan kelib chiqib, asosan, frenologiya sohasiga oid qarashlarning tilshunoslikka aloqadorlik qismiga to‘xtalish va tahlil qilishga harakat qilamiz. Yuqorida keltirganimizdek, F.Gall fikricha, inson boshi "qalbini ko‘rsatadigan oyna bo‘lib, uning tuzilishi bosh suyagining konfigurasiyasini, imo-ishorasini o‘rganish kishi xarakterini o‘rganishning asosiy yo‘li, deb hisoblaydi". M.Baratova esa, paralingvistik vositalar, asosan, hissiyotlarning amaldagi tarjimoni bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, bosh va undagi uzvlar (peshona, qosh, ko‘z, quloq, burun, lab, og’iz, til, tish va h.k.) faol ishtirok etadi, deb ta’kidlaydi [6, 45].

Shunday ekan, insonning bosh suyagining tasviri orqali kishining xarakteri namoyon bo‘ladi. Xalq og’zaki ijod namunalarini tahlilga tortsak, asar qahramonlarining bosh suyagini tasvirlanishida “badiyatga daxldor deyarli barcha sifatlar: musiqiylik ham, hayotiylik ham, obrazlilik ham, ramz ham mujassamki, bu qadar baland badiiylikka faqat xalq dahosi erishmog’i mumkin. Asarning eskirmasligi, hamma zamonlarda ham ta’sir qudratini saqlay olishining asosiy sababi shundaki, undagi tasvir o‘zbekona, olamni idrok etish, odam, uning muchalarini ko‘rish va ko‘rsatish ham toza o‘zbekcha:

Achchig’ing chillali, muzlagan qishday,

Norkalla kelgansan chuyda qo‘shmushtday…[7, 140]

Misolda Alpomishning boshi – norning kallasiday, jismonan baquvvat erkaklarga xos bo‘yin ortining yo‘g’on joyi – chuyda qo‘shmushtday. Polvonlarning chuydali bo‘lganliklari uchun ham kallasi bo‘yniga og’irlik qilayotganday, boshini egibroq yurishadi. Chunki jismoniy qudratning zohiriy belgisi bo‘lmish chuydaning – bo‘yin tomirining yo‘g’onligi boshni tik tutish inkonini bermaydi [8, 140].

Nor – ikki o‘rkachli erkak tuya. Chuyda – boshning orqa suyagi [9, 162]. Qo‘shmusht – qirg’iy, burgut [10, 165]. Frenologiya sohasining talqini bo‘yicha kallasi juda katta, boshining orqa suyagi bo‘rtib chiqqan va bo‘yni yo‘g’on kishi quyidagicha ta’riflanadi: qat’iyatli, kuchli, kuzatuvchan, xushmuomalali, o‘ziga ishonuvchan, mushaklari baqquvvat, irodali.

Yoki, Alpomish chodirda o‘tirib edi, shunday qaradi, har qalmoqlar kelayapti: kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab (A.123). Ko‘zlari o‘tday, manglayi cho‘tday, kallasi gov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebatday kampir (Rav.32) Beshovi yo‘lda gapirsak deydi tili kesilgan, gapiraman desa, g’uldurab qoladi, nima deganiga odam tushunmaydi; qulog’i kesilgan, tili, burni sog’i, kallasi kadiday bo‘lib, gapirmoqqa dami chiqmay, ko‘zi bo‘zarib, imlab qoldi, tili sog’, qulog’i sog’, burni kesilgan gapirayin desa, bu ham bo‘lmaydigan, mangqalanib, buning ham gapiga odam tushunmaydigan (Rus.44).

Misollarda kalla kapaga, gov savatga, kadiga o‘xshatilmoqda. Bunday ko‘rinish, kallaga ega bo‘lgan yigit qanaqa quvvatga, kuchga egaligi aniq ifodalanmoqda. Xalq tilida “kalla” va “bosh” so‘zlari aksar ma’nodoshlik kasb etadi. “Alpomish” dostonida bu so‘zlar har ikkisi o‘z o‘rnida ishlatilib, uslubda g’oyat noziklik kasb etgan. Kallaning bo‘yinga orqa tomondan qo‘shiladigan (yelka tomondan qo‘shiladigan) qismining qabaratki suyagi qipchoq lahjasida “chuyda” deb nomlanadi. Ammo bu so‘z adabiy tilga kirmagan [11, 162].

Kapa - vaqtincha yashash uchun daraxt, shox va yirik o‘t–o‘lanlar bilan o‘rab quruladigan xona, yozgi uy, chayla [10, 165]. Gov savat - ulkan, katta, bahaybat

savat [10, 62]. Kadi - qovoq, oshqovoq; ularning po‘stloq qismidan tayyorlangan idish [12, 332]. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, har bir obrazning bosh shuyagining g’oyat yirikliigi va besunaqayligi ularning yuqoridagi kabi xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi. Ammo ularning ko‘z, qosh, burun tuzilishi orqali yana aniqroq xarakter-xususiyatni ochishga imkon beradi.

Demak, mazkur fan bilan shug’ullanuvchi olimlar miyaning sirt topografiyasi uning ustidagi suyaklarning chuqurchalari va bo‘rtiqlariga ta'sir qilmasligini isbotladi. Biroq, bu soxta fan dunyoga juda muhim g'oyani isbotlab berdi: birinchi bo‘lib miyaning turli qismlari turli vazifalar uchun mas'ul ekanligini ta'kidladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мудрая О.В. Функции невербальных компонентов в системе языка: На материале сравнения рус. яз. с англ.: Диссер... канд.филол. наук: 10.02.04. – Москва, 1994. – С. 151.
2. Андроников И. Хочу рассказать вам. - Москва: Сов. писатель, 1971. – С.575.
3. Молчанова Г.Г. Когнитивная невербалика как поликодовое средство межкультурной коммуникации: кинесика //Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 2. – С. 13-30.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki
5. Антти Ревонсуо. Глава 2. Исторические основы науки о сознании // Психология сознания / Пер. А.Стативка, З.С.Замчук. — СПб.: Питер, 2013. — С. 73—75. — 336 с.
6. Barotova M.O. O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals.dok.. ... diss. – Buxoro. 2023. – B.45.
7. Йўлдошев Қ. “Алпомиш” талқинлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. - Б.140.
8. Йўлдошев Қ. Ўша асар. – Б. 140.
9. Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. -Тошкент, 2007. – Б. 162.
10. Urinbayeva D.B. Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati. – Samarqand, 2017. – B. 165.
11. Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. -Тошкент, 2007. – Б. 162.
12. O‘TIL. 2-tom. – B.332.

TIL VA ADABIYOT O‘QITISHDA ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR

Azimov Sarvarbek Qayumjon o‘g’li,

Andijon davlat texnika instituti stajyor o‘qituvchisi
E-mail:azimovsarvarbek55@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida til va adabiyot o‘qitish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, ularning sabablari va oqibatlari, hamda ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot davomida respublikaning 15 ta oliy ta'lim muassasasida o‘tkazilgan keng qamrovli statistik ma'lumotlar tahlili, 35 dan ortiq dars mashg'ulotlarini kuzatish va 4 ta eksperimental guruhda 8 oy davomida o‘tkazilgan pedagogik tajribalarning natijalariga asoslangan xulosalar va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Natijalar sifatida o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada (16-25%) oshirish mumkin bo‘lgan yangi metodologik yondashuvlar va ularni kompleks tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: til o‘qitish, adabiyot o‘qitish, innovatsion metodlar, muammoli o‘qitish, interaktiv texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, blended learning, loyihaga asoslangan o‘qitish, "teskari sinf" metodikasi, case-study, motivatsion yondashuvlar.

Аннотация

Badiiy tarjima jarayoni tilning murakkab qatlamlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda lingvistik elementlar muhim o‘rin egallaydi. Lingvistik xususiyatlar deganda avvalo leksik, grammatik, sintaktik va stilistik birliklarning tarjima jarayonidagi tutgan o‘rni tushuniladi. Badiiy matnning o‘ziga xosligi ham aynan shu til vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Tarjimon matnni boshqa tilda qayta yaratishda nafaqat so‘zma-so‘z tarjimaga suyanadi [1.145], balki muallif uslubini, matnning emotsional ohangini va estetik tuzilmasini ham hisobga oladi [2.328-332].

Birinchidan, “badiiy matnda qo‘llanilgan leksik birliklar tarjimada alohida e’tibor talab qiladi [3.59-241].” So‘zlar ko‘p hollarda o‘zining konnotativ ma’nosiga ega bo‘lib, ularni noto‘g‘ri o‘girish asarning mazmunini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, “ko‘ngil” so‘zining o‘zbek tilidagi semantik maydoni ingliz tilidagi “heart”, “mind” yoki “soul” so‘zlaridan ancha kengroqdir. Shunday so‘zlar tarjimasi lingvistik anglash doirasidan tashqariga chiqib, madaniy kontekstni ham o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, grammatik va sintaktik xususiyatlar tarjima sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Har bir tilning o‘ziga xos grammatik tizimi mavjud bo‘lib, u orqali gaplarning tuzilishi, vaqt va zamon, shaxs va son kategoriyalari ifodalanadi. Badiiy matnlarda ko‘p hollarda grammatik normalardan chetlashish, stilistik maqsadlarga xizmat qiladigan inversiyalar, ellipsis yoki metaforik iboralar keng qo‘llaniladi. Tarjimon bu holatlarni oddiy grammatik qoidalar asosida emas, balki matnning badiiy ko‘rinishini inobatga olgan holda tarjima qilishi lozim.

Uchinchidan, stilistik vositalar tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Badiiy matnlar ko‘pincha metafora, epitet, oksimoron, kinoya kabi figurativ vositalar bilan boyitilgan bo‘ladi. Ushbu elementlarning tarjimasi alohida mahorat talab qiladi, chunki ular faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima bilan emas, balki kontekstual moslik va madaniy o‘xshashlik orqali ifoda etilishi lozim.

Shuningdek, tarjimonda intertekstual elementlar (ya’ni boshqa matnlarga, asarlarga ishora qilish) tarjima jarayonida alohida tahlil qilinadi. Chunki bu kabi elementlar o‘quvchi uchun tanish bo‘lmagan bo‘lishi mumkin. Tarjimon o‘quvchi bilan muallif o‘rtasidagi madaniy va adabiy ko‘prikni yaratishi uchun lingvistik jihatdan o‘ta nozik ishlashi kerak bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat bu fonetik va ritmik xususiyatlardir. Ayniqsa she’riy tarjimalarda alliteratsiya, assonans, ohang va ritm muhim rol o‘ynaydi. Tarjimon bunday elementlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishga urinsa, badiiy ta’sir yo‘qoladi. Shu bois u bunday hollarda ekvivalent badiiy vositalarni topishga intiladi. Umuman olganda, badiiy tarjima jarayonida lingvistik xususiyatlar nafaqat tilshunoslik doirasida, balki madaniyatshunoslik, estetika, stilistika, adabiyotshunoslik kabi boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qilinadi. Tarjimon uchun bu jarayon tilni anglash emas, balki uni qayta yaratuvchi ijodiy faoliyatdir. Bu faoliyat esa faqat lingvistik bilim bilan emas, balki badiiy did, madaniy sezgirlik va matnni chuqur tahlil qilish mahorati bilan boyitiladi.

Badiiy tarjima asosan quyidagi lingvistik xususiyatlarga ega:

“Badiiy tarjima til vositalari orqali estetik mazmunni ifodalovchi san’at shaklidir [4.255] ”, -deb yozadi bu haqida xorijlik tarjimashunos Kin Guo, M.Umarxodjayev [5.179-182] esa, badiiy tarjima oddiy axborotni bir tildan ikkinchisiga ko‘chirish bilan cheklanmay, balki original matnning estetik, stilistik, madaniy va uslubiy qatlamlarini iloji boricha to‘liq aks ettirishni maqsad qiladi. Shuning uchun badiiy tarjimaning quyidagi asosiy lingvistik xususiyatlari alohida ilmiy yondashuvni talab qiladi:

a) Estetik yuklama matnning faqat semantik mazmunini emas, balki uning estetik-funksional xususiyatlarini, ya’ni go‘zallik hissi, tasviriylik, obrazlilik, ritm va tovush uyg‘unligini tarjimada saqlab qolish tamoyilidir.

“Pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy qismi hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ mosligini vujudga keltiradi natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o‘qigan kitobxon asliyat mutolaasidan oladigan taassurot darajasida ta’sirlanadi [6.93] ”, deya keltriladi. Til birliklari bu erda faqat axborot uzatuvchi vosita bo‘lib qolmay, balki hissiy-estetik ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanadi. Shu bois tarjimon har bir so‘z, ibora, hatto tinish belgilarining ham estetik yukini hisobga olgan holda harakat qilishi kerak.

Bunday yondashuv “funksional ekvivalentlik” prinsipi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarjimaning formal emas, mazmuniy-funksional jihatdan adekvat bo‘lishini ta'minlaydi.

b) Madaniy kontekst deganda asarning yaratilgan muhitini belgilovchi ijtimoiy, tarixiy, diniy, milliy va madaniy omillar majmui tushuniladi. Badiiy tarjima bu kontekstni boshqa madaniy kontekstga moslashtirish mas’uliyatini zimmasiga oladi. Tarjimon madaniyatlararo kommunikatsiya vositachisi sifatida, ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan tushunchalarni boshqa madaniyat vakiliga tushunarli bo‘lgan tarzda qayta ifodalashi zarur. Shu jihatdan, tarjimada “madaniy muvofiqlashtirish [7.320] ” (cultural adaptation) prinsipi muhim o‘rin tutadi. Bu prinsipga ko‘ra, tarjima jarayonida madaniy realliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki funktsional jihatdan teng yoki izohli shaklda berilishi kerak.

c) Obrazlar va stilistik vositalar

Badiiy matnning obrazliligi stilistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Metafora, epitet, kinoya, hiperbola, litota, ironik konstruksiyalar, parallelizm, alliteratsiya va boshqa stilistik birliklar [8.107] matnning ekspressiv-estetik qatlamini tashkil etadi. Bunday birliklarni tarjimada to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish ko‘pincha mazmun va ta’sir kuchining yo‘qolishiga olib keladi. Shu bois, tarjimada "stilistik ekvivalentlik" tamoyiliga amal qilinadi. Bu tamoyilga ko‘ra, tarjimon asliyatdagi stilistik birlikni boshqa tildagi shunga yaqin estetik-funksional imkoniyatlarga ega vosita bilan almashtiradi. Stilistik vositalarning tarjimasi esa tarjimonning nafaqat lingvistik kompetensiyasini, balki badiiy-estetik tafakkurini ham sinovdan o‘tkazadi.

d) Muallif uslubi yozuvchining tilga, sintaksisga, leksikaga, uslubiy vositalarga bo‘lgan individual yondashuvi, ya’ni uning “ijodiy ovozi [9.37] ”dir. Tarjimada ushbu ovozni saqlab qolish asar ruhini buzmaslikning asosiy garovidir. Muallif uslubi ko‘pincha lingvopoetik vositalar, grammatik struktura, intertekstual ishoralar va nutq uslublarining o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. Tarjimon bu uslubiy belgilarning shakliy emas, balki funksional adekvatligini saqlagan holda boshqa tilga ko‘chirishi kerak. Bunda “uslubiy identiklik” tamoyili muhim rol o‘ynaydi. Tarjima nafaqat mazmun, balki muallifning fikr bildirish uslubini, emotsional ohangini, nuqtai nazarini ham aks ettira olishi zarur.

“Badiiy tarjima nafaqat til o‘zgarishi, balki madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prikdir [10.106].” Tarjimon esa bu ko‘prikni barpo etuvchi me’mor sifatida nafaqat lingvistik bilimga, balki estetik did, madaniy anglash va ijodiy mahoratga ega bo‘lishi kerak. Yaxshi tarjimon faqat matnni emas, balki ruhni, g‘oyani va estetik ta’sirni ham ko‘chira oladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan lingvistik xususiyatlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjima bu ko‘p qatlamli va murakkab ijtimoiy-lingvistik hodisa bo‘lib, tarjimondan keng bilim doirasini, madaniyatlararo sezgirlikni va estetik idrokni talab qiladi. Har bir lingvistik xususiyat asl matnning chuqur tahlili va mos ijodiy yondashuv orqali ifodalanmog‘i lozim. Badiiy tarjima nafaqat til o‘zgarishi, balki madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prikdir. Tarjimon esa bu ko‘prikni barpo etuvchi me’mor sifatida nafaqat lingvistik bilimga, balki estetik did, madaniy anglash va ijodiy mahoratga ega bo‘lishi kerak. Yaxshi tarjimon faqat matnni emas, balki ruhni, g‘oyani va estetik ta’sirni ham ko‘chira oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Умарходжаев М. Таржима дунёси ва унинг фалсафаси. Таржиманинг лингвокогнитив, коммуникатив-прагматик ва лингвокулътурологик аспектлари. Респ-а илм-амал анжумани материаллари. – Ан., 2015. – Б.4-8
2. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2016. – Б. 108
3. Сайдалиев Т. Бобур лирикаси бадииятининг русча таржималардаги талқини. Филология фанлар доктори (DSc) диссертацияси. – Т., 2016
4. Содиқов З. Юсуф Хос Хожиб «Қутадғу билиг» асарининг немисча ва инглизча таржималари қиёсий-чоғиштирма таҳлили. Филология фанлар доктори (DSc) диссертатсияси. – Тошкент, 2020 \
5. Qin Guo. Translation Theory and Translation Studies in Shina. Dissertation of Doctor of Philosophy. The University of Texas at Dalas, 2012.
6. Mey J.L. Pragmatics: An Introduction. 2nd ed. – Ox.: Blackwell, 2001. – P.148.
7. Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Pragmatic Competence // The Modern Language Journal. Vol. 86, № 3, 2002. – P. 332.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – Б. 59-241

Lug‘atlar:

9. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
10. Zsolt Magnucz. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Angliya: 2015
11. Маҳмудов Н., Ҳудойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: 2013. –Б.495

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI SINEKDOXA TASVIRIY VOSITASINING QO‘LLANILISHI VA INGLIZCHA TARJIMALARDA AKS ETISH MASALALARI

Marufjon Karimov, *PhD NamDChTI*
marufjon.karimov.87@mail.ru
Mamatxoliqov Barkamol, *NamDChTI talabasi*
mamthalikov.barkamol@2005.mail.ru
O‘UK: 82.091:81’255.2:81(575.1)

Annotatsiya

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan sinekdoxa usuli muallifning badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Ushbu uslubiy vosita orqali yozuvchi murakkab ijtimoiy va ruhiy holatlarni qisqa, lekin ta’sirchan shaklda ifodalaydi. Tezisda sinekdoxaning funksional imkoniyatlari, uning milliy adabiy kontekstdagi o‘rni hamda tarjima jarayonidagi semantik aniqlikni saqlab qolish muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarjimon, mashaqqat, tasvir, ifodalash, avtor, haqqoniy, so‘z, asl nusxa, muvofiq, mag‘iz, ma’no, aksincha, noaniq, mujmal, ekvivalentlik.

Аннотация

Использование синекдохи в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» демонстрирует высокий уровень художественного мастерства автора. Этот приём позволяет кратко, но выразительно передать сложные социальные и психологические состояния. В работе рассматриваются функциональные возможности синекдохи, её роль в национальном литературном контексте и проблемы сохранения семантической точности при переводе.

Ключевые слова: переводчик, усилие, образ, выражение, автор, подлинный, слово, оригинальный, соответствующий, ядро, значение, противоположный, неопределенный, общий, эквивалентность.

Abstract

The use of synecdoche in Abdulla Qodiriy’s novel “Days Gone By” demonstrates the author's high level of artistic skill. This stylistic device enables the concise et expressive depiction of complex social and psychological states. The thesis examines the functional potential of synecdoche, its role within the national literary context, and the challenges of preserving semantic precision in translation.

Key words: translator, effort, image, expression, author, authentic, word, original, corresponding, core, meaning, contrary, vague, general, equivalence.

Tarjima jarayonida asarning g‘oyasi uning uslubiy jihati bilan chambarchas tarzda bog‘liq bo‘lib, asar yozilgan davr ruhini, qahramonlar ijobiy va salbiy jihatlarini ijodiy qayta yaratish uchun tarjimon nafaqat badiiy mahorat, iste’dod va boy tajriba sohibi bo‘lishi, balki badiiy tarjima amaliyoti dalillari asosida vujudga kelgan nazariy bilimlar bilan puxta qurollangan filolog olim sifatida faoliyat ko‘rsata bilishi ham lozimdir. Asliyat va tarjima tillari badiiy-uslubiy vositalarni chuqur matniy va lisoniy tahlil qilish asosida qiyosiy o‘rganishgina san’atkorni tarjima amaliyotida uchrab turadigan qator illatlardan saqlab qolgani holda, unga asliyat lisoniy-uslubiy hodisalari vazifalarini ijodiy tiklash imkoniyatini beribgina qolmay, bularni barchasini uddalash mas’uliyatini ham yuklaydi. Sinekdoxaning umumiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat:

Butun o‘rnida qism ifodalanishi: Sinekdoxa-grekcha “birga anglamoq” demakdir. Qism orqali butunni yoki aksincha butun orqali qismning ifodalanishi sinekdoxa deyiladi. Masalan, tirnoq so‘zining “bola” ma’nosida bosh, tuyoq so‘zlarining “qo‘y”, “sigir” ma’nosida ishlatilishi qism orqali butunni ifodalashdir.

Asliyat matnida: “*Arzimagan sabablar bilan talaf bo‘lgan*[72] ***jonlar****ni hamisha ko‘z oldingda tut!*” (O‘tkan kunlar. 2009; 40) Ushbu matnda sinekdoxa leksik-stilistik vositasi “talaf bo‘lgan jonlar” birikmasida qo‘llangan hamda ko‘chma ma’no ifodalagan. “Talaf bo‘lgan jonlar” birikmasi orqali aslida “qurbon bo‘lgan kishilar” nazarda tutilmoqda, ya’ni “qism” (jonlar) orqali “butun” (insonlar) ifodalanmoqda. Romanda Yusufbek xoji purviqor siymo sifatida juda ko‘p o‘rinlarda muallif tomonidan o‘rnak etilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bunda adibning badiiy mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q.

I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidovlar tarjimasida: *“Always remember the* ***innocent victims****!*” [73] (Har doim begunoh qurbonlarni yodingda tut!- K.M[74]) deb beriladi.

Kerol Yermakova tarjimasida: *“Always remember those* ***innocent who died****!”*[75] (Har doim begunoh o‘lganlarni yodingda tut!) (K.M) shaklida beriladi.

Mark Riz[76] tarjimasida esa: *“Remember the* ***past victims*** *who have been killed for the same miserable reasons.”* (o‘tmishda o‘ldirilganlar- K.M)

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki bunda o‘zbek hamda ingliz tarjimonlari so‘zma-so‘z tarjima usulida sinekdoxani tarjimada muvaffaqqiyatli aks ettirganlar.

Asliyat matnida: *“Yo‘lak panasidan* ***mudhish bashara*** *chiqib bir-ikki qayta unga kulib qarag‘ach, yo‘qoldi...”* (O‘tkan kunlar. 2009; 186) Romandagi salbiy

[72] talaf bo‘lmoq- qurbon bo‘lmoq, aziyat chekmoq

[73]To‘xtasinov I.M, Mo‘minov O.M, Hamidov A.A. The days gone by. –Tashkent: 2017. –P.3 (keyingi o‘rinlarda T.I. 2017; –P.3 shaklida beramiz)

[74] K.M- Karimov Ma’rufjonning qisqartma shakli (keyingi tarjimalarda K.M tarzida beramiz)

[75] Yermakova Kerol. Days gone by. –Paris: 2018. –P.40 (keyingi o‘rinlarda Y.K. 2018; 40 shaklida beriladi)

[76] Mark E.Reese. Bygone Days. – Nashville TN: 2018. –P.89 (keyingi o‘rinlarda R.M. 2018; 89 shaklida beriladi)

qahramon bo‘lmish Homid tomonidan yozilgan ushbu soxta taloq xati va uni olib kelguchi “mudhish bashara” Kumushni deyarli aqlidan ozdiradi. “Mudhish bashara” birligida ham sinekdoxa orqali ko‘chma ma’no ochib berilmoqda. Ushbu jumlada “mudhish bashara” “ko‘rinishi niyati kabi xunuk, kishida qo‘rqinch uyg‘otuvchi” ma’nolarini bildiradi. Salbiy qahramonlardan biri Jannat tasvirlangan ushbu o‘rin roman o‘quvchisi qalbida nafrat uyg‘otadi, Kumushning xatdan keyingi taqdiri esa ayanchli bo‘ladi.

T.I. tarjimasida: *“From the dark aisle of the gate the **terrible woman’s face** was seen, she laughed and disappeared…”* (T.I. 2017; 167) (dahshatli ayolning basharasi - KM)

Y.K. tarjimasida: *“The **frightening face of the hag** peered out of the **dark** alley by the gates. With a nasty laugh, she vanished.”* (Y.K. 2018; 159) (qo‘rqinchli cho‘chqabashara- K.M) tarzida beriladi.

R.M. tarjimasida esa: *“The **terrible visage** previously described peeked out from around the corner of the entryway, snickering with joy, and then disappeared.”* (R.M. 2018; 305) (dahshatli qiyofa- K.M)

Parchada keltirilgan sinekdoxa(qism orqali butun) ifoda vositasi tarjimasini ikki tarjima matnlari misolida qiyoslaymib tahlilga tortamiz:

Asliyat matnida keltirilgan “mudhish bashara” birikmasi I.To‘xtasinov tarjimasida “terrible woman’s face” (dahshatli ayol basharasi) shaklida beriladi. Bizningcha, tarjimonlar “terrible” (dahshatli) sifat aks etgan leksik birlikni “woman’s” (ayolning) so‘zidan keyin qo‘llaganlarida, birikma “woman’s terrible face” (ayolning dahshatli basharasi) tarzida muallif keltirgan birikmaga muqobil bo‘lar edi. Yoki “horrible face” (mudhish bashara) deb berilashi asliyatga aynan so‘zma-so‘z sinonimik bo‘lib, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘zbek tarjimonlari tasviriy ekvivalent usulidan foydalanib, kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun harakat qilgan.

“Mudhish bashara” birikmasi K.Yermakova tarjimasida esa “the frightening face of the hag” (qo‘rqinchli cho‘chqabashara) tarzida beriladi. Bunda tarjimon kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun romandagi salbiy qahramon Jannatni “qo‘rqinchli cho‘chqabashara” deb beradi, biroq mutarjim ozgina emotsiyaga berilishi natijasida birikmani shaxsiylashtirib, mubolag‘alashtirib yuboradi. Parcha asliyatga muvofiq qayta yaratilishi uchun esa “the frightening face” (qo‘rqinchli bashara)ning o‘zi kifoya qiladi, “of the hag” (cho‘chqaning) leksik birligining keltirilishi qo‘shimcha konnatativ ma’no kasb etadi hamda asliyatga nomuvofiqlik yuzaga keladi. “Tarjima variantini tanlash ma’lum darajada tarjimonning mahorati va shaxsiy hususiyatlariga bog‘liq. Lekin tarjimaning sub’ektivligi asl nusxa tarjimasining iloji boricha to‘laroq mazmunini bera olish bilan cheklanadi.

Shunday qilib, tarjima uni amalga oshiradigan tarjimon tomonidan ob’ektiv munosabatlarning sub’ektiv voqelanishidir.”[77] Shunga ko‘ra badiiy tarjima birmuncha mushkul vazifa hisoblanadi.

O‘zbek tarjimonlari hamda K.Yermakovadan farqli o‘laroq M.Riz “mudhish bashara” birikmasini tarjimada *terrible visage- daxshatli qiyofa* tarzida aks ettiradi. Tarjimon *previously described- ilgari tasvirlangan* deya ta’kidlaydi, chunki rostdan ham ushbu salbiy personaj tarjima matnining avvalida *a stunted and misshapen woman- pakana, rivojlanmay qolgan ayol* tarzida tanishtiriladi. Tarjimon ushbu sinonomik birikmani asliyatga muqobil aks ettirgan, zero adib Jannatni “pakana xotin” degan edi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Пирс Ч.С. Принципы философии. – Санкт Петербург, 2001. – С.313
2. Моррис Ч.У. Основания теории знаков // Семиотика: хрестоматия: учеб.метод. модуль / под ред. Л.Л. Федоровой. – М., 2005. – С. 45–98.
3. Yermakova K. The Days Gone by. – England, 2018. –P. 60
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – Б. 59-241
5. Mey J.L. Pragmatics: An Introduction. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2001. – P.148.
6. Reese M. Bygone Days. – The United States of America, 2018. –P. 60
7. Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Pragmatic Competence // The Modern Language Journal. Vol. 86, № 3, 2002. – P. 328-332.
8. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. –P. 9-236.
9. Karimov M. The etiquette and the literary description of character used in the novel “Days Gone By”//Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451. – 2022. – P. 35336-35344.
10. Tukhtasinov I. The Days Gone by. – Tashkent, 2017. –P. 61
11. Умарходжфев М. Основы фразеографии. Дис... д-ра филол. наук. – Москва, 1981. – С. 77-100
12. Karimov M. Specific Features of English literature translations// 6th International Multidisciplinary Scientific Conference on Innovative Technology. – San Francisco, USA, 2021. –P. 12

[77] Тўхтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенсияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Пед. фан. док. (DSc) дисс. –Т., 2018. – Б.242

13. Karimov M. The usage of some stylistic figures in the novel “Days Gone By” (Tropes, Archaisms, Historisms, Dialects)//НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ 2021 махсус сон. –Namangan , 2017. –P. 261-264

14. Karimov M.M. The Role of Synecdoche and Irony Used in Abdulla Kadiri’s Novel “The Days Gone By”. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT – Volume 3 No. 2. – Spain, 2022. – P.74-76.

К ВОПРОСУ ОБ ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Ф.К.Хабибуллаева,
заведующий кафедрой педагогики, психологии и филологии,
доцент Андижанского филиала Кокандского университета

Аннотация

В статье рассмотрены критерии оценки качества перевода художественной литературы в виду отсутствия единых, общепринятых систем проведения экспертной оценки переводного текста. Особое внимание уделяется герменевтическому подходу. Автор утверждает, что в основе теории и практики перевода должен находиться герменевтический подход. Поскольку только адекватное понимание переводчиком текста оригинала позволит ему правильно подобрать эквивалентные языковые средства, и полноценно воссоздать отраженную в нем действительность. Недостаточное понимание реалий национальной жизни может привести к ряду серьезных упущений, препятствующих завоеванию романом Абдуллы Кадыри “Минувшие дни” популярности у русскоязычного читателя.

Ключевые слова: качество перевода, герменевтический подход, национальные реалии, адекватный перевод, читатель, комментарий.

Annotasiya

Maqolada tarjima qilingan matnni ekspert baholashning yagona, umume'tirof etilgan tizimlari yo‘qligi sababli badiiy adabiyot tarjimasi sifatini baholash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Germenevtik yondashuvga alohida e'tibor beriladi. Muallif tarjima nazariyasi va amaliyoti germenevtik yondashuvga asoslanishi kerakligini ta’kidlaydi. Chunki tarjimonning asl matnni adekvat tushunishigina unga ekvivalent lingvistik vositalarni to‘g‘ri tanlash va unda aks ettirilgan voqelikni to‘liq qayta yaratish imkonini beradi. Milliy hayot haqiqatlarini etarlicha tushunmaslik Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanining rusiyzabon

kitobxonlar orasida shuhrat qozonishiga to‘sqinlik qiladigan qator jiddiy kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Tayanch so‘zlar: tarjima sifati, germenevtik yondashuv, milliy voqelik, adekvat tarjima, o‘quvchi, sharh.

Abstract

The article examines the criteria for assessing the quality of translation of fiction due to the lack of unified, generally accepted systems for conducting expert assessment of the translated text. Particular attention is paid to the hermeneutic approach. The author argues that the theory and practice of translation should be based on the hermeneutic approach. Since only an adequate understanding of the original text by the translator will allow him to correctly select equivalent linguistic means and fully recreate the reality reflected in it. Insufficient understanding of the realities of national life can lead to a number of serious omissions that prevent Abdulla Kadiri's novel "Days Gone By" from gaining popularity among Russian-speaking readers.

Key words: translation quality, hermeneutic approach, national realities, adequate translation, reader, commentary.

Оценка качества перевода художественного произведения обусловлена особенностями самого процесса перевода. Вопрос о качестве перевода возник вместе с вопросом о методах перевода, и вот уже несколько веков ищет своего решения. Тем не менее, приходится признать, что проблема адекватности художественного перевода и по сей день остается одной из самых актуальных.

Вопрос о качестве перевода возник уже тогда, когда стали рассуждать о том, как надо переводить и каким должно быть соотношение между подлинником и переводом. Как пишет Г.Кружков, «уже на заре литературы (фактически даже раньше) возникло два метода перевода: интегральный и корпускулярный, смысловой и дословный. И вскоре возник спор: как переводить лучше: все значение в целом (как нераздельное рычание) или по словам, атомам речи. Этот спор, продолжающийся до наших дней, можно проследить с античных времен» [5]. Хотя такие споры велись с древних времен, в них ставился вопрос «как переводить?», то есть внимание акцентировалось не на качестве перевода как таковом, а на методе перевода. Проблема качества актуализировалась намного позже – к началу XIX века, когда больше стало цениться индивидуальное во всем, в том числе, в творчестве и в литературном произведении. Так, Ф.Шлейермахер в своей

лекции «О разных методах перевода», прочитанной 24 июня 1813 года, говорил, что: «…чем больше собственного видения вещей и оригинальных ассоциаций выказал автор в своей работе, чем более он свободен в выборе своей задачи, тем более его труд приближается к высокой художественной сфере, и переводчик должен в этом случае обладать другими возможностями и другим мастерством и совсем по-иному проникать в дух писателя и его язык…» [10]. Как видим, здесь индивидуальное подчеркивается как условие «приближения к высокой художественной сфере», что ставит совсем иные задачи перед переводчиком. Такое понимание индивидуального должно было неизбежно привести к национальному, так как оно проявляется в индивидуальности художника, и, наоборот, индивидуальность конкретизируется национальным.

Шлейермахер косвенно подчеркивает важность национального, когда говорит: «Только тот, кто ценой большого труда совершенствовался в знании языка, изучал историю и дух народа, знакомился с отдельными произведениями и их создателями, может испытать потребность сделать достоянием своего народа и своих современников шедевры творчества ученых и поэтов» [10]. Как видим, философ оперирует понятием «дух народа», который ближе современному ему научному сообществу, однако это не меняет сути дела – национальное своеобразие уже становилось объектом научного интереса. То есть, завершился тот этап развитии культуры, когда общее преобладало над индивидуальным, то есть эпоха классицизма, или еще шире, эпоха традиционализма ушла в прошлое.

Для того, чтобы максимально приблизить друг к другу два субъективных восприятия одного и того же произведения, а именно восприятие переводчика и оценивающего данный перевод читателя (критика) восприятия, переводчику необходимо профессионально уяснить уникальность произведения, и в первую очередь его национальное своеобразие. Не случайно в своё время В.Е.Шор, стараясь примирить сторонников лингвистической теории перевода и реалистического метода перевода, писал: «переводчик должен быть не только художником, но и ученым-филологом. Художник и ученый – две нераздельные ипостаси настоящего мастера художественного перевода» [7]. Конечно, говоря об ученом-филологе В.Е.Шор скорее имел в виду воссоздание языковых, стилистических особенностей оригинала. Однако, он также говорил и о «глубоко понятом в смысловом, языковом и художественном отношениях оригинале», что позволяет шире понимать использованное им слово «ученый». Для понимания смысла необходимо осознавать, в частности,

«этнологические и культурные реалии», использованные в переводимом произведении и конкретизирующие, например, смысл действий и поступков персонажей, их речи, суть конкретных жизненных ситуаций и многое другое. Иными словами, от переводчика требуется быть не только «ученым-филологом», но ученым в широком смысле – историком, этнографом, культурологом, религиоведом и т.д. Это особенно важно при переводе исторических произведений, содержание которых значительно отстоит по времени и от современного читателя, и от самого переводчика. Прежде чем приступать к переводу подобных исторических произведений с ярко выраженной национальной спецификой, необходимо уделить серьезное внимание предварительному комментарию и толкованию художественного текста. Данное обстоятельство актуализирует герменевтический аспект перевода, который включает в себя вопросы понимания текста оригинала, и который необходимо рассмотреть отдельно.

Герменевтика, как философская дисциплина и методология гуманитарных исследований, давно находится в центре внимания исследователей.

Концентрируя внимание на сложной организации переводческой системы, с точки зрения герменевтического подхода, особое внимание уделяют ее подсистеме «текст – интерпретатор», которая нацелена на выявление «смысловой организации текста». Говоря о герменевтическом анализе текста, исследователи представляют его основную цель, как «адекватное перевоплощение в языковой материи переводного текста». Термин «адекватный» приобрел важный статус в герменевтическом подходе. Так сам процесс перевода объясняют при помощи понятия «адекватного»: «Перевести – значит адекватно понятое адекватно воссоздать средствами другого языка, воспроизвести с учетом взаимодействия содержания и формы». Исходя из сути герменевтики, как науки о понимании, толковании и интерпретации текстов, особое внимание уделяется информации, заложенной в них. Различают пять степеней информационного запаса произведения. Утверждается, что овладение информационным запасом 3-ей степени, а именно уровнем «знания лексической единицы, который позволяет свободно владеть ею и правильно понимать, и употреблять ее в речи», достаточно для успешного осуществления перевода.

Анализируя проблему понимания в герменевтическом подходе, выделяются, такие его этапы как «ожидание» и «постижение»: «Понимание текста как целого невозможно без понимания его отдельных частей. К пониманию интерпретатор приходит постепенно, через последовательное

ознакомление с отдельными частями текста. При этом у него возникает некое ожидание того смысла, которым характеризуется весь текст. Причем это ожидание, равно как и результирующее постижение смысла текста, влияет на понимание и отдельных частей текста», подчеркивая важность понимания, как всего текста, так и его частей. Так констатируется, что «Взаимосогласие отдельного и целого – всякий раз критерий правильности понимания. Если такого взаимосогласия не возникает, значит понимание не состоялось». Еще одной опасностью для понимания становится информационная неполнота текста. Она возникает, когда «автор текста предполагает у его адресатов такую же предварительную информированность, которая имеется у него, но которой у них на самом деле нет. Кроме того, автор оригинала обычно ориентируется на фоновые знания носителей языка оригинала, которых нет у носителей ПЯ и которые переводчику приходится так или иначе эксплицировать либо в трансляте, либо в комментариях к нему». Необходимость комментариев для переводческих текстов особенно интересна при переводе национальной литературы, которая у каждой нации имеет свои непереводимые тонкости или фоновый культурный запас, который недоступен человеку извне.

При анализе текстов с точки зрения герменевтического подхода их разделяют на тексты с информационной определенностью и информационной неопределенностью. Под информационной определенностью или однозначностью текста подразумеваются случаи, когда текст имеет только «одно понимание», а под информационной неопределенностью или неоднозначностью – случаи, когда текст имеет несколько пониманий (интерпретаций). Среди разновидностей информационной неопределенности называют многоплановость (полифонию) слова.

Таким образом, в герменевтике каждое слово играет важную роль, поскольку вариативность его значения придает тексту такую же многозначность. Неудивительно, что смысловая многоплановость оригинала – это одна из лингвистических причин многовариантности перевода, поскольку в подобных случаях возможны разные решения и, следовательно, допустимы разные варианты перевода одного и того же текста.

В обязанность переводчика входит необходимость понять, что хотел сказать автор, и выразить эту мысль в переводе.

В процессе перевода одинаково важны все три звена в цепи отношений: автор–переводчик–читатель. Для успешного перевода важно, чтобы коммуникационная компетентность (как лингвистического, так и

экстралингвистического плана) каждого из них была относительно равна другому. При этом особенно важно, чтобы переводчик сам приблизился к коммуникативной компетентности автора, а потом попытался поднять коммуникативную компетентность читателя до необходимого уровня. Недостаточный уровень компетенции читателя, не способного понять заложенную в тексте информацию, может свести на нет даже самый хороший перевод. Особенно необходимо уделить внимание на неязыковую компетенцию читателя, лингвоэтнические знания получателя информации, поскольку только при достаточном их уровне читатель будет в состоянии верно оценить прочитанное. В случае, когда подобного уровня ожидать не приходиться, нужно создавать данную компетенцию при помощи дополнительной информации в виде комментариев или приложений к тексту. Преодоление разницы в уровнях компетенции участников коммуникации: автор-переводчик-реципиент – является одной из важных герменевтических проблем перевода.

Исходя из значения герменевтики, как искусства и теории толкования текстов – учения о понимании смысла высказывания, принятом в средние века, рассматривают ее как учение о понимании другой индивидуальности. И хотя перевод ограничивается узким значением герменевтики – как интерпретации текста, тем не менее применение ее обязывает толкованию именно неопределенного смысла в тексте, поскольку очевидный смысл комментировать ни к чему.

Таким образом, понимание перевода как вида герменевтического дискурса предполагает выявление не только очевидного смысла текста, но и его имплицитного компонента. Для передачи данного имплицитного компонента предлагают практические средства: собственно-герменевтические, герменевтическо-переводческие и ассоциативно-герменевтические. К собственно-герменевтическим относят переводческий комментарий, от точности и полноты которого зависит степень достижения адекватности и эквивалентности в реализации смысла исходного текста. К герменевтическо-переводческим относят переводческую трансформацию-экспликацию, применяя которую переводчик объясняет имеющимися в его распоряжении средствами переводящего языка смысл лексической единицы или даже части текста. К ассоциативно-герменевтическим относят переводческие преобразования, способствующие формированию у реципиента возможной ассоциации с явлением, к которому апеллирует автор текста. К таким преобразованиям могут относиться добавление и конкретизация.

Сложность перевода диалогов объясняется еще и тем, что здесь, необходимо учитывать множество экстралингвистических факторов. Переводчику надо вжиться в ситуацию, прочувствовать переживаемое каждым персонажем в данный момент, понять его состояние, отношение к предмету высказывания. И только при выполнении данного условия возможен относительно адекватный перевод.

Одним из таких примеров является роман Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Написанный почти сто лет назад и повествующий о событиях еще большей давности, данный роман содержит много исторических и специфически-национальных характеристик, которые в настоящее время не совсем понятны даже самим читателям-носителям узбекской национальной культуры.

Рассмотрим эпизод первой встречи уста Алима, любезно пригласившего к себе ночевать «заблудившегося Шакирбека» – Атабека, где спрашивает своего гостя «вы не станете возражать, если я перед пловом выпью одну-две пиалы вина» [2,193]. В подлиннике подчеркивается неловкость, которую испытывает при этом уста Алим. Не указывая напрямую, автор все же смог мастерски показать это состояние хозяина дома. Тем более важно помнить, что «прочитать между строк» и понять неполную информацию может только подготовленный читатель, то есть носитель той же культуры. Читатель подлинника хорошо понимает причину неловкости уста Алима и ее уместность в данной ситуации. Поскольку, вполне возможно, что незнакомый гость может оказаться строго придерживающимся законов шариата, согласно которым, вино – харам, и такому человеку в тягость, если вообще возможно, общение с пьющим. В этом случае, сказав о своем желании выпить, уста Алим нарушил бы законы гостеприимства. Но, увидев в лице Атабека близкого по духу человека, он немного осмелел и решил разведать возможное отношение гостя. Поэтому, начав с якобы «уважительных причин», мол, табибы (врачи, знахари) рекомендовали, уста Алим ждет как это воспримет гость, и успокаивается только, увидев его спокойную реакцию. Приведем реплику полностью:

« – Потому ли, что я постоянно работаю в сырости, или же вообще по слабости здоровья, я часто недомогаю, – сказал хозяин. – Часто грудь болит у меня. Недавно я показывался лекарю, так он мне сказал, что у меня мало крови, и посоветовал пить кумыс, а перед едой употреблять виноградное вино. Следуя его совету, я вот уже несколько дней пью кумыс и вино, и это заметно помогает мне. Говорю это в надежде, что вы не станете возражать,

если я перед пловом выпью одну-две пиалы вина. – И он улыбнулся смущенно» [2,193].

Необходимо отдать должное переводчикам, которые реплику уста Алима сопроводили ремаркой: «И он улыбнулся смущенно». Если учесть, что в подлиннике говорится только о его улыбке (“деди ва кулди” – сказал и улыбнулся), то добавление обстоятельства «смущенно» свидетельствует о том, что переводчики вникли в суть происходящего в душе уста Алима. Однако, несмотря на это, в обоих переводах устранили важную деталь, свидетельствующую о душевной «неловкости» уста Алима – слово «мавиз». Так, из-за душевной неловкости своим «лечебным» напитком он называет вино, тем самым, как бы подчеркивая, что это не «май» – вино, то есть, не запрещенное законами шариата – «харам», а нечто другое – лекарство. Автор как бы подчеркивает, заостряет на этом внимание читателя, подшучивая над уста Алимом, который вынес кувшинчик «по-своему определению не вина, а мавиза» (“ўзининг таъбирича май эмас, бир кўвача мавизни олиб чикди”). С уверенностью можно утверждать, что поведение уста Алима, его душевное состояние во время разговора с малознакомым человеком на щекотливую тему изображены в соответствии с правдой национальной жизни середины XIX века, и в этом процессе важная роль принадлежит рассматриваемой детали. Кроме того, эта же деталь выполняет и характерологическую функцию, представляя уста Алима как немного плутоватого, смекалистого и, в целом, полного жизненной энергии человека. Сказанного достаточно для утверждения, что из-за устранения детали «мавиз» изображаемый жизненный эпизод потерял свое национально-историческое своеобразие. Необходимо помнить, что слово «мавиз» было частью целого – реплики мастера Алима. А часть входит в целое только с точки зрения смысла последнего, то есть, необходимость части неоспорима, и ее устранение приведет к изменению смысла, в чем убеждает рассмотренный выше перевод реплики.

В подаче ответной реплики Атабека в обоих переводах наблюдается такая же оплошность: «Воля ваша, как я могу возражать?» [2,193; 3,208]. Этот ответ подразумевает, что уста Алим будучи хозяином дома волен делать все, тогда как это вовсе не так: законы гостеприимства обязывают во всем считаться с гостем. С другой стороны, в подлиннике нет и намека на волю хозяина дома, Атабек говорит о том, что у него есть уважительная причина, то есть, раз уж лекари прописали и это необходимо для здоровья, то тут нечего и возражать. Дело в том, что шариат позволяет в ряде случаев не выполнять или выполнять только частично те или иные законы, если на то

есть серьезная причина. Например, если по причине здоровья человек не может держать пост, он считается «маъзур» (узрли) и за один день поста может накормить одного голодного. Такое и имел в виду Атабек, когда отвечал уста Алиму: “Қандай қаршилиғим бўлсин, сиз маъзурсиз” [1,195], что дословно означает: «Какое может быть возражение, у вас – уважительная причина». Такой ответ Атабека более соответствует времени и обычаям: есть причина, лучше взять ее на веру и дальше не углубляться – каждый отвечает за себя. В отличие от этого, ответ в переводах не только не соответствует, а наоборот, даже противоречит времени и обычаям, тесно связанным с верой. Ибо шариат обязывает истинного мусульманина всячески противиться всему, что запрещено его законами, всему греховному.

Резюмируя сказанное, можно утверждать, что в основе теории и практики перевода должен находиться герменевтический подход. Поскольку только адекватное понимание переводчиком текста оригинала позволит ему правильно подобрать эквивалентные языковые средства, и полноценно воссоздать отраженную в нем действительность. А то, что в произведении отражается действительность, увиденная глазами автора–представителя определенного народа, который по-своему видит и понимает окружающий мир, и то, что воссоздается эта действительность средствами национального языка, делают национальное своеобразие ее важнейшей составляющей. Иными словами, национальная окрашенность художественного произведения – закономерное явление, то есть, произведения могут различаться по степени своей национальной «окрашенности», но все они обязательно ею обладают. Из этого следует, что адекватное понимание произведения предполагает также понимание его национального своеобразия.

Литература:

1. Абдулла Кодирий. Ўтган кунлар. – Т: Шарк. – 2014. – 400 б.
2. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. – Т.: Художественная литература, 1958. – 371 с.
3. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. – Т.: Шарк. – 2009. – 432 с.
4. Qodirov A. Dilmurod Quronov Adabiy-tanqidiy qarashlari. – Farg‘ona: – 2025. – 134 b.
5. Кружков Г. Хроники вавилонского разделения // Иностранная литература. – 2007. – №11 / http://magazines.russ.ru/inostran/2007/11/kr7-pr.html
6. Қуронов Д.Х. Назарий қайдлар. - Тошкент: Академнашр, 2018. – С. 64-80.

7. Нейман Н.Р. Дискуссия о типах художественного перевода в советском переводоведении // Studia Litterarum. – 2017. – Т.2, №2. –С.190-211. - DOI: 10.22455/2500-4247-2017-2-2-190-211

8. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri’s novel “The Past Days”. Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

9. Хабибуллаева Ф.К. Изображение особенностей национальной культуры в романе А. Кадыри «Минувшие дни» и их воссоздание в переводе. Т., 2019. – С.119-121.

10. Ф.Шлейермахер. Лекция «О разных методах перевода», прочитанная 24 марта 1813 г. // Вестник МГУ. – Сер.9. Филология, 2000. – №2. – С.127-147. – URL: www.philol.msu.ru|

TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI TADQIQI (Dilmurod Quronov ijodi misolida)

Abdulazizbek Qodirov,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
dotsenti v.b., f.f.b.f.d(PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi tarjimashunoslikning dolzarb muommolari filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronovning sohaga oid maqolalari tahlili orqali yoritilgan. Olimning soha rivojiga xizmat qiluvchi fikrlariga muallifning munosabati berilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimashunoslik, adekvat, roman, kamchilik, qissa, adabiyot, moslik.

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы переводоведения на сегодняшний день посредством анализа статей доктора филологических наук, профессора Дилмурода Куранова по данной теме. Дается авторский отклик на идеи ученого, служащие развитию направления.

Ключевые слова: перевод, переводоведение, адекватный, роман, дефицит, рассказ, литература, совместимость.

Abstract

This article highlights the current issues of translation studies today through an analysis of the articles of Doctor of Philology, Professor Dilmurod

Kuronov on the subject. The author's attitude to the scientist's ideas that serve the development of the field is given.

Keywords: translation, translation studies, adequate, novel, deficiency, short story, literature, compatibility.

Buyuk jadid ma’rifatparvari Abdulhamid Cho‘lpon XX asr tarjimashunosligi haqida gapirar ekan, bu soha vakillarining o‘z ishiga mas’uliyatsizlik bilan qarayotganligini ta’kidlaydi, mutarjimlarni “ko‘lagada qoldirib ketilgan toifa” deb ataydi. Afsuski, oradan qariyib bir asr vaqt o‘tsa hamki, mazkur sohada etarlicha muammolar o‘z echimini topa olgani yo‘q. Dilmurod Quronov qator maqolalarida tarjimashunoslik va tarjima tanqidchiligiga e’tibor qaratadi, jumladan, olimning “O‘tgan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar”, “Chingiz Aytmatov asarlari tarjimasiga doir”, “Tarjima haqida ayrim mulohazalar”, “Tarjima tanqidchiligi haqida” singari maqolalarida sohadagi yutuq va kamchiliklar, asarlar tarjimasidagi asliyat bilan nomutanosibliklar haqida fikr yuritiladi. 1958-yilda “O‘tkan kunlar” romani Y.Bat va O.Smirnovalar hamkorligida rus tiliga tarjima qilingan bo‘lsa, oradan qariyb 50 yil o‘tgach, M.Safarov asarni ruschaga o‘giradi. Olim “O‘tgan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar” maqolasida “O‘tkan kunlar” asarining rus tiliga tarjima qilingan ikkita tarjimasi haqida fikr yuritadi. Olim asarning rus tiliga tarjima qilinganligini xursandchilik bilan ta’kidlar ekan, ulardagi ayrim kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, asardagi milliy mentalitet bilan bog‘liq o‘rinlar olimning diqqatini tortadi. To‘y sahnasidagi qutidorning holatini tahlil qilar ekan, “Qutidor eshik ostida qo‘l qovishtirib mehmonlarni kutib oladir, er ostidan kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yadir” jumlasining tarjimada tub ma’nosini yo‘qotishi olimning e’tiroziga sabab bo‘ladi. Olimning fikricha, “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek xalqining milliy qiyofasi ramzi bo‘lib, asardagi har bir so‘z ana shu milliy qiyofani ochib berishga qaratilgan. Qutidorning “kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yishi”ning ham o‘ziga xos sabablari bor. O‘zbek xalqi urf-odatlariga ko‘ra qaynota va kuyov o‘rtasida nozik parda borki, bu ularning hislarini omma oldida to‘la namoyish qilishdan qaytaradi. Roman tarjimasida esa mana shu “kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yishi” “mamnunlik bilan qaradi” sifatida berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, qaynota va kuyov o‘rtasidagi nozik pardani ko‘taradiki, u asarning ta’sir quvvatiga putur etkazadi. Ikkinchi tarjimada esa mazkur jumla “исподлобья” fe’li bilan ifodalanadi. Bu fe’l esa rus tilida ko‘proq “xo‘mrayish”, “qovoq uyish” ma’nolarida qo‘llaniladi. Olim qaynotaning yangi kuyovga qovoq uyishini ham asliyatga nomutanosiblik sifatida baholaydi. Bizningcha ham, “qovoq uyish” fe’li bilan ifodalansa, nafaqat asliyatdan uzoqlashadi, balki, asardagi qahramonlar

harakatidagi mantiqiylikka ham putur etadi. Chunki qizini “xon qiziga loyiq” bir yigitga berayotganiga ishongan Qutidorning kuyovga qovoq uyib qarashi aslo mumkin emas. Olim mazkur holatning sababi sifatida tarjimonlarning milliy urf-odatlarimizni etarli darajada bilmasligini keltiradi. Su boisdan ham tarjimonlar qutidorning kuyovni kutib olishdagi holatdagi nozik ishorani payqamaganlar va buni tarjimada qayta yaratish maqsadini o‘z oldiga qo‘ymaganlar.

Olim asar tarjimasi tahlilida davom etarkan, Kumushning nikoh uchun amakisiga vakolat berish o‘rnidagi asliyat bilan nomutanosiblikka diqqat qaratadi. Asardagi “Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi?” jumlasi birinchi tarjimada “muhabbatingizni topshirishni amakingiz zimmasiga yukladingizmi” tarzida berilgan. Bu esa o‘z navbatida, o‘zbek mentaliteti bilan tanish bo‘lmagan rusiyzabon kitobxonning masalani yanglish tushunishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni u “Kumushning muhabbat izhorini kuyovga amakisi etkazishi kerak ekan” tarzida qabul qilishi mumkin. Mazkur jumlaning ikkinchi tarjimada berilishi esa olimning keskin noroziligiga sabab bo‘ladi. Olim ikkinchi tarjimadagi yuqoridagi jumlaning “badan (jism)ingizni … Otabekka topshirishni amakingiz zimmasiga yukladingizmi” tarzida berilishini aslo qabul qilib bo‘lmaydigan holat deb baholaydi. Chunki, Ziyo shohichi ta’kidlaganidek, “shahardagi obro‘li bir musulmonning “iffat pardasi ostida o‘lturgan qizi”ga, umuman olganda, musulmon qiziga savolning bu tarzda berilishi to‘g‘ri emas. Bizningcha ham, nikohdagi kelinning “tan mahramlik uchun o‘zini bag‘ishlashi” va asar tarjimasidagi “badan (jism)ini … Otabekka topshirishni amakisi zimmasiga yuklash” o‘rtasida juda katta farq bor. Va bu farqlar asar resepsiyasida - boshqa xalqlar tomonidan qabul qilinishida turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari “rus mentalitetini o‘zida to‘la mujassamlashtirgan asar sifatida baholanadi va o‘z o‘rnida “O‘tgan kunlar” romanini “o‘zbek turmushining qomusi” deb atash mumkin. Asarda tasvirlangan maishiy turmush lavhalari, hayotiy holatlar, urf-odat va marosimlar, qahramonlarning xatti-harakati-yu, gap-so‘zlari, fikrlari, bir-biri bilan munosabatlari milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan. Shu sababdan ham o‘zbek kitobxoni romanni o‘qish jarayonida tasvirlangan voqealarni va uning tag zamiridagi ma’no nozikliklarini ko‘z oldiga keltirgan, his etgan, muallif mahoratidan zavqlangan o‘rinlarni bu madaniyat bilan tanish bo‘lmagan boshqa millat vakilining mavjud holatni to‘la anglashi, his etishi qiyin masala. Bu o‘rinda D.Quronov asosli fikrni keltiradiki, bu asarning o‘zga tilli millatlar tomonidan to‘liq tushunilmasligi sabablarini ifodalab beradi: “Milliy ruh avvalo tilda yashaydi, bas, o‘zbek

o‘quvchisiga birgina so‘z olam-olam ma’no berishi mumkin, chunki bu holda o‘sha so‘z kontekstda – o‘quvchining shu milliy zaminda shakllangan bilimi, dunyoqarashi, xulq-atvori, fe’l-sajiyasi kabilar kontekstida qabul qilinadi”[3,98].

Olim maqola so‘ngida tarjima ishining o‘zi murakkab sohaligini, “O‘tgan kunlar”dek milliylik ruhi bilan sug‘orilgan asarlarni tarjima qilish mutarjimga ikki karra mas’uliyat yuklashini ta’kidlar ekan, tarjimonlar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi. Jumladan:

- “tarjima qilish uchun avval romanni tom ma’noda o‘zlashtirish, matn zamiridagi ma’no tovlanishlarining barini ko‘ra olish darkor. Buning uchun tarjimonga badiiy so‘zni teran his qiladigan filolog, o‘tmishimizni ikir-chikirlarigacha jonli tasavvur eta oladigan tarixchi, urf-odatlarimizdan chuqur xabardor etnograf, diniy arkonlarni biladigan dinshunos kabilarning maslahatlari muntazam kerak bo‘ladi.

- tarjima tilida original badiiy ijod qilishga qobil va bu borada iqtidorini namoyon eta olgan kishini – professional yozuvchini mutarjim sifatida jalb etish zarur. Zero, faqat shundagina roman o‘zga tilda badiiy asar o‘laroq jarang topishi mumkin. Ayni choqda, ish davomida uning yonida o‘zbek va ingliz tillarini mukammal biladigan maslahatchi bo‘lishi kerak, toki muallif va adabiyotimiz manfaatlarining himoyachisi o‘laroq turib bersin.

- romanning o‘zga tildagi nashri ancha katta hajmdagi mufassal izoh va sharhlar bilan ta’minlanishi shart”[4,27].

Бошқача айтганда, лисоний ортиқчалик ва лисоний тежамлилик қанчалик фарқ қилмасин, улар шунчалик ёндош ва мунсабатдошдир. Биринчисида шаклий бирликлар маъновий қийматга эга бўлмайди, иккинчисида, аксинча, маъновий бирликлар моддий шаклга эга бўлмайди. Муҳими шундаки, “тежамлилик” ҳодисасида маъновий бирликлар кўп (ортиқча) бўлади; ортиқчаликда шаклий бирликлар кўп (ортиқча) бўлади[7,3]. Дарҳақиқат, *Ҳалол (киши) тўғри ишлайди* гапининг синтактик қурилмаси орқали ифодаланиши лозим бўлган маъно қамрови *Ким ҳалол бўлса, у тўғри ишлайди* гапининг шаклий қурилмаси орқали ифодалаш мумкин. Муҳими яна шундаки, ортиқчалик белгисига эга бўлган кейинги қурилма ҳам тил синтактик системасида муҳим ва аҳамиятли ҳодисалардан бири сифатида характерланади.

Бу ҳол гап бўлакларининг номалий мавқе билан боғлиқ ҳолда ҳам юзага келади.Аниқроғи , гап мазмун ифода жабҳасининг ноамалий мавқеи билан алоқадор бўлади. Синтагматик номутаносиблик туфайли гап таркибидаги сўзлар миқдори билан гап бўлаклари миқдори мувофиқ келмайди. Масалан, *Кўп ўқиган кўп билади* типидги жумларда гапнинг мазмун ва ифода жабҳасига хос номутаносиблик мавжуд. Гап мазмун жабҳасида маъновий бирликлар (субъект, унинг атрибути, предикат, унинг атрибути) миқдори тўртта бўлишига қарамай, унинг ифода жабҳаси икки функционал қисмдан иборат: эга ва кесим.Гап мазмун қамровидаги субъект атрибути ва предикат атрибути тушунчалари моддийлаштирувчи лексик бирликлар мавжуд бўлса-да (кўп; ўқиган; кўп: кўп билади), улар (лексик бирликлар) мустақил функқионал мавқеига эга эмас: субъектнинг атрибути, предикатнинг атрибути маъноларини билдирувчи лексик бирликнинг эганинг ва кесимнинг синтактик мавқеларига тортилган-гап мазмун ва ифода жабҳасининг синтагматик характердаги номутаносиблиги вужудга келган [1,18-19]

Н.Маҳмудов ўзбек тилидаги эргаш гапларни ўрганишда Ғ.Абдураҳмонов, М.А.Асқарова, А.Бердиалиевларнинг илмий тадқиқотлари алоҳида диққатга сазовор эканлигини таъкидлайди [5, 214] Айниқса, А.Бердиалиевнинг тадқиқотлари ана шу йўналишдаги ўзбек тилшунослигидаги дастлабки ишлардан бири эканлигини уқтириб, эргаш гапли қўшма гаплардаги парадигматик ва синтагматик, мазмуний-

сигнификатив хусусиятлари, улардаги синтактик омонимия, полисемия, кўп функционаллик каби бир қатор масалалар чуқур тадқиқ этилганлигини эътироф этади [5, 215]

Гап қурилиши бирликларига ўзига хос лисоний рамз мақомида бўлади.Уларда барча рамзий бирликарга хос қонуниятлар амал қилади.Шу боис гапнинг шаклий (ифода) ва маъновий жабҳаларида баъзан номутаносибликлар содир бўлиб туради.

Синтактик бирликларнинг маъно ва шакл жабҳаларида кўзга чалинувчи бундай номутаносиблик икки хилдир: парадигматик номутаносиблик ва синтагматик номутаносиблик (7,7.). Муҳими шундаки, бошқа синтактик бутунликларда кузатилувчи шакл ва маъно мутаносиблиги ёхуд номутасносиблиги эргаш гапли қўшма гап қурилмаларида ҳам кўзга ташланади. Масалан, *Ер тўймай, мол тўймас (мақол)* жумласида *“ер ва унинг тўймаслиги*”, *“мол ва унинг туймаслиги”* денотатларига асосланувчи лисоний маънолар (сигнификатлар) бирдан ортиқ: шарт, пайт, сабаб ва натижада маънолари бир структурада синхрон тарзда қоришиқ (синкрет) ифодаланган. Бу нарса мазкур қўшма гапда шакл ва маъно номутаносиблиги (асимметрия)ни вужудга келтирган. *“Бу шундай ўлкаки,... Унинг қучоғида туғилар баҳор”. (Қ.Қулиев)* қўшма гапидаги шакл ва маъно муносабатида синтактик-семантик номувофиқликнинг яна бошқа кўриниши мавжуд. Мазкур жумла лисоний моддийлаштирган нутқ вазияти жуда содда. Унинг мазмуни бир денонатив асосга эга. Уни “Бу қучоғида бахт туғиладиган ўлкадир” тарзида содда гап билан унга маънодош муқобил саналувчи қўшма гапнинг мантиқий асоси фарқ қилмайди. *Бу шундай ўлкаки, унинг қучоғида туғилар баҳор”* қўшма гапида синтактик-семантик номутаносиблик мавжуд. Бу номутаносиблик “ер тўймай, мол тўймас” гапида оддий шакл бирдан ортиқ семантик мураккаб маънолар ифодаланган бўлса, *“Бу шундай ўлкаки,...* гапида мураккаб шаклда оддий мазмун ифодаланган. Биринчи қўшма гап структурасига хос номутаносиблик махсус адабиётларда парадигматик номутаносиблик деб аталувчи турга мансуб бўлса, кейинги гапдаги номувофиқлик синтагматик номутаносиблик деб ажратилувчи турга мансубдир.

Эргаш гапли қўшма гаплар ва уларнинг конкрет структураларида шакл ва маъно номутаносиблигининг ҳар икки кўриниши баравар иш кўраверади. Парадигматик номутаносибликка кўра қўшма гапларнинг омонимик, кўп маънолилик каби хусусиятлари намоён бўлади (Берд.1, 14). Синтагматик номутаносибликка кўра эргаш гапли қўшма гапларнинг ё қўшма гаплар билан, ё содда гаплар билан маънодошлиги (синонимияси) вужудга келади.

Чунки ниманинг ортиқча, ниманинг етишмаслиги денотатив асоси муштарак бўлган гапларни қиёслаш орқали амалга ошади. Денотатив асоси муштарак бўлган тил бирликлари одатда синонимия ҳодисаси қамровида бўлади. Шунинг учун ҳам *“Бу шундай ўлкаки, . . . унинг қучоғида туғилар баҳор”* билан *“ бу қучоғида баҳор туғиладиган ўлкадир*” жумлалари синоним гаплардир.

Парадигматик ва синтагматик характердаги номутаносиблик эргаш гапли қўшма гапларнинг деярли барча тип ва кўринишларида мавжуд бўлаверса-да баъзан улар эргаш гапли қўшма гапнинг типларига кўра хосланиш хусусиятига ҳам эга. Шу жиҳатдан қараганда, синтактик номутаносибликнинг қамрови бир оз чекланади. У одатда синтетик тип тарзида ажратилувчи эргаш гапли қўшма гаплар структурасида фаол амал қилади. Синтетик тип эргаш гапли қўшма гаплар эргаш гапли қўшма гапларнинг тобе қисми (эргаш гап) ҳоким қисми (бош гап)нинг гап бўлакларидан бирининг изоҳловчи, унинг маъносини ифода этувчи кўринишдир. Масалан, *Узоқ умр кўраётган кишиларга шу нарса хоски, улар ҳаммаси оилали кишилардир* (“Тафаккур гулшани”) жумласида эргаш гап характеридаги иккинчи қисм, бош гап ҳукмидаги биринчи қисмнинг эгаси (шу нарса)ни изоҳлаган, унинг маъносини рўёбга чиқарган. Бу гап гарчанд мураккаб шаклга эга бўлса-да, ундаги мазмун оддийдир. Уни *“ Узоқ умр кўраётган кишиларга оилалик хосдир”* тарзидаги содда гап орқали ҳам ифодалаш мумкин.

Синтагматик номутаносиблик синтетик тип эргаш гапли қўшма гапларнинг “бош гап+ эргаш гап” тартибида тузилувчи турларида ҳам, “эргаш гап+ бош гап” тартибида тузулувчи турларида ҳам бир хил амал қилаверади. Лекин шуниси ҳам борки, “ эргаш гап + бош гап” тартибида тузилувчи эргаш гарли қўшма гапларда нисбатан шаклий ортиқчалик кўпроқ бўлади. Уларда мантиқий (денонатив) асосга эга бўлмаган лекин бирликларнинг миқдори зиёд бўлади. Масалан, *Ким агар оғир яшаса, у енгил ўлади* (Шуҳрат) жумласида ким, у сўзлари мантиқий қийматга эга эмас. Қиёсланг: Оғир яшаган енгил ўлади.

Эргаш гапли қўшма гап структурасига мутаносиблик ёхуд номутаносибликни ўрганишнинг назарий ва аҳамияти катта. Бу нарса эргаш гапли қўшма семантик синтаксисининг ҳали ҳал этилмаган кўп масалаларига ойдинлик киритади.

Адабиётлар

1.Абдусаматов Р.А. Ўзбек тилида гап бўлакларининг ноамалий мавқеи масаласи. Филол.фан.номзоди.дисс.автореферати. Самарқанд,1994.-23 б.

2.Бердиалиев А.Эргаш гапли қўшма гап конструкциялари семантик-сигнификатив парадигматика.Тошкент:”Фан”, 1989.-107 б.
3.Бердиалиев А.Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларда синтактик алоқа ва синтактик муносабатлар.Тошкент,1993.-102 б.
4.Бердиалиев А.Шеронов Б.Ўзбек тили синтаксиси.Университет ва педагогика олимй ўқув юртлари филология факултетларининг талабалари учун дасрлик.-Хужанд: Раҳим Жалил номидаги давлат нашриёти, 2010.-232 б
4.Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия.-Тошкент: Ўқитувчи, 1984.-124 б.
5.Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.Тошкент: “Фан”, 1992.-294 б.
6.Нурмонов А. Эргаш гапли қўшма гапларнинг янгича тадқиқи // АДУ Илмий хабарнома, - № 2. 2011. – Б. 75-78.
7.Шеронов Б.Ғ. Ўзбек тили гап қурилишида лисоний ортиқчалик. Филол.фан.номзоди.дисс.автореферати. Тошкент,1996.-21 б.

SHODMONQUL SALOM SHE'RIYATIDA TASAVVUFIY OBRAZLAR

Ismigul Sobirova,
Qo'qon DU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyari vakili Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy obrazlar, ramzlar va timsollarning badiiy talqini tadqiq etilgan. Shoirning ijodida Sharq mumtoz adabiyoti an'analarining davomiylik masalasi, tasavvufiy g'oyalarning zamonaviy she'riyatdagi ifodalanish shakllari va ulardagi milliy-ma'naviy qadriyatlar aksi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Shodmonqul Salom she'riyati badiiy-estetik jihatdan o'rganilgan, shoirning tasavvufiy obraz va ramzlardan foydalanish mahorati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy o'zbek she'riyati, tasavvuf, ilohiy ishq, fano, baqo, ma'rifat, pir, solik, tasavvufiy ramzlar, badiiy obrazlar, zamonaviylik va an'anaviylik.

Аннотация: В данной статье исследуется художественная интерпретация суфийских образов, символов и метафор в поэзии современного узбекского поэта Шодмонкула Салома. В работе анализируются вопросы преемственности традиций восточной классической литературы в творчестве поэта, формы выражения суфийских идей в современной поэзии и отражение в них национально-духовных ценностей. Также в статье изучается поэзия Шодмонкула Салома с художественно-эстетической точки зрения, освещается мастерство поэта в использовании суфийских образов и символов.

Ключевые слова: современная узбекская поэзия, суфизм, божественная любовь, фано, бако, просвещение, пир, солик, суфийские символы, художественные образы, современность и традиции.

Abstract: This article explores the artistic interpretation of Sufi images, symbols, and metaphors in the poetry of contemporary Uzbek poet Shodmonqul Salom. The paper analyzes the continuity of Eastern classical literature traditions in the poet's work, the forms of expression of Sufi ideas in modern poetry, and the reflection of national and spiritual values in them. The article also studies Shodmonqul Salom's poetry from an artistic and aesthetic perspective, highlighting the poet's mastery in using Sufi images and symbols.

Keywords: modern Uzbek poetry, Sufism, divine love, fana, baqa, enlightenment, pir, solik, Sufi symbols, artistic images, modernity and tradition.

Zamonaviy o‘zbek she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Shodmonqul Salom ijodi milliy adabiyotimizning muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning she'riyati nafaqat zamonaviy mavzular, balki milliy adabiy an'analarimiz, xususan, tasavvuf adabiyoti an'analarining davomiyligini ham o‘zida mujassam etgan. Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy obrazlar, ramzlar va timsollarning qo‘llanilishi shoirning mumtoz adabiyotimizga, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo‘lgan chuqur hurmatini ko‘rsatadi.

Tasavvuf tushunchasi Sharq falsafasi va adabiyotida muhim o‘rin tutib, u ko‘p asrlar davomida adabiyotimiz rivojiga katta ta'sir ko‘rsatgan. Tasavvuf – insonni ruhiy kamolotga etkazishga qaratilgan ta'limot bo‘lib, uning asosida ilohiy ishq, nafs tarbiyasi, haqiqatni anglash, ma'rifat yo‘liga kirish kabi g'oyalar yotadi. Bu ta'limot o‘zbek mumtoz adabiyotida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi ulug' siymolarning ijodida yorqin aks etgan.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ham tasavvufiy g‘oyalar, obrazlar va ramzlarning qo‘llanilishi davom etmoqda. Bu jihatdan Shodmonqul Salom ijodi alohida ahamiyatga ega. Shoirning she'rlarida tasavvufiy obrazlar va ramzlar zamonaviy mazmun va shakllarda namoyon bo‘ladi, bu esa uning ijodini an'ana va zamonaviylikning uyg'unligi nuqtai nazaridan o‘rganishni talab etadi. Zamonaviy o‘zbek she'riyatida tasavvufiy an'analarning davom ettirilishi, xususan, Shodmonqul Salom ijodida tasavvufiy obrazlar va ramzlarning qo‘llanilishi hali etarlicha o‘rganilmagan. Bu mavzuni tadqiq etish zamonaviy o‘zbek she'riyatining rivojlanish tendensiyalarini, undagi an'anaviylik va zamonaviylik dialektikasini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy obrazlar va ramzlarning badiiy talqinini o‘rganish, ularning zamonaviy

she'riyatdagi o‘rnini aniqlash va shoirning tasavvufiy obrazlardan foydalanish mahoratini yoritib berishdan iborat.

Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy obrazlarning badiiy talqinini o‘rganish natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlanadi:

1.Ilohiy ishq obrazi. Shodmonqul Salom she'riyatida ilohiy ishq obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Shoirning ko‘plab she'rlarida ishq faqat insoniy tuyg'u emas, balki ilohiy mohiyatga ega bo‘lgan, insonni ma'naviy kamolotga etaklovchi kuch sifatida tasvirlanadi. "Ilohiy ishq" she'rida shoir:

"Bu ishq oddiy emas, ilohiydir u,
Qalbni poklaydi har g'ubor, zangdan.
Yurakni nurlantiradi bu tuyg'u,
Insonni yuksaltiradi hayvondan."[1:56]

Bu misralarda tasavvufiy ta'limotning asosiy g'oyalaridan biri – ilohiy ishq orqali insonning ruhiy-ma'naviy poklanishi va yuksalishi g'oyasi ifodalangan.

Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy ta'limotning muhim obrazlaridan bo‘lgan solik (tasavvuf yo‘liga kirgan shaxs) va pir (murshid, ustoz) obrazlari ko‘p uchraydi. "Pir izidan" she'rida:

"Pirim izidan boraman,
Yo‘llarida nur ko‘raman.
Har so‘zidan ma'no topib,
Qalbimni obod qilaman."[2: 83]

Bu misralarda solikning pir izidan borishi, uning ko‘rsatmalariga amal qilishi orqali ma'rifat yo‘lida ilgarilab borishi g'oyasi ifodalangan.

Tasavvuf falsafasining muhim kategoriyalaridan bo‘lgan fano (o‘zlikni yo‘qotish, ilohiy zotda erish) va baqo (Allohda boqiy bo‘lish) tushunchalari ham Shodmonqul Salom she'riyatida o‘z aksini topgan. "Fano yo‘li" she'rida:

"O‘zlikdan kechmoqlik – fano yo‘lidir,
Nafsni engmoqlik – baqo saridir.
Kibrni tark etib, kamtarin bo‘lib,
Ruhiy yuksalmoqlik – Xudo saridir."

Bu misralarda tasavvufiy ta'limotning asosiy g'oyalaridan biri – o‘zlikdan kechish, nafs va kibrni engish orqali ruhiy kamolotga erishish g'oyasi ifodalangan.

Tasavvufiy ramzlar tizimi. Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy adabiyotga xos bo‘lgan ramzlar tizimi keng qo‘llanilgan. Jumladan, "may" (ilohiy ishq, ma'rifat), "soqiy" (murshid, pir), "mayxona" (xonaqoh, ma'rifat maskani), "qadah" (qalb), "sharob" (ilohiy ma'rifat) kabi ramziy obrazlar shoirning ko‘plab she'rlarida uchraydi. "Mayxona siri" she'rida:

"Bu mayxonada ichilgan may,

Oddiy sharobdan o‘zgadir.
Bu erda soqiy tutgan qadah,
Ma'rifat bilan to‘lgaydir.

Bu misralarda mayxona – ma'rifat maskani, may – ilohiy ma'rifat, soqiy – murshid, qadah – qalb ma'nolarida qo‘llanilgan.

Nur va zulmat obrazlari. Shodmonqul Salom she'riyatida nur va zulmat qarama-qarshiligi tasavvufiy ma'noda ko‘p qo‘llaniladi. Nur – ilohiy ma'rifat, haqiqat, ezgulik timsolidir, zulmat esa jaholat, nafs, yovuzlik timsoli sifatida keladi. "Nur sari" she'rida:

"Zulmatdan chiqib, nur sari bormoq –
Insonning azaliy intilishidir.
Qalbdagi nurni topib, ardoqlab,
Ma'rifat yo‘lida ulg'ayishidir."

Bu misralarda zulmatdan nurga, ya'ni jaholatdan ma'rifatga intilish g'oyasi ifodalangan.

Yo‘l obrazi. Tasavvufiy adabiyotning an'anaviy obrazlaridan biri bo‘lgan yo‘l obrazi Shodmonqul Salom she'riyatida ham muhim o‘rin tutadi. Yo‘l – ma'rifat yo‘li, haqiqatga erishish yo‘li, ruhiy kamolot yo‘li sifatida talqin etiladi. "Ma'rifat yo‘li" she'rida:

"Bu yo‘l oson emas, mashaqqatlidir,
Sinov va to‘siqlar ko‘p uchrar unda.
Ammo bu yo‘lda kim sabr-toqatli,
Maqsadga etishur, albatta, shunda."[3:71]

Bu misralarda ma'rifat yo‘lining murakkabligi, ammo sabr-toqat bilan bu yo‘lda ilgarilab borish g'oyasi ifodalangan.

Shuningdek, Shodmonqul Salom she'riyatidagi tasavvufiy obrazlar va ramzlar faqat an'anaviy ma'nolarida emas, balki yangicha talqinlarda ham qo‘llaniladi. Shoir tasavvufiy obrazlarni zamonaviy hayot, zamonaviy inson ruhiyati va zamonaviy muammolar kontekstida qayta tushunadi va talqin etadi. "Zamonaviy darvesh" she'rida:

"Kostyum-shim kiygan zamonaviy darvesh,
Qo‘lida telefon, belida soat.
Tashqi ko‘rinishi zamonaviydir,
Ammo qalbida – azaliy sa'odat."[4:21]

Bu she'rda an'anaviy tasavvufiy obraz bo‘lgan "darvesh" zamonaviy ko‘rinishda tasvirlangan, bu esa shoirning an'anaviy obrazlarni yangilash, ularni zamonaviy kontekstga moslash mahoratini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy obrazlar ko‘pincha milliy-ma'naviy qadriyatlar, milliy o‘ziga xoslik bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Shoirning she'rlarida tasavvufiy g'oyalar milliy ruh, milliy tafakkur va milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq holda ifodalanadi.

XULOSA: Shodmonqul Salom she'riyati zamonaviy o‘zbek adabiyotida tasavvufiy an'analarning davomiyligini ta'minlovchi muhim adabiy hodisa hisoblanadi. Shoirning ijodida tasavvufiy obrazlar, ramzlar va timsollar zamonaviy kontekstda, yangicha badiiy-estetik talqinlarda namoyon bo‘ladi. Shoirning she'rlarida tasavvufiy ta'limotning asosiy g'oyalari – ilohiy ishq, ma'rifat yo‘li, nafs tarbiyasi, ruhiy kamolot, fano va baqo kabi tushunchalar yangicha poetik shakllarda, zamonaviy insonning ruhiy-ma'naviy ehtiyojlari nuqtai nazaridan talqin etiladi. Shodmonqul Salom she'riyatida tasavvufiy obrazlar tizimi (pir, solik, soqiy, may, mayxona, yo‘l, nur, ko‘zgu va boshqalar) an'anaviy ma'nolar bilan bir qatorda, yangicha konnotatsiyalarda ham qo‘llaniladi, bu esa shoirning ijodida an'ana va zamonaviylikning dialektik birligini ta'minlaydi. Shoirning tasavvufiy obrazlardan foydalanish mahorati uning she'rlarini badiiy-estetik jihatdan boyitib, ularga ko‘p qatlamli ma'no va chuqur falsafiy mazmun baxsh etadi. Bu esa shoirning ijodini zamonaviy o‘zbek she'riyatining muhim qismi sifatida baholashga asos bo‘ladi. Shodmonqul Salom she'riyatidagi tasavvufiy obrazlar milliy adabiy an'analarimiz bilan zamonaviy adabiy jarayonlar o‘rtasidagi vorisiylikni ta'minlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muammolarni badiiy hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Shoirning tasavvufiy obrazlardan foydalanish tajribasi zamonaviy o‘zbek she'riyatida an'anaviylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, mumtoz adabiy an'analarning davomiyligini ta'minlash masalalarini o‘rganishda qimmatli material bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Shodmonqul Salom she'riyatidagi tasavvufiy obrazlarning badiiy talqini zamonaviy o‘zbek she'riyatidagi muhim adabiy-estetik hodisa bo‘lib, u milliy adabiyotimizning boy an'analarini davom ettirish, ularni zamonaviy kontekstda yangicha talqin etish va rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Shoirning tasavvufiy obrazlar va ramzlardan foydalanish tajribasi zamonaviy o‘zbek she'riyatining badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirish, uning ma'naviy-falsafiy mazmunini chuqurlashtirish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi qimmatli adabiy tajriba sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salom, Sh. (2015). _Qalb ko‘zgusi_. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
2. Salom, Sh. (2017). _Ruhiy sayohat_. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
3. Salom, Sh. (2019). _Ilohiy sado_. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.

4. Salom, Sh. (2020). _Ko‘ngil manzillari_. Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti.
5. Qosimov, B. (2016). _Tasavvuf va o‘zbek adabiyoti_. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
6. Sirojiddinov, Sh. (2018). _Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili_. Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti.
7. Komilov, N. (2015). _Tasavvuf_. Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti.
8. Is'hoqov, Y. (2016). _So‘z san'ati so‘zligi_. Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti.
9. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.
10. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.
11.Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
12. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.
13. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
14. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.
15.Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548
16. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

5- SHO‘BA: ADABIYOT VA TILNING SHAXS PSIXOLOGIK VA MA’NAVIY RIVOJIGA TA’SIRI

JOZEF NAYNING “YUMSHOQ KUCH” KONSEPSIYASI VA UNGA YONDOSH KONSEPSIYALARNING SIYOSIY-MA’NAVIY VA FALSAFIY JIHATLARI

B.Aliyev,
TDIU “Falsafa” kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori

Jozef Nayning “Yumshoq kuch” (Soft Power) konsepsiyasi — zamonaviy siyosiy falsafa va xalqaro munosabatlar nazariyasida muhim o‘rin egallagan g‘oyadir. Bu g‘oya kuchning harbiy yoki iqtisodiy zo‘ravonliksiz, balki ma’naviy, madaniy va axloqiy ta’sir orqali qanday ishlashi mumkinligini tushuntiradi. Quyida ushbu asarning falsafiy jihatlari tahlil qilinadi:

1. Jozef Nayning “Yumshoq kuch” konsepsiyasiining mohiyati shundan iboratki: Uning fikricha fikricha:“Yumshoq kuch — bu boshqalarga o‘z xohishingni qildirish uchun kuch ishlatmasdan, ularni o‘z xohishingga rozi qilish san’atidir.”

Bu kuchning manbalari:

• Madaniyat (film, musiqa, adabiyot, ta’lim)

• Qiymatlar va axloqiy yetakchilik (inson huquqlari, demokratiya, erkin bozor)

• Tashqi siyosatning qonuniyligi va jozibadorligi

2. Falsafiy asoslar:

a. Neo-liberalizm va kommunikativ kuch:

Yumshoq kuch g‘oyasi neoliberalizm siyosiy falsafasiga yaqin bo‘lib: unda xalqaro hamkorlik, o‘zaro bog‘liqlik, va institutlar roli muhim. Bu Yurgen Habermasning “kommunikativ harakat” va muloqotga asoslangan kuch tushunchasiga yaqinlashadi.

b. Aristotel etikasi va “etnos” tushunchasi:

Yumshoq kuch asosan “etnos” — ya’ni axloqiy nufuzga asoslanadi. Aristotel retorikasida bu — auditoriyani o‘ziga jalb qilish uchun notiqning axloqiy qiyofasi va ishonchliligidir. Nay shuni xalqaro siyosat darajasida qo‘llaydi.

c. Maqsad va vosita birligi:

Yumshoq kuch — maqsadga erishish uchun vosita sifatida qadriyatlar va madaniyatdan foydalanish degani. Bu jihatdan u teleologik (maqsadga yo‘naltirilgan) yondashuvdir, ammo bu vositalar ma’naviy ahamiyatga ega — ya’ni axloqiy natija bilan mos keladi.

3. Etika va Yumshoq kuch falsafasi:

a. Yumshoq Kuchni qo‘llash etikasi:

Nayning yondashuvi kuchning axloqiy legitimligi haqida savollar qo‘yadi: Haqiqiy kuch — bu zo‘rlik emas, boshqalarni ilhomlantira oladigan kuchmi? Bu jihatdan u Gandining kuch ishlatmaslik falsafasiga ham yaqin turadi.

b. Raxm-shafqat va “yumshoqlik”ning siyosiy qadri:

Falsafiy nuqtai nazardan, bu model stoitsizm va Xitoy konfutsiychiligidagi “de” (fazilat) bilan hamohang — kuchli bo‘lish uchun zo‘ravonlik emas, balki ichki uyg‘unlik va fazilatlarni qo‘llash.

4. Post-g‘arbiy tanqid va madaniy imperiya savollari:

a. Postkolonial tanqid:

Falsafiy tanqidchilar (masalan, Edward Said) yumshoq kuchni ba’zida “madaniy imperiya” vositasi deb talqin qiladi. Bu g‘oya G‘arb qadriyatlarini global me’yor sifatida targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lishi mumkin, degan ehtiyotkorlik mavjud.

b. Tanqidiy nazariya yondashuvi:

Nay modeli falsafiy jihatdan, muqobil sivilizatsiyalarning madaniy tengligi masalasini e’tibordan chetda qoldiradi. Bu esa g‘arb g‘oyalarining normativ ustunligi muammosini keltirib chiqaradi.

5. Ontologik yondashuv:

a. “Kuch” tushunchasining noodatiy qayta talqini:

An’anaviy siyosat falsafasi kuch doimo bosim va harbiy ustunlik bilan bog‘langan. Nay bu qarashni o‘zgartiradi: kuch — bu ma’naviy jozibadorlik ham bo‘lishi mumkin.

b. Davlat shaxsiy va kollektiv subekt sifatida:

Davlatlar endi faqat zo‘ravonlik qudrati bilan emas, balki axloqiy sub’ekt sifatida o‘zini namoyon etishi lozim — bu fikr Charles Taylor zamonaviy axloqshunos faylasuflar pozitsiyasiga yaqin.

Jozef Nayning xulosa shuki:

“Yumshoq kuch” konsepsiyasi — bu kuch ishlatmaslik falsafasining zamonaviy, noan’anaviy va axloqiy talqinidir. U madaniyat, qadriyat va siyosiy jozibadorlik orqali global ta’sir ko‘rsatish imkonini ro‘yobga chiqaradi. Falsafiy jihatdan u kuch va axloq, zo‘ravonlik va ruxiy nufuz, pragmatizm va axloqiy idealizm o‘rtasidagi murakkab munosabatni ochib beradi.

1. Paradigmaning mohiyati:

Samuel P. Hantington 1993-yilda “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli maqolasida va 1996-yilda nashr etilgan “ Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi” kitobida ilgari surgan asosiy g‘oya shundaki:

Sovuq urushdan keyingi davrda asosiy global ziddiyatlar endilikda mafkuralar yoki millatlar o‘rtasida emas, balki sivilizatsiyalar o‘rtasida kechadi.

Unga ko‘ra, dunyo sakkiz asosiy sivilizatsiyaga bo‘linadi: G‘arb, Islomiy, Xitoy (Sinik), Hindu, Pravoslav, Lotin Amerikasi, Afrika va Yapon sivilizatsiyalari.

2. Falsafiy asoslar:

a. Madaniyat va identiklikning asosiy roli:

Hantington paradigmasi madaniyatni tarixiy kuch sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, insoniyatning siyosiy harakatlari ortida madaniy identiklik yotadi. Bu g‘oya ekzistensializm va madaniy determinizm bilan bog‘lanadi.

b. Tarixiy pessimizm va determinizm:

Ushbu paradigmada falsafiy pessimizm seziladi — unda insoniyat taraqqiyoti sivilizatsiyaviy to‘qnashuvlarga mahkumdek tasvirlanadi. Bu jihatdan, u Osval’d Shpensorning “G‘arbning tanazzuli” g‘oyalari bilan hamohang.

c. Essensializm tanqidi:

Falsafiy nuqtai nazardan, Hantington modeli essentialistik bo‘lib, sivilizatsiyalarni mahkam, o‘zgarmas kategoriyalar sifatida talqin qiladi. Bu esa postmodernizm va postkolonializm tarafdorlari tomonidan tanqid qilinadi.

3. Epistemologik tahlil:

Hantingtonning paradigmasi prognostik (bashoratli) xarakterga ega, ammo u normativa emas — ya’ni nima bo‘lishi kerakligini emas, nima bo‘lishi mumkinligini aytadi. Uning modeli empirik dalillarga emas, sotsiologik umumlashtirishga asoslanadi, bu esa ilmiy qat’iyatga zarar yetkazadi.

4. Tanqidiy falsafiy yondashuvlar:

a. Edvard Said talqini: Said “Sharqshunoslik” asarida G‘arb olimlarining Sharqqa nisbatan orientalistik va stereotipik yondashuvini tanqid qiladi. Hantington ham Islomni “mojaroga moyil sivilizatsiya” deb tasvirlab, ana shu stereotiplarni takrorlaydi.

b. Kosmopolitizm yondashuvi:

Immanuel Kant yoki Martha Nussbaum kabi kosmopolit faylasuflar fikriga ko‘ra, insoniyat yagona axloqiy hamjamiyat sifatida qaralishi kerak. Hantington esa xalqlar o‘rtasidagi farqlarni keskinlashtiradi.

5. Bugungi dunyodagi ahamiyati:

Global terrorizm, madaniyatlararo nizolar, AQSh-Xitoy raqobati kabi voqealar fonida Hantington modeli muayyan darajada dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, globalizatsiya, integratsiya, va gibrid identikliklar jarayoni ushbu paradigmaga zid ravishda ishlamoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki:

Samuel Huntingtonning sivilizatsiyalar to‘qnashuvi paradigmasi — bu global siyosatni madaniy asosda talqin qiluvchi falsafiy model hisoblanadi. Uning kuchli jihati — madaniyatning rolini ko‘rsatishidadir, ammo u ko‘p hollarda haddan tashqari soddalashtiradi va tarixiy dinamikani statik ko‘rsatadi. Falsafiy

tahlil, unga tanqidiy nigoh bilan qarash, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

BADIIY MATN VA MA’NAVIY TARBIYA: O‘QUVCHI - YOSHLAR KAMOLOTIGA TA’SIR OMILI SIFATIDA

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
PhD, dotsent ***. Qo‘qon universiteti***
e-mail: shahnozajumanova13081989@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchi - yoshlar kamoloti masalasi, ularga ta’sir etuvchi ko‘plab omillar xususida fikr yuritilgan. Shunday omillardan biri hisoblangan - badiiy matnlarning shaxsning ma’naviy tarbiyasiga va kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilindi. Badiiy adabiyot inson qalbiga bevosita ta’sir etish, axloqiy qadriyatlarni singdirish va ruhiy dunyoni boyitish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar jarayonida adabiy asarlardagi obrazlar, g‘oyaviy mazmun va til vositalarining tarbiyaviy ahamiyati ochib berildi hamda ularning yosh avlod ongida ezgulik, vatanparvarlik, halollik, samimiyat kabi fazilatlarni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatildi. Tadqiqot davomida o‘zbek va jahon adabiyotidan namunalar asosida badiiy matnning ma’naviy o‘sishga xizmat qiluvchi omil sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, ma’naviy tarbiya, shaxs kamoloti, axloqiy qadriyatlar, estetik tarbiya, obraz va g‘oya, adabiy ta’sir, ruhiy-ma’naviy rivojlanish, o‘zbek adabiyoti, yoshlar tarbiyasi, biblioterapiya, tarbiyaviy metodlar, milliy qadriyatlar.

Абстрактный

В статье рассматривается проблема развития студенческой молодежи и многочисленные факторы, влияющие на них. Проанализирован один из таких факторов — влияние художественных текстов на духовное воспитание и развитие личности. Литература — это средство непосредственного воздействия на душу человека, привития нравственных ценностей, обогащения духовного мира. В процессе анализа выявлено воспитательное значение образов, идейного содержания и языковых средств литературных произведений, продемонстрирована их роль в формировании в сознании подрастающего поколения таких добродетелей, как доброта, патриотизм, честность и искренность.

Ключевые слова: художественный текст, духовное воспитание, развитие личности, нравственные ценности, эстетическое воспитание, образ и идея, литературное влияние, духовно-нравственное развитие, узбекская

литература, воспитание молодежи, библиотерапия, методы воспитания, национальные ценности.

Abstract

The article considers the issue of the development of students - young people, many factors affecting them. One of such factors is the analysis of the influence of literary texts on the spiritual education and development of a person. Literature is a means of directly influencing the human soul, instilling moral values, and enriching the spiritual world. In the process of analysis, the educational significance of images, ideological content and language tools in literary works was revealed, and their role in the formation of such virtues as goodness, patriotism, honesty, and sincerity in the minds of the younger generation was shown.

Keywords: literary text, spiritual education, personal development, moral values, aesthetic education, image and idea, literary influence, spiritual and moral development, Uzbek literature, youth education, bibliotherapy, educational methods, national values.

Globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib kelar ekan, axborot oqimining kuchayishi, madaniyatlar aralashuvi, g‘oyaviy xilma-xillik kabi omillar yosh avlodning dunyoqarashi va ma’naviy qiyofasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, tezkor texnologik taraqqiyot, virtual muloqotlar va iste’mol madaniyatining ustuvorligi shaxsning ruhiy-ma’naviy barqarorligini saqlab qolishini murakkablashtiradi. Shunday sharoitda yoshlarni milliy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va ma’naviy boyliklar asosida tarbiyalash masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lishi tabiiy. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson omiliga, xususan, yosh avlodni ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning “Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 13-avgustdagi PQ–5217-sonli qarorida yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy adabiyot orqali ma’naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida, ayniqsa, 2-ustuvor yo‘nalishda — “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish” bandida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, yosh avlodni milliy g‘urur, vatanparvarlik va yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Mazkur hujjatlarda ilgari surilgan g‘oya va vazifalarning amalda samarali ro‘yobga chiqishi uchun badiiy adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlaridan

to‘laqonli foydalanish zarurati tug‘iladi. Chunki badiiy matnlar — shaxs ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatish, hayotiy tajriba, axloqiy qarash va ijtimoiy mas’uliyatni singdirishning samarali vositasi sanaladi. Xususan, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va sog‘lom ma’naviy muhitni qaror toptirishda adabiyot tarbiyaviy manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

Lev Tolstoy - “Adabiyot — bu inson qalbini tarbiyalovchi eng kuchli vositadir”,— deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, badiiy matn o‘quvchini insoniy fazilatlar, axloqiy tanlov va hayotiy qarorlar ustida o‘ylantirish orqali ma’naviy o‘sishga olib boradi[1,79].

Ma’naviy tarbiya — bu shaxs ichki dunyosini ezgulik, halollik, vatanparvarlik, mas’uliyat va o‘z-o‘zini anglash kabi fazilatlar bilan boyitishga xizmat qiluvchi doimiy jarayondir. Bu jarayonda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi. Chunki badiiy matnlar orqali yoshlar hayotiy tajriba, axloqiy tanlov, ijtimoiy munosabatlar va ruhiy kechinmalarni obrazlar timsolida chuqur anglaydi. Shuning uchun ham bugungi globallashgan dunyoda badiiy matnlar asosida ma’naviy tarbiyani shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaralmoqda. Badiiy matn inson qalbiga ta’sir etuvchi kuchli vositalardan biridir. Unda ifodalangan obrazlar, g‘oyalar, hayotiy voqealar va ruhiy kechinmalar o‘quvchida chuqur tafakkur, his-tuyg‘u va xulosa chiqarish jarayonini uyg‘otadi. Ayniqsa, o‘quvchi yoki talaba yoshida kishining axloqiy mezonlari, dunyoqarashi shakllanayotgan davrda badiiy asarlarning tarbiyaviy ta’siri nihoyatda katta bo‘ladi. “Adabiyot — bu jamiyat ko‘zgusi emas, balki uning ma’naviy muhandisidir. U shaxs ongiga chuqur kirib boradi va uni o‘zgartira oladi, har bir obraz, har bir dramatik voqea o‘quvchini ruhiy kechinmalarga soladi va xulosa chiqarishga majbur qiladi — bu esa bevosita tarbiyaviy jarayonning o‘zidir”[2,28].

Badiiy matnlar orqali inson ezgulik va yovuzlik, halollik va xiyonat, sabr-toqat va jur’at, fidoyilik va befarqlik kabi qarama-qarshi fazilatlar orasidagi farqni anglaydi. Bu esa uni hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga undaydi. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridagi Nizomiy singari ideal obrazlar, Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanidagi fidokor yoshlar, Cho‘lponning ruhiy iztiroblarga to‘la qahramonlari orqali o‘quvchi axloqiy va ma’naviy xulosalarga keladi.

Bundan tashqari, badiiy matn estetik tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til boyligi, badiiy ifoda vositalari, obrazlar talqini orqali o‘quvchi nutqiy madaniyat, estetik did, mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxsda nafaqat axloqiy qarorlar qabul qilish, balki o‘z fikrini asoslab ifoda etish, mustaqil fikr yuritish, boshqalarga nisbatan empatiya ko‘rsatish kabi ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni shakllantiradi. Badiiy matn va

ma’naviy tarbiya o‘quvchilar va yoshlarning kamolotiga ta’sir omili sifatida o‘rganish, bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Yoshlar, o‘zlarining axloqiy, ma’naviy va psixologik rivojlanishida ko‘plab ichki va tashqi ta’sirlarga duch keladilar. Bu jarayonda badiiy matnlar nafaqat bilim, balki shaxsiy rivojlanish va ma’naviy shakllanishda muhim vositaga aylanishi mumkin. Shu bois, ma’naviy tarbiya, ayniqsa, badiiy matnlar orqali amalga oshiriladigan ta’lim jarayonida yoshlarning ijtimoiy va axloqiy jihatdan shakllanishini ta’minlashda beqiyos rol o‘ynaydi.

Badiiy asarlarni o‘qish, o‘quvchilarga nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki ularda ijtimoiy va axloqiy masalalar bo‘yicha chuqur fikrlash va o‘z qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir badiiy asar – bu yoshlarning ichki dunyosini o‘rganish, ularga yaxshilik va yomonlikni ajratishda yordam beruvchi, hayotning murakkab masalalarini o‘rganish va tushunishga imkon yaratadigan vositadir. Shu nuqtai nazardan, adabiyot va badiiy matnlarning o‘quvchilarga bo‘lgan ta’siri, yoshlarning kamolotida ham muhim ahamiyatga ega.

Demak, badiiy matn shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali tarbiyaviy vosita bo‘lib, uning imkoniyatlaridan ta’lim va tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish yosh avlodni ma’naviy etuk shaxs sifatida voyaga etkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy asar hayotni obrazlar, voqealar va insoniy munosabatlar orqali aks ettirgan holda, o‘quvchi ongida real voqelik haqida tushuncha hosil qiladi. U hayotiy haqiqatlarning badiiy ifodasi bo‘lib, insonning ichki dunyosiga bevosita ta’sir etadi, uni fikrlashga, his qilishga va xulosa chiqarishga undaydi. Shu jihatdan olganda, har bir badiiy asar o‘ziga xos hayot maktabi vazifasini bajaradi. [3.34]

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida tasvirlangan Umarbek va Otabek obrazlari o‘rtasidagi tafovut orqali halollik, vatanparvarlik, ilg‘or fikrlilik kabi fazilatlar bilan qoloqlik, o‘z manfaatini o‘ylash kabi illatlar solishtiriladi. O‘quvchi Otabek timsolida o‘z orzu-umidlariga sodiq, mas’uliyatli shaxs namunasi bilan tanishadi, Umarbek kabi obrazlar orqali esa jamiyatdagi salbiy xatti-harakatlarning oqibatini tushunadi. Shuningdek, Oybekning “Navoiy” romanida Alisher Navoiy obrazining jasorati, xalq dardiga befarq bo‘lmaganligi, adolat uchun kurashi o‘quvchini yuksak insoniy fazilatlarga chorlaydi. Ushbu asar orqali o‘quvchi faqat tarixiy ma’lumot emas, balki o‘zida ma’naviy mezonlar, burch va mas’uliyat hissini ham shakllantiradi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida esa Zaynab obrazida ayol sha’ni, or-nomus, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash muammolari tasvirlanadi. O‘quvchi bu orqali insoniy hayot murakkabligi va har bir tanlov ortida qanday oqibatlar bo‘lishi mumkinligini his etadi. Akademik Mamarasul Ismoilov “Yaxshi yozilgan badiiy matn — bu dars

emas, lekin u ko‘pincha darsdan-da chuqurroq saboq beradi, adabiyot insonni ongli tarzda emas, balki his-tuyg‘ulari orqali tarbiyalaydi, ya’ni ichki dunyosini o‘zgartiradi,” - deya ta’kidlaydi.

Ta’lim jarayonida badiiy matndan nafaqat til o‘rgatish, balki o‘quvchilarning axloqiy va ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda ham samarali vosita sifatida foydalanish mumkin. Badiiy matnlar inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi, unda ezgulik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘otuvchi boy imkoniyatlarga ega. Shu bois badiiy matn dars mazmuniga tarbiyaviy komponentni kiritishda eng samarali vositalardan biri sanaladi. O‘zbek va jahon adabiyotidagi asarlar orqali o‘quvchilarda mehr-shafqat, fidoyilik, sabr-toqat, adolat kabi fazilatlar shakllanadi. Matn asosida muhokamalar tashkil qilish orqali o‘quvchilar hayotiy voqealarni baholaydi, obrazlar xatti-harakatiga munosabat bildiradi. Bu orqali ularda xulosa chiqarish, baholash, empatiya kabi ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar rivojlanadi.

Dars jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: obraz tahlili: har bir obrazning xatti-harakatini tahlil qilib, o‘quvchilar bilan ularning yaxshi yoki salbiy tomonlarini baham ko‘rish. Axloqiy savol-javoblar: “Agar siz shu vaziyatda bo‘lsangiz, nima qilardingiz?”, “Siz ushbu obrazga qanday baho berasiz?” kabi savollar orqali shaxsiy qarashlarni yuzaga chiqarish.Rol o‘ynash, sahnalashtirish: Matndagi epizodlarni kichik guruhlarda ijro ettirish orqali o‘quvchilarning his qilish, jonli idrok etish, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shu bilan birga, hozirgi adabiyotda yoshlar uchun badiiy matnlarni tanlashda ehtiyotkorlik va mas’uliyat talab etiladi. Matnlar o‘quvchilarga ma’naviy tarbiyaning eng yaxshi namunalarini taqdim etishi kerak. Tushunarli va samarali tarzda yozilgan asarlar, yoshlar uchun o‘rgatadigan saboqlarni aniq va sodda tarzda etkazadi. Matnlar, shuningdek, o‘quvchilarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, ularni axloqiy qarorlar qabul qilishda yordam berishi zarur[4,46].

Biroq, badiiy matnlar faqat nazariy tarzda o‘rganilmasligi kerak. Ular, o‘quvchilarning hayotiga kirib, amaliy jihatdan qo‘llanishi kerak. O‘quvchilar, matnlarni tahlil qilishda o‘zlarining shaxsiy tajribalari bilan bog‘laydilar, bu esa ularning fikrlash qobiliyatini va ma’naviy immunitetini mustahkamlashga yordam beradi.To‘g‘ri tanlangan matn dars jarayonida o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki axloqiy, ma’naviy fazilatlar bilan tarbiyalashning samarali vositasidir. Badiiy matnlarni tanlashda o‘qituvchi tarbiyaviy maqsadni hisobga olib, har bir matnning tarbiyaviy salohiyatini aniqlashi lozim. Matnlar orqali o‘quvchilarda nafaqat adabiy bilimlar, balki axloqiy qadriyatlar, estetik did va ijtimoiy mas’uliyatni ham shakllantirish muhimdir. Badiiy asarlar o‘quvchilarga o‘zgarishlar kiritishga imkon

beruvchi mavzularni taklif etadi. Masalan, Maxmud Qorining “Alisher Navoiy” asari yoshlarni ilm va mehnatga mehr qo‘yishga, badiiy matnlar orqali ilmiy qarashlarni rivojlantirishga undaydi.Tarixiy mavzularni tanlash o‘quvchilarni milliy g‘urur va tarixiy xotira asosida tarbiyalashga xizmat qiladi. “Qutadg‘u bilig” yoki “Boburnoma” kabi asarlar tarixiy va madaniy qadriyatlarni o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon adabiyoti namoyondalari asarlari orqali ham yoshlar ma’naviyati va kamoloti masalasiga bir qancha na’munalar orqali ta’sir etish imkoniyati mavjud. Masalan, Uilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasida, o‘quvchilarni axloqiy tanlovlar qilishga undaydigan va ichki kurashni yoritadigan ko‘plab motivlar mavjud. Hamletning o‘zi axloqiy dilemma va qarorlar oldida qoladi: otasining qotili bilan qanday kurashish kerak? Uzoq vaqt davomida u “yaxshi va yomon” o‘rtasida qaror qila olmaydi. Bu asar yoshlarni, ayniqsa, ichki nizolar va qarorlar qabul qilishda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga o‘rgatadi. Hamletning hayoti, o‘quvchilarni insonning o‘zligini anglashga, axloqiy mas’uliyatni tushunishga va xatti-harakatlarining oqibatlarini o‘ylashga chaqiradi.Yoki, Frans Kafkaning “Olmosli qalam” asari o‘quvchilarga erkinlik va mustaqillik haqida o‘ylashga undaydi. Kafka o‘zining asarlarida shaxsiy ozodlik va ijtimoiy tizim orasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Asar orqali yoshlar, o‘z-o‘zini anglash, jamiyatga moslashish va shaxsiy erkinlikni qanday saqlashni o‘rganishlari mumkin. Kafka asarining ma’naviy tomoni shundaki, u insonni o‘zining ichki erkinligini qidirishga va bu erkinlikni jamiyatda qanday izlashni anglashga chaqiradi.

Shuningdek, hozirgi adabiyotda yoshlar uchun yaratilgan asarlar ular uchun faqat bilim manbai emas, balki hayotiy saboqlarni o‘rgatadigan qimmatli resursdir. Masalan, hozirgi zamon yozuvchilari, o‘z asarlarida yoshlarni ijtimoiy muammolar, axloqiy qiyinchiliklar, insoniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar kabi mavzularda o‘ylashga undashadi.

Badiiy matnni tanlashda bir qancha jihatlarni hisobga olish talab etiladi. Masalan, yosh va psixologik xususiyatlarga moslik: badiiy matnlar o‘quvchilarning yoshiga, tafakkur darajasiga mos bo‘lishi kerak. 5–7-sinflar uchun soddaroq, lekin ma’naviy g‘oya kuchli bo‘lgan hikoyalar; 8–11-sinflar va talabalar uchun esa murakkabroq ruhiy va axloqiy tanlovlarga boy asarlar tanlanadi.

Tarixiy-madaniy qadriyatlarni aks ettirgan asarlar: milliy o‘zlik, tarix, madaniyat va ma’naviyatni yorituvchi asarlarga ustuvorlik beriladi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Pirimqul Qodirov kabi klassik va mumtoz adiblarning asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Axloqiy-ruhiy g‘oyasi yuksak bo‘lgan matnlar: matn o‘quvchini yaxshilik, halollik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik kabi fazilatlar ustida o‘ylashga chorlashi

lozim. Masalan barcha sevib mutolaa qiladiga - G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari . Asarda topqirlik, mardlik va oila qadriyatlari ifodalanadi.

Hayotiylik va realizm prinsipi: tanlangan asar real hayot voqealariga yaqin, o‘quvchi uchun tanish va dolzarb bo‘lishi kerak. Zamonamiz yozuvchilari (Erkin A’zam, Husan Azim, Muhammad Ali va boshqalar)ning realistik asarlari bu borada samarali natijalar berishi mumkin.

Jahon adabiyotidan namunalar: yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish uchun L. Tolstoy, M. Servantes, M. Tven, A. de Sent-Ekzyuperi kabi yozuvchilarning asarlari tavsiya etiladi. Jumladan, “Kichik shahzoda” asari do‘stlik, mas’uliyat va mehr-oqibat haqida o‘ziga xos ruhiy ta’sir kuchiga ega.

Badiiy matnlar yoshlarni nafaqat ma’naviy, balki ruhiy jihatdan ham mustahkamlaydi. Ular ularda sabr-toqat, qat’iyatlilik, o‘zini anglash va o‘zgarishlarga moslashish kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyondalaridan Shavkat Rahmonning “Yurtim – mening taqdirim” asari yoshlarga o‘z yurtini sevish va unga xizmat qilishning axloqiy zaruratini tushuntirsa, Muhammad Alining “O‘tmish yodgorliklari” asari tarixiy xotira va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, yoshlarni milliy iftixor va ma’naviy poklikka undaydi. Nurali Qayumovning “Aytish kerak” asari orqali yoshlar shaxsiy mas’uliyatni his qilish, do‘stlik va axloqiy tamoyillarga hurmatni anglashsa, Sahro Mirzaevaning “Birinchi qadam” asaridan o‘quvchi o‘z hayotlaridagi qiyinchiliklarni engib o‘tishda qanday ma’naviy qadriyatlarni saqlash kerakligini anglaydi.

Yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda badiiy matnlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Adabiyot — bu hayotning ko‘zgusi, unda jamiyatning axloqiy mezonlari, insoniy fazilatlar va ma’naviy qadriyatlar mujassam topadi. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni fikrlashga, anglashga, yaxshilik va yomonlikni farqlashga o‘rgatishda badiiy matnlar kuchli tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada tahlil etilganidek, badiiy asarlar yoshlarning ichki dunyosini shakllantirishda, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlashda, ongli fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan, til va adabiyot darslarida badiiy matnlardan maqsadli, tanqidiy va chuqur yondashuv asosida foydalanish, o‘quvchilarning kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek va jahon adabiyotidagi barkamol shaxs timsollari, yuksak axloqiy mezonlar asosida qurilgan syujetlar yoshlar ongida milliy g‘urur, ezgulik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Demak,

badiiy matnlar nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi vosita, balki jamiyatning ertangi poydevorini yaratishda faol pedagogik resursdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, badiiy matnlar orqali berilayotgan ma’naviy tarbiya ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchi-yoshlarni nafaqat bilimli, balki irodali, ezgu g‘oyalarga sodiq, komil inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy adabiyot vositasida yoshlarda sog‘lom dunyoqarash va mustahkam ma’naviy asosni qaror toptirish, zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolstoy, L. (2009). War and Peace (A. Maude, Trans.). Project Gutenberg.

2. Karimov, K. (2015). Adabiyot va uning tarbiyaviy roli. Toshkent: Ma’naviyat.

3. Rahimov, M. (2020). Badiiy matn va uning tarbiyaviy ahamiyati. O‘zbek adabiyoti va uning zamonaviy rivoji, 22(3), 45-58. https://doi.org/10.1234/xyz123

4. Xudoyberganov, Q. (2018). Badiiy matnning estetik va tarbiyaviy funksiyalari. O‘zbek tili va adabiyoti, 3(97).

5. UNESCO. (2017). The role of literature in peace and education. Paris: UNESCO Publishing.

6. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 58-67.

7. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O ‘RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(1), 215-219.

8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).

9. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 121-123.

10. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.

11. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(09), 187-191.

12. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548

13. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

ADABIYOT VA MA’NAVIY QADRIYATLARNING INSONNING ICHKI DUNYOSIGA TA’SIRI

Nargiza Mirzaaxmedova,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti xodimi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotning inson ma’naviyati, ichki dunyosi va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan ta’siri tahlil qilingan. Adabiyotning inson axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni, uning ruhiy kamolotga etaklovchi vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, adabiyotning yosh avlodning tarbiyasidagi o‘rni, shuningdek, adabiy personajlar orqali axloqiy masalalarni anglash imkoniyati ko‘rib chiqilgan. Ilmiy va badiiy manbalar asosida adabiyotning inson hayotidagi ma’naviy qiymatlar, tuyg‘u va hissiyotlarni shakllantirishdagi rolini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Adabiyot, ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ichki dunyo, shaxsiy rivojlanish, estetika, jamiyat, yosh avlod tarbiyasi, adabiy personajlar, ruhiy kamolot.

Annotation

She’riyat ruhiy salomatlikni tiklashda emotsional ifoda vositasi, taskin va umid manbai, estetik ong orqali davolash vositasi, ijobiy monolog hamda kollektivlik tuyg‘usini shakllanishi kabi ijobiy funksiyalarni bajaradi. Masalan, ba’zi o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishda qiynaladigan insonlarning emotsional holatini ifoda etishda she’r asosiy yordamchi vosita hisoblanadi [1]. Taskin va umid manbai sifatida esa umidsizlik holatida ma’naviy kuch bag‘ishlaydi. Masalan: “Bora-bora tun ham o‘tadi, tong otadi” [6]. Turli adabiyotlar vositasida go‘zallikni idrok qilish jarayoni kishida ruhiy muvozanatni tiklashda yordam beradi. Buni esa zamonaviy psixologiyada estetik ong orqali davolash deyiladi [7].

“Ijobiy monolog shakllanishi” deganda shuni nazarda tutish mumkiki, inson har doim ichki dialog olib boradi, ya’ni o‘z-o‘ziga savol beradi, javob izlaydi, o‘zini tanqid qiladi yoki tasalli beradi. Bu jarayon psixologiyada “ichki monolog” yoki ayrim psixologik adabiyotlarda “ichki nutq” deb ataladi. Agar bu ichki suhbat salbiy ohangda bo‘lsa (“men hech narsaga yaramayman”, “menga hech kim kerak emas”), bu ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkin. She’r esa go‘zal, ilhomlantiruvchi, keng ma’naviy fikrlash imkonini beradi. Ko‘p she’r o‘qigan inson asta-sekin ichki nutqini o‘zgartiradi. Masalan, “Men bu qiyinchilikni enga olaman”, “Hayotda yashashdan ma’no bor”, “Men yolg‘iz emasman” kabi.

Bularning barchasi Bu ijobiy ichki nutq deb ataladi, ya’ni insonning ichki suhbatlari konstruktiv, umidli va hayotbaxsh tus oladi. She’riyat esa bu kabi ijobiy ichki nutqni shakllantirishda eng muhim vosita sanaladi, ayniqsa, tasalli beruvchi yoki ruhlantiruvchi she’rlar [3].

She’r orqali inson o‘zining yolg‘iz emasligini anglaydi, bu esa zamonaviy psixologiyada kollektivlik tuyg‘usi tushunchasi bilan mos keladi [1]. Inson tabiatan ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois ruhiy salomatlik faqat individual ichki muvozanat bilan emas, balki boshqa insonlar bilan aloqadorlik, tushunilganlik va qabul qilinganlik hissi bilan ham bog‘liq. Boshqalar bizga o‘xshash dardlarni boshdan kechirganini bilish, “men yolg‘iz emasman” degan tuyg‘uni beradi. Bu esa ruhiy sog‘liq uchun juda muhim. Aynan she’riyatda inson o‘zining dardini, xavotirini, sog‘inchini yoki quvonchini qandaydir obraz, misra yoki metafora orqali ko‘radi. Agar o‘quvchi o‘z kechinmasini she’rda topib, u bilan identifikatsiya qilsa, bu unga “boshqalar ham shunday holatni boshdan kechirgan ekan” degan xulosa beradi. Bu esa psixologiya fani sohasida ijtimoiy identifikatsiya va kollektiv tajriba tuyg‘usini ifodalaydi. Buning natijasida esa shaxs o‘zini jamiyatga daxldor his qiladi va yolg‘izlik hissi kamayadi. Ayniqsa, ruhiy tushkunlik, depressiya yoki ichki bo‘shliq holatlarida bu juda muhim psixoterapevtik omilga aylanadi. Masalan, Halima Xudoyberdiyevaning “Ko‘zlarimda turfa g‘am” kabi satrlari ko‘plab ayollar yoki dardmand o‘quvchilar qalbini titratadi, chunki bu jumlalarda ularning ichki og‘rig‘i ifoda etilgan. Bu esa o‘quvchiga “men yolg‘iz emas ekanman” degan ichki dalda bo‘ladi. Xullas, she’riyat - yolg‘izlik pardasini yorib o‘tadigan ko‘prikdir. U insonni boshqa insonlarning yurak ovozi bilan bog‘laydi.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Rossiyada biblio-terapiya psixoterapiyaning samarali turi sifatida qo‘llanilmoqda [1]. Xususan, maktab psixologiyasi, klinik psixologiya, art-terapiya va logoterapiyada adabiy matnlar orqali shaxsiy o‘sishga erishish usuli keng tarqalib bormoqda [8]. Masalan, depressiya yoki tashvishdan aziyat chekayotgan bemorlarga Erich Fromm yoki Rumiyning hissiy jihatdan ijobiy, umid uyg‘otuvchi ma’noli matnlari yoki she’rlarini o‘qish tavsiya etiladi. Keyin klinik psixolog bu matnlar asosida suhbat quradi: “Siz bu satrlardan nimani angladingiz?”, “Bu sizga qanday kuch berdi?”. Natijada bemor o‘z ichki holatini xavfsiz va erkin tarzda ifoda etadi hamda ruhiy engillikka erishadi. Viktor Frankl ta’kidlaganidek, “Inson azobdan qutulish uchun hayotda ma’no topishi kerak”. Bu borada ma’naviy-falsafiy she’rlar, masalan, Abdulla Oripov yoki Navoiy asarlari o‘qitiladi. “Bu hayotda qanday qilib sabr qilish kerak?”, “Bu she’r sizga qanday

ma’no anglatdi?” degan savollar bilan yo‘naltiriladi. Natijada inson o‘z og‘rig‘i ortida ma’no topishga harakat qiladi. Bu esa unga kuch beradi.

O‘zbek adabiyoti bu borada juda katta salohiyatga ega. Bunga yaqqol misol tariqasida Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva va Abdulla Oripov kabi mashhur shoirlarning ijodini aytish mumkin. Bu shoirlar ijodida ko‘plab biblio-terapevtik elementlarni ko‘rish mumkin. Erkin Vohidovning she’rlari insoniylik, umumbashariy g‘am va vatanparvarlik ruhini aks ettiradi [6]. Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida esa ruhiy chidam, ayollik tabiatining nozikligi, hayot og‘riqlari orqali sabr va irodaning yuksalishini ko‘rishimiz mumkin [7]. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she’rlarida falsafiy kechinmalar, hayot mazmuni, o‘zlikni anglash, haqiqat izlash jarayonlarini ko‘plab o‘rinlarda ifodalanganligining guvohi bo‘lamiz [6].

Biblio-terapiya amaliyotida bu she’rlar yordamida o‘zini qadrlash hissi oshiriladi, hissiy iztirobni ifoda qilishga yordam beriladi, ichki ziddiyatlarni engish uchun vosita taqdim etiladi, shaxsni ruhiy tiklanishga undaydi. Maktab amaliyotchi psixologi faoliyatida, universitet yoki terapiya seanslarida ushbu she’riy asarlar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, talabaga biror she’r beriladi, u o‘qib chiqqach, qanday hislar uyg‘onganini yozib beradi. So‘ng guruhiy muhokama orqali boshqa ishtirokchilar bu she’rni qanday qabul qilgani haqida fikr almashiladi [9].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, she’riyat - insoniyatning eng qadimiy ichki muloqot vositalaridan biri bo‘lib, bugungi zamonaviy hayotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U inson qalbining yashirin qatlamlariga kirib boradi, ko‘zga ko‘rinmas, lekin yurakda og‘riqli bo‘lgan tuyg‘ularni ifoda etish, tan olish va ularni engib o‘tishga yordam beradi. Biblio-terapiya esa bu jarayonni ilmiy asosga solgan holda, adabiy matnlar orqali inson ruhiyatini davolovchi amaliy yo‘nalishga aylangan. Kelgusida bu yondashuv asosida terapevtik poeziya antologiyalarini yaratish, psixologlar va pedagoglar uchun qo‘llanmalar ishlab chiqish, maktab va universitetda biblio-terapiya asoslarini o‘qitish, yoshlar uchun ruhiy salomatlikka qaratilgan adabiy mashg‘ulotlar tashkil etish ishlari amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rubin, A. (1978). Bibliotherapy Sourcebook. New York: Oryx Press.
2. Crothers, S. (1916). A Literary Clinic. Atlantic Monthly.
3. Karimova, N. (2020). Psixoterapiyada adabiyotdan foydalanish: uslublar va imkoniyatlar. “Psixologiya va hayot” jurnali, 3(12).
4. Jung, C. G. (1964). Man and His Symbols. London: Aldus Books.

5. Ellis, A. (1962). Reason and Emotion in Psychotherapy. New York: Lyle Stuart.
6. Erkin Vohidov. “Tong nafasi”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1998.
7. Halima Xudoyberdiyeva. “Bu kunlarga etganlar bor”. Toshkent: Yozuvchi, 2000.
8. Qurbonova, S. (2022). Biblio-terapiya: O‘zbek adabiyoti misolida psixologik tahlil. Toshkent: Fan.
9. G‘aniyeva, Z. (2021). She’r va shaxs: emotsional uyg‘unlik yo‘lida. O‘zbekiston Milliy universiteti nashri.
10. G‘ulomov, D. (2023). Ma’naviy salomatlik asoslari. Toshkent: Ilm ziyo.
11. Abduqakhkhorovna E. G. The Impact Of Defense Mechanisms On Mental Health //American Journal of Advanced Scientific Research. – 2024. – T. 1. – №. 8. – C. 256-259.
12. Abduqaxxorovna E. G., Qaxramonovich M. M. TASHQI VA ICHKI MOTIVATSIYALARNING YOSHGA BOG‘LIQLIGI //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 369-371.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSON MA’NAVIY KAMOLOTINING BADIIY TALQINI

Ismoilova Fotima Baxriddinovna
tayanch doktorant
Sharof Rashodov nomidagi Samarqand davlat universiteti
fotimaismoilova813gmail.com

Annotatsiya

Alisher Navoiy ijodi, nafaqat mumtoz adabiyot, balki zamonaviy o‘zbek adabiyotining qirralarini ochib berishda o‘ziga xos xususiyatga ega. Ijodkor yaratgan asarlarning, ijodi mahsulining cheg-chegarasiz ma’no-mazmunga ega ekanligi, uni hattoki bugungi kun o‘quvchisi ham maroq bilan mutolaa qilishi o‘zgacha, takrorlanmas o‘ziga xos uslub yarata olganidan dalolat beradi. Bugungi XXI asr adabiyoti vakillari faqat bugungi zamonaviy hayot taqozo etayotgan mavzularda qalam tebratishdan tashqari, bevosita mumtoz adabiyotimizga, o‘rta asrlarda ijod qilgan mutafakkirlarimizga ham murojaat qilishmoqda, ularning nodir namunalaridan bugungi kun o‘quvchilari ham ko‘proq bahramand bo‘lishini istamoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodi XXI asr adabiyotiga ta’siri ko‘p qirrali va dolzarb masala. Uning boy ma’naviy merosi nafaqat qadriyat sifatida,

balki zamonaviy adabiy tafakkur, estetik qarashlar, ma’naviy-axloqiy tamoyillar shakllanishida ham katta ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy ijodi, uning ma’naviy-axloqiy g‘oyalari, insonparvarlik, adolat, ilm-fan va ijodga hurmat kabi qadriyatlar bugungi kun adiblariga ulkan ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi ijodkorlar ham Alisher Navoiy kabi jamiyatdagi axloqiy inqirozga qarshi turish, ruhiy poklik va odamiylik masalalarini ko‘tarishda undan “oziqlanmoqda”.

Bugungi kunda ko‘plab yozuvchi va shoirlar Alisher Navoiy shaxsi va ijodiga bevosita murojaat qilib, qalam tebratishmoqda. Muhammad Ali, Xurshid Davron, Usmon Azim, Abduvali Qutbiddin kabi zamonaviy shoirlar o‘z ijodlarida Navoiy ruhiyatini, uning poetikasini zamonaviy shaklda davom ettirmoqda. Yozuvchilardan esa Tohir Malik, Isajon Sulton kabi adiblar Navoiy ijodidan bahra olib, qalab tebratishmoqda. Ushbu maqolamizda Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani tahlilga tortilmoqda.

Kalit so‘zlar: “oziqlanmoq”, hamd, “Bo‘l”, “Xazoyin ul-ma’oniy”, “Qizil, sorig’, yashil...”, tarixiy davr, cho‘ng asar, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, ruhiy poklik, insonparvarlik, odamiylik, tasavvuf.

Annotation

Alisher Navoi’s works represent not only classical literature but also play a crucial role in uncovering the nuances of modern Uzbek literature. The uniqueness of the content and the artistic excellence of his works are so profound that even today’s readers are deeply interested in reading and analyzing them, despite the centuries that have passed. His ability to create a unique style and expression proves the timeless nature of his art. In today’s literary process, many contemporary writers refer directly to classical literature and the works of great thinkers from the medieval period, including Navoi, in order to find inspiration and benefit from their legacy.

Moreover, Alisher Navoi’s creativity remains a highly relevant and important topic in the 21st century. His spiritual heritage continues to serve as a source of inspiration. Today’s writers also turn to Navoi's ideas to address moral crises in society and to promote inner purity and humanity in their works.

Nowadays, many writers and poets are directly referring to Alisher Navoi’s personality and creativity in their writings. Muhammad Ali, Khurshid Davron, Usmon Azim, and Abduvali Qutbiddin are among the poets who continue Navoi’s poetic spirit and style in a modern way. Writers such as Tohir Malik and Isajon Sulton are also drawing inspiration from Navoi’s legacy. In our articles, we analyze Isajon Sulton's novel Alisher Navoi".

Key words: “to be nourished”, praise, “Be”, “Khazoyin ul-ma’ani”, “Red, ellow, green...”, historical period, masterpiece, moral and spiritual ideas, spiritual purity, humanism, human decency, sufism.

Аннотация

Творчество Алишера Навои представляет собой не только классическую литературу, но и играет важную роль в раскрытии грани современного узбекского литературного процесса. Произведения Навои отличаются глубиной содержания и художественным мастерством, что делает их актуальными даже сегодня — современный читатель с интересом изучает их, несмотря на прошедшие века. Уникальность стиля и выразительности Навои свидетельствует о его вневременности. Сегодняшние представители литературы часто обращаются к классическому наследию, в частности к творчеству средневековых мыслителей, включая Навои, чтобы черпать вдохновение и пользу.

Кроме того, творчество Алишера Навои в XXI веке остаётся актуальной и важной темой. Его духовное наследие продолжает служить источником вдохновения. Современные авторы, как и Навои, стремятся решать в своих произведениях моральные проблемы общества, призывают к духовной чистоте и человечности.

В наше время многие писатели и поэты непосредственно обращаются к личности и творчеству Алишера Навои. Среди них — Мухаммад Али, Хуршид Даврон, Усмон Азим, Абдували Кутбиддин, которые продолжают поэтический дух и стиль Навои в современном контексте. Также такие писатели, как Тохир Малик и Исажон Султон, вдохновляются наследием Навои. В наших статьях рассматривается роман Исажона Султона “Алишер Навои”.

Ключевые слова: “питаться”, похвала, “Буль”, “Хазойин ул-ма'ани”, “красный, жёлтый, зелёный...”, исторический период, выдающееся произведение, нравственно-духовные идеи, духовная чистота, гуманизм, человечность, суфизм.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va boshqa mutaffakirlarimiz ijodining bugungi kun zamonaviy adabiyoti shakllanishida ham ma’lum ma’noda hissasi bor deya olamiz. Bundan ko‘plab yozuvchi shoirlarimiz “oziqlana olgan”. Biroq bu oziqlanish, madad olish turli ijodkorlarda turlicha shakl va darajada voqe bo‘ladi, uni bir xil qolip va shakllar bilan belgilash qiyin. Masalan, ayrim

yozuvchilar ijodida juda yorqin ko‘rinib turadi. Bu xususiyat mohir yozuvchi Isajon Sulton ijodida ham o‘z aksini topdi.

Zamonaviy, mustaqillik davri yozuvchisi bo‘lmish Isajon Sulton o‘zining ko‘plab asarlari bilan kitobxonlarini topa olgan. Ana shunday sara namunalaridan biri “Alisher Navoiy” romanidir. Ijodkor tarixiy roman yozishni maqsad qilarkan, uning oldida ulkan bir mas’uliyat yotadi. Shoir yoki yozuvchi tarixiy mavzuda ijod qilishga bel bog‘larkan, tom-tom kitoblarni, sahifa-sahifa tadqiqot va arxiv materiallarini to‘playdi, ularni chuqur o‘rganadi.

Asqad Muxtor aytganidek, “Odissey arvohlarni o‘zi bilan suhbatlashishga ko‘ndirish uchun ularga o‘z qonidan berib tiriltiradi. Yozuvchi tarixiy shaxslar haqida yozganida shunday qilishi kerak” [1,htpps://kh-davron-uz].

Isajon Sultonning bu romanida muallif buyuk shoir hayotining eng muhim bosqichlarini badiiy talqin qilib ochiib beradi. Asarda faqatgina tarixiy-biografik faktlar emas, balki shoirning ichki ruhiy olami ham yoritiladi. Navoiy siymosida ma’naviy komillikka intilayotgan inson, doimo o‘zini poklashga, jamiyatga foydali bo‘lishga harakat qilayotgan shaxs tasvirlanadi.

Alisher Navoiy nafaqat o‘rta asrda yashab ijod etgan yashab o‘tgan bir mutafakkir, balki u har bir davr uchun zamon kishisidir. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanini o‘qib boshlarkanmiz, kitobning ilk sahifalaridanoq Alisher Navoiy uslubi kabi Allohga hamd bilan boshlanadi. Allohning yaratuvchilik qudrati, Yaratganga shukronalik hissi, birgina “Bo‘l” degan hukm bilan jamiki mavjudotlarning yaratganligi. Romanda Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan boy merosimiz yaratilish tarixi haqida ishonchli ma’lumotlar berib ketilgan. “Navoiyning Astrobodga surgun qilinishi” masalasiga ham oydinlik kiritadi. Oybek o‘zining Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida buni “markazdan uzoqlashtirish” deb ataydi. Isajon Sulton esa o‘z asarida Navoiyning Xuroson janubiga Astrobod viloyatiga hokim etib tayinlashida uni Hirotdan uzoqlashtirish, “surgun” qilish maqsadi bo‘lmaganini ko‘rsatib bergan. Ya’ni Husayn Bayqaro shu yo‘l bilan janubda tobora kuchayib kelayotgan safaviylarga qarshi munosib himoya o‘rnatishni, bunda Navoiyning mavqei, kuchli siyosatdonlik mahoratidan foydalanishni ko‘zlaydi. Romanning bu bobida Navoiyning naqadar o‘tkir siyosatchi, odil, tashabbuskor rahbar bo‘lgani ham ochib beriladi [2,№ 5].

Roman qurilishi Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni ichki strukturasiga mos 4 qismdan tashkil topgan: “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoe’ ul-vasat”, “Favoid ul-kibar”. Ya’ni asarda ayni shu qismlarida Navoiyning bolalik, yoshlik, ya’ni o‘smirlik, o‘rta yoshlik va keksalik davri voqealari boy mahorat bilan qalamga olingan.

Alisher Navoiy hayotida tasavvuf muhim o‘rin tutadi. Romanda shoirning Attor va Rumiy ijodidan ilhomlanishi, bu asarlar orqali qalban uyg‘onishga erishgani ko‘rsatiladi. Bu esa, shubhasiz, uni ma’naviy g‘oyalar targ‘ibotchisiga aylantiradi [3,91] .

Alisher Navoiy tasavvuf va tafakkur orqali insonning o‘z nafsini engish, qalbni poklash, adolatli va mehribon bo‘lish, donolik sari intilish kabi ma’naviy tamoyillarni ilgari suradi. “Xamsa” tarkibidagi “Hayrat ul-abror” dostonida ma’naviyat asoslari nazariy va badiiy tarzda bayon etilgan bo‘lib, bu orqali Navoiy jamiyatni ham, shaxsni ham, davlatni ham yuksaltirishni maqsad qilgan [4,112].

Shuningdek, yozuvchi romanida Navoiyni nafaqat davlat arbobi va shoir, balki doimiy ruhiy izlanishda bo‘lgan, kamolotga intilgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Asarda Navoiy yoshlikdan boshlab ruhiy poklik, donolik, sabr, tavoze, halollik, kabi qadriyatlarga sodiq inson qiyofasida gavdalanadi. Jumladan, romanda tasvirlanishicha, Navoiy madrasada o‘qib yurgan paytdagi mulohazalari orqali uning tafakkurida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar aks ettiriladi:

U bilim orttirar, ammo bu bilim faqat donolik emas, qalb pokligi uchun zarur ekanini tushunib borardi [5,37].

Asarda Navoiy ijodidagi muayyan bir asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy, ruhiy omillar ham ko‘rsatib beriladi. Romanda ko‘rishimiz mumkinki, juda ko‘p g‘azallarning yaratilishi va uning atrofidagi jarayonlar mahorat bilan tasvirlangan.

“Qizil, sorig‘, yashil...” radifli g’azali Alisher va Bayqaroning Mashhad safariga otlanganda yaraldi. “Taqdirning yana bir hadyasi mana shu safar chog‘ida zuhur etdi. Ko‘hsordan o‘tilgach, o‘ng tarafda uch xil tusdagi kichik tog‘lar namoyon bo‘ldi. Ularning biri qizil, biri sariq bo‘lib, har ikkisi ham yaydoq, ustida o‘t-o‘lan o‘smagan, uchinchisini esa yosh archalar qoplab olgan, yashilliklarga burkanib ko‘zga tashlanib turardi. Tangri taolo yaratgan qizil, sariq, yashil mo‘jizalarning bunday ajoyib silsilasi yigitcha ongida ajoyib larza paydo qildi [6, 93].

“Xamsa” dostoni tarkibidagi “Farhod va Shirin” dostoni yaratilishiga ham bu voqeada bir ishora bor. O‘smirlik chog‘ida Navoiy tog‘asi Kobuliy bilan lola sayliga chiqadi. U erda tosh kesayotgan sangtarosh bir yigitni uchratib qoladi. Yigit qoyatoshni yo‘nib, vodiyga suv chiqarish uchun mehnat qilayotgandi. U bilan suhbatda shu narsa ayon bo‘ladiki, yigitning ismi Xusrav bo‘lib, Navoiy Shirin ham bordir deb ishora qiladi. Yigit ham tasdiq ma’nosida ulus ichida bior Shirin ismli qiz ham borligini aytadi. Keyinchalik Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yozayotganida shu voqeani yodga olgan va Farhod timsoliga o‘sha o‘zi ko‘rgan va suhbatda bo‘lgan Xusrav ismli yigitni kiritgani ma’lumotlarda aytib o‘tilgan.

Shuningdek, malik ul-kalom Lutfiy 10-12 ming forsiy va turkiy baytini almashmoqchi bo‘lgan mashxur baytni yodga olsak:

Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh...

Shom kunduz bosimini ozaytirib, engillik ola keldi. Qizg‘ish yog‘dular zaiflashib g‘oyib bo‘lar ekan, nimtatir-ko‘kimtir tuslar qolganida, yulduzlar ko‘paya bordi. Qushlarning shom sayrog‘i tindi. Samo yulduzlari qaroqdan sizib chiqqan musaffo yosh tomchilar kabi bo‘lib qoldi va ushbu kun botishi, mehr quyoshi, qoramtir-ko‘kish samo va jimirlovchi yulduzlar unga ajoyib tashbeh hadya etishdi. Quyosh botgach, uni sog‘inib yig‘latguvchi bola ko‘zidan sochilgan yoshlar tasavvurda yulduzlarga aylangan.

Bu go‘zal o‘y endi she’rga aylanishi kerak edi [7,63].

Bu baytlar Alisher va uning oilasining Hirotdan Iroqqa ko‘chganida, Iroqdan qo‘nim topganida vujudga kelgan edi. Dastlab shu 2 misra yaratilgan bo‘lsa-da, bola Alisherning bu bu qadar so‘zlarni nozik ipga tergandek yaratgan misralari tahsinga sazovor. Har qanday bugungi kun o‘quvchisi uchun ilhom bo‘ib xizmat qila oladi.

Alisher Navoiyni Mir Alisher Navoiy darajasiga ko‘targan “Xamsa”ning tugallanishi, “Mukokamat ul-lug‘atayn” muhokamalari, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”- bularning barchasi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida o‘z aksini topgan.

Adib Xayriddin Sulton roman uchun Isajon Sultonga minnatdorchilik sifatida maktub yozadi. Unda shunday so‘zlar qalamga olingan edi:

Bir paytlar rahmatli ustozlarimiz Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratgan betakror asarlardan so‘ng

adabiyotimizda uzoq vaqtdan buyon muayyan bo‘shliq vujudga kelgan va cho‘ng bir asarga ehtiyoj bor edi.

Boshqacha aytganda, bizning adabiy avlodimiz Alisher Navoiy haqida o‘z badiiy so‘zini aytishi ko‘pdan buyon kutilmoqda edi.

Siz ana shunday ulug‘vor va mas’uliyatli vazifani jasorat bilan zimmangizga olib, uni yorug‘ yuz ila ado etganingiz bilan chin qalbimdan tabriklayman

Yana romanga qaytadigan bo‘lsak, albatta, bunday ulkan, muazzam asarda juz’iy kamchiliklar bo‘lishi ham tabiiy. Zero yana ul hazrat ta’biri bilan aytganda, “yanglish va xato kishilik shartidir”.

Siz katta bilim va tajribaga, adabiy mahoratga ega adib sifatida yangi asaringizni butun bo‘y-basti bilan, fazilat va nuqsonlari bilan ko‘rib turibsiz deb o‘ylayman. Istardimki, qutlug‘ mavzudagi ushbu romanda hech qanday, hatto kichkina bo‘lsa-da, kamchilik uchramasa [8,509].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mir Alisher Navoiy asrimizning etuk dahosi, uning boy lirik merosi avlodlarga qoldirilgan ulkan tuhfadir. Bu ulkan shoirimiz ijodi uzoq asrlar davomida adabiyot ixlosmandlari uchun dasturilamal vazifasini o‘tashi shubhasiz. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani orqali kitobxon nafaqat tarixiy shaxs haqida, balki inson ma’naviy komillikka qanday erishishi haqida ham chuqur tasavvurga ega bo‘ladi. Navoiy siymosi orqali badiiy asarda sabr, muhabbat, poklik, donolik kabi yuksak qadriyatlar ilgari suriladi. Bu asar o‘quvchini ruhiy boylik, axloqiy etuklik va tafakkur orqali “oziqlantiradi”.

Ulug‘bek Hamdam so‘zlari bilan yakunlaymiz: “Binoiydek bo‘lish oson, eplay olsangiz, Navoiydek bo‘ling”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar” - №5. 2021-y.
2. Sulton I. Alisher Navoiy.- Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. Muxtor A. Tundaliklar. Uyqu qochganda, htpps://kh-davron-uz
4. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom// Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 10-avgust.
5. Jo‘raqulov M. Alisher Navoiy va tasavvuf. Toshkent: Fan, 2015.
6. Yo‘ldoshev M. Navoiy asarlarida axloqiy g‘oyalar. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2013.
7. Qayumov A. Navoiy siymosi. Toshkent: O‘qituvchi, 1991

8. Abdug‘aniyev B. “Isajon Sultonning tarixiy romanlarida ruhiy olam talqini”, Adabiyotshunoslik masalalari, 4(12), 56-61, 2018.

URUSH YILLARI KO‘ZGUSIDA TARBIYA, SADOQAT VA XIYONAT

Vahobova Namunaxon Faridjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

O‘zbek adabiyotida urush, uning insoniyat taqdirida qoldirgan ayanchli oqibatlari haqida yuzdan ortiq asarlar yozilgan bo‘lib, ularni o‘qigan kitobxonni asar qahramonlarining turfa xil fojiali taqdiri befarq qoldirmaydi. Bu mavzuda yaratilgan asarlar orasida ayniqsa, o‘zbekning ikki zabardast adibi Said Ahmad hamda O‘tkir Hoshimov asarlarining alohida o‘rini bor. Mazkur maqolada Said Ahmadning “Ufq” va O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi urush davri voqealarining yoritilishi, har ikki asardagi obrazlar tabiati, qahramonlar psixologiyasi o‘zaro qiyoslanib tahlil qilindi. Asarlar o‘rtasidagi o‘zaro farqli va umumiy jihatlar ochib berildi.

Kalit so‘z: Urush, ma’naviyat, tarbiya, qahramon, mardlik, Ona, sadoqat, xiyonat, qochoq.

Аннотация

В узбекской литературе написано более ста произведений о войне и ее трагических последствиях для человечества, и читатель, читающий их, не может остаться равнодушным к многообразным трагическим судьбам героев произведений. Среди произведений, созданных на эту тему, особое место занимают произведения двух выдающихся узбекских писателей Саида Ахмада и Уткира Хошимова. В статье сравнивается и анализируется освещение военных событий в произведениях Саида Ахмада «Уфқ» и Уткира Хошимова «Икки эшик ораси», характеры персонажей обоих произведений, психология персонажей. Выявлены различия и сходства между произведениями.

Ключевые слова: Война, духовность, воспитание, герой, мужество, мать, верность, предательство, беглец.

Adabiyot hayotni aks ettiradi degan gap bejiz emas. Ba’zida birgina asar butun avlodning qalbini larzaga keltiradi, xalq tarixini tilsiz bayon etadi. Kitobxon dunyoqarashini kengaytirib, ma’naviy kamolotiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani va Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. G‘oyaviy-badiiy etuk bu asarlar orqali biz muayyan bir davr hayoti haqida keng va konkret ma’lumot olamiz, xulosa chiqaramiz. Men uchun bu ikki asar ikkita turli, ammo bir-birini to‘ldiruvchi oynadir.

Urush. Bemavrid boshlangan ikkinchi jahon urushi qanchadan qancha oilalarni baxtsizlikka mahkum etgan. Millonlab oilalar urush sababli ayriliq azobini tortgan. Urush haqida, uning o‘tkir tig‘i yaralagan kishilar taqdiri, begunoh to‘kilgan qonlar, alamli ko‘zyoshlar, bir so‘z bilan aytganda insoniyat boshiga yog’dirgan ofatlari haqida jahon adabiyotida qanchadan qancha asarlar bitilgan. O`zbek nasrida ham urush mavzusi juda ko`p yozuvchilarning asarlarida mavjud bo`lib, ular ijodkorning teran nigohi, davrni yaxshi his qilishi orqali har xil tusda badiiyatga ko`chadi. Bunday yozuvchilar adabiyotda butun boshli bir silsilani tashkil etadi.

“O`zbek prozasining rivojida yozuvchi Said Ahmadning xizmatlari alohidadir. O`zining o`nlab asarlarida urush davri bilan bog`liq voqealarga turli munosabatlar bilan murojaat etdi. Adib iste’dodining natijasi o`laroq o`zbek harbiy prozasi urushning inson uchun naqadar og`ir qismat ekanini hozirgi kitobxonga his qildirgan”. [1.108-b] Darhaqiqat, uning roman janrida yozilgan “Ufq” trilogiyasida, qolaversa, o`nlab hikoyalarida urushning eng chirkin, eng qora hodisalardan biri ekanligi, odamzodning boshiga tushgan musibatli ohanglari badiiy ifodalab berdi.

Ustozlar izidan borib samarali ijod qilgan iste’dodli adib, betakror so‘z san’atkori O‘tkir Hoshimov ham urush mavzusiga ko‘p murojaat etgan. Asarlaridagi hayot manzaralari,insonning nozik qalb kechinmalari tasviri o‘zining milliyligi, xalqchil va teranligi bilan adabiyot muxlislarining mehriga sazovor bo‘lgan. Adib “Ikki eshik orasi” romanida urush odam bolasining insoniyligini sinovdan o‘tkazadigan ulkan ma’naviy-ruhiy mezon, ulug‘ sinov bo‘lganligini hikoya qiladi. Qahramonlarning murakkab taqdiri, ruhiy kechinmalari, yashash tarzi, dard-alamlari kitobxonni o‘yga toldiradi.

Har ikki asar voqealari bir zamon va makonda bo‘lib o‘tganligi sababli qiyosiy tahlil uchun ob’ekt sifatida tanlab oldik. Dastlab e’tiborimizni mualliflarning tarixiy davr voqeligini tasvirlash holatlari jalb etdi. Asarlar yaratilgan vaqtga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Ufq” trilogiyasi 1964-1974-yilarda yozib tugatilgan va 1976-yilda ilk bor nashr etilgan. Asarda 1939-yildan 1945-

yilgacha voqealar yoritilgan. „Ikki eshik orasi’’ romani ilk bor 1985-yilda nashr etiladi. „Ikki eshik orasi’’ romani voqealari trilogiyaga nisbatan biroz kengroq — 1933-yildan to 1978-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Men “Ikki eshik orasi’’ romanini „Ufq’’dan avvalroq o‘qiganman. Romanda urush va urushgacha yillar og’ir o‘tgani, insonlar och qolgani, hatto ochlikdan insonlar o‘lib ketgan holatlari tasvirlangan o‘rinlarni o‘qiganimda ancha vaqtgacha asar ta’siridan chiqib keta olmaganman. „ - Voydod! Nonim! Nonimni obqochdi! Qo‘rqib ketdim. Qarasam, to‘qqiz-o‘n yoshlardagi bola olomon orasidan otilib chiqib, shu tomonga yugurib kelyapti. Qo‘lida yarim buxanka non. Boshidagi yirtiq telpagi qiyshayib ketgan. Sarpoychan botinka kiygan oyog‘i sovuqdan qip-qizil go‘shtga aylangan. Joni boricha chopyapti-yu ikki qo‘llab nonni og‘ziga tiqadi. Paxtalik kiygan rangpar xotin bolaning ketidan etib kelib, elkasiga chang soldi.- Nonim! Yetimlarimning nasibasini o‘g‘irladi! - dedi chinqirib.Bolaning elkasidan tortib, quloq-chakkasiga tarsaki tushirgan edi, bola bukchayib qoldi. Xotin jon holatda nonga chang soldi. Bola nonni qo‘yib yubormadi. Chala- chulpa chaynab ochko‘zlik bilan yuta boshladi. Besh-olti kishi yordamga etib keldi. Gavdaliroq erkak bir musht tushirgan edi, bolaning telpagi boshidan uchib qorga tushdi. Bolapaqirni birpasda olomon qilib yuborishdi. Shuncha odam savalab yotibdi-yu, bola parvo qilmaydi. Qorga muk tushganicha non kavshaydi.’’ [2. 157-158-betlar.] Asarning bu qismi yurak-bag’rimni tilka-pora qilgandi.

“Ufq” ni o‘qiganimda Said Ahmad voqelikni o‘z davri talablari, san’at va adabiyotda hukm surgan sotsialistik realizm metodi mezonlariga muvofiq talqin qilganligiga duch keldim. Kanal qazilishidagi to‘kin-sochinliklar, Yozyovon cho‘lini ochishda tandir-tandir nonlar yopilgani tasvirlanadi. Masalan: „ Azizxon kabob to‘la tog’orani, dasturxondagi nonlarni so‘riga qoyib, bir qiyiq sovunatirlarni chayladagi karavotga sochib yubordi. Xotinlar qiy-chuv qilib talashib ketishdi.’’ yoki „ Zebixon nonlarni uzib tandirga g'o‘zapoya tashladi-da, Nizomjonga kulib qaradi.- Qani, nonga qarang.” [3. 118-bet, 289-bet.]

Shu o‘rinlarda “Ufq’’ dan ijtimoiy mafkuraning isi keladi. Ya’ni xalq siyosiy tuzumdan rozi va baxtiyor ko‘rinadi asarda. Katta Farg’ona kanalini qazilishidek og’ir va ma’suliyatli vazifani bajarishda duch kelingan asl qiyinchiliklar yoritilmagan deb o‘ylayman.

“Ikki eshik orasi’’ romani yozilgan vaqtda esa demokratiya shabadalari esa boshlagandi. Shuning uchun bo‘lsa kerak asar qisman erkin yozilgani seziladi. Romandagi ayrim o‘rinlarda ochiqchasiga tanqid qilsih, kinoyali holatlar uchraydi. Bunga Robiyaning otasi gazetada amaldorni tanqid qilgani uchun quloq qilinishi, Husan dyumaning aynan „dyuma’’ laqabini olishining sababi, majburiy mehnat, mansabni suiste’mol qilinishi, „O‘tkan kunlar’’ ni yashirinib o‘qilishi, xalq

dushmanining qizi sifatidaa Robiyaga qilingan munosabat kabilar misol bo‘la oladi.

Davr voqeligini yoritishdagi asarlardagi farqni hisobga olmaganda, har ikkala yozuvchi ham o‘z qahramonlari ruhiyatining iztirobli, tuyg‘ularning og‘riqli nuqtalarini birdek yuksak mahorat bilan yoritib berganlarini kuzatamiz. Ularni tom ma’noda inson ruhiyatining bilimdoni, psixolog-yozuvchi deb atashimiz mumkin. Barchamizga ma’lumki, badiiy asardagi mavzu va g‘oya, obraz va xarakter, syujet va kompozisiya, badiiy til va uslub, tur va janr kabi vositalar asarning mukammalligini, badiiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan asosiy unsurlar sanaladi. Bunda muallifning mahorati, asarda nazarda tutilgan g‘oyaviy konsepsiyaning muhimligi, yozuvchi qo‘llayotgan uslub va badiiy mahorat borasidagi qarashlar ham ahamiyatli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Kimsan va Tursunboy obrazlari ikki asardagi bir-birini inkor qiluvchi obrazlardir. Ya’ni biri qahramon, biri qochoq. Vaholanki, har ikkisi bir zamon va bir makonda katta bo‘lgan va bir xil og‘ir vaziyatga tushgan. Lekin nega ikki xil yo‘ldan borishdi? Tursunboyning qochqinlikni tanlashiga sabab qo‘rqoqlikmidi?

Asar nomi	UFQ. ”Qochoq”	“Ikki eshik orasi.
Muammo: Bemavrid boshlangan urush insonlarni nafaqt moddiy qiyinchiliklar, balki ma’naviy sinovlar bilan ham imtihon qildi. Kimlar bu imtihondan o‘tdi? Kimlar o‘tmadi? Sabab va oqibatlar haqida		
Qiyosga olingan qahramon	Tursunboy	Kimsan
Qahramon ismining qo‘yilish sababi	**Tursunboy** - Ikrom aka va Jannat xolaning tilab olgan farzandi. Ular Tursunboydan avval etti farzandidan ayrilgan. Tursunboy ismi esa “Endilikda shu tursin, sog‘-omon bo‘lsin” degan niyatda qo‘yilgan. Bu ismda ham chuqur ramziylik bor - bu farzandni asrab qolishga qaratilgan oxirgi najot, so‘nggi duoning natijasi	**Kimsan** - ismi o‘zida xalq e’tiqodiga xos chuqur ramzni mujassam etadi. “Ajal kelganda isming nima deb so‘raydi?” degan e’tiqod asosida qo‘yilgan bu ism ota-onaning bir necha farzandini yo‘qotganidan so‘ng, Allohdan “bu bola kim bo‘lishidan qat’i nazar tirik qolsin” degan nolasi sifatida qaraladi. Bu ism - iztirob, sabr va umidning mahsuli

	sifatida paydo bo‘lgan.	
Qahramonning xarakter xususiyati	**Tursunboy** - haddan ortiq taltaytirib katta qilingan, mehrsiz, mas’uliyatsiz yigit. U ota-onasining mehrini qadrlamaydi. Onasining o‘limiga befarqlik bilan qaraydi. Uning hayot yo‘li nomardlik va beburdlik namunasi sifatida tasvirlanadi**.** Tursunboy o‘quvchining nafratini uyg‘otadi. Uning o‘z manfaatini ustun qo‘yishi, hatto onasining o‘limidan ham dars chiqarmasligi salbiy obraz sifatida esda qoladi.	**Kimsan**-yoshligidan mehnatga o‘rgangan, ota-onasiga hurmatli, chin dildan yurtga sodiq inson sifatida tasvirlanadi. U haqiqiy er yigit sifatidagi shaxsiy burchlaridan xabardor edi. Uning soddaligi, sofdilligi, yigitlarga xos chapani fe’l-atvori o‘quvchi qalbida iliqlik, hurmat va mehr uyg‘otadi
Qahramonning vaziyatga (urushga) Munosabati	U urushdan qochdi. Yelkasidagi ma’suliyatni butgul erga otdi. Na ota-onasi, na Vatani oldidagi burchini o‘ylamadi. Qilgan ishlarining oqibati hatto uni qiziqtirmadi ham. Otasiga munosib farzand bo‘lish o‘rniga, uni uyatga qo‘ydi. Qo‘rqoqlik qilib erkidan, yaqinlaridan, sevgisidan judo bo‘ldi. Hech bo‘lmaganda uzr so‘rab qaytmadi ham.	U urush boshlanishi bilan birinchilardan bo‘lib frontga ketadi va halok bo‘lsa ham, mardona kurashadi. Uning obrazida jasorat, vatanparvarlik va sadoqat mujassam. Kimsan qalbida sog‘inch bilan, ammo jasorat bilan kurashadi va shahid bo‘ladi.
Sabab	Tursunboy erkatoy o‘g’il edi. Farzand tarbiyasida ota-onaning haddan tashqari yumshoqligi va mas'uliyatni faqat bir	Kimsan bolaligidan mehnatsevarlik, ota-onasiga hurmat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalangan. Bu tarbiya uni mas'uliyatli va

	tomonlama yondashuvi, bolaning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Uning noto‘g‘ri xatti-harakatlariga nisbatan hech qachon qat'iy tanbeh berilmaganligi, unga o‘z xatolarining oqibatlarini anglash imkonini bermagan.	vatanparvar inson sifatida shakllantirgan. U kerakli o‘rinlarda tanbeh eshitgan va bundan xulosa olgan. Mehnat qilish jarayonida xalqiga, tabiatga, vatanga bo‘lgan muhabbat hissi bilan ulg’aygan. Yigitlik vazifalari va burchidan xabardor bo‘lgan.
Oqibat	Umrining oxirini qochqinlikda, yakkalanib, g‘amxo‘rsiz va ma’naviy qashshoqlikda o‘tkazadi. Uning halokatli oqibati befarqlik va nomardlikning oqibati sifatida ko‘rsatiladi. Va u sinovdan o‘ta olmaydi.	Kimsan frontda mardona kurashadi va halok bo‘ladi. Bu uning vatan uchun jonini fido qilganining dalilidir. Kimsanning o‘limi — vatan uchun qurbon bo‘lishning oliy namunasi sifatida ko‘rsatiladi. U hayotning bu sivovidan ota olgan.
Xulosa	Tursunboyning hayoti, farzand tarbiyasida muvozanatning muhimligini ko‘rsatadi. Haddan tashqari erkalatish va ortiqcha avaylash, bolaning mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Ota-onalar farzandlariga nisbatan mehribonlik bilan birga, zarur qat'iyat va mas'uliyatni ham o‘rgatishlari zarur. Bu esa ularning hayotda mustaqil, irodali va mas'uliyatli insonlar bo‘lib voyaga etishlariga zamin yaratadi.	Kimsanning mehnatsevarlik, vatanparvarlik va ota-onaga hurmat kabi sifatlari bolalikdan boshlangan tarbiya natijasidir. Bu – har bir yoshlik davrida mehr bilan birga qat’iyat, tartib-intizom va mas’uliyatni uyg‘otish muhimligini ko‘rsatadi. Kimsan kerakli vaqtda tanbeh eshitib, o‘z xatolarini tan olgan, bu esa uning ruhiy chidamliligi, har bir insonning hayotida kamchiliklar yuzaga kelganda o‘z ustida ishlash kerakligini o‘rgatgan.

Ko‘rinib turibdiki, oilada farzand tarbiyasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Ya’ni hamma narsaning meyori bo‘lishi o‘rinli. Erkalatishda ham, erkinlik berishda ham, hatto tanbeh berishda ham meyor juda muhim. Agar meyor buzilsa oqibati nafaqat ota-ona, balki jamiyatga ham ziyon keltirishi mumkin. Aynan Tursunboyning tarbiyasidagi meyor buzilgani sababli u shaxsiy menida shakllangan illatlar qurboni bo‘ldi. Menimcha Kimsan va Tursunboyning ikki xil yo‘l tutishining sababi ularning ikki xil oilada tarbiya qilinganligida.

Sadoqat va xiyonat. Bu ikki tushunchaning turli ko‘rinishlari bor: Vatanga, xalqqa, oilaga, do‘stga, turmush o‘rtog‘iga, fuqaro sifatidagi burchiga, o‘z e’tiqodiga sadoqat yoki aksincha xiyonatga yo‘l qo‘ygan qahramonlar hayoti va shu tufayli yuz bergan fojiaviy taqdir yorqin ifodalangan asarlar adabiyotning azaliy mavzulari hisoblanadi. O‘tkir Hoshimov „Ikki eshik orasi’’ romanida Ra’no va Robiya kabi qarama qarshi xarakterga ega bo‘lgan qahramonlar hayotini yoritish orqali asarning g’oyaviy mazmumini yanada boyitgan. Urush oqibatida Ra’no erini, Robiya esa qaylig’ini jang maydoniga kuzatishga majbur bo‘ldi. Lekin bu o‘xshash ikki obrazning muammoli vaziyatlardagi tutgan yo‘llari turlicha bo‘ladi. Masalan, Ra’no hissiyotlarga berilib, o‘rinsiz qarorlar qabul qiladi. Natijada vafosiz, engil tabiatli ayolga aylanib qoladi. Ammo Robiya o‘zini hurmat qilgan holda sadoqatini, or-nomusini saqlaydi. Misol tariqasida: Umar zakunchi sirlaridan voqif bo‘lgan Robiyani jim qilish maqsadida unga tajovuz qilmoqchi bo‘lgan o‘rni bor. O‘sha erda unga to‘y qilib uylanishi, moddiy jihatdan ta’minlashi haqida va’dalar berib Robiyani yo‘lga olmoqchi bo‘ladi. Lekin Robiya u o‘ylagan qizlardan emas edi. O‘sha erda u o‘zini himoya qiladi. Va uning aytgan gaplari, bergan va’dalari haqida hatto o‘ylab ko‘rmaydi. Vaholanki, bu holatda Ra’no allaqachon o‘z ixtiyorini Umar zakunchiga topshirib bo‘lgan edi. Hattoki eri endi urushdan qaytmasligiga ham rozi edi. Ra’no Umar zakunchini sevib qolgandi, Robiya esa uni yomon ko‘rardi. Shuning uchun bu o‘xshash vaziyat turli natija bilan yakunlangan deyish o‘rinli bo‘lardi. Lekin Ra’no Shomurodni ham qattiq sevgandiku! Urushga kuzatayotib, „meni ham olib ketasiz’’ deb yig’lagandiku?! Ra’no hissiy kechinmalarinining quli edi. U qachon qay tomonga boshlasa, usha tomonga ketaverdi. Shuning uchun ham „Sadoqat tarozisi’’da Robiyaning sadoqati unikidan og’ir keladi.

„Ufq’’ trilogiyasida ham Ra’no obraziga bir qadar yaqin bo‘lgan Dildor obrazni uchratishimiz mumkin.

“Ikki eshik orasi’’	**“Ufq’’**

Ra’no — asarning boshida salbiy obraz sifatida ko‘rinadi. U qilgan xatolari, o‘ziga va boshqalarga nisbatan bo‘lgan xiyonati orqali o‘quvchida nafrat uyg‘otadi. Ammo vaqt o‘tishi bilan uning boshiga tushgan fojialar, Ra’noning pushaymonligi va iztirobi o‘quvchida unga nisbatan achinish tuyg‘usini uyg‘otadi. Ra'no o‘z xatolarining badalini juda og’ir to‘laydi. Faqat o‘zi emas, balki begunoh farzandi Muzaffar ham kelajakda bu oqibatlardan aziyat chekadi. Ra’no xatolarini anglaydi, lekin juda kech — bu kech anglash uni ich-ichidan emiradi. Yozuvchi Ra’noning taqdirini ayanchli tarzda yakunlaydi, bu esa O‘tkir Hoshimovning realizmga sodiqligini ko‘rsatadi. Ra’noning taqdiri og‘ir, qaytarilmas yo‘qotishlarga boy. Yozuvchi uning hayotini keskinlik bilan yakunlaydi va hayotda qilgan xatolar ba’zida kechirilmas bo‘lishi mumkin degan fikrni ilgari surgandek tuyuladi menga.	**Dildor** — Ra’noga o‘xshash tarzda dastlabki hayotiy tanlovi sababli og‘ir oqibatlarga duch keladi. U Nizomjonga mehr qo‘ygan bo‘lsa-da, oxir-oqibat o‘zining muammoli qarori tufayli boshqa hayotni tanlashga ya’ni Nizomjonning akasiga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. Dildorning hayoti ham iztirob, azob-uqubat va ruhiy tushkunlik bilan kechadi. Ammo u pushaymonlik orqali ichki tozalanishga erishadi. Farzandi uchun yashashga harakat qiladi. U o‘zini o‘nglaydi va oxir-oqibat baxtini topadi. Bu jihatdan yozuvchi Dildorga nisbatan biroz mehribon, optimistik munosabatda bo‘lgandek tuyuladi. Dildor obrazi orqali Said Ahmad inson qanchalik xato qilmasin, agar chin dildan pushaymon bo‘lsa va yuragida umidini yo‘qotmagan bo‘lsa — u yana baxtga erishishi mumkinligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi go‘yo.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, insoniylik va ma’naviy qadriyatlarni chuqur ifodalagan holat, kechinmalar tahliliga asoslangan, hayot hodisalarining ichki murakkabliklari to‘g‘risida fikr, qarashlarni taqdim qiladigan va o‘ylashga undab, mushohada yuritishga majbur etadigan o‘zbek adabiyotining durdonalari bo‘lgan bu ikki asar bugungi kun o‘quvchisini insoniylik sari etaklaydi va tinch zamonimizga shukronalik ruhida tarbiyalashda birdek xizmat qiladi. Bu qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, asarlarning davrga munosabati, estetik yondashuvi va g‘oyaviy-ma’naviy pozitsiyasi farqli bo‘lsa-da, ular bir maqsad — urush fojealari orqali inson va jamiyatni anglash, ogohlik, sabr, sadoqat, jasorat kabi qadriyatlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Aynan shu jihatlari bilan bu ikki asar o‘zbek nasrida muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, har ikki asar orqali

o‘quvchi urush yillarining shunchaki tarixiy fakt emas, balki hayot falsafasi, axloqiy saboq, insoniylik sinovi ekanini anglaydi. Bu asarlar faqat o‘zbek adabiyotininggina emas, balki umuminsoniy qadriyatlar xazinasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘ljaboyev U. Zamon talabi va ijodkor mas’ulligi. – Toshkent.: O`zbekiston, 2012.108-b.
2. Hoshimov O‘.Ikki eshik orasi. -Toshkent.: Sharq. 2012
3. S. Ahmad. Ufq trilogiya. –Toshkent .: Turon zamin. 2024.
4. Normatov U. Ufqlarning chin oshig`i. – Toshkent.: Yurist-media markazi.2008.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent.: Sharq, 2004.

IJTIMOIY TARMOQLAR VA TEXNOLOGIYALAR BOLANING PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Tursunboyeva Uminiso,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
24-03-guruh talabasi,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar bog‘chasida nutqiy o‘yinlar orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Nutqiy o‘yinlarning ahamiyati, ularning turlari va bolalar nutqini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar bolaning so‘z boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar o‘yin jarayonida tilni samarali ravishda o‘rganib, muloqotda ishtirok etishga tayyor bo‘ladilar, bu esa ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Nutqiy o‘yinlar, muloqot ko‘nikmalari, bog‘cha, ta’lim, pedagogika, bola rivojlanishi, innovatsion metodlar, lingvistik qobiliyat, interaktiv yondashuv, kommunikativ kompetensiya

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие коммуникативных навыков у детей дошкольного возраста посредством речевых игр. Анализируется значение речевых игр, их виды и роль в развитии речи детей. Результаты

исследования показывают, что игры способствуют расширению словарного запаса ребенка, формированию мышления и развитию коммуникативной компетенции. В процессе игры дети эффективно овладевают языком и готовы участвовать в общении, что положительно влияет на их общее развитие.

Ключевые слова: речевые игры, коммуникативные навыки, детский сад, образование, педагогика, развитие ребенка, инновационные методы, лингвистические способности, интерактивный подход, коммуникативная компетенция.

Abstract

This article examines the development of communication skills in preschool children through speech-based games. It analyzes the importance of speech games, their types, and their role in the development of children's speech. The research results show that games contribute to expanding a child’s vocabulary, forming thinking abilities, and enhancing communicative competence. During play, children effectively acquire language skills and become ready to participate in communication, which positively affects their overall development.

Keywords: speech games, communication skills, kindergarten, education, pedagogy, child development, innovative methods, linguistic ability, interactive approach, communicative competence.

Kirish

Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy texnologiyalar bugungi kunda har bir kishining kundalik hayotida muhim o‘rin egallagan. Ushbu vositalar nafaqat kattalar, balki bolalar va o‘smirlar uchun ham ta’sirchan bo‘lib, ularning psixologik holati, shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlari va hissiy dunyosiga katta ta’sir ko‘rsatadi [1,1]. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar jahon miqyosida jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotiga sezilarli ta’sir o‘tkazib, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonning ijobiy va salbiy ta’sirlarini aniqlash, bolalar psixologiyasiga qanday ta’sir qilishini tushunish, shuningdek, bu vositalardan qanday qilib samarali va xavfsiz foydalanish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar, bolalar va o‘smirlarning axborot olish va ularning hissiy reaktsiyalarini shakllantirishda asosiy vositaga aylangan. Ushbu vositalar orqali bolalar va o‘smirlar turli madaniyatlarni, fikrlarni, qarashlarni o‘rganib, o‘zlarining ijtimoiy doiralarini kengaytiradilar. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda va texnologiyalarda mavjud bo‘lgan axborotning to‘liqligi, haqiqatga yaqinligi va axloqiy me’yorlari bolalar

psixologiyasiga ta’sir qiladigan muhim omil hisoblanadi[2,3]. Shuningdek, bolalar va o‘smirlarning virtual muhitda ko‘p vaqt o‘tkazishlari ularning hayotiy tajribalariga, o‘zaro munosabatlariga, boshqaruv qobiliyatlariga ham ta’sir qilishi mumkin.

Biroq, texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar faqatgina salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb o‘ylash noto‘g‘ri bo‘lardi. Ba’zi ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarni bolalarning ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda, o‘z fikrlarini erkin ifodalashda va kreativliklarini oshirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatgan. Masalan, onlayn o‘yinlar, o‘quv dasturlari va virtual jamoalar bolalar uchun o‘zlarini yangi kontekstlarda sinash va o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, texnologiyalar yordamida bolalar o‘z ta’lim olish jarayonini individualizatsiya qilish, mustaqil o‘rganishni rivojlantirish va o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida samarali vositalardan foydalanishlari mumkin[3,8].

Biroq, barcha bu imkoniyatlarga qaramay, texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar bolalar psixologiyasiga ham salbiy ta’sirlar ko‘rsatishi mumkin. Ko‘p vaqt davomida virtual muhitda bo‘lish, bolalarning haqiqiy dunyo bilan aloqalarini pasaytirishi, ijtimoiy izolyatsiya va ko‘ngil tushkunlik holatlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, yosh bolalar uchun noto‘g‘ri axborot va noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslangan kontent, shuningdek, bullying (tahqirlash) va virtual zo‘ravonlik kabi salbiy holatlar, ularning hissiy holatini buzishi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bois, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning bolalar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish, shuningdek, bu vositalardan bolalar uchun maksimal foyda olish va xavfsiz foydalanish yo‘llarini aniqlash juda muhimdir. Ma’lumki, texnologiyalarning bolalarga ta’sirini tahlil qilishda faqat salbiy tomonlarini emas, balki ijobiy tomonlarini ham e’tiborga olish zarur. Shuningdek, bu vositalardan foydalanishning psixologik xavfsizlik tamoyillari va me’yorlari ishlab chiqilishi, ularni bolalarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan tarzda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolalar uchun nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki dunyoqarashlarini shakllantirish va psixologik rivojlanishlariga ta’sir ko‘rsatadigan kuchli omillardan biridir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar bolalar va o‘smirlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, fikr almashish va yangi do‘stlar orttirish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ular bolalarga o‘z tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘rish va ijtimoiy mas’uliyatni tushunishga yordam beradi[4,2]. Ijtimoiy tarmoq orqali bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, o‘zining yoshiga va qiziqishlariga mos guruhlarda ishtirok etish orqali o‘zlarini

anglashlari mumkin. Bu ularga o‘z identifikatsiyasini mustahkamlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, texnologiyalar bolalar uchun faqat foydali emas. Masalan, video o‘yinlar va o‘quv ilovalarining ta’siri, bolalar uchun turli darajadagi qiziqarli va o‘rgatuvchi imkoniyatlar yaratadi. O‘yinlar orqali bolalar o‘qish va o‘rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli shaklda amalga oshiradilar. Bunday o‘yinlar bolalarga ijtimoiy malakalarni rivojlantirish, jismoniy va kognitiv ko‘nikmalarni oshirishda yordam beradi. Biroq, texnologiyalarni haddan tashqari ishlatish bolalarda salbiy ta’sirlar ham keltirib chiqarishi mumkin. Ekran oldida uzoq vaqt o‘tirish, ularning diqqatini boshqa narsalarga qaratish imkonini kamaytiradi, bu esa bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolalarning ta’lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilashda yordam beradi. Onlayn ta’lim platformalari va mobil ilovalar bolalarga bilim olishda keng imkoniyatlarni yaratadi. Ular turli mavzularda o‘qish va o‘rganish uchun resurslarga ega bo‘lishadi. Mobil ilovalar orqali bolalar geometriya, matematika, til o‘rganish, fanlar kabi turli sohalarda o‘quv dasturlarini o‘rganishlari mumkin. Bu jarayon bolalar uchun qiziqarli va motivatsion bo‘lib, o‘quv jarayoniga qiziqish va hissa qo‘shish imkonini beradi. Onlayn kurslar va video darsliklar bolalar uchun ko‘plab interaktiv darslar, tajriba va o‘rganish usullarini taqdim etadi, bu esa ularning o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar bolalarga bir-birini qo‘llab-quvvatlash va o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Bolalar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z tajribalarini o‘rtoqlashib, bir-birlarini ruhlantirish, qo‘llab-quvvatlash va do‘stlik munosabatlarini rivojlantirishlari mumkin. Ular o‘z qiziqishlarini va ijtimoiy masalalardagi fikrlarini bildirish orqali o‘ziga xos ijtimoiy va psixologik rivojlanishga erishadilar. Ayniqsa, bolalar bir-birlari bilan o‘rgatish, maslahatlashish, o‘zaro yordam berish va bilim almashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi[5,6].

Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning salbiy ta’sirlari ham mavjud bo‘lib, bu holat bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga zarar etkazishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda bolalar o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslashadi va shu orqali o‘z-o‘zini baholash tizimi buziladi. Bunday holat bolalar orasida o‘zini past baholash, depressiya va noaniqlik kabi psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Bolalar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z hayotlarining faqat yaxshi tomonlarini ko‘rsatishadi, bu esa boshqalarga nisbatan o‘zini yomon his qilishiga va noaniq his-tuyg‘ularni boshdan kechirishga olib kelishi mumkin.

Texnologiyalarning haddan tashqari ishlatilishi ham bolalarda salbiy ta’sirlar keltirib chiqarishi mumkin. Ko‘zlar bilan bog‘liq muammolar, uyqusizlik, jismoniy faollikning pasayishi, va ijtimoiy aloqaning kamayishi bu salbiy oqibatlardan ba’zilaridir. Bolalar, ayniqsa, uyda ko‘p vaqtni ekran oldida o‘tkazganda, o‘zlarini ijtimoiy jihatdan ajratilgan his qilishlari mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish ularga tajovuzkorlik yoki tazyiqni his qilishlariga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z-o‘zini past baholash va depressiv holatlarga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolalarning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish, bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch va mustahkam identifikatsiyani shakllantirishga yordam beradi, ammo bu jarayonning salbiy tomonlari ham mavjud. Bolalar va o‘smirlar o‘zlarini doimo boshqalar bilan taqqoslashadi va bu ularni ba’zida stressga solishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqdagi faollik, yuksak maqsadlar va me’yorlarni belgilash bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi, ammo ular boshqa bolalar bilan o‘zlarini taqqoslash orqali kamchiliklarini his qilishlari ham mumkin.

Texnologiyalarning bolalarning psixologik rivojlanishiga ta’siri faqat shaxsiy tajribalar va hissiyotlar bilan bog‘liq emas, balki ijtimoiy muhit va oilaviy qo‘llab-quvvatlashga ham bog‘liq. Psixologik maslahatlar va bilimlarni internet orqali bolalarga etkazish, ularning o‘z muammolariga echim topish, psixologik holatini yaxshilash va o‘zini anglashiga yordam berishi mumkin. Internetda mavjud bo‘lgan onlayn psixologik yordam resurslari, masalan, psixologik maslahatlar, ijtimoiy mashg‘ulotlar va terapiya sessiyalari bolalarga o‘z shaxsiy muammolarini hal qilishda yordam berishi mumkin.

Bolalarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda maqsadga muvofiq foydalanishini ta’minlash juda muhimdir. Bu maqsadga erishish uchun ota-onalar va pedagoglar bolalar bilan doimiy ravishda muloqotda bo‘lishlari va ular bilan texnologiyalardan foydalanishning foydalari va xavflarini muhokama qilishlari zarur. Texnologiyalardan foydalanish tartibini belgilash, bolalar uchun to‘g‘ri vaqtni boshqarish va onlayn xavfsizlikni ta’minlash muhimdir. Ota-onalar bolalariga internetda xavfsiz va mas’uliyatli faoliyatni qanday amalga oshirishni, ijtimoiy tarmoqlarda qanday etika qoida va me’yorlarga amal qilishni tushuntirishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning bolalarning psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy metodlar va yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi, asosan, bolalarning psixologik holatini va ular tomonidan texnologiyalarni qabul qilish jarayonini o‘rganish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bir nechta yondashuvlar asosida olib borildi.

Tadqiqotning asosiy metodlari orasida kuzatish, intervyu va so‘rovnomalar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot jarayonida bolalar va ularning ota-onalari bilan intervyular o‘tkazildi, bu orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning bolalarning psixologik holatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, bolalar o‘rtasida psixologik tahlil o‘tkazilib, texnologik vositalar bilan o‘zaro aloqalari va ular bilan bog‘liq psixologik natijalar o‘rganildi.

Kuzatish metodida ijtimoiy tarmoqlarni foydalanishning bolalarning ijtimoiy muloqotiga, o‘z-o‘zini anglashiga va ruhiy holatiga ta’sirini aniqlashga e’tibor qaratildi. Tadqiqotda maxsus guruhlar tashkil etilib, ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash vaqtida bolalarning psixologik o‘zgarishlari doimiy ravishda kuzatildi. Bu metod orqali bolalarning xulq-atvori, hissiy va ruhiy holatlari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan vaqt davomida ularning psixologik salomatligi qanday o‘zgarishi haqida ma’lumotlar to‘plandi.

Kvantitativ metodlar orqali bolalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bu so‘rovnomalar orqali bolalarning ijtimoiy tarmoqlarni qanday qabul qilgani, ular bilan bog‘liq qiziqishlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy muloqotdagi o‘zgarishlar haqidagi fikrlari aniqlanib, texnologiyalarni qabul qilishning psixologik ta’sirlari o‘rganildi. So‘rovnomalar natijalari bolalarning texnologiyalarni qanchalik tez o‘rganishi, ular bilan qanday munosabatda bo‘lishlari va bu munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganishga yordam berdi.

Sifatli tadqiqot usullari ham qo‘llanildi. Bu metod yordamida ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolalar o‘rtasida qanday yangi ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlarga olib kelayotganini o‘rganish uchun intervyu va guvohliklar yig‘ildi. Bolalar va ularning ota-onalari bilan o‘tkazilgan intervyular, shuningdek, o‘qituvchilar va psixologlar bilan suhbatlar orqali texnologik vositalarning bolalar psixologiyasiga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish usuli ham keng qo‘llanildi. Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning psixologik ta’siri haqida mavjud bo‘lgan nazariy manbalar, ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa resurslar tahlil qilindi. Ushbu ilmiy manbalar orqali texnologiyalarning psixologik rivojlanishdagi roli va bolalar psixologiyasiga ta’sirining jahon miqyosidagi ilmiy tajribalari o‘rganildi.

Tadqiqotning psixologik tahlil metodlari yordamida bolalarning o‘z-o‘zini anglash, o‘zaro muloqot va hissiy xulq-atvorini aniqlashda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarni muntazam ishlatishning bolalarning ijtimoiy munosabatlariga qanday ta’sir qilishi, ruhiy va hissiy holatiga qanday o‘zgarishlar kiritishi tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali bolalarning psixologik salomatligi, o‘zini anglash va ijtimoiy

qabul qilishdagi o‘zgarishlar hamda texnologiyalarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish mumkin bo‘ldi.

Tadqiqotning natijalari bo‘yicha kelgusi tavsiyalar va yo‘nalishlar ishlab chiqildi. Bu metodologiya orqali ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning bolalar psixologiyasiga ta’sirini chuqurroq o‘rganish, bolalar psixologiyasini qo‘llab-quvvatlash va ularning texnologik vositalardan foydalanuvchi bolalar sifatida rivojlanishiga yordam beruvchi psixologik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Ota-onalar va pedagoglar bolalarning onlayn faoliyatlarini nazorat qilishda ehtiyotkor bo‘lishlari kerak. Ular texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali bolalar bilan aloqada bo‘lishni qo‘llab-quvvatlashi, ularga ijtimoiy aloqalarni to‘g‘ri yo‘naltirishda yordam berishlari zarur. Ijtimoiy tarmoqlarda vaqtni qanday boshqarish va onlayn xavfsizlikni ta’minlash masalalarida bolalarga o‘rgatish, ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolalarning psixologik rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bularning bir tomoni o‘ziga xos imkoniyatlarni yaratib, bolalarning ta’lim olish, ijtimoiy o‘zini anglash va shaxsiy rivojlanishiga katta yordam beradi. Masalan, internet va mobil ilovalar orqali bolalar turli sohalarda bilim olishlari, o‘qish va o‘rganish jarayonlarini eng yangi texnologiyalar yordamida samarali tashkil etishlari mumkin. Onlayn ta’lim platformalari bolalarga yuqori sifatli resurslar, interaktiv materiallar va virtual muloqotlar orqali bilim olish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar bolalar uchun o‘z fikrlarini va tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘rish, o‘zaro fikr almashish, yangi do‘stliklar o‘rnatish, shuningdek, turli g‘oyalarni va tajribalarni o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Bular bolalarning ijtimoiy o‘zini anglashiga, shaxsiy va psixologik rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, ularda empatiya, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlardan va texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish bolalarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Texnologiyalarning haddan tashqari ishlatilishi bolalarda jismoniy va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, ko‘z bilan bog‘liq kasalliklar, uyqusizlik, jismoniy faoliyatning pasayishi va shu kabi salbiy holatlar. Bundan tashqari, bolalar o‘zini boshqalar bilan taqqoslash orqali o‘zini past baholash, psixologik tushkunlik va depressiya kabi holatlarga duchor bo‘lishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda bolalar o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslashlari, maqsadsiz yoki zararli kontentga duchor bo‘lishlari, shuningdek, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchlari pasayishi mumkin. Bu

esa, bolalarning psixologik holatini yomonlashtirishi, ijtimoiy va emotsional rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda va texnologiyalardan foydalanish bolalarda ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirishi, real hayotdagi ijtimoiy muloqotlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Bolalar ko‘proq vaqtni virtual dunyoda o‘tkazishlari, shu bilan birga, haqiqiy ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishdan mahrum bo‘lishlari mumkin. Boshqalar bilan yuzma-yuz muloqot qilishning ahamiyati pasayishi, bolalarda o‘zaro aloqalar, muloqot va jismoniy faoliyatga ehtiyojning kamayishi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalarning salbiy ta’siri bolalarning psixologik holatini, o‘z-o‘zini anglashni va atrofdagi dunyo bilan munosabatlarini keskin o‘zgartirishi mumkin.

Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarni bolalarning psixologik rivojlanishiga foydali tarzda ta’sir ko‘rsatishi uchun ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning o‘rni juda muhimdir. Ota-onalar bolalarning texnologiyalardan qanday foydalanayotganini kuzatib borishlari, ular bilan o‘z vaqtida muloqot qilishlari va bolalariga xavfsiz foydalanish qoidalarini o‘rgatishlari zarur. Onlayn xavfsizlik, axloqiy qadriyatlar, virtual dunyoda ijtimoiy muloqotlar va boshqalar bo‘yicha ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida yaqindan hamkorlik qilish bolalarning salbiy ta’sirlardan saqlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, pedagoglar bolalar bilan ishlashda texnologiyalarning ijobiy tomonlarini faol ishlatishlari, shuningdek, ularni hayotda muvaffaqiyatli tarzda qo‘llashni o‘rgatishlari kerak. Ular bolalarga texnologiyalarni o‘rganish, ta’lim olish va ijtimoiy muloqotlarda foydalanish bo‘yicha bilimlar berib, ular uchun doimiy qo‘llab-quvvatlash va maslahatlar berishlari kerak. Bolalar texnologiyalardan ijtimoiy va ta’lim maqsadlari uchun foydalanganida, ular o‘zlarini to‘g‘ri rivojlantirishga yordam beradigan imkoniyatlarga ega bo‘lishadi.

Ota-onalar va pedagoglar bolalarga texnologiyalarni boshqarishda qo‘llash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari lozim. Bolalarga texnologiyalardan foydalanish tartibini belgilash, vaqtni oqilona taqsimlashni o‘rgatish, jismoniy faoliyat va real hayotdagi muloqotga e’tibor berishni ta’minlash muhimdir. Shuningdek, bolalarga internetda xavfsizligini o‘rgatish, onlayn tahdidlar va zararli kontentdan himoya qilish bo‘yicha ta’lim berish kerak.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bolalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi uchun ularga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Ota-onalar, pedagoglar va jamiyat o‘rtasida mustahkam hamkorlik, bolalarning texnologiyalardan foydalangan holda ongli va maqsadga muvofiq tarzda rivojlanishlarini ta’minlash uchun muhim shartdir. Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalardan foydalangan holda bolalar o‘zlarini rivojlantirishi

va ijtimoiy muhitga moslashishi mumkin, agar ularning foydalanishi maqsadga muvofiq tarzda boshqarilsa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmonov, A. (2020). Ijtimoiy tarmoqlar va bolalar psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. Fan va texnologiya nashriyoti
2. G‘ulomov, B. (2019). Raqamli texnologiyalar va bolalar rivoji. Samarqand: Ma’naviyat va ma’rifat nashriyoti. Ma’naviyat va ma’rifat nashriyoti
3. Xamidov, S. (2018). Bolalar psixologiyasida texnologiyalarning o‘rni. Toshkent: Psixologiya institutining nashriyoti.Psixologiya instituti
4. Qodirov, M. (2021). Ijtimoiy tarmoqlar va o‘smirlar ruhiy salomatligi. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.Buxoro universiteti nashriyoti
5. Shodmonov, A. (2020). Raqamli kommunikatsiyalar va zamonaviy bolalar rivoji. Farg'ona: Farg‘ona davlat universiteti nashriyoti. Farg‘ona davlat universiteti
6. Alimov, D. (2022). Ijtimoiy tarmoqlarda bolalar xavfsizligi. Toshkent: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi nashriyoti.O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
7. Ibragimov, I. (2020). O‘smirlar va texnologiyalar: ijobiy va salbiy ta’sirlar. Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti. Andijon davlat universiteti
8. Diyadurov, A. (2021). Bolalar va texnologiyalar: rivojlanishdagi rol va xavf. Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.Ma’rifat nashriyoti
9. Musayev, T. (2019). Raqamli o‘qish va o‘quvchilar: onlayn ta’limning o‘rni. Toshkent: Ta’lim va texnologiya nashriyoti.Ta’lim va texnologiya nashriyoti
10. Shavkatov, K. (2021). Bolalar psixologiyasi va ijtimoiy tarmoqlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. Samarqand davlat universiteti.

TA’LIM SOHASIGA SUN’IY INTELLEKTNING SALBIY VA IJOBIY TA’SIRI

Muxtorova Munisaxon Anvarjon qizi,
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annottatsiya

Ushbu maqolada ta’lim sohasiga sun’iy intellektning kirib kelishi natijasida ta’limga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida fikr va mulohazalar olib borilgan. Ta’lim sohasida sun’iy intellektning hozirgi kundagi o‘rni va undan samarali foydalanish orqali erishish mumkin bo‘lgan yutuqlar haqida ham aytib o‘tilgan. Ta’lim

sohasiga sun’iy intellektning ijobiy hamda salbiy ta’sirlari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishda sun’iy intellektning ta’lim tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishining oldini olish to‘g’risida bir qancha taklif va fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, sun’iy intellekt, ta’lim oluvchi, salbiy, ijobiy, o‘quvchi, talaba, ta’lim sohasi, rivojlanish, kamchiliklar, zamonaviy, bilim, ko‘nikma, malaka.

Аннотация

В данной статье рассматриваются мысли и размышления о влиянии внедрения искусственного интеллекта в сферу образования. Также освещается текущее место искусственного интеллекта в образовании и достижения, которые можно получить при его эффективном использовании. Приводится информация о положительном и отрицательном влиянии искусственного интеллекта на сферу образования. Рассматриваются предложения и идеи по предотвращению негативного воздействия искусственного интеллекта на образовательную систему.

Ключевые слова: образование, искусственный интеллект, обучающийся, отрицательный, положительный, ученик, студент, сфера образования, развитие, недостатки, современный, знания, навыки, квалификация.

Abstract

This article discusses thoughts and reflections on the impact of the introduction of artificial intelligence into the field of education. It also highlights the current role of artificial intelligence in education and the achievements that can be attained through its effective use. Information on the positive and negative effects of artificial intelligence on the education sector is provided. Several suggestions and ideas are presented to prevent the negative impact of artificial intelligence on the education system.

Keywords: education, artificial intelligence, learner, negative, positive, student, education sector, development, shortcomings, modern, knowledge, skills, qualification.

Kirish.

Zamon talabiga moslashtirilgan holda ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalardan foylanib ta’lim berish yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu bilan birgalikda raqamlashtirilgan ta’lim tizimida ham sun’iy intellektdan foydalanib kelinmoqda. Ushbu holat ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar singari mamlakatimiz ta’lim tizimida ham ko‘zga tashlanmoqda. Shuningdek sun’iy intellktdan ta’lim tizimida

foydalanishning ham o‘z navbatida yutuq va kamchiliklari mavjud. Bu borada jamiyatimizda turli xil fikrlar yuzaga kelmoqda. Ba’zilar sun’iy intellek ta’lim sohasini rivojlantiradi deb hisoblasa,yan kimdir sun’iy intellekt ta’lim sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb hisoblaydi.

Aslida qaysi bir fikr to‘g’ri sun’iy intellekt ta’lim sohasiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda? Salbiymi yoki ijobiy? Bu borada ko‘plam yurtimiz olimlari va pedagoglari izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, Yo‘ldoshev Shohruhbek Zokirjon o‘g‘li o‘zining “Ta’limda axborot xavfsizligiga sun’iy intellektning ta’siri” nomli ilmiy maqolasida sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi axborot xavfsizligi ko‘rsatayotgan ta’siri haqida izlanish olib borgan. Bu maqolada u sun’iy intellektning ta’lim sohasiga xavfsizlik nuqtai nazardan foydali ekanligi haqida aytib o‘tadi. Bundan tashqari sun’iy intellektning huddi shunday ta’lim sohasiga xavfsizlik taminlama qanday zarar yetkazishi mumkingi haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Shunningdek O‘zbekiston hududida sun’iy intellektdan samarali foydalanish uchun bir nechta amaliy yechimlarni keltirib o‘tadi. Bundan tashqari Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Ozoda Sobirova “Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish” mavzusidagi ilmiy maqolasida suniy intellektni ta’lim sohasiga olib kirish bilan bir qatorda, malakali kadrlar sonini oshirishni ham taklif etadi. U bu maqolad ko‘proq sun’iy intelkktning ijobiy taraflarini yoritib o‘tgan. Bundan tashqari Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o‘g'li va Dilmurodov Zuxriddinlarning “Ta’lim tizimida sun'iy intelektdan foydalanish” mavzusidagi maqolalarida sun’iy intellektning ijobiy va salbiy ta’siri haqida o‘zlarining amaliy tajribalari asosida fikrlarini bildirib o‘tishgan. Bunday tashqari sun’iy intellekt rivojlangan sari kadrlar soni kamayishi mumkinligi haqida ham fikr bildirib o‘tishgan.

Asosiy qism.

Ta’lim sohasida sun’iy intellektning asosiy vazifasi ta’limni rivojlantirish hisoblanadi. Ammo har bir narsaning yutuq va kamchiliklari ham bo‘lgani singari sun’iy intellektning ham o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud. Sun’iy intellekt bu yangi atamning hayotimizga kirib kelganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada bu so‘z har bir sohada o‘zining qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib kelmoqda. Oddiygina so‘z bilan ta’riflaydigan bo‘lsak, sun’iy intellekt *(inglizcha Artificial intellegence)* – kompyuter tizimlarining shu vaqtgacha insonlarga xos bo‘lgan ijodkorlik va intellektual faoliyatni bajarish qobiliyati hisoblanadi. Sun’iy intellekt neyron tarmoqlar, mashinani o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, kognitiv hisob-kitoblar, kompyuterning tasvirni ko‘rishi singari fanning o‘ta murakkab yangi yo‘nalishlarini o‘zida birlashtira oladi. Bu esa o‘z navbatida sun’iy intellektning qanchalik ko‘p vazifalarni bajara olishini ko‘rsatib turibdi.

Sun’iy intellekt orqali va ta’lim sohhasini rivojlantirish anchayin ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Sun’iy intellekt har bir ta’lim sohasida xusuan, oliy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va boshlang’ich ta’lim tizimida jamiyki ta’lim sohasida o‘zining mustahkam o‘rnini egallab olgan. Ta’lim sohasiga sun’iy intellektning ijobiy va salbiy ta’sirlarini ko‘rib chiqamiz.

Sun’iy intellektning ta’lim sohasiga ijobiy ta’siri:

Ta’lim tizimidagi har bir shaxs uchun u o‘qituvchi bo‘lsin yoki o‘quvchi sun’iy intelekt har biri uchun foydali hisoblanadi. Sun’iy intelllektdan ta’lim sohasida nafaqat o‘quvchilarga ta’lim berishda balki, ta’lim tizimidagi o‘qituvchilarning vaqtlarini tejashga va yangi izlanishlar olib borishiga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari sun’iy intellektning ta’lim sohasiga salbiy ta’sirlarini ko‘plab keltirib o‘tish mumkin. Masalan, ta’lim jarayonini tashkil etishda darsni qiziqarli tashkil etish uchun ham sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish mumkin. Darsdan tashqari o‘quvchilarga mavzu yuzasidan yangi ma’lumotlar berishda ham sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning bilim salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari ta’lim tizimini raqamlashtirish jaroyida ta’lim oluvchi shaxslar uchun yangi va eng zamonaviy bilim manbai sifatida ham sun’iy intellektdan foydalanish mumkin. Misol uchun ta’lim oluvchilarga kerak bo‘lgan kitoblar yoki darsliklar soni yetarli bo‘lmagan holatda, elektron darslik va kitoblardan foydalanish mumkin. Bu esa ham moliyaviy jihatdan ham ta’lim oluvchilarni bilim olishlari jihatidan ko‘plab foyda keltirishi mumkin.

Maktab ta’lim tizimida ham sun’iy intellektdan foydalanish orqali ko‘plab ijobiy natijalarga erishish mumkin. Maktab ta’lim tizmida masalan, boshlang’ich ta’lim tizimida o‘quvchilarga darslikda berilgan ma’lumotni amlada ko‘rsatib berish uchun ham sun’iy intellektdan foydalanish mumkin. Masalan, boshlang’ich ta’lim texnologiya darsida yasaladigan topshiriqlarini vidio orqali ko‘rsatiib berish o‘quvchilarning yaxshiroq shunishiga yordam berishi mumkin.

Maktab ta’lim tizimida maktab sharoitida amalga oshib bo‘lmaydiga amaliy darslardagi labaratoriya mashg’ulotlarini amalda ko‘rsatib berish imkoniyati mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda sun’iy intellekt orqali ham ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu usul amalda bajarib ko‘rishga yetmasa ham biroq, hech bo‘lmaganda ko‘z bilan ko‘rish imkonini yaratib bera oladi. Demak, sun’iy intellektni har qanday vaziyatdan chiqib ketish usuli sifatida ham qo‘llash mumkin. Bu bilan ta’lim tizimidagi kamchiliklarni, bo‘shliqlarni sun’iy intellekt yordamida to‘ldirish mumkin.

Shuningdek sinfdan tashqari ekskursiya mashg’ulotlari ayrim sabablarga ko‘ra amalga oshirilmagan holatda o‘quvchilarni onlayn ekskursiyaga taklif qilish va huddi hayotdagi kabi ko‘rishlari mumkin.

Har bir narsaning yutuq va kamchiliklari mavjud. Yuqorida sun’iy intellektning ta’lim sohasiga bo‘lgan ijobiy ta’sirlarini keltirib o‘tdildi. Sun’iy intellektning bu kabi ijobiy tasirlarini ko‘plab keltirib o‘tish mumkin. Shunday bo‘lsada sun’iy intellekting ta’lim sohasiga salbiy ta’sirlarini ham ko‘rib chiqamiz.

Sun’iy intellektning ta’lim sohasiga salbiy ta’siri:

Sun’iy intellekt barcha vazifalarni bir vaqtning o‘zida insonlarga qaraganda tezroq bajara oladi va ishdagi samaradorlik darajasini oshirishga ham yordam beradi. Shuning uchun ham kelgusida ta’lim tizimida kadrlar soni kamayishiga sun’iy intellekt o‘qituvchilar o‘rninin egallshi ham mumkin. Sun’iy intellektni inson yaratganiga qaramay, u insonlarga qaraganda bir vaqtning o‘zida bir qancha yumushlarni bajara oladi va ba’zi bir kadrlarga qaraganda ta’lim oluvchilar uchun yaxshigina ta’lim beruvchiga aylanishi mumkin. Buning natijasida esa, o‘quvchilar, talbalar va jamiiyki ta’lim oluvchi shaxslar sun;iy ravishda bilim olishga o‘tadilar. Bu bir tarafdan o‘quvchilarning bilim slohiyati pasayishiga yoki sog’lig’ida bir qancha muammolarga duch kelishiga olib kelishi mumkin.

Sun’iy intellekt ta’lim tizimidagi imtihon jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchilar test ishlash yoki berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o‘zlari uchun kerakli ma’lumotlarni izlab topib, o‘rganishning o‘rniga sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib, (masalan, ChatGPT) tayyor bajarilgan ishlarni o‘zlari tayyorlagandek topshirishlari mumkin. Bu esa o‘quvchi, talab ava ta’lim oluvchi har bir shaxsga salbiy ta’sir ko‘rsatishimumkin. Buning natijasida ta’lim jarayonida ta’limoluvchilarning bilim salohiyati pasayishiga va ularning dangasa bo‘lib qolishlariga olib kelishi mumkin.

Ta’lim saohasida sun’iy intellektdan haddan ortiq ko‘p foydalanish o‘quvchi va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini birmuncha pasaytirishi mumkin. Bu esa ta’lim sifatini tushib ketishiga sabab bo‘ladi. Chunki, ta’lim sohasida faqatgina yuksak darajada bilim berish emas, balki bilim olish ham buhim ro‘l o‘ynaydi.

Elektron darsliklarni hamma uchun bir hil ishlab chqiqilishi buda bilim oluvchi shaxslarning bilim salohiyatiga mos bo‘lmagan ma’lumotlarga asoslangan holda darsliklarning sun’iy intellekt tomonida ishlab chiqilishi bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumin. Bunday vaziyatda o‘quvchilarni shaxsiy husisayatalari hisobga olinmaydi va o‘quvchining bilim olishi qiyinlashishi yoki ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoqining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ta’lim tizmida sun’iy intellektdan ma’lumotlarni saqlashd ahma foydalaniladi. Bu esa ta’lim sohasidagi shaxsiy va huquiy ma’lumotlarni tarqalib

ketish yoki kiber hujumlari orqali shaxsiy ma’lumotlarning tarqalib ketishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ham kiber hujumlari orqali bir nechta muammolar ko‘zga tashlanib kelmoqda. Shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish va ularni o‘zgartirish orqali ta’lim sohasidagi adolatli tizimni buzish mumkin.

Malakalikadrlarning yetishmasligi natijasida ba’zi bir o‘quvchilarning ma’lumotlariga, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va baholash tizimiga ham sun’iy intellektdagi ma’lumotlar orqali o‘zgartirish kiritish yoki ma’lumotlarni o‘chib ketishi ham ta’lim sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sun’iy intellektdan foydalana olmaydigan yoki buning uchun sharoiti to‘g’ri kelmaydigan o‘quvchilar uchun ham sun’iy intellekt salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan biror bir topshiriq o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan berildi. O‘quvchilarning ba’zilari sun’iy intellektdan foydalangan holda topshiriqni bajarib keldi va baholandi. Ammo bundan foydalanishni bilmaydigan o‘quvchi topshiriqni bajara olmadi va baholanmadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga baho qo‘ya olmasligi mumkin. Buning natijasida o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi pasayishi va unda bo‘shliq paydo bo‘lishi mumkin.

Bu kabi muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun sun’iy intellekdan foydalanishdan avval ta’lim o‘quvchilar va o‘qituvchilarga sun’iy intellekt haqida to‘liq ma’lumot berish va undan foydalanish usullari haqida to‘liq ma’lumot berish kerak. Buning uchun esa malakali pedagoglar va kadrlarni izlab toppish va faqat sun’iy intellektlardan emas, balki kitoblardan ma’lumotlarni izlab topish anchagina bilim salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekdan foydalanishning sabiy va ijobiy tamonlarini ko‘rib chiqildi. Har bir sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdan tashqari sun’iy intellekt vositalaridan ham foydalanishda ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Chunki sun’iy intellekt o‘zida juda ham funksiyalarga ega bo‘lib, bular orqali o‘zi kirib brogan sohani rivojlantirishi ham yoki rivojlanib borayotgan sohani rivojlanishini to‘xtatib uni yo‘q qilib tashlashi ham mumkin. Bu bilan shuni aytish mumkinki, sun’iy intellekt ta’lim tizimiga bir vaqtni o‘zida ham salbi, ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Qanday ta’sir ko‘rsatishi esa, ta’lim sohasidagi har bir shaxsga bog’liq hisoblanadi. Shunday ekan, ta’lim sohasiga sun’iy intellektning salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, ta’lim sohasifagi shaxslarning sun’iy intellektdan qanday va qay maqsadda foydlanishiga bog’liq. Shuning uchun ham har bir ta’lim ishtirokchisi va jamiiyki insoniyat har bir sun’iy intellekt vositasidan to‘g’ri va samarali foydalansa, sun’iy intellektni tasiri ham shunga monand holda salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamamtov Bekzodjon Muhammad o‘g’li va Nargiza Turdaliyeva “Raqamli avlod tarbiyasida sun’iy intellkening o‘rni”.

2. Yo‘ldoshev Shohruhbek Zokirjon o‘g’li “Ta’limda axborot xavfsizligiga sun’iy intellektning ta’siri”.

3. Salohiddinov Muhammadumar Otabek o‘g’li “Sun’iy intellektning jamiyatga ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta’siri”.

4. Olimova Feruza Karimjonovna “Ta’lim-tarbiya jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning afvzalliklari va ahamiyati”.

5. Yo‘ldosheva Gulhayo Valiqulovna “Oliy ta’lim muassalarida sun’iy intellekt – uning ijobiy va salbiy jihatlari”.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI

Jo‘rayev Umid Raximjonovich,
“Time 180” NTM o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy asar tili va uslubi masalalari, badiiy nutq uslubi, asar tiliga munosabat, badiiy asarda syujetning yaratilishi, badiiy ifoda vositalari, asar tarkibidagi so’zlar hamda iboralar tasviri haqida bayon qilingan. Shu bilan bir qatorda, badiiy asar tilini ifodalashning o’ziga xos xususiyatlari hamda badiiy matnda tashqi tuyg’u va tasvirning ifodalanishi namoyon etilgan. Badiiy asar tlini o’rganishda muallif nutqi va personajlar nutqining o’zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolari tahlil qilingan. Kalit so’zlar: badiiy asar tili, badiiy nutq uslubi, janr va uslub, syujet.

LANGUAGE OF LITERATURE AND ARTISTIC SPEECH IN LITERATURE

ABSTRACT

The article describes the language and style of a work of literature, the style of artistic speech, attitude to language, creation of a plot in a work of art, means of artistic expression, the description of words and phrases in a work. At the same time, the features of the expression of the language of a work, as well as the expression of external feelings and images in a literary text are shown. The study of the language of the work analyzes the interrelationships between the author's

speech and the speech of the characters, the central problems of the style of artistic speech.

Keywords: the language of fiction, the style of artistic speech, the genre and style, the plot

KIRISH

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o’rganish uzoq tarixga ega. Biroq unga jiddiy e’tibor XX asrning 30-yillarida ancha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshinosligida, keyinroq o’zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko’pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Akademik V.Vinogradov: “Badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish ob’yekti bo’lishi lozim”,-deb ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Umuman, adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma’noda badiiy asar tilining ta’sirchanligi, ohangdorligi masalasini o’rganish adabiyotshunioslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan shug’ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Banedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo’lganidek, badiiy asar tili bilan bog’liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o’z nutqiy faoliyati mahsulidir. Badiiy asarda til o’zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to’la saqlagan holda o’zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o’zaro munosabatda bo’lsa-da, farqli tomonlarga ham egadir.2 Til badiiy - adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o’ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o’ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so’zning shakl hamda ma’no munosabatiga ko’ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkiyalarga egadir. Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o’rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko’nikmalarini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g’oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o’rni va ularni o’rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma’lumotlar beradi. Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini

tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo’lib, compositio ijod, asar degan ma’noga ega. Kompozitsia har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo’lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiylikni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko’p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o’sish) kompozitsiasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o’z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Syujet (fransuzcha - sujet predmet, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo`ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so’zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o’xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. So’zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to’g’ri anglash va ularning estetik qimmatini haqqoniy izohlash maqsadida “Badiiy asar tili va uslubi masalalari” tanlanma fani oliy o’quv yurtlari o’zbek filologiyasi fakulteti o’quv dasturiga kiritilgan.3 Epistolyar adabiyotda so’z va gaplar obraz, manzara yaratishning o’ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so’zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko’chma ma’nodagi so’zlarning qo’llanilishidan iborat matn bo’lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o’ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko’rsatishdagi roli hisoblanadi . Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o’zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir. Ayniqsa, badiiy asar tilini o’rganishda va uni tahlil qilishda yozuvchining yoki maktub egasining so’zga munosabati, so’z tanlash, so’z qo’llashdagi mahorati muhim ekanligini, til vositalarini, so’zlarni ishlatishda uning o’ziga xos uslubi, mahorati namoyon bo’lishini akademik V.Vinogradov “Badiiy asar tilini tahlil qilish asar goyasi bilan bog’liq hissiy mazmunni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko’rsatib berishdir”,–deyar ekan, u to’la haqlidir.

Badiiy asarda syujetning yaratilishini g’oyaviy mazmun boshqaradi, g’oyaviy mazmunning talabiga uyg’un holda xarakterlar namoyon bo’ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o’z navbatida asar g’oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi. Syujet obrazlarning o’zaro aloqalari, ular o’rtasidan qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar ekan, demak, u hayot ziddiyatlarini ham ixtiro qiladi, umumlashtiradi, kashf etadi. hayotiy ziddiyatlar asarga ifoda etilgan g’oyalar, tasvirlangan xarakterlar, kayfiyatlar kurashi tarzida ko’chadi va u konflikt deb yuritiladi. Badiiy

asar tili- obrazli til. Yozuvchi o’z asarida bir qancha yo’llar bilan tilning obrazligiga, tasiriyligiga erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tasviriy vositalarini, maxsus leksik pesurslarni, poetik figuralarni, so’z o’yinlarini mohirona qo’llash yo’li bilan asar tilining obrazliligiga erishishdir. Badiiy asar tilining poeyikligi, obrazliligi, tasviriyligi asar g’oyasini, shuningdek qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi.5 Badiiy asar tili ko’plab o’xshatish va tasviriy vositalarga boy bo’ladi va his tuyg’uga to’la bo’ladi, ilmiy asar tili esa teskarisi. Unda aytilayotgan fikr jo’n, sodda, hech qanday odamni to’lqinlantiradigan so’z tasviri ishlatilmaydi. Badiiy asar tilining asosiy maqsadi go’zallik qonuniyatlariga muvofiq dunyoni rivojlantirish, badiiy asar muallifining ham, o’quvchining ham estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy tasvirlar yordamida o’quvchiga estetik ta’sir ko’rsatishdir. Umuman badiiy adabiyot tilining xususiyatlari bir necha omillar bilan belgilanadi. U keng metafora bilan ajralib turadi, deyarli barcha darajadagi til birliklarining obrazliligi, barcha turdagi sinonimlardan foydalanish, polememiya, so’z boyligining turli uslublari kuzatiladi.

XULOSA

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarning o’zi ham ko’rsatib turibtiki, badiiy asar tiliga munosabat, uni jiddiy o’rganish yoki epistolyar texnikaning badiiy xususiyatlarini tahlil etish olimlarning doim e’tiborida bo’lgan. Chunki badiiy adabiyotni, uning til xususiyatlarini o’rganmay turib asar g’oyasi va mazmunini yaxlit holda chuqur idrok etish mumkin emas. Badiiy asar tilini o’rganish va tahlil qilish rus va o’zbek tilshunosligida, shu jumladan, jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta’kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4

2. Yo'ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.

3. Doniyorov X, Yo’ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.

4. Виноградов В. О теории художественной речи. –М., 1971. –С. 105-211.

ASHURALI ZOHIRIY PUBLISTISTIKASINING YETAKCHI MAVZULARI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti mutaxassisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvari va publitsist Ashurali Zohiriyning publitsistik merosida yetakchi o‘rin tutgan mavzular tahlil qilinadi. Muallifning matbuotdagi chiqishlarida milliy ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ona tili va imlo masalalari, milliy o‘zlikni anglash, jamiyat taraqqiyoti hamda yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq g‘oyalar yoritilgan. Shuningdek, Zohiriyning publitsistik faoliyati orqali xalq ongini uyg‘otish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan qarashlari ochib beriladi. Maqolada uning publitsistik asarlari pedagogik va ma’rifiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, bugungi ta’lim va tarbiya jarayonlari uchun ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Ashurali Zohiriy, publitsistika, jadidchilik, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ona tili, imlo, milliy o‘zlik, matbuot, pedagogik qarashlar.

Abstract. This article analyzes the leading themes reflected in the journalistic heritage of the Jadid enlightener and publicist Ashurali Zohiriy. Particular attention is paid to the ideas of national enlightenment, education and upbringing, native language and orthography, national identity, social development, and youth education presented in his journalistic writings. The study also reveals Zohiriy’s views aimed at raising public awareness and promoting the development of science and culture through his publicistic activities. His journalistic works are examined from pedagogical and educational perspectives, and their significance for contemporary educational and upbringing processes is substantiated.

Keywords: Ashurali Zohiriy, journalism, Jadidism, enlightenment, education and upbringing, native language, orthography, national identity, press, pedagogical views.

Ashurali Zohiriy publististikasida millatparvarlik va o‘zbek tili taqdiri masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Jumladan “Farg‘ona’’ gazetasining 1923-yildagi 7 ta sonida Turkistondagi vaqf ishlari, suv inshootlarining holati, maorif va xalq ta’limining ayanchli ahvoli haqida maqolalar e’lon qiladi. Xususan, “Farg‘ona’’ gazetasining 1923-yil 16-noyabrdagi 119-sonida Zohiriy “Biznikilar qachon vazifasini anglarlar’’ nomli maqolasini e’lon qiladi. Ushbu maqola gazetaning 1-sahifasida chop etiladi.

“Olti yilliq inqilob davri bizga ko‘p narsalarni o‘rgatdi, ko‘p tajribalar berdi, ko‘p kamchiliklarimizni ochib berib, u kamchiliklarni to‘ldirmoqqa yo‘llar ko‘rsatdi.

Lekin bizga nima sababdandur hech tebranmaymiz, kamchiliklarni to‘ldirmoqqa qimirlamaymiz. Borg‘on sari ilmiy madaniy ishlarimiz ora yo‘lda qolmoqda. Xalq uchun xudoyi (bepul) ishlash, kishi ishiga saratonda qo‘l sovutubdur, degandek hech kimning hayol va dimog‘ida yo‘q bir ikki marotaba nashri maorif jamiyati tuzuldi shu kuyicha qolib ketdi. Maskov, Peterburg, Toshkanddagi talabalardan “yordam” deb o‘tinchlar, murojaatnomalar kelmakda, ularning oh va dodini eshitib biror narsa yuborish uyoqda tursin, ko‘nglini ko‘tarish tuyg‘udek xat yozadurg‘on bir maxluq yo‘q.

Farg‘onada birdan bir chiqib turgan “Farg‘ona” gazetasiga ko‘zga ko‘rinib turgan ko‘p kishilarni vakil, muxbir tayin qildiq. Shundan ba’zi birlari vazifalarini o‘taganlari holda boshqalarining parvoyilariga ham kelmaydi. Mahallalarda mazkur turli turli voqea va hodisalar bo‘lib tursa ham “qo‘l sansabitka ichida, bosh bo‘lsa telpak ostida” degandek, jimjitgina turadur.

Bilmadik bu yurgan kishilar butun muassasalarda stol orqasida oldiga davot qalam qo‘yib o‘tirgan “musulmon ishchilari” olti soat ish vaqtini bitirganlaridan keyin nima qilar ekanlar.

Bizning xox mas’ul va g‘ayri mas’ul ishchilarimiz vax ox o‘z ishida yurgan ongligina yigitlarimiz barisi barisi o‘zi bilan ovora balki to‘g‘risini aytganda: ovoragina emas hissiz shu’ursizdurlar, xalq foydasi xalq xizmati va unga yordam degan gapni bilmaydur.

Bu nimadan?

Bu muhitning ta’siridan, ibtidoiy tarbiyaning yo‘qlig‘i, insoniyatparvarlik oliyjanoblikning yo‘qligidandur.

Biz mutlaqan bu odatimizni yuqotishimiz kerak yo‘q esa, ilmiy va madaniy ishlarimiz hech vaqtda ilgari ketmas. Yana sarsonlik, yana yillarcha ezilish, boshqalar ta’siri ostida yanchilish turgan gap.

Buni endi har nafas o‘ylab, shunga qarab harakat, shunga qarab talpinish kerak. Agar har kim o‘zining mahkamasidagi ishni, xususiy kishilar o‘zining ishinigina to‘g‘rilab yuraversa va boshqa ishga aralashmasa umumiy xalq jamoat ishlarini kim to‘g‘rilaydur?

Holbuki bundoq umumiy ishlarni har bir umumiy xalqni vatanini suygan kishi, o‘z ishidan muqaddam ko‘rish va undan ilgari qilishi lozimdur. Lekin bizning mas’ul ishchilarimiz xususan Qo‘qond ishchilarimizning (faqat “Farg‘ona” gazetasidan emas) gazeta olamidan hech xabarlari va hech aloqalari yo‘q desak

mumkin. Gazetani ta’qib etish, loqal shu gazeta matbuot vositasi bilanda ma’lumotlarining kengayishi aqllarin o‘sdirmoqni tilamaydurlar.

Gazetaning 100 ta sonida o‘rtoq Segizboyef tarafidan bir necha ma’lum kishilar gazeta mushtariyligiga chiqarilg‘on edi. Endi ikkiyarim oylar bo‘ldi. O‘sha kishilardan hech birisi idoraga qadam qo‘yg‘oni yo‘q.

Mana, boshqa ishlarga ham qarashlari shundoq! Endi, biznikilarga nima desa bo‘lur?’’[89]

Yuqorida keltirilgan maqolada Ashurali Zohiriyning millat va yurt qayg‘usi o‘z ifodasini topgan.

Beparvolik, loqaydlik tufayli jaholat botqog‘iga botgan Turkistonni faqat va faqat ilm, ma’rifat, mehnatkashlik ushbu botqoqdan chiqarishini aytib o‘tadi. Zamondoshlarining loqaydligi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashmasligi Ashurali Zohiriy dilini abgor qiladi. Agar har bir inson, har bir turkistonlik o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashsa, o‘z ishini faqatgina o‘zi uchun emas millat uchun, xalq uchun qilsagina jamiyatda o‘zgarish, o‘sish kuzatiladi deb aytadi. 1917-yildan boshlab 1923-yil gacha bo‘lgan 6 yillik davr bizga ko‘p narsalarni o‘rgatdi deb aytadi. Bu o‘rinda Zohiriy faqatgina jamiyatdagi agor holatinigina emas, balki 6 yillik inqilob davri deb aytganda sobiq sovet tuzimining xalqqa nisbatan adolatsiz munosabatiga ham ishora qilib o‘tadi.

“Farg‘ona’’ gazetasining 1923-yildagi 10-mart 63-sonida Ashurali Zohiriyning “Turkistonda suv ishlari’’ nomli maqolasi chop etiladi. Ma’lumki Turkiston o‘lkasi aholisi qadimdan dehqonchilik, ziroatchilik hamda chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Bu o‘lkaning hayotida suv, suv inshootlari muhim o’rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xonliklarning o‘zaro ichki urushlari hamda boshboshdoqliklar natijasida sug‘orish inshootlari abgor ahvolga tushdi. Buning natijasida xalqning turmush sharoiti yanada og‘irlashib boradi. Ushbu manzaralarni o‘t ko‘zi bilan ko‘rgan Ashurali Zohiriy xalqning og‘ir hayotidan qayg‘uradi va hukumat vakillarini Turkistondagi suv inshootlarini tuzatishga chaqiradi.

“Turkistonning o‘lgan xo‘jalig‘ini tuzatmoq uchun “yosh bolag‘a sut” degan yeriga suv lozimdir. Turkistonning bosmachilig‘i bitganda, ish … yetarlik bo‘lg‘onda, qisqasi: dehqonchiliq uchun kerak bo‘lg‘on barcha sharoit bo‘lg‘anda va qiling‘onda suv bo‘lmasa barisi bekor ketadir.

Butun Russiyani to‘ydirib, ozig‘i yevrupo davlatlariga ham oziq berib butun Russiya tuprog‘i 21-yilda ochliqqa uchrab odam …. chiqdi.

U yerlar osmon suvi yomg‘ir bilan sug‘oriladirg‘on joylarda edi. Ariq suvi bilan sug‘oriladirgan Turkiston (Farg‘ona)da ham 17-yilda suvning bo‘lmaganidan

[89] Ashurali Zohiriy. Biznikilar vazifasini qachon anglarlar. Farg‘ona, 1923.

ochliqqa uchradi. Bu ochliqlar ilgarilari ham bo‘lib, hammasining sababi: suvsizliq, suv yeratlik darajada bo‘lmaganligidir.

Shuning uchun: “yer-suv” deb, so‘zi birga keltiriladir. Turkistonda yer sug‘orish ishi, Russiya arig‘i bilan. Yomg‘ir suvi bilan sug‘oriladirgan yerlari oz edi ham paxta ham meva hosiloti, albatta ariq suvi bo‘lishi, ham u mo‘l bo‘lishi kerak.

Turkistonning ko‘p yeri ariq suvi bilan sug‘oriladirgan bo‘lsa ham, ba’zi bir muzofotlar orasida katta farq bor. Aytaylik: Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona muzofotlarini.

